



ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

**ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI**



**«O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK:
TILLAR TA‘LIMI VA TADQIQI»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2023

“O‘zbekistonda zamonaviy tilshunoslik: tillar ta’limi va tadqiqi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2023. – 586 bet.

To‘plamda 2023-yil 25-oktabrda Oriental universitetida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda zamonaviy tilshunoslik: tillar ta’limi va tadqiqi” deb nomlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan tilshunos olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma’ruzalari jamlangan.

Tahrir hay’ati:

M.Axmedov	Oriental universiteti rektori, iqtisod fanlari nomzodi
M. Nasirova	Oriental universiteti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori
R. Ismoilov	Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani
S.Rustamiy	Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchi:

N. Ahmedova	Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
--------------------	--

Taqrizchilar:

N. Saydirahimova	O‘zbekiston xalqari islom akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Sh. Hasanova	Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

To‘plam Oriental universiteti kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2023

1-SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

ONOMASIOLOGIK SATHDA ATOQLI VA TURDOSH OTLILIK MASALASI

*Mo‘minjon To‘rayevich Turdibekov,
Renessans ta’lim universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. Onomastika tilshunoslikning alohida sathi sifatida o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab qarala boshlangan bo‘lsa, o‘tgan davr mobaynida bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy ishlar qilindi. Shunday bo‘lsada bu yo‘nalishda qilingan ishlarning ko‘pida ba’zi masalalarda yakdillik ko‘rinmaydi. Bu maqolada onomasialogik sathda atoqli ot, atoqli nom, turdosh ot masalasidagi fikrlarga oydinlik kiritiladi.

Kalit so‘zlar: Onomasialogik sath, onomasialogik jarayon, onomastika, atoqli ot, turdosh ot, real nomlar, avsonaviy nomlar, onomastk birlik.

Inson tashqi olam narsa-hodisalarini tanib, o‘rganib, ularning ayrim ichki va tashqi xususiyatlarini o‘zida idrok etib, ana shu asosda ularga lisoniy huquq – shakl beradi. Bunda borliq narsa-hodisalari qisman his etiladi. Chunki inson har bir hodisa va uning barcha xususiyatlarini har tomonlama, birdaniga seza olish imkoniyatiga ega emas. Narsa-hodisalar va ularga xos barcha xususiyatlarini to‘lalgicha, mukammal idrok etish insoniyat tafakkuri taraqqiyotining bir necha davrlarini o‘z ichiga oladi [1.23]. Ma’lumki onomasiologik sathda ilmiy fikrlash ma’nodan shakl tomon harakat qiladi, ongda paydo bo‘lgan tushunchani qanday atash lozimligi haqida gap boradi. Tildagi mavjud

soʻz va atamalarning paydo boʻlishidagi dastlabki etap onomasiologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonga hamma vaqt murojaat qilinadi. Ayniqsa, xalqlarning oʻzligini anglashi bilan bogʻliq hozirgi sharoitda joylarni nomilliy, gʻayritabiiy atash natijasida yuzaga kelgan baʼzi toponimlarni, ayrim tushunchalarning nomini qayta nomlash, shuningdek, tugʻilajak farzandlarga milliy-anʼanaviy nom tanlashda, bunga koʻproq ehtiyoj sezilmoqda. Shu bois ushbu kunlarda onomasiologik tadqiqotlar katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega sanaladi. Onomasiologiyaning onomastika deb ataluvchi tarmogʻi hozirgi paytda tilshunoslikning leksikologiya qamrovidagi alohida tarmogʻi sifatida qaralayotganligi muhim ilmiy nazariy ahamiyatga ega. Onomastika leksikologiyaning boʻlimlaridan biri boʻlib, nom berish sanʼati demakdir. Til fanining hozirgi davr nuqtai nazaridan qaraganda, bu jabha tilshunoslikning mustaqil sohasi maqomiga ega. Bu boʻlimda onimlar termini bilan ham ataluvchi atoqli otlar tizimi oʻrganiladi. Oʻtgan asrning 60-70-yillariga qadar onomastika termini kishi ismlari tizimi maʼnosida ishlatilib kelindi. Onomastika oʻziga xos geteregon sistema xarakterida bir qator gomogen tagsistemalarga ega. Xususan, antroponimika, toponimika, etnonimika, zoonimika va boshqalar. Bulardan tashqari, onomastika, tabiat va jamiyatdagi real tushunchalarning atoqli otlarini bildiruvchi real nomlarni ham, noreal xarakterdagi hayotiy tushunchalarning atoqli nomlarini –mifonimlarni ham oʻz ichiga oladi. Onomastika doirasida oʻrganiluvchi atoqli nomlar bebaho pragmatik qulaylikka ega [2.190]. Onomastika tilshunoslikning leksikologiya qamrovidagi maxsus sohasi sifatida shakl topayotganligi yuqorida ham eslatilgan edi. Mustaqillik, alohidalik kasb etish huquqini qoʻlga kiritayotgan har bir lingvistik soha, sathning oʻz nazariy masalalari boʻladi. Masalaga ayni shu jihat asosida yondashilganda, onomastikaning ham, uning mavqeyi va maqomini belgilovchi oʻz nazriy masalalari mavjud. Ana shu masalalardan biri atoqli nom va

lugʻat tarkibining asosiy birligi-odatdagi soʻz, turdosh nomlar munosabatidir. Onomastika atoqli nomlarni oʻrganadi. Onomastik birlik sanaluvchi atoqli nomlarning tiplari turli xil. Unda maʼnosi shu til egalariga tushunarli oʻta oddiy soʻzlardan tortib, maʼnosi zukko tilshunoslar tomonidan ham aniqlanishi qiyin boʻlgan, nomning qaysi tilga mansubligi ham nomaʼlum boʻlgan eng murakkab onimgacha mujassamlashgan. Har bir tilning barcha taraqqiyot bosqichlarida subyekt yoxud obyektning nomlanish jarayonida unga baʼzan zamonaviy, baʼzan allaqachon tarix xazinasiga aylangan, baʼzan avsonaviy shaxslarning nomlari tanlanadi. Ana shu narsa onomastikaning asosiy birligi sanaluvchi onimlar tarkibining har xilliligiga sabab boʻladi [3.45]. Atoqli ot atoqli nom tushunchasidan farq qiladi.

Atoqli nomlar atoqli ot boʻlmasligi, ular turdosh otlarga mansub boʻlishi ham mumkin. Xususan, toponim, antroponim, gidronim, oykonim, oronim va urbonimlar atoqli nom sifatida atoqli otlarga ham mansub boʻlsada, realonimlarning ayrimlarini, ayniqsa, etnonimlarni atoqli nom degan holda, atoqli otlarga kiritib boʻlmaydi. Atoqli nomlar onomastikaning asosiy lugʻaviy birligi sanaladi. Bu barcha tomonidan mushtarak eʼtirof etilgan. Turdosh nomlar esa til umum leksikasining lugʻaviy birligidir. Turdosh nomlarning bu xususiyati ham mushtarak eʼtirof etilgan. Har bir (istalgan) til soʻzlarining atoqli va turdosh kabi guruhlanishi shu til leksikasining asosiy boʻlinishlaridan biridir. Har ikki guruh soʻzlarning oʻz maqsadi va vazifasi boʻladi. Turdosh otlar bir turkum nomlarni uyushtiradi. Bir turkumga uyushgan nomlar umumiy xususiyatlar asosida tutashadi. Bunday nomlar obyektiv borliq narsa-hodisalarini umumlashgan holda tasavvur ettiradi. Atoqli nomlar obyektiv borliqning maʼlum bir toʻdasiga mansub ayrim narsa-predmetlarni, obyektlarni yakka, individual, tarzda nomlash uchun xizmat qiladi. Millning eʼtirof etishicha, atoqli otlar nokonnotativdir.

Ular narsa-predmetlarni atasa-da, ularning biror-bir xususiyatini o‘zida mujassamlashtirmaydi. Atoqli nomlar alohida, yakka-yolg‘iz predmetlar haqidagi tushunchaga aloqador bo‘lib, ular haqida biror bir tasdiq yoxud inkor ma‘lumot bermaydi. Shuning uchun bunday otlar tarjima qilinmaydi, obrazli iboralar yordamida ustama nom olmaydi. Millning ko‘rsatishicha, atoqli nomlar uylarga bo‘r bilan qo‘yiladigan belgilarga o‘xshaydi. Bunday belgilar ma‘lum bir maqsadni ko‘zda tutadi, lekin ma‘noga ega bo‘lmaydi [3.190]. Atoqli nomlardan ko‘zda tutiladigan maqsad faqat denotatni ko‘rsatishdir. Mantiqan olganda, yakka-yolg‘iz obyektlar bo‘lmasa, nutqda ularni ifoda qiluvchi atoqli nomlar ham bo‘lmaydi. Atoqli otlardan farqli o‘laroq, turdosh ot orqali nomlangan obyekt noaniq va cheklanmaydi. Atoqli ot bilan nomlangan obyekt esa hamma vaqt aniq bo‘ladi va boshqalaridan qat’iy cheklanadi.

Atoqli nom bilan odatdagi so‘zning, ya’ni, turdosh nomning o‘zaro munosabati, ularning farqlanish o‘lchovlari masalasida fanda bir xillik yo‘q. Buni rus tilshunosligidagi ba’zi dalillar ham tasdiqlaydi. Masalan, V.D.Bondaletovning 1983 yili e‘lon qilingan “Rus onomastikasi” monografiyasida atoqli va turdosh nomlarning farqi masalasida har xilliklar mufassal aytib o‘tilgan. Biz o‘sha asarda zikrini topgan uch yirik rus nomshunoslarning fikrini keltirishni va shu bilan ayni masalaga bo‘lgan munosabatlarning har xilliligiga urg‘u berib o‘tishni lozim topamiz. Rus onomasiologi A. A. Beletskaya atoqli va turdosh otlarning farqini ularning vazifasidagi farqlar bilan bog‘laydi. E’tirof etilishicha, atoqli nomlar alohida-alohida hodisalarning nomi sifatida individuallashtiruvchilik vazifasini bajaradi: turdosh so‘zlar esa klassifikatsiyalovchilik vazifasini bajaradi. Ularning birinchisini bir sinf, bir to‘dadagi ayrim obyekt hodisalarini shu to‘da, shu sinfdagi u bilan bir xil bo‘lgan boshqa obyekt – hodisadan ajratib tursa, ikkinchisi bir hodisa va obyektini shu bilan jinsdosh boshqa obyekt yoxud hodisa bilan birlashtirib, qo‘shib turadi [4.17].

Rus nomshunoslaridan boshqa biri – A.V.Superanskaya atoqli nomlarni, ularning uch belgi-xususiyati asosida turdosh nomlardan farqlamoqchi bo‘ladi. Olimaning ko‘rsatishicha, atoqli nomlarda turdosh so‘zlar uchun quyidagi uch belgi mavjud.

1) atoqli nomlar to‘da, guruhlar uchun emas, balki ularning shu to‘da, shu guruhga mansub alohida biri uchun beriladi. Atoqli nom olgan narsa-obyektda ayni ana shu narsa-obyekt mansub bo‘lgan guruh, to‘dadagi boshqa narsa-obyektlarga xos xususiyatlar bo‘lmaydi;

2) atoqli nom olgan narsa, hodisa doimo aniq chegaralangan, ajratilgan bo‘ladi;

3) atoqli nom tushunchaga ega bo‘lmaydi, biror-bir tushuncha bilan bog‘lanmaydi, u til sathiga xos aniq va muayyan bir konnotatsiyaga ega bo‘lmaydi. Olimaning xulosa fikri bo‘yicha “atoqli nom tushuncha bilan bog‘lanishdan holi bo‘ladi. U yakka tavsifdagi konkret obyekt bilan zich va mustahkam aloqada bo‘ladi [5.8]

V.A.Nikonov atoqli nomni turdosh nomdan yana boshqa xususiyat asosida farqlaydi. U atoqli nomlarga “ijtimoiylik tamg‘asi”ni bosib, ana shu asosda ularni turdosh otlardan ajratmoqchi bo‘ladi [6.12].

Polyak tilshunosi E.Grodzinskiy 1973 yili nashr qildirgan “Atoqli nomlarning umumiy nazariyasi ocherki” nomli monografiyasida onomastik birliklarning turdosh nomlarga xos: 1) bir designatli; 2) ko‘p designatli; 3) bo‘sh(puch) designatli kabi guruhlari haqida fikr yuritadi. Bu olim ham atoqli nomning ma‘lum bir konkret tushunchalar bilan bevosita bog‘lana olmasligini e‘tirof etadi.

Onomastikaning birligi sanaluvchi atoqli nom bilan odatdagi so‘z o‘rtasidagi yana bir farq mavjud: atoqli nom hamma vaqt ot so‘z turkumiga mansub bo‘ladi, bu hamma onomastik birlik – atoqli nom uchun xos bo‘lgan xususiyatdir. Onomastik birlik sanalmaydigan odatdagi oddiy so‘zlar esa ot turkumiga mansub bo‘lishi yoki bo‘lmasligi ham mumkin. Lekin muhimi shundaki, atoqli nom –

onomastik birliklarning vujudga kelishida turdosh nomlar baza, asos vazifasini o‘taydi. Negaki barcha atoqli nomlar turdosh otlar zamin materialida asosida vujudga kelgan. Nomlarning atoqlashishuvi davr jihatidan keyingi hodisadir. Atoqli nomlarning ot turkumiga mansubligini yana bir boshqa jihat ham asoslaydi: ot bo‘lmagan boshqa turkumga xos so‘zlar ham onomastik birlikka aylanganda, u qaysi so‘z turkumiga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, otga ko‘chadi. Masalan, sotib oldi (fe’l) – Sotvoldi (ot), o‘tkir (sifat) – O‘tkir (ot), go‘zal (sifat) – Go‘zal (ot), sakson (son) – Sakson (ot) va hokazolar. Ayni o‘rinda onomastik birlik hamma vaqt ham atoqli otga kiradimi degan muammoga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi. Ba‘zan onomastik birliklar turdosh ot tavsifida ham bo‘la oladi. Masalan, o‘zbek, tojik, rus, qirg‘iz, qozoq etnonimlari onomastik birlik, lekin ular atoqli ot emas. Shu bois atoqli ot va atoqli nom atamalari o‘zaro farqlanadi. Atoqli nom onomastikaning birligidir. Atoqli otlar esa bosh harflar bilan yoziluvchi onomastik birlik hisoblanadi. Atoqli otlar keng doiradagi tushuncha sanaladi: ular kichik harf bilan yoziluvchi turdosh otlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda yana bir narsani e‘tirof etish zarurki, “bebaho pragmatik qulaylikka ega bo‘lgan” (Dj. Sirl) atoqli otlar turdosh otlar zaminida vujudga kelganidek, atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tish hollari ham mavjud:

Denotatning ayrim belgi-hususiyatlari orasidagi aloqalar mushtarak va barqaror bo‘lib qolgan taqdirda, atoqli nomlar turdosh nomlarga aylanadi, ya’ni atoqli ot unga taalluqli bo‘lgan barcha obyektlarni o‘zida mujassam etgan umumlashgan tushunchaga mansublik xususiyatini kasb etadi.

A.V. Superanskaya onomastikaning munozarali masalalari haqida yozganda, ular sirasiga quyidagilarni kiritadiki, bular ayni vaqtda o‘zbek onomastikasining ham dolzarb muammolari sanaladi.

- 1) onomastikaning hozirgi va tarixiy aspektlari;
- 2) real va hayotiy nomlar;
- 3) til egalariga tushunarli va tushunarsiz bo‘lgan nomlar;
- 4) til va nutqda nom masalasi;
- 5) adabiy tildagi va hududiy hamda sotsial guruhlariga xos nomlar.

Ana shu muammolar mushtarak tarzda hal etilgandan so‘nggina , atoqli nomlarning semantikasi haqida gapirish va onomastikaning umumiy nazariyasini yaratishga kirishish mumkin bo‘ladi [3.18].

Yuqoridagi fikrlarga hamohang tarzda keyingi yillarda o‘zbek onomastikasi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiq etilmoqda:

1. Onomastikaning umumnazariy masalalari (nazariy onomastika).
2. Mumtoz adabiyotda qo‘llangan onomastik nom va atamalar masalasi badiiy onomastika (poetik onomastika).
3. Atoqli otlarning imlosi, nomlash muammolari (amaliy onomastika).

O‘zbek onomastikasining bu uch tarmog‘i o‘zaro o‘ta bog‘langanki, ulardan biri boshqasini to‘ldiradi, ularning birini boshqasidan ajratib bo‘lmaydi. Ayniqsa, mumtoz manbalarda ishlatilgan onomastik atamalar xalq tarixini, madaniyatini, ruhiyatini, ma’naviy olamini, turmush tarzini –ularning saviyasini bilishda ishonchli lisoniy ashyo vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Бердиалиев А. Сўз ва атамалар ҳосил қилишнинг баъзи назарий масалаларига доир. Давлат тили қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари мавзуидаги республика илмий-амалий конференция тезислари. – Навоий. 1993. – Б. 23.

2.Арутюнова Н.Д. Номинация, референция, значения. Языковая номинация. Общие вопросы. – М.: Наука, 1977. – С. 190.

3.Суперанская А.В. Эволюция взглядов на имя собственное в науке о языке. – М.: Наука, 1970. – С.45.

4.Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.:Просвещение, 1983. – С.17.

5.Суперанская А.В., Сулова А.В. Современные русские фамилии. – М.: Наука, 1984. – С.8.

6.Никонов В.А. Этнонимия. – М.: Наука, - С.12.

BADIIY MATNDA VAQT KONTINUUMINING BERILISHI

*Muhayyo Hakimova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnda vaqt kontinuumining ifodalanishida payt ma’noli leksemalarning o‘rni ochib berilgan. Temporal leksemalarning matn qismlarini bog‘lash vazifasi tahlilga tortilgan. Jumladan, kontakt va distant bog‘lanishlar o‘rganilgan. Vaqt zanjirining ketma-ket ifodalanishi misollar bilab yorilgan. Vaqt semantikali so‘zlarning matnda shakllanishidagi yetakchi pozitsiyalari mos matnlar orqali aniqlangan.

Kalit so‘zlar: temporallik, matn, kontinum, kontakt aloqa, distant aloqa, zanjirli aloqa, bog‘lovchi, leksik takror.

Narsa vaqt va makonda mavjud ekan, har bir matn turida vaqt kontinuumi bo‘lishi shart. Matn turi, uslubi va muallifning maqsadiga qarab vaqt oqimi yorqin yoki xiraroq berilishi mumkin. Vaqt kontinuumi ko‘proq tarixiy-ilmiy, tarixiy-badiiy matn turlarida yorqin ifoda etiladi va matn komponentlari temporal so‘zlar zanjiri bilan bog‘lanadi: *Chig‘atoy va O‘qtoy boshliq birinchi qo‘shin 1219-yil sentabr – 1220-*

yil mart oralig'ida O'tror shahrini qamal qildi. Mo'g'ullar shaharni vayron qilib, hokim Qoirni asirga tushirishdi. U 1218-yildagi mug'ul savdogarlarini o'ldirishda ayblangani uchun, Samarqandga – Chingizxon huzuriga yuborildi. Chingizxonning buyrugi bilan qiynab o'ldirildi. 1220-yil fevralda Chingizxon Buxoroga etib keldi va shahar qamalini boshladi. Shaqar 7 – 10 fevral kunlari qamal qilindi (www.xorazmiy.uz).

Ba'zi matnlarda vaqt kontinuumi voqea-hodisalar zahirida bo'ladi va kuchsizroq aks etadi. Bunda vaqt oqimi temporal semantikali so'zlar bilan yoki ularsiz ham berilishi mumkin. Vaqt semantikali lug'aviy birliklar matnda voqea-hodisalarning sodir bo'lish vaqtini bildirar ekan, ular fe'l zamon formalari ifodalagan mavhum vaqtni aniqlab (detallab) keladi. Diqqat qiling: *Ko'p yillik istibdoddan so'ng o'zbek xalqi ozodlikka erishdi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi.* Yoki: *Ko'p yillik istibdoddan so'ng o'zbek xalqi ozodlikka erishdi. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Bu sana mamlakat tarixiga oltin harflar bilan bitib qo'yilajak (gazetadan).* Vaqt ma'noli leksemalar matnda gaplarni birlashtiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ular gaplarni mazmun va sintaktik jihatlardan bog'lagan holda matn shakllantirish imkoniyatiga ega:

***Tonggi** g'ira-shirada shaharga tushib ketgan kelinini Solihabibi bu gal qandaydir umid va sabrsizlik bilan kutdi. Ammo **kun** o'tishi qiyin bo'ldi. **Peshingacha** hovlida g'imirlab yurdi: og'il-xona oldida g'ujanak bo'lib yotgan pomidorni tirgovich qo'yib taradi, bo'yi kelib tursin deb, ayvonga yaqin ekilgan bo'yradak joydagi oshrayhonning tagini chopdi. **Peshindan keyin** qo'shnisining beqasam ko'rparasini qavishga o'tirdi. Tovuqning qaqalagani eshitildi. Solihabibi beixtiyor hovliga nazar tashladi. **Kun botdi.** Nega kelinidan darak yo'q? (O'.Umarbekov).* Ushbu matndagi voqealar rivoji muayyan vaqt ketma-ketligida, ya'ni «tong – peshingacha – peshindan keyin – kun botdi»

izchilligida bayon qilinmoqda. Ko‘rinib turibdiki, matn tarkibidagi gaplarning bog‘lanib bir butunlik tashkil qilishida asosiy bog‘lovchi vosita bo‘lib vaqt semantikali so‘zlar ishtirok etmoqda.

Payt otlari matndagi gaplarni kontakt va distant aloqalar bilan bog‘laydi. Yonma-yon so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi kontakt, orasida boshqa gaplar mavjud bo‘lgan gaplarning bog‘lanishi distant (masofali) aloqa hosiblanadi. **Asr, yil, fasl, oy, hafta, sutka (kun), soat, minut, sekund** kabi leksemalar matndagi voqea-hodisalarning aniq vaqtini, voqea-hodisalar orasidagi vaqt davomiyligini anglatadi:

1960-yilda dorulfununni tugatib «Yosh gvardiya» nashriyotiga ishga kirdim. 1963-yilda badiiy adabiyot nashriyotiga o‘tib, to 1970-yilgacha muharrir, bo‘lim mudiri vazifalarida ishladim. Bu o‘n yil ichida mening ettita she‘riy kitobim, Esenin, Ukrainka, Svetlovdan qilgan tarjimalarim bosilib chiqdi. Hamza nomli teatrda 1969-yilda «Oltin devor» komediyam qo‘yildi (E. Vohidov). Ushbu matn parchasida «1960-yil», «1963-yil», «1970-yil», «o‘n yil» vaqt ma‘noli lug‘aviy birliklardan iborat so‘z birikmalarining kontakt aloqasi orqali matn shakllangan.

Quyidagi matnda esa vaqt o‘lchovini ifodalovchi leksemalar distant bog‘lanish hosil qiladi: *Bunga besh yildan oshdi. Ko‘z oldimdan ketmaydi. Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro‘parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog‘ini yamayotgan edi, shekilli... Birdan ko‘cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qaragam-tobut! Men ana ketti, mana ketti bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligidek gap tarqalibdi (A. Qahhor).* Ushbu matn barchasi olti gapdan iborat bo‘lib 3- va 6- gap o‘zaro «kun» va «o‘sha kuni» olmoshli leksik takror (leksik-grammatik element) yordamida distant bog‘lanmoqda.

Sutka qismlarini nomlovchi soʻzlarning matn hosil qilish imkoniyatlari badiiy matn turida yorqin koʻrinadi. Sutka qismlari ham boshqa vaqt maʼnoli lugʻaviy birliklar qatori matndagi xronologik ketma-ketlikni, mazmuniy izchillikni taʼminlaydi: *Yoz kechasi qisqa. Yo lchi bir chimdim uxlab, begona joyga oʻrganmaganidanmi, koʻzlarini ocharkan, tong otgan edi. Havo salqin, toza. Unda-munda qushlar sayraydi (Oybek).*

Sutka qismlari oʻlchov birliklari kabi aniq vaqtni bildirmasa-da, ular sutkaning maʼlum qismida boʻlgan voqea-hodisalarning vaqtini anglatadi: *Uch kundun keyin Sobir tong pallasida ketmonini elkaga qoʻyib, hapqat, xoʻl oyoqlarini tuproqqa tap-tap tashlab uyga qaytar edi. Butun kecha u gʻoʻza sugʻorgan edi. Pastak devor orqasidan ketmon tovushi eshitildi... (Oybek).*

Sutka qismlarini nomlovchi leksemalar gaplarni kontakt ham, distant ham bogʻlay oladi. Quyidagi misolda **oqshom, kunduz, erta** soʻzlari kontakt matnni bogʻlagan:

***Oqshom.** Oshxonada kuymalanaman,
Kunduz tashvishlarin olib elkamdan.
Yomgʻir esa yogʻar men oʻylanaman,
Xavotir olgancha namxush **ertamdan.** (M. Hamroyeva)*

Sutka qismini atovchi payt otlarining masofali aloqada gaplarning oʻzaro bogʻlanishiga quyidagi matn misol boʻla oladi:

***Tong chogʻi** qarayman ufq tomonga,
Koʻk yuzini tutar olov lovva-lov.
Goʻyo qanotini yoyar jahonga
Naqadar chiroyli tovlanishlari,
Nimalarning ramzi bu ol rang xil-xil...
Uzoq ufqda ne hodisa bor?
Dunyodan xabar ol olovli koʻngil!
Tong chogʻi ufqqa tashlayman nazar,*

Dilni girdobiga olar ajib dam (Mirmuhsin).

Yuqoridagi parchada distant aloqa kichik hajmli she'rdam bo'lib, **tong** so'zi to'rt gapdan keyin takrorlanmoqda. Ba'zi katta hajmli matnlarda juda uzoq masofali gaplar ham bog'lana oladi.

Sutka qismlarini ifodalovchi leksemalarning sinonimlar yordamida gaplarni birlashtirishi badiiy matn turida juda ko'p uchraydi:

*Har kuni **saharda** hali quyosh chiqmasdan sayr qilish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin boqqa o'taman.*

***Erta tongda** bog'ning husni o'zgacha bo'ladi. Havo muzdek, buning ustiga tiniq. Qushlar shoxdan shoxga o'tib sayraydi, goh olisda, bog'ning orqa tomonida, goh shunday tepangizda kakku kukulaydi. Chittak o'ynashib oyoqlaringiz orasida o'rmaydi, yo pir etib yuzingizni silab o'tib ketadi. (O'. Umarbekov).*

O'lchovli vaqt otlaridan fasl nomlarining badiiy va ilmiy (tabiatshunoslikka oid) uslublarda matn shakllantirish imkoniyatlari juda katta. **Bahor, yoz, kuz, qish** leksemalari nafaqat o'z ma'nolari bilan, balki ko'chma ma'nolari bilan ham matn shakllantirish imkoniyatiga ega. Ushbu holatda ham fasl nomlari matn komponentlarini kontakt va distant aloqa turlarida bog'lab, matnning bir mazmuniy butunligini ta'minlaydi:

To'lmay turib yuraklar muzga,

*Uzrimiz bor munisa **kuzga.***

Aytarmu do'st dil rozin bizga,

*Qaytarmikan umrim **bahori.***

Bolaligim orza armonim (qo'shiqdan).

Ushbu matn parchasida **kuz** va **bahor** so'zlarining ko'chma ma'nolari antiteza usulida bog'lanib kontakt aloqa hosil qilmoqda. Quyidagi she'riy parchada **kuz** leksemasi o'zining bosh ma'nosida distant aloqani tashkil etmoqda. U leksik takror yo'li bilan 1- va 4-gaplarni bog'lamoqda:

*Og'irlashib borsa ham dard, azobingiz,
Xazonparast **kuzning** yo'lchalarida.
Siz shodsiz, bari izzatibingiz
Eriydi o'g'lingiz qo'lchalarida.
Entikib kirasiz: «Keldim, bolajon»,
Tugaydi har qanday izzat to'yi.
Qiqirlagancha sizga osilar shodon,
Boladak beg'ubor Vatanning bo'yi.
Charchoqni palhtoda ilib qo'yarsiz,
Faslning **kuzligi** bo'ladi unut (Z.Mo'minova).*

O'lchovsiz payt otlaridan «vaqt» leksemasi dinamik harakat ifodalagan barcha gaplarni boshqa gaplar bilan bog'lashi mumkin. Zero, har qanday harakat vaqtda yashaydi [3, 45-48]. **Vaqt** va uning sinonimi **payt** leksemalari matnda bog'lovchi vazifasida kelar ekan, ular ko'pincha ko'rsatish olmoshlari bilan birga qo'llanadi: **shu vaqt (payt), o'sha paytda, u paytgacha** va hokazo. **Vaqt, payt** leksemalarining olmoshlar bilan birikib kelishini matnning o'rta yoki so'nggi qismida kuzatish mumkin. Shunday olmosh mavjud bo'lgan gaplar matnda ularga bog'liq gaplar borligini ko'rsatadi:

Ovqat eyilib, choyga o'tilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik og'irlashayotganini aytib berdi.

***Shu payt** masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qo'ydi (P.Qodirov).*

Sinonimlar lug'atida «vaqt» leksemasiga sinonim qilib berilgan **on, lahza** leksemalari juda kichik vaqtni bildiradi. Ular matnda o'zidan katta vaqt davomiyligining qismi sifatida (*Aziz asrimizning aziz onlari, Aziz insonlardan so'raydi qadrin, **Fursat** g'animatdir shoh satrlarla, Bezamoq chog'idir umr daftarin*) yoki bir butun predmet tasavvurida kelishi mumkin (*Bir **onning** bahosin o'lchamoq uchun Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz. Nurlar qadamila chopgan sekundning barini tutolmas*

ayhannos ovoz). Ko‘p hollarda **on, lahza** leksemalari matnda ko‘rsatish olmoshi bilan birga o‘zi ishtirok etayotgan gapni oldingi gapga mazmunan bog‘laydi. Bunda **on, lahza** leksemalari faqat kontakt aloqa usulida bog‘lanish hosil qila oladi. Bu esa ikkala leksemaning semantik sig‘imi kichik vaqt davomiyligini ifodalashi bilan izohlanadi.

Insoning biologik holati bilan bog‘liq **bolalik, yoshlik, qarilik, keksalik, umr** kabi leksemalar inson hayotining ma‘lum davrini bildirib, badiiy matn turlarida ko‘p qo‘llanadi va ular ham o‘z semantikasi nuqtayi nazaridan gaplarni bog‘lash imkoniyatiga ega:

Sochimizga qirovlar indi,

Baxt otiga birovlar mindi,

Dilda bo‘lak so‘rovlar tindi,

*Qaytarmikan **umrim bahori**...*

***Bolaligim** orzu armonim (qo‘shiqdan).*

Ushbu matnda bolalik leksemasi «umrim bahori» so‘z birikmasiga kontakt bog‘lanib kelmoqda. «Qaytarmikan» so‘zi yoshlik, bolalik davri o‘tib ketganini bildirsa, sochga qirov inishi (fiziologik xususiyat), baxt otiga birov minishi, dilda bo‘lak so‘rovlar tinishi (ruhiy xususiyat) qarilikning kelganidan darak beradi. Muallif bolaligim, yoshligim o‘tdi, qaridim degan fikrni ustalik bilan shu davrda bo‘ladigan fiziologik, ruhiy holatlar bilan ifodalagan.

Vaqt ma‘noli leksemalarning matn shakllantirishdagi usullaridan biri shuki, bunda vaqt semantikali so‘z matnda yetakchi bo‘lib keladi va bir qancha gaplar shu so‘zga, u ishtirok etgan gapga mazmunan bog‘lanadi. Ushbu yetakchi so‘z ko‘pincha matn boshida, ba‘zan esa matn oxirida kelishi mumkin. Yetakchi so‘z matn ichida o‘zidan kichikroq vaqt davomiyligini bildiruvchi so‘zlar bilan aniqlanishi ham mumkin:

*1814-yilning xushro‘y, xushbo‘y va xushnud **bahori**. Poytaxt Qo‘qon ahli **juma namoziga** oshiqib turibdi. Buning boisi shuki,*

mamlakat hukmdori Amir Umarxon farmoni bilan qurilgan masjidi jomening ochilishi shu kunga tayinlangan. Demak, xon ham, vazir-u vuzarolar ham, qozi-yu qozikalonlar ham juma namoziga hozir bo'lishidi.

Soat o'n ikkiga yaqinlashganda, toza-pokiza kiyingan odamlar jome tomonga oqib kela boshladilar. (T. Jalolov).

Yuqoridagi uch abzasdan iborat matnda yil bahor bilan, bahor fasli kun (juma) bilan, kun esa soat (soat 12 larga yaqin) bilan aniqlanmoqda. Aytish kerakki, yetakchi so'z o'zidan kichik vaqt davomiyligini bildiruvchi leksemalar yoki vaqtga aloqador bo'lmagan, lekin vaqt ifodalovchi yetakchi so'zning sifatini ochuvchi boshqa ma'noli so'zlar bilan ham aniqlanishi mumkin:

***Qish** chillasi avjida. **Izg'irinli** yellar esadi. **Qo'l-oyoqlariga** kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida **sovuqdan qaltirab**, shahar qozisining hukmini tinglaydilar (P.Qodirov).*

Ushbu matnda «qish» so'zi yetakchi bo'lib, 2-gap 1-gapga «sovuq» semasi yordamida bog'langan. Chunki «qish» sememasida ham, «izg'irin» sememasida ham «sovuq» semasi mavjud. 3-gapda esa «sovuq» semasi semema holida yuzaga chiqadi va mazkur gapni 1-gap biland distant, 2-gap bilan kontakt bog'laydi.

Vaqt ma'noli so'zlar matning shakllanishida asos bo'lib xizmat qilar ekan, bunda vaqt ma'noli so'z matn boshida keladi va u o'zining semantik imkoniyatlari asosida keyingi gaplarda aniqlanishi, to'ldirilishi, izohlanishi, kengaytirilishi mumkin. Har bir matn shakllantiruvchi vaqt ma'noli so'zlarning matn shakllantirish imkoniyati uning semantik sig'imiga bog'liq bo'ladi. Xususan, bugundan keyingi kunda yuz beruvchi voqealar tizimini ifodalashda «ertaga» sememasining semalari mustaqil semalar mavqeyida payt zanjiriga aylanib matn hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan, so'zlashuv

nutqimizga oid bo'lgan matnga e'tibor qilaylik: «*Ertaga saharda uyqudan turamiz. Azonda yo'lga tushamiz. Tush paytida Samarqandda, shomda Buxoroda bo'lamiz. U yerda bizni soat 18 larda kutib olishadi. Kun bo'yi charchasak kerak*». Bunda shunisi muhimki, «ertaga» sememasi matn boshida turib olib uning kengayishi uchun o'zining ichki semalarini mustaqil sememalarga aylantirib beruvchi nutqiy semantik generator vazifasini bajarmoqda. Yuqorida eslatilganidek, «ertaga» sememasining semalari quyidagilardan iborat: «bu», «kun1», «keyingi», «kun3», «sutka», «kun», «sahar», «ertalab», «choshgoh», «tush», «peshin», «shom», «tun», «xufton», «soat», «minut», «sekund».

Vaqt ma'noli leksemalarning matn shakllantirishida ikki xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi holatda matn tarkibidagi barcha gaplar bevosita yetakchi so'zga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, ushbu so'z barcha gaplar uchun umumiy bo'ladi. Bunda matndagi temporal so'zga bog'lanayotgan hamma gaplar mazkur so'z ishtirok etayotgan gapga nursimon bog'lanadi:

1.Odatda, yurtimizga bahor fevralning o'rtalarida keladi va tabiat o'zgacha tus ola boshlaydi. 2. Havolar ilib, dov-daraxtlar uyg'ona boshlaydi. 3.Qushlar uchib kelib, eski inlarini tuzatishga yoki yangisini qurishga tushadilar. 4. Ariqlar zilol suvlarga to'lib, atrof ko'm-ko'k maysazorga aylanadi. («Atrofimizdagi olam»). Ushbu matn parchasida 2-, 3-, 4-gaplar bevosita birinchi gapga bog'lanib, uni izohlab, aniqlab kelmoqda.

Gaplar bir-biriga zanjirsimon aloqa usuli bilan bog'lanishi mumkin. Bunda vaqt ma'noli yetakchi leksema zanjirning boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi matn turlarida kontakt aloqa amalda bo'ladi:

Martning o'rtalari edi. Birdan kunlar isib, tog'dagi qorlar erib ketdi. Bodomsoy tosha boshladi. Lekin sinoptiklar bu toshqin xavfli emas, kechga yaqin to'xtaydi, deyishdi. Shunga qaramay ba'zi bir

*ehtiyot choralari ko‘rildi. Ammo **tongga yaqin** Burxonovga Bodomsoy labidagi Selketdi qishlog‘ini suv bosganini, uch-to‘rtta uyni suv olganini xabar qilishdi. Burxonov **shu zahotiyoq** yo‘lga tushdi (O‘.Umarbekov).*

Ushbu matnda yetakchi so‘z bo‘lib **mart** leksemasi kelmoqda. 1-gapdagi **oy** (mart) leksemasi 2-gapda **kun** leksemasi bilan aniqlanmoqda. Ushbu bog‘lanish **oy** leksemasining tarkibida «kun» semasining mavjudligi sababli amalga oshirilgan. 3-gapda esa **kun** leksemasi (kechga yaqin) sutka qismigacha aniqlanib, «kech» semasi asosida 2-gapga bog‘lanmoqda. 5-gapda «kech» leksemasi ketma-ketlik asosida «tong»ga almashgan va 3-gap 5-gapni shu yo‘sinda bog‘lagan. 6-gapda «tong» leksemasi yanada kichik vaqt davomiyligi «shu zahoti» bilan aniqlanmoqda. Demak, ushbu matndagi vaqtning aniqlanishi quyidagichadir: **oy (mart) – kun – kech (kechga yaqin) – tong (tongga yaqin) – shu zahoti.**

Demak, vaqt ma’noli temporal maydon birliklarining har biri turli darajalarda matn shakllantirish imkoniyatlariga ega. Temporallikni ifodalovchi vositalar quyidagi funksiyalari bilan matn shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Matndagi vaqt kontinuumi – voqea-hodisalarning izchil, xronologik ketma-ketligini bildiradi. Temporallikni ifodalovchi vositalar matn qismlarini (gaplarni) bog‘lovchilar bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. -М.: Наука, 1981. - 140 с.

2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -Toshkent, 2008. - 160 b.

3. Потаенко Н.А. К языковому освоению временной структуры действительности//Вопросы языкознания. -1984. -№6. - С. 43-47.

4. Xudoyberganova D. O‘zbek tilida matnning antroposentrik talqini. -Toshkent, 2015.

TERMIN NEOLOGIZMLARNI O‘ZLASHTIRISH MASALALARI XUSUSIDA

*Shukurov Otabek Ulashevich,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. Maqola termin neologizmlar masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, mustaqillik yillarida paydo bo‘lgan birliklar tahlil qilingan. Unda tavsifiy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan, terminlarning manba til o‘zlashmalari motivida yaratilishiga munosabat bildirilgan va termin qabul qilishning istiqbolli yo‘llari talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, o‘zlashma so‘z, leksika, ijtimoiy taraqqiyot, tilning boyishi

Albatta, fan va sohalar o‘shishi leksikada neologizmlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, maxsus leksika qatlami chegarasining kengayishiga sabab bo‘lyapti. Hozirgi termin neologizmlarning aksariyati, asosan, obyektiv borliqda paydo bo‘layotgan yangi referentlar bilan bog‘liq, shakllanayotgan soha maydonini to‘ldirayotgan – kumulyativ vazifa bajarayotgan birliklar. Dunyoda mavjud yetti mingga yaqin til orasidan “ilmiy terminologiyaning rivojlanishi faqat 60 ta tilda kuzatiladi va uch yuzdan ortiq kasbiy fan sohalarini qamrab oladi[1;709].

Niderlandiyalik tilshunos M.Yanssen olimlarning neologizmlarni kashf etish uchun keltirgan besh mezonini havola etdi:

psixologik xususiyatiga ko‘ra: neologizm – til hamjamiyati tomonidan yangi deb qabul qilingan so‘z;

leksikografik xususiyatiga ko‘ra: neologizm – lug‘atda mavjud bo‘lmagan har qanday so‘z;

eksklyuziv definitsiyasiga ko‘ra: neologizm – leksikaning oldindan belgilangan istisno birliklari orasida aniqlanmagan so‘z;

diaxronik ta‘rifga ko‘ra: neologizm – yaqinda umumiy til matnida paydo bo‘lgan va ilgari ushbu til tarkibiga kirmagan har qanday so‘z shakli;

ma‘lumotnoma korpusi ta‘rifiga ko‘ra: neologizm – yaqinda umumiy til matnida paydo bo‘ladigan va ushbu tilning ma‘lumotlar korpusida ko‘rinmaydigan har qanday so‘z shaklidir. Tadqiqotchi yuqoridagilarga asoslanib, o‘zining “kengaytirilgan leksikografik-diaxronik ta‘rifi”ni ishlab chiqdi va neologizmlarni “yangiligi sababli lug‘atning morfologik ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lmagan har qanday so‘z”, deya e‘tirof etdi[2;48].

Ma‘lumki, mustaqillikdan so‘ng o‘zbek terminologiyasi o‘ziga xos davrni boshdan kechirdi. Negaki, jamiyatdagi turli o‘zgarishlar milliy terminologiya masalasining qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etardi. Ko‘p yillik sobiq ittifoq tuzumining bu sohadagi hukmronligi barham topgan edi. Har bir soha o‘zining istiqbolli yo‘lini tanlab olishi muhim sanaldi. Mutaxassislar tomonidan terminologiyaga tilning milliy tabiatini hisobga olib ko‘plab terminlarning olib kirilishiga ehtiyoj sezildi.

Y.A. Yuxmina ingliz tilidagi kompyuter terminlarini rus tilining leksik tizimiga moslashtirish masalasini o‘rganar ekan, “adaptatsiya” termini ostida inglizcha kompyuter terminlarining rus tili tabiatiga *grafik, fonetik, semantik* yoki *yasama* muvofiqligini tekshiradi. Xususan, grafik adaptatsiya jarayoni talqini sifatida olingan so‘zning grafik qobig‘i qayta kodlanishini nazarda tutadi. Bu jarayonning grafik qayta

shakllantirish orqali (*frame* – *freym*) va grafik qayta shakllantirishsiz (Windows XP) ifodalanishini ta’kidlaydi[3;11].

Ilmiy manbalarda “kompyuter terminlari” termini o‘z navbatida “kompyuter jargonlari” istilohi bilan ham nomlanayпти. Bunga asosiy sabab dastur yaratuvchilarning nominatsiya jarayonida ilmiy yondashuvdan ko‘ra o‘z qiziqishlarini afzal biluvchi kontengentga ega bo‘lishi. N.Nasrulloeva internet va kompyuter jargonlarini paydo bo‘lish sabablari yuzasidan S.Y.Tyurina fikrlariga e’tibor qaratadi: “XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan personal kompyuterlarning paydo bo‘lishi va 1988-yildan ommaviy bo‘lib ketgan “PC World” jurnalining chiqishi bilan hamma narsa “ostin-ustun” bo‘lib ketdi: ingliz tilidagi termin va qisqartma so‘z (abbreviatura)lar inglizcha yozuvdagi ko‘rinishlarida jurnallar sahifalarini to‘ldirib yubordi va mutaxassislar nutqini ham ifloslantirdi. Aynan qayta o‘zlashtirilgan ingliz tilidagi terminlar oxirgi paytlari ko‘plab tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortayotgan “kompyuter jargon”ining asosi bo‘lib qoldi. Yana shu ham ta’kidlanmoqdaki, texnika terminlari asta-sekin muayyan emotsional-ekspressiv, ko‘pincha kinoyali bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan jargonizmlarga aylanib bormoqda”[4;145].

D.Saidqodirovaning tadqiqotida o‘zbek tili internet terminologiyasining 54 foizini o‘zlashmalar tashkil etishi haqida xulosa chiqarilgan. Shuningdek, u o‘zlashma terminlarning o‘zbekcha muqobili bilan berilishini *tezkor xotira* – *main memory*, *tarmoq choki* – *network wearing*, *elektron aravacha* – *shopping cart program* misollari asosida ko‘rsatadi[5;15]. Albatta, o‘zlashma terminlarni o‘z til zaxira boyligidan foydalangan holda yaratish til ravnaqi uchun istiqbolli yo‘l.

Ayrim sohalar borki, jamiyatdagi o‘rniga ko‘ra yangilanib turishi, tez sur’atda o‘zgarib borishi, xalqaro standartga moslashishi va terminlarni qabul qilishi bilan ajralib turadi. Xususan, axborot kommunikatsion texnologiyalari, iqtisodiyot, huquq-tartibot, meditsina

sohalari shular jumlasidan, ulardagi termin/atamalarning vazifalari jamiyat va davlat hayotining mutanosibligini saqlash, o‘zaro tushunish, bir-birini oson anglashda barqarorlikni talab etadi. Albatta, fanning rivojlanishi soha maydonida terminlarning tartibga solinishi bilan ham bog‘liq.

Asli inglizcha so‘z hisoblangan *autentifikatsiya* termini o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashtirilgan. Uning grafik va fonetik jihati asl manba tildagi shaklidan uzoqlashib, rus tili xususiyatlari asosida qayta ifoda topgan. Axborot texnologiyalari sohasiga doir ko‘plab terminlarda ham shunga o‘xshash ruscha shakllanishlarning tajallilari uchraydi. Bu holat aynan dunyo miqyosida baynalmilallashayotgan inglizcha so‘zlar bilan bog‘liq ekan, terminologiya va uni standartlashtirish tamoyillariga ham nomuvofiqligi o‘rtaga chiqadi. Bizningcha, bu kabi terminlarni ruscha shaklini o‘zlashtirishdan ko‘ra to‘la kalkalash usuli asosida qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur termin inglizcha *authentication*, turkcha *kimlik do‘grulama* (shaxsni tekshirish), arabcha *التصديق* (tasdiqlov) kabi muqobillariga ega. Hatto ingliz tiliga bevosita qarindosh yevropa tillari doirasida ham bu so‘zning yarim kalkalashlar asosida qabul qilingan variantlari uchraydi. *Identifikatsiya* terminidan farqli o‘laroq *autentifikatsiya*ning zamirida “shaxsni tasdiqlash” tushunchasi yotar ekan, tasdiqlanadigan shaxs ma’nosida *tasdiqshaxs* terminini muqobil variant sifatida iste’molga kiritish mumkin. O‘zbek tilidagi *nominatsiya*, *adaptatsiya*, *kompozitsiya*, *prezentatsiya* so‘zlaridagi *-ция* (*siya*) shaklli otlar ruscha so‘z hosil qilish usullari hosilasidir. Afsuslanarli joyi shundaki, o‘zbek tiliga inglizcha yoki yevropa tillaridagi so‘zlarni o‘zlashtirishda bu kabi ruscha modellardan hanuz voz kecha olingani yo‘q.

So‘nggi paytlarda matbuotda ko‘p takrorlanayotgan bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda o‘zlashma terminlarning imlosi masalasida milliy til manfaatlari hisobga olinmayapti. Masalan, *veb-xosting*, *virtual xosting*,

birmuncha yumshoq xendover, *xaker* terminlari tarkibidagi chuqur til orqa “x” tovushi o‘rniga bo‘g‘iz tovushi hisoblangan “h” fonemasidan foydalanish juda to‘g‘ri bo‘ladi. Bu kabi holatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish nafaqat AKT sohasi doirasida, balki boshqa soha terminlari imlosida ham kuzatilayotgani afsuslanarli hol. Qolaversa, *birmuncha yumshoq xendover* terminidagi “*birmuncha*” so‘zi so‘zlashuv uslubiga xoslangan. Uni birikmali terminning uzvi sifatida qabul qilinishi uchun ham ma’lum vaqt talab etiladi. Bundan tashqari, lug‘atda *xendover* tarkibli terminlari uchraydi. Masalan, *soft handover* terminining ruscha (*мягкий хэндовер*) muqobili o‘rniga *yumshoq xendover* ishlatilgan. U ham manba til, ham milliy til manfaatiga mos qilib, *yumshoq handover* ko‘rinishida berilsa, terminning jozibadorligi yanada oshardi.

Asosan, veb-saytlarda ishlovchi, muayyan bloglarni yurituvchi shaxslarga nisbatan “*bloger*” termini qo‘llanadi. Bu termin, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p ishlatiladi. Agar bu so‘zni “Google” qidiruv tizimidan izlash uchun buyruq berilsa, Vikipediya’dagi shu so‘zdan tortib boshqalarigacha “*blogger*” so‘zi topilishi tabiiy. Shunday ekan, foydalanuvchilar bu so‘zning imlosida chalg‘ib qolishlari tabiiy. Mazkur termini shakliy tamoyil asosida, inglizcha imlosiga mos “*blogger*” ko‘rinishida yozish to‘g‘ri bo‘ladi.

Kognitiv texnologiyalar, *bulutli hisoblashlar*, *loyihalash shablonlari*, *ma’lumotlarni muhofazalash samaradorligining meyorlari*, *xatolarni tuzatuvchi kodlar* kabi terminlarda ko‘plik son shakli hisoblangan *-lar* morfologik ko‘rsatkichi ortiqchaligi seziladi. Shuningdek, *boshlang‘ich tezlikda kira olish* terminida ko‘makchi fe‘ldan foydalanish ham yaxshi natija bermasligi mumkin. Chunki yetakchi fe‘lning sememasiga “imkoniyat” qo‘shimcha ma’nosining yuklanishi bu nutqiy so‘zlashuv hodisasiga yaqinlik belgisi sifatida tushunilishi mumkin.

Bekdor (*bekdor//backdoor*), *monoxrom* (*монохромный //monochrome*), *geteroxrom signallar* (*гетерохромные сигналы//heterochronous signals*) terminlarini o‘zlashtirishda ham rus tilining fonetik tabiatiga tayanilgan. Keltirilgan o‘zlashmalarning aynan ruscha shaklini qabul qilish uchun jo‘yali asos ham ko‘zga tashlanmaydi. Ular *bakdor*, *monokrom/monikrum*, *heterokronous* ko‘rinishida qabul qilinsa, o‘zlashmalarning asl manba tildagi fonetik xususiyatiga ko‘ra ham, o‘zbek tilining talaffuz xususiyatiga ko‘ra ham manfaatlar uyg‘unligi yuzaga keladi. Muhimi, bu o‘rinda soha terminlari xalqaro standartlar asosida meyorlashtirish tamoyiliga uyg‘unlashadi.

Lug‘atda *imitatsion xalaqit* birikmali terminiga quyidagicha izoh berilgan. “Tuzilmasiga ko‘ra, foydali signalga o‘xshaydi, shuning uchun uni topish va ajratish qiyin bo‘lgan xalaqit. Odatda, u xuddi foydali signaldagi singari, lekin boshqacha modulyatsiya parametrlariga ega elementlardan tashkil topgan bo‘ladi”[6;85]. Birikmadagi ikkinchi so‘z so‘zlashuv uslubiga tortishi darrov seziladi. Lug‘atchilar uning o‘rniga *xalal*, *xalallik*, *to‘siq*, *to‘sqinlik* paradigmasidan referent ifodalaydigan tushunchaga mosini tanlab olishlari ham mumkin edi. Shuningdek, *kadensiya* o‘rniga *kadens*, *kadr* o‘rniga *freym* terminlarini qabul qilinsa, terminlarni standartlashtirish holatiga yaqinlashardi. Bizningcha, boshqa mutaxassislar ham ularning ingliz tilidagi shakli (*cadence*, *frame*)dan kelib chiqib, tavsiya etilayotgan terminlarning analogini inkor etmagan bo‘lar edi.

Lug‘atdagi *veb-sayt*, *veb-sahifa*, *veb-kamera*, *kesh-xotira*, *kompakt-disk*, *kross-dastur* kabi terminlarning ham chiziqcha bilan yozilishini yaqinroq o‘rganish kerak. Bu belgi, asosan, juft va takror so‘zlar doirasida amal qiladi. Imlo qoidasiga ko‘ra chiziqcha bilan yozishning ham o‘ziga xos talablari mavjud. Odatda juft so‘zlar sinonim, antonim, butun-bo‘lak yoki yaqin ma’noli kabilarga ega bo‘lishi talab etiladi. Bundan tashqari, ularning ingliz tilidagi analogi bo‘lgan *webcam*

website, webpage, cache memory, compact disk, crossware kabi shakllarida ham chiziqcha belgisi ishlatilmagan. Bu ham standartlashtirilayotgan inglizcha terminlardan uzoqlashishga olib keladi.

Lugʻatdagi ayrim terminlar mohiyatan keng tushunchani ifodalagan. Shunga koʻra ular tuzilish jihatidan kengayib, boʻlakning boʻlagi qolipidagi soʻz birikmasi zanjiriga aylangan. Masalan, *kanaldan muvozanatli foydalana olish tartiboti, axborot obyektlari muhofaza qilinganligini sertifikatlash tizimi, axborot tizimlari va vositalarini muhofazalangan tarzda bajarish, xizmatlar birlashgan keng polosali raqamli tarmoq* kabilar. Ularning inglizcha va ruscha muqobillari ham murakkab birikmali terminlar koʻrinishida. Koʻp komponentli terminlar barcha soha terminologiyasida kuzatilayotgan hodisa. Ular birikmali, murakkab koʻrinishga ega. Ana shu xususiyati bilan semantik jihatdan torayadi, reallashadi. Terminologiya tajribisiga koʻra, ular vaqt oʻtishi bilan oʻzida qayta ichki nominatsiya hodisasini boshdan kechiradi. Birikma tarkibidagi ayrim soʻzlar tushiriladi, lekin oʻsha qisqargan atov birliklarda konseptning umumiy mazmuni mutaxassislar nigohida tushunarlik kasb etadi. Komponentdagi qaysi soʻzning tushishini aniq bashorat qilib boʻlmaydi. Baʼzan birikma oxirida keluvchi asos termin (kalit soʻz) saqlab qolinishi ham mumkin, baʼzan esa uning oʻzi tushishi ham kuzatiladi. Bu masalalar terminologik analizlarda ishonarli misollar asosida koʻrsatib oʻtilgan.

Qanchalik murakkab jarayon boʻlmasin, bugungi kunda terminlarni ixchamlashtirish, muomalaga kiritish uchun soddaroq koʻrinishga olib kelish, tarkiban ixchamlashtirish mutaxassislarning oldiga qoʻyilayotgan birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Aks holda, ular termin maqomida boʻlmaydi, termin oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar va soʻz birikmalari sifatida tushuniladi. Natijada ularning turli variantlari vujudga keladi, dubletlar paydo boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахманова М. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик тадқиқи // Сўз санъати. 3-маҳсул сон. –Тошкент: 2020. –Б. 708-713.
2. Levchenko Y. Neologism In the lexical system of modern English: on the mass media material: Master’s dissertation. Munich: GRIN Verlag, 2010. –132 p.
3. Юхмина Е.А. Адаптация англоязычных компьютерных терминов к лексической системе русского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск: 2009. – 237 с.
4. Насруллоева Н. Компьютер ва интернет жаргонлари мураккаб лисоний ҳодиса сифатида // Хорижий филология. – 2020. 1-сон. – Б. 144-148.
5. Саидқодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент: 2018. –Б. 47 б.
6. Амиров Д.М., Атаджанов А.Ю. ва бошқалар. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2010. – 576 б.

QIZILTEPA TUMANDAGI OYKONIMLARNING MORFEMIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

*G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti v.b.
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qiziltepa tumani toponimlari va ayrim onomastik birliklarning etimologik tahlili doirasida olib borilgan

tadqiqotlar natijalari va ilmiy xulosalar asosida joy nomlarining tahlili muhokamaga tortilgan.

Kalit soʻzlar: oʻz qatlam, oʻzlashma qatlam, toponim, etimologiya, onomastik etimologiya, onomastik leksika, etimologik tahlil.

Joy nomlari xalqlarning tarixiy oʻtmishi haqidagi muhim maʼlumot manbai boʻlib, atrof-olamning milliy borligʻini, muayyan til egalari tafakkurining badiiy milliy mantigʻini aks ettiradi. Milliylik xalqning tarixiy taraqqiyoti natijasidir. Muayyan bir xalq tarixining asosi uning oʻzi yashayotgan atrof-olamni qayta shakllantirishga qaratilgan mehnati mahsulidir. Toponimiyada milliy dunyoqarashning tub xususiyatlari bilan bogʻliq qatlamlar, shuningdek, oʻzgarishlar va yoʻqolishlarga tobe qatlamlar ham mavjud [1;6].

Toponimlarning ekstralingvistik xususiyati yaxshi maʼlum. Har qanday geografik nom toponimning oʻziga xos xususiyati boʻlgan muayyan tarixiy davr haqida maʼlumot bera oladi. Qadim davrlarda yaratilgan nomlarni meros qila turib, toponimik tizim yangilarini ham yaratib boradi. Toponimiyada turli-tuman unsurlarning mavjudligi, ularni tarixiy ketma-ketlikda oʻrganish zarurligini talab etadi» [2;157].

Maʼlumki, yer sayyorasining har qanday hududi toponimiyasi lingvistik qatlamlardan iborat. Qiziltepa tumani hududi bu borada ham bundan mustasno emas. Qiziltepa tumani viloyatning markaziy qismlaridan biri boʻlib, qadimda bu hududda ham madaniy, ijtmoyi-siyosiy jarayonlar hamda turli etnik qatlamlarning aralashuvi sodir boʻlgan. Asosan, oʻzbek va tojik tillarida soʻzlashuvchi aholi oqimi bilan bogʻliq tarixiy voqealari hamda mintaqadagi zamonaviy etnik va lingvistik jarayonlar va dunyoqarash bilan bogʻliq oʻzgarishlar Qiziltepaning geografik nomlari tizimida oʻz aksini topdi.

Binobarin, Qiziltepa tumani geografik nomlari tizimiga nazar tashlasak, ularning turli tillar leksikasiga oid soʻzlardan tashkil topganligining guvohi boʻlamiz. Umumturkiy va oʻzbekcha soʻzlar hamda boshqa tillardan kirgan oʻzlashmalar orqali joy nomlari shakllanganligini koʻramiz. Toponimlarni maʼlum tillarga mansub soʻzlardan tashkil topganligini inobatga olib, ikki qatlamga boʻlib oʻrganish mumkin:

1. Oʻz qatlamga mansub toponimlar.
2. Oʻzlashgan qatlamga oid toponimlar.

Oʻz qatlamga mansub toponimlar. Oʻz qatlamga umumturkiy va oʻzbekcha soʻzlardan vujudga kelgan toponimlar kiradi. Tuman onomastikasida oʻz qatlamga mansub soʻzlar bilan atalgan toponimlar asosiy va muhim oʻrinni egallaydi. Bu xil toponimlarda oʻzbek tili leksikasining tarixiy hamda hozirgi taraqqiyotini aks ettiradi. Oʻz qatlam guruhidagi toponimlar turli davrlarda yaratilgan boʻlib, ular asosidagi soʻzlar har xil qimmatga egadir. Koʻplab joy nomlari hozirgi oʻzbek tilida faol ishlatiluvchi soʻz va grammatik shakllar orqali ifoda qilingan: Yakkatut, Oʻrtachoʻl, Choʻponota, Oqrabot, Azizobod, Yangihayot, Beklar, Bunyodkor, Olmazor, Shodlik kabi.

Oʻzlashma qatlamga mansub toponimlar. Mamlakatimiz toponimiyasida genetik jihatdan boshqa tillarga mansub boʻlgan soʻzlardan tarkib topgan toponimlar birmuncha uchraydi.

Ana shunday oʻzga til soʻzlari asosida yaratilgan oʻzlashma qatlamga fors-tojik tili, arab tili, rus tili leksikasiga aloqador soʻzlar vositalarida yasalgan toponimlar kiradi. Tuman hududiga tegishli nomlarning nisbatan katta qismini oʻzbekcha nomlar bilan bir qatorda fors-tojikcha soʻzlar tashkil etadi.

Forscha-tojik tiliga oid qatlam. Oʻzbekiston hududlari toponimiyasida forscha-tojikcha toponimlar anchagina qismni tashkil etadi [3;16]. Bu tabiiy holdir, chunki bu ikki xalq (oʻzbeklar bilan

tojiklar) qadim zamonlardan beri yonma-yon yashab, o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo‘lib kelganlar. Bunday munosabatlar ikki xalq tarqalgan hududning joy nomlari tizimida ham o‘z aksini topgan. Binobarin, Qiziltepa tumanida ham forscha-tojikcha toponimlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Quyida ularning ba‘zilari haqida fikr yuritamiz: «ob» komponentli toponimlar. «Ob» so‘zi tojik tilida «suv» degan ma‘noni bildiradi va bir qancha toponimlar tarkibida ishtirok etadi. Masalan: Obiyavg‘on, Obihayot, Duobdurun, Shanba obxo‘r.

«Deh» so‘ziga aloqador nomlar. «Deh» so‘zi «qishloq» ma‘nosini bildiradi va joy nomlari tarkibida faol qatnashadi [4;16-19]. Masalan, Dehqonobod.

«**gar+on**» komponentli toponimlar. **-gar** affiksi asli tojik tilidagi *kor (ish)* so‘zi bilan aloqador bo‘lib, ba‘zan o‘zbek tilidagi **-chi** affiksi anglatgan ma‘noga yaqin ma‘noni anglatish uchun xizmat qiladi. **-on** qo‘shimchasi esa otlarga xos so‘zlarda (*-lar*) ko‘plikni hosil qiladi. Masalan, holva/gar/on // holva/chi/lar, sovun/gar/on // sovun/chi/lar kabi [5;405]. Biz tomonimizdan tadqiq etilgan hudud toponimlari: Mayizgaron, Sobungaron, Kosagaron, Chitgaron toponimlari shu taxlitda vujudga kelgan. Asosan, bunday toponimlarning ma‘lum bir qismi kasb-hunarni ifodalab keladi.

«**-on (yon)**» komponentli toponimlar. Bunday komponentli nomlar o‘rganilgan hudud toponimiyasida unumdor hisoblanadi. Masalan, Aziz/on // aziz/lar, Sheyx/on // shayx/lar, Kulol/on // kulol/lar, So‘fi/yon // so‘fi/lar, Nonvoy/on (Novvoyon) // nonvoy/lar, Tojik/on // tojik/lar, Arab/o(n) // arab/lar, Avg‘on/on // avg‘on/lar kabi.

Shuningdek, Azizon, Sheyxon, So‘fiyon toponimlari ikki komponentdan, ya‘ni birinchi komponenti arabcha aziz, shayx, so‘fi topoasosdan iborat bo‘lsa, ikkinchi komponenti yuqorida berilgan tojikcha topoformantdan tashkil topgan. Natijada yaxlit shaklga ega oykonim nomi yuzaga kelgan (Azizon, Sheyxon, So‘fiyon). Bu

toponimlar apellyativ leksikadan toponimlashuv jarayonida onomastik leksika sathiga o'tishidan yuzaga kelgan.

Til tarixi bo'yicha tadqiqotlarda o'zbek tilida toponimlarda ko'plik qo'shimchalari u qadar keng emas. Lekin -lar affiksining Qiziltepa hududida ikki variantda o'rganilishi nuqtayi nazaridan mazkur hudud toponimlari tarkibida o'zbekcha va tojikcha elementlar borligi ko'zga tashlanadi.

-lar komponenti. Professor Sh.Rahmatullayev va akademik G'.Abdurahmonovlar bu affiksni so'z yasovchi morfemalar qatoriga kiritishmagan. Bu affiks kontekstda noma'lum ko'plikni, hurmatni, biron fikrni ta'kidlashni, mavhum tushunchani aniqlashtirishni, umumiylikni, takronni bildiradi [6;9], degan fikrni berishadi. Tadqiqotchi N.Oxunov tadqiqotlarida [7;194-196] hamda toponimiya bo'yicha kuzatishlari ko'rsatadiki, *-lar* affiksi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, holatlar bilan bog'liq vujudga kelgan toponimlar yasalishi uchun xizmat qiladi. Bu guruh toponimlari turli xalqlar, elatlar, urug'larning rivojlanishi, bosib o'tgan yo'llari, siyosiy tuzumi, tarixi, shug'ullangan kasb-hunarlar bilan bog'liq holda vujudga keladi va o'zida shunday hodisa-voqealarni aks ettirgan kasb-hunar nomlari (Shifokorlar, Neftchilar, Tadbirkorlar) hamda xalq, qabila, urug'lar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan etnotoponimlarda o'z ifodasini topadi (Qipchoqlar, Naymanlar, Arablar, Tojiklar, Turkmanlar).

O'rganilgan hududda *-lar* komponentli nomlar sanoqli bo'lib, ozchilikni tashkil etadi.

«*-xo'r*» komponentli toponimlar. Tojikcha xo'rdan – «yemoq» fe'lidan, negizdan anglashilgan predmetni yeydigan, ichadigan yoki ko'p yeydigan, ko'p ichadigan shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: go'ja/xo'r, palov/xo'r, qimiz/xo'r, nonxo'r, choy/xo'r. Ba'zan sifatlarga ham qo'shib, shaxsni belgi orqali anglatadi: tekin/xo'r [8;442].

Shuningdek, turkiylarni anglatuvchi *xo‘r* so‘zi haqida (Xitoy tili katta iyerogliflar lug‘ati, 3-jild, 2057-bet) xitoyshunos olim A.Xo‘jayevning fikricha, «Rus adabiyotidan hozirgi zamonaviy tilga kirib kelgan «tungus» etnonimi, xitoycha «dungxu» deb atalib, sharqiy «xu»larni bildirgan, xitoy tilida undosh «r» tovushini talaffuz etish mumkin bo‘lmaganligidan xitoylar «xo‘r»terminini «xu» ieroglifi bilan ifoda etishgan. «Xu» va «xulu» turkiycha «xo‘r» terminining xitoycha talaffuzidir. «Xo‘r» qadimiy turkiyda erkin, ozod, bir joyga bog‘lanib qolmagan, ko‘chmanchi xalq ma’nosini anglatgan» [9;5-6].

«-kor (-gar,-gor,-kar)» komponentli toponimlar. Tojik tilidan kirgan; kasb egasi, mutaxassislik, mashg‘ulot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs oti yasaydi: paxta/kor, bino/kor, xalos/kor, xizmat/kor, da’vo/gar, durad/gor, mis/kar kabi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch» asarida qadimda ishlab chiqarishning muayyan sohalari mavjudligidan darak beruvchi toponimlar haqida fikr bildirilib, shunday yoziladi: «Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik ... Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganligidan, xalqimizning azaldan o‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi» [10;67]. Shu nuqtayi nazardan o‘rganilgan hudud mikrotoponimiyasida «-kor (-gar,-gor,-kar)» formantli, yetakchi olim S.Qorayev tasnifi bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar mavjudligi, hunarmandchilik va dehqonchilikning takomil topganligidan dalolat beradi. Masalan, Sobungaron, Mayizgaron, Chitgaron, Kulolon, Kosagaron, Paxtakor, Vaximkor, Bunyodkor kabi.

«-zor» komponentli toponimlar. Asosdan anglashilgan predmetning bo‘lish yoki mo‘llik o‘rnini bildiradigan otlar yasaydi: paxta/zor, olma/zor, gul/zor va boshqalar.

O'rganilgan hududdagi bir qancha yasama toponimlar mavjud oykonimik asos(lar)ga oykonimik formant(lar)ning qo'shilish jarayonidan oykonim yasalishi ro'y bergan. Masalan, **O'rikzor** (*o'rik+zor, ammo o'rikzor emas*), **Olmazor** (*olma+zor, lekin olmazor emas*), **Gulzor** (*gul+zor, biroq gulzor emas*) va h. Bu tarzda yasalish asosiy oykonimik yasalishga misol bo'lib, yuqoridagi singari qo'shimchalar turdosh otlarni yasaydi. Bizningcha, bunday vaqtda toponimning o'zagi bo'lgan onomastik so'zlarning, avvalo, turdosh ot sifatida yasalganligi, keyinchalik onomastik leksika sathida toponimlashuv hodisasi natijasida toponimlar sathiga ko'chganligini inobatga olishimiz lozim.

«**-lik**» komponentli toponimlar. Turli xil so'z turkumlariga qo'shib, mavhum ma'noli va konkret predmet otini yasaydi: bola/lik, ona/lik, talaba/lik, zargar/lik, tez/lik, dars/lik, kunda/lik kabi [11;442]. Yana shuni aytib o'tish kerakki, zargarlik, kosiblik, miskarlik kabi so'zlar yasalganda, kasb-hunar, faoliyat, ya'ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan otlarni yasaydi. O'rganilgan Qiziltepa tumani hududida Mustaqillik, Ezgulik, Obodlik, Ozodlik kabi neooykonimlar (yunoncha – neos «yangi»; oikos «makon, turar joy», onoma «nom» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, «yangi joy nomi» degan ma'noni beradi.) mavjud bo'lib, belgi ifodalovchi so'zlar vositasida hosil qilingan. Bunday toponimlar, asosan, jamiyatga xos ijtimoiy-sotsial o'zgarishlar asosida yuzaga kelgan.

Shuningdek, **-lik** formanti **qiziltepalik, mang'itlik, toshrabotlik, urganjilik, kosagaronlik** nomlarida mansublik, tegishlilik ma'nolari mavjud. Tuman, shahar, qishloq kishilarining qayerdan ekanligi anglashiladi. **-lik** topoformantining, keyinchalik vaqtlar o'tishi bilan xalq og'zaki nutqida **-li** topoformanti shaklida aytilishi ham kuzatiladi, tavoisli, qumrabotli.

«-bon» komponentli toponimlar. Biror narsaga qarab turuvchi, qo‘riqlovchi shaxsni hamda faoliyat, egalik bilan bog‘liq otlarni yasaydi: bog‘/bon, qo‘ychi/bon, saroy/bon kabilar. –bon morfemasi –von shaklida ham ifodalanadi (b-v): darvoza/von, qo‘ychi/von. Hudud toponimiyasini o‘rganishda, mana shu shaklda hosil bo‘lgan joy nomlari mavjudligi aniqlangan. Masalan, kalet/von – kalit/bon.

Olib borilayotgan tadqiqotlardan shu narsa ma‘lumki, qo‘yilgan nomlar o‘z manzil-makonini muqaddas bilishga, ilohiylashtirishga va uni asrab-avvaylashga sabab bo‘lgan. Bunday nomlar mahalliy aholining ma‘naviy-madaniy qarashlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, ular yordamida yer, suv, havo, hududning tabiati komponentlari muhofaza qilingan. Natijada geografik nomlar yordamida atrof-muhitga zarar etmagan, aksincha, tabiiy boyliklardan oqilona va tejamli foydalanib kelingan. Bunday toponimlar xalqning farovon va tinch yashashi hamda aholi maskanlarining toza va obod bo‘lishiga xizmat qilgan. Bu kabi joy nomlari keng tarqalgan bo‘lib, «-(i)ston, «-zor», «-kor», «-obod» formantlari vositasida, P.N.G‘ulomov ta‘biri bilan aytganda, «... ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, holatlar bilan bog‘liq vujudga kelgan toponimlar»dir [12;9]. Masalan, Guliston, Gulzor, Bunyodkor, Yangiobod, Dehqonobod, Obod Turmush, Manzilobod, Paxtaobod, Malikobod, Elobod, Rohobod (Ruhobod) kabilar.

Etnik guruhlarining etnik va madaniy tarixining bir turi sifatida qaraladigan toponimik tizim xalqlar, tarixiy voqealar, jismoniy va geografik xususiyatlar, insoniy munosabatlarning tadrijiyligi – hududlar haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni, ba‘zan haligacha aniqlanmagan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham tuman toponimiyasini o‘rganish va tavsiflash o‘tmishda va hozirgi davrda hududda yashab, istiqomat qilayotgan xalqning tarixi, etnogenezi va etnik madaniyatini o‘rganishda dolzarblik va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enazarov T.J. O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent, 2006. – B.6-14.
2. Жамсаранова Р.Г. Топонимия Восточного Забайкалья. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Улан-Уде, 2002. -157 с.
3. Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области. Автореф. диссер.канд.филол.наук. - Ташкент, 1984. –С.16.
4. Adizova N.B. Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tadqiqi. f.f.f.d (PhD) diss.avtoreferati. – Buxoro, 2021, - B. 16-19.
5. G‘ulomov A., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. - Toshkent: o‘qituvchi, 1977. - 405 b.
6. Qorayev S. Toponimika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2006. – B.9.
7. Oxunov N. Slovoobrazuyushie affiksy kak topoformanty toponimii Uzbekistana i Azerbaydjana // Azerbaydjan onomastikasy masalalari. - Baku, 1988.- S.194-196; Oxunov N. Til va joy nomlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1988.- 24 b.; Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. T., Fan, 1989. 56 b.; Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. T., O‘zbekiston, 1994. - 86 b.; Oxunov N. Zarafshon vodiysi etnooykonimlari // O‘TA. T., Fan, 2000. 1-son. B. 20-23.
8. A.G‘ulomov, A.Tixonov, R.Qo‘ng‘urov. O‘zbek tili morfem lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 1977. - 442 b.
9. A.Asqarov. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba’zi bir nazariy va ilmiy-metodologik masalalari. // O‘zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix.

Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. - Toshkent., 2004. –B.5-6.

10. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B.67.

11. A.G'ulomov, A.Tixonov, R.Qo'ng'urov. O'zbek tili morfem lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1977. - 442 b.

12. G'ulomov P.N. Toponimlarning turlari va joy nomlarini rayonlashtirish haqida mulohazalar / O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 42-jild// Toponimika va umumgeografik masalalar/. Ilmiy maqolalar to'plami. –T., 2013. –B. 9.

ANTISEMIK BIRLIKLARNING ANTITEZA HOSIL QILISH IMKONIYATLARI

*Abdullayeva Dildora Abdinabiyevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Maqolada antisemik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari haqida so'z boradi. Qarama-qarshilik kategoriyasining tilda aks etishi, xususan badiiy matn doirasidagi zidlanishlarning voqelanishida grammatik turkumlanish cheklovchi mezon sifatida mavjud emasligi yoritiladi. Antisemik birliklarning badiiy matndagi ishtiroki, ularning lisoniy va kontekstual reallashishi antiteza hodisasi asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: antisemiya, antonimiya, qarama-qarshilik kategoriyasi, badiiy matn, antiteza, lisoniy birliklar, kontekstual ma'no, til antonimlari.

Borliq hodisalarining alohidaligi, o'ziga xosligini belgilashda qarama-qarshilik kategoriyasining o'rni beqiyosdir. Muayyan hodisaning mohiyatini ochishda turli zidlanishlardan foydalanish zaruriy omil hisoblanadi. Qarama-qarshilikning lisoniy ifodasi bo'lgan antisemik birliklar badiiy nutq ifodaliligini, ta'sirchanligini oshirishda juda keng ko'lamli imkoniyat yaratadi. Zero, «och bo'yoqlar, to'q bo'yoqlar fonida yanada ravshanlik kasb etgani singari qarama-qarshi ma'noli so'zlarning o'zaro munosabati asosida ham ifoda ravshanlashadi, emotsional va ekspressiv bo'yoq hosil qilinadi» [1;58].

Lisoniy qarama-qarshilik kategoriyasining bir turkum doirasida tadqiq qilinishi, til nazariyasiga oid tadqiqotlar bilan bir qatorda, badiiy matn yuzasidan qilingan ishlarda ham o'z aksini topgan. Aksariyat olib borilgan tadqiqotlarda faqat bir turkum doirasidagi qarshilantirishlar e'tiborga olinadi [masalan qarang: 2;73-81, 3;15-29], vaholonki, badiiy matnda faqat bir turkumdagi so'zlar emas, balki turli turkumga mansub so'zlar ham kontrastlar hosil qiluvchi leksik vositalar sifatida faol ishtirok etadi. Antisemik birliklar murakkab ziddiyatli vaziyatlar, xarakter-xususiyatlarning nozik nuqtalarini takrorlanmas chizgilar orqali voqe bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur birliklarning nutqiy voqelanishini antiteza hodisasi misolida ko'rishimiz mumkin.

Antitezani badiiy matnda qarama-qarshilik asosida hosil qilinuvchi asosiy stilistik figura sifatida ko'rsatish mumkin. Antitezaning yuzaga kelishida mantiqiy va ruhiy holatlar muhim o'rin tutadi. Mazkur hodisa orqali qahramon ruhiyatidagi kontrastlik, muallif his tuyg'ulari bo'rttirib tasvirlanadi. Masalan: *Hushingda quvonsang tushingda qayg'u, tushingda sevinsang hushingda alam.* (Xurshid Do'stmuhammad «Beozor qushning qarg'ishi») Ushbu misolda *hush – tush, quvonmoq – qayg'u, sevinmoq – alam* so'zlari orqali antiteza hosil qilingan. Bunda quyidagi holatga diqqat qilish zarur: *hush* va *tush* juftligi til sistemasida antonimik munosabatda emas: *tush* – «uyquda vujudga keladigan

obrazlar; uyqu vaqtida ko‘riladigan narsalar», hush – «kishining biror ta'sir yoki hodisani sezish, idrok etish, anglay olish qobiliyati». Bu o‘rinda muallif hush so‘zini tush so‘zining antonimik jufti hisoblangan o‘ng so‘zi o‘rniga qo‘llagan, chunki mazkur so‘zlarda mantiqiy yaqinlik kuchli. Inson o‘ngida real voqelik bilan munosabatda bo‘ladi, atrof borliqni real qabul qiladi va ayni paytda u hushida hisoblanadi. Ammo hush so‘zining asl ma’nosiga qarama-qarshi bo‘lgan hushsizlik so‘zi bilan tush so‘zi mazmunan turli hodisalarni ifodalaydi. Demak, mazkur qarshilantirish kontekstual holat hisoblanadi. Keyingi o‘rinlardagi qarama-qarshiliklarni esa antisemik birliklar hosil qilgan. Bunda qarshilantirilayotgan so‘zlar turli turkumlarga mansub bo‘lsa-da, ularning munosabatidagi qarama-qarshilik yuqoridagi holatdan farqli ravishda lisoniy xarakterga ega. E’tibor bering: tilimizda *quvonch* – *qayg‘u* antonimik juftligi mavjud, ular munosabatidagi qarama-qarshilik antonimik mezonlarga to‘la javob berishi sababli bu holatni til sistemasida mavjud bo‘lgan qarshilantirish sifatida talqin qilamiz, ammo *quvonch* leksemasining ma’nosida *quvonmoq* so‘zining semantikasi aks etgan, *quvonch* – *quvonmoq* harakatidan «ajratilgan» ot. *Quvonmoq* – insonning ma’lum ruhiy holatga o‘tishi - «shodlik, xursandchilik tuyg‘usini tuymoq», *quvonch* – o‘sha ruhiy holatning o‘zi (obyektdan ajratilgan holat) - «shodlik, xursandchilik tuyg‘usi». Shunga ko‘ra, bularning har ikkisi *qayg‘u* so‘zi bilan lingvistik jihatdan zidlasha oladi. *Sevinmoq* – *alam* qarama-qarshiligi ham shunday tabiatga ega. Bu kabi holatlarni juda ko‘p kuzatish mumkin: *Gohida sevinib, gohi g‘amdadir, Ishq uzra yozardim men erkin qanot.* (A.Oripov) *Xazon vaqti...tabiat asta-sekin o‘lib borardi...Shunday-da, mening o‘luk ko‘nglim tirildi.* (Cho‘lpon, «Kecha va kunduz») *Kim senga hamroz emasdir, Bog‘araz deb o‘ylama, Gohi dushmanlik qilurlar Qo‘l siqib do‘stona ham.* (Erkin Vohidov «Do‘st bilan obod uying» g‘azali) Ko‘rinib turganidek, bu o‘rinlarda ham turli turkumlardagi so‘zlar bir-biri bilan semantik

qarama-qarshilik hosil qilgan: *sevinmoq* (fe'l) – *g'am* (ot), *o'lik* (sifat) – *tirilmoq* (fe'l), *dushmanlik* (ot) – *do'stona* (ravish).

L.V. Balaxonskaya o'z tadqiqotida badiiy matnda kontrast hosil qiluvchi omillarning barchasini ikki guruhga: «til antonimlari» va «kontekstda qarama-qarshi qo'yilgan so'zlar» ga bo'ladi. U turli turkumdagi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni «kontekstda qarama-qarshi qo'yilgan so'zlar» deb baholaydi va bunday zidlanishning ikki ko'rinishini keltiradi: «1) antonimik yasalmalar uyasiga mansub so'zlar, shu sababli ularning antonimik darajasi ancha yuqori (наяву – сниться); 2) antonimik yasalmalar uyasiga mansub emas, shu sababli ularning antonimligi to'laligicha matnga bog'liq» [4;29].

Mazkur o'rinda L.V. Balaxonskaya antonimik yasalmalar uyasiga mansub so'zlar o'rtasidagi (ular turli so'z turkumi doirasida bo'lsa ham) qarama qarshi munosabatni boshqa kontekstual qarama-qarshiliklardan kuchliligini aytib o'tgan bo'lsa ham, bu hodisani kontekst doirasida oladi, vaholanki, bu kabi qarama-qarshiliklar til sistemasida real mavjud.

Antisemik birliklar kontrast hosil qiluvchi keng imkoniyatli omil sifatida nutqda turli ko'rinishlarda jilolanib keladi. Zabardast nosir Tohir Malik ijodini bunga misol qilib olishimiz mumkin. Adibning deyarli barcha asarlarida antitezaning oxiri to'kilmagan namunalarini uchratamiz va aytish joizki, bunday qarshilantirishlarning yuzaga kelishida adib antonimik birliklardan ham ko'proq antisemik birliklarga murojaat qilgan. Nafaqat badiiy asar doirasida, balki muallifning asar so'zboshisida aytgan jumllarida ham qarama-qarshiliklar o'ziga xos, ta'sirli tarzda namoyon bo'lgan: *Yozganlarimni o'qib, chor-atrof zimiston-ku, deb vahimaga berilmang. Yorug' kunda barcha yaxshi narsalarni ko'rib turamiz. Qorong'ida esa ko'rmaymiz. Urilib, surilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug' kunning qadriga yetmoq uchun qorong'ilikni ham ko'rish lozim emasmi?* (Tohir Malik, «Shaytanat») Keltirilgan nutq parchasi «Shaytanat» asarining so'zboshisida yozuvchi

tilidan kitobxonga murojaat tarzida aytilgan. Bu o‘rinda *zimiston*, *qorong‘i*, *qorong‘ilik* leksemalari *yorug‘* leksemasiga qarshilantirilgan. Ko‘rinib turganidek, mazkur holatda antitezani yuzaga keltirgan leksik vositalar bir turkum doirasida ham, turkumlararo ham munosabatga kirishgan. Muallif mazkur leksemalarni qarshilantirish orqali nutqning ekspressiv jihatdan ta’sir kuchini oshirgan. Birinchi o‘rindagi antitezada leksik vositalar o‘z ma’nosida reallashgan. Yozuvchi ustalik bilan kitobxon ko‘z oldida *yorug‘* va *qorong‘i* kunni gavdalantirib ko‘nikma hosil qilgan, keyingi o‘rinda esa bu so‘zlarni o‘z ma’nosidan ko‘chirib, haqiqiy aytmoqchi bo‘lgan maqsadini oshkora qilgan va kitobxonni qarama-qarshilikni ifodalovchi so‘zlar yordamida mushohadaga chorlagan. Ayniqsa, adibning «Shaytanat» asarida antiteza usuli muallifning o‘z uslubini belgilovchi omilga aylangan. Yozuvchi «qorong‘i» - «yorug‘» tushunchalari zamiriga asarning butun mohiyatini yuklagan. Adibning badiiy maqsadini ifodalovchi «qorong‘ilik» va «yorug‘lik» tushunchasi asar tilida ko‘pincha turli turkum doirasida ifodalangan, ya’ni asosiy holatlardagi antitezalarni antonimik munosabatdagi birliklar emas, antisemik birliklar yuzaga keltirgan va mazkur o‘rinlarda qarshilantirishning yuksak namunalari namoyon bo‘lgan. Masalan:

Uchaverdi, uchaverdi...quduqning tubidan esa darak yo‘q. So‘ng qorong‘ilik chekinib, atrofi yorisha bordi (T.Malik, «Shaytanat»).

Ular tangrining «Fa mann ya‘mal misqola zarratin xoyron yaroh, Va mann ya‘mal misqola zarratin sharron yaroh» degan amrini bilsalarmi edi... balki qorong‘i fikrlariga yorug‘lik mo‘ralarmidi... (T.Malik, «Shaytanat»)

Keltirilgan nutqiy parchalarning birinchisida *qorong‘ilik* – *yorishmoq* antisemik birliklari o‘z ma’nosi bilan reallashib antiteza hosil qilmoqda. Ikkinchi parchada esa *qorong‘ilik* – *yoritmoq* antisemik juftligi ko‘chma ma’noda voqelangan. Ko‘rib turganimizdek, ushbu

misollarda kontrast hosil qilgan soʻzlar turli turkumga mansub boʻlgan antisemik birliklardir.

Baʼzi oʻrinlarda muallif *qorongʻi* leksemasi oʻrniga *xufton* soʻzidan ham foydalanib antiteza hosil qilganligining guvohi boʻlamiz. Maʼlumki, *xufton* soʻzining semantik tarkibida *qorongʻilik* semasi mavjud. Shunga koʻra, koʻpgina oʻrinlarda adib *xufton* soʻzi bilan *yorugʻ*, *yoritmoq* soʻzlari asosida antiteza hosil qilgan.

Oʻtgan kuni peshinda bir yigit kelib: «Sharif akamgila xat berib yubordila», deganida xufton dili birdan yorishib ketdi (T.Malik, «Shaytanat»). *Zaynabning kulimsirab «yaxshiman, oyi», deyishidan xavotiri bosilib «balki boshi qorongʻidir», deb gumon qildi. Bu nurli gumon xufton dilini yoritib, «Eson-omon qutulib olishini» Xudodan soʻradi* (T.Malik, «Shaytanat»). *Soʻng esa shirin soʻzlari, shiringina jilmayishlari bilan Zaynabning xufton koʻnglini yoritayotgan kelinlar hordiq chiqarmoq uchun uy uylariga kirib ketadilar* (T.Malik, «Shaytanat»).

Guvohi boʻlayotganimizdek, har uch oʻrinda bir tipdagi antisemik holat reallashmoqda va har uch oʻrinda antisemik birliklar qahramonning ikki qarama-qarshi ruhiy holatini anglatuvchi antitezani yuzaga keltirgan. Birinchi holatdagi sintaktik birlikda *xufton dili* birikmasi *yorishib ketdi* soʻzi bilan oʻzaro mazmuniy jihatdan antisemiya vositasida antiteza hosil qilgan.

Asarda bir yadroli antisemik juftliklar asosida kontrastning turli koʻrinishlari reallashgan. Bunda «*yorugʻ*» - «*qorongʻi*» semik yadroli antisemik birliklarning nafaqat turkum jihatidan farqi, balki ularning sinonimik hamda polisemik imkoniyatlari asosidagi jilolanishi ham kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, antisemik birliklar badiiy matnda kontrast hosil qiluvchi asosiy lisoniy vositalardan

biri sifatida reallashadi. Bu jihatdan antisemik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari antonimlardan ancha keng va xilma-xildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. Soʻz estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 58;
2. Djalalova L.O. Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romanining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2007. – B. 73-81;
3. Shadieva D.Sh. Muhammad Yusuf sheʼriyati lingvopoetikasi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2007. – B. 15-29;
4. Балахонская Л.В. Языковые антонимы и контекстно противопоставляемые слова как средства создания контраста в произведениях А. Вознесенского: Дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1987. – С. 29.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NOMUTANOSIBLIKNING DIAKRON VA SINXRON KOʻRINISHLARI

*Uralov Azamat Begnarovich,
Sirdaryo viloyati pedagogika markazi dotsenti,
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada tarixiy taraqqiyot natijasida roʻy bergan tildagi baʼzi oʻzgarishlarni Navoiy asarlarida kengroq kuzatish mumkin koʻrsatilgan. Til tarixida qoʻllanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli oʻzgarishlarga uchragan. Bu oʻzgarishlar sintagmalarda nomutanosiblikning diakron va sinxron koʻrinishlari mavjudligini koʻrsatishga, izohlashga, solishtirib koʻrishga, farqlashga

asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: nomutanosiblik, diaxron va sinxron ko‘rinishlar, sintagma, semiotika, paradigma, morfologik shakllar, mutanosib.

Morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini tadqiq qilish sintagmani semiotikaga, paradigmaga bog‘lab o‘rganishni talab etadi. Har qanday sintagmadagi morfologik shakl(lar) ma‘lum paradigmaga asoslangan bo‘lib, semiotik jihatdan mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi mumkin. Shu sababli paradigmada mavjud bo‘lgan birliklar semiotikaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Sintagma ko‘rinishidagi mutanosiblik nutq zanjirida ifoda va mazmun sathi tengma-teng tarzda belgilanishini taqozo etadi, ya’ni ifodalanuvchi mazmun va shakllar miqdori mos keladi. Bu holat ayni damdagi sinxroniyaning mahsulidir. Ammo diaxroniya sintagmadagi har bir shaklni sinchiklab, qiyoslab o‘rganishni taqozo etadi. Bunda ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan miqdori teng kelmay qolib, turli nomutanosibliklarning yuzaga kelishi holatlari kuzatiladi.

Masalaning yana bir tomoni mumtoz asarlarda morfem birliklarning tadrijiy taraqqiyoti, ularda ro‘y bergan o‘zgarishlar xususiga qaratiladi. Bunda Alisher Navoiy asarlari tilida morfem birliklarning diaxroniyasi – tadrijiy taraqqiyoti va o‘zgarishlarini “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya” asarlari misolida ko‘rib chiqamiz. Navoiyning asarlari bugungi kunga qadar badiiy va ilmiy manba sifatida sevib o‘qiladi, chuqur tahlil etiladi, chog‘ishtiriladi, milliy tilimizning asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlari tilining bugungi kundagi tadrijiy taraqqiyoti keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Tahlil uchun tanlab olingan “Mukammal asarlar to‘plami” [A.Navoiy, 1998] (20 jildlik, 14 jild)dan ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz va bugungi kundagi morfologik shakllar bilan

solishtiramiz. Natijada morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari oydinlashadi.

Asardagi mustaqil so‘zlar va ularga qo‘shilayotgan morfologik shakllar bugungi kunda to‘liq amalda yo‘q, chunki ularning ayrimlari iste‘moldan chiqib ketgan yoki o‘zgarishlarga uchragan. Lekin shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, ko‘plab morfologik shakllarda tarixiy taraqqiyot tufayli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Asos morfemalarning esa ayrimlari turli o‘zgarishlarga uchragan.

Sintagmada tovush almashishi hodisasi tufayli “*arig‘i*”, “*zarnigorlig‘idin*” kabi so‘zlarning morfemalari tarkibidagi “q” va “k” tovushlari “g” tovushiga almashgan bo‘lsa, “*ko‘ngil*” so‘zining “*ko‘nglumni*” (191-bet), “*ko‘nglungga*” (49-bet), “*nutqung*” (160-bet) variantida tovush tushishi hodisasi bilan bir qatorda egalik qo‘shimchasining *-um*, *-ung* shakllarini keng ishlatilganini kuzatamiz. Sintagmada diaxron jihatdan ifodalanayotgan *ko‘ngil+um*, *ko‘ngil+ung+ga* kabi so‘zlarning tarkibidagi egalik shakllari *-um*, *-ung* shaklida ifodalangan. Bu jarayon taraqqiyot natijasi sababli emas, singarmonizmning mahsuli sifatida qaraladi. Chunki o‘sha davrda hozirgi ko‘rinishdagi morfologik shakllar ham parallel ishlatilgan. Davrlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tmishdagi ko‘plab allomorflarning hozirgi kunda ishlatilmasligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa diaxron va sinxron shakllarning o‘zaro nomutanosibligini ko‘rsatadi. Til taraqqiyotining morfologik shakllarga ta‘sir natijasi o‘laroq “*vaqufung*” (49-bet) so‘zida ham egalik shaklining allomorfini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda bugungi tilimizda mavjud bo‘lgan egalik shakllarining ham parallel ishlatilganining guvohi bo‘lamiz: “*shuuring*”, “*namozi*”, “*ichiga*”, “*nidosi*” (49-bet). Solishtiramiz: diaxron shakl: *faquf-um*, *nutq-um*, *ko‘ngil-um*; *faquf-ung*, *nutq-ung*, *ko‘ngil-ung*; *faquf-u*, *nutq-u*, *ko‘ngil-u*. Sinxron shakl: *vaqf-im*, *nutq-im*, *ko‘ngil-im*... Ko‘rinadiki, sintagmada o‘rinlashgan egalik shakli asos tarkibidagi lablangan

unlining (“u”) talabi bilan o‘zgarmoqda. Demak, sintagmalarda egalik shakllarining diaxron ko‘rinishi o‘sha davrga nisbatan ham, sinxron ko‘rinishga nisbatan ham nomutanosibdir.

Kelishik shakllarining ham turli ko‘rinishda (variantlarda) ifodalanishi mavjud bo‘lib, bu jarayon sintagmada o‘rinlashishi tabiiy holatda bo‘lgan. Kelishik shakllarining turli shakl (ko‘rinish)larda ishlatilishi o‘sha davr uchun odatiy hol bo‘lib, har bir shaklning o‘z variantlari to‘liq iste’molda bo‘lganligi kuzatiladi. Bu holat o‘sha davrning kelishik shakllarida nomutanosibliklar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatsa, hozirgi shakllarga nisbatan ham nomutanosib bo‘lib qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Chiqish kelishigi *-dan* shakli eski o‘zbek adabiy tilida *-din* shakli bilan ifodalangan. “Munshaot” asarining 191-betida “*atrofdin*”, “*alardin*”, “*ishidin*”, “*bundin*”, “*yodidin*”, “*qatoridin*”, 193-betida “*duodin*”, “*zulmatidin*”, “*mazmunidin*”, “*falakdin*” kabi so‘zlarda va “Mahbub ul-qulub” asarida esa “*xayolidin*” (48-bet), “*shiddatidin*”, “*nidosidin*”, “*huridin*”, “*uyotdin*” (49-bet) kabi so‘zlar tarkibida chiqish kelishigi shakli *-din* variantida ishlatiladi. Asarning boshqa qismlarida ham *-dan* shaklini uchratish qiyin. Bundan aniq bo‘ladiki, eski turkiy tilimizda chiqish kelishigi shakli *-din* variantida mavjud bo‘lgan va tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi holatga kelib qolgan. *Zulmat+i+din*, *mazmun+i+din* shaklidagi diaxron varianti *zulmat+i+dan*, *mazmun+i+dan* shaklidagi sinxron variantidan biroz farq qilib, chiqish kelishigi shaklining bu holati sintagmada emas, ikki shakl o‘rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Diaxron jihatdan tushum kelishigi asosan ikki variantda ishlatgan. Bugungi kunda she’riyat talabi bilan qisqargan *-n* shakli hamda adabiy tildagi invariant shakli *-ni* teng qo‘llanilgan: “takallumin” (57-bet), “tutmog‘onni” (87-bet). Diaxron jihatdan adabiy normada bo‘lgan har ikki shakl o‘sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham mutanosib

emas. Morfologik sintagmada *takallum+i+n – tut+ma+g'on+ni* kabi so'zshakl tarkibida tushum kelishigiga nisbatan nomutanosiblikni kuzatsak, sifatdoshning *-g'on* shakli sintagmatik nomutanosiblikni ko'rsatmoqda. Demak, shakllar sintagmada o'ziga xos simmetriya holatida bo'lmay, tilning o'z talabiga ko'ra turli davrlarda yoki so'z tarkibida nomutanosib bo'lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, *-ni (-n)* tushum kelishigi shakli nomutanosiblikni ham diaxron, ham sinxron ko'rinishlariga misol bo'la oladi.

Kelishiklar borasidagi tahlillar jo'nalish kelishigining ishlatilishida to'rt variantlilik, ya'ni to'rtta allomorf ko'rinishida mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bular: *-g'a* (190-betda qaysig'a, holig'a; 191-betda devoniylarg'a, bandag'a; 192-betda o'tig'a, jarohatig'a; 193-betda qotillarig'a, tang'a, jong'a; 48-betda yo'lg'a, ishqig'a, husnig'a), *-ka* (49-betda sulukka), *-qa* (87-betda valene'matqa; 160-betda tufroqqa), *-ga* (49-betda ko'ngliga, o'ziga, ishiga) shakllari bilan ifodalangan. Misollardan ko'rinadiki, bunday morfologik shakllarning 4 variantliliigi til tarixida to'liq amal qilib, bugungi kundagi (1995-yildan boshlab) 3 variantlilikka kelib qolgan. Ya'ni sintagmalar tarkibida kelayotgan shakllarning ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan miqdori nisbatan kamaygan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, allomorflarning ayrimlari juda faol bo'lsa, ayrimlari nofaol bo'lgan. Ammo jo'nalish kelishigining barcha shakllari invariant maqomida bo'lgan. Allomorflar orasida eng faoli *-g'a* shakli hisoblangan. *-g'a* shaklining Navoiy asarlarida juda ko'p uchrashi hozirga adabiy tildagi *-ga* morfologik shaklining ko'p qo'llanishi kabi; o'z navbatida bir vaqtlar faol bo'lgan bu shakl endilikda nofaol shaklga aylangan va eski o'zbek adabiy tilida nofaol bo'lgan *-ga* affiksi esa bugun o'ta faol affiksga aylangan. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatmoqdaki, faollik darajasiga ko'ra eski o'zbek tilidagi *-g'a* shakli bugungi *-ga* shakliga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bu

esa morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini isbotlab beradi.

Xuddi yuqoridagi jarayon qaratqich kelishigi shaklida ham mavjud. Til tarixida, jumladan, eski o‘zbek adabiy tilida qaratqich shaklining *-ing* va *-ning* shaklidagi ko‘rinishlarini kuzatamiz: *tabiating komi*(49-bet), *tilning ofati* kabi.

Umuman olganda, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, bu jarayonlar qaratqich kelishigi shakllarining ikkita, tushum kelishigi shakllarining ikkita, jo‘nalish kelishigi shakllarining to‘rtta, chiqish kelishigi shakllarining ikkita variantlilik sababli yuzaga keladi.

Ismlardagi kesimlik shakllari (bog‘lamalar yoki shaxs-son)ni eski o‘zbek adabiy tilida *-men*, *-sen*, *-dur*, *-tur* (bugungi kundagi *-man*, *-san*, *-dir* shakllari kuzatilmaydi) shakllarida ishlatilishi mavjud. Bu holat “*ishtur*” (189-bet), “*bordur*”, “*ekandur*”, “*vojibdur*”, “*zabtidur*” (190-bet), “*bermakdur*” (192-bet), “*xushvaqtdurlar*” (193-bet), “*nidosidur*”, “*kechmakdur*” (49-bet), “*ulfatdur*” (50-bet), “*qilgaysen*”, “*degaysen*” (136-bet), “*yururmen*” (194-bet) kabi so‘zshakllarda ko‘rinadi. Misollardan anglashiladiki, kishilik olmoshlarining morfemaga tortilish jarayonida hali o‘z shaklini yo‘qotmaganligini kuzatamiz: *-men*, *-sen*. *Ish-tur*, *ulfat-dur*, *kech-mak-dur*, *de-gay-sen*, *yur-ur-men* kabi morfologik sintagmalarda *-tur*, *-dur* singari kesimlik shakllari o‘zaro nomutanosiblikning diaxron ko‘rinishini ifodalayotgan bo‘lsa, *-sen*, *-men* kabi shaxs-son shakllari bugungi kundagi shakllariga nisbatan sinxron ko‘rinishini ifoda etmoqda. Demak, kesimlik va shaxs-son shakllari morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini ifodalaydi. Morfologik shakllarda ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan miqdori turlichadir. Masalaning ikkinchi tomoni esa, har bir shaklning diaxron va sinxron ko‘rinishdan *-tur* – *-dir*, *-dur* – *-dir*, *-sen* – *-san*, *-men* – *-man* holatidagi

(ko‘rinishidagi) nomutanosiblikni ham kuzatishimiz mumkin. Bu holat morfologik shakllarning bugungi kundagi fonetik o‘zgarishlari sababli yuzaga chiqmoqda.

Edi to‘liqsiz fe‘lining diaxron ko‘rinishi *bo‘lmoq* mazmunini ifodalovchi *erdi* shaklida qo‘llanilgan vaqtdan boshlab, uning tarkibida o‘zgarishlar kuzatiladi. *Edi* shakli *ermoq* fe‘lining qisqarishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, asli asos “*er*” so‘zidir. Vaqtlar o‘tishi bilan “*r*”ning fuziyaga uchrashi orqali asos tarkibi *e* holiga kelib qolgan. Chunki bu shakl Navoiy davrida “*ermishkim*”, “*erdi*”, “*erdikim*” (48-bet), “*ermish*” (57-bet), “*erdingiz*” (193-bet) kabi ko‘rinishlarda qo‘llanilib, taraqqiyotning keyingi davrida sintagma tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lgan. Demak, aslida bu so‘z “*erdi*” shaklida bo‘lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida “*r*” tovushi tushib qolib, so‘z yanada qisqarishga uchragan. “*Edi*”ning bugungi kunda ham fuziyalanishi kuzatiladi va u -*di* shaklidagi morfologik shaklga aylanib bormoqda. *Edi* va -*di* shakllari ma’no ifodalash nuqtayi nazardan deyarli bir xil ko‘rinishga kelib qolgan bo‘lsa-da, *edi* uzoq o‘tmishni, -*di* yaqin o‘tmishni ifodalaydi. *Ermishkim* sintagmasi tarkibidagi (er-mish-kim) -*mish* o‘tgan zamon sifatdoshi hozirgi davr -*gan* shakli mavqeyida, -*kim* yuklamasi esa -*ki* tarzida nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Shakllanish nuqtayi nazardan -*mish* harakat nomi shakli mazmunan sifatdosh shakli bo‘lib olishi morfologik sintagmada nomutanosiblikning diaxron ko‘rinishiga misol bo‘ladi. -*kim* yuklamasi tarkibidagi “*m*”ning fuziyalanishidan -*ki* shakliga kelib qolishi nomutanosiblikning sinxron ko‘rinishini ifodalaydi.

Fe‘llar borasida so‘z ketganda (A.Hojiyev ham ta’kidlagan) eski o‘zbek adabiy tilidagi ko‘pgina so‘zlar bugungi ko‘rinishidan farq qiladi. Bu holatlar fe‘lning zamon, nisbat, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarida ham kuzatiladi. Navoiy asarlarida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Eski o‘zbek adabiy tilida “*bo‘lgay*” so‘zi tarixiy taraqqiyot

natijasida “*bo‘ladi*” shakliga kelib qolgan. *Bo‘l-g‘ay* sintagmasidagi *-g‘ay* (-ay, -y) istak mayli shakli taraqqiyot natijasida “g”ning fuziyaga uchrashi sababli nomutanosiblikning daxron ko‘rinishi hosil bo‘ladi. Shuningdek, *-di* zamon shaklini *-ti* varianti qo‘llanilgan so‘zlar ham juda ko‘p uchraydi: “*tushti*”, “*yetti*” (49-bet). *-di* va *-ti* shakllari eski o‘zbek adabiy tilida ham to‘liq amalda bo‘lib, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron ko‘rinishini ifodalaydi. *-ti* shakli bugungi kunda III shaxsda hozirgi zamon shaklini ifodalayotgan *-yapti* affiksining ikkinchi qismidagina saqlanib qolgan. Kelasi zamon qo‘shimchasi “*-adi*” shakli esa Navoiy davrida “*-gay*” shaklida qo‘llanilgan: “*yetkurgaylar*” (259-bet).

Eski o‘zbek adabiy tilida *-(i)b* ravishdosh shaklining “*-ub*” ko‘rinishi faol ishlatilgan. Bu holat bugungi kunda singarmonizm hodisasidan yiroqlashib asosiy so‘zlarga *-ib* shaklida qo‘llaniladi. Aslida esa, Navoiy “*oshub*” (49-bet), “*kelturub*” (191-bet), “*yetkurub*” (193-bet) shaklida qo‘llagan. *-gan* shaklini esa *-g‘on*, *-qon* (ba‘zi hollarda *-ur*) shakllarida ishlatilganligini ko‘ramiz. Tarixiy taraqqiyot morfologik shakllar tarkibidagi “g” va “q” tovushlarini “g” shakliga, “o” tovushini “a” shakliga o‘tib ketganligini ko‘rsatmoqda. Morfologik shakllar tarkibini asosiy qismi o‘zgarib ketgan bo‘lsa-da, mohiyatidan yiroqlashmagan. Bu shakllar “*qochqon*” (49-bet), “*qilg‘on*” (191-bet), “*ozg‘onlar*”, “*bo‘lg‘on*” (259-bet), “*o‘qur kishi*” (190-bet) holatda keltirilgan bo‘lib, bugungi kunda *qochgan*, *qilgan*, *ozgan*, *bo‘lgan*, *o‘qigan* shakllarida ishlatiladi. Harakat nomi shaklining *-ur* (190-betda “o‘qurda”), *-mak* (49-betda “kechmakdur”), *-moq* (50-betda “turmoq”) ko‘rinishlari amalda bo‘lgan. Bugun esa *-ish* va *-moq* variantlari saqlanib qolgan. *-mak* holati esa batamom *-moq* holatiga, *-ur* shakli esa *-ish* shakliga o‘tib ketgan. Nomutanosiblikning bir ko‘rinishi sifatida fe‘l shakllari orasida shakldoshlik hodisasi Navoiy davrida ham bo‘lgan, keyinchalik bu morfemalar o‘z mustaqilligiga erishib, ko‘rinish jihatidan

o‘zgarigan. “*O‘qurda*” (o‘qishda) – “*o‘qur kishi*” (o‘qigan kishi). Misollarda ko‘rinib turibdiki, *-ur* fe‘l shakllari ichida shakldosh qo‘shimcha hisoblangan. Bu holatdan anglashiladiki, so‘z tarkibidagi morfem birliklar diaxron va sinxron nuqtayi nazardan qaralganda turli o‘zgarishlarga uchragan va nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan.

Fe‘l nisbatlarida ham shakllar bugungidan ko‘p ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *-in*, *-il* (ko‘rindi, ko‘rildi) shaklidagi fe‘l nisbatlari mavjud. Navoiy asarlari tilida bu shakllarning turli allomorflari qo‘llangan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, eski o‘zbek adabiy tilida fe‘l nisbat shakllarining turi ko‘p bo‘lgan. Masalan, hozirgi *-in* shakli o‘rnida *-un* (192-betda “ko‘rundi”), *-il* (189-, 190-, 191-, 259-betlarda “qililsa”), *-ul* (191-betda “bo‘lulmasa”) shakllari qo‘llangan. Bu shakllarga teng morfemalar bugungi tilimizda bitta shakl bilan ifodalanishga kelib qolgan. Hozirgi *-il* shakli esa *-ul* (191-betda “ko‘rulsa”) shaklida ham ishlatilgan. Orttirma nisbat shakllarida ham o‘ziga xoslik kasb etadi: hozirgi *-ir* shakli *-ur* (191-betda “kelturub”) shaklida, *-giz* shakli *-gur* (67-betda “ko‘rguzsa”) shaklida, *-kaz* shakli *-kur* (259-betda “yetkurgaylar”) shaklida, *-ar* shakli *-or* (259-betda “chiqordilar”, 136-betda “chiqormoqliq”) shaklida keng qo‘llanilgan. Bu holatlar eski o‘zbek adabiy tilida morfologik shakllar rang-barangligini ko‘rsatadi. Shuningdek, morfologik sintagmalardan anglashiladiki, nomutanosiblikning diaxron ko‘rinishi nisbat shakllarida ham uchraydi. Fe‘lning *-in*, *-un*; *-il*, *ul*; *ir*, *ur*; *giz*, *-gur*; *kaz*, *kur*; *ar*, *or* kabi nisbat shakllari morfologik sintagmalarda shakl va mazmunga nisbatan nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini ifodalaydi. Chunki bunday turli variantlilik shakllarning ortishi orqali ifodalanayotgan bo‘lsa-da, bir mazmunga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotda (eski o‘zbek adabiy tilidan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha besh asr vaqt o‘tganligi bois) so‘zshakl – sintagmaning o‘zgarishlari ham kuzatiladi. Birinchi holatda tovushlarning o‘zgarishini

kuzatish mumkin: *“bila”* (191-bet) *bilan* holatiga kelgan, *“qilinur”* (190-bet) *qilinadi* holatiga, *“ko‘ngul”* (192-193-betlar) so‘zi *ko‘ngil* holatiga, *“qo‘yub”* so‘zi *qo‘yib* holatiga, *“yetkursalar”* (191-bet) *yetkarsalar* holatiga kelib qolgan. Shu bilan birgalikda *“ortuq”* (ortiq), *“topshurulsa”* (topshirilsa), *“yetkurdi”* (yetkazdi), *“yetkurib”* (yetkazib), *“o‘tkarib”* (o‘tkazib) kabi so‘zlarda ham turli tovush o‘zgarishlari bo‘lgan. *“yafrog‘lari”*, *“yovushti”* (49-bet) so‘zlari tarkibida ikkitadan tovush o‘zgarishlarini sezish mumkin. Bunda asosan “p” tovushi “f” bilan ifodalanayotganligini kuzatamiz. *“sovug‘”* (49-bet) (sovuq), *“orig‘ay”* (50-bet) (arigay). *“O‘qusa”*, *“uzottilar”*, *“yig‘och”* (57-bet) so‘zlari tarkibi ham bugun o‘zgargan. Demak, sintagma tarkibidagi *-ur* shakli *-adi*; *-ub* shakli *-ib*; *-kur* shakli *-kaz*; *-kar* shakli *-kaz*; *-ti* shakli *-di*; *-g‘ay* shakli *-gay* tarzida (bugungi kunda) ifodalanib nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini yuzaga chiqarmoqda.

Morfologik sintagmalar tarkibida ortiqchalik (murakkablashuv) kuzatiladi: *“-kim”* shakli bilan ortiqchalik hosil qilayotgan so‘zlarga to‘xtalib, u so‘zlar tarkibidagi bu birlik hozirda batamom yo‘q bo‘lib ketganligini ko‘rdik: *“bu mahaldakim”*, *“qilsakim”* (190-bet) *“bitilsakim”*, *“ulkim”*, *“bo‘lsakim”*, *“qililsakim”*, *“har qaysi ishkim”* (191-bet). Buni shunday izohlash mumkinki, ikki davr o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi.

Morfologik sintagmalarning qisqarishi yoki asosning o‘zi o‘zgarishini kuzatish mumkin: so‘z tarkibi qanchalik murakkablashmasin, tabiiy ravishda soddalanishga (qisqarishga) intilaveradi. *“Aytur erdi”*, *“tutub erdi”* (49-bet) kabi so‘zlar tarkibidagi analitik shakllar bugun *“aytardi”*, *“tutardi”* so‘zlar tarkibidagi morfologik shakllarga kelib qolgan. Ikki so‘zning qo‘shilishi va ular orasidagi birikuvning natijasida ikki so‘z tarkibida ham o‘zgarish sodir bo‘lib, bir so‘zshakl holatiga kelib qoladi. Bugun bu so‘zni biz tub so‘z

deb ataymiz. Navoiy davrida esa bu ikki soʻz – yetakchi-koʻmakchi tarzida ifodalangan. “*Edikim*” (48-bet) soʻzining qisqarishi tufayli oxiridagi “m”ning tushib qolishi *ediki* holatiga asos boʻldi. “*Sirrin*” (57-bet) tarkibidagi bitta “r”ni qisqarishi ham yuqoridagi holatni koʻrsatadi. “*andoq*” (59-bet) soʻzi esa “ozroq” shakliga kelib qolgan.

Demak, tarixiy taraqqiyot natijasida roʻy bergan tildagi baʼzi oʻzgarishlarni Navoiy asarlarida kengroq kuzatish mumkin (Aslini olganda, bu tadqiqot juda katta ish boʻlganligi sabab biz uning mavzuga aloqador elementlariga toʻxtaldik, xolos). Til tarixida qoʻllanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli oʻzgarishlarga uchragan. Bu oʻzgarishlar sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron koʻrinishlari mavjudligini koʻrsatishga, izohlashga, solishtirib koʻrishga, farqlashga asos boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 jildlik, 14 jild. – Toshkent, 1998
2. Berdialiyev A. Soʻz tarkibi va shakl-maʼno nomutanosibligi. – Bishkek, 2013.
3. Mirzaqulov T. Oʻzbek tili morfemikasida paradigmatic va sintagmatic munosabatlar. – Xoʻjand. 1993.
4. Botirova A. Oʻzbek tilida soʻz turkumlarining birlamchi vazifalari. – Toshkent: Turklad. 2018.
5. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
6. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. – B. 212-213.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HOZIRGI VA TARIXIY SO‘Z YASALISH USULLARI VA ULARNING MUNOSABATI

*Akmal Rahmatullaevich Tursunov,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Tilda, jumladan, o‘zbek tilida yangi so‘z yasashining xilma-xil usullari borligi ma’lum. So‘z yasashining asosiy tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari masalasidir. So‘z yasash usullari tilning lug‘at tarkibini boyitadigan muhim vositalardan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: tushunchalar, usullar, leksema, kompozitsiya usuli, ta’lim, lug‘at, metodlar, tilshunoslik, tadqiqot.

So‘z yasash sohasining bir qancha umumiy hodisalari, tushunchalari mavjud. O‘zbek tilshunosligida bunday umumiy tushunchalar aniq belgilanmagan. Ma’lum bo‘lgan ayrim umumiy hodisalarning talqinida ham har xilliklar bor. Rus tiliga oid ishlarda so‘z yasashining umumiy tushunchalari asosan aniq belgilangan va bular yuzasidan deyarli bir fikrga kelingan. O‘zbek tili so‘z yasashining umumiy tushunchalarini belgilash va bayon etishda ana shu ishlardagi fikrlarga asoslanadi.[1]

So‘z yasashining ana shunday tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari tushunchasidir. So‘z yasashi, qanday usul (yo‘l) bilan bo‘lsa ham, yangi so‘z (leksema) hosil bo‘lishi ekanligi yuqorida aytiladi. Bunda ikki hodisani farqlash kerak bo‘ladi:

- 1) tilda umuman yangi so‘zning hosil bo‘lishi;
- 2) tilga xos ma’lum (qat’iylashgan) usul asosida shu til materiallari bilan yangi so‘z yasash (yangi so‘z hosil qilish).

Tilda, jumladan, o‘zbek tilida yangi so‘z yasalişining xilma-xil usullari borligi ma‘lum. Lekin bu usullarning miqdori va turlarini belgilashda, shuningdek, ularni nomlash masalasida hanuz yagona bir fikrga kelingan emas.

O‘zbek tiliga oid, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda so‘z yasalişining ikkidan to yettigacha bo‘lgan turi ko‘rsatiladi. So‘z yasalişining asosiy usullari deb ko‘pchilik tomonida tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilardir:

1) semantik (yoki leksik-semantik) usul; 2) fonetik usul; 3) sintaktik-leksik usul; 4) affiksatsiya usuli; 5) kompozitsiya usuli; 6) abbreviatsiya usuli.

Semantik (leksik-semantik) usul bilan so‘z yasalişini deganda so‘z shaklining leksik ma‘no kasb etishi natijasida yangi so‘z (leksema) ga aylanishi bilan yangi so‘z hosil bo‘lishi, ko‘p ma‘noli so‘zning ma‘nolari o‘rtasidagi bog‘lanishning (semantik aloqaning yo‘qolishi natijasida) yangi leksema hosil bo‘lishi tushuniladi. Masalan, boshda (o‘rin-payt kelishigi formasidagi otning ravishga ko‘chishi bilan yuzaga kelgan so‘z), kechasi (egallik shaklidagi otning ravishga ko‘chishidan hosil bo‘lgan so‘z), kelishgan (yigit), arzimagan (narsa) sifatdash shaklidagi fe‘lning sifatga ko‘chishi bilan yuzaga kelgan so‘zlar kun (quyosh, planeta) kun (sutkaning yorug‘ qismi, kunduz) va boshqalar.

So‘zda fonetik (tovush) o‘zgarishi natijasida yangi fonetik usul bilan so‘z yasalişini deganda, odatda, ikki hodisa nazarda tutiladi. So‘z hosil bo‘lishi: **ko‘r-ko‘z, bo‘r-bo‘z kabi.**[1] Urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish yo‘li bilan yangi-yangi (hozir), endi-endi hozirgina) kabi.

Haqiqatdan ham, tilda shunday so‘zlar bor. Lekin bu tipdagi so‘zlar juda oz miqdorda bo‘lishidan tashqari so‘z yasalişida sistema hosil qila olmaydi. Ayub G‘ulomovning ko‘rsatishicha, **tun-kun, aka-uka** kabilar ham fonetik usul bilan so‘z yasaliş hodisasidir. Sintaktik-

leksik usul bilan soʻz yasalishi deganda soʻz birikmasining soʻz (leksema)ga aylanishi tushuniladi.

Til taraqqiyoti jarayonida maʼlum turdagi soʻz birikmasi yagona leksik maʼno kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi - qoʻshma soʻz yuzaga keladi

Masalan, *mingboshi, joʻxoripoya, tokqaychi* kabi qoʻshma soʻzlar shu yoʻl bilan yuzaga kelgan, qoʻshma soʻzlar deb qaraladi. Soʻz hosil boʻlishining bu usuli leksikalizatsiya usuli deb ham yuritiladi. Affikslar vositasida soʻz hosil qilinishi affiksatsiya usuli bilan soʻz yasalishi deyiladi: polizchi, gulchi, ishchi kabi. Mustaqil leksik maʼno ifodalay oladigan birdan ortiq leksemani qoʻshish bilan soʻz yasalishi kompozitsiya usuli bilan soʻz yasalishi deyiladi va bu usul bilan qoʻshma soʻzlar hosil qilinadi: *tuyaqush, mingoyoq, atirgul, oybolta, olib kelmoq, sotib olmoq* kabi.

Koʻrib oʻtilgan besh xil soʻz yasalishi usullaridan uchtasining semantik, fonetik va sintaktik-leksik deb atalishi til hodisasiga koʻradir. Keyingi ikki usulning atalishi esa, soʻz yasalishi materialiga koʻra. Soʻz yasalishi usullarini nomlashda bir xil yoʻl tutishni, yaʼni qanday til hodisasi (fonetik, morfologik kabi hodisa) asosida yasalishini nazarda tutish maʼqulligini hisobga olib, ayrim ishlarda affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan soʻz yasalishi morfologik usuli bilan soʻz yasalishi deb qaraladi (har ikki usul birlashtirilib, shunday nom bilan ataladi).

Shunday ekan, soʻz yasovchi affikslarni morfologiya bilan bogʻlab, ular yordamida soʻz yasalish usulini morfologik usul deb atash yetarli asosga ega boʻlmaydi. Bu usulni soʻz yasalishining affiksatsiya usuli deb atash esa hodisaning mohiyatiga toʻla mos keladi.

Soʻz yasalishining asosiy tushunchalaridan biri soʻz yasash usullari masalasidir. A.Gʻ.Gʻulomov oʻz izlanishlarida bu masalaga katta eʼtibor bergan. U “Oʻzbek tilida soʻzning ichki tuzilishidagi oʻzgarishlar orqali

soʻz yasash” maqolasida (1947) soʻz yasashning sakkiz usulini koʻrsatadi: affiksatsiya, kompozitsiya, omonimizatsiya, aktsentuatsiya, abbreviatsiya, reduplikatsiya, soʻzning ichki tuzilishidagi oʻzgarishlar orqali soʻz yasash, bir soʻz turkumining boshqasiga oʻtishi.[1].

Kitobda koʻrsatilishicha, “Soʻz yasashning bundan boshqa yoʻllari ham bor:

1. Leksik yoʻl bilan yasash - biror soʻzning bir turkumdan boshqa turkumga koʻchishi. Masalan, Turdi, Tursun kabi otlar feʼlining otga koʻchuvi orqali yasalgan. 2. Fonetik yoʻl bilan yasash - urgʻuni koʻchirish orqali bir soʻzdan yangi soʻz hosil qilish. Masalan: *yangi (novyy) - yangi (hozirgina)*. Qisqartma soʻzlarning hosil boʻlishi qoʻshma soʻzlarning hosil boʻlishi doirasiga kiritilgan. Reduplikatsiya (soʻzlarning takrorlanishi, qoʻshaloqlanishi, soʻz takrori) ham keng maʼnoda juft soʻzlarga kiradi.

Bu tip yoki soʻz yasash yoʻllari qaytadan guruhlanib, ikki umumiy turga ajratilgan: 1. Grammatik soʻz yasash: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya (boshqa turkumga koʻchirish – kategorial koʻchish yoʻli bilan yasash). 2. Leksik-semantik soʻz yasash (maʼno oʻzgarishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi). 3. Fonetik soʻz yasash (fonetik vositalar, har xil fonetik oʻzgarishlar yordami bilan yasash).

A.Gʻ.Gʻulomov kalkalash (qisma-qism, morfemalar boʻyicha tarjima qilish: ledokol – muzyorar, rastvor – eritma, udarenie – urgʻu) ham soʻz yasashning bir yoʻli ekanligini taʼkidlaydi. Bu kitobda juft soʻzlar (ota-ona, qovun-tarvuz), qisqartma soʻzlar (*MTS: mashina-traktor stansiyasi*), shuningdek, reduplikatsiya, soʻz takrori yoʻli bilan hosil qilingan soʻzlarni (ququ: qush kabi) qoʻshma soʻz termini oʻz ichiga olishi maxsus taʼkidlangan va bu usullar soʻz yasash usullari doirasiga kiritilgan. Juft soʻzlar va reduplikatsiya yoʻli bilan yasalgan soʻzlar qoʻshma soʻzning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanishi ham aytib oʻtilgan. [1].

Soʻz yasash usullari tilning lugʻat tarkibini boyitadigan muhim vositalardan biri sanaladi.

A.Gʻ.Gʻulomov tilshunosligimizda shu kungacha eʻtibor berilmay kelinayotgan muhim bir masalaga – soʻz yasash usullarining oʻzaro munosabati, kelib chiqishi, taraqqiyotini va raqobati masalasiga alohida toʻxtalib oʻtgan.

A.Gʻ.Gʻulomov 1953 yilda eʻlon qilingan “Oʻzbek tili morfologiyasiga kirish” asarida “Soʻz yasalishi” alohida boʻlim sifatida berilgan. “Qoʻshma soʻzlar” mavzusi ham alohida oʻrin olgan. Qoʻshma soʻzga dastlab taʻrif berilgan: “Qoʻshma soʻzlar bir necha oʻzakning birikib, bir butunlik tashkil qilishidan tugʻiladi. Qoʻshma soʻzning sostavidagi elementlarning semantik va grammatik jihatdan birikishi natijasidan butun kompleks bir soʻz holiga kelgan boʻladi”¹.

Olim qoʻshma soʻzlar, xususan qoʻshma otlarning tugʻilish manbai haqida fikr yuritib, ular aniqlovchi va aniqlanmish holatidagi soʻz birikmasidan kelib chiqishini koʻrsatadi.

xx asrning 40-50 yillarida rus-slavyan, roman-german tilshunosligida soʻz yasalishi, leksikologiya (xususan, leksikografiya, frazeologiya), grammatika masalalarida yasama soʻz va uning hosil boʻlish usullari, qoʻshma soʻzning soʻz birikmasi va turgʻun iboralardan farqi, oʻxshash tomonlari boʻyicha V.M.Jirmunskiy, V.G.Admoni, O.S.Axmanova, V.A.Desnitskaya, M.D.Stepanova, V.N.Yartseva kabi olimlarning kitob va maqolalari eʻlon qilindi.

Bu kitoblarda oʻsha davr uchun keng rusum boʻlgan yaxlit shakllanish (цельнооформленность) hamda alohida shakllanish (раздельнооформленность) tamoyillari asosida qoʻshma soʻz, soʻz birikmasi va turgʻun iboralar orasida muhim tafovutlar, oʻziga xoslik belgilangan edi. Bu munozara va bahslardan turkiyshunoslik va oʻzbek tilshunosligi ham chetda qolgan emas.

A.G'.G'ulomov o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlari va fan yutuqlari mohiyati bo'yicha original konsepsiya yaratgan olimdir. Bu konsepsiya tilshunosligimizning keyingi rivoji uchun asos, poydevor vazifasini bajardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiev A. So'z yasash usullari // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1975. 4-son. 25-32-b.
2. G'ulomov A.G' va boshq. O'zbek tili morfem lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1977, 462 b.
3. G'ulomov A.G'. Morfologiya (kirish). O'zbek tili grammatikasi, II tomlik. I tom, Toshkent, 1975.
4. G'ulomov A.G'. Sifat haqida mulohazalar (ikkinchi maqola) // "O'zbek tilida so'z yasalishi" to'plami, Toshkent, 1979.
5. G'ulomov A.G'. So'z yasalishi // O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. – Toshkent, 1975.

«QUTADG'U BILIG» DOSTONIDA KO'CHMA MA'NOLI BIRLIKLAR

Laylo Baxtiyorovna Mirzohidova,

*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada «Qutadg'u bilig» asarida ifodalangan majoziy tasvirlar tahlil etilgan. Qadimgi turkiy poeziyada mavjud badiiy tasvir vostalari, jumladan, majoz va uning xillari hisoblangan majozni mursal, ramziy sifatlash, o'xshatish, ramziy kinoya,

ramziy mubolag‘a tahlil qilingan. Ushbu tasvir vositalari keyingi davr adabiyoti uchun bir manba vazifasini o‘tagan. Majoziy tasvirlarning hayotiy zaminga asoslanishi, estetik ta‘sir kuchining yuqoriligi, bu davr ijodkorlari tafakkur tarzining ham yuksakligidan dalolat berishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: majoziy mursal, ramz, majoz, majoz va uning xillari, ramziy sifatlash, o‘xshatish, ramziy kinoya, ramziy mubolag‘a, majoziy obraz, obrazlilik, badiiy tasvir, so‘z, so‘z birikmalari.

Majoziy mursal yaxlit ramziy asarlar yaratilishiga asos bo‘ladigan san‘atdir. Majoziy mursal klassik adabiyotimizda juda keng tarqalgan poetik san‘at bo‘lib, so‘z va so‘z birikmalari, sifatlash hamda o‘xshatishlarsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri majoziy[1] ma‘no anglatadi. Majoziy mursalda ma‘no bilan unga asos bo‘lgan narsa o‘rtasidagi yaqinlik ayrim xususiyatlarining o‘xshashligidir. Ayrim hollarda o‘xshashlik ham bo‘lmashligi mumkin. Bu paytda majoziylikka asos bo‘lgan narsa va hodisaning yaxshilik va yomonlikka xizmat qiluvchi xususiyati nazarda tutiladi.

Qadimgi turkiy poeziyada majoziy mursal juda ko‘plab poetik obrazlar misolida yuzaga kelgan. Ramziy xususiyatli bu obrazlarni guruhlariga bo‘lib o‘rganish ham yirik tadqiqotlarga mavzu bo‘ladi. Aytish lozimki, bu xil ramzlarning mantiqiy asosi ikkita negizga qurilgan: biri inson obrazini poetik ramzlar bilan ko‘rsatish, ikkinchisi insonning jamiyat, davlat va tabiat haqidagi kechinmalariga poetik ramzlar topish. Ana shunday negizdan kelib chiqib, qadimgi turkiy poeziyadagi majoziy mursal ikki guruhga bo‘lib o‘rganilishi mumkin:

1. Insonning ramziy poetikasi;
2. Jamiyat va tabiatning ramziy poetikasi.

Ushbu maqolada faqatgina insonning ramziy poetikasi tahliliga to‘xtalib o‘tamiz. Inson obrazining tasvirlanish darajasiga ko‘ra uning

ramziy poetikasini yana quyidagicha bo‘laklar asosida o‘rganish mumkin: a) *inson qiyofasi va uning tanidagi a’zolar*; b) *insonning hayotidagi tirikchiligi, quvonch va shodligi, qayg‘u-alami*; g) *inson umrining foniyiligi va boqiy dunyoga ketishi* ifodalagan majozlar.

a) Inson qiyofasi va uning tanidagi a’zolari bilan bog‘liq majozli mursallar. **Yuz suvi** - insonning dunyoda topadigan obro‘-e’tibori. Inson ikki xil shuhrat bilan nom qozonadi. Biri mol-dunyo orqasidan, ikkinchisi yuz suvidan. Yuz suvi obro‘-e’tiborning ramziga aylanishiga sabab yuz suvi - yuzdan oqadigan suv, terdir. **Ter** – mehnatning ramzidir. Demak, odam dunyoda shuhratni mol-dunyo orqasidan emas, balki mehnati, peshonateri bilan topishi kerak:

Эки ндъ, турур дунйа аты жавы

Бири ндъ тавар-ул бири йүз сувы. (QB.892)

Dunyoning shuhrati, ovozasini ikki narsa(dan iborat)dir,

Biri-narsa tovar, biri - **yuz suvi** (obro‘)dir.

Yuz ko‘rkidan suv ichish - inson tashqi qiyofasining go‘zal, xususan begning mehrli bo‘lishining ham ramzi. Begning yuzidagi go‘zallik, mehrdan fuqarolar bahramand bo‘ladi, o‘zlariga taskin topishadi va unga sadoqat bilan qarashadi. «*Эди эдгү нәһ бу киши кѳрки йүз, бу йүз кѳркингә сув ичәр эчки кѳз*», «Kishining ko‘rki bo‘lgan yuz juda yaxshi narsa, **bu yuz ko‘rkidan ikki ko‘z suv ichadi**» (QB.401). Bu misrada ikki ko‘z odamning ramzidir. Ko‘z inson tanidagi eng muqaddas a‘zo. Ko‘rish xususiyatini ta‘minlovchi nur bir necha majozlar hosil bo‘lishiga asosdir. Devonda ko‘z nuri - **sevikli yor** obrazida kelgan:

Барды кузум йаруки, Алды узум қонуқи,

Қанда эринч канышы, Эмди узин узгурур. (DLT.I.81)

Ko‘zimniig nuri ketdi, mening ruhimni ham olib ketdi.

U hozir qaerda ekan? Endi meni uyqudan uyg‘otadi.

Juda ishonchli odam. «*Улуг ҳажиб-ул бэҗкә кѳргү кѳзи*», «Ululg‘ hojib begning **ko‘rar ko‘zidir**» (QB.405). Hayotni tanish,

yaxshilikni bilish, ya'ni o'zidan yoshi ulug' kishilarning nasihatini olib ish qilish: «*Авучқа сѳзи-ул йигитлар кѳзи*», «**Qari so'zi, yigitlar ko'zidir**» (QB.471). Begning yaqin kishisi: Ko'zning nuri bor ekan, u tabiiy ravishda har narsani ko'radi. Lekin quyidagi misra bunga teskari ma'no bergandek tuyuladi: «*Өди болди эрсэ кѳрүр экки кѳз*», «Fursati kelsa, **ikki kuz ko'radi**». (QB.409). Ko'z fursati kelsa ko'rishi, fursati kelmasa ko'rmasligi begning saroyidagi har narsani ko'rish, unga qarash mumkin emasligining belgisi. Xizmatkor o'ziga lozim bo'lgan narsaga nazar solishi, boshqa narsani ko'rib, ko'rmaslikka olishi kerak. Ikkinchidan, xizmatkor begning ko'zi, uning ishini yurituvchi, mas'uliyat sezuvchi kishi. Shu sababli beg ishi bo'lsa *o'z ko'zi* - xizmatkorini fursati kelganda chaqirib so'zlashadi, fursati bo'lmaganda begning **ko'zi - yaqiniman** deb uni huzuriga kirib, u so'ramagan narsani aytish ayb, elig O'gdulmishni «**ko'zi va qulog'im**», «*«Кѳзүм-сэ кулақым-сэ кэргил эшит*» (QB.856) deb atashining sababi ana shunday xususiyat ya'ni saroy ishlariga boxabar bo'lish, ishlarni adolatli nizom asosida yuritish, begni barcha narsadan xabardor qilishdan iborat. Bu o'rinda elig O'gdulmishga o'zidek ishonishi tushuniladi. Bundan tashqari "Devonu lug'otit turk" kitobida keltirilgan parchalarda *ko'z, so'z* birikmalari orqali ham majozi mursallar hosil qilingan: **Og'riq ko'z**. Og'riq ko'z – sir tutilgan sevgining majozi. Og'riq ko'zni berkitsa, yoshi oqib oshkora etadi. Sir tutilgan sevgi ham bir kun kelib fosh bo'ladi.

Қизлаб тутар сэвуклук азриши кунни белгүрар

Баилыг кузуг байсама йаши анинг савриқар. (DLT.I.99).

Yashirin tutilgan sevgi ayrilgan kun bilinar,

Og'riq ko'zni berkitma, yoshi oshkora qilar.

Qing'ir ko'z - dushman va yovning majozi. *Қынғыр күзин бақыиттылар, Қамуз тулмун туқуиттылар*. Alp yigitlar chiqishtilar, Qing'ir ko'zlar boqishdilar. (DLT. I.192). Ko'ngil misolida ham bir nechta majozi mursallar yaratilgan. **Ko'ngil quyoshi** - qarindosh. O'zg'urmish

O'gdulmishni shunday ataydi. «*Қатызлан сэн эмди э кһьлүм күни*», «Endi sen qattiq bo'l ey ko'nglim quyoshi» (QB.637). **Ko'ngil sinishi.** «*Кһьүл сынса хасмы байат ьадлы тап*», «Ko'ngil sinisa, munosib xasmi xudoning adlidur» (QB.523). Ko'ngli singan - xafa bo'lgan, azob chekan odamni xursand qilish xudoning adolatiga teng. Demak, eligning vazifasi ko'ngli singan xalqqa adolat qilish. **Bo'g'iz.** Odam ovqatlanishi uchun, tanga oziq kelishi uchun bo'g'iz bir vositadir. Eyiladigan ovqat tomoq, - bo'g'iz orqali oshqozonga o'tadi. Bo'g'iz nafsning majozi sifatida ishlatiladi. Bilimli kishi uchun ikki narsa zarur hisoblanadi. «*Бирү тил туру кһр бириси боғуз*», «Biri til, biri esa bo'g'izdir» (QB.201). Demak, bilimli odam tilini tiyishi kerak. «Poklik istasang, tomoqni poklagin, tomoqni poklasang manfaating daryo bo'ladi» (QB.791). **Tomoqni poklash** - birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, mol-dunyoga xirs ko'yamaslik belgisi. «Tomoqqa ehtiyot bo'linsa boshing uchun foydadir» (QB.459). Demak, nafs ehtiyot qilinsa boshga g'am-kulfat tushmaydi. Nafsini tiygan odam rohatda yashaydi. **Qo'l va til uzunligi.** Qo'l odamlarning haqqini eyish, zo'ravonlik, mol-dunyo to'plash, til birovlarining ko'nglini qoldirpsh, dilozorlik majozi. «*Әлиг тил узун кылдым эрди Өкүш Өлүм кәлди тутты тыным қысты ош.* Qo'l va tilimni ortikcha uzun qilgan edim, O'lim keldi, tutti, mana nafasim qisdi. (QB.219).

b) Insonning hayotidagi tirikchiligi, quvonch va shodligi, qayg'u alamini ifodalagan ramzlar. Odamlarga yaxshilik qilish, inson umrining bezagidir. Shu sababli ham bu davr poeziyasida sahovatli, muruvvatli inson tasviri yetakchi o'rinni egallaydi va insonning bunday fazilatiga mos ramzlar yetarlicha. **Baxt kamari.** Belga belbog', kamarni bog'lash biror ishga kirishishning belgisidir. Ayni paytda kamar bog'lashda belni mahkamroq qisib, ishga mehr, sidqi dildan bajarishga kirishmoq tushuniladi. Baxt kamari esa odam orzu qilgan ishga, muddaoga etganligi, endi uni mehr bilan bajarishga kirishmoqlik majozidir. Chunonchi, Hojib Oyto'ldiga Kuntug'di eligning huzuriga

kirishning payti kelganligini aytganda shu majoz ishlatilgan. Oyto‘ldi uchun uning xizmatiga kirish, elig bilan suhbatlashish orzu, ulug‘ maqsad edi. Demak, eligning Oyto‘ldini o‘z huzuriga chaqirishi Oyto‘ldi uchun baxtning belgisidir: «Oyto‘ldi, tur, eligga bir ko‘ringin, **baxt kamaring bog‘landi**» (QB.143). Oyto‘ldining elig huzuriga kirishi va u bilan suhbatlashishi baxtning belgisi bo‘lsa, elig uchun to‘g‘ri nizom qaror qilish, adolatli siyosat yuritish, bunda yurt tinch va osoyishta hayot kechirishi, eligning baxt kamarini bog‘lashi tarzida poetiklashgan. Insonning yomonlik va yaxshilik xususiyati narsalar vositasida berilgan ko‘plab mursallar yaratilgan. **To‘n** – boylik, badavlatlilik ramzi. Lekin boy bo‘lib xasislikda birovning oldiga dasturxon yoza olmaydiganlarni qoralash uning ibratli ma‘nosidir. *Кўрклуғ тонуг ўзуна, Татлығ ашығ азынқа, Тутғыл қонуқ ағырлығ, Ўазсун йавын бузунка.* (DLT.П.80). Ko‘rkam, chiroyli to‘ning o‘zingga, shirin ovqatingni boshqalarga ata. Qo‘noqlarni hurmatla, toki, shuhrating el-yurtga taralsin. **Kul**. “Devonu lug‘otit turkda”gi bir necha misralarda kul so‘zi yomonlikning, birovga ko‘rsatilgan hurmatsizlikning ramzi sifatida qo‘llanilgan. *Кулса киши этма анар ортар кула, Баққил анар эзгүлүгүн азгин кўла* (DLT.П.34) Kishini o‘zingga kulib qaragan holda ko‘rsang, ya‘ni birov senga kulib boqsa, sen uning yuziga kuydiradigan **issiq kul sochma**, sen ham kulib boq, ya‘ni **yaxshilikka yaxshilik** qil, deyiladi. Oqqush. Baxt, omad, yaxshi niyatlarga erisha olish ramzi:

Сэринсд киши оз тилдкин тапар

Сэриб турдачы эр θрүнь, куш тутар.

Kishi sabr qilsa, o‘z tilagini topadi,

Sabr qilib turguvchi kishi **oqqush tutadi**. (QB.247)

Oqqush - insonning rizq topib eyishi. Oqqush - poklik belgisi bo‘lgani uchun ham uning rizqi kamaymaydi. Poklik insonning rizqi ekan, u o‘zi bilan birgadir.

Азыглыг кур эркэ бу нэнь эксумас

Тугузлы Өрунь күүшқа мэн эксүмэс.

Riqzli mard kishi uchun mol-dunyo hech kamaymaydi,

Tug‘ilgan (ya’ni bunyod bo‘lgan) **oqqush** uchun don kamaymaydi. (QB.345) Rizq - insonning kundalik turmushida eydigan davlatidir. Rizqni tasavvufda odamning tug‘ilishi bilan tangri qo‘shib bergan deb aytiladi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, rizq mehnatdan keladi. Agar insonda mehnat uchun kuch va mehnat quroli bor ekan, unga mol-dunyoga hirs qo‘yishning hojati yo‘q. Rizqning ramziy mursallari shunday: «Qilich, bolta, o‘q, yoy, quvvat, kuch, shijoat bor ekan, zinhor er kishi mol-dunyo uchun qayg‘urmasligi kerak» (QB.345). **Kema** - insonning uylanishi, oilaviy turmushi ramzi. Har bir er va xotin bir kema. Ular hayotning dengizida suzadilar. «Xotin olguvchi **kema mindi**, deb hisobla, kema minguvchi dengiz o‘rtasiga kiradi» (QB.527). **Eshik**. *Ochiq eshik*. Inson uchun hamma imkoniyatlarning yaratilishi, ishning o‘ngidan kelishi, saodatga erishish, *yopiq eshik* - buning aksi ramziga aylangan. «Сен кўнимли бўл, хизмат ишларини адо этар пайтида шошилма, пайти келса, барча **берк эшиклар ўзи очилади**» (QB.139). **Urug‘**. Urug‘ - nasl-nasab, avlod-ajdodning kelib chiqishi. Don urug‘iga nisbatan olingan. Уруғи тоза дон яхши насл беради, унинг майдонида ҳар хил алаф бўлмайди. «Деди: Эй заковатли, **уруғи тоза**». (QB.477). Bu o‘rind O‘gdulmish nazarda tutilgan. **Qovun**. Qovun insonning tashqi ko‘rinishining majozi. Qovun ko‘rinishidan chiroyli, hidi anqigan bo‘ladi. Lekin uning mazasi ichidadir. Shu sababli ham insonning tashqi qiyofasiga emas, ichki dunyosiga nazar solish kerak. «Қовуннинг ичида мазаси бўлмаса, уни четга иткитиш керак, эй буғу» (QB.759). Bu o‘rinda **bug‘u** ham majoziy mursal bo‘lib, **ziyrak**, esli-xushli odam ma’nosini anglatib kelmoqda. **Shakar va ilik** - yaxshi ziyofat, mehmondo‘stlikning ramzi. «Нопокнинг хулки - бевафолик жафоси, агарчи у шакар ва илик едирса ҳам» (QB.365). **Yemish va kiyim**: «Феъл-атворнинг эзгуси қандай яхши нарса, Феъл-атвор эзгуси кишига ҳам емиш, ҳам кийимдир. (QB.335). Emish va kiyim

insonning qorni to‘q, usti butligining belgisi. Kim yaxshi hulqli bo‘lsa uning ishi rivojli, sihat-salomatligi yaxshi, turmush tarzi tinch bo‘ladi. **Zahar** - dardmanlik, xastalik, bezovtalik majozi. **Shirin** - inson umrinipg farovonligi, yaxshi turmush kechirish davriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Inson shirin oshining zahar bo‘lishi - yoshlik ketib, qarilik kelgani, odam o‘zini yigitlik davridagidek baquvvat, bardam, tetik seza olmasligidir. «Йигитликдаги барча ишларим ширин эди, энди қарилик менинг ейдиган ошимни захар қилди» (QB.115).

v) **Inson umri foniyligi va boqiy dunyoga ketishi tasvirlangan majozlar.** Inson umrining omonatligi, tug‘ilgan inson, albatta, o‘lishi muqarrarligi turkiy poeziyada rang-barang majozi mursallar bilan ifodalangan. **Yoz** - inson umrining to‘lishgan, **qish** - umrning o‘lim tomon borayotgan davri belgisida kelmoqda. **Tutqun** – qarilik, xastalik tufayli to‘shakdan tura olmasdan yotish. Agar odam tutqunlikka olinsa qo‘l-oyog‘iga kishan solinib, hech joyga keta olmasligi asos qilib olingan. «Mashaqqatlar bilan yil, oy tutquni bo‘ldim, oyoqlarim kishansiz chalishdi, ko‘tarilmaydi» (QB.115). «O‘luvchi kishilar barchasi vaqt-fursat tutqunidir» (QB.231). Insonning bu dunyodan o‘tib, ch in dunyoga ketishi - **safar**, uzun yo‘ldir: «Қаршингда бу узун сафар тугади» (QB.259). Dunyoning **ikki eshigi** bor - **tug‘ilish va o‘lish**. Biri hayotga kirib kelish, ikkinchisi chiqib ketish. Ana shu ikki eshik orasidagi masofa inson **umridir**. Yashashning bunday mohiyati eshik majozi bilan ifodalangan. «Barcha nafas oluvchilar uchun **o‘lim bir eshikdir**, barcha yuruvchilar shu **eshikka kiradi**» (QB.221). “Dunyo eshik ochdi – odam dunyoga keldi. O‘lim eshigi ochildi – qabristonga qo‘yildi” (QB.547). **Eshik** qabristonning belgisi. Inson tug‘ilganda yalang‘och holatda bo‘ladi, ketishi ya‘ni o‘lganda ham shunday ko‘rinishdadir. Bunday falsafiy kechinma **qorin** majozida berilgan. «Qorindan chiqarding, qoringa kiraman» (QB.273). Bu yerda qorin ikki xil ma‘noga ega, biri ona qorni, inson undan tug‘iladi, ikkinchisi yer qorni ya‘ni yer qoringa nisbat

berilgan. Inson vafot etgach unga kiradi, ya'ni ko'miladi. Insonning yashashi va o'limi ot majozii bilan berilgan. Ot ikki xil majozda qo'llanilgan. **Yo'rg'a ot** - umr, tiriklik, yashash tarzi, odamning martabasi, amali. **Yog'och ot** - tobut, ison umrining tugashi.

Йайылмаз йогыт кэвалдин тушуб

Эгэрсиз йыгачмингу мулуг йолуб.

Charchamaydigan yo'rg'a otdan tushib,

Mungli bo'lib, egarsiz yog'och ot minadi. (QB.261).

Falak oti. Falak oti - aylanib turuvchi dunyo, inson umrining boshlanishi, vaqt tugashining ramzi. Inson falak otiga minganida uning tug'ilishi tushuniladi, u otga minib yurishi - uning umri, yashash tarzi, otdan tushishi esa umr yakunidir. «*Onasidan tug'ilib, unga ot qo'yilgach u musofir bo'lib, falak otini mindi*». (QB.255). Insonning o'lim arafasidagi kechinmalari quyoshning botishi va korong'ulik tushishi majozii bilan berilgan: «*Tiriklik tugadi, kuni botayotir*» (QB.829).

Biz yuqorida qadimgi turkiy xalqlar poeziyasidagi majoziiy tasvirlarni ayrim adabiiy parchalar misolida tahlil etishga harakat qildik. Shu tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, qadimgi turkiy poeziya badiiiy tasvir vostalariga boyligi, jumladan majoz va uning xillari hisoblangan majozii mursal, ramzii sifatlash, o'xshatish, ramzii kinoya, ramzii mubolag'a qadimgi turkiy adabiiyotda shakllanib, keyingi davr adabiiyoti uchun bir tamal vazifasini o'taganligini ko'rsatadi. Majoziiy tasvirlarning hayotiiy zaminga asoslanishi, estetik ta'sir kuchining yuqoriligi, bu davr ijodkorlari tafakkur tarzining ham yuksakligidan dalolat beradi. Qadimgi turkiy she'riyatdagi majoziiy obrazlilik va majoziiy obrazlar poetikasi adabiiy san'atning yuksak namunasidir. Shu sababli ham uning ta'sir kuchi, adabiiy ta'siri so'nggi davr klassik adabiiyotdagina emas, balkim hozirgi adabiiyotimizga ham zaruriiy poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – T.: Fan,1977, –B.109.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabyot va san'at nashriyoti, 1971. –B.157
3. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» (Saodatga yo'llovchi bilim). – T.: Fan, 1972. – 967
4. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. I jild. – T.: Fan. 1960. – B.105
5. To'xliyev B. «Qutadg'u bilig»gi va ayrim janrlar takomili. (masnaviy, to'rtlik, qasida). – T.: Asr-matbuot, 2004. –B.63

ALISHER NAVOIYNING “FAVOYID UL-KIBAR” DEVONI G'AZALLARINI GRAMMATIK TEGGLASH XUSUSIYATLARI

*Nargiza Sa'dullayevna G'ulomova,
Navoiy innovatsiyalar universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Alisher Navoiy g'azallarini tushunarli, o'qishli bo'lishini ta'minlash uchun grammatik teglash va leksik, morfologik jihatdan tahlil qilish lozim. Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika arxaizm va istorizm so'zlarning vujudga kelishi va ko'plab so'z ma'nolarining tubdan o'zgarganligi, Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega bo'lgan so'zlar, bugun ma'no o'zgarishiga, ma'no torayishiga uchrab yoki so'zning boshqa atash ma'nosiga o'tganligi Navoiy g'azallari grammatik tahlil qilish muhimligini ko'rsatadi. Navoiy g'azallarini grammatik tahlili natijasida muallif til uslubi, tez-tez ishlatiluvchi til birliklari va o'ziga xos ijod usuli aniqlanadi.

Kalit soʻzlar: grammatik vosita, qoʻshimcha, bayt, lingvostatistik tahlil, til birliklari.

Shoirning qalb goʻzalligini, lirik janrlari orqali yanada yaqqolroq aks ettira olgan, yaʼni baʼzi oʻxshashini topa olmagan sifatlarning taʼrifi uning asarlarida mujassam. Badiiy tafakkur eng goʻzal qalb egalarining mehnati samarasi deb belgilanadi. Navoiyning soʻz gavharlarini misralarga, misralarni baytlarga, baytlar shodasini gʻazallarga biriktirib, tugal va mukammal mazmun ifoda etuvchi qalb bitiklarini bitishida oʻta nozik fasohat bilan soʻzlarni tanlash mahorati tahsinga sazovor. Shoirning oʻzi turkiy tilda soʻzlarni oʻrinli qoʻllay olish xususida shunday yozadi: “... bu tilda ajoyib soʻzlar va ifodalar koʻpdir. Buni yoqimli tartib va oʻziga tortuvchi tizim bilan bogʻlamoq (tizmak)ning qiyinchiligi bor. Yangi boshlovchining koʻngli u sheʼrni qiyinchilik bilan bogʻlamoqdan zadalanib nafratlanadi va yengillik sari mayl qiladi [1;71]. Ana shunday buyuk, hassos qalb sohibi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlarining qariyb olti asrdan buyon barhayot ekanligining sababi ham uning asarlaridagi koʻz ilgʻamas goʻzallikning hanuzgacha sir-asrorlari zabt etilmaganligi boʻisdir. Shu maʼnoda, Alisher Navoiy gʻazallarida uchragan yana bir “sirli xazina” – maʼnodosh (sinonim) soʻzlarga murojaat qilamiz. “Favoyid ul-kibar” devonidagi gʻazallarni tahlil qilish jarayonida shoirning maʼnodosh (sinonim) soʻzlardan oʻrinli foydalanganiga guvoh boʻlamiz. Bir mazmun anglatuvchi soʻzlarning rangin koʻrinishlarda kelishi gʻazal ogangdorligini, ravonligini va voqea-hodisalarni nozik nuqtalarigacha aniq, mufassal ifodalash imkonini beradi. Shoir qoʻllagan deyarli barcha soʻzlarning maʼnodoshlari mavjudligi ham misralarga oʻzgacha jozibadorlik baxsh etgan.

Grammatika haqida qadimiy sharq va gʻarb olimlari yaratgan asarlar mavjud boʻlib, ular asosan soʻz shaklini oʻzgartirish uchun xizmat qiladigan vositalar (turli qoʻshimchalar, affikslarni) va gap tuzish

tartib – qoidalarini tadqiq qilganlar. XIX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning vujudga kelishi natijasida tillardagi ko‘pgina grammatik xususiyatlarni chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘ldi. Endilikda grammatika tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u tildagi barcha grammatik vositalarni so‘zni kichik ma’nodor bo‘laklarga bo‘lish va so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi turli qo‘shimchalar, affikslar (prefiks, infiks va postfikslar) va so‘z tartibini, gapning maqsadga ko‘ra turlarini o‘rganmoqda.

Badiiy matnlarning grammatik tahlili natijasida muallif til uslubi, tez-tez ishlatiluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so‘zlar, fe’llar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir so‘z bilan aytganda, yozuvchining idiositilini – o‘ziga xos uslubini ko‘rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi[2;154]. Grammatik ma’no ifodalashning turli vositasi mavjud: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vosita shular jumlasidan. Demak, grammatik ma’noni faqat so‘z yoki so‘z shaklga nisbat berish ma’qul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birlik grammatik ahamiyat kasb etishi mumkin. Grammatik ma’no deganda til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt ma’nolari tushuniladi. Alisher Navoiy asarlarining lug‘at boyligini o‘rganish va ma’nolar xazinasini talqin qilish bo‘yicha ham asrlar davomida bir qator o‘ta diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan [3;2].

Navoiy asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamon o‘zbek tili va X-XIII asr yodnomalari tilining fonetikasidan o‘zining ba’zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar hali to‘liq-to‘kis ravishda hal qilingani yo‘q [4;7]. Navoiy nutqining fonetik bo‘laklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qilganlar. Navoiy nutqining ham fonetik bo‘laklari jumla, sintagma, takt, bo‘g‘in va tovushlardan iboratligini, jumla eng yirik fonetik birlik bo‘lib, nutqning ikki pauza

orasidagi maxsus intonatsiyaga ega bo'lgan bo'lagidir. Jumla odatda gapga to'g'ri keladi, chunki jumlaning pauzasi fikriy tugallik, intonatsiyasi esa gapning mazmuniga bog'liqdir.

Til belgilarining o'zi quyidagilarga bo'linadi: morfologik (ta'kidlovchi affikslar, qo'shma so'zlar va boshqalar), lemmatizatsiya (har bir so'z shakli uchun asl nusxasidagi ko'rsatma) morfo-sintaktik yoki nutqning bir qismini belgilash (asoslarni ajratib ko'rsatish, nutq qismini va grammatik kategoriyalarning belgilarini aniqlash), sintaktik (sintaktik aloqaning xususiyati, gap turi, gap a'zosi va boshqalar), semantik (semantik omonimiyani olib tashlash, anafora va yadrolarni yechish, axborot tuzilishini aniqlash va boshqalar), diskursiv (eslatmalar, kommunikativ harakatlar va boshqalar) [5;72]. Mumtoz asarlarda qo'llanilgan so'zlarni ta'lim tizimida samarali foydalanish, o'zbek xalqining barcha davrlarga oid milliy adabiy merosini sun'iy intellektga kiritish, asrlar davomida yashab kelayotgan davlat tilining raqamli texnologiyalar uchun ko'rinishini yaratish, lingvistik tarjimon va matnlarni tahlil qilish dasturlari, Alisher Navoiy asarlari parallel korpusini yaratish imkoniyatlari yanada oshadi. Shu bois Navoiy so'zliklarini grammatik teglash ahamiyatli hisoblanadi.

Grammatik ma'no o'z mazmuniga ega bo'lib, bir guruhdagi barcha so'zlarning biror belgisini ko'rsatadi va umumiylik belgisiga ega bo'ladi. Grammatik ma'no leksik ma'noga qaraganda ancha mavhumroq ekanligi uning biror guruhdagi so'zning umumiy belgisini ifodalashi bilan izohlanadi. Grammatik ma'noni grammatik vositalarsiz aniqlab bo'lmaydi [6;99]. Masalan, mehr, mehrni, mehrda, mehrdin kabi so'z shakllari qiyoslanganda, ulardagi kelishik qo'shimchalari, yoki bo'ldi, bo'lur, bo'lar kabi fe'l shakllarini qiyoslasak, ulardagi zamonga tegishli qo'shimchalar grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar hisoblanadi.

Morfema til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo‘lib, leksemadan farqli holda grammatik ma‘no ifodalashga xizmat qiladi. Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o‘z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyingina butun holatiga o‘tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o‘zi mansub turkum leksemasiga qo‘shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema qo‘shiladigan birlik, morfema – leksemaga qo‘shiladigan birlik (shu xususiyati nazarda tutib morfema *qo‘shimcha* deb nomlanadi) [7;126].

Alisher Navoiy sharq tilshunosligida mavjud bo‘lgan leksika sohasidagi bilimlar bilan qurollangan. Ana shu bilim asosida turk tilining lug‘at boyligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning uchun xalq tilidan forsiy ekvivalenta bo‘lmagan bir qancha so‘zlarni topadi. Ana shunday so‘zlarga turk tilidan yuzta fe‘lni keltiradi. Bu fe‘llar Alisher Navoiy o‘zbek tilining imkoniyatlarini ko‘rsatmoq uchun xalq tilini qanchalar sinchkovlik bilan chuqur o‘rganganligini isbotlovchi dalillardir. Navoiy yuqoridagi fe‘llarning ba‘zilari umumiy, birlashtiruvchi sememasi bilan bir paradigmani hosil qilsa ham, lekin paradigma a‘zolarining har qaysisi muayyan farqlovchi sememaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi[8;52]. Masalan, Navoiy “Favoyid ul-kibar” devonida *tabassum*, *xandon otmoq*, *shakarxand*, *no‘shxand*, *kulgu* so‘zlari “kulmoq” umumlashtiruvchi sememasi bilan bir xil ma‘noga ega bo‘lsa ham ammo ularning har qaysisi kulguning turli xil ko‘rinishlarini ifodalaydi. Bu so‘zlarning umumiy ma‘nosi bir bo‘lsa-da, lekin ular kulguning sifatlariga ko‘ra farqlanadi.

Alisher Navoiy g‘azallarini grammatik teglash izohtalab so‘z ma‘nolarining tushunarligi va o‘qishli bo‘lishini ta‘minlash uchun muhim hisoblanadi, Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko‘p jihatlari bilan: arxaizm, istorizm, so‘z ma‘nolarining tubdan o‘zgarganligi, ya‘ni Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega

bo'lgan so'zlar, bugun ma'no o'zgarishiga, ma'no torayishiga uchrab yoki so'zning atash ma'nosi o'zgarib so'z turkumi o'zgargan. Navoiy asarlarini o'rganishda lug'at boyligining kattaligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda grammatik tahlil muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'otayt. [Matn] / Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 71-72.
2. Rahimov A. Komputer lingvistikasi asoslari - Toshkent: Akademnashr. 2011. – 154 b.
3. Qurbonbekov A., Mannonov A., Imomnazarov M. Alisher Navoiy asarlari bo'yicha konkordans tuzish qo'llanmasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 3 b.
4. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –Toshkent: Fan, 1984. – 120 b.
5. Tursunov U. va b. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 91 b.
6. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.– Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. – 176 b.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 230 b.
8. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – 131 b.

O‘ZBEK MULOQOT NUTQIDA PSIXOLINGVISTIK QIRRALAR

*Feruzaxon Sayfuddinovna Karimova,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslik va psixologik nazariyalar uyg‘unligi o‘zbek muloqot xulqi orqali yoritilishiga e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga til va ruhiyat, til va sotsial faktorlar uyg‘unligi qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: til, ruhiyat, muloqot, nutqiy ko‘nikma.

Inson nutqi va ruhiyatning nutqqa ta’siri masalasi tilshunoslik va ruhshunoslik o‘rtasida tadqiq etilishi lozim bo‘lgan qiziqarli masalalardan biri hisoblanadi.

Turk dunyosining eng qadimgi yozma yodgorliklarida inson nutqi va uning ruhiyati o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqliklar turli ramz va ifodalar orqali aks ettirilgan, ular misolida “Devoni lug‘otit turk” dagi qo‘shiq va matnlarni yoki “O‘rxun-Enasoy” bitiklarida keltirilgan jangnoma qo‘shiqlardagi olqish va alqovlarni, shuningdek, marsiyalar matnidagi ruhiy koloritni keltirish o‘rinli bo‘lardi.

Fandagi ilmiy psixologik kurtaklar ildizi ancha uzoqlarga borib taqaladi. Nemis olimi V.Gumboldning “xalq ruhi” va “lisoniy dunyoqarash” haqidagi olamshumul konsepsiyasi va V.Vundning “xalq psixologiyasi” haqidagi nazariyasi, amerikalik lingvist L.Blumfildning “stimul-reaksiya” haqidagi bixoveristik qarashlari, ukrain tilshunosi A.Potebniyaning til va tafakkur haqidagi psixologik falsafasi tilni tadqiq etishda inson ruhi va xalq ruhini e‘tirof etgan holda masalaga yondashilganligi bilan dunyo tilshunosligida katta iz qoldirgan

nazariyalardan hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida esa mazkur sohaga endi dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. Bugungacha til va ruhiyat mushtarakligiga o‘z asarlarida e‘tibor qaratgan olimlar sirasiga A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, D.Xudayberganova va D.Lutfullaeva nomlarini keltirish o‘rinli bo‘lardi.

[7,2,6,9,8,1].

So‘nggi yillarda olimlar e‘tiborini tortgan muloqot va uning ishtirokchilari nutqi tuzilishiga oid tadqiqotlarda pragmalingsvistik qarashlar bilan birga psixologik yondashuvlar ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Albatta, ular zamirida tildagi hodisalarni mukammal tadqiq etish ehtiyoji turadi. Masalaning ana shu tomoniga e‘tibor qaratish ham dolzarb, ham qiziqarli hisoblanadi. Xususan, bolalar nutqi tadqiqi bilan shug‘ullangan olim M.Qurbonava tadqiqotlarida bu masalaga ham to‘xtalib o‘tilgan. [10; 160].

Kattalar muloqotining psixolingsvistik tomonlarini tadqiq etish ham galdagi yoritilishi kerak bo‘lgan masalalardan biri sanaladi.

Inson ruhiyatining u qo‘llayotgan nutqda aks etishi va u tuzgan grammatik shakllarning (jumlaning) qay tarzda qurilishiga inson ta‘nasi va ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar daxl eta olishi inson fenomenini va uni qurshab turgan muhit haqidagi tasavvurni hosil qilishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur holatni tadqiq etishga turtki bo‘lgan asos antropotsentrik nazariyadir. Albatta, tildagi har qanday semantik va pragmatik tadqiqotlar zamirida ham psixolingsvistik yondashuvlarning u yoki bu darajadagi izlarini sezish mumkin. Bu haqda pragmalingsvist olim M. Hakimov o‘zining ushbu soha haqidagi dastlabki maqolalarida ham aytib o‘tgan. [9;34-40]. Kishilarning qayg‘uli va baxtli onlaridagi yuz ifodalari va ular qo‘llagan iboralardagi ovoz tonining g‘amgin yoki shodon jarangining o‘ziyoq, fikrimizni isbotlay oladi. Ya‘ni ruhiyat va uning nutqdagi ifodasi va u orqali so‘zlovchining olamiga kirib borish va uni tahlil etish istagi har

qanday tadqiqotchini befarq qoldirmaydi, deb o‘ylaymiz. Bolalar nutqidagi buzilish holatlarini asosini ular kechirgan yoki kechirayotgan kasalliklar bilan bog‘liqligi bugun barchamizga ayon haqiqat sanaladi. Kattalar o‘z nutqlarida haqiqiy holatlarini qay darajada yashirishga urinmasin, yolg‘on informatsiya berayotgan aql va uni qabul qilolmayotgan ruh o‘rtasida kelishmovchiliklar tug‘ilishi va bu uning yuz va tana holatlarida aks etishi ham ayni haqiqatdir. [3;25].

Insonlar muloqotini tahlil etishda, avvalo, uning yashash tarzi, oilaviy va ish sharoiti va unda kechadigan ahloqiy va ma‘naviy qonun-qoidalarini bilish birinchi bosqich sanalsa, uning hamsuhbat do‘stlari va maslakdoshlari kimlar ekanligiga e‘tibor qaratish ham talab etiladi. Chunki yaqin va har kuni ko‘rib, gaplashib turadigan insonlarning ahloqiy qarashlariga ko‘nikish yoki ularga, beixtiyor tarzda, taqlidiy so‘zlar qo‘llash holatlarini yoshlar nutqida ko‘plab kuzatish mumkin. Voyaga etgan va katta insonlar tuzayotgan jumlar uslubi va xususiyatini (maqol yo matal qo‘shish, piching yo kesatq, hazil yoki o‘z ustidan engil hangoma qilish, tanqid yo maqtash yoki maqtanish, tez yoki sekin (qiynalib) jumla tuzish, gapga chechanlik yoki duduqlanish, suhbatda o‘zini yo‘qotib qo‘yish yoki vaziyatdan chiqib keta olish) kabilar ularning nutqiy ko‘nikmalari sanalib, kishilar ularni oila yoki ish jarayonida ko‘proq o‘zlashtirgan bo‘ladilar. Nasliy qobiliyatlarning kechishidan ko‘ra ijtimoiy muhit ta‘sirining kuchi ancha salmoqli ekanligi ham hech kimga sir emas. Bu haqda o‘zbek psixologiyasining darg‘alaridan biri professor E.G‘oziev shunday fikrlarni keltirgandi: “Insonning shaxsiy xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl – uning jamiyatdagi hayot yo‘li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi”. [11; 99].

Darhaqiqat, jamiyatdagi hayot yo‘li birinchi navbatda u egallagan kasb va soha misolida ko‘proq ko‘zga tashlanadi, masalan, o‘qituvchilar

o‘z kasbidan ko‘nikma holiga kelgan dars o‘tish jarayonidan kelib chiqib, uzoq va ko‘p so‘zlashni o‘ziga odat qilsa, yurist va huquqshunoslar esa, har bir so‘zning sohada qanday katta yuk tashishini e‘tiborga olgan holda, kam so‘zlab, xushyorlikka intiladilar. Bunga o‘xshash misollarni boshqa kasb va soha egalarida ko‘plab keltirish mumkin. Aytmoqchimizki, orttirilgan nutqiy tajribalar, nutqiy operatsiyalar kishilarning o‘zlari mansub bo‘lgan soha va muhit ta‘sirining bir in‘ikosi hamdir.

Bunga misol qilib “Muvozanat” romanidagi Muhammadjon aka obrazini keltirish mumkin:

“Nihoyat, gangur-gungir bo‘lib o‘tirgan davrani baland ovoz bilan Muhammadjon aka o‘ziga jalb qildi.

– Endi sizlarga bir ko‘nglimni to‘kib solsam, azizlarim, - Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. Uzoq yillar davomidagi o‘qituvchilik, rahbarlik lavozimlari qonida ota-buvisidan o‘tgan biyronligi bor bu odamning haqiqatan ham bulbuligo‘yo qilib yuborgandi. Binobarin, qaerda bo‘lmasin, Muhammadjon aka so‘zga og‘iz ochdimi, qolganlar mum tishlagandek jim bo‘lishardi, butun vujudlari quloqqa aylanib tinglashardi”. (Muvozanat, U.Hamdam. 16-bet). [12; 16].

Tilshunoslik va uning boshqa sohalar bilan hamkorligini hisobga olgan holda tadqiqotlar yaratishni qo‘llab-quvvatlagan tilshunos olim A.Nurmonov I.Yo‘ldoshev bilan birgalikda nashr ettirgan “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” nomli kitobida tilshunoslikka yondosh sohalar sifatida psixologiya va sotsiologiya fanlarini o‘rnini alohida ta‘kidlagandi. [5; 63].

Muloqotning sotsial tomoniga e‘tibor qaratgan olimlardan biri S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik ishi o‘zbek muloqot egalarining milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini keng planda yoritib bergan tadqiqotlardan

sanaladi. Muallif ishida o‘zbekona muloqot sirlari va uning yaratilish bosqichlari ijtimoiy planda chuqur tahlil etilgan. Muallifning “ruhiy kesim” haqidagi o‘ziga xos qarashlari o‘zbekona kamtarlik va kamsuqimlik, andisha va mulohazakorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashgan holda qalamga olingan. [4; 235].

Xulosa qilib aytganda, til va ruhiyat masalasidagi tadqiqotlarning echimi hali oldinda va u tilshunoslik va ruhshunoslik rivojida yangi marralarni zabt etishi begumondir. Zero, inson va uning tili orqali aks etayotgan dunyoning manzarasi uni qamrab olgan ruhiyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lutfullaeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 140 b.
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: YOzuvchi, 1998. – 40 b.
3. Mustafоеv F. Suhbatdoshni sirli boshqarish (Suhbatning psixofiziologik aspektlari). – Farg‘ona: Farg‘ona, 2005. – B. 25.
4. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2000. – 235 b.
5. Nurmonov, A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: SHarq, 2001. – B. 63.
6. Nurmonov A., M.Hakimov. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №4. – B. 54-57.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 245.
8. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2015.– 244 b.

9. Hakimov M., Qurbonova S. Psixolingvistik bilimlarning nazariy asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №2. – B. 34-40.

10. Qurbonova M. O‘zbek bolalari nutqining pragmalingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2018. – 160 b.

11. G‘oziev E. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2013. - 311 b.

12. Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiqlar. Toshkent, 2019.

MADANIY O‘ZGARISHLARNING TILDA AKS ETISHI

*Ergashova Muhayyo Valijonovna,
Qo‘qon DPI dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada assotsiativ tilshunoslikning rivojlanishini tadqiq etish, verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi o‘rni, matnning assotsiativ maydoni kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: assotsiativ tilshunoslik, verbal assotsiatsiya, matn, stimuly so‘z, matnning assotsiativ maydoni, voqelik, ong, til.

Til ham ong kabi qadimiydir, til amaliy, haqiqiy ongdir, boshqalar uchun ham mavjud bo‘lgan va xuddi shu tufayli biz uchun ham mavjud bo‘lgan ongdir, binobarin, til ong kabi boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji zarurligi tufayli paydo bo‘lgan.

Shunday qilib, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo‘ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog‘liq. Til jamiyat bilan paydo bo‘lganidek, jamiyat bilan bnriga o‘ladi. Malumki, lotin, sanskrit tillari o‘lik tillar deb aytilgandi,

chunki bu tillarda gaplashadigan, uni o‘z ona tili deb hisoblaydigan xalq yo‘q, hozirgi kunda bu tillarning lug‘at tarkibi, tovushlar majmui, grammatikasi bor, ular to‘g‘risida fikr yuritish, boshqa tillar bilan qiyoslash mumkin. Ammo bu tillarda rivojlanish yo‘q, qadimdan qanday bo‘lsa, hozir ham shunday va shundayligicha qolaveradi.

Tilning paydo bo‘lishi masalasi — til qachon va qaerda paydo bo‘lgan, dastlab nechta til bo‘lgan, u yoki bu tillar qanday bo‘lgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgani yo‘q. Bu xususda ilmiy taxminlar mavjud xolos. Ba’zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo‘lgan.

Ma’lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o‘zgaruvchidir. Shunday ekan, besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtai nazardan o‘rganish mumkin emas. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo‘lishidan avvalgi holati biz uchun qorong‘idir. Biz faqat yozuv paydo bo‘lgandan keyingi davrda ro‘y bergan til taraqqiyoti to‘g‘risida yozma yodgorliklardan foydalanib, fikr yuritishimiz mumkin. Lekin yozuv paydo bo‘lgandan keyingi tilni o‘rganish tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi muammoni yoritishga imkon bermaydi. Shunday bo‘lsa ham, ba’zi olimlar bu masalaga o‘z munosabatlarini, fikrlarini aytib o‘tishgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilni qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg‘in bahs yuritganlar. Tilshunoslik tarixidan ma’lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o‘rtaga tashlagan. Demokrit va boshqalar (asrimizgacha bo‘lgan 460—370 yillar) tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalistlar deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar (asrimizgacha bo‘lgan 427-347

yillar) narsa bilan uning nomi orasida muayyan bogʻlanish bor. Bu bogʻlanish narsalarning xususyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bogʻlanish ilohiy kuch tsmonidan oʻrnatilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim analogistlar deb nom olgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda hech qanday bogʻlanish yoʻq. Bu koʻpchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomini yuzaga keltirdi. Bular esa oʻz navbatida mehnat va tilni yanada rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Mehnat, til va ong orasidagi bunday munosabat kelajakda ham davom etdi, hozir ham davom etmoqda.

Shundan qilib, odamni ham, tilni ham kollektiv ijtimoiy mehnat yaratdi. Ibtidoiy jamiyat boshlarida paydo boʻlgan boshlangʻich til vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib, taraqqiy etdi.

Kishilar ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlarida toʻda-toʻda, yaʼni urugʻ boʻlib yashaganlar. Urugʻ kishilar jamiyatining eng kichik, oddiy hamda qadimiy uyushmasidir.

Bir nechta qardosh urugʻlar qabilani tashkil qilgan. Bunday uyushmalarning har birining oʻz tili, oʻz aloqa vositasi boʻlgan. F. Engels bu haqda shunday degan edi: «Qabilaning ayrim oʻziga xos dialekti (shevasi) bor. Haqiqatda qabila demak—aslida dialekt demakdir».

Maʼlumki, jonli mavjudot koʻpayish xususiyatiga ega. Vaqt oʻtishi bilan qabila aʼzolari koʻpayib, kengroq hududga tarqala boshlaydi. Boshqa joylarga koʻchib ketgan qarindosh qabilalar maʼlum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda bir tilning turli shevalarida soʻzlashuvchi qabilalarning uyushmasiga — qabila ittifoqlariga birlashadi. Qabila ittifoqlarining umumiy tili boʻlib, ayrim qabila tillari qabila ittifoqi tiliga nisbatan sheva holatini egallaydi.

Qardosh qabilalar ittifoqi vaqti kelib xalqni tashkil qiladi. Kishilik jamiyatini bu uyushmasining asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud, madaniyat va ma'naviy taxlitning umumiyligidir.

O'zbek adabiy tilining tarixi VII asrga oid, boshqa turkiy tillarga ham taalluqli bo'lgan o'rxun yodnomalaridan boshlanadi va qadimgi davr X asrgacha davom etadi hamda uyg'ur yozuvida va yana o'zga yozuvlarda yozilgan yodnomalarni o'z ichiga oladi². Bu davr yodnomalarida xitoy, sanskrit va so'g'd³ so'zlari uchraydi. Xitoy va so'g'd so'zlarining tematik doirasi keng bo'lib, bu qadimgi otabobolarimizning xitoy va so'g'd xalqlari bilan bevosita aloqada bo'lganligidan darak beradi. Sanskrit o'zlashmalari esa buddizmga aloqador so'zlar bo'lib, ular tarjima asarlarida uchraydi. Masalan, Leningradda nashr etilgan qadimgi turk lugatida⁴ sanskrit o'zlashmalari qayd etilgan. Mana shulardan namunalar.[1; 3-6]

Luchan — nuroniy; *luchanta* — yaltiroq — *chig'* — *burxan*— *nuronin* porloq budda; *Lukatadu*,— xudolar maskani; *magishvari* — xudolarning bir toifasi; *mandal*— tilsim; *matarnanti* — devlarning bir toifasi; *maxabut* — to'rt unsur (tuproq, suv, havo, o't); *maxayan* — buddizmning ikki yirik yo'nalishidan biri; *maxakali*— o'zoq davr, *mahamayur* — sutra nomi; *maxaraj* — xokim; *maxaruk* — mifik mavjudotning bir turi; *maxash raviq* — *upu?* taqvodor; *nayriti* — janubig'arb; *nayut* — juda ko'p miqdor; *nayvazaki* — ezgu ruh; *namo* — ibodat; *nirvon* — mutlaq ro.chat, *podak* — she'r; *panchalakari* — dev boshliqlaridan biri; *panchamabumi* — budda darajasiga erishadigan beshinchi maqom; *paramantal* — kamolatga erishishning spiral yo'li; *paramit* — Budda darajasiga erishish yo'lida qilinadigan ezgulik; *pardan* — olam ruhi; *parinirvan* — to'siq nirvon (mutlaq rohat); *parivar* — hasham, a'yonlar; *parivarachaki*—sayyoh, rohib; *prat* — dev; *pryan*

— hujra; *ptr* — va-raq; *pudani* — bir toifo devlar boshlig‘i; *punarvasu*— o‘yning yigirma sakkiz manzilidan biri; *purani* — afsona; *puraxiti*—din ta‘limotchisi; *apramanashub* — osmon mavjudotining nomi; *apiramani* — cheksiz (kamolat sifatlaridan biri).

Qadimgi turk manbalarining asosan meditsinaga oidlarida sanskritcha dorivor o‘simliklar va kasalliklarning nomi ham uchraydi; *ansmar* — tutqanoq; *li-vang* — qalampirmunchoq; *lodur* — o‘simlik nomi; *tandarik* — o‘simlik nomi; *matulung* — limon; *nakapushi* — o‘simlik nomi va boshqalar.

Qadimgi turkiy yodnomalarda uchraydigan xitoy so‘zlari orasida ham buddizmga oidlari bor, ammo ular orasida hayotning boshqa sohalariga oid so‘zlar ham mavjud. Mana quyidagi so‘zlarga e‘tibor bering. Bular adliya, savdo, hisob ishiga, qishloq xo‘jaligi, imorat va ro‘zg‘or asboblari, ta‘lim-tarbiya, kalendar va yil fasllari, oziq-ovqat, qimmatbaho toshlar, xayr-ehsonga oid so‘zlardir; *on* — sud ishi; *ban* — o‘n ming, ***ban*** — yozuv taxtasi; *bandang* — skameyka; *bau* — pul; ***tsang*** — xazina; *tsuy* — gunoh; *tg* — gradus; *buk* — yasvor; *bu* — o‘n yillik davrning beshinchi yili; *bugung*— tilxit; *buda* — o‘zum; *bulang* — ayvon; *burxon* — budda; ***buish*** — ehson; ***gam*** — tortishuv, da‘vogarlik; *chan*— piyola; *chanchu* — o‘qlov; *chang* — cholg‘u; *chau* — pul turi; *cheng*—o‘lchov birligi; *chi* — kalendar belgisi; *xua*— gul; *chuan* — bahor; *tsin* — ko‘z; *chug‘* — loyqa; *chung* — qo‘ng‘iroq; *chusum* — tut; *futsi* — olim, pir; *yang* — qolip, yo‘sin; *yan* — barg; *yinchu* — inju, marvarid; *mir*— asal; *taychu* — budda avrashi; *tayshi* — bosh muallim; *tauchang* — muqaddas yer; *tetsa* — o‘quvchi; *tintsuy* — ijara puli; *tu* — atala; *to‘yin* — budda rohibi; *to‘y* — o‘simlik nomi.

Qadimgi turk yodnomalaridagi xitoy so‘zlarining tematik doirasi kengligiga turkiy qabilalarning Xitoyga chegaradosh bo‘lib, ular orasida bevosita munosabat mavjud bo‘lganligi sabab bo‘lgan. Ham xitoylar, ham turklar orasida bilingvizm hukm surgan. Mahmud Qoshg‘ariy

«Devonu lug‘otit turk» asarining «Turk tilining xususiyatlari haqida» bobida «mochinliklava chinliklarning (xitoylarning—K. R.) alohida tillari bor bo‘lsa ham, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar[2;65], deb yozadi.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, turkiy tillarining ham xitoy tiliga ta‘siri bo‘lgan va bu masala alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Chunki hozir, agar bir so‘z ham turkiy, ham xitoy manbalarida uchrasa, uni shubhasiz xitoycha deyish odat tusiga kirgan. Xitoy so‘zlari ro‘yxatiga kiritilgan.[3.148].

yolg‘on so‘zining antonimi bo‘lmish *chin* so‘zini olaylik. Bu so‘zning turkiy tillardagi mavqeyi da va uning strukturasi hech qanday g‘ayri turkinlik yo‘q. Uning faqat xitoy tilida ham borligini nazarga olib xitoycha deyish ilmiy jihatdan uncha to‘g‘ri emas. Buni qiyosiy-tarixiy metod asosida aniqlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Yana xitoycha deb beriladigan *baqshi*[4;82].so‘zini olaylik, bu so‘z hozir ko‘pgina turkiy tillarda «baxshi» tarzida kasal boqadigan duoxon ma‘nosida ham qo‘llanadi. Shunga binoan *boqmoq.* fe‘lidan *-chi* ma‘nosida *-shi* qo‘shimchasi yordamida yasalgan so‘z deb bilish ham mumkin. Undan ham ma‘qulrog‘i shuki, hozirgi *bog‘laning* qadimgi o‘zagi *ba-* shaklida bo‘lgan og‘riq, kasallikni band qilish, qoldirish ma‘nosida ham qo‘llangan. Masalan: mazkur lug‘atda «og‘rig‘in basun» degan ran «kasalini bog‘lasin, ya‘ni band qilib ta‘sirsizlantirsin» deb tarjima qilingan. ^[5;76].*Ba* alohida asos bo‘lib o‘qilganda, *baq* so‘zi «bog‘lov» degan ma‘noda bo‘ladi. *Baqshi* esa bog‘lovchi, ya‘ni «jinlarni yoki kasalni band etuvchi» degan ma‘noni kasb etadi.

Qadimgi turklarning til munosabati so‘g‘dlar bilan yana ham kengroq bo‘lgan, chunki Mahmud Qoshg‘ariy bular orasida mavjud

boʻlgan bilingvizm doirasini ancha keng tasvirlagan⁵ va bu holni yangi tadqiqotlar ham tasdiqlaydi⁶.

Olimlarning qadimgi yunon, eron, xitoy, turk va arab manbalari asosida aytilgan fikrlariga koʻra, soʻgʻdlar Aleksandr Makedonskiy ularning mamlakatini talab, vayron qilganda ular mazkur vodiyan chetga chiqib, Fargʻona vodiysi va Markaziy Osiyoga ham oʻrnashganlar va xitoy hamda turkiy xalqlar bilan bevosita aloqada boʻlganlar⁷. Oʻrxun bitiglarida «Soʻgʻd xalqi koʻplab keldi», «soʻgʻdlar va tabgʻachlarga salanga daryosida Baybaliq shahrini qurib berdim» degan jummlalar bor⁸. Soʻgʻdlarning original adabiy asarlari saqlanmagan. Soʻgʻd tilida yozilgan asarlarning maʼlumlari tarjima asarlari boʻlib, shular orasida qadimgi turkiy tildan qilinganlari ham bor, deb taxmin qilinadi⁹. Mana shular natijasida qadimgi turkiy til bilan soʻgʻd tili orasida bevosita munosabat vujudga kelib, ham turk, ham soʻgʻd xalqlari orasida turkcha-soʻgʻdcha ikki tillilik paydo boʻlgan, biridan ikkinchisiga soʻzlar oʻtgan. Mazkur qadimgi turk lugʻatida turkiy manbalarda uchraydigan soʻgʻdcha soʻzlar ham qayd etilgan. Mana ulardan namunalar: *Aram* — oy nomi; *anxrvzi*—burj; *ajun* — dunyo; *bacha* — roʻza tutmoq; *babir* — idish; *budda* — rohibning tilanchilik qiladigan kachkuli; *bagʻ* — bogʻ; *boimsh* — ashula; *dintar* — saylangan, moniy jamoasi aʼzosi; *farishta* — farishta; *magʻ*—oy; *naxid* — venera; *nom* — diniy qonun; *psak* — gulchambar; *vaxishk* — baxt; *vaxshitsa*—daho, ezgu ruh; *xushti* — muallim; *xrushta* — xudolik nomi; *ruch* — ^{kun}; *rushan* — yorugʻlik xudosi; *sangig* — rohiblar ja-moasiga tegishli; *sarvagʻ* — saroy; *satir* — ogʻirlik oʻlchovi va pul birligi; *shao* — harbiy unvon; *shamnu* — shaytan; *kand* — shahar; *kivan* — Saturn.

Qadimgi turkiy yodnomalarda arabizmlar yo‘q, chunki u davrda turkiy tillar arab tili bilan bevosita munosabatda bo‘lgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov F., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent, 1982, 3—6-betlar.
2. Древнетюрский словарь. Л., 1969, с. 148.
3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-tom. Toshkent, 1960, 65-bet.
4. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. –Т.: Фан, 1988.-190б.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002. -557 б.
6. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. –Т.: 2001.

O‘ZBEK TILIDA “BOLA” KOMPONENTLI O‘XSHATISHLAR

*Yusuf Norqulovich Xodjiyev,
Guliston davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi “Bola” komponentli o‘xshatishlar pretsident birliklar etalon bo‘lgan o‘xshatishlar asosida yoritib berilgan. Shu bilan birga *bola, farzand, beshik* kabi etalonli o‘xshatishlar tahlil qilinib, ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bola, komponent, konnotatsiya, pretsident birliklar, stereotiplar, sinonimik qator.

Ma'lumki, inson olamni qiyoslash-o'xshatish orqali o'zlashtiradi, olamning lisoniy manzarasining shakllanishida qiyoslash-o'xshatish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi. "Har qanday madaniyat bilan tanishuv shu madaniyat egasi – millatga tegishli milliy dunyoqarash, milliy ong, tafakkur tarzi, N.Mahmudov ta'biri bilan aytganda, idrok intizomini anglashni taqozo etadi. Uning bunday o'ziga xosliklarini esa, albatta, til orqaligina anglab yetish mumkin. Har bir millat o'zining milliy o'ziga xos olamning lisoniy manzarasiga ega ekanligi tilshunoslik ilmida keng e'tirof etilgan. Shu jihatdan olamning lisoniy manzarasini millatning idrok intizomini ko'rsatuvchi ma'lumotlar majmuiga qiyoslash mumkin. Demak, olamning lisoniy manzarasi milliy xarakter va milliy mentalitet haqidagi bilimlar manbai sifatida gnoseologik ahamiyat kasb etadi"[1;29].

O'zbek milliy xarakterimizda bolajonlilik ustuvor ekan, o'xshatish etaloni sifatida ham mazkur xarakter bilan bog'liq *bola, farzand, beshik* kabi so'zlar ko'p ishlatiladi. Quyida mazkur etalonli o'xshatishlarni tahlil qilib ko'ramiz.

Bola etalonli o'xshatishlar quyidagi ko'rinishlarda ishlatiladi: *boladek, yosh boladek, boladey, bola kabi, bola singari, xuddi yosh boladek*. *Boladek* o'xshatishi ko'p ma'noli bo'lib, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da yettita ma'nosi qayd etilgan bo'lsa, biz esa uning o'ndan ziyod ma'nolarini sanab o'tmoqchimiz:

1. Boladek ishonuvchan, boladek sodda: *Ayol kishi aksar sodda bo'ladimi, go'lmi, boladek ishonuvchanmi... (O. Muxtor. Egilgan bosh)*. Bu o'xshatishda "bola" konseptining ishonuvchan ekanligi voqelashgan. Bolaning soddaligi asos bo'lgan o'xshatishlar boshqa tillarda ham uchraydiki, bu umuminsoniy qarashlar bog'liqligidan darak beradi. Bu kabi o'xshatishlar odatda ijobiy konnotatsiyaga ega bo'ladi, ko'pincha, ayollarga, yoshi katta erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

2. Boladek beg‘ubor: *Bu qadar bola kabi beg‘ubor bo‘lmasa bu Boboturk degani (N. Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich).* Shu o‘rinda *beg‘ubor* so‘zining ma‘nolariga to‘xtalib o‘tamiz. Ma‘lumki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu so‘zga quyidagicha izohlar berilgan:

BEG‘UBOR [be.. + g‘ubor] **1** Chang-g‘ubordan, ifloslikdan xoli; musaffo, toza. *Zangori osmon ham shunday tiniq, shunday beg‘uborki, ko‘zni oladi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 *ko‘chma* Ko‘nglida yomonligi, kiri yo‘q; pok, sofdil, sidqidil. *Yuzidan mehr yog‘ilib turgan bu ajoyib, sodda, beg‘ubor qizga shartta uylanib, oyimni baxtiyor qilishga nima xalaqit beradi?* A. Muxtor, Asarlar.

3 *ko‘chma* Dog‘ tushmagan, pokiza. *Elmurod.. qarshisida chug‘urlashgan, ko‘zlari tiniq, qalblari beg‘ubor bolalarning har birini quchoqlab, yuzlaridan o‘pgisi keldi.* P. Tursun, O‘qituvchi. (O‘TIL, 1, 297.)

Bir qaraganda, o‘xshatish bola bilan bog‘liq ekanligi uning uchinchi ma‘nodan kelib chiqayotganligiga urg‘u bersa; ko‘ngilning, fikrlarning tozaligi nazarda tutilganligiga e‘tibor qaratilsa, *boladek beg‘ubor* o‘xshatishi ikkinchi ma‘no asosida shakllangan deyishga asos bo‘ladi. Bu o‘rinda vaziyatga, muallifning niyatiga qarab har ikkala ma‘no asosida ham shakllanishi mumkin degan fikrga keldik.

3. Boladek beozor, yosh boladek beozor: *Baxtiyor xuddi yosh boladek pish-pish qilib beozor uxlardi. Uning orasi ochiq qalin qoshlari pirpirab qo‘yadi. (M.Hazratqulov. Cho‘li Iroq.)* Ushbu o‘xshatish ham ijobiy semantikaga ega bo‘lib, jinsidan qat‘iy nazar ozor bermaslik holatida qo‘llanaveradi. Ko‘pincha, keksa kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Bunda birovga ozor bermaslik holati o‘xshatishga asos bo‘lgan.

4. Boladek injiq: *G‘ofur G‘ulomdek besaranjom, muloyimligidan ko‘ra tajangligi ko‘p, yosh boladek injiq odam bilan bir umr yashab*

kelayotgani uchun ham yaxshi ko'rasiz, demoqchisan (S. Axmad. *Nazm chorrahasida*). Mazkur o'xshatishda o'zbek xalqining bag'rikengligi, odamgarchiligi, so'zga munosabati yanada oydinlashadi. Aslida, injiqlik salbiy xususiyat bo'lib uni bola, ayniqsa, yosh bola bilan bog'lash mazkur salbiylikni biroz yumshatadi. Zero, bolaning injiqligi tabiiy holat bo'lib, bu holat salbiylikka yo'yilmaydi.

5. Boladek aldanmoq, yosh boladek aldanmoq: misol kerak.

Bu kabi o'xshatishlarda o'zbek xalqining sodda, ishonuvchan xarakteri namoyon bo'ladi. Aldanib qolish holati aslida salbiy holat. Lekin ushbu holat bolalarning, xususan, yosh bolalarning soddaligi bilan assotsiatsiyalansa, salbiylik biroz yumshatiladi, millatga xos bo'lgan soddalik xarakteri yoqimli ottenkaga ega bo'ladi. Bunda ham qo'llashdagi nozik jihatlarni hisobga olish kerakki, agar mazkur o'xshatish aldagan kishiga nisbatan aytilsa, salbiy yuzaga chiqadi: *U Halimani yosh boladek aldab ketdi*. Lekin aldangan odamga nisbatan qo'llansa, biroz salbiylik kuchsizlanadi. *U yosh boladek aldanib qoldi* kabi. Mazkur o'xshatishda aldangan kishining soddaligiga e'tibor qaratiladi. Rus tilida aldash bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p bo'lib, ushbu tilda ham *yosh boladek aldamoq* o'xshatishi mavjud bo'lgan holda, *baliqni sayoz joyga olib kelishdek aldamoq, laqqa baliqdek aldamoq, xuddi qarg'a tulkini aldagandek* kabi hayvonlar bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p uchraydi. Rus xalqida aldash va aldanish holatiga asosan salbiy munosabat bildirilishi mazkur zoonim komponentli o'xshatishlarning ko'pligi bilan izohlanishi mumkin.

6. O'zbek tilida *yosh boladek uyalmoq* o'xshatishida ham o'zbek xalqining uyatchanlik xarakteri o'z aksini topadi. Uyatchanlik ruhiy holat bo'lib, barcha xalqlarga xos xususiyat. Lekin bu holat o'zbek xalqida milliy xarakter darajasiga yetib borgan. Shu tufayli biz uni ko'proq ijobiy baholaymiz va bola etaloni bilan bog'lash ham shundan

dalolatdir. Rus, ingliz va o‘zbek tillarida *uyat* so‘zining sinonimik qatorlariga e‘tibor qaratib ko‘ramiz.

Rus tilidagi sinonimik qatorga e‘tibor qaratsak, aksariyati salbiy o‘tkazilgan ega: *смушение, стеснение, неловкость, неудобство, вина, муки совести*. [2;]

Ingliz tilidagi sinonimik qator: *bashfulness, diffidenc, sheepishness, reservedness, introversion, reticence, timidity, timidness, timorousness, mousiness, lack of confidence, self-consciousness, embarrassment, coyness, demureness shyne*[3]. Shu o‘rinda mazkur sinonimik qatordagi so‘zlarning semantikasiga e‘tibor qaratsak, uyatchanlik bilan birga, ishonchsizlik, sukut, qo‘rqoqlik, qo‘yga o‘xshashlik kabi semalar ham mavjud va bu esa xalqning bu holatga salbiy munosabatini anglatadi.

O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida esa *uyat* so‘zining sinonimik qatori quyidagicha berilgan: *uyat, nomus, sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo, isnod*[4;205]. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida *uyat* so‘zining xalqimiz azaldan qadrlagan, o‘zbek kishisida bo‘lishi kerak bo‘lgan fazilatlari nomlangan.

Bola etalonli o‘xshatishlardan yana yosh *boladek javdiramoq, yosh boladek o‘ynamoq, yosh boladek sevinmoq, boladek yig‘lamoq, boladek xafa bo‘lmoq, yosh boladek uxlamoq, boladek ovutmoq* kabi turg‘un o‘xshatishlar mavjud.

Farhod Usmanov bola komponentli o‘xshatishlarni tahlil qilar ekan, so‘zning assotsiativ potentsiali xususida ham fikr bildiradi: “o‘zbek tilida *bola* leksemasining “quvnoq” yoki “sodda” konnotatsiyasi mavjud. U bundan tashqari *yoshlik, beqarorlik, yig‘loqilik, beozorlik, sho‘xlik* kabi xususiyatlar bilan ham assotsiativ aloqadordir. Masalan: *U daladayam qo‘li ishga bormay, allaqanday parishon yurar, arzimagan narsagayoq yosh boladay lablari titrab, ko‘ziga milt-milt yosh olar edi* (O.YOqubov) gapidagi o‘xshatish konstruksiyasi (*yosh boladay*)da

etalon vazifasining *bola* leksemasiga yuklanish ildizlari assotsiativ tahlil asosida ochiladi. Konnotatsiya turg'unlashgan assotsiatsiyalar asosida yuzaga keladi"[5;43].

Bola komponentli o'xshatishlardan *bola ko'rmagan xotinday* konstruksiyasini tahlilga tortamiz. U atoqli o'zbek shoiri Muhammad Yusuf she'rida dunyoga nisbatan qo'llangan erkin muallif o'xshatishidir: *Oq ro'mol o'rab otinday, Tovlanma menga oltinday. Bola ko'rmagan xotinday, Allasi yolg'on dunyosan!* Bu o'rinda shoir dunyoning yolg'onlarini, ya'ni uning abadiy emasligini ta'kidlamoqchi va farzand tug'magan ayolning allasiga o'xshatmoqda. Darhaqiqat, dunyoning barcha lazzatlari, barcha go'zalliklari, barcha qulayliklari – hammasi vaqtincha, demakki, yolg'on. Bu haqiqatni hamma millat egalari biladi va turlicha ifodalaydi. Uni farzand ko'rmagan ayolning allasiga o'xshatishda o'zbekona tafakkur mavjud. Bunda inson hayotining mazmuni farzand ekanligi, farzandsiz hayot bu sarob ekanligi kabi o'zbekona idrok o'xshatishning asosini tashkil etadi.

Ushbu fikrimizni *farzanday* komponentli o'xshatishlarning ko'p qo'llanishi bilan dalillash ham mumkin. *O'z farzandidek* o'xshatishi o'zbek xalqining boshqaning farzandiga o'z farzandidek munosabatda bo'la olishini yana bir karra isbotlaydi. Bu o'xshatish orqali o'gay otionalarning farzandga munosabati, qarindoshlarning bolaga munosabati juda yaqin bo'la olishi, boshqaning bolasini o'zining bolasidek tarbiyalay olishi mumkin bo'lgan o'zbek xarakteri aks etadi:

Farzanddek aziz, farzanddek qadrdon kabi o'xshatishlar ko'pincha Vatanga nisbatan qo'llanadi:

Bola o'xshatish subyekti bo'lganda ham u o'xshatilayotgan mohiyatlar orqali o'zbek milliy xarakteri namoyon bo'lishi mumkin. Zero, xalq bolani kimgadir, nimagadir qiyos qilar ekan, undagi umumiylikni milliy idrok orqali topadi. "Milliy idrok intizomi esa, o'z navbatida, milliy til orqaligina anglanishi mumkin. Masalan,

o‘zbeklardagi kichik narsa yoki joyga nisbatan qo‘llanuvchi *ushoqdek* yoki *angishvonadek* o‘xshatishlari milliy idrok intizomini o‘zida yaqqol namoyon etadi”[6;39].

O‘zbek xalqi bolalarga nisbatan o‘xshatishlarni ishlatar ekan, asosan, ijobiy konnotatsiyaga ega o‘xshatishlardan foydalanadi. Ba’zida bolalarning kasalligi, bevaqt olamdan o‘tishi bilan bog‘liq holatlarda salbiy konnotatsiya o‘xshatishlarini kuzatish mumkin: *erta so‘ngan gulday, xazonday to‘kilmoq* kabi.

Ijobiy konnotatsiyaga ega o‘xshatishlardan ayrimlarini tahlil qilib ko‘ramiz:

Pretsident birliklar etalon bo‘lgan o‘xshatishlar. Ma’lumki, boshqa xalqlar kabi o‘zbek xalqining ham milliy qahramonlari – mashhur shaxslari bor. Alpomish, Barchinoy, Go‘ro‘g‘li, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Hotamtoy, Afandi shular jumlasidandir. Farzandlarini, bolalarini milliy qahramonlarga o‘xshatish barcha xalqlarga xos xususiyat sanaladi. Xuddi shunday xalqimiz o‘g‘il bolalarni Alpomishga, qizlarni esa Barchinoyga o‘xshashini juda ham istaydi. Shu tariqa farzandlarining Alpomishdek jasur, kuchli, vatanparvar, mard va qat’iyatli yigitlar, Barchinoydek dilbar, sadoqatli, jasoratli bo‘lishini istayotganini namoyon qiladi. Bu kabi o‘xshatishlarni alla matnlari orqali ko‘p kuzatish mumkin:

Temur kabi sarkarda bo‘l, bolam, alla,

Bobur kabi aqlga to‘l, bolam, alla.

Navoiydek shoir bo‘lgin, bolam, alla-yo,

Alpomishdek botir bo‘lgin, bolam, alla-yo.

Alpomishdek botir bo‘lgin, bolam, alla-yo. (Xalq qo‘shig‘i.)

Mazkur badiiy matnga e’tibor qaratar ekanmiz, undagi Temur kabi sarkarda, Bobur kabi aqli, Navoiydek shoir, Alpomishdek botir kabi o‘xshatishlar orqali xalqning farzandlari bilan bog‘liq orzu-istaklari namoyon bo‘lmoqda. Bu kabi o‘xshatishlar orqali xalqning xarakteri,

stereotiplar, qadriyatlarini aniqlash mumkin. Demak, o‘g‘il bolaga xos xususiyatlardan aqllilik, botirlik, yetakchilik (sarkarda), va ayni damda, shoirona tabiat milliy xarakterimizga mos ekan. Botirlik, aqllilik barcha xalqlar uchun ijobiy xususiyatlardan biridir. Alladagi *Temur kabi sarkarda bo‘l bolam* jumalari to‘g‘ri ma’noda kelmaganki, sarkarda bo‘lish bugungi kun talablariga mos emas. Lekin bu orqali ona farzandida yetakchilik, boshqaruvchanlik qobiliyatlari bo‘lishini astoydil istashi aks etmoqda. Zero, o‘zbek millatida ham qanday jamiyatda erkaklarning o‘rni yetakchilik qilishga moyildir. Alladagi *Bobur kabi shoir bo‘l* jumalari o‘zbek xalqining shoir tabiatligini, so‘zga munosabatini o‘zida ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M., Akademiya, 2001. - S. 133-134.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 320 b.
3. Usmanov F. O‘zbek tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss -Toshkent, 2020. 43-bet.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 1974. 205-bet.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/semantika-styda-v-sovremennom-russkom-yazyke>
6. <https://www.thesaurus.com/browse/shyness>

OGAHIYNING “JOME’ UL-VOQE’OTI SULTONIY” ASARIDA ARABIZMLARNING QO‘LLANISHI

*Azamat Atayev,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. O‘zbek tilidagi arabizmlarning qo‘llanilishi borasida bir muncha e‘tiborli ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay bu borada hal qilinishi lozim bo‘lgan juz‘iy masalalar ham bor. Mazkur holatlardan ayrimlari maqolada “Ogahiyning “Jome’ ul-voqe’oti sultoniyl” asaridagi arabizmlar” misolida tahlil qilingan. Bu esa bevosita asardan misollar keltirish va ularni aslidagi matni, birlamchi manba bilan qiyoslagan holda izohlangan. Shuningdek, Ogahiy ham Navoiyga tom ma’noda izdosh sifatida o‘zga til birliklarini o‘rinsiz qo‘llamagani. Ogahiy asarlarida ishlatilgan arabiy so‘z va birikmalar tahlili ularning ishlatilish sabablarini aniqlab berish bilan birga, adibning so‘z qo‘llash mahorati, asarlarining badiiy barkamolligini ko‘rsatib beruvchi vositalardan biri ekani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: arabizm, iqtibos, adno, nabiy, mursal, balog‘at, fasohat, mumtoz adabiyot, arabiy so‘z va birikmalar.

Ogahiyning “Jome’ ul-voqe’oti sultoniyl” asaridagi arabizmlarni tahlil qilar ekanmiz, ularni dastlab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin bo‘ladi:

1. Iqtiboslar. 2. Iqtiboslar asosidagi birikma va so‘zlar. 3. Duo jummalari. 4. Eski o‘zbek tilida, shuningdek, davr muhitida mashhur asarlarda keng ishlatilgan birikmalar. 5. Turkiy so‘zlarga sinonim sifatida ishlatilgan arabiy so‘zlar. 6. Turkiy ifodasi bo‘lmagan yoki

turkiydagi ifodasi soʻz mazmunini toʻla aks ettirmaydigan (keng maʼnoliligi yoki tor maʼnoliligi bilan) arabcha soʻzlar.

Asar leksikasini yuqoridagi tasnif asosida koʻrib chiqsak, Ogahiyning mazkur asarida ham boshqa tarixiy asarlaridagi kabi arabiy soʻz va birikmalar nooʻrin qoʻllanmagani, oʻz davri tili va muhiti uchun uni anglash qiyin boʻlmaganiga iqror boʻlamiz. Masalan, asar muqaddimasining naʼt qismida oʻqiymiz: ... *durudi behisob ul sultoni gardunjanob va shahanshohi qamarrikobning zoti sharofatmaobigʻa ansabu ahamdurkim, “qoba qavsayni av adno” maydoni chobuksuvori muhtarami, “valiyun maʼ-Allah” shabistonining muqarrabu mahramidur, vujudi zijudi “va mo arsalnaaka illaa rohmatan lil-ʼaalamiyn” javohirigʻa maxzan va toji risolati “va lakinna rasulullohi va xotama-n-nabiyyin” laoliysidin muzayyan [9:4⁶]* (Bundan keyingi misollar ham ushbu manbadan olingan va qavs ichida betlari koʻrsatiladi).

Ushbu parchada *sulton, shohonshoh, toj, maxzan* kabi ijtimoiy-siyosiy terminlarining qoʻllanilishi asar mazmuniga muvofiq ravishda tanosub sanʼatini hosil qilayotgan boʻlsa, ...*chobuksuvori muhtaram* birikmasi orqali meʼroj voqeasiga ishora qilinmoqdaki, bu oʻz navbatida talmehni yuzaga keltirmoqda. Matndagi “qoba qavsayni av adno” Qurʼoni Karimdan iqtibos boʻlib, An-Najm surasining 9-oyatidandir. Oyatning toʻliq shakli فَكَانَ قَابَ قَوْسَيْنِ أَوْ أَدْنَى dir va “Bas, ikki kamon miqdoriday joyda boʻldi. Balki undan ham yaqinroq keldi” degan maʼnoni anglatadi [8:629]. Ushbu iqtibos Muhammad alayhissalom naʼtida aytilgan koʻplab nazmiy va nasriy asarlarda uchraydi. Jumladan, Amir Alisher Navoiy oʻzining fors tilida bitgan “Sittai zaruriya” (Olti zarurat) qasidalar turkumining “Ruh ul-quds” (Muqaddas ruh) qasidasida:

*“Rasid kor ba joe ki shahsuvori rusul,
Buroq toxt bar on avj dar shabi isro.*

Bidodiy az karamat qurbi “qoba qavsayn”

Ki kuft ko ‘si jalolat ba avji “av adno”.

Ya’ni, “ish shu joyga yetdiki, payg‘ambarlar shohsuvori (Muhammad alayhissalom)ning buroqi Isro (me’roj) kechasi tun zulmatida o’sha avj yuksakka (huzuringga) qarab yugurdi. Behad karamingdan hazrat payg‘ambarga “qoba qavsayn” – ikki qosh oralig‘iday yaqinlik berding. Ulug‘lik nog‘orasini “av adno” – balki, ikki qosh orasidagi masofadan ham yaqinroq maqomda chaldi...[8:629]”.

Ogahiy asarlari tilida, umuman, mumtoz adiblarimiz tilida ham ayrim arabiy so‘z va birikmalar mavjudki, ular bevosita iqtiboslarga ishora qilish vazifasini bajaradi. Asardagi quyidagi parchada “adno” – quyi so‘zi bunga yaqqol misoldir:

Boshig ‘a nuri vahdatdin quyub toj,

Anga adno safardur shomi Me’roj.

Kelib zoti rusul xayli aro toq,

Yorub dini quyoshi birla ofoq. [9:5^a]

Parchada ishlatilgan iqtiboslardan yana biri “va mo arsalnaaka illaa rohmatan lil-‘aalamiyn” bo‘lib, “Anbiyo” surasining 107-oyatidir va “Biz seni faqat olamlarga rahmat qilib yubordik” degan ma’noni anglatadi [10:874]. Keyingi iqtibos “va lakinna rasulallohi va xotama-nabiyyin” esa “Azhob” surasi 40-oyatining bir qismidir va oyat to‘liq holda

مَا كَانَ مُحَمَّدٌ أَبَا أَحَدٍ مِّن رِّجَالِكُمْ وَلَكِن رَّسُولَ اللَّهِ وَخَاتَمَ النَّبِيِّينَ وَكَانَ اللَّهُ بِكُلِّ شَيْءٍ عَلِيمًا

tarzida bo‘lib, “Muhammad sizlardan biron erkakning otasi bo‘lgan emas. Lekin Allohning Rasuli va Nabiylarning so‘nggisidir. Alloh har bir narsani o‘ta bilguvchidir” degan ma’noni anglatadi [10:874].

Turkiy tillarda payg‘ambar ma’nosini ifodalovchi “yalavoch”, “sovchi” [1:49] kabi so‘zlar bo‘lishiga qaramay, XIX asr o‘zbek adabiy

tilida ularning qo‘llanilishi chegaralangan, arxaizmga aylanib ulgurgan edi. Qolaversa, “Qisasi Rabg‘uziy”da ham aqidaga ko‘ra “nabiy” va “mursal” so‘zlari farqlangan holda ishlatilgan.

“Jome’ ul-voqe’oti sultoniy”da ham ayrim so‘zlar borki, ular diniy yoki tasavvufiy istiloh sifatida aslicha qo‘llanilgan. Buni quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Shahanshoheki, ayvoni *risolat*
Vujudi birla topti zeb-u ziynat.
Haqiqat mulkining kishvaristoni,
Nubuvvat xaylining sohibqironi.
Kelib manzilgahi “*saba’ aroyik*”,
Sipoh-u chokari xayli *maloyik*.
Chu *kufr* ahlig‘a tig‘i qasd surdi,
Jahondin *kufr* rasmin barham urdi.
Olib *din ahli* komin *millatidin*,
Yetib maqsadg‘a rohi *sunnatidin*.
Rusul xayli aro shohi muayyad,
Kelib ismi humoyuni Muhammad.
Ilohi, dini a’molin rofe’ et,
Ma’osiy ahlig‘a lutfin *shafe’* et.
Ulusni shafqatidin ayla hurram,
Orada noumid etma meni ham [9:4^b-5^a).

Ko‘rinadiki, Ogahiy ham Navoiyga tom ma’noda izdosh sifatida o‘zga til birliklarini o‘rinsiz qo‘llamagan. Ogahiy asarlarida ishlatilgan arabiy so‘z va birikmalar tahlili ularning ishlatilish sabablarini aniqlab berish bilan birga, adibning so‘z qo‘llash mahorati, asarlarining badiiy barkamolligini ko‘rsatib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasi. – Toshkent: Akademiya, 2008. – B. 49.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirmanchi tom. – Toshkent: Fan, 2003. – B.206; 217. Keltirilgan nasriy tarjima mualliflari S.Rafiddinov va N.Bekova.
3. Qur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima./ Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur./ – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
4. Nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
5. Nosirov O., Yusupov M. Anna‘im. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: 2003. –B.895–896.
6. Sh. Rahmatullayev. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar) – Toshkent: Universitet, 2003-yil. 600 bet.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – Toshkent: Movarounnahr. 2005. – B.105.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Beshinchi juz. – Toshkent: Sharq, – B. 629.
9. *جامع الوقاعات سلطاني* O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. Inv № 9786.4^b.
10. Furqon. www. Islom.uz.

XORAZM SHEVALARIDA ARABIY QATLAM MASALASI

Shahnoza Maqsudovna Alimova,

UrDU o‘qituvchisi, PhD

Navbahor Erkinovna Sadullayeva,

UrDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm shevalarida faol ishlatiladigan arabiy qatlamga oid ayrim so‘zlar tahlili berilgan bo‘lib,

ular asosida sheva leksikasida mavjud arabiy qatlam bo‘yicha xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar. Xorazm shevalari, arabiy qatlam, sheva leksikasi, leksik qatlam, ishtiyoq (fleksiya), arabiy o‘zlashmalar.

Tilshunosligimizda arab tiliga mansub leksik qatlam bir qadar o‘rganilgan. Masala yuzasidan muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan [1: 41-124]. Shevalardagi tarixan arab lug‘aviy qatlamga mansub so‘zlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning ko‘p hollarda asl lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, mahalliy aholi muhitiga xos tushunchalar ifodasiga xizmat qilayotganidir. Masalan, batil [*bat’l*] so‘zi “ishlatilmay yotgan ariq, zovur; yaroqsiz holga kelib qolgan sug‘orish sistemasi, qurol, asbob” [2:26] ma’nosini anglatadi: *yap batil vop yatipti*. Uning bu ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sheva so‘zi ekanligi haqidagi qayd bilan berilgan:

Botil 1. [arabcha باطل - yolg‘on, soxta; befoyda] esk. kt. Soxta, yolg‘on, asossiz; foydasiz... Qil yaxshiligu demakni doxil qilma, Minnat bila yaxshilikni *botil* qilma. (Alisher Navoiy).

Botil II shv. Yaroqsiz holga kelib, ishlatilmay qolgan (ariq, zovur haqida). Bu damba qachonlardir *botil* bo‘lib qolgan Bo‘zyop ariq dambasi edi. “Sharq yulduzi” [5:328].

Ko‘rinadiki, so‘zning shevada kasb etgan ma’nosi ham birlamchi ma’nodan uncha uzoqlashmagan, mahalliy aholi maishiy hayotiga moslashgan holda ma’no o‘zgarishiga uchragan. Eski o‘zbek tilida *botil* “buzilgan, buzuq, bekor qilingan” kabi ma’nolarni anglatishi [4:129] fikrimizni dalillay oladi.

Eski o‘zbek tilida *bodiya* sahro, cho‘l ma’nosini anglatga, Xorazm shevalarida *badya* [*badya*] “sopol tovoq, katta shokosa” (*bir badya borak, ortasinda cherak* topishmoq – osmon, oy yulduzlar) ma’nosini anglatadi. Bu so‘z ayni *sahro* ma’nosida Munis va Ogahiy asarlarida

ham keng ishlatilgan: “bu mavsum taqozosi bila beparvolig‘ *bodiyasida* jununtoz erdim [6:45]”.

Xorazm shevalaridagi tarixan arab lug‘aviy qatlamiga mansub so‘zlarning ayrimlari etimologik jihatdan tub va yasama so‘zlarga ajraladi.

Tub so‘zlar yasamadan faqat bitta lug‘aviy ma’noga ega komponentdan tashkil topishi, tarkibida yasovchi affiks mavjud bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *kitâb*, *ishq*, *muhabbat* kabi. Shu o‘rinda eski o‘zbek tili uchun ham, hozirgi o‘zbek tili uchun ham sodda so‘z sifatida qaraladigan birliklarning aksariyati aslida yasama bo‘lib, arab tilidagi ichki fleksiya qoidalari asosida yuzaga kelganini qayd etish lozim. Ular tilimizga tayyor leksema sifatida qabul qilingani, ularning yasalishida turkiy tillar yasalishi tizimining o‘rni bo‘lmagani bois sodda so‘z sifatida baholanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Tarkibiy tahlil natijasidagina ularning aksariyati yasama ekani oydinlashadi. Arabiy o‘zlashmalarning tarkibiy tahlilini esa arab tilining ishtiyoq (fleksiya) qonuniyatlariga asoslanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Shevalardagi arabiy so‘zlarning tarkibida o‘zakning qanday xarakter (masalan, undoshlar soni, ularning takroriy yoki takroriy emasligi)da ekanini hisobga olish muhim.

Arab tiliga mansub leksik qatlam o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Uning ijobiy va salbiy xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy sabablari haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan [2:41-124]. Xorazm shevalaridagi arabcha leksik birliklarning asosiy qismi ot so‘z turkumi shaklida qabul qilingan bo‘lib, ular ko‘proq mavhum tushunchalarni ifoda qiladi. Ularni 1) o‘zbek adabiy tilidagi arabcha so‘zlardan fonetik jihatdan farq qiluvchi o‘zlashgan leksik birliklar (*dövlät* [*davlat*], *avliyā* [*avliyo*], *tävîp* [*tabib*], *dövra* [*davra*], *ārvā* [*arava*] kabilar); 2) o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, biroq Xorazm shevalari leksikasida qo‘llanadigan arabcha leksik birliklar (*bälli* [*balli*] “nishon, belgi”; *bälli-*

küllī [balli-kulli] “butunlay, batamom”; *nā:l* [nal] “taqa”, *yāssal* [g‘assol] (adabiy tilda bo‘lmagan “dangasa” ma’nosi nazarda tutiladi), *ravat* [ravot] “manzil”, *žūbbā* [jubba] “bolalar kiyimi”); 3) o‘zbek adabiy tilidagi arabcha qatlamdan ma’nosiga ko‘ra farq qiluvchi leksik-semantik dialektizmlar (*äyyam* [allaqachon], *važ* [narsa] kabi) tarzida ajratish maqsadga muvofiq. Biz bu o‘rinda A.Allamberdiyev tadqiqotlaridagi mazkur tasnif Xorazm shevalari leksikasi tarkibidagi arabizmlarga ham xos, deb hisobladik. Masalan, *hijab* [hijop] “hayo-ibo; uyalish-tortinish” o‘zbek adabiy tilida *hijob* “yuzga tutiladigan parda, to‘siq”; o‘zbek adabiy tilida *ayyom* “bayram kuni, bayram kunlari” Xorazm shevalaridagi *ājjām* [əyyom] “allaqachon” kabi.

Xorazm shevalaridagi arabiy qatlamga mansub ayrim so‘zlarning asli o‘zbek adabiy tilidagi shaklidan bir oz farq qiladi. Masalan, *arava* – *arva//arba* shaklida ishlatiladi. Mana shu so‘z ishtirokida *ko‘rpa*ga o‘t *qo‘ymoq* iborasining shevadagi sinonimi sifatida *arvan* avdarmaq iborasi ham shakllangan. Arava so‘zining asli arabcha “araba” bo‘lib, arab so‘zining “ko‘chmanchi, badaviy” [3:530] ma’nosi bilan bog‘liqlik kasb etadi. Shu o‘zlashma asosida *arvach* – 1) aravakash; 2) aravasoz so‘zlari yasalgan.

Arsh Xorazm shevalari va boshqa o‘zbek shevalarida “arava shotisi” ma’nosida ishlatilsa ham, uning adabiy tildagi [5:102-103] ma’nolari ham mavjud: *Vundiy dema*, *allan* aršī *qozyaladī* – unaqa dema, Allohning arshi qo‘zg‘aladi.

Asrlar davomida shevalarga arab tilidan falsafiy-ma’rifiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ham o‘zlashganini ko‘ramiz. Masalan, *ādīl* so‘zi 1) diyonat; 2) odil ma’nolarida ishlatiladi. *Hār iṣḍā ādīl bolīš kārāk* [Har ishda odil bo‘lmoq kerak] kabi gaplarda har ikkala ma’noni anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир / Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1949. – Б.87–102; Камол Ф. Лексикология / Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.96 – 98; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Б.213–220; Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составидаги тожик-форсча ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.108-127; Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари / Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.41-124.
2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари I том. – Тошкент: ЎзФА, 1961. – Б.26.
3. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.530.
4. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.129.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.102-103.
6. Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Фирдавсу-л-икбол (Бахт-саодат жаннати). – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2019. – Б.45.

TILSHUNOSLIK HAMDA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TURKUM JIHA TLARI

Gulmira Sharifovna Absalamova,

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)*

Annotatsiya: Mutaxassislik atamalarining katta qismini adabiyot terminlari tashkil qilib, bugungi kunda zamon shiddatiga ko'ra o'zgarishlar ushbu sohada talaygina. Jumladan fransuz tili tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarga nazar soladigan bo'lsak yangi turkum va janrlar ona tilimizga bugungi kunda kirib kelayotgan atamalarning keng ko'lamli jihatlari ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: etimologiya, derivatsiya, arxaizm, terminologiya, so'z ma'nosi.

Terminologiya sohasi ham tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikning doir tilda mavjud bo'lgan eng dolzarb muammolar bilan munosabatda bo'lib ularga turli tomonlardan javob topishga, yechimini ishlab chiqishga intiladigan fan sohasi bo'lib hisoblanadi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, ta'rifga ega bo'lgan va asosan nominativ funksiyani bajaradigan biriklarga terminlar deb qaraladi. Shuningdek fransuz tilidagi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining qo'llanilish ahamiyatini quyida aniqlik kiritamiz.

Derivation n. f.- derivatsiya ya'ni asosga (radikal) nisbatan qo'shimcha yoki prefiksni qo'shish, olib tashlash yoki almashtirish orqali yangi so'z yasash jarayoni. La théâtralité < théâtral, le modalisateur modaliser.

Étymologie n.f- etimologiya (yunoncha vrai + science -"haqiqiy + fan" so'zlarning kelib chiqishidan hosil bo'lgan. Misol tariqasida,

"travail" –ish, mehnat soʻzining etimologik kelib chiqishi lotincha "tripalium" soʻzi boʻlib, qiynoq degan mazmuni keltirib chiqaradi.

Neologisme n.m.- 1.Nouveau soʻzidan hosil boʻlgan boʻlib yaʼngi maʼnosini anglatadi. 2.Soʻzning yangi maʼnosi (neologizm maʼnosi)da qoʻllaniladi: autofiction, actant, locuteur, (oxe) paradigmatiche, fiers-mondisme.

Archaïsme n. m.- arxaizm yozuvchi tomonidan ishlatiladigan soʻz (yoki ifoda), garchi har doim ham ishlatilmasada badiiy adabiyotda qoʻllaniladi Masalan: Quir, ferir, lacs (= pièges).

Fransuz adabiyotidagi soʻz tarmoqlari boʻyicha adabiy terminlarga murojaat qiladigan boʻlsak quyidagi atamalarni uchratamiz.

Champ lexical n.m.- leksik maydon; matnda birlashtirilgan voqelikning bir guruhini belgilovchi atamalar toʻplami[1,45]. Quyida oʻsimliklarning leksik maydoni misol qilib keltirilgan: "La civilisation n'est plus cette fleur fragile qu'on préservait, qu'on développait à grand-peine dans quelques coins abrités d'un terroir riche en espèces rustiques, menaçantes sans doute par leur vivacité, mais qui permettaient aussi de varier et de revigorer les semis (Lévi-Strauss).

Occurrence n. f. – voqea; soʻzning matndagi koʻrinishi. Bu soʻz takrorlanib turadi, deyishadi.Poklikka boʻlgan ishtiyoq Phedreda "jour" –kun va "soleil"-quyosh soʻzlari bir oʻrnida ikkinchisining qoʻllanishini kuzatish mumkin.

Mot clé n. m.- kalit soʻz yaʼni matndagi qoʻllanish chastotasi mavzuni aniqlashga imkon beradigan soʻz. Masalan "Vice" hamda "vertu" leksemalari XVI-asr mutafakkiri Mishel de Monten "Tajribalar" asarida muhim ahamiyatga molikligini kuzatamiz.

Mot-valise n.m.- portmanto soʻzi bir qator soʻzlarning bir soʻzga qisqarishi natijasida hosil boʻlgan soʻzda faqat birinchi soʻzning bosh qismi va oxirgi soʻzning oxirgi qismi saqlanib qoladi.

Calembour n. m.- kalembur, turli atamalarning gomofoniyasiga asoslangan o'yin. "Troubler ainsi le service divin !" "- Mais [...] le service du vin"(Rabelais).

Jeu de mots n. m.- so'z o'yini, ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanilishi."Si parler ainsi de la terre fait de moi un poète mineur, ou terrassier, je veux l'être!" (Ponge)

Paronomase n. f.- paronomaziya - bu paronimlarni, tovushlari o'xshash, ammo ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlarni bir jumla doirasida birlashtirishdan iborat nutq shakli. Bu semantik bog'lanish so'zlarning ma'nosi ham bog'langanligini ko'rsatadi[2,53]. Paronomaziya kelib chiqqan aks-sado effekti yodlashni osonlashtiradi va his yoki fikrni ifodalashni kuchaytiradi: "Je tresserai mes vers de verre et de verveine." (Aragon)

So'zlar va uning ma'nosini qo'llashda qo'llaniladigan atama acception n. f. -qo'llash orqali qabul qilingan va tan olingan so'zning maxsus ma'nosi. Misol tariqasida keltirish joizki, tortu- rer XVII-asrda to'sqinlik qilish bugungi kunga qaraganda butunlay boshqacha ma'noga ega.

Sens figure n. m.- ko'chma ma'no ya'ni aniq tasvirning mavhum munosabatlarga semantik ko'chishi tufayli so'z o'zining to'g'ri ma'nosiga qo'shimcha ravishda qabul qilinishini anglatadi [4,17]. Bu ko'chma ma'no, odatda, odatiy holga aylangan metaforadir. "Le grand Cointet prit son chapeau, son parapluie et son air jésuite et sor- tit." (Balzac)

Connotation n.f.- konnotatsiya, bir so'z ma'nodan tashqari taklif qiladigan barcha hissiy ma'nolarini ifodalaydi. "Ruines" – haroba so'zining ma'nolari (mort, néant, fuite du temps, décadence, fragilité de l'homme, art, romantisme) o'lim, yo'qlik, vaqtning parvozi, tanazzul, insonning mo'rtligi, san'at, romantizm bo'lishi mumkin.

Synonymes n. m.-sinonim, bir xil yoki juda o‘xshash ma’noga ega so‘zlar. Shuning uchun, shunga ko‘ra, shunday, shuning uchun sinonimdir. Masalan:Par consequent, en conséquence, ainsi kabi so‘zlar sinonimlardir.

Homonymes n. m. - ma'nosi har xil, ammo talaffuzi bir xil so‘zlar, Troie, la ville d'Hector, et Troyes, la capitale de la Champagne otlari sinonimlardir.

Pejoratif - (lotincha “plus mauvais”-"yomonroq") salbiy qiymatni ifodalovchi, yomonlik g‘oyasini o‘z ichiga olgan so‘z, ibora, element, ma’no, belgilangan shaxs yoki tushunchani qadsizlantiradi. Fransuz tilidagi pejorativ qo‘shimchalar quyidagilar sanaladi: -ache (bravache), -aille (ferraille), -ard (pleurard), -âtre (bellâtre), -asser (rêvasser), -esque (livresque), -is (ramassis).

Mélioratif – (lotincha “meilleur” -"yaxshiroq") Eng yaxshi ijobiy qiymatga ega hushvaqtlik uchun taqdim etiladi[5,81]. "La grasse est dans son port pleine de majesté (...); La géante paraît une déesse aux yeux; La naine, un abrégé des merveilles des cieux (Molière).

Antonymes n. m. – antonim, qarama-qarshi ma'noli so‘zlar. Masalan: Les petites causes et les grands effets.

Alohida ta’kidlash joizki, bizning lug‘atimizda, yuqorida aytilganidek, tilshunoslikka doir terminlar ham bir talay. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki bu ikki fan bir butun (filologiya)ning ikki pallasidir. Adabiyotshunoslik terminlarini tadqiq qilish jarayoni ularning lug‘atlardagi talqini va tavsiflanishi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli terminlarni tahlil qilishdan oldin diqqatimizni avvalombor

ularning manbalariga qaratishimiz lozim bo‘ladi. XX-asrga mansub bir nechta ingliz adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlari haqida to‘xtalib, adabiyotshunoslik terminlarini izohlovchi lug‘atlar ko‘rib chiqildi. Ularning barchasi adabiyotshunoslik terminlarini izohlashda tarixiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligining guvohi bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Алексеева Л.М. Термин ва метафора. – Пермь, 1998
2. Будагов Р.А. Терминология и семиотика.//по изд. Вестник МГУ, 1972
- 3.Володина М.Н. Национальное и интернациональное в процессе терминологической номинации. – М. 1993
- 4.Герд А.С., Нерознак В.П. Проблема формирования научной терминологии. – Л., 1968
- 5.Гринев С.В. Введение в терминологическую лексикографию. – М., 1991
6. Борхвальдт О.В. Историческое терминоведение русского языка. – Красноярск, 2000

O‘ZBEK TILI GEMERONIMLARINING TUZILISH JIHATDAN TURLARI

*Boljon Sapayeva,
UrDU katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida gemeronim atamasi, o‘zbek tili gemeronimlaridan gazeta nomlarining tuzilish jihatdan turlari masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gemeronim, ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnal, so‘z-gemeronim, birikma-gemeronim, gap-gemeronim.

N.V.Podolskaya lug‘atida gemeronim termini yunoncha *gemero*(*hemero*) “kun”, “sutka” ma’nosini, *onim* (*onuma*) – “nom” ma’nosini anglatib, davriy nashrlarning nomlari tushunilishi haqida ma’lumot berilgan[1,46]. I.V.Kryukova tadqiqotida davriy nashrlar

ommaviy axborot vositalarining bir turi ekanligi, radio, televidenie, video va kinoxronikal dasturlar ham *gameronim* termini ostida o'rganilishini ta'kidlaydi[2,32].

O'zbek gemeronimlari boshqa atoqli otlar kabi tilimiz boyligining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek tili keyingi bir yarim asr ichida yuzaga kelgan xilma-xil gemeronimlarga juda boy bo'lib, bu nomlar o'zbek xalqining uzoq madaniy va ma'naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridan biridir. Nashriyot-matbaa ishlarining rivojlanishi gemeronimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Chunki bu nomlarda xalqimiz bosib o'tgan ziddiyatli tarixiy yo'l, keng ommaning turli-tuman orzu-umidlari, armonlari, falsafiy, diniy ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, turli siyosiy davrlar haqida guvohlik beruvchi e'tiqodlari, insonlarga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topgan.

Keyingi yillarda davlatimizning ommaviy axborot vositalariga, so'z erkinligi, matbuot erkinligi masalalariga alohida e'tibor berayotgani, respublika, viloyat, tuman va shahar gazeta va jurnallarining ko'pchiligi faol harakat qilayotgani bejiz emas. Gazeta va jurnal nomlari mafkuraviy qarashlar, shaxsiy munosabat va mayllar, shuningdek, boshqa xil salbiy munosabatlardan xalos qilindi.

“Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ommaviy axborot vositalari** sohasidagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotgani ko'rsatilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat

jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda[3]. Bu masala doirasiga ommaviy axborot vositalarining nomlarini lisoniy jihatdan o'rganish muammosi ham kiradi. Chunki nomlar muayyan nashrning mavzu yo'nalishi, qaysi turdagi o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallangani kabilarni ko'rsatib turadi va estetik vazifa bajarishga ham xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari nashrlari nomiga katta ahamiyat beriladi. Ommaviy axborot vositalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan brendga aylanishi va kelajakda sifat belgisi sifatida ishlatilishi unga tanlangan nomga ham bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining nomlari o'zbek tilshunosliga oid tadqiqotlarda deyarli o'rganilmagan mavzulardan hisoblanadi.

Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalaridan gazeta nomlarining tuzilish jihatdan turlari haqida fikr yuritamiz.

Gazeta - jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy - ishlab chiqarish va madaniy - ma'naviy hayotini aks ettiruvchi ommaviy axborot turi. Uning asosiy vazifasi o'quvchini jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayoti haqida axborot berish, bo'layotgan voqea va hodisalardan xabardor qilishdir. Gazeta jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olarkan, shu kunning tarixini butun tolaligi bilan aks ettiradi. Gazeta o'quvchiga dunyoni bildiradi, uning ongini oshiradi, ma'naviy oziq beradi, ijtimoiy faoliyatini yo'naltiradi va faollashtiradi. Gazeta umuminsoniy madaniyatning hosilasi va uni taraqqiy ettiruvchi muhim omildir. Gazeta jamiyatdagi uch ijtimoiy tuzilma — qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatidan keyin to'rtinchi hokimiyat sanaluvchi jurnalistikaning asosiy o'zagi hisoblanadi. Jamiyatdagi turli tabaqalar, sinflar, partiyalar o'zlarining shu kundagi, ayni zamondagi manfaat va qarashlarini ishlab chiqish, ommaga yetkazish va muxolif guruhlariga qarshi kurashda gazetadan keng foydalanadilar.

Gazeta va jurnallar materiallarining mazmunli, o‘qimishli va ta’sirchan bo‘lishida ularga qo‘yilgan nomning ham o‘rni muhim.

Ma’lumki, gazeta nomlari nomlash, atash, axborot berish, murojaat, havola, ta’sirchanlik, reklamalilik kabi funksiyalarni bajaradi. Nomning ana shu xususiyatlarini yuzaga chiqarishda so‘zning ahamiyati katta. So‘zning yakka holda nom sifatida qo‘llanishi gazetaning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Gazetada axborot nihoyatda ixcham, lekin mazmunli va ta’sirchan ifodalanishi lozim.

So‘z tilning atash, nominativlik funksiyasini bajarishi bilan gazeta materialida ifodalangan axborotni gazetxonga ixcham va tez ta’sir etadigan shaklda ifodalash uchun keng imkoniyatlarga ega. Birgina so‘z orqali emotsionallik-ekspressivlik ham ta’minlanadi. Gazeta uchun muhim hisoblangan reklamalilikni ham birgina so‘z orqali ifodalash imkoniyatlari mavjud.

Gazeta nomi sifatida bir so‘zdan iborat bo‘lgan ot turkumiga oid sarlavhalar ko‘p uchraydi. Ammo boshqa so‘z turkumlari (masalan: sifat, son, olmosh, ravish yoki fe’l) bilan ifodalangan bir so‘zdan iborat gazeta nomlarini uchratmadik.

Gazeta nomlarida, ayniqsa, ot turkumiga oid bir so‘z bilan ifodalangan nomlar ko‘plab uchraydi. So‘z ko‘rinishidagi gemeronimlar vazifasida, odatda, ot turkumiga xos bosh kelishikdagi so‘zlar ishlatilgan. Masalan: “Ma’rifat”, “Sadaf”, “Ishonch”, “Jamiyat”, “Adolat”, “Sport”, “Bekajon”, “Tafakkur”, “Darakchi”, “Sug‘diyona”, “Muhofaza”, “Humo”, “Erkatoy” kabi.

So‘z ko‘rinishida ifodalangan gemeronimlar ba’zan turlovchi grammatik shakllar – bosh kelishikdan boshqa ma’lum kelishik qo‘shimchasini olgan holda qo‘llanishi mumkin. Ma’lum kelishik shaklidagi so‘z-gemeronimlar, odatda, shakllangan muayyan bir gap bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda kelishik qo‘shimchasi gemeronimning matnda bajaradigan sintaktik vazifasini ko‘rsatibgina

qolmay, soʻzni grammatik jihatdan shakllangan birlik sifatida namoyon qiladi, uning maʼnosini konkretlashtiradi.

Kelishik shaklidagi soʻz - gemeronimni “Postda” gazetasi nomidagina uchratdik.

Soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra sodda - ikki mustaqil soʻzdan va murakkab - uch va undan ortiq mustaqil soʻzdan tarkib topadi. Demak, soʻz birikmalarini sodda va murakkab birikmalarga boʻlishda nutq birligi tarkibidagi mustaqil soʻzlarning miqdori asos boʻlib xizmat qiladi[4,19].

Soʻz birikmalari shaklidagi gemeronimlar soʻz shaklidagi gemeronimlarga nisbatan koʻproq va faolroq ishlatiladi. Bunday shakldagi gemeronim orqali oʻquvchini gazeta haqida imkoni boricha kengroq xabardor qilish talabi bilan izohlanadi. Chunki soʻz birikmasi mohiyat eʼtibori bilan voqea-hodisalar, tushunchalar oʻrtasidagi turli xil munosabatlarning nutq birliklarida aks etish shakllaridan biridir. Soʻzlar qoʻshilmasini tavsiflovchi semantik-grammatik munosabatlar soʻz birikmasi qismlari maʼnolari (soʻzlar anglatayotgan tushunchalar, narsa-hodisalar) oʻrtasidagi aloqadorlikni ham koʻrsatadi. Soʻz birikmalaridan anglashilgan maʼno, odatda, yakka olingan soʻzlarnikidan boyroq va aniqroq boʻladi. Soʻz birikmasining yaratilishida soʻzlar xizmat qiladi, gaplarning yaratilishida esa soʻz birikmalari xizmat qiladi.

Birikma gemeronimlar gazeta nomlarida xilma-xil koʻrinishlarda ishlatiladi.

Moslashuvli birikma-gemeronimlar. Maʼlumki, oʻzbek tili sintaksisida moslashuv munosabati qaratqich va qaralmish aloqalari chegarasida koʻriladi. Bunda qaratqich bilan qaralmish orasida moslik mavjud boʻlib, ikki soʻzdan birining oʻzgarishi bilan tobe boʻlak ham shunga mos shaklga oʻtadi. Gazeta nomlari — gemeronimlarda ham moslashuv yoʻli bilan birikkan nomlarni koʻplab uchratishimiz mumkin.

Kuzatishlarimizdan maʼlum boʻldiki, gazetalardagi soʻz birikma-gemeronimlar orasida qaratqich birikma gemeronimlar alohida oʻrin

tutadi. Bu xil gemeronimlar gazeta tabiatiga mosligi bilan ajralib turadi. Ular orqali ifodalangan mazmun konnotativ ma'no, ya'ni qo'shimcha ekspressiv ma'no muhim stilistik vosita hisoblanadi. Qaratqich birikma tarkibidagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini tushirish orqali ma'noning umumiy tarzda va ixcham ifodalanishiga erishish, kelishik qo'shimchasini saqlagan holda konkretlikni ta'minlash mumkin. Eng muhimi, har ikkala holatda ham ma'noni aniq, ixcham, ravon, mazmunli ifodalasa bo'ladi. "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "Islom nuri", "Qishloq ko'chalari", "Ko'ngil ko'chalari", "Yoshlar ovozi", "O'zbekiston futboli", "Kitob dunyosi", "Bolalar sporti", "Adolat yog'dusi", "Istiqlol umidlari", "O'zbekiston bunyodkori", "Istiqlol odimlari", "O'zbekiston matbuoti", "Salomatlik sirlari", "Murabbiy mahorati" kabi gazeta va jurnallar nomlaridan ko'rish mumkinki, qaratqich kelishigini belgisiz shaklda ishlatilishi ko'p uchraydi. Bunday shaklda qo'llanishi gazetabop bo'lib, ixchamlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Bitishuvli birikma-gemeronimlar. Gazeta va jurnallar nomlarida bitishuv munosabati asosida tashkil topgan birikma-gemeronimlar ham keng ishlatiladi. Bu jihatdan ular moslashuv munosabatidagi birikmalardan keyinda turadi. Bitishuv munosabatidagi birikma gemeronimlar turlicha ko'rinishlarda kelishi mumkin. "Milliy tiklanish", "Sog'lom avlod", "Kelajak avlod", "Sirli tabobat", "Fidoyi yoshlar", "Farovon yurt", "Iqtisodiy gazeta", "A'lo kayfiyat", "Jannat makon", "Jajji akademik" kabi gazeta va jurnalar nomlari bitishuv yo'li bilan birikkan gemeronimlardir. Bu yo'l bilan hosil qilingan gemeronimlarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Ma'lumki, boshqaruv munosabatidagi so'z birikmalari sifatida ot yoki ot vazifasidagi so'zning fe'lga yoki sifatga tobe bog'lanishi, hokim so'z talabiga qarab ma'lum grammatik shaklda kelishi tushuniladi. Bunday bog'lanish ham semantik, ham grammatik jihatdan yuzaga

chiqadi. Boshqaruv aloqasida tobe komponent biror kelishik affiksini olgan holda yoki ko‘makchi bilan birga keladi. Gazeta nomlarida boshqaruv yo‘li bilan hosil qilingan gemeronimlarni uchratmadik. ”Korxonani boshqarish”, “Maktabda biologiya”, “Maktabda kimyo”, “Maktabda geografiya” jurnallari nomlari boshqaruv yo‘li bilan hosil qilingan gemeronimlarga misol bo‘la oladi.

Gazeta va jurnallar nomlari gap shaklida ham berilib, bunday nomlar matn mazmunini ifodalash, axborotni yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Gap shaklidagi gemeronimlarni kam miqdorda bo‘lsa-da, quyidagi jurnallar nomlanishida uchratdik. Kuch –adolatda”, “O‘zbekiston – islom sivilizatsiyasi markazi” kabi.

Gap-gemeronimlar grammatik quriliish jihatidan xilma-xil bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu, eng avvalo, ularning ixcham va lo‘ndaligida, turli xil ko‘rinish va shakllarda ishlatilishi bilan bog‘liq.

Gemeronimlarning tuzilishi gazeta yoki jurnalning mazmuniga mos bo‘ladi. Binobarin, so‘z-gemeronim, birikma-gemeronim va gap-gemeronimlar anglashiladigan ma‘nosiga nisbatan bir-biridan farq qiladi. Ular o‘ziga xos nutq parchasi – kommunikativ birlik sanalib, tuzilishi jihatidan, albatta, tildagi mavjud sintaktik qoliplarga asoslangan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podolskaya N.V. Dictionary of Russian onomastic terminology. M.: Science, 1988.p. 46.
2. Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности. Волгоград : Перемена, 2004.– С.32.
3. <https://uza.uz/oz/documents/ommaviy-akhborot-vositalari-musta-illigini-taminlash-amda-da-28-06-2019>

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2006, 56-57-b.
5. Primov A., Sobirova Yu. About the hemeronyms of the Uzbek language. Tafakkur ziyosi, volume XLI, Tashkent: 2017, p 41-43
6. Fedosova O. I. Linguistic status of a hemeronym (based on Russian and British media names) //Volgograd. state ped. 2010. No. 5 (49). p. 76–80.
7. Oxunov N. Ideonyms and problems related to their study // Current issues of linguistics. III. -Tashkent, 2006.-P.74-82
8. Kravets T. I. Names of the newspaper: onomastic and stylistic aspects, Yekaterinburg, 2002
9. Kaminskaya T. L. The image of the addressee in the texts of mass communication: semantic-pragmatic study: author. dis. ... Dr.Phil. sciences / S.-Petersburg. State un-t St. Petersburg, 2009
10. Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до претседентности. Волгоград: Перемена, 2004.– С.32.
11. Smeyukha V.V. modern types of women’s press: correspondence to the informational interests of the gender addressee // language and philological studies. 2011. Issue. 1. T. 3. p. 3-10
12. Fedosova O. I. Linguistic status of a hemeronym (based on Russian and British media names) // Izv. Volgograd. State ped. univ. 2010. No. 5 (49). p. 76–80

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XALQ MAQOLLARINI LINGVOMADANIY ASPEKTDA O‘RGANISH MASALALARI

*Umida Tadjiyeva,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va xorijiy tilshunos olimlarning o‘zbek maqollarini nafaqat folklor nuqtayi nazardan, balki

xalqning dunyoqarashi, madaniyatini bilish uchun lingvomadaniy tomondan o'rganilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Armeniy Vamberri, Nikolay Ostraumov, Chig'atoy tili, sart maqollari.

XIX asrning II yarmidan boshlab Yevropa olimlarini Sharq xalqlari hayoti, turmush tarzi, madaniyati, shu jumladan folklori qiziqтира boshlaydi. Xususan, Venger olimi Arminiy(German) Vamberri 1863-yilda darvesh kiyimida Markaziy Osiyoga qilgan safari davomida Xiva xonligi, so'ngra Buxoro amirligida ham bo'ladi. 1864-yilda esa uning ushbu safari natijasida kitobi e'lon qilinadi. 1867 yilda uning "Chag'atoy tili darsligi" Leyptsigda nashr etilgan. Kitob uch qismdan iborat: tadqiqot, darslik va lug'at. Kitobning tadqiqot qismi, o'z navbatida, ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim turkiy tillar grammatikasi, ikkinchi bo'lim adabiy aloqalar masalasiga bag'ishlangan. Olim birinchi marta Xorazmga bevosita daxldor "Yusuf va Ahmad", "Xuriliqo va Hamro", "Oshiq oydin", "Xirman dali" kabi dostonlarni nashr ettirib, bu dostonlar va alohida matallar haqida juda qimmatli ma'lumotlar berdi. Kitobning ikkinchi, darslik qismida "Maqollar" (45–58-betlar), "Burk devoni" ("Ahmoq burk", 59–70-betlar), "Merojnoma" ("Yuksalish haqidagi kitob 71–84-betlar") "Said vaqqos" (84-94-betlar), "Zarqum" (144-150-betlar), "Yusuf va Ahmad" (94-114-betlar), "Sayful muluk" (187-193-betlar) kabi asarlardan parchalar keltirilgan. Bundan tashqari, ilova tarzida kitobda qator mashhur shoirlar, xususan, A.Navoiy, Mashrab, Ravnak, Shaydoiy, So'fi Olloyor ijodidan namunalar keltirilgan. G. Vamberrining o'zi turkiy xalq maqollari to'g'risida shunday degan: "Axloq haqidagi qarashlarning eng yaxshi xulosasi chinakam milliy ruhdan kelib chiqqan va musulmon xalqlarining qon-qoniga singib ketgan ifodali so'zlar bo'lishi mumkin. Ushbu so'zlar axloq dunyoqarashining, jamiyat urf-odatlarining chinakam in'ikosidir. Butun

dunyo bo‘ylab tarqalayotgan bu maqollar o‘tgan ajdodlarning ma’naviy dunyosini qamrab olgan holda, juda qadrlanadi” [1:5]. O‘zbek xalq maqollarini o‘rganish va to‘plashda Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan rus missioneri, sharqshunosi, etnografi Nikolay Ostroumovni o‘rni kattadir. Nikolay Ostroumov Qozon diniy akademiyasida o‘qigan (1866—70). 1877-yildan Toshkentda yashagan. Uning ishtirokida A.S.Pushkin ("Baliqchi va baliq haqidagi ertak"), L.N. Tolstoy ("Odamlarni nima tirik qiladi"), risolalar "Qadimgi Misrning qisqacha tarixi", "Kolumbning hayoti", "Fanlarning foydalari haqida", "Jismoniy geografiyadan hikoyalar", "Olamning barcha hududlarning geografik xaritasi” va hokazolar o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. 1907 yilda “Maxtum-quli” she’rlar to‘plami va Muqimiy devonidan parchalar nashr ettirdi. 1910 yilda uning "Sart tilining etimologiyasi" asari nashr etildi. 1885-1886 yillarda u "Sartlar tiliga Xushxabar" ni tarjima qilgan, keyinchalik u Leyptsigda (1891) Britaniya Bibliya Jamiyatida nashr etilgan. 1893-yil dekabr oyidan Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to‘garagi asoschilaridan biri bo‘lgan. Uning asosiy asarlari: "Payg‘ambarlar haqidagi Muhammad ta’limotining tanqidiy tahlili" (magistrlik dissertatsiyasi, Qozon, 1874), "Ramazon oyida Muhammad ro‘zasi" (1877), "K.P. fon Kaufman. Shaxsiy xotiralar va tarixiy konspekti, “Viloyat xalq ta’limi” (Toshkent, 1899), “Sartlar” (3-nashr, Toshkent, 1908), “Sartlar xalq ertaklari” (2-nashr, 1906), “Sartlar maqol va matallari” (1895), "Islom olami o‘tmishda va hozirda" (1912), "Islomshunoslik. Muqaddima" (Toshkent, 1914), "Arabiston - islom beshigi" (1910), "Qur'on; qiyofasi tasviri va matn tarixi” (1912), “Qur'on ta’limoti” (1915), “Shariat” (Toshkent, 1912), “Qur'on va taraqqiyot” (1901) [5].

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarini tadqiq etishda quyidagi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

1. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr ettirish.

2. O‘zbek xalq maqollarini rus tiliga tarjima etish.
3. O‘zbek va rus maqollarini qiyosan o‘rganish.
4. O‘zbek xalq maqollarining genezisi va o‘ziga xosligini tadqiq etish.

5 O‘zbek xalqining dunyoqarashi, psixologiyasi va xarakterini xalq maqollari orqali bilib olish.

N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarining shakllanish omillarini ham bir qadar tadqiq etishga harakat qiladi. Olim xalq maqollarining genezisi haqida fikr bildirib, shunday deydi: “Sartlarning maqol va matallari kelib chiqishi o‘ziga xos qadimiy tarixiga ega. Sart maqollarining aksariyati umumturkiy bo‘lib, boshqa turkiy xalqlarda ham qo‘llanadi. Shuning uchun aynan bir maqol qirg‘izlar, tatarlar va turklar nutqida ham uchraydi. Ba’zi maqollar sartlar bilan yonma-yon yashaydigan fors-tojik tillaridan o‘zlashgan”[3:29].

O‘zbek xalq maqollarini o‘rganishda filologiya fanlari doktori O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Hodi Zaripovning o‘rni beqiyosdir. Asosiy asarlari: "O‘zbek folklori "(ikki jildli), "O‘zbek xalq qahramonlik eposi", "Navoiy zamondoshlari", "Fozillar fazilati", "Muhammad Amin Muqimiy", "Alpomish"dostonining asosiy motivlari", "Arshaq - sharq qahramoni", "O‘zbek folklorshunosligi tarixidan", "O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari ", “O‘zbek xalq baxshilari ", "Folklor va termin to‘plovchilarga qo‘llanma" va boshqalar. Hodi Zarifning qirq yildan ortiqroq davrdagi qidirish, izlanishlari yaxshi samaralar berdi. O`zbekistonda yangi fan— folkloristika yaratildi. U filologiya sohasidagi faoliyati bilan O`zbekistonda fanning rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Xususan, o‘zining yetuk asarlari bilan o‘zbek folkloristikasiga asos soldi va uning yetakchi rahbarlaridan biri bo‘lib qoldi. Akademik V. M. Jirmunskiy haqqoniy ta’kidlaganidek: «Uning qiyofasida biz yetuk olimni — o‘zbek folklori haqidagi fanni yaratuvchini kuramiz. Uning tuplovchi va tadqiqotchi sifatidagi

mehnatlari bilan o‘zbek xalq ijodi to‘grisidagi fanning mustahkam asosi yaratildi. Men aytar edimki, uning qiyofasida o‘zbek xalqi milliy madaniyatini o‘rganish sohasida yangi yullar ochuvchi olimni ko‘ramiz» [4].

Hodi Zarifov “O‘zbek folklori” kitobining 2-bo‘limida xalq og‘zaki ijodi janrlarini alohida ajratib, namunalar kiritgan va o‘sha davrda, ya’ni XX asr boshlarida iste’molda bo‘lgan 263 ta maqolni 22 mavzu asosida bergan . Bu esa o‘zbek maqollarini ilmiy jihatdan o‘rganishda yana bir qadam bo‘ldi va yangicha yondashuv edi. Hodi Zarifovning maqolshunoslik borasidagi keyingi ishi 1947-yilda nashr etilgan “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” to‘plamidir. Bu to‘plam ham maqolshunoslik, uning nashri uchun muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, o‘zbek paremiologiyasining shakllanishi va uning takomillashuvida Hodi Zarifovning xizmatlari alohida. Atoqli olim XX asrning 30-yillaridayoq ko‘rsatib bergan yozma manbalardagi maqollarni yig‘ish, o‘rganish o‘zbek maqollari tarkibini yangi maqollar bilan boyitish, ularning mavzuiy tasnifini qayta ko‘rib chiqib, mukammallashtirish folklorshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardandir [3:29].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimov M. Qisqacha o‘zbekcha-tatarcha maqol-matallar lug‘ati. Казань. Татарское книжное издательство 2010.
2. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor / O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Rahmatov Y. Maqol va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi. DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya.
4. Hodi Zarif-folklorshunos. Internet manbasi
5. Internet manbasi. <https://tashkentpamyat.ru>

XORAZM SHEVALARINING O‘RGANILISH TARIXIGA DOIR

*Alimardanov Elyor Ilxom o‘g‘li,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi tarkibiga kiruvchi Xorazm shevalari o‘zbek dialektologiyasida boshqa shevalarga nisbatan ko‘p o‘rganilgan obyektlardan biri hisoblanadi. Maqolada Xorazm shevalarining mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilishi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, sheva, Xorazm shevalari, o‘g‘uz, qipchoq.

Xorazm shevalarini o‘rganish, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, ushbu davr Xorazm shevalari haqida ma’lumotlar xorijiy olimlar tomonidan berilgan. Xorazm shevalari haqidagi ilk ma’lumotni 1865 yilda nemis tilshunos olimi Y.Budens o‘zining “Xiva tatarchasi” [4; 269-331] nomli maqolasida beradi. Aytish joizki, “Xiva tatarchasi (turkchasi)” ishi hali xorazmshunos-dialektologlar tomonidan o‘rganishdan chetda qolayotgan tadqiqotlardan bo‘lib, uzoq vaqtlardan beri Xorazm shevalari haqida ma’lumot beruvchi dastlabki manba sifatida A.Vamberining 1867 yilda e‘lon qilingan “Chig‘atoy tili darsligi” keltiriladi. Ammo Y.Budens Vamberidan avval (2 yil oldin) mazkur maqolasini ilm ahliga taqdim etadi. Shunga ko‘ra, Xorazm shevalari haqida ma’lumot beruvchi dastlabki manba sifatida Y.Budensning mazkur maqolasini keltirish mumkin. Maqola Vengriya Fanlar Akademiyasining Tilshunoslik jurnalida venger tilida yozilgan bo‘lib, qariyb 62 sahifani tashkil etadi.

Y.Budens ushbu ishida “tatarcha” terminini qo‘llab, o‘zbek tilini nazarda tutadi. Aytish joizki, mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida Budens biror marta Xorazmda bo‘lmagan va xalq ichida yurib, matnlar yozib olmagan, shunga ko‘ra, ishni umumiy ma‘lumot beruvchi axborot sifatida talqin etish mumkin. Olim shevaga oid materiallarni bayon qilishda unga yaqin o‘rtog‘i A.Vamberi Yevropaga o‘zi bilan olib borgan shogirdi Mulla Is‘hoqning xizmati katta ekanligini alohida ta‘kidlaydi. Manba va materiallarni uning og‘zidan yozib olganligini qayd etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, Mulla Is‘hoq o‘ziga yarasha ilmi, Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan, arab va fors tillaridan yaxshigina xabardor ziyoli kishi bo‘lgan. Shu jihatdan, uning og‘zidan yozib olingan materiallar sheva elementlarini to‘liq o‘zida aks ettirmaydi. Buni maqolaga ilova qilingan matnlardan ham bilib olish mumkin bo‘ladi. Maqolaning nazariy qismi muallif tomonidan 2 ga bo‘linadi: 1. Fonetik bildirgilar (Hangtani észrevételek) 2. Grammatik shakllar (Nyelvtani alakok).

O‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda, shu jumladan, Xorazm shevalarining o‘rganilishida Y.D.Polivanovning xizmati katta [1; 114]. Y.D.Polivanov o‘zining “Shovot rayoni Qiyot-Qo‘ng‘irot qishlog‘ining shevasi” nomli maqolasida [12; 3-7] Xorazm shevalarini uchga: 1) Janubiy Xorazm shevalari, 2) Shimoliy Xorazm (“ž”lovchi) shevalari, 3) O‘rta Xorazm (“j”lovchi) shevalariga bo‘ladi va o‘zbek tilini 3 lahjaga ajratib, Janubiy Xorazm shevalarini (Xiva, Xonqa, Urganch, Hazorasp, Shovot, G‘azovot, Yangiariq, Sho‘raxon (To‘rtko‘l) o‘g‘uz lahjasining birinchi tipiga, Shimoliy Xorazm (“ž”lovchi) shevalarini (Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Qipchoq (Amudaryo), Mang‘it (Amudaryo)) qipchoq lahjasining birinchi guruhiga, O‘rta Xorazm (“j”lovchi) shevalarini (Gurlan va Mang‘it (Amudaryo)) ham qipchoq lahjasining ikkinchi guruhiga kiritadi.

G'ozim Olim Yunusov o'zining "O'zbek lahjalarini o'rganishda bir tajriba" nomli risolasida o'zbek shevalarini 3 guruhga ajratadi va Xorazm shevalarini alohida Xiva-Urganch shevalari nomi bilan ataydi. Professor G'.Olimov Xiva-Urganch shevalari haqida fikr yuritarkan, *"Men bu lahjani tarixiy turk-barlos yoki turk-xoqoniy atadig'im, tilning "d" lahjasiga bog'lab, turk-qarluq lahjasi deb ham atayman. Meningcha, bu lahja bir yoqdan, turk-barlos jonli shevalari, ikkinchi yoqdan o'g'uz tillari bilan aralashgan qarluq tilining yangi bir shaklidir"* [16; 21], deb izohlaydi.

Akademik K.K.Yudaxin tasnifi bo'yicha, Janubiy Xorazm shevalari o'g'uz-Xiva shevasi deb alohida guruhga ajratiladi [15; 498].

Rus tilshunos olimi A.K.Borovkov 1953-yilda e'lon qilgan "O'zbek shevalarining tasniflash masalalari" ishida o'zbek shevalarini tasniflar ekan, Janubiy Xorazm shevalarini Chimkent, Mankent, Turkiston shevalari bilan birga a-lashgan shevalarning j-lashgan guruhiga, Shimoliy Xorazm shevalarini esa, a-lashgan guruhining ž-lashgan guruhiga kiritadi [6; 72-73].

V.V.Reshetov Xorazm shevalari borasida o'z qaydlarida ma'lumot berarkan, ushbu hududda o'zbek tilining ikki shevasi mavjud ekanligi haqida aytadi.

F.Abdullayev o'zining "O'zbek tili Xorazm shevalarining fonetikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasida Xorazm shevalarini 2 guruhga ajratadi [3; 20]:

1. O'g'uz
2. Qipchoq

Olim Xorazm shevalarining qipchoq guruhini o'z ichida 4 tipga bo'ladi:

1. Дж-lashgan shevalar – Gurlan tumani, Amudaryo tumani hududidagi qishloq shevalari.

2. й-lashgan shevalar – Amudaryo, Gurlan, Beruniy, To‘rtko‘l tumanlaridagi qishloq shevalari.

3. ə-lashgan shevalar – Gurlan, Urganch, Hazorasp, Shovot tumanlari qishloq shevalari.

4. Aralash tipdagi qipchoq-o‘g‘uz shevalari – Urganch, Qo‘shko‘pir, Yangibozor, Xonqa tumanlari qishloq shevalari.

Xorazm shevalarining o‘g‘uz guruhi o‘z ichida 3 guruhga bo‘linadi:

1. Urganch-Xiva shevalari

2. Hazorasp-Yangiariq shevalari

3. Aralash tipdagi o‘g‘uz-qipchoq shevalari – Urganch, Shovot, Qo‘shko‘pir, Hazorasp tumanlari qishloq shevalari.

Fattoh Abdullayev Xorazm shevalaridagi so‘zlarni alohida lug‘at holida tartiblaydi. Monografiya 2 qismdan iborat bo‘lib, Xorazm shevalarining lug‘ati va Xorazm shevalarining tasnifi, grammatikasiga bag‘ishlangan.

Lug‘at qismi yana ikki qismga: shevaga xos so‘zlar lug‘ati va shevaning grammatik ocherkiga bo‘linadi. So‘zlik qismida shevaga oid ikki mingdan ortiq so‘zning lug‘ati berilib, ko‘pchilik so‘zlar tegishli misollar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, ushbu qismda muallifning ta‘biricha: *“lug‘atda adabiy tilda yo‘q..., fonetik jihatdan farq qiluvchi..., ma‘no jihatdan farqlanuvchi so‘zlarni”* qayd etadi [2; 9]. Muallif lug‘at qismida tematik jihatdan so‘zlarni tasnif asosida alifbo ko‘rinishda taqdim etadi.

Grammatik ocherk qismida fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, affikslar ro‘yxati o‘rin egallagan.

Shuningdek, Xorazm shevalari yuzasidan Y.Jumanazarov, A.Ishaev, X.Boboniyozov, E.O‘razov, O.Madrahimov, Y.Ibragimov, Sh.Norboevalarning ishlari diqqatga sazovordir.

Xorazm shevalari borasida qiyosiy xarakterdagi tadqiqotlar ham amalga oshirildi. Xususan, M.Saparovning Xorazm viloyati hududidagi o‘zbek va turkman tillarining o‘zaro aloqasiga bag‘ishlangan tadqiqoti fikrimiz isbotidir.

M.Saparov ushbu ishida Xorazm vohasida yashovchi o‘zbek va turkman millati vakillarining tilida uchraydigan, asosan, leksik umumiylik va ayrichaliklarini tadqiqot obyekti sifatida oladi.

Areal lingvistik jihatdan o‘zbek tili massivining dialektal zonalarga ajratilib, tadqiq qilinishi A.Jo‘rayev nomi bilan bog‘liq. Olim Xorazm shevalarini (Xorazm viloyati, Janubiy qoraqalpoq tumanlari (To‘rtko‘l, Ellikqal‘a, Beruniy, Amudaryo), Toshhovuz viloyatini (Turkmaniston) Xorazm dialektal zonasi tarkibiga kiritib, dialektal zonaning fokus nuqtasi etib, Urganch-Xiva shevalarini oladi [7; 68].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. T.: “Nodirabegim”. 2021.
2. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. Тошкент: Фан. 1961.
3. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров узбекского языка. Дисс... фил. н. Ташкент, 1961.
4. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. A Magiak Tudományos Akadémia Nyelvtudományi bizottsága. Negyedik kötet. – Pesten, 1865.
5. Бабаниязов Х. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров Южного Хорезма. КД, Ташкент, 1966.
6. Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров. Известия АН УзССР, 5. 1953.
7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.

8. Ибрагимов Ю.М. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. ДД, Тошкент, 2000.

9. Ишаев А. Манғит шевасининг фонетик хусусиятлари (ҚҚАССР Амударё районидан тўпланган материаллар асосида). НД, Тошкент, 1961.

10. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлари. НД, Тошкент, 1961.

11. Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка. ДД, Ташкент, 1978.

12. Поливанов Е.Д. Говор кишлака Кият-Конграт Шаватского района, сб. научных трудов / УзНИИКС, 1934, том 1, вып. II.

13. Сапаров М. Лексико-семантические особенности огузского наречия узбекского языка (в сравнении с туркменским языком). КД, Ташкент, 1983.

14. Ўрозов Э.Ю. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари (ҚҚАССР Тўрткўл, Беруний районларидаги ўзбек шевалари материаллари асосида). НД, Тошкент, 1966.

15. Юдахин К.К. Узбекский язык, Литературная энциклопедия, т. XI, 1939

16. Qazı Alım Junus. Ozbek lahçalarını tasnıfda bır taçrıba. – Taşkent, 1935.

**BADIY ASARDA QO‘LLANGAN
FRAZELOGIZMLARINING SOTSIOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

*Mashhura Yuldosheva,
Namangan xalqaro universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning uslubiy bo‘yoqdorligi, muayyan va o‘ziga xos til birligi ekanligi, obrazli

tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo'llanishi va uni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanalanishi, ular matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytirishi sotsiopragmatik aspektda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Paremiologiya, barqaror birikmalar, ibora, emotsional-ekspressivik, ko'chma ma'no, so'zlashuv uslubi, badiiy asar tili, ko'chma ma'no, leksik ma'no, sema

Badiiy asar nutqi kitobiy uslubga qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi, bunda turli imo-ishoralar, qo'l va tana a'zolari harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarning o'rmini to'ldiradi hamda bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. So'zlashuv uslubi uchun nutqning dialogik shaklda bo'lishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, mazkur uslubga xos bo'lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat'iylik, hazil) ning ko'proq bo'lishi, so'zlovchi his-tuyg'ularidan, munosabatidan kelib chiqadigan emotsional-ekspressivlikning mavjudligi, nutqiy muloqotga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko'proq bo'lishi, haqorat, erkalov, kichrayturuv, oddiy muomalaga oid so'zlarning ko'proq bo'lishidir. Uslubiy bo'yog'i bilan ajralib turadigan lug'aviy birliklar so'zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta'sirchanlik, erkinlik, vaziyatboplik sezilib turadi.

Tilning asosiy funksiyalaridan biri ekspressivlikni ifodalash so'zlashuv nutqida alohida ahamiyatga ega. Chunki so'zlashuv nutqi jonli nutq bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi munosabati muhim o'rin egallaydi. So'zlashuv nutqida tilning pragmatik xususiyatlari to'la

namoyon bo‘ladi. Pragmatika tilning nutqiy vaziyatlar bilan bog‘liq xususiyati bo‘lib, nutq subyekt, nutq obyekti tushunchalari muhim o‘rin egallaydi. Nutq obyektining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini so‘zlovchi munosabati bilan uyg‘unlikda ta’sirli ifodalashda, so‘zlashuv nutqida emotsional–ekspressivlikni oshirishda frazeologizmlarning alohida o‘rni bor. O‘zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Sh.Rahmatullayev asos solgan o‘zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertasiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo‘ldoshevning «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari» (1994), A.Mamatovning «O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» esa hozirgacha muhim qo‘llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Iboralar tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik [1.124] bo‘lib, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda ularning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Tilshunos olim Mamatov fikricha, iboralar tilning alohida birligi bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra erkin bog‘lanma yoki gapga teng, to‘liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg‘un so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. [2. 11] Iboralar hayotdagi voqeahodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-hoлатlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. [3. 53]Umuman olganda, frazeologik ma’noning hajmi leksik ma’noning

hajmiga nisbatan keng va va murakkabligi bilan ajralib turadi. Soʻz maʼnosida boʻlmagan, uchramagan komponentlar koʻp frazeologizmlar maʼnosida mavjud boʻladi. [4.17]

Shakl va mazmun birligidan iborat boʻlgan frazeologizmlar lisoniy birlik sifatida uch yoʻnalishida oʻrganiladi:

- a) struktur jihatdan (frazelogik birlikning qurilish xususiyatlari);
- b) semantik jihatdan (frazelogik birlikning lugʻaviy maʼnosi);
- v) funktsional jihatdan (frazelogik birlikning lison va nutq strukturasiida tutgan oʻrni).

Frazeologizmlar tashqi koʻrinishi jihatidan soʻz birikmasi va gap koʻrinishida boʻladi. Soʻz birikmasi koʻrinishidagi frazeologizmlar: koʻngli boʻsh, enka-tinkasini chiqarmoq, jigʻiga tegmoq, bel bogʻlamoq, kir izlamoq, terisiga sigʻmay ketmoq va h. Gap tipidagi frazeologizmlar «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsulidir: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, koʻngli ochiq, tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, poʻkonidan yel oʻtmagan, tepa sochi tikka boʻlmoq* va h.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmlarning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: dardisar, toshbagʻir, boshogʻriq kabi. Demak, leksemalar hosil boʻlish manbalaridan biri sifatida frazeologizmlarni qayd etish mumkin.

Frazeologizmlar, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. SHuning uchun ularning aksariyati grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi soʻz turkumlariga mansub.

Harakat ifodalovchi frazeologizmlar: *meʼdasiga tegmoq, yaxshi koʻrmoq, holdan toymoq, sabr kosasi toʻlmoq, tepa sochi tikka boʻlmoq, ogʻziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq.*

Belgi ifodalovchi frazeologizmlar: *koʻngli boʻsh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq.*

Harakatning holatini ifodalovchi frazeologizmlar: *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha.*

Frazeologizmlarning ayrimlari gap tipida bo'ladi: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap* kabi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning tabiati va hosil bo'lish usullari, frazeologik ma'no tabiati, frazeologik omonimiya, sinonimiya, antonimiya, variantdoshlik kabi hodisalar, frazeologik birliklarning morfologik strukturasi va paradigmaticasi, gap tarkibidagi vazifasi, badiiy va publitsistik uslub frazeologiyasi kabi masalalar tahlil qilib kelinmoqda. Frazeologizmlarning antropotsentrizm nuqtai nazaridan yondashish, bunday birliklarning pragmatik funksiyalari va nutqiy muloqot jarayonidagi ahamiyatini yoritish ham dolzarb masalalardan sanaladi.

Frazeologizmlarning asosiy qismi shaxsga xos xarakter–xususiyat, harakat, holatni ifodalashga xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy hayotning, nutqiy muloqotning markazida inson va ular o'rtasidagi munosabatlar turadi. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi frazeologizmlarning aksariyat qismini tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar bilan shakllangan iboralar tashkil etadi. Masalan, o'zbek so'zlashuv nutqida qo'l leksemasi bilan shakllangan quyidagi frazeologizmlar bor: *qo'li ochiq, qo'l kelmoq, qo'lidan kelmoq, qo'l urmoq, qo'li egri, qo'li uzun, qo'li qisqa, qo'l ostida, qo'li baland kelmoq, qo'l uchida, qo'l siltamoq, qo'lni yuvib qo'litiqqa urmoq, oyog'ini qo'lga olib, qo'lini sovuq suvga urmaydi, besh qo'lini og'ziga tiqmoq, qo'lni qo'lga bermoq* kabi. Og'iz leksemasi bilan shakllangan *og'iz solmoq, og'zi qulog'ida, og'zi katta, og'iz–burun o'pishmoq, qo'y og'zidan cho'p olmagan, ona suti og'zidan ketmagan, og'zi oshga yetganda, og'ziga talqon solmoq, og'zida qatiq ivitmoq, bir og'iz, og'zi bo'sh, og'zi mahkam, og'zi qattiq* kabi. Bosh leksemasi bilan shakllangan quyidagi frazeologizmlar bor: *boshi ko'kka yetmoq, bosh ko'tarmoq, bosh egmoq, boshiga ko'tarmoq,*

boshini yemoq, boshiga yetmoq, boshiga chiqmoq, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, boshida yong‘oq chaqmoq, ishi boshidan oshmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, bosh qashimoq, boshiga bitgan balo, biror ishning boshini ushlamoq, boshini qovushtirmoq, bosh qotirmoq, boshini qotirmoq, boshini bog‘lamoq, boshini silamoq, boshini tikmoq kabi.

Bundan tashqari, inson tana a‘zolarini ifodalovchi bet, ko‘z, quloq, burun, qovoq, yurak, oyoq leksemalari asosida shakllangan bir qator frazeologizmlar mavjud. Bunday frazeologizmlarning aksariyati shaxsga xos holat va harakatlarni ifodalagani uchun Sh. G‘anieva ularni “personallik” semasiga ega frazeologizmlar sifatida qayd etadi.

Inson tana a‘zolarini ifodalovchi leksemalar asosida shakllangan frazeologizmlarni leksik–semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ruhiiy holatni ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarning aksariyati dil, qalb, jon, og‘iz, bosh kabi leksemalar ishtirokida hosil bo‘lgan. Masalan: *og‘zining tanobi qochgan, og‘zi qulog‘ida, boshi ko‘kka yetmoq, dili siyoh, ko‘ngli g‘ash kabi.*

2. Xarakter–xususiyat ifodalovchi frazeologizmlar: *og‘zi bo‘sh, og‘zi mahkam, og‘zi qattiq (iqtisodiy munosabatlar jarayonida), qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan kabi.*

3. Ijtimoiy–iqtisodiy holat ifodalovchi frazeologizmlar: *qo‘li uzun, qo‘li qisqa, biror ishning boshini ushlamoq kabi.*

4. Shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi frazeologizmlar:

a) ijobiy munosabat ifodalovchi frazeologizmlar: *og‘iz–burun o‘pishmoq, boshiga ko‘tarmoq, bosh egmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, qo‘lni qo‘lga bermoq kabi.*

b) salbiy munosabat ifodalovchi frazeologizmlar: *boshiga yetmoq, boshiga chiqmoq, oyoq osti qilmoq, yuziga oyoq qo‘ymoq, yuz o‘girmoq, qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urmoq, beti qattiq kabi.*

Frazeologizmlarning pragmatik funktsiyalari quyidagilarda ko‘rinadi:

1. So‘zlovchining tinglovchiga ijobiy yoki salbiy munosabatini ta’sirli ifodalash.

– Og‘zingga talqon solganmisan, nimaga indamaysan?

– Og‘zimni ochsam baloga qolyapmanu! (So‘zlashuvdan)

Yoki:

Luqmonov beti qattiqroq odam edi. Uni hozirgina minbardan sharmanadalarcha tushirib yuborishdi. Profsoyuz lideri bilan tayyorlash ministri sha’niga juda xunuk, hatto og‘izga olib bo‘lmaydigan gapni minbardan turib baralla aytganida zalda to‘polon bo‘lib ketdi. [5.10] yoki Luqmonovga gap kor qilmasdi. U beti qotib ketgan odam edi. Oqsoqolning bu gaplari uning yuziga tushgan achchiq tarsaki edi. Bu gapning unga mutlaqo aloqasi yo‘qdek u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketgan edi. [5.12] Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” da bet bilan bog‘liq somatik frazemalar ichida yuqoridagi ikki iborani uchratmaymiz. Bu ikki ibora ma’nosi *beti chidamoq* frazemasining ifoda semasiga tengdir. *Beti chidamoq* iborasi nomus qilmaslik, uyalmaslik, andisha qilmaslik kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. [6.37]

2. So‘zlovchining nutq obyektiga munosabatini ta’sirchan ifodalash.

3. Nutqning uslubiy bo‘yoqdorligini oshirish.

So‘zlashuv nutqi frazeologizmlari o‘zining obrazlilik, ta’sirchanligi, hamma uchun tushunarlilik va jonlilik bilan xarakterlanadi. Ma’lumki, frazeologizmlar ma’noni kuchli, obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalovchi til birligidir, shu sababli ulardagi konnotatsiyani anglash uchun frazeologizm ma’nosini unga ma’nodosh so‘z semantikasi bilan qiyoslash zarur. Masalan, quvonchi ichiga sig‘maydi frazeologizmi xursand so‘zi bilan ma’nodosh sanaladi.

Frazeologizmdagi konnotatsiya faqat xursandchilikni ifoda etuvchi ma'nonigina bildirib qolmasdan, shu bilan birga, xursandchilining yuksak darajada sodir bo'lganligini ham anglatadi. Bu frazeologizmnining semantik tarkibida konnotatsiyaning emotsionallik va ekspressivlikdan tashqari baholov komponenti ham mavjudligini sezish mumkin. Chunki sodir bo'lgan voqea-hodisaga so'zlovchining yoki tinglovchining ijobiy munosabatini ham bildiradi. So'zlashuv nutqi uslubidagi frazeologizmlarni konnotativ va polisemantik ma'nolariga ko'ra tasniflash lozim bo'ladi.

So'zlashuv nutqi uslubiga xos baholash munosabatini ifodalovchi frazeologizmda soddalik, ta'sirchanlik, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, erkinlik sezilib turadi. Masalan; *almisoqdan qolgan, daqyonusdan qolgan* frazeologizmlari juda eski, qadimgi ma'nolarida so'zlashuv uslubiga xosdir. Chunki har bir frazeologizm biror predmet yoki hodisaning nomini atash bilan birga ijobiy va salbiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Frazeologizmlarni baholash munosabatiga asosan ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Ijobiy ma'no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan ijobiy muomalasi, so'zlovchining zavq-shavqi ifodalanadi. Masalan, *baxti kulgan, og'zi qulog'ida, baxti ochiq, terisiga sig'maydi* iboralari so'zlashuv nutqi uslubida **shodlik, baxtlilik**, xursandchilik tushunchalarini ifodalash xizmat qiladi.

2. Salbiy ma'no munosabatini ifodalovchi frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarda suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan kinoyasi, dag'alligi, kamsitishi, kesatishi, nafrati, so'kish, koyishi, qarg'ishi kabi salbiy munosabati o'z ifodasini topadi. *Tepsa tebranmas, ammamning buzog'i, ko'zi och* kabi belgi ifodalovchi frazemalar shular jumlasidandir.

Baholov munosabatining ifodalanishi frazeologizmlarning pragmatic xususiyatlari bilan bog'liq. Iboralar hayotdagi voqeahodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatholatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.

Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol! (O'. Hoshimov). Mazkur gapda qo'llangan frazeologizmning denotative ma'nosi *biror narsani noto'g'ri rejalashtirmoq bo'lib*, nutqda qo'llanganda *bekor aytmoq* semasiga qo'shimcha emotsional salbiy munosabat pragmatic semasi qo'shiladi.

Motor tovushi gurillab *quloqni qomatga keltirdi* (O'. Hoshimov) Quloqni qomatga keltirmoq iborasi ham so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, qattiq ovoz chiqarmoq semasiga qo'shimcha pragmatic semaga ega. Asabiga tegmoq, salbiy emotsional munosabat semalari pragmatic ma'noni tashkil etadi.

4. *Opasini chaqirib berguncha odamni qon qilib yubordi* (O'. Hoshimov) Qon qilib yubordi iborasi ham yaqqol pragmatic semaga ega. Chunki mazkur iborada ham salbiy munosabat, holi-joniga qo'ymay, qistalang qilib, sabrsizlik qilib asabiga tegish ma'nolari bor. Jonidan to'ydirmoq iborasida ham shunga yaqin pragmatic sema bor: *Uy masalasida anavi sprapkani olguncha ham jonimdan to'ydirdi.* (O'. Hoshimov)

M.Vafoyeva fikricha, frazeologik birliklar uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan til birligi bo'lib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo'llanadi va uni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi, ular matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytiradi, ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi. [7.21]

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari keng bo'lib, nutqning ta'sir kuchini yanada orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: Fan, 2002, 124-b.
2. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA. – T.: 1999, 11-b.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoyetik tahlili asoslari. T.: Fan, 2006..53 –b.
4. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning structural-semantik tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009, 17-b.
5. Said Ahmad. Jimjitlik T. 10,12-b.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: O'qituvchi, 1978, 37-b.
7. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009, 21-b.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MILLIY TILNI RIVOJLANTIRISHDAGI XIZMATLARI

*Rayimjonov Sayidolim Madaminjon o'g'li,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi stajyor-tadqiqotchisi*

Yurtimiz istiqlolga erishgach ko'plab mutafakkirlar qatori o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatgan peshqadam arbob, yangi usul maktabi targ'ibotchisi, o'zbek drama

san'atini boshlab bergan birinchi dramaturg, jurnalist, noshir va muharrir Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati ham keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yilning 24-yanvarida Oliy Majlisga Murojaatnomasi asnosida "2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanishi" belgilandi[1].

Millat va milliyat masalasiga shu qadar ahamiyat bergan jadidlarimiz millatning o'zlari yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg'otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo'la olmas edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemirguvchi illatlar", "Muhtaram yoshlarga murojaat", "A'molimiz yoinki murodimiz", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi" kabi maqolalarida davrning benihoya o'tkir muammolari va bu muammolarning muolajasi masalasiga alohida e'tibor berilgani sababi shunda. Mahmudxo'ja Behbudiy millat farzandlari aziz vaqtlarini Vatan va millatni taraqqiy ettirishga, yuksaltirishga sabab bo'luvchi zarur ishlar yo'lida sarflashga da'vat etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy millatparvar adib edi. U hech qachon o'z millatini boshqa bir millatga qarshi qo'ymagan, aksincha, dunyodagi barcha millatlarga mehr va hurmat bilan qaragan keng fikrli ma'rifatchi edi. U tilni, shu jumladan, Yevropa tillarini ilm-fan kaliti deb hisobladi. «Ikki emas, to'rt til lozim» deb chiqdi. Buyuk ma'rifatparvar har bir turkistonlik o'z ona tilidan tashqari fors, arab, rus, hatto fransuz tilini bilmog'i kerak, aks holda dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi degan fikrda edi.

Mutafakkirning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush sharoitlariga ko'ra to'rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlangan. O'zbeklar ona tillari o'zbekchani, mumtoz adabiyot tili bo'lgan forschanani, madrasa tili bo'lgan arabchani,

davlat tili – rus tilini bilsalar, ijtimoiy munosabatlarda, ilmiy va adabiy adabiyotlarni o‘rganishda, umuman, turmushda qiynalmaydilar. Xuddi shu kabi tojiklar ham ona tillari – tojikchani bilganlari holda, yangi adabiyot va matbuot ko‘p nashr etilayotgan turkiy (o‘zbek) tilni, madrasa tili – arabcha va davlat tili – ruschani bilishlari lozim.

“Ikki emas to‘rt til lozim” degan maqolasida u shunday yozadi: “Biz turkistonlilarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o‘zbakiyni bilmoqni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbakiy suylashur, forsiy bo‘lsa, madrasavu-udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar‘iy va diniy kitoblar arabi ta’lim berilsa, mudarrislarning tarkiru tarjimalari forschadur. Ayni paytda yana bir til – ruschani ham bilish kerak. Chunki bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg‘a xizmat ruscha ilmsiz bo‘lmaydur!”

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” (“Oyna” jurnali, 1915, 11-12- sonlar) maqolasi Turkistonda turk tilini sofligini saqlash va yanada tozalash mavzuyiga bag‘ishlangan maqolalarga, birinchi navbatta “Sadoyi Turkiston”dagi chiqishlarga munosabat tarzida e‘lon qilingan. Muallif maqolada shunday yozadi: “Tilimizdan forsiy va arabiyini quvayluq” – bu gap yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandir”. Negaki, “Toshkand”, “Xo‘qand” va boshqa minglar ila jug‘rofiyoviy ismlarni rajoli tarixiya va yoinki tarixiy voqealarni mahalliy va mashhur odamlarni va oy ham yili, kuni va ...larigacha tag‘yir berib, turkiy ismlar toqib, alarg‘a yangi lug‘atlar tayyorlab, yangidan tadvin etmoq lozim kelur”. Forscha va arabcha so‘zlar o‘rniga qadimgi turkiy so‘zlarni tiklash mushkullik tug‘diradi, “Hamda ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju' mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur... Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq” .

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, shu bilan birga jadid adabiyotini o‘rgangan olimlardan eng birinchisi filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimovdir. Afsuski, uning birlamchi manbalar asosida o‘rganib yozgan jadid adabiyoti to‘g‘risidagi tadqiqoti hozirga qadar topilmadi. Lekin uning vafotidan keyin “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligining 1990-yil 10- va 26-yanvar sonlarida bosilgan “Behbudiy va jadidchilik” degan maqolasi Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatini yangi tarixiy davr talablari asosida o‘rganish ishida muhim voqea bo‘ldi. Olim bu tadqiqotida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti, ijodiy va ma’rifiy faoliyatining eng muhim nuqtalarini fakt va dalillar asosida yoritib berdi. Fan nomzodlari Sherali Turdiyev, Ahmad Aliyev, Sirojiddin Ahmad, shuningdek, Normurod Avazov Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodini o‘rganish ishiga muhim hissa qo‘shdilar. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov va filologiya fanlari nomzodi Halim Saidov behbudiyshunoslikning fan tarmog‘i sifatida shakllanishida karvonboshilik qildilar. Shubhasiz, filologiya fanlari doktori Hamidulla Boltaboyev, filologiya fanlari nomzodlari Ibrohim G‘afurov va Boybo‘ta Do‘stqoraevning shu sohadagi xizmatlari ham hurmat va e‘tiborga sazovor. Bu olimlarning izlanishlari tufayli so‘nggi o‘n besh-yigirma yil ichida Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida shu qadar ko‘p va xo‘b risola va maqolalar maydonga keldiki, ularning har biriga munosabat bildirish mavzudan uzoqlanish bo‘lurdi .

Adib badiiy asarlar, ilmiy-tanqidiy maqolalar, turli fanga oid darsliklar kabi qimmatli merosga ega. Shuningdek, adib, publitsist va pedagog hisoblangan alloma matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida ham o‘z o‘rniga ega.

Mahmudxo‘ja Behbudiy tilga oid “Ikki emas to‘rt til lozim”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir” kabi ijtimoiy-tanqidiy ruhdagi maqolalar yozib o‘zining fikr-qarashlarini namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” 19-nashr, 25.01.2020 – B. 4
2. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 357 b.
3. Богин Г.И. Современная лингводидактика. – Калинин: Калинин. гос. ун-т, 1980. – 61 с.
4. Каримов Н. Маҳмудхўжа Бехбудий Танланган асарлар. Ж.И. -Toshkent: Академнашр, 2021. –512 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (I жилд). – Тошкент: „Ўзбекистон миллий энциклопедияси“ Давлат илмий нашриёти,. – 665 б.

ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Dilniso Yandashova,

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola konsept tushunchasi, “Vatan” konseptining mohiyati va Abdulla Oripov she‘riyatidagi o‘rni haqida qisqacha bayon qiladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, konsept, til va madaniyat, she‘riyat.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda “konsept” va “tushuncha” atamalari sinonim tarzda qo‘llaniladi. “Konsept” atamasi inglizcha “consept” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuncha” ma‘nosini bildiradi.[1] Konseptning mohiyati va uning inson aqliy dunyosidagi o‘rnini hisobga olgan holda Yu.S.Stepanov konseptlar aqliy olamda aniq shaklda emas,so‘zlar bilan yuzaga keladigan fikrlar,tajribalar to‘plami sifatida mavjudligini ta’kidlaydi. [2] Xususan, D.S.Lixachev konseptni

shaxsning tushunishi, mazmundorlikning oz miqdorda obyektiv ma'no va tushuncha tarzida namoyon bo'lishi deb izohlaydi.[3] Lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri madaniy konsept bo'lib, barcha ilmiy atamalar qatori, konsept nazariy-amaliy jihatdan o'rganilgan. Ba'zi manbalarda konsept ikki tomonli xususiyatga ega deb qaraladi. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Madaniy konsept o'z navbatida mental birlik hisoblanib, inson tajribasi va bilimlarini ichki his-tuyg'ular yordamida aks ettiradigan tushuncha hisoblanadi. Inson olamning lisoniy manzarasini milliy-mental dunyoqarashidan kelib chiqib anglaydi, shu bois, ijodkorlar badiiy nutqda poetik obrazni avvalo milliy-madaniy mansublikdan kelib chiqib ifodalashga urinadilar, natijada madaniy konseptlar yuzaga chiqadi.

Shu ma'noda, barcha millat ijodkorlari asarlarida Vatan konseptiga murojaat qilinadi, biroq deyarli milliy-madaniy yondashuvlarda mushtaraklik kuzatiladi. Negaki vatan deyilganda har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan, voyaga yetgan zaminni ko'z oldiga keltiradi. XX asrning birinchi yarmida S.A. Askoldov konsept muammosi va badiiy so'z muammosini nafaqat o'zaro aloqa nuqtalariga egaligi, balki o'zaro matniy mos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.[4]

S.A. Askoldov kognitiv tushunchalar "odatiylik" bilan tavsiflanadi, chunki bu juda ko'p shunga o'xshash narsalarning sxematik chizilgani, ya'ni shaxsiy narsalar bilan bog'liq narsalarga taalluqli bo'lgan "muayyan, aniq tafsilotlarga ega bo'lgan sxemalar", deb nomlaydi. Agar, "ilm konseptlari keng tarqalgan bo'lsa, unda san'at tushunchalari individualdir". Shu bois ham Vatan konseptini keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda Vatan konsepti bu har bir kishining tug'ilib o'sgan yurti, muayyan xalqqa tegishli hudud ma'nosini anglatrsa, keng ma'noda esa, yer sayyorasi barchamiz uchun umumiy

makon ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. "Vatan" so'zining lug'aviy ma'nosi nima ekanligini aniqlab olamiz. Vatan -(tug'ilib o'sgan joy,yurt), 1 Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyor; 2. kishining tug'ilib o'sgan va o'zi uning fuqarosi hisoblangan mamlakat, ona yurt; 3.Turarjoy,boshpana,maskan,uy;

4.o'simlik va shu kabilarning asli kelib chiqqan yerini bildiradi. "Vatan " konsepti Abdulla Oripov she'riyatida katta maydonni egallaydi.Vatanni kuylamoq har bir shoir uchun ulug' saodatdir. Shu jumladan, shoirning " Men nechun sevaman O'zbekistonni? " she'rida vatan,unga muhabbat tuyg'usi " Paxta o'smaydimi o'zga elda yo? ", "Yoki quyoshimi sevgimga sabab? ", " Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat" misralari orqali yuksak mahorat bilan ifodalangan. Shoirning "O'zbekiston bayrog'i" she'rida " qo'rg'on" , " saltanat" , "davlat" so'zlari orqali "vatan" konsepti ifodalangan:

Har qanday lashkarning ham

O'z tig'i,yalovi bor,

Sen qaysi saltanatdan

Sen qaysi davlatdan kam.

Qo'rg'onlar qatorida

Bir qo'rg'onsan ustuvor,

Vallamat,tug'dor yurtim,

Muhtasham Respublikam.

Abdulla Oripov ijodida yuqoridagi kabi she'rlar nihoyatda ko'p.Jumladan: "Men nechun sevaman O'zbekistonni? " she'ri bundan 41 yil oldin yozilgan.U davrdagi holat,vaziyat hozirgidan tamomila boshqacha biroq vatan hissi,uning sog'inchi o'sha o'sha.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,

Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,

Qorliklarni makon etgan bo'lsayding

Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Bu xitob o‘zini tanigan,o‘zini anglagan har qanday insonga ,shu yurt farzandiga yuksak mas‘uliyat yuklaydi. Mangu muzliklar, qorliklar so‘zlari orqali vatan konsepti yuksak mahorat bilan ifodalangan.Shoirning “ Yurtim shamoli“ she’rida shamol tushunchasi,shamol obrazi talqinida biz bilgan ma‘nodan tashqari,chuqur falsafiy umumlashma darajasiga ko‘tariladi.Unda vatan,adolat, kabi tushunchalar birgalikda ifodalangan va “ bo‘ston“, “bog“, so‘zlari orqali “vatan“ konseptiga ishora qilingan:

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun,gohida dovul.
Ular goh oshkora,goho ro‘yoda
Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul.
Lekin sen bo‘lmasin bog‘lar zavoli,
O,yurtim shamoli,yurtim shamoli.

Madaniy konseptlar bu bevosita insonning ichki his-tuyg‘ulari bilan hamohang tarzda ifodalanadi.Ijodkor she’r yoki asardagi biror -bir his tuyg‘usi yoki fikrini kitobxonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazmay balki konsept orqali ifodalash,asarni ta‘sirli hamda mazmunli chiqishiga yordam beradi.Shoir , “Xalq“ she’rida “Vatan“ konseptini nozik bir misollar yordamida ifodalangan:

Nomingni qaro degan-*paxtaginam*, senmisan,
Luppi deya yutganim-*laxtaginam*,senmisan,
Avaxtada bosh urgan *taxtaginam*,senmisan?!
Faqatgina xalq yashar,faqatgina qolur xalq.

Har qanday yozuvchi yoki shoirning ijodiy kamolotga erishuvi,eng avvalo, uning milliy g‘oya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni o‘z ijodida poetik jihatidan nechog‘lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatida bog‘liq.Abdulla Oripovning el qalbiga yo‘l topib,uning mehr-u muhabbatiga sazovor bo‘lishining ham sababi shunda. Har bir insonning vatani onasi singari aziz va muqaddas,shoir

uchun uning har bir qarich tuprog‘i mo‘tabardir, buni yuqoridagi misralarda ham ko‘rish mumkin. Vatanga bag‘ishlangan sermazmun misralari kitobxon nazdida, doim xalq ardog‘ida bo‘lishi tayin. Ba‘zi insonlar go‘yoki tarixga o‘xshaydi: qaytib ham kelmaydi, unutib ham bo‘lmaydi... Abdulla Oripov va uning she‘riyatini ham shunday deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Козлова Л.А. Концепт личного пространства и способы его языковой представленности // altgpu.ru/Journal/vestbspu/2001/gumanit/PDF/kozlova.pdf – с.5
2. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: АСТ, 2001
3. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия Академии Наук. Серия Литература и язык. – 1993. – Т. 52.–
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.- М:Academia. 1997.

ABDURAU F FITRAT ASARLARIDA MURAKKAB LEKSEMALARNING QO‘LLANILISHI

*Shahnoza Erkinjonovna Usmonova,
Namangan xalqaro universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Abdurauf Fitratning she‘rlarida badiiy san‘at hamda so‘zning leksik jihati tahlili keltirilgan. Shu bilan birga Abdurauf Fitrat she‘riyatida ko‘zga tashlanadigan nozik jihatlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: davlat va jamoat arbobi, ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati, adabiyot nafosati va sehrlarini idrok etish, nido sanʼati, tashxis sanʼati.

Abdurauf Fitrat XX asr oʻzbek adabiyoti, fan va madaniyatning yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyatchisi oʻtkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publisistik noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi edi.

Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, oʻzbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, sheʼr tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bogʻliq boʻlgan muhim ijtimoiy muammolarning oʻzbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qoʻshdi.

Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga boʻlish mumkin:

1-davri 1909-1916-yillarni oʻz ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid maʼrifatparvari sifatida ijod qilgan.

2-davri 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol gʻoyalari bilan toʻyingan asarlar yozadi.

Ijodining 3-davri 1923-1937-yillarga oid boʻlib, Shoʻro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida boʻlgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shugʻullanadi. Fitrat nasrda ham samarali ijod qilgan. XX asrning 10-yillarida sahna asari sifatida namoyish etilgan “Munozara” Fitratning nasrdagi ilk asaridir. “Munozara“ ham “Sayyohi hindi“ ham Fitrat publitsistikasining yorqin namunalaridandir. Fitrat keyinchalik ham ijtimoiy, huquqiy, maʼnaviy hamda estetik qarashlarini ifodalashda publitsistikadan samarali foydalandi. Faqat 1920-yillarning oʻrtalariga kelibgina u “sof“ nasriy asarlarni yarata boshladi (“Qiyomat”, “Meʼroj”, “Oq mozor”, “Zayd va Zaynab”, “Zahroning imoni” va boshqalar). “Munozara“ va “Sayyohi hindi” asarlarida koʻtarilgan milliy qoloqlik,

diniy fanatizm mavzusi XX asrning 20-yillari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega edi. [1;20]

“Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yorug‘siz turmalarda yotganda, yirtiq jandarmaning tepkisi bilan yiqilganda, yurtlarimiz yondirilganda, dindoshlarimiz osilg‘anda ongimiz yo‘qoldi. Miyamiz buzildi. Ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi. Biz hech narsani ko‘rolmadik. Shu chog‘da tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun shul qop-qora dunyoning uzoq bir yeridan oydin bir yulduz yarqirab turar edi. Bizning biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘rar edi”. [2;5]

Fitrat shunday so‘zlar bilan xalqqa da‘vo qilgan ekan:

“Men sen uchun tug‘ildim, sen uchun yasharman, sen uchun o‘laman, ey turning muqaddas o‘chog‘i”, – degan davat eshitildi.[3;6]

Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg‘unlik, g‘aflatdan uyg‘otish, ilm ma‘rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda, milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi.

Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodaviylik va xushohangdorlik vositalari badiiy san‘at deyiladi. Buni o‘rganadigan fan “ilmi sanoe” yoki “ilmi badie” deb nomlanadi. [4;128]

Sharqda she‘riyatning asosiy janrlardan bo‘lganligi uchun ham she‘riy san‘atlar o‘rniga badiiy san‘atlar jumlasini ko‘p qo‘llaniladi. Matnda ma‘noni teranlashtiradigan, ko‘p ma‘nolikka yuzaga chiqaradigan xilma-xil badiiy vositalar bo‘ladiki, ularni matn va ma‘no mazmuniga ko‘ra idrok etamiz.

San‘at – “sun” so‘zidan olingan bo‘lib, ya‘ni “yaratmoq” ma‘nosini beradi, bu esa badiiylik yaratish demakdir.

Badiiylik yaratishning yo‘llari ko‘p. Badiiy san‘atlar asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, tasirchanroq ifodalashni, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavalantirilishni ta‘minlaydi, shuning uchun u misralarda, bayt va bandlarda lavziy nazokat, musiqiylikni va

jozibadorlikni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Badiiy san'atlar ikkiga bo'linadi:

1. Ma'naviy san'atlar .
2. Lafziy san'atlar . [4;114]

Madomiki, biz keng ma'nodagi san'at ichidagi amaliy va badiiy san'at turlarni o'rganar ekanmiz, ularni farqlovchi va umumlashtiruvchi jihatlari bo'lishi lozim. Bu o'rinda umumlashtiruvchi jihati shuki, har ikkallasi ham go'zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yoritilgan. Farqli jihatiga kelsak, ulardan eng muhimi shuki, amaliy san'at mahsuli insonning moddiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi, badiiy san'at esa insonning ma'naviy ruhiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Badiiy san'atlar o'quvchi uchun adabiyot nafosati va sehrlarni idrok etish maktabi bo'lsa, havaskor shoir uchun mahorat saboqlaridir.

Go'zalim, bevafo gulistonim,
Bog'i umrimda toza rayhonim.
G'am-u qayg'ularim hujumida,
Sen eding mehribon nigohbonim.

Yuqoridagi she'riy baytning birinchi misrasida "go'zalim" so'zi orqali nido san'ati qo'llangan, keyingi qatorlarda esa jonlantirish va istiora san'atidan foydalangan, "g'am-qayg'u" so'zalari orali uyadoshlik yuzaga kelgan, "nigohbonim" so'zi ham istiora sa'natini ifodalagan.

Nido boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayojonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Tashxis san'ati badiiy asarda tabiatdagi narsa-hodisalarni jonlantirish, shuningdek, hayvonlar, qushlar jonsiz narsalarga inson xususiyatini ko'chirish san'ati hisoblanadi.

Istiora san'ati arabcha so'z bo'lib, "qarz olish" san'ati hisoblanadi. Bu san'at ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi.

Meni behuda tashlading ketding,

Nega o'ldirmading-da, tashlading ketding. [5;4]

Yuqoragi misrada tanosib san'ati qo'llanilgan. Tanosib deb baytdagi bir-biriga aloqador, o'zaro daxildor bo'lgan so'zlar ishtirokiga aytiladi.

Kel, gulim, kel, oyoqinga yiqilay,

Bir zamon qo'y, to'lib-toshib yig'lay

Quyidagi misralarda "Kel, gulim" so'zi bilan boshlanib nido san'atini yuzaga keltirgan.

Qo'y, biroz qo'yki, xoki poyinga, Surmadek yoshli ko'zima suray.

Bu misrada biz ko'rishimiz mumkinki, "surmadek" so'zi orqali tashbeh san'ati ; "yoshli ko'zima" jumlasida orqali sifatlash san'ati yuzaga kelgan.

Tashbeh adabiyotda keng tarqalagan san'at turlaridan uni qisqacha qilib o'xshatish desak bo'ladi. Tashbehda narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi:

Sening og'ushi iltifotingda,

Rahot etmishdi jismi bemorim.

Quyidagi misrada tamsil sa'nati, ya'ni bu san'atda birinchi misradagi ruhiyat keyingi misrada ham davom etadi, ya'ni dalilab ko'rsatadi.

Kel, oyoqingg'a qon bo'lib to'kilay,

Bir nafas dard-u hajrdan qutilay, Kel, go'zak dilbarim, kel, soching

Bir taray, bir o'pay-da, so'ngra yiqilay. [6;43]

Bu misralarda tanosib, istiora, nido san'atlaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'naviyat nashiriyoti .Toshkent, 1998, 20-b.
2. "Hurriyat" gazetasi. Toshkent, 1997, 5-b.
3. "Ulug' Turkiston" gazetasi. 1917, 2-son, 6-b.

4. Quronov. D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 2018, 114-b, 128-b.
5. “Chin sevgi” gazetasi. Toshkent, 1996, 4-b.
6. A.Fitrat saylanma. Toshkent, 2009, 43-b.

MUALLIF IXTIROSI – OKKAZIONAL BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada okkazional birliklar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, bu hodisa bilan bog‘liq nazariy qarashlar milliy uyg‘onish davri yozma manbalariga doir misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: okkazional birliklar, individual-uslubiy neologizm, “yangi so‘z”, okkazionalizm, “kichiklangan otlar”, dengiz kursisi, muqaddima.

Tilshunoslikda shunday birliklar borki, ular hamisha yangiligi, o‘ziga xosligi, g‘ayritabiiyligi bilan ajralib turadi, belgilangan qonuniyatlarga bo‘ysunmaydi. Bunday birliklar tilshunoslikda **okkazional birliklar** nomi bilan yuritiladi. “Okkazionalizm [lot. Occasionalis – *tasodifiy*] tlsh. Umumiste‘molga muvofiq, to‘g‘ri kelmaydigan, individual tarzdagi ma‘noga ega bo‘lgan til birligi” [1]. Hojiyev “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da okkazionalizm hodisasini **individual-uslubiy neologizm** atamasi bilan nomlaydi: ”Mahsuldor bo‘lmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, *individual-uslubiy neologizm*” [2].

Okkazional birliklar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Arastuning "Poetika" asarida uchratamiz. Bunday birliklarga nisbatan "**yangi so'z**" atamasini qo'llaydi." *Yangi so'z* – hech qachon hech kim qo'llamagan, faqat shoir tomonidan qo'llanilgan, o'ylab topilgan so'zlardir. Masalan, "shoxlar" o'rniga "mugizchalar", "kohin" o'rniga "duogo'y" kabilarning qo'llanishi shunga monanddir" [3].

Okkazional so'zlar og'zaki nutqda hamda badiiy, publitsistik, ilmiy, umuman, barcha sohada qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, bolalar nutqida okkazional so'zlarni ko'p uchratamiz. Chunki ular atrof-muhitni obrazlar orqali ko'radilar, ba'zan so'zlarning talaffuziga qiynaladilar. Natijada ularning nutqida okkazional birliklar yaratiladi. Masalan, **bebek-kompyuter, to'r beshga kirmoq** – *to'rt yarim yosh, gulduz* – *yulduz, qo'rqoqchi* – *qo'rqoq*. Ba'zan o'zga til vakillari tomonidan ma'lum tilni tushunmaslik natijasida o'zlari to'la anglamagan holatda okkazional birliklarni ixtirochilariga aylanadilar: **ichqoq** – *ichkilikka berilgan odam, vositalisiz to'ldiruvchi*– *vositasiz to'ldiruvchi, diqqatlik bilan* – *diqqat bilan*. Og'zaki nutqda yaratilgan bunday okkazional birliklar kam holatlarda xotirada saqlanib qoladi. Shu bilan birga, reklama matnlarida e'tiborni jalb qilish maqsadida okkazionallar yaratadilar: **lag'monjon, lag'moniston** kabi. Shu bilan birga, grafik – belgilar yordamida ham okkazional birliklar yaratiladi: **PRiMUS** – xususiy tibbiyot maskaniga nisbatan qo'llangan. "Grafik okkazonalizmlar birinchi navbatda pragmatik vazifaga ega – ayniqsa, reklama matnlarida diqqatni jalb qilish vazifasini bajaradi: **BREEZги** (televideniyadan, BREEZги – saqich turi, 2010-yil, iyun) [4].

Okkazonalizm muallif uchun o'z maqsadini ifodalashdagi muhim qurol hisoblanadi. Matnda hech bir hodisa besabab qo'llanmaydi. Okkazonal hodisaning asosi bo'lgan okkazonal ma'no bo'yicha tilshunoslikda ko'plab qarashlar mavjud. Shuning bilan birga, so'zdagi okkazonal ma'no hamda uzual ma'noga ham to'xtalib o'tish lozim.

O‘zbek tilshunosligida bu masala bo‘yicha turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, tilshunos olim M.Mirtojiyev okkazional ma‘no bilan uzual ma‘noning farqini shunday ko‘rsatadi: “Okkazional ma‘no bilan uzual ma‘noning farqi biri individ tomonidan, ikkinchisi hamma tomonidan qo‘llanayotganligida emas, ularning individualligi va umumiyligi boshqacha izohlanadi. Uzual ma‘no ma‘lum so‘zning semantik strukturasi allaqachon shakllangan leksik ma‘noning kontekstda reallashgan holatidir, kontekst esa so‘zning ma‘lum leksik ma‘nosini reallashtiradi. Ya‘ni har bir kontekst tuzuvchi so‘z tanlar ekan, so‘zni biror leksik ma‘nosiga asoslangan holda saralab oladi va nutqda uzual ma‘no sifatida reallashadi. Okkazional ma‘no esa kontekst tuzish jarayonida kontekstual holatga ko‘ra ma‘lum so‘zga sun‘iy ravishda taqiladi”[5]. Masalan, *Bugun men Navoiyning “Xamsa” dostonini tamomladim. Men ta‘lim olayotgan dargoh go‘yo hazrat Navoiyning “Xamsa”sidir.* Birinchi gapda qo‘llanayotgan “Xamsa” so‘zi aynan so‘zning uzual ma‘nosi. Ya‘ni uzual ma‘no so‘zning eng birinchi – asos ma‘nosidir, ilk bor matndan olib chiqilganda ham dastlabki mazmunidir. Ikkinchi gapdagi “Xamsa” so‘zining ma‘nosi okkazional ma‘nodir – bu ilm dargohi xuddi hazrat Navoiyning “Xamsa”sidek buyuk, ulug‘ligi ifodalangan. Ya‘ni okkazional ma‘no so‘zning matn bilan bog‘liq ma‘nosidir.

Cho‘lponning „Shaharni yoritish ishlari“ nomli maqolasida neft so‘zi o‘rniga yer yog‘i ishlatilgan. „Elektirik istansiyalarida ko‘b xarajat yer yog‘i (neft) g‘a ketadir”, ba‘zan xuddi shu so‘z o‘rniga qora moy so‘zini ham qo‘llagan. „47000 put qora moy yuklab keldi”.

Cho‘lpon chet tildagi so‘zning mohiyatini yaxshi anglagan holda uning ma‘nosini o‘zbek tili vositalari bilan ifodalaydi. Masalan, “postanovshik” so‘zini *“qo‘yuvchi”*, “postanovka” so‘zini esa *“joylanish”* so‘zi bilan ifodalaydi: *“Faqat asarning joylanishi*

(postanovkasi) uchun qimmatli Uyg‘urimiz ko‘p tirishqon” (Cho‘lpon, “Chin sevish”).

“Bir kuni tomoshabog‘ yonidagi Kaufman gubernaturning haykaliga yaqin bir chorpoyada hushum og‘ub o‘lturib edim. Toshkandimizning mashhur boylaridan birining bir aqllik oti bo‘lur ekan. Mazkur boyning bankag‘a to‘ldurg‘on “platuji” bo‘lur ekan. Boy afandi shul kuni to‘lovni esdan chiqorub to‘ydami, ziyofatdami, to‘lovdan ko‘ra **oshovni** g‘animat bilib kayf - safo qilub yurgan ekan... Insof qiling. Boy afandi to‘yda yursa, to‘lovga to‘ldirgan oqcha uyda tursa, jonivor aqllik ot Halokuning itidek yugurib yursa, borsa-yu vekselining muddati o‘tub prosent bo‘lib qolsa, bechora otning chekkan mehnati bekorg‘a ketarmikun deb munda bir xangum uchdi” (Behbudiy “Qasdi safar”).

Behbudiy tomonidan qo‘llangan *oshov* so‘zini tahlilga tortsak, asosi *osh* so‘zi bilan bog‘langan. *Osh* so‘zining bir necha ma‘nolari bor: [yovg‘on sho‘rva, xo‘rda, ovqat] 1. Pishirilgan issiq ovqat. Ugra osh. Sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuq-suyuq oshlar bilan jo‘natib, ikkinchi kelishiga o‘ylashib javob beradigan bo‘lishdilar. Qodiriy. O‘tkan kunlar. 2. Umuman har qanday ovqat. 3. ayn. palov. 4. etn. Ba‘zi munosabat bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar. Qiz oshi, xotin oshi. (O‘TIL, III, 168).

Behbudiy *oshov* so‘zini *ziyofat* ma‘nosida qo‘llagan.

Muallif barchaga o‘xshab sayohatga chiqmoqchi bo‘ladi. “Uzoqqa borishga kuchim yetmasa ham, o‘z shahrimni aylanib sayohat qilub turay” deb **ko‘nka arabag‘a** (tramvay) o‘tirib yo‘l oladi.

Yuqoridagi misolda **ko‘nka araba tramvay** ma‘nosida qo‘llangan. Keyinchalik bu so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan.

Ko‘nka esk. ayn. konk Ot bilan yurgan tramvay; umuman tramvay. Shaharda ilgari ko‘nkani ot surgan edi. Mana endi ko‘nka otsiz yuribdi. Oybek, Tanlangan asarlar (O‘TIL, II, 461).

Cho‘lpon asarlarida *reklama* so‘zi *muqaddima*, *tryuk* so‘zi *qo‘rqinch* so‘zlari orqali ifodalangan va o‘ziga xos okkazonal leksika yaratilgan. E‘londa: *bir – ikki soatlik muqaddima* (*to‘g‘risi, reqlam*) dan so‘ng “*Farg‘ona fojealari*”ning *sahnag‘a qo‘yilg‘usi xabari berilgan* (Cho‘lpon, “*Tarixning zararlik takarruri*”). *Muqaddima* so‘zi boshlanma, gapning asosiy qismi, kirish qism ma’nolariga ega.

Bu hikoyaning “avji joyi” g‘alati bir “qo‘rqinch” (tryuk) ni ko‘rsatadi (Cho‘lpon, “*Yana uylanaman*”).

Behbudiy asarlarida *kachalka* so‘zini **dengiz kursisi** deya nomlaydi: *Loiloj, xuftong‘a turolmay, uch-darajaning anborig‘a tushub, janobi hoji Baqo bergon amonat dengiz kursisi (kachalka) ustig‘a uzandim* (Behbudiy).

Behbudiy kerosin so‘zini naft, istansa so‘zini mavquf nomi bilan ataydi.

Bul shaharning yeridan naft (kerosin), boshqa til ila oltin chiqar (Behbudiy “*Qasdi safar*”).

Fitratning tilshunosligimizga qo‘shgan eng katta hissasi shuki, u ilk bor o‘zbek tili grammatikasini mukammal holatda ishlab chiqdi. Yangi ilmiy terminlarni yaratdi.

Qo‘zg‘atish fe‘li Shart fe‘llarga “chi – chi “ qo‘shilg‘anda “qo‘zg‘atish fe‘l” bo‘ladur: -chi Yozmasa-chi 2. Yozsam-chi 3. Yozsang-chi Yozmasang-chi 4. Yozsalar-chi Yozmasalar-chi 5. Yozsoq-chi Yozmasoq-chi 6. Yozsang(iz)-chi Yozmasang(iz)-chi (Fitrat, “*O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajrib Sarf*”).

Abdurauf Fitrat ilmiy asarlarida kichraytirish qo‘shimchalarini olgan otlarni “**kichiklangan otlar**” termini bilan ataydi: “*Kichiklangan otlar bir narsani, yo bir kishini siylamak, yo uning kichikligini ko‘rsatmak uchun uni berilgan otg‘a «kichiklangan ot» deyiladir. Kichiklangan otlar yasamoq uchun otg‘a -cho -cha; -gina -g‘ina; -gina -*

kina qo‘shiladir: og‘acho, kitobcha, kelicha, qizgina, qushqina kabi. - chiq, -choq, -chak, -loq bilan yasalmish kichraygan otlar bo‘lsa ham ozdir: chaqaloq, qizaloq, kelinchak, qopchiq kabi (Fitrat, “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajrib Sarf”).

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so‘zlarning hammasi ham o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelavergan emas. Dastlab ruscha so‘zni tarjima qilishga, kalkalashga intilish kuchli bo‘ldi va o‘zbek tilidan so‘zning muvofiq ekvivalenti axtarildi. Ana shunday holatda ham okkazional so‘zlar paydo bo‘ladi.

Okkazional so‘zlarning vazifasi, eng avvalo, nominativ ma‘noni hosil qilishidir. Shu bilan birga, ma‘noni kuchaytirish, e‘tiborni tortish, qiziqtirish, ma‘lum voqea-hodisa, predmetni yashirish kabi ma‘nolarni ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: 2005. – Б.103.
- 2.Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, – Тошкент: 1985. – Б.74.
- 3.Арасту. Поэтика, Ахлоқи кабир, Риторика. –Тошкент: 2015.— В.56.
- 4.Нефляшева И. А. Иноязычные графические элементы в структуре окказионального слова, // Вестник Ставропольского государственного университета, — М., 76/2011. – С. 96-97.
- 5.Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984, – Б. 69.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HAQORATNING EVFEMIZMLAR ORQALI IFODALANISHI

*Z. M. Tuxtasinova,
QDPI katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida evfemizmning haqorat sifatida qo‘llanilishi tahlil qilingan. Keltirilgan fikrlar badiiy asarlardan olingan misollar orqali dalillangan.

Kalit so‘zlar: evfemizm, disfemizm, haqorat, ibora, irqiy kamsitish.

“So‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar” [4,1] deya ta’riflanadigan evfemizmlar nutqdagi salbiy ifodalarning ta’sir kuchini kamaytirishga, kishiga nisbatan hurmatsizlik, uning sha’nini kamsitadigan deb hisoblanadigan ifoda vositalarini yumshoq tarzda yetkazish uchun ishlatiladi. Nutqimizdagi ayrim haqorat so‘zlarni vaziyat holat taqozosi tufayli yoki bu so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish noqulay bo‘lgani sababli ayta olmaymiz. Shunday holatlarda evfemizmlar fikrimizni “odobli va muloyim” tarzda tinglovchiga yetkazishimizga yordam beradi. O‘zbek tilida bunday so‘zlar xalqning milliy madaniyati, lisoniy ongi, o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda mavjud. Masalan, fohisha tushunchasini anglatuvchi yengil tabiatli ayol, kar so‘zining o‘rniga qulog‘i og‘ir, ahmoq so‘zining aqli oqsagan, hezalak so‘zining o‘rniga mijozi zaif, pushtsiz, dangasa so‘zining o‘rniga keti og‘ir kabi so‘z birikmalaridan foydalanish holatlari uchraydi. Inson a’zolarining nomlarini aytishda ham evfemizmlardan foydalaniladi. Masalan, o‘g‘il bola jinsiy a’zosi – bulbulcha, k.t – ket kabi. Lekin bunday so‘zlar tinglovchiga noziklashtirib yetkazilgani bilan

uning uyatlilik ma'nosi yo'qolmaydi. Kishiga nisbatan ishlatilganda uning ongida haqorat sifatida gavdalanaveradi. Ya'ni, haqoratni tashqi tomondan har qanday go'zal iboralar bilan "o'rab", "silliqlab" qo'yilgani bilan ichki tomondan haqoratligicha qolaveradi. Internet matnidagi maqoladan misol keltiramiz:

Agar u [fuqaro J. Ahmedov] mantiqan fikrlashni bilsa, Vazirlar Mahkamasi xat va murojaatlar bo'limi xodimlarining biror-bir tashkilotga bosim o'tkazib, u yoki bu masalani uzil-kesil hal qilib berish vakolatiga ega emasligini tushungan bo'lardi.[3,1]

Bu matn yuqorida zikr qilingan xodimning fuqaroni haqoratlagani uchun ishdan bo'shatilganiga raddiya tariqasida yozilgan maqoladan olingan. Ma'lumki, fikrlash jonzotlar ichida insonga xos bo'lgan xususiyat. Gapning mazmunidan maqola muallifi fuqaroni "mantiqiy fikrlashni bilmaydigan" deb sifatlamoqda. Bu ham kishiga nisbatan haqoratni anglatadi.

"Muayyan kontekstdagi predmet, narsa-hodisa nomini qo'pol, vul'gar ifoda bilan almashtirish, trop"[2,231] deya ta'riflangan disfemizmlar evfemizmning mutlaqo aksi bo'lgan nutqiy hodisadir. Disfemizmlar til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi. Disfemalar ta'riflanayotgan kishi haqida o'ta salbiy taassurot qoldiradi. Masalan, foxisha neytral so'z bo'lsa, jalab – disfemizmdir.

Otabek Kumushni qo'yib yerdagi atalarni oldi: — Ich muni, ich jalab! Zaynab orqag'a tislendi... Otabek kosani unga otdi... Zaynabning kiyimi atala bilan belandi. Shuning ustiga dahlizdan Yusufbek hoji ko'rindi. — Ket jalab, ket! Taloqsan, taloq![1,207]

Bu so'z o'zbek madaniyatida ayol kishiga qaratilgan kuchli haqoratni anglatadi. Nafaqat tarbiyali ayol, balki fohishalik bilan shug'ullanadigan ayolga nisbatan ishlatilganda ham haqoratni bildiradi. Sababi, bu so'z o'ta salbiy bo'yoqqa ega so'z hisoblanadi.

Ingliz tilida g'ayriijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxsni tasvirlashda ishlatiladigan ko'p ishlatiladigan evfemizmlardan biri "recreational drug user" giyohvand moddalarni tibbiy maqsadlarda emas, balki ulardan zavqlanish maqsadida qo'llaydigan odamlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Garchi evfemizm tarkibidagi "recreational" so'zi bu faoliyatni zararsiz deb ko'rsatsa-da, bu atama kishining noqonuniy va zararli xatti-harakatlar bilan shug'ullnayotganini inglatadi.

Jinoyatchi o'smirlarga nisbatan ishlatiladigan evfemizm "juvenile delinquent". Jumla tarkibidagi "delinquent" xatti-harakatning noqonuniy ekanligini anglatsa-da, "juvenile" so'zidan foydalanish bu xatti-harakatlar kattalar tomonidan sodir etilganidan ko'ra jiddiyroq ekanligini anglatadi.

Shuningdek, "misguided youth", "troubled individual", "streetwalker", "on the streets" evfemizmlari fohishalik bilan shug'ullanuvchi ayolga nisbatan qo'llaniladi.

on the 'streets (infml) 1 without a home: the problems of young people living on the streets o Unless I get a job soon, I'll be out on the streets. 2 (euph)

working as a prostitute.[5,1181]

Evfemizmlar g'ayriijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarga nisbatan qo'llanilganda ularning salbiy baholovchi xususiyati yo'qolmaydi. Chunki, evfemizmlar ko'pincha shaxsning salbiy tomonlari yoki xatti-harakatlarini ta'kidlash uchun tanlanishi kishilarga ma'lumdir. Evfemizmni tanlash so'zlovchining nutqi qaratilgan kishiga bo'lgan munosabati haqida ma'lumot berishi mumkin.

IAGO Oh, did he? I demand that you accompany me.

EMILIA Shame on you, streetwalker.

BIANCA I am not a whore. I am a decent a person as you.[6,219]

Shekspirning “Otello” asaridan olingan bu parchada Emiliya Biankaga qarata “streetwalker” soʻzini ishlatadi. Bu soʻzning semantik tarkibidagi “fohisha” semasi orqali haqorat yetkazilgan. Bundan taʼsirlangan Bianka fohisha emasligini ochiq taʼkidlaydi.

Ingliz tilidagi n-word soʻzi ham evfemizm hisoblanadi. Bu soʻz qora tanli kishilarga ishlatilib, irqiy kamsitishni anglatadigan nigger soʻzini anglatadi.

the N-word - a polite way of referring to the very offensive word nigger:

He said that he would never use the N-word.[7,1]

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va ingliz tillarida evfemizmlar aytilishi qoʻpol boʻlgan soʻzlarning oʻrniga ishlatiladigan lisoniy vositalardir. Evfemizmlar nutqiy vaziyatda tarkibidagi salbiy emotsional bahoni ifodalovchi semalari tufayli kishiga qarata ishlatilganida haqoratni ifodalab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар (209) // www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов (598) // <https://www.klex.ru/j3t>
3. Тумов учун бурун кесилмайди ёхуд Вазирлар Маҳкамаси “қўпол” ходимидан нега воз кечди?//<https://qalampir.uz/news/tumov-uchun-burun-kesilmaydi-yekhud-vazirlar-ma%D2%B3kamasi-k-upol-khodimidan-nega-voz-kechdi-7528>
4. Эвфемизм. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/evfemizm-uz/>
5. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English/Editor Jonathan Crowther. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 1475 p.

6. Shakespeare W. Othello /translated by Mary Ellen Snodgrass/ - New Jersey: Wiley Publishing, Inc., 2008. – 251

7. <https://dictionary.cambridge.org/ru/>

MATNDA IJOBIY BAHO BILDIRUVCHI BIRLIKLARNING ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHI

*Erkinova Marxobo G‘ayrat qizi,
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada assotsiativ maydon hosil qilish usullari, baho bildiruvchi birliklar haqida fikr yuritiladi. Matnda assotsiativ maydon yuzaga kelishida baho bildiruvchi birliklarning o‘rni hamda qo‘llanilgan leksik, grammatik, sintaktik birliklarning tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: assotsiatsiya, assotsiativ maydon, baho semasi, salbiy baho, ijobiy baho yoki neytral baho, matnning assotsiativ maydoni, stimol so‘z, verbal assotsiatsiya.

Assotsiativ maydon til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettiruvchi maydon bo‘lib, “struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir” [3.58].

Baho munosabatli birliklarning assotsiativ maydoni turli birliklar doirasida uchraydi. Har bir birlikdan baho semasi mavjud bo‘lib, ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Uning tarkibidan turtki, ya’ni stimol so‘z bog‘lanish nafaqat baho munosabatli birliklarda, balki ular bog‘lanib kelgan har xil semantik xususiyatdagi birliklarda ham namoyon bo‘ladi.

«Har birimiz davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni mustaqillikka boʻlgan eʼtibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Bu olijanob harakatni barchamiz oʻzimizdan, oʻz oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak» [1]— deya bezijga aytmagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Bugungi kunda oʻzbek tilida baho bildiruvchi leksik assotsiatsiyalarining hosil boʻlish mexanizmlari, baho bildiruvchi assotsiativ maydoni, verbal assotsiatsiyalarning til egalarining gender belgisi, ijtimoiylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiqi masalasi dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Baho soʻzlovchining (subyektning) bayon qilinayotgan obyektga munosabatini bildiruvchi vosita boʻlib, barcha birliklarga xos boʻlgan universal hodisadir. Shuning uchun quyida turli til birliklarida bahoning ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.

Baho maʼnosi obyekt va subyekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, yaʼni soʻzlovchi (subyekt) obyektдан taʼsirlansa yoki unga oʻz munosabatini bildirish istagi tugʻilsa, u oʻz fikrini bayon qiladi. Natijada baho maʼnosi yuzaga chiqadi.

Bahoning belgisi obyektga bogʻliq boʻlib, shu asosda ijobiy, betaraf, salbiy munosabatlardan biri oydinlashadi. Ijobiy yoki salbiy baho betaraf (neytral) maʼnoli leksemadan qancha uzoqlashib borsa, ijobiylik va salbiylik maʼnolari shu darajada kuchayib boradi. Bunday koʻrinishda obyektga ijobiy yoki salbiy baho berish jarayonida darajalanish [2] xususiyati yaqqol koʻzga tashlanadi.

Baho munosabatining lisoniy tomoni semantik strukturada oʻz ifodasini topadi. Mazmun planining yoʻnalishi boʻlmish baho turli til sathlarida namoyon boʻlishi mumkin.

Bu haqda R.Qo‘ng‘urov o‘z qarashlarini bayon etib, shunday deydi: “Ijobiy yoki salbiy munosabat turli yoki salbiy munosabat turli xil formalar (morfologik), ayrim so‘zlar (leksik), konstruksiyalar (sintaktik), forma va so‘zning qo‘shilishi (leksik-morfologik), intonatsiya (fonetik) yordamida ifodalanadi” [4.54].

Ular so‘zlardan kichik birliklar orqali, shuningdek, so‘zlar, so‘zlardan katta birliklar orqali va hattoki supersegment vositalar yordamida bayon qilinarkan, bu jarayon noverbal vositalar orqali ham amalga oshishi mumkin bo‘ladi. So‘zlovchi o‘zining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirishda qo‘shimcha jest va mimikalardan ham foydalanadi [4.54].

Ijobiy baho munosabatli birliklar assotsiativ maydonini quyidagi usullarda hosil qilish mumkin:

1. Matndan assotsiativ bog‘langan birliklarni ajratish va assotsiativ maydonga birlashtirish orqali.

2. Sinaluvchilarda ijobiy baho munosabatli birliklar bo‘yicha assotsiativ tajriba o‘tkazish va uning materiallari asosida assotsiativ maydonni shakllantirish.

Birinchi usulda assotsiativ maydonni hosil qilishda biror bir matn tanlanadi, undan o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar ajratib olinadi va umumiy assotsiativ maydonga birlashtiriladi. Bunday assotsiativ maydon “matnning assotsiativ maydoni” hisoblanadi va unda muallifning turtki so‘zning leksik-semantik mohiyatini qay darajada bilishi, so‘z anglatgan narsa-predmet, voqelikni qanday idrok etishi, tasavvuri, psixologik holati, u haqidagi bilimlari kabilar haqida ma’lumot berishga xizmat qiladi. Bunday assotsiativ maydon matn muallifi bilan bog‘liq bilimlar bilan chegaralanib qolmay, u yashagan davr tili, uning leksik tarkibi, grammatik qurilishi haqida ham ma’lumot olish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan, matn tahlili orqali hosil qilingan bu turdagi assotsiativ maydonlar ikki tomonlama amaliy

ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ijobiy baho munosabatli birliklarning assotsiativ maydonini aniqlash maqsadida biz ishimizda lirik janrdan foydalanamiz. Stimul so‘z sifatida ijobiy baho semali birlik “do‘st” so‘zini tanlab olamiz va ushbu so‘zning matndagi assotsiativ maydonini ko‘rib chiqamiz. Quyidagi she‘riy matnda o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklarni aniqlaymiz:

Do‘st bilan obod uying

Do‘st bilan obod uying
Gar bo‘lsa u vayrona ham
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham.

Intizor har uy dilovalar
Dilkusholar bazmiga,
Gar oyoq qo‘ysa qabohat
Yig‘lagay ostona ham.

Yaxshi do‘stlar davrasida
Ochilursan har zamon,
Ko‘rkni shoda ichra topgay
Marvarid durdona ham.

So‘rma mendan, kim diloru,
Do‘stmi yo jonona deb,
Do‘st mening ko‘nglimdadir,
Jonimdadir jonona ham.

Qochma rostgo‘y do‘stlarning
Koyish-u ozoridan,

Qaddi rost shamning tilidan
O‘rtanur parvona ham.

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz,
Ko‘p erur bisyor dushman
Bo‘lsa u bir dona ham.

Kim senga hamroz emasdur
Beg‘araz deb o‘ylama,
Gohi dushmanlik qilurlar
Qo‘l siqib do‘stona ham.

Do‘sti sodiq yo‘q ekan deb
O‘rtanib kuyma va lek,
Mehr uyin keng ochsang, Erkin,
Do‘st bo‘lur begona ham. [5.52-53]

Erkin Vohidovning “Do‘st bilan obod uying” she’rida do‘stga bo‘lgan ijobiy baho munosabati aks etgan va do‘st so‘zining mazmuniy maydonida ijobiy baho munosabatli birliklar faol qo‘llangan. Shaxs otini bildiruvchi do‘st so‘zi ijobiy baho munosabatli birlik bo‘lib, she’rda stimuly so‘z vazifasini bajaradi. Ya’ni matnda voqea-hodisa tasviri uchun xizmat qiluvchi barcha birliklar do‘st so‘zi bilan mantiqan bog‘liq holda tanlanadi. Matnda do‘st so‘zi bilan assotsiativ bog‘langan birliklar quyidagilar:

Do‘st: *do‘st(4), obod uying, vayrona, vayronadir, koshona, dilovor, dilkusholar bazmiga, qabohat, yaxshi do‘stlar davrasi, ochilursan, ko‘rk, marvarid durdona, kim diloro, do‘stmi, jonona, mening ko‘nglimdadir, jonimdadir, rostgo‘y do‘stlarning koyish-u ozoridan, “Qaddi rost shamning tilidan o‘rtanur parvona ham”, “Do‘st*

qidir, do‘st top jahonda”, yuz ming, oz, ko‘p , bisyor, dushman, bir dona, kim, hamroz emasdur, beg‘araz, dushmanlik qilurlar, qo‘l siqib, do‘stona, do‘sti sodiq, “Mehr uyin keng ochsang”, do‘st bo‘lur, begona.

She‘riy matnning assotsiativ tahili asosida ajratilgan keltirilgan birliklar uni shakllantiruvchi birliklar hisoblanadi. Ushbu birliklar *do‘st* stimul so‘zi atrofida birlashib, matnni mantiqiy-semantik jihatdan tashkil qilish uchun xizmat qiladi.

She‘rda ijobiy baho munosabatiga ega birlik *do‘st* so‘zining ijobiy semasi bo‘rtib turgan quyidagi birliklar aks etgan: *do‘st* (ushbu so‘zimiz matn tarkibida turli grammatik shakllarda 10 marta qo‘llangan: *do‘st* (4), *do‘stlar belgisiz qaratqich shakli*(1), *do‘stmi*(1), *do‘stlarning*(1), *do‘st belgisiz tushum kelishigi shaklida* (2), *do‘sti*(1)); *obod, koshona, dilovor, dilkusholar, yaxshi, ochilursan, ko‘rkni, shoda ichra, marvarid, durdona, diloro, jonona*(2), *rostgo‘y, rost, yuz ming, ko‘p, bisyor, hamroz, beg‘araz, do‘stona, do‘sti sodiq, mehr kabilar.*

Matnda *do‘st* so‘zi ishtirokida quyidagi jumlar hosil bo‘lgan: “*do‘st bilan obod uying*”, “*Do‘st qadam qo‘ymas esa*”, “*Yaxshi do‘stlar davrasida ochilursan har zamon*”, “*So‘rma mendan, kim diloro, Do‘stmi yo jonona deb*”, “*Do‘st mening ko‘nglimdadir*”, “*Qochma rostgo‘y do‘stlarning Koyish-u ozoridan*”, “*Do‘st qidir, do‘st top jahonda*”, “*Do‘st yuz ming bo‘lsa oz*”, “*Do‘sti sodiq yo‘q ekan*”, “*Do‘st bo‘lur begona ham*”.

Ushbu matnda ijobiy baho munosabatli birliklar bilan bir qatorda, salbiy baho munosabatli birliklar ham mavjuddir. Ular stimul so‘zning leksemalarning semantikasiga asoslangan assotsiatsiyani hosil qiladi. Salbiy baho munosabatli birliklar stimul so‘zning ijobiy baho semasini bo‘yoqdor ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: *vayrona, vayronadir, qabohat, yig‘lagay, koyish-u ozoridan, o‘rtanur, dushman, dushmanlik, o‘rtanib kuyma, begona.*

Qayd etilgan barcha ijobiy baho birliklarini quyidagi assotsiativ maydonga birlashtirish mumkin: *do‘st 4, jonona 2, obod uying, koshona, dilovor, dikusholar bazmiga, yaxshi do‘stlar davrasi, ochilursan, shoda, ko‘rk, marvarid, durdona, diloro, do‘stmi, rostgo‘y do‘stlarning, qaddi rost sham, “Do‘st qidir, do‘st top jahonda”, “Do‘st yuz ming bo‘lsa oz”1, bisyor, beg‘araz, do‘stona, do‘sti sodiq, mehr uyin keng ochsang, do‘st bo‘lur..*

Ushbu assotsiativ maydondan quyidagi strukturaga ega ijobiy baho munosabatli birliklar o‘rin olgan: so‘z shaklidagi birliklar – 17 ta, so‘z birikmasi –5 ta, gap shaklidagi birliklar – 6ta.

Har bir matnda o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar munosabati ko‘zga tashlanadi. Bunday birliklar matnni mazmunan shakllantirishga xizmat qiladi. Ular matnning yaxlitligini ta‘minlaydi, D.Lutfullayeva ta‘kidlaganidek, “verbal assotsiatsiyalarga xos xususiyatlardan yana biri shuki, ular turli nutqiy tuzilmalarning yaratilishiga yo‘l ochadi. Boshqacha aytganda, har qanday nutqiy tuzilma uchun o‘zaro assotsiativ bog‘langan til birliklari (leksik, sintaktik birliklar) tayanch birliklar vazifasini o‘taydi” [3.26].

Assotsiativ maydonning yadro qismidan *do‘st, yaxshi do‘stlar davrasi, dushman birliklari o‘rin olgan; markazga yaqin chegara qismida dikusholar bazmi, rostgo‘y do‘stlar koyish-u ozoridan, Do‘st qidir, do‘st top jahonda, Do‘st yuz ming bo‘lsa oz, do‘stona, do‘sti sodiq, do‘st bo‘lur birliklari o‘rin oladi; maydonning uzoq chegara qismida esa obod uying, vayrona, vayronadir koshona ham, dilovor, qabohat, yig‘lagay, ochilursan, Ko‘rkni shoda ichra topgay marvarid durdona ham, diloro, janona, Qaddi rost shamning tilidan o‘rtanur parvona ham, ko‘p, bisyor, bir dona, hamroz emas, beg‘araz, dushmanlik, Mehr uyin keng ochsang, begona birliklari joylashadi.*

Bundan ko‘rinib turibdiki, matnning assotsiativ tahlili asosida uning assotsiativ maydonini hosil qilish mumkin. Matn asosida hosil

qilingan assotsiativ maydon “matnning assotsiativ maydoni” deyiladi. Matnning assotsiativ maydoni so‘z orqali hosil qilingan assotsiativ maydon bilan muayyan umumiylik kasb etadi.

Badiiy matnda assotsiativ tarzda bir-biri bilan bog‘langan til birliklari assotsiativ maydonni hosil qiladi. Bunday birliklar ijodkor ifoda etmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oya atrofida birlashadi. badiiy matndagi assotsiativ maydon birliklarining ko‘pchilik qismini adibning voqelikka subyektiv munosabatini aks ettiruvchi birliklar tashkil qiladi [3.74].

Ta’kidlash joizki, assotsiativ tajriba qanday birliklar bo‘yicha o‘tkazilmasin, uning materiallari assotsiativ maydonni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Lekin matn tahlili orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon individual xarakter kasb etadi. Chunki matn yakka muallifga tegishli bo‘lib, uning tarkibida uchraydigan o‘ziga xos nutqiy birliklar (dialektal birliklar, okkozional qo‘llanishlar, o‘ziga xos o‘xshatishli birikmalar va boshqalar) assotsiativ maydonning individualligini ko‘rsatib turadi. Bunday assotsiativ maydon orqali muayyan shaxsga xos tafakkur tarzi, uning voqea-hodisalarga nisbatan munosabati, leksik birliklar zaxirasi, til bilimi kabilar haqida ma’lumot olish mumkin bo‘ladi.

Matn asosida hosil qilingan assotsiativ maydon individual xarakterga ega bo‘lib, u orqali muayyan shaxsga xos tafakkur tarzi, muallifning voqea-hodislarga nisbatan munosabati, til birliklar zaxirasi, til bilimi kabilar haqida ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. E.Vohidovning “Do‘st bilan obod uying” she’ri assotsiativ maydoni ijokorning lisoniy qobiliyati, nutq yaratish imkoniyati, leksik birliklar zaxirasi, do‘st ijobiy baho bildiruvchi birliklar bilan bog‘liq tushunchalari va shaxsiy tasavvurlari, bu tushunchaga nisbatan ijobiy baho munosabati kabilar haqida ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев. “Ўзбек тилига давлат тили берилганининг 30 йиллиги”га бағишланган тантанали нутқи.//Халқ сўзи. 2019 йил, 22 октябрь.
2. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fanlari d-ri ... dis. avtoref. - T., 1997.
3. Lutfullaeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017
4. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T.: Fan, 1980. 42-b
5. Vohidov E. Inson. – T.: O‘zbekiston, 2015.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA SHAXS NOMLARI

Marjona Jumayeva,

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

Inobat Qandimova,

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan insonga xos xususiyatlarning nomlari o‘rganiladi. Asardan olingan parchalar hamda tahlil namunalari bilan fikrlar dalillanadi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, xalq, madaniyat, turkiy xalq, manba, odam, an’ana.

Xalqimiz o‘zining boy tarixi va madaniyatiga ega. O‘tmishdan ma’lumki, o‘zbek xalqi turkiy xalqlar tarkibiga kirgan, jahon sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan millatlardan biridir. Shu jumladan, "Devonu lug‘otit turk" xalqimiz tarixining nodir va beqiyos

namunalaridan hisoblanadi. Turkiy xalqlarni birlashtirib turgan va bu xalqlarning o'tmishi, madaniyati, urf-odati, an'alaridan va eng asosiysi xalq tilidan xabardor qilib turadigan mushtarak manba ham hisoblanadi. XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan asar oradan necha asrlar o'tsa hamki, hali-hamon o'zining qudratini yo'qotgan emas. Bugun bu asarni xalqimiz nihoyatda e'zozlaydi, ulug'laydi. O'zbek xalqi uchun beqiyos va takrorlanmas bo'lishi bilan birga o'zligini tanitib turgan asar hamdir. Mahmud Koshg'ariyning nomi bugun har daqiqada yodga olinadi. Chunki Koshg'ariydek asar yozish uchun Koshg'ariydek jasoratli va ilmtalab bo'lish kerak, uning yuragidek shijoatli yurak bo'lishi kerak.

Yirik fransuz sharqshunos olimi P.K. Juzebu Koshg'ariy va uning asari haqida shunday yozadi: "Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganida ham unga shon-sharaflar bo'lardi. Uning asari bamisoli turkiy qomusdir[4]".

Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" da ko'plab fanlar uchun asos bo'lgan ma'lumotlarni keltirgan. Asarda lug'atni yoritish jarayonida muallif tilshunoslik, tarix, musiqa, biologiya, geografiya, ximiya, matematika, fizika fanlariga oid ma'lumotlarni berib o'tgan. Shuning uchun ham asar turkiy xalqlar uchun bitmas-tuganmas xazinadir.

Asarda insonga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlar: yaxshi, yomon xislatlari, aqliy salohiyatiga oid yoki ularning tashqi ko'rinishi va yoshiga nisbatan berilgan nomlar ham so'z va birikma holida keltirilgan. Masalan:

I. Insonlarning tashqi ko'rinishiga qarab berilgan so'z va birikmalar:

- 1) jymyz ëp -kalta baqay, semiz pakana kishi, yumaloq odam [3;17],
- 2) jipýk eşлар- yirik xotin [3;26],
- 3) бýктäl ëp -o'rta bo'yli odam [1; 445],

- 4) тоқ әр -turklardagi kabi boshida sochi(tuki) yo‘q odam [1;320],
- 5) ала - ola; oq; tanasida oqi bor odam [1; 117].

II. Insonning xususiyatlariga qarab berilgan nomlar:

- 1) јайғ киши - hardamxayol odam [3;30],
- 2) јуфға -asrandi bola [3;39],
- 3) јалғу -shafqatsiz,muruvvat siz olchoq odam(o‘g‘uzcha) [3;40],
- 4) јалачи әр - har narsada oadmlarga tuhmat qiluvchi,badgumon odam [3;42],
- 5)јолсуз - yo‘ldan adashgan odam [3;47];
- 6)јунчиғ әр - notavon,zaif, holi xarob odam. She'rda shunday kelgan:

Özläk аріғ кәврәді
 Јунчиғ јавуз тәврәді
 Ёрдам јәмә сәврәді
 Ајун бәги чәрмилӳр.

Zamon ozdi, zaiflar, bemazalar kuchlandi. Zamon ahli(odamlar) Afrosiyob vafot qilishi bilan fazilatdan mahrum bo‘ldilar.[3;48],

- 7) јүрәклиг әр - yurakli, botir odam [3;59],
- 8) cil киши - har qanday taomni yeyishdan tortiladigan chimirib odam[3;148],
- 9) јат киши - yot odam [3;174],
- 10) кјјік киши - so‘zida turmaydigan odam [3;181],
- 11) ögä - tajribali, aqilli, ko‘p yashagan odam.Суқа(oddiy xalq)lardan bo‘lib "текин" mansabida bir daraja quyi mansab. Buning asosi bor. Bu shundayki, Zulqarnayn China kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘lladi. Vazir shohga aytdi: "Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz, aslida katta yoshli, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi, - deganda "үкә" so‘zini tajribali, yoshi katta odam ma'nosida allaqanday. Shunda shoh to‘g‘ri deydi va katta yoshli kishilarni yo‘llaydi. Ular kechasi

Zulqarnaynni oldingi askarlariga hujum qildilar va yengdilar. Turk askarlaridan biri Zulqarnayn askaridan birini qilich bilan urib kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. O'lgan askarning belbog'ida oltin hamyon bor edi. Hamyonga qilich tegib kesildi. Undan qonga bo'yalgan oltinlar yerga sochildi. Ertasi kuni turk askarlari qonga bo'yalgan oltinlarni ko'rib bir-birlariga "bu nima?" -deyishar va "алтын қан" -qonli oltin deb aytishar edi. Bu yerda katta tog' bor edi bu yer shu ism bilan ataldi. Uning atrofida ko'rina sahroyi turklar yashar edi. [1;116],

12) ойнақ ишләп - o'ynoqi, sho'x xotin [1;142],

13) эвәк әр - shoshqaloq odam[1;143],

14) осал киши - ish bilmagan kishi, g'aflatda qolgan odam [1;144],

15) узузлуғ киши - qo'tir yarali kishi [1;163],

16) уқушлуғ әр - zakki kishi, tushunadigan odam, uquvli kishi[1;163];

17) усајуқ әр - g'ofil odam [1;175],

18) ујадсілік әр - juda uyatchan odam [1;175],

19) кўр әр- og'ir, dovyurak, mag'rur yigit. Maqolda shunday kelgan:

Кім кўр болса, кўвәз болур- dovyurak odam mag'rur bo'ladi.

She'rda shunday kelgan:

Эртiш суwij әмәкi,

Сiтғаб тутар бiләгi,

Кўрсат анiн јурәгi,

Кәлгәлимәт iрkiшўр[1;314],

20) қiз киши - baxil odam(arg'ucha). Maqolda shunday kelgan:

қiз киши sawi jorifli бopmac - baxil odamning ovozasi chiqmaydi, shuhratlanmaydi. Bu maqol odamlarning yaxshi nom chiqarish, saxiy bo'lishi uchun undab aytilgan[1, 315],

21) тоқ киши - to'q odam

22) шал-шул эликлик - qo'li ishga qovushmagan uquvsiz odam [1;324],

23) оғлан биликсиз- bolada aql yo'q, aqlsiz bola [1;367],

24) амушдї ёр - tingan,tinchigan,qutilgan odam.(Odamlarning har xil qochirma,achitma gaplaridan indamay qutilgan odam) [1;198],

25) бағирсәк киши - xushmuomala kishi, yoqimli odam [1;460],

26) басінчак ёр - zaiflashgan odam [1;460],

27) соламуқ - charaqaу kishi [1;449],

28) өгәј қіз - o'gay qiz [1;144],

29) өгәј ата - o'gay ota [1;144],

30) өгәј оғул- o'gay o'g'il [1;144],

31) сўрўнді ёр - har yerdan quvilgan, quvib qilingan odam [1;419],

32) кіртўч киши - hasadli va yomon xulqli kishi [1;424],

33) эссіз киши - yuzsiz, uyatsiz, yaxshilikni bilmaydigan odam [1;160],

34) іккіз оғлан - egizak bola [1;160].

III. Biror narsaga egalik huquqiga ko'ra berilgan nomlar:

1) таварліғ ёр- molli odam [1;456],

2) қатірліғ ёр- eshakli odam [1;455],

3) барақліғ киши - baroq kuchukli odam [1;457],

4) чаруқлуғ ёр- chiroqli odam [1;457],

5) қасуқлуғ ёр - qimiz solinadigan meshi bor odam [1;457],

6) қусіқліғ ёр - chig'uzasi bor odam [1;457],

7) ташақліғ ёр - tashoqli er[1;457],

8) буқуқлуғ ёр - buqog'i bor odam [1;457],

9) тақуқліғ ёр - tovuqli odam(o'g'uzcha) [1;457],

10) будунлуғ буқунлуғ - urug' - ayoli kishi [1;458],

11) сағінліғ ёр - sog'indi bor odam [1; 459],

12) саманліғ ёр- somoni bor odam [1;459],

13) қағунлиғ әр - qovunli kishi, qovuni bor odam [1;459].

IV. Yoshiga qarab berilgan nomlar:

1) қірғил әр - o'рта yoshli odam [1;446],

2) орты әр -o'рта yoshli odam [1;145],

3) ағичға - qari chol[1;161].

Asarda ko'rib o'tganimizdek, insonning xususiyatlarini nomlovchi so'zlar ko'p. Ularning ba'zilari киши(kishi) ,әр(yor) kabi so'zlar bilan birikma hosil qilgan holda berilgan. Ba'zilarining ma'nosi esa bitta so'zning o'zidan anglashilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asar o'z ichiga nihoyatda ko'p ma'lumotlarni qamrab olgan. Birgina insonning sifatlari berilgan nomlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari asarda chorvachilikka, dehqonchilikka oid , kasallik, o'simlik, hayvon, ranglar, qushlar va h.k. larning nomlari lug'at tariqasida berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. Ijild. T. 1960.
2. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. II jild. T. 1961.
3. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. III jild. T. 1963
4. Xushanov A ,Bo'ronova Sh. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida maqollarning uslubiy-semantik qo'llanilishi. SCIENCE AND EDUCATION JOURNAL, 2020.
5. Resimli Atasözleri ve deyimler Sözlüğü. Mehmet Hengirmen. Dumat Ofset Matbaacılık.Baskı Ocak 2017.320.
6. Порхомовский М.В. Турецкие пословицы в языке и речи. Языки славянской культуры. Москва. 2014.174 с.

“MAHBUB UL-QULUB” ASARI SO‘ZLARINING POLISEMANTIK TAVSIFI

*Muminova Umida Qarshiyevna,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. So‘z ma‘nolarini o‘rganishning xilma-xil yo‘llari bor. Shulardan biri so‘zning semantik strukturasi ma‘noli qismlarga ajratib tahlil qilishdir. Ko‘p ma‘noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma‘nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma‘nodangina iborat bo‘lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bular barchasi birgalikda semantik strukturani tashkil qiladi.[1;56]

Kalit so‘zlar: yelpig‘ichsimon, zanjirsimon, polisemiya, leksik ma‘nolari, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar.

Polisemiya so‘zning leksik ma‘nolari o‘zaro yelpig‘ichsimon va zanjirsimon ko‘rinishda bog‘lanadi. Bu ko‘rinishlarning ikkisi ham bir polisemantik so‘zda uchraydi, murakkab ko‘rinishdagi bog‘lanishni yuzaga keltiradi. Ularning o‘zaro qaysi ko‘rinishda bog‘lanishi boshqa leksik ma‘nolarning bosh ma‘noga vositali yoki bevosita bog‘lanishi bilan aloqadordir.[2;156] Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar miqdori bilan emas, so‘zlarning leksik ma‘nolari miqdori bilan ham o‘lchanadi. So‘zlarning ko‘pma‘noliligi til boyligida, shubhasiz, o‘z o‘rniga egadir.[3;158] Borliqdagi ko‘pgina narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar alohida nomlanmaydi, ularga nom ko‘chirilishi ma‘lum, shuning uchun tilning asosiy qismini polisemem leksemalar tashkil qiladi .[4;17] Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma‘nolardan tarkib topishi,

ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, ma’nolar ayni so‘zning o‘ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi [5;47] Ko‘p ma’nolilik turkiy tillar tabiatiga xos hodisa bo‘lib, aksariyat turkiy so‘zlar ko‘chma ma’nolarda kelish xususiyati bilan farqlanib turadi.[6;110]

Ko‘pma’nolilik haqida fikr yuritilganda, birinchi galda, shubhasiz, ism va fe‘l kategoriyasiga oid, chunonchi, narsa-buyumni anglatuvchi, ish-harakatni ifodalovchi leksemalar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.[7;10] Alisher Navoiy ham so‘zlarning ma’no boyligiga alohida e’tibor qaratgan. Buni “Mahbub ul-qulub” asaridagi leksemalar semantikasini o‘rganish jarayonida ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, pandnoma so‘z boyligida **ček-** fe‘li quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: 1) “tortmoq, boshidan kechirmoq”: *Ölgünçä balā çekib erürlär mavjud* (MQ,16); 2) “chalmoq”: *Har muğanniyki, dardmandānaraq nağma çekär* (MQ,24); 3) “osmoq”: *Biri debki: Dārğa çekärdä yaxši türdi* (MQ,28); 4) “o‘tkazmoq, tizmoq”: *Amal riştasin tama’ ignäsigä çekib, ul bezabānniñ körär közni ham tikib* (MQ,31); 5) “qilmoq”: *Muni anlağanlar qutulubturlar roziy üçün mehnat çekärdin...*(MQ,40); 6) “bardosh bermoq, chidamoq”: *Vale çekkän kişiniñ bahrası ganj* (MQ,43); 7) “ko‘tarmoq”: *Kesäk atqanğa çekär yumruq* (MQ,79); 8) “toymoq, adashmoq”: *Balki, çekär teñri yolidin ayaq* (MQ,64); 9) “qiynalmoq, ovora bo‘lmoq”: *...māl yiğarğa emgäk çektiyu sarf qilurİN bilmädi* (MQ,66); 10) “bosh tortmoq”: *Erānlär xizmatidin çekmāgil baş* (MQ,64). “Alisher Navoimy asarlari tilining izohli lug‘ati”da mazkur fe‘lning 26 ta ma’nosi keltirilgan. Biroq “Mahbub ul-qulub”da aks etgan 10 ta ma’nonining to‘rttasi, ya’ni “chalmoq”, “qilmoq”, “toymoq, adashmoq”, “qiynalmoq, ovora bo‘lmoq” semalari lug‘atda qayd etilmaydi.

“Qadimgi turkiy lug‘at”da **ber-** fe‘lining “bermoq”, “turmushga uzat- moq”, “to‘lamoq” kabi ma’nolari uchraydi (DTS,95). Tadqiqot obykti qilib olingan manbada leksemaning bir necha ma’nolari

ishlatilgan: “bermoq”: *Gar it uzumiğa kişi may birlä bersä suv* (MQ,81); “baxsh etmoq, hadya qilmoq”: *Masihākim, nafas bilä ölükkä jān berdi, goyā bu jihatdin erdi* (MQ,69); “to‘lamoq”: *Šāh mālīn berürdin ibā qilmasa va zabun šerikkä jafā qilmasa* (MQ,29); “aldamoq”: *Aña bāzi berurda yoq taqsir* (MQ,28); “xursadlik keltirmoq”: *Anāniyat ğilzatiğa qatīq riyāzatlar bilä safā bermiš bolğay* (MQ,35).

Asarda **yet-** fe’li polisemantik xususiyat kasb etganini tubandagi misollar yordamida bilib olish mumkin: “yetmoq”: *Zamāni tulī iki lafz oqurğaçā yetmäs* (MQ,71); “bormoq, uchramoq, yo‘liqmoq”: *Ey farzand, sen ul Bāyazidğa yet!* (MQ,88); “erishmoq”: *...agar pādšāhliqqa yetsä va aña qulluq qilsa xobdur* (MQ,74); “ziyon, alam yetkazmoq”: *Yaxši-yaman sökünj yetkürib, aqrabdek nečäki yetsä niš urub* (MQ,30); “kifoya qilmoq”: *Köñülgä andin ačuğluq fāydasi yetär va köz andin yaruğluq natijası kasb etär* (MQ,41); “duchor bo‘lmoq”: *Aña yetärdä ul bedādu sitam tiši astida ermiş ul diram* (MQ,44); “kelmoq, yetib kelmoq”: *Ul nazzāradin bexabar el yetib otin öčirgünšä andin ne xabar qaldı va ne asar* (MQ,48); “bo‘lmoq”: *Va haqdin najāt vaqti yetmäkdür* (MQ,36).

Qadimgi turkiy tilda 1) ko‘rmoq, boqmoq, qaramoq; 2) tobe bo‘lmoq, bo‘ysunmoq; 3) boshdan kechirmoq, tortib ko‘rmoq, chekmoq, tortmoq; 4) eshitmoq, qabul qilmoq; 5) taxmin qilmoq (DTS,317) semalarini anglatishda **kör-** fe’lidan foydalanilgan. So‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol ishlatilib, semantik doirasi kengayib, 16 ma’noni bildiradi (O‘TIL,II,469). O‘rganilayotgan manbada *kör-* leksemasi quyidagi ma’nolarni ifodalagan:

1) ko‘rmoq: *...šukr qilkim, közüñ yaruq duniyāni körärgä muhtāj emästür* (MQ,96);

2) uchratmoq: *Kördümkim, na’layn yanida bir širāk tüšüb yatur* (MQ,40);

3) bilmoq: *Uyğaqliğda ne aliñga kelsä, qazādin kör* (MQ,93);

4) hisoblamoq, qabul qilmoq: *Xiradmand pandini körgän acığ* (MQ,80);

5) boshdan kechirmoq, tortmoq: *Gāhe kördim zamāndin kāmranlığ* (MQ,7);

6) e'tibor qilmoq: *Kičiklärğäkim, andin munča bolğay, uluğlarğa körkim, nečä munča bolğay* (MQ,44);

7) qaramoq, nazar solmoq: *Agar ölsä işqi haqiqiyda kör ne bolğay hāl* (MQ,48);

8)kelmoq: *Agar söz saña körünsä mahāl* (MQ,84).

Baş so'zi qadimgi turkiy til yodnomalari va qoraxoniylar davri obidalarida "tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi qismi", "javobgarlik, mas'uliyat" (ko'chma ma'noda), "bosh tomon", "idish- ning bo'g'zi", "boshq", "uch, tepa qism", "daryoning boshi, yuqorisi", "rahbar", "boshi, boshlanishi" (DTS,86-87) kabi semalarda qo'llanilgan. Alisher Navoiy asarda *baş* somatizmi quyidagi ma'nolarda istifoda etgan: 1) "tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi": *Dastār yirtuğluğidın ğam yemä, başi yaruğlarğa baqib teñri hamdidin özgä demä* (MQ,96); 2) "boshlanishi, avval": *Xārliğlar başi tama' bilgil* (MQ,76); 3) "tepa, ust": *...mehr va šafqat bilä başiğa keldi, yumšaq söz bilä yaralarığa marham yetkürdi* (MQ,44); 4) "miya, xayol, ong": *Agar kişi may xavāsın başidın čiqarur, ğijjak maddi nālası bilä aña yalbarur* (MQ,24); 5) "to'r, umuman, joyning yuqori, ya'ni quyiga qarama-qarshi tomoni": *...mubāhat üçün madrasa ayvāni başi aña orun bolmasa* (MQ,18). Shu o'rinda aytish joizki, ushbu fe'l pandnomada birikma va iboralar tarkibida kelib, qator sememalarni ifodalagan: "boshidan ajralmoq": *Özüñni bu zumradin yıraq tutma, başiñ barsa bu muddaāni unutma* (MQ,64); "butunlay, to'liq": *...meni baştın ayağ balāğa qalğanlarğa qatqaysen* (MQ,96); "boshidan oxirigacha": *...gulxan otı başin ayağiğa tutaštı* (MQ,48); "xursand qilmoq": *...sabuksārliq bilä başlarin kökkä yetkürürlär* (MQ,62); "ta'zim qilmoq": *Ul sālärğa adab*

va tavāzu' bilā baš indürdi (MQ,43). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da zikr etilgan fe‘lning 20 dan ortiq ma‘nosi yoritilgan (O‘TIL,II,395-398). Ko‘rinadiki, keyingi davrlarga kelib, leksemaning ma‘nosi kengaygan. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda **ba:š** tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik, **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. O‘zbek tilida **a** unlisi **â** unlisiga almashgan: **ba:š>baš>bâš** (O‘TEL,I,61).

So‘z mulkining sohibqironi **irik** sifatini ikki ma‘noda qo‘llagan: “qo‘pol, dag‘al”: *Agarçi xoylari duruşluqda namāyāndur, ammā atfāl nāhamvārliği islāhiğa irik suhāndur* (MQ,22); “og‘ir, mashaqqatli”: *Qazādīn ne kelsā özlārin rizāğa yasabturlar va ālam ahliniğ qatiğ ranj va irik malāmatiğa çidabdurlar* (MQ,36). Shuningdek, birikma tarkibida istifoda etilib, “qiyinchilik, mashaqqat” ma‘nosini bildirgan: *Haq yolīda qatiğ irikkā tüzmäkdür va yaxşi-yamandīn har ne eşitgān* (MQ,42). Mazkur leksema Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida **yerig** fonetik shaklida kelib, “yoqimsiz”, “qo‘pol” ma‘nolarini anglatgan: *kōni sōz kōñülkā kōr ačīğ yerig; javāb qilğu yerdā yerig sōzlama* (DTS,177). Ko‘rinadiki, ma‘nolar sonida o‘zgarish bo‘lmasada, semantik taraqqiyot natijasida muayyan sema o‘rnini boshqasi egallagan.

Qadimgi turkiy manbalarda «nordon», «achchiq», «og‘ir, chidab bo‘lmay- digan», «jahl, g‘azab» semalarini ifodalagan **ačīğ** (DTS,4) sifati manba tilida **ačīq/ačīğ/aččīğ** shakllarida quyidagi ma‘nolarni bildirgan: 1) “achchiq, shirinning aksi”: *Öz ilgidā bir anār bolsa bilmāski, ...aččīğmudur* (MQ,26); 2) “azobli, uqubatli”: *Ağziğa hayāt šarbatī boldī ačīq* (MQ,86); 3) “qiyin, og‘ir”: *Sabr ... ačīğdur, ammā sudmand* (MQ,42); 4) “zaxarxanda, yomon so‘z”: *... aččīğ til zahrālud neşdek bolgay* (MQ,69). Ayni paytda, leksema juft so‘z va birikma tarkibida “yaxshi-yomon; “azobu rohat”, “yoqtirmaslik, qabul qilmaslik” singari ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan: *... aččīğ-çüçükdin*

köñülni āgāh qilğuvçi ul (MQ,88); Base ačçiğ, çüçük tattim jahānda (MQ,7); Xiradmand pandini körgän ačiğ (MQ,80).

Alisher Navoiy nafaqat o‘z qatlamga doir so‘zlarga, shuningdek, chetdan kirib kelgan leksemalarga ham qator ma’nolarni yuklagan. Masalan, **avrāq** arab istilohi asarda ikki ma’noda ishlatilgan: “sahifalar”: *...mus’haf avrāqin xirad piri tilāvat qilurda laim tiftlniñ yelpuğuç bilä varaqnı savurmaği kudurat yetkürür (MQ,62); “barglar, yaproqlar”: Agar havādis yeli sipehr gulšanı avrāqin üçürsä, alarğa andin xabar yoq (MQ,52).*

Zavq o‘zlashmasi tadqiq etilayotgan manbada tubandagi ma’nolarni bildirgan: “shodlik, xursandlik”: *Bu fayz sağarlaridın içib qanmağay va bu zavq qadahlaridın jur’a tartardın osanmağay (MQ,38); “ma’naviy lazzat, huzur”: Ruhi tāat zavqidın bexabar va uni savt ul-hamirdin ankar (MQ,23); “havas, xohish, mayl”: ...mu’jib xasm xātiriğa insāniyat zavqin olturğuzar (MQ,44). Bundan tashqari, ushbu arabcha so‘z izofali birikmalarni shakl- lantirib, “lazzat, xushhollik ahli”, “shodu xurramlik” kabi ma’nolarni vujudga keltirgan: ...ālamda zavqu hāl ahli bular latāyifi bilä masrur- durlar... (MQ,20); ...va ul biridin zavqu inbisāt üyläriniñ yaruğluği (MQ,85).*

Fors-tojikcha **āyin** o‘zlashmasi quyidagi sememalarda qo‘llanishda bo‘lgan: “rasm, odat”: *Jur’akašlik - dinlari va kāfirvašlik - āyinlari (MQ,14); “yo‘l-yo‘riq”: Agar ul islām āyin, xalq šiari ham islām bilä din (MQ,16); “sifat, xulq”: Anakim, bu nav’ bolğay āyini islām šayx ul-islām desä bolur vassalām (MQ,17); “qoida”: ...ta’limi šariat āyiniğa nākāhi nākāmdin munāsibdur (MQ,22); “pastkash kishi”: Ammā davrān bağiniñ xas va xāšak āyinlari...(MQ,62); “yo‘l”: Āyini adāvatu hasaddin ötünüz (MQ,86).*

“Mahbub ul-qulub” asarida forsiycha **zabun** o‘zlashmasi ham navbatdagi ma’nolarda uchraydi: 1) “ojiz, zaif”: *Šāh mālin berürdin ibā qilmasa va zabun šerikkä jafā qilmasa (MQ,29); 2) “bechora”:*

Zabunedur bārkaš, xārkaš, balki anbārkaš (MQ,73); 3) “mag‘lub, yengilgan”: *Qaviy dušman zabuniñ bolsa muruvvat qil, karam va avf körgüzgil* (MQ,93). Shu bilan birga, turkiy qo‘shimcha uchun asos vazifasini o‘tash barobarida qo‘shma so‘z tarkibida kelib, “ojizlik” va “yengmoq, mag‘lub qilmoq” ma‘nolarini hosil qilgan: *Baxtim kibi har ištā zabunluq qildī* (MQ,8); *...aḡa intiqām tūzdiār va xāru zabun qilib jafālar körgūzdiār* (MQ,91).

Tahlillar jarayonida polisemantik so‘zlarning tarkibi leksik ma‘nolar miqdori bilan o‘lchanishi, biroq atama qancha semaga ega bo‘lmasin, yagona leksik birlik hisoblanishiga, ko‘pma‘nolilik asosan matnda yaqqol ko‘zga tashlanishiga yana bir karra ishonch hosil qilindi. Ko‘rib o‘tganimizdek, Alisher Navoiy asarda badiiy ifodalarni bayon qilishda, birinchi navbatda, turkiy, qolaversa, o‘zlashma polisemantik so‘zlardan ham unumli foydalangan. Bu esa manba tilining rang-barang va jozibador bo‘lishini ta‘minlagan.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш//Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1978. №4. –Б. 56.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. -Б. 186.
3. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2000. – Б. 158.
4. Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б. 17.
5. М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.47.
6. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 110.

7. Дадабоев Х. “Тортмоқ” лексемасининг Алишер Навоий даври эски ўзбек адабий тилидаги маъновий қурилиши //Алишер Навоий.– Тошкент, 2021. № 1. – Б.10.

O‘Z QATLAMGA OID TEONIMLAR

Nilufar Sharafutdinova,
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tiliga mansub bo‘lgan ilohiy tushunchalar, xususan, Ega va Tangri teonimlarining kelib chiqishi va tarixan qo‘llanishi turli olimlarning qarashlarini tahlil qilingan holda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Egam, Tangri, Bayat, Ug‘an, Yaratguvchi, Olloh.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida diniy va ilohiy tushunchalarni ifodalovchi o‘z qatlamga mansub so‘zlar juda qadimdan boshlab qo‘llanib kelingan. Egam, Tangri, Bayat//Bayot, Ug‘an//Ug‘on kabi teonimlar ana shunday tasavvur va tushunalarni ifodalovchi so‘zlar sanaladi.

Ma‘lumki, inson qadimda ham, ilk ibtidoiy jamoa sharoitida ham yaratuvchilikdan uzoq bo‘lgan, yig‘imchilik-terimchilik bilan hayot kechirgan. Tiriklik uchun yegulikni tayyor holda tabiatdan olgan. O‘zini ham ulkan mavjudlik – Tabiatning bir qismi sifatida tasavvur etgan, uning qo‘ynida yashab, uning qonunlariga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan. Inson hayotining ta‘minotchisi tabiat, u o‘z qo‘ynidagi alohida olingan har bir narsaning egasi, ya‘ni Ega (Владыка). U hech kimni ajratmaydi, tanlamaydi. U adolatli. Demak, u ibodatga loyiq, inson o‘zini ayni shu Ega – ilohiyatning bir qismi deb bilgan va o‘z Egasi bilan birgalikda takomillashib borgan. Turkiylar dastlab ana shu Egaga ibodat qilganlar.

E'tiqod shu tabiiy tuyg'ular orqali ifodalangan. Ega so'zining teonimik ma'no kasb etishi qadimgi Kalp davriga, ya'ni mif ijod qilish davriga, inson o'zini tabiatdan ajratmagan, aksincha mavjudlikning boshqa qismlari kabi, o'zini shu tabiatning bir qismi, deb tasavvur qilgan davrlariga ulanadi. Ko'rinadiki, hozirda ham o'zbek tilida faol qo'llanadigan bu teonim qadimiy teonimlardan biri hisoblanadi.

“Qutadg'u bilig” dostonida Egam faol, lekin Bayat teonimiga nisbatan nofaol qo'llangan teonimlardan biri.

Bayatqa shukr qıldı o'gdi o'kush
Ayur ey igim-sa bag'yrsaq ko'shush
(Xudoga shukur qildi, behisob amr qildi,
Dedi: Ey Egam, sen o'zing mehribon va azizsan)

Ko'zin ko'kka tikti aydur ey elig
Ayur ey igim sen berigli bilig.
(Ko'zini ko'kka yugurtirdi, ey podsho [ya'ni xudo], dedi,
Aytdi: Ey Egam, sen bilim berguvchidirsan)

Egam teonimi hozirgi o'zbek so'zlashuv nutqida ham, yozma nutqida ham, qo'llanishi bo'yicha, o'ziga xos o'rin egallaydi. A.Oripovning “Jannatga yo'l” dramatik dostonida bir o'rinda yolg'iz o'zi, uch o'rinda qodir epiteti bilan teonimik ma'nosida qo'llanadi. Shundan ikkitasida bevosita iltijo ifodalanadi – gap ichidagi undalma bo'lib kelgan.

Yo Qodir Egam,
Pardai xob orqasidan ularni ko'rsat!

Qodir Egam, so'nggi bora sabot ber o'zing,
Darig' tutma bardoshingni mendan banogoh.

Ega so'zi birinchi shaxs egalik qo'shimchasini olgan holda teonimik ma'no kasb etadi. Lekin og'zaki nutqda bir o'zi Egam shaklida

qo‘llanishi yozma nutqdagi kabi faol emas. Yaratgan so‘zi bilan bir birikma tarkibida esa faol qo‘llanadi. Yozma nutqda o‘zi, yakka holda ham, ayniqsa, she‘riyatda faol qo‘llanadi. Demak, yakka holda qo‘llanish jihatidan yozma nutqqa xoslangan.

Qoshingda tiz cho‘kib turibman shu dam,
Dilimda iltijo, qo‘limda qalam.

Shafqating ayama mendan ham, Egam ... (A.Oripov)

Dostonda qodir so‘zi Egam teonimiga qo‘shilganidek, Olohh (Olohi Qodir shaklida) teonimi bilan ham bir butunlikda keladi. Lekin o‘zi alohidalikda teonimik ma‘no bilan qo‘llanmagan. Hozirgi so‘zlashuv tilida ham teonimik ma‘no bilan qo‘llanmaydi. Bu so‘z Yaratguvchi ma‘nosini emas, sifatini ifodalash, qudratini ta‘kidlash uchun Olohh, Egam, Tangri teonimlari bilan bir butunlikda, birikma tarkibida keladi. Hozirgi ism qo‘yish urf-odatida o‘g‘il bolalarga Qodir ismi qo‘yiladi. Olohh teonimi yor, berdi, bergan so‘zlari qo‘shilgan holda – Olohhberdi, Olohyor (so‘zlashuv tilida Olloyor) tipidagi qo‘shma so‘zlardan iborat ismlar tarkibida keladi. Xudo teonimi Xudoberdi, Xudobergan, Xudoyor kabi qo‘shma so‘zlar tarkibida keladi. Egam teonimi Egamberdi ismining yetakchi komponenti bo‘lib keladi. Tangri teonimi ham shunday, “bermoq” fe‘li bilan birgalikdagi butunlikda ism bo‘lib keladi. Shuningdek, yakka holatda, ya‘ni Tangriboy kabi ismlar ham qo‘yiladi. Lekin Yaratguvchining qudratli sifatini ifodalovchi qodir so‘ziga “bermoq” fe‘lini qo‘shib ism qo‘yish keng tarqalgan rasm emas. Biroq “Boburnoma”da shunday ism uchraydi. “... G‘avoning ulug‘i – Qodirberdi ... “Qodirberdini chorlang”, - dedim”. Ko‘rinadiki, Yaratguvchining sifatni anglatuvchi so‘z ham otlashib, qo‘shma so‘z tipidagi atoqli otlar uchun asos bo‘lgan.

“Jannatga yo‘l” dramatik dostonida umumturkiy teonimlar sifatidagi Tangri faol qo‘llangan bo‘lsa, Egam teonimining qo‘llanish darajasi nisbatan past, nofaoldir. Tangri//Tengri fonetik variantlarda

e'tiqod ifodalovchi eng qadimgi teonimlardan biri. Tangrichilik turkiy xalqlarda bundan yetti ming yil oldin paydo bo'lganligi qayd etiladi. Bu e'tiqodga muvofiq, Tangri – Yaratguvchi. U mavjud borliqni yaratgan yagona mutlaqlik – absalyut. Tangrining ulug' bir sifati shuki, u jazolamaydi. Turkiylar har bir xatti-harakatida unga suyanganlar, turkiy yozishmalar ham, odatga ko'ra, shu so'z bilan boshlangan. Manbalarda ko'rsatilishicha, Rim papasi bilan yozishmalarida ham, o'z maktublarini Tangri so'zi bilan boshlaganlar.

Sarkardalar jang oldidan o'z askarlarini jangga chorlab murojaat qilganlarida, o'zlarining chorlov nutqlariga jangovarlik, ko'tarinkilik, jasorat va mardlikka undovchi tantanavorlik ruhini berish uchun Tangri – Yaratguvchi nomiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Bunday nutqlar ibodatga teng bo'lgan, chunki nutq Tangri so'zi bilan boshlangan. Tangriga murojaat qilish ayni bir paytning o'zida butun borliqqa murojat bo'lishi bilan yanada jonliroq, hayotiyroq ahamiyat kasb etgan. Chunki Borliq Tangrining ijodi, kashfi deb qabul qilingan.

Yaratguvchi sifatida Tangri, bu – osmoniy Xudo, Bosh xomiy, Quyosh, Oy, Yulduzlarning homiysi, o'zining bir qismi sifatida, insonlarning homiysi. Ibodat unga, madad esa undan, deb qaralgan.

Tangri so'zi lug'aviy birlik sifatida izohlanar ekan, "Drevnetyukskiy slovar"da dastlab uning osmon ma'nosi ko'rsatiladi. Shuningdek, Xudo, Iloh, ilohiy ma'nolari qatorida hokim (amir, sulton), janob ma'nolari ham ko'rsatib o'tiladi. Lekin Iloh, ilohiylik ma'nolarining yetakchi ekanligi quyidagi izohlarda ravshanroq ayon bo'ladi: tangrichi – dindor, ruhoniy, ibodat qiluvchi; tangrichi – osmonda joylashgan, osmoniy; tangridam – ilohiy; tangrikan – ilohiy; tangrikla – xudoga ibodat qilish; tangrilik – xudoga maqbul; tangrilikdagi – ibodatxonada joylashgan [7.544].

Tangri teonimik birlik sifatidagi I.V.Stebleva tomonidan aniqlanishicha, uning birinchi ma'nosi osmon, ikkinchi ma'nosi Xudo,

deb qayd etiladi. Xudo tushunchasining quyidagi atributlari sanab o‘tiladi: yaratish, homiylik, inson taqdirini belgilash va jazolash funksiyalari [3.213].

Tangriviylilikning dastlabki davrida jazolash funksiyasi unga xos atributlardan biri sifatida ko‘rsatilmaydi. Yuqorida bayon etilgan fikrdan kelib chiqilsa, bu funktsiya Tangri – Yaratguvchiga berilgan keyingi davr epitetlaridan biri ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bu davr yangi eraning V-VI asrlariga to‘g‘ri keladi. I.V.Stebleva tomonidan ayni shu davr matnlari taqdim etilgan.

Tangri so‘zi turkiy tillarda Tengri, Tenger, Tengara, Tanera kabi ko‘plab fonetik variantlarda talaffuz etiladi. Uning bir varianti A.N.Sodiqov tomonidan quyidagicha izohlangan: tang va ingir, ya‘ni tong va kech, boshqacha aytganda, kun va tun. Muallif fikricha, bu tabiatning dialektik birligi. Leksik jihatdan ikki o‘zak qo‘shilib, yangi mazmun kasb etgan, bu mazmun tangir so‘zida ifodalanadi. Tangri teonimining Tengri fonetik variantidan kelib chiqib, uni tenglik, tabiat va jamiyatdagi muvozanat, deb belgilash ham bor.

Ko‘rinadiki, Tangri o‘z epitet va funksiyalariga ega bo‘lgan nom – Yaratguvchilik nomi. Xullas, tangriviylilik turkiy xalqlar ajdodlarining hayotidagi madaniy fenomen, ochiq dunyoqarash, diniy g‘oya sifatida [1.5] qaralganda ham Tangri so‘zi teonimik ma‘no anglatuvchi uzual teonim bo‘lib qola beradi. Demak, Tangri qadimlarda shakllangan umumturkiy teonim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аюпов Н.Г. Тенгианство как открытое мировоззрение. – Алматы: изд. «КИЕ», 2012.
2. Древнетюркский словарь. – М.: “Наука”, 1969.

3. Стеблева И.В. К реконструкции древнетюркской религиозно- мифологической системы. Тюркологический сборник. –М.: “Наука”, 1972.

4. Садыков А.Н. Тенгрионимы.
<https://cyberleninka.ru/article/n/tengrionimy>.

5. Тенгри: второе пришествие /Азия.
<https://www.youtube.com/watch?v=z5gVJmqAOtg>.

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA QORA RANG BILAN BOG‘LIQ TURG‘UN O‘XSHATISHLAR TAHLILI

*Abdujalilov Ma’rufjon Islom o‘g‘li,
Guliston davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillaridagi qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlarning semantik, lingvomadaniy va kognitiv jihatdan taqqoslab o‘rganildi. Unda o‘rganilayotgan tillardagi qora rangni ifodalovchi o‘xshatishlar inson yuzi, terisi, mavhum tushunchalar, chuqurliklarga nisbatan qo‘llansa salbiy konnotatsiya, agar ko‘z, soch, qoshga nisbatan qo‘llansa ijobiy konnotativ ma’no, predmetlarga qo‘llansa neytral ma’no aks etishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, assotsiatsiyalanish, subyektiv munosabat, semantika, mifonim komponent, xromatik ranglar.

Annotation: This paper compares and compares the similes related to the color black in the Uzbek and Russian languages from the semantic, linguistic, cultural and cognitive points of view. In it, similes representing the color black in the studied languages have a negative connotation when applied to the human face, skin, abstract concepts, depths, positive connotative meaning when applied to eyes, hair,

eyebrows, and neutral when applied to objects. it was determined that the meaning is reflected.

Key words: simile, stable simile, association, subjective attitude, semantics, mythonymous component, chromatic colors.

O‘zbek va rus tillarida qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Bunga bir qator lisoniy va nolisoniy omillar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Nolisoniy omillarga qora rang insoniyat eng avval nomlagan ranglardan biri ekanligi, uning ramziy ma’noga egaligi, inson tana a’zolaridan: soch, soqol, mo‘ylov, qosh, ko‘zlarning qora rangda bo‘lishi, qora deb nomlagan rangimiz olamda turli ko‘rinishlarga egaligi kabilarni kiritish mumkin. Eng asosiysi, har kuni hayotimiz kechadigan vaqtning – sutkaning yarmi, ya’ni tun qora rangda. Vaqtning rangli bo‘lishi doim shartli mohiyat kasb etgan. Masalan, bahorning yashil, yozning qizil, kuzning sariq, qishning oq rangda ekanligi. Badiiy asarlarda inson umri yil fasllariga o‘xshatiladi va shu asnoda umrning ayrim qismlari ham rangga mengzaladi. Kunni ham ba’zida oq rang bilan shartlaydilar. Lekin vaqtning ixtiyoriy qismida oynadan qaralsa, yoppasiga biron bir rang ko‘rinmaydi. U yerda turfa ranglarni ko‘rish mumkin. Faqatgina tunda, oydin bo‘lmagan tunda, oynadan qaralsa, qop-qora rangni ko‘rish mumkin. Demak, har bir tilda qora rang bilan bog‘liq metafora va o‘xshatishlarning mavjudligi bir qator omillar bilan bog‘liq ekan.

Olamda mavjud ranglarning hammasi ham uning bir bo‘lagi bo‘lgan odamda bo‘lmasligi tabiiy. Juda ko‘p olam ranglari odamda uchramaydi. Lekin odam tanasida uchraydigan qora rang bilan bog‘liq juda ko‘p o‘xshatishlar mavjud. Shu o‘rinda aniqlik kiritish kerakki, muayyan bir inson tanasida qora rang uchramasligi tabiiy. Masalan, uning sochlari, ko‘zlari, qoshlari qora bo‘lmasligi mumkin. Bu holat yevropaliklarda ko‘p kuzatiladi. Lekin sharqliklarda qora rang ko‘p

uchraydi. Xususan, qora sochli, qora qoshli insonlar tipik o‘zbek xalqi vakillaridir. Muhammad Yusuf bu haqida shunday yozgan edi: “Aylanayin qora qoshu ko‘zingdan-a, o‘zingdan qo‘ymasini xalqim, o‘zingdan-a”.

O‘zbek tilida oddiy qora, kulrangsifat qora, to‘q qora, yaltiroq to‘q qora kabi qoraning ko‘rinishlari o‘xshatishlar orqali aniqlanadi.

O‘zbek tilida qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Inson bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
2. Predmetlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
3. Tabiat bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
4. Mavhum tushunchalar bilan bog‘liq o‘xshatishlar.

Inson bilan bog‘liq o‘xshatishlarda ikki xil holatni ko‘rish mumkin. Bunda insonning tashqi tuzilishi va ichki olamiga oid ko‘rinish, holatlar qora rang bilan assotsiatsiyalanishi ma‘lum bo‘ldi. Insonning tashqi tuzilishida qora rangning yoki unga yaqin rangning bo‘lishi tabiiy va bu holat tabiatdagi nimanidir rangiga qiyos qilinadi hamda u orqali nomlanadi: *zulukday qosh, tundekey qora soch*. Bu kabi o‘xshatishlar orqali nomlanishlarda tana a‘zolarining qora rang bilan to‘yinganlik darajasi (zanjiday qora), to‘qligi (ko‘mirday qora), yaltiroqligi (*zulukday qora*) kabilar aks etadi.

Kamunday qoshlari zulukdey qop-qora, qo‘sh kokili taqimini o‘paman deydi. (Rustam Ummatov. Odam borki) Ushbu matn parchasiga e‘tibor qaratilsa, *zulukdey qop-qora qosh* birikmasi *qora qosh* birikmasidan rangni nomlashda aniqligi, qo‘shimcha “yaltiroq” semasiga egaligi bilan ustunroqdir. Aniqlikka *zuluk* obrazini tasavvur qilish, uning rangini qoshga “olib o‘tish” orqali erishilgan. O‘zbek tilida qora rang bilan bog‘liq shunday o‘xshatishlar borki, ularda rangdan boshqa sema ham asos bo‘lishi mumkin. Masalan, *kosovday* o‘xshatishida ham

“qora”, ham “ozg‘in” semasi mavjud bo‘ladi. *Kosovday yigit* o‘xshatishida qoracha va nozik yigit nazarda tutiladi.

Qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlarda subyektiv munosabat ham kuchli ifodalanadi. *Ko‘mirdek* o‘xshatish yuzga nisbatan ishlatilsa salbiy, *charosdek* ko‘zga nisbatan qo‘llansa, ijobiy subyektiv munosabat aks etadi.

Insonning tashqi ko‘rinishiga nisbatan qo‘llanadigan qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlarga quyidagilarni misol qilish mumkin: *zanjiday, zangiday, zulukday, kosovday, ko‘mirday, saqichday, tunday, charosday, cho‘yanday, qo‘rg‘oshinday, habashday*. [5:320]

Zanjiday, habashday o‘xshatishlari o‘xshatilayotgan obyektning habash kishining rangi bilan assotsiatsiyalaydi. Ma’lumki, O‘rta Osiyoda habash kishilar muqim yashamaydi, ularga begona sifatida qaralgan. Shuning uchun ularga odatiy bo‘lgan terining qoraligi o‘zbeklar uchun me’yor emas. Ushbu o‘xshatishlar orqali odam rangining me’yordan to‘qligi, qop-qoraligi ifodalanadi. Badiiy asarlardan to‘plangan materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur o‘xshatish to‘liq bo‘lib, unda *qop-qora* yoki *qora* so‘zlari deyarli doim qo‘llanadi: *Tushdan keyin esa qizlar bilan birga cho‘pday ozg‘in, zanjiday qop-qora, sal duduqroq bir odam salom berib kirib keldi* (O.Yoqubov. *Diyonat*). Bu ikki o‘xshatishda sezilarsiz uslubiy o‘ziga xoslik mavjud. *Zanjiday* asosan tabiatan qora odamga, *habashday* esa ham tabiatan qora odamga, ham oftobda qoraygan odamga nisbatan ham qo‘llanadi. Masalan, *Ikromjon bo‘lsa ozib, cho‘p bo‘lib ketgan edi. Cho‘l shamoli uning badanini habashdek qoraytirgan* (S. Ahmad. *Ufq*).

Rus tilida ham qora rang bilan bog‘liq o‘xshatishlar ko‘p uchraydi va ularda o‘zbek tili bilan mushtarak o‘rinlar bo‘lishi bilan birga, rus xalqining o‘ziga xos madaniyati aks etadi.

Rus tilida qora rang bilan bog‘liq quyidagi turg‘un o‘xshatishlar mavjud: *чёрный как вакса* (poyabzal moyidek), *как вороново*

(воронье) крыло (qarg‘a qanotidek), как грач (qoraqarg‘adek), как жук (qo‘ng‘izdek), как сажка (qurumdek), как смола (mumdek), как уголь (ko‘mirdek), как вар (qora mumdek), как араб (arabdek), как ворон (qarg‘adek), как галка (zog‘chadek), как галчонок (zog‘chaning bolasidek), как агат (aqiqdek), как антрацит (antratsitdek), как голенище [голенище сапога] (etikning qo‘njidek), как негр (negrdek), как у негра (negrdagidek), как сапог (etikdek), как цыган (siganka) (lo‘lidek), как у цыгана (siganki) (lo‘lidagidek), как цыганенок (lo‘lichadek), как эфиоп (habashdek), как чернила (siyohdek), как черт (shaytondek), как кочегар (o‘t yoquvchidek), как трубочист (mo‘ri tozalovchidek), как у трубочиста (mo‘ri tozalovchidikidek), как вишни (olchadek), как у газели (ohunikidek), как земля (yerdek), как ночь (tundek), как сажей вымазанный (qurumga chaplangandek).

Mazkur o‘xshatishlarni imkon qadar guruhlashga harakat qilamiz.

1. Inson irqi va millati bilan bog‘liq o‘xshatishlar: *как негр, как у негра, как цыган, как у цыгана (цыганки), как цыганенок, как эфиоп, как араб, как арап.*

2. Kasb bilan bog‘liq o‘xshatishlar: *как кочегар, как трубочист, как у трубочиста.*

3. Qora ma‘dan, qurum va moylar bilan bog‘liq o‘xshatishlar: *как вакса, как сажка, как смола, как уголь, как вар, как чернила, как антрацит, как сажей вымазанный.*

4. Qimmatbaho tosh bilan bog‘liq o‘xshatish: *как агат.*

5. Zoonim komponentli o‘xshatishlar: *как вороново (воронье) крыло, как грач, как жук, как у газели.*

6. Fitonim komponentli o‘xshatishlar: *как вишни.*

7. Predmetlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar: *как голенище [голенище сапога], как сапог, как чернила.*

8. Temporal semantikali so‘z bilan: *как ночь.*

9. Mifonim komponentli o‘xshatish: *как чёрт.*

10. Yer komponentli o‘xshatish: *как в земле*.

Rus tilida ham odam terisi rangi, yuz rangining qora, qoracha, qoraga moyilligi; oftobda qorayganligi; qurum yoki kir bilan ifloslanib qorayishi kabilar “как негр”, “как у негра”, “как цыган”, “как у цыгана”, “как араб”, “как эфиоп” o‘xshatishlari bilan ifodalanadiki, ushbular o‘zbek tilidagi *habashdek*, *zangidek*, *zanjidek* o‘xshatishlari bilan o‘xshashdir va bu o‘xshatishlarda insonning rangi boshqa insonning rangi bilan solishtiriladi, o‘xshatiladi. “Как у негра”, “как негр” birikmalari o‘zbek tilidagi *habashdek*, *zangidek*, *zanjidek* o‘xshatishlari bilan aynandir: *Запометье их лица, густо покрытые черноземной мягкой пылью, были черны, как у негров, и так же, как у негров, блестели на них покрасневшие глаза и сверкали белые крепкие зубы. (Куприк А.И.)*

“Как негр”, “как у негра” o‘xshatishlarining lug‘atlardagi talqinlari bir-biridan farqli ekanligi ma’lum bo‘ldi. L.A.Lebedevaning lug‘atida “Juda ham qoraygan odam terisi rangi haqida” izohi berilgan bo‘lsa[3:29], V.M.Mokiyenko va T.A. Nikitinalarning “Большой словарь русских народных сравнений” lug‘atida esa “Inson yuzining oftobdan, kirdan, qurumdan qoraygan” ma’nosi berilgan.[4:431] Biz tomonimizdan to‘plangan materillar tahliliga ko‘ra, mazkur o‘xshatishlar tabiatan qora yuzga qo‘llanishidan ko‘ra qoraygan yuzga nisbatan qo‘llanishi ko‘proq kuzatiladi. Chunki rus kishilari orasida juda ham qora rangli insonlarning bo‘lishi deyarli kuzatilmaydi. Ular mazkur o‘xshatishni boshqa millat kishilarining tabiiy rangiga yoki rus kishisining orttirilgan qora rangiga ishlatishi mantiqan to‘g‘ri. Ushbu o‘xshatish qoraygan yuzga nisbatan qo‘llanganda esa juda ham qattiq qorayganlik ma’nosi anglashiladi. “Как негр”, “как у негра” o‘xshatishlari nafaqat qora va qoraygan odamlarga nisbatan, balki kirdan, qurumdan va boshqa narsalardan ifloslangan kishilarga nisbatan ham ishlatiladi. Bu kabi qo‘llanishida esa salbiy konnotatsiya

shakllanadi: *na каждом шагу встречались с ним толпы оборванных солдат: одни, запачканные сажеею, черные как негры, копались в развалинах домов... (Александр Грин).*

Xulosa qiladigan bo'lsak, asosiy xromatik ranglardan qora rang o'zbek va rus tillarida juda ko'p o'xshatishlar orqali nomlanadi. O'zbek va rus tilidagi qora rangni ifodalovchi o'xshatishlar inson, predmet, tabiat va mavhum tushunchalarning belgilariga nisbatan qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Античные риторики. – М.: изд-во МГУ, 1978. – С. 135.
2. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1977. – С. 15.
3. Лебедова Л.А. Устойчивые сравнения русского языка. Тематический словарь. -Москва, Флинта, 2017. Стр. 29.
4. Мокиенко В.М., Никитина Т.А. Большой словарь русских народных сравнений. М.: ЗАО ОЛМА Медиа групп, 2008. 431-стр.
5. Н.Махмудов. Д.Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: “Маънавият”, 2013. 320 бет.
6. Худойберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. канд. филол.наук. – Ташкент, 1989. – 127 с.

SHE'RIY NUTQDA ASSONANSNING POETIK IMKONIYATLARI

*Hamraqulova Guluzra Dilmuradovna,
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Inson so'z ma'nolarini tovushlar va ularning talaffuzi orqali anglaydi. Shu sabab, nutq tovushlari boshqa barcha til

birliklari singari ular uchun nafaqat fikrlarini bayon etish, balki his-tuyg‘u va ruhiy holatlarini ham ifoda etishning beqiyos vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada badiiy asar mazmuni va badiiyligini oshirishga hissa qo‘shgan fonetik-fonologik xususiyatlar o‘zbek ijodkorlari she‘riyati misolida tahlil qilinadi hamda fonopoetik jihatlari(assonans) to‘g‘risida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Assonans, kommunikativ, konnonativ, akkumulyativ, ekspressiv vazifalar, litogramma, poetik nutq, alliteratsiya.

Kishilar ijtimoiy faoliyatini nutqsiz mutlaqo tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki til aloqa, xabar, ta’sir etish kabi ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Mana shu ijtimoiy vazifalarni bajarishda so‘zning sharafliligi sifatleri haqida o‘zbek adabiy tilining asoschisi ulug‘ Alisher Navoiy “Mahbub ul - qulub” asarida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: “Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli)dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur.” [1;60]¹⁰

So‘zning qadri undan foydalanish, kam so‘zlab ko‘p ma’no anglatish, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII-XIII asr mutafakirlari Yusuf xos Hojib Axmad Yugnakiyning ham ibratli fikr bildirganlar. Yusuf xos Hojib o‘zining mashhur asari “Qutadg‘u bilig”da so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash haqida “**Bilib so‘zlasa, so‘z bilig sanalur**”,-deydi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib, yurmagin deb so‘zlovchini ogohlantiradi. [2;78]

Til kommunikativ, konnonativ, akkumulyativ, ekspressiv vazifalarni o‘zida jamlagan murakkab sistemadir. So‘zlovchi o‘zining kommunikativ maqsadidan kelib chiqib, o‘z nutqiga tilning turli sathlaridan materiallar tanlaydi va xudda shunday yozuvchi ham poetik maqsadidan kelib chiqib, tilning turli sathlaridagi vositalardan

foydalanadi. Shuning uchun ham: “Adabiyot tildan boshlanadi, rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi... Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma’naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalarini kitobxonga til orqali etkazadi”. [3;5.09]

Kommunikativ, konnonativ, akkumulyativ, ekspressiv vazifalarning barchasini poetik nutq bajara olish imkoniyatiga egadir va bu vazifalarni bajarishda tilning quyi sathi birliklari, ya’ni fonetik vositalar muhim o‘rin egallaydi. Fonetik vositalardan biri – bu assonans. Assonans misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligi bo‘lib, “Tilshunoslik terminlari izohli lug‘atida (frans.assonance-ohangdoshlik) “aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik”, deb beriladi. [4;1985].

Assonans ham alliteratsiya singari fonetik takrordir. Har ikkalasi ham bir tamoyilga tayanadi, faqat assonas unli tovushlarning takrorlanishi va ohangdoshligi orqali yuzaga chiqsa, alliteratsiyada undosh tovushlar takrorlanadi. Ba’zan har ikkala fonetik vosita birgalikda ishlatiladi:

Qaldirxoch qaro bo‘lur,

Qanoti ola bo‘lur.

Yoshlikda bergan ko‘ngil,

Ayrimas balo bo‘lur”

(Gulyor to‘plami.B.51)

Bu misolda undosh tovushlardan **q, r** va unli tovushlardan **a, o, o‘, u** lar takrorlanayapti, o‘ziga xos musiqiylik, ohangdorlik hosil bo‘layapti. *Qaro bo‘lur, ola bo‘lur, balo bo‘lur* qofiyalarida noaniq qofiyaning kelishi ham assonans natijasida bo‘layapti.

O‘z elingda endi hushing, o‘zing chog‘la,

O‘z qo‘lingda endi qushing, o‘zing ovla.

Oltinlaring tirnoqlaring bilan kavla,

Va yigʻib qoʻy! Bolalaring uchun tursin.

(Muhammad Yusuf. Saylanma. 271-b.)

Mazkur misolning tili sodda, ravon, oʻqilishi xushohang ekanligining sababi ham tovushlarning bir maromda toʻlqinlanishi, uygʻunligidadir. Bunday uygʻunlikka oʻ, e, o unlilari va ng, n, l sonor tovushlarining meʼyoriy ritmik tempda qoʻllanilishi natijasida erishilgan. Badiiy nutqning estetik jihatdan taʼsirchanligini singarmonizm va urgʻu ham taʼminlaydi. Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, taʼsir quvvatini namoyon etadi. [5;47-51].

Poetik nutq estetik funktsiya bajaruvchi qismlar ierarxiasini tashkil etadi. Poetik matn shakl va mazmunning uzviy birligidan iborat boʻladi. Soʻz sanʼatkori poetik matnni tildagi muayyan meʼyor va mezonlar asosida yaratishga harakat qiladi. Biroq ijodkorning hissiy bilish jarayonida tildagi chegaralar miqyosi kengayib boradi. Shu bois poetik matnda soʻz, tovush kabi til birliklarining ichki ierarxiyasi ijodiy tajriba samarasi emas, hissiy mushohada natijasidir.

Osoyish oʻtmadi biror bir kunim,

Talashib-tortishib tolmadim.

“Ogʻirroq bʻyl inim, siporoq boʻl inim...”

Men oʻz bilganimdan qolmadim.

(Muhammad Yusuf. Saylanma. 260-b.)

Assonas urgʻuli boʻgʻinlarning mosligi asosida hosil boʻladigan noaniq qofiyani hosil qiladi. Natijada matn melodikasi va ifodaviyligi oʻzgaradi.

Assonans quyidagi holatlarda qoʻllanadi:

1. Reklama va biznesda.
2. Folklorda.
3. Mashhur madaniyat qoʻshiqlarida.

4. Poetik nutqda.

Bozor iqtisodiyoti munosabatida tovarlar realizatsiyasining muvaffaqiyati uchun yangi yoʻnalishlar, yangi uslublar talab qilinadi, bu esa togʻridan togʻri reklamaga botib taqaladi. Reklama isteʼmolchilarga taʼsir qilish, qiziqish uygʻotish natijasida tovarlar realizatsiyasiga katta taʼsir koʻrsatadi. Reklama matnlarini lingvistik tahlil qilish shu jarayonning alohida elementlarini, ularning ushbu jarayonga taʼsirini oʻrganish imkoniyatini beradi. Bu esa xalqaro lingvistika uchun amaliy ahamiyatga egadir. Demak, biznesda reklamaning katta ahamiyati bor. Reklama matnini taʼsirchan, ritmik va emotsional qilishda assonans qoʻllanadi, boshqacha aytganda assonans reklama matnlarida koʻp uchraydi. Masalan, shamollashga qarshi ishlatiladigan Romidon dorisining reklamasi koʻraylik: “...*Shamollashga tezda yordam berar. Ramidon, ramidon, ramidon. Sizga yordam berar dorining nomini Siz eslab qoling. Raaamidon, ramidon, ramidon*”. Reklama matni assonans yordamida musiqiylik, ohangdorlikka erishilayapti.

Shoirlar ijod jarayonida tovushlar|| mosligiga,|| ular yordamida kuchli|| konnotativ|| maʼno|| ifodalanishiga|| eʼtibor|| berishlarini kuzatishimiz mumkin..|| Negaki||, ushbu|| usuldan|| foydalanib|| yozilgan|| sheʼrlar|| oʻquvchi tomonidan ||tez||val||osonlik||yodlanishi, sheʼrning|| oʻynoqi ||va ||musiqiy||ligi,||ritmik|| xarakterga|| egal|| boʻlishi|| esa|| sheʼrlarning|| qoʻshiq|| qilib|| kuylashga|| moyilligini|| koʻrsatadi,|| ularning|| juda||koʻp|| kuylanishiga|| sabab||boʻladi.|| Masalan:

Eng gullagan yoshlik chogʻimda,

Sen ochilding koʻngil bogʻimda.

Shunda koʻzim koʻrdi bahorni,

Shunda qalbim tanidi yorni . (H.Olimjon)

Yuqoridagi sheʼriy ||parcha ||misralarida keltirilgani ||tovushlar|| takrori||

Assonans faqat unli tovushlarning takrori emas, balki noaniq qofiyani ham bildiradi. Assonans qofiyadagi soʻz boʻgʻinlariga tushgan urgʻuning, baʼzan esa unli tovushning mos tushishi asosida yuzaga chiqadi. Masalan,

Qaydan kelayotir uyur – uyur gʻam,

Qaydan kelayotir palasta hasrat.

Qanday yogʻayotir shirgʻoqdek alam,

Qaydan sizayotir laxza – laxza dard

Bu misolda *hasrat* va *dard* soʻzlari noaniq qofiyaga misol boʻladi. Bu soʻzlarda urgʻu *a* tovushiga tushishi va *rat* hamda *ard* boʻgʻinlarining moslashishi orqali assonans yuzaga chiqmoqda. Bu misolda shoirning sheʼridagi soʻzlar oʻynoqiligi, maʼno kengligi, ifoda soddaligi bilan ajralib turadi.

Assonans termini fransuz tilidan kelib chiqqan boʻlib, “ohangdoshlik” degan maʼnoni bildiradi. [7; <https://russkiiyazyk.ru/leksika/assonans-v-literature.html>].

Muallif oʻz asarida aniq effektini taʼminlash uchun bir xil unli tovushli soʻzlarni tanlaydi, natijada qahramonning kayfiyati, shamolning shovullashi, suvning shildirashini aniq tasvirlashga, kitobxonga ekspressiv taʼsir oʻtkazishga erishadi. Demak, sheʼr matnini yorqin, emotsional-ekspressiv jihatdan kuchaytirish uchun bir nechta unli soʻzlarni takrorlash – assonans vositasini qoʻllash etarlidir.

Masalan,

Bu hayot ekanda, koʻngil ekanda,

Gulning ixtiyori xoru tikanda.

Men yorni xor boʻlib sevdim, netayin,

Suv teskari ketti menga kelganda.

Iqbol Mirzoning yuqoridagi parchaga «ixtiyor», «xor», keyingi misrada yana «yor», «xor» soʻzlarining yonma-yon kelishi sheʼrdagi musiqiylikni kuchaytirgan. «Xor» soʻzining shakldosh soʻz sifatida ikki

o‘rinda turlicha ma’nolarda qo‘llanishi shoirning so‘zni uning ma’no qirralari, ma’no tovlanishlarini juda yaxshi xis etishidan darak beradi. Ayni parchaning o‘zidagi "Suv teskari ketdi menga kelganda" jumlasida frazeologik birikma qo‘llangan bo‘lib, shoir hamma uchun odat bo‘lib qolgan tarzda, ya’ni “suv teskari oqdi” deb qo‘ya qolmaydi, "teskari ketdi" deydi. “Ketdi” va “kelganda” so‘zlaridagi ziddiyat taqdirdagi teskarilikdan norozilirik qahramon ko‘nglidagi iztiroblar ifodasiga xizmat qilgan.

Shoirning she’rlarida assonans nafaqat ifodaviylikni ta’minlaydi, balki kitobxon oldida konkret obrazni chizadi.

Demak, badiiy adabiyotda matnning fonetik ifodaviylikni kuchaytipish maqsadida turli usullardan foydalanadi. Ularning ahamiyatini baholash oson emas. Chunki she’rning ifodaviylikni oshiruvchi usullar she’rning har bir misrasini boy e‘motsional-eksprissiv bo‘yoqdorligini oshitadi. Natijada muallifning uslubi esda qolarli darajaga yetadi.

Xulosa qilib aytganda, assonans orqali :

- 1) she’rning bosh qahromoni ko‘tarinki romantik obrazga ko‘tariladi;
- 2) muallifning faqat o‘ziga xos xususiyati ochiladi;
- 3) muallifning kayfiyatini, emotsional ta’sirini namoyon qiladi;
- 4) she’rning “asab” tizimini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Т.:Ф.Ғулом номидаги бадиий адабит нашриёти, 1966, 60-бет
2. Югнакий А.Ҳиббат-ул ҳақойиқ. – Тошкент, 1971,78-бет
3. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986, 5 сентябрь.

4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. 1985
5. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. – Тошкент, 2006. – № 2 (11). – Б. 47-51.
6. <https://ruskiiyazyk.ru/leksika/assonans-v-literature.html>
7. Ergashova M. Expression Of the Relation Of Localization Through Word Forms, 927-934
8. Khamrakulova G. Onomotopeia as a Linguistic Phenomenon (On the example of Iqbal Mirza’s poetry), 151-157.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI ZONIMIK TERMINLAR

*Jumayeva Marjona Erkinovna,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
Nizomova Zebo A‘zam qizi,
Buxoro davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub "Devoni lug‘atit-turk" asarining dastlabki qismida uchraydigan hayvon nomlari bilan bog‘liq terminlar, ularning bugungi kundagi muqobilari orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, "Devonu lug‘atit-turk" asari, lug‘at, terminologiya, termin, zoonim.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrning buyuk turkolog olimi sifatida tanilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o‘zlarining 2022-yil 21-oktabr "Til bayrami" kuniga bag‘ishlangan nutqida Koshg‘ariy asaridagi "Erdam bashi til" ya'ni "Barcha ezguliklar boshi til" [3] jumlasini bilan o‘z nutqini boshlagan. Uning bizgacha yetib kelgan yagona asari

turkiy tillar qomusiy grammatikasiga bag'ishlangan "Devonu lug'atit-turk" asaridir. Ushbu asar o'sha davrda yashagan turkiy qabilalarning til xususiyatlariga bag'ishlanadi. Mahmud Koshg'ariy so'zlarning turli ma'nolari va ma'no ottenkalarini izohlabgina qolmay, turli qabila tillari o'rtasida bo'lgan xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ham ko'rsatib o'tadi. Mahmud Koshg'ariy o'z asari haqida quyidagilarni aytadi: "Men bu kitobni alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasl deb atalgan parchalar bilan bezalgan. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong'u joylarini yoritdim, so'zlarini o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan o'z joyini topish uchun bu ishda bir necha yillar mashaqqat tortdim".[4]

Devon XI asrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o'rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanish va taraqqiyotini belgilashda muhim manba sanaladi.

Devonning tarjimasini va nashrga tayyorlash ishi bilan filologiya fanlari kandidati Solih Mutallibov shug'ullangan. Devon uch kitobdan iborat bo'lib, har bir kitob alohida izoh va komentariyalar bilan tarjima qilingan. Bizgacha asarning birgina qo'lyozma nusxasi yetib kelgan va u Istanbulda saqlanadi. Devon mundarijasiga ko'ra ikki qismdan iborat:

1. Muqaddima.

2. Lug'at qismi.

Muqaddimada avtor turk tilining ahamiyati va xususiyatlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, asarning tuzilish tartibi, qo'llanilgan yozuv, fe'llardan yasalgan ismlar, so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi, zikr qilinmagan sifatlar, masdarlar haqida, turk tabaqalari va qabilalari haqida qisqacha izoh beradi.[2]

Lug'at bo'limida avtor u davrda iste'molda bo'lgan hamma so'zlarni qamrashga intilgan va ularni yetarli darajada ilmiy va tarixiy nuqtai nazardan keng va to'liq yoritgan. Mahmud Koshg'ariyning

soʻziga koʻra u osha davrda isteʼmolda boʻlmagan soʻzlarnigina asarga kiritmagan.

Asarning birinchi kitobi anʼanaviy Allohga hamd va paygʻambarimizga naʼtdan boshlanib, asar haqida nazariy maʼlumotlar beriladi. Soʻngra lugʻat qismga alohida eʼtibor qaratilib, soʻz boshida hamza kelgan otlardan boshlanadi. Biz aynan shu kitobda qoʻllanilgan zoonimlar bilan bogʻliq terminlarning izohini berishga harakat qildik. Terminlarni uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar nomlari ostida tahlilga tortamiz.

Asardagi uy hayvonlari nomlari bilan bogʻliq terminlar quyidagilar:

Op - xirmon yanchuvchi hoʻkizlarning oʻrtasidagi hoʻkiz (argʻucha). [3, 70]

At - ot, hayvon. "*Qush qanoti bilan er oti bilan*" maqolidagi kabi. [3, 70]

Īt - it, kuchuk. [3, 71]

Oʻrk - qora mollarning boshvogʻi, ot oyogʻining bogʻi. [3,78]

Ud - sigir (chigilcha). [3, 80]

Orat - toʻq qizil va sariq ranglar orasidagi ot. [3, 80]

El - bir turli ot nomi. [3, 83]

Oj - *oj at*- qora ot. [3, 84]

Ugʻar - peshonasida oqi bor qashqa ot; bu soʻz shaklan ham, mazmunan ham arabchaga mosdir.[3, 87]

Ogur - poda; qoʻy echki, kiyik; yovvoyi oʻrdakning kichik xili - churrak deyilgan qush; tuyalar podasiga nisbatan ham qoʻllaniladi. [3, 88]

Oʻkuz - hoʻkiz; Bu soʻz ushbu maqolda ham qoʻllangan: *Oʻkuz azaqi bolgʻincha, buzaʻgu bashi bolsa*. [3, 91]

Erkach - taka, erkak echki.[3, 120]

Arqun - yovvoyi otdan qochgan otning bolasi; u poygalarda eng chopqir ot. [3, 132]

Iktu - qo'lda boqiladigan hayvon, qo'lbola mol. [3, 137]

Og'laq - echki bolasi, uloq. [3, 141]

Irk - to'rt yoshli qo'y. [3, 78]

Echku - echki. [3, 149]

Quyida yovvoyi hayvon nomlari bilan bog'liq terminlarni izohlab o'tamiz:

Oq ilan - o'q ilon; o'zini odamga otuvchi ilon. [3, 73]

Azig' - ayiq. Bu so'z ushbu maqolda ham keladi: "Awchï nêchä al bilcä, azig' ancha jol bilir. Ovchi qancha ov hiylalarini bilsa, ayiq ham shuncha qochish yo'llarini biladi. [3, 94]

Ishiq - kir va toshloq joylarda yashaydigan kiyik. [3, 98]

Enuk - yosh arslon; yollik bo'ri; it bolalari; tulki. [3, 102]

Ajig' - ayiq (o'g'uz, qipchoq, yag'molarda). [3, 112]

Aba - ayiq (qipchoqcha). [3, 113]

Arqar - urg'ochi tog' echkisi; uning shoxidan pichoqqa sop qilinadi. [3, 139]

Ablan - sichqon jinsidan bo'lgan kichik bir jonivor. [3, 142]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu asar nafaqat o'zbek xalqi, balki boshqa qardosh turkiy xalqlar tilshunosligi uchun ham nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Biz ushbu kitobning bir qismini o'rganish jarayonida mana shu qomusning bir qismidangina bahramand bo'ldik. Mustaqillikdan keyingi tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijasida asar yuzasidan bir qancha ilmiy ishlar qilindi. Shunga qaramasdan, "Devonu lug'atit-turk" asari haligacha to'laligicha tahlil qilingan emas. Ushbu ishimiz bilan shu sohaga oz bo'lsa-da hissa qo'sha olsak, o'z oldimizga qoygan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom AL Buxoriy. Al jomi as - sahih. 2-qism. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 432-b.
2. Маслова В. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. 208 с.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit-turk, 1-kitob. – Toshkent, 1960.
4. Schmidt-Nielsen B., Schmidt-Nielsen K. [The camel, facts and fables](#) // [UNESCO Courier](#). — 1955. — № 8—9. — С. 29.
5. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 127 b.
6. Xolmonova Z, Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati. –T.:Turon zamin ziyo, 2016, 359 b.
7. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. –Т.: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. 524 б.
8. www.ziyo.uz.kutubxonasi

2-SHO‘BA. SHARQ TILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI BADIYYATI

Salimaxon Rustamiy,
Oriental universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqola o‘zbek xalq maqollarining badiiy xususiyatlarini yoritib berishga bag‘ishlangan. Unda xalq maqollarida ma’noni kuchaytirish, ta’kidlashga xizmat qiluvchi iyjoz, ruju’, kinoya, ishtiyoq, tazod, muqobala, majoz kabi san’atlar faol qo‘llangani asoslangan.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, badiiy san’atlar, iyjoz, ruju’, kinoya, ishtiyoq, tazod, muqobala, majoz.

Xalq og‘zaki ijodiga oid asarlar, jumladan maqollar oddiy mehnatkashlarning olam va undagi hayotni ziyraklik va sinchkovlik bilan kuzatishi hamda ularni go‘zal shaklda ifoda qilishi natijasida vujudga keladi. Bularda elning boy tajribasiga asoslangan xalq didaktikasi aks etadi. Bu asarlar, xususan maqollar mazmunan va shaklan xalq ongiga yaqin bo‘lgani uchun kishini hayoti davomida duch keladigan turli-tuman hodisalarga oqilona munosabatda bo‘lib, yovuzlikdan saqlanishga, ezgulik sari intilishga chorlaydi. Bu hol xalq og‘zaki ijodi mahsulining hayotiyligini ta’minlovchi omillarning asosiyisidir.

Ammo maqolning hayotiyligi va mashhurligini ta’minlovchi yana muhim bir omil bor. Bu uning nutqiy balog‘at [2, 3, 4], g‘arbcha qilib

aytganda estetik, oddiy turkiy soʻz bilan taʼbir qilganda chechanlik darajasining yuksakligidir.

Sharq olimlari chechanlikning qonuniyatlarini tadqiq qilib balogʻat ilmni yaratdilar. Bu ilmning rivojida Xorazm farzandi Abu Yoqub Yusuf Sakkokiyning (1160-1228) xizmati ulugʻ [1].

Balogʻat ilmida qayd etilgan sanʼatlardan, yaʼni badiiy vositalardan ijjoz barcha maqollarga xos. Oz soʻz bilan koʻp maʼnoni, teran mazmuni ifodalash mahorati ijjoz deyiladi. Masalan: “baxt tilakda emas, bilakda” degan maqolda [5] toʻrtta soʻz bor. Ammo shu toʻrt soʻz zaminida inson umrining mazmuni bor. Ushbu maqolga rioya qilgan kishining turmushi harakatiga yarasha farovon boʻlib, osuda umr kechiradi. Amal qilmay orzu bilan cheklanish kishini turli balolarga giriftor qiladi. “Mehnat, mehnatning tagi rohat” maqolini olsak, bunda mehnatkashning roʻzgʻori but boʻlishi, ruhi tetik, tani sogʻ boʻlishi nazarda tutilgan. Mehnatsiz hayot kishini harom yoʻllarga kirishga majbur qilib, oʻzini xarob qiladi.

Bu kabi maqollar sajʼda yozilgan boʻlib, ularda nasr boʻlaklari oxiridagi soʻzlar sheʼrdagi qofiya kabi boʻladi, yaʼni oʻzaro lafzdosh soʻzlardan tashkil topadi. Bu lafzdoshlik oʻz navbatida yana boshqa bir sanʼat tajnisga asoslangandir. Yuqoridagi maqollarda “tilakda-bilakda”, “mehnat-rohat” soʻzlari oʻzaro tajnis hosil qilgan boʻlsa, “hunar, hunardan unar”, “harakat, harakatda barakat” maqollaridagi barcha soʻzlar lafzdoshdir.

Ushbu maqollarda ishtiyoq sanʼati bor: “qadrli narsaning qadri qoʻldan ketgach bilinadi”, “oq qoptol ot Otboshi oʻtin oʻtlamas”. Ishtiyoqda oʻzakdosh soʻzlar orqali sanʼat hosil qilinadi [3] va bu sanʼatni misollardagi “qadrli-qadri”, “ot-Otboshi”, “oʻtin-oʻtlamas” soʻzlar juftligida koʻrish mumkin.

Muqobala sanʼati ham koʻplab xalq maqollarining asosini tashkil qiladi. “Muqobala “qarshi kelish” maʼnosini ifodalaydi va sheʼr

baytlarida bir-biriga zid tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarni keltirib ular vositasida muayyan bir gʻoya, fikrni taʼsirchan ifodalash sanʼati sanaladi” [6:57] “koʻpga yugurgan - ozdan quruq qolar”, “vaʼdaga vafo – mardning ishi, vaʼdasiz – subutsiz kishi”, “doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib” maqollari shular jumlasidandir. Bu misollarda muqobala “koʻp-oz, yugurgan-quruq qolar”, “vaʼdaga vafo-vaʼdasiz, mard-subutsiz”, “doʻst-dushman, achitib-kuldirib” juftliklarida koʻrinadi.

Muqobala sanʼati feʼllarning boʻlishli va boʻlishsiz shakllarini keltirish bilan ham yuzaga chiqishi mumkin. “mol saqlama, or saqla”, “yurt qoʻrisang oʻzarsan, qoʻrimasang toʻzarsan” [5]. Mazkur maqollardagi “saqlama-saqla”, “qoʻrisang-qoʻrimasang” soʻzlarining qoʻllanishi maqollarning mazmunan boyishi va maʼnan teranlashuviga hizmat qilgan.

Maqollarda arab balogʻatida bayon, fors va turk balogʻatida maʼnoviy sanʼatlarga kiruvchi kinoyani ham koʻplab uchratishimiz mumkin. Kinoyada biror fikr yashirin ifoda etiladi [6:58]. Masalan, dangasa, tanbal kishilarga nisbatan “hayosizga har kun hayit”, faqat bugunning rohatini oʻylab ish qiladiganlarga “hozirim – huzurim”, boʻshang, yuraksiz odamlarga qarata “hoʻk desa – hoʻk, choʻk desa – choʻk” maqollari kinoya tarzida aytilgan.

“Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi”, “vaqt togʻni yemirar, suv toshni kemirar”, “besh qoʻl ogʻizga sigʻmas” [5] kabi maqollar esa majoz sanʼati qoʻllanganligi bilan ajralib turadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan sanʼatlardan tashqari “ish seni yengmasin, sen ishni yeng” maqolidagi “ish seni – sen ishni” kabi tardu aks, “yolgʻiz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongʻi chiqmas” maqolidagi “changi chiqmas – changi chiqsa ham” [5] kabi rujuʼ va boshqa koʻplab sanʼatlar maqollarning toʻliq shakllanishiga asos boʻlgan.

Xalq maqollarining har birida bir nechtadan san'at mujassamlangan bo'lib, ularning uyg'unligi maqolga ixchamlik, mazmundorlik, lafziy go'zallik va badiiy jilo bag'ishlaydi. Masalan: "Yaxshi odam o'ynab-kulib kechirar, yomon odam qon-u zardob ichirar" maqoli majozga asoslangan bo'lishi bilan birga unda qo'langan "yaxshi-yomon, o'ynab-kulib kechirar-qonu zardob ichirar" juftliklari muqobala san'atini hosil qilgan. "Oqqan ariq oqmay qolmas" maqoli ham majozga asoslangan, shu bilan birga "oqqan-oqmay" so'zlarida ishtiyoq san'ati mavjud. Hayot uchun muhim bo'lgan chuqur ma'noli ma'lumotning shu tariqa sayqallangan shaklda yetkazilishi uning kishilar ongiga tez va oson singib, davrlar osha yashab qolishida katta ahamiyat kasb etadi.

Aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, maqollar xalqning, xususan yoshlarning ma'naviy va estetik kamolotini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyovuddinova M. Yusuf as-Sakkokiy va uning "Miftoh al-ulum" asari // Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. ToshDSHI, 2005. – B. 177-181.

2. Rustamiy S. [On significance of science of Balāğat in achieving linguisticaesthetic perfection](#). The Light of Islam. № 4. 2019. – P. 14

3. Rustamiy S. [Sharq mumtoz adabiyotida balog 'at ilmining o 'rni](#). Scientific progress. № 1. 2020. – Pp. 94-100.

4. Gulomova H., Rustamiy S., Lutfullaeva D. (2020) The importance of balagha science in aesthetic education. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. № 17(6). 2020. – Pp. 8882-8886.

5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma (o'zbek maqollarining izohli lug'ati). – Toshkent, 1990

6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.

FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA MIQDOR-DARAJA HOLINING SEMANTIKASI

*Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna,
Oriental universiteti professori v.b., DSc*

Annotatsiya. Fors tilida hol kategoriyasi, xususan miqdor-daraja holi, eng kam o‘rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Hozirgi zamon fors tili grammatikasi, xususan, so‘z turkumlari, ularning gapdagi vazifalari va o‘zaro sintaktik munosabatlari hali Eron tilshunoslari tomonidan ham, Erondan tashqari mamlakatlardagi tilshunoslar tomonidan ham mukammal o‘rganilmagan. Shu kungacha mamlakatimiz va rus eronshunoslari tomonidan fors tili grammatikasining turli masalalari bo‘yicha qator ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, mazkur maqola mavzusi bo‘yicha o‘zbek eronshunosligida alohida ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu jihatdan ushbu mavzu fors tili grammatikasida maxsus o‘rganilmagan gap bo‘laklari turi miqdor daraja holining hozirgi zamon fors tili sistemasidagi o‘rni va qo‘llanish ko‘lamini aniqlashga yo‘naltirilgani bilan dolzarbdir.

Kalit so‘zlar: sintaksis, morfologiya, gap bo‘laklari, hol kategoriyasi, miqdor-daraja holi, fors tili, o‘zbek tili

Fors tilida hol kategoriyasi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Biroq A.Arendsning “Краткий синтаксис современного персидского литературного языка”, L.S.Peysikovning «Вопросы синтаксиса персидского языка», Y.A.Rubinchikning «Грамматика современного

персидского литературного языка» kitoblarida hol kategoriyasiga oid umumiy ma'lumotlar o'rin olgan. Shuningdek, G.Sh.Maxmudovning «Проблема структурных типов и членов простого предложения современного персидского языка» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi, shu bilan birga D.Ahmedovaning “Форс тилида тарз холининг структур ва семантик таснифи” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida ikkinchi darajali bo'laklar, shu jumladan, hol haqida diqqatga sazovor fikrlar bor. Fors tilshunos olimlarining asarlarini o'rganish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, Eroniy tillar bo'yicha amalga oshirilgan gap bo'laklarini tasniflash prinsipi o'zbek tilidagi tasnifdan biroz farq qiladi. Miqdor-daraja holi hozirgi o'zbek adabiy tilida xilma xil ma'nolarni bildiradi, shuningdek ifodalanishi jihatdan ham turlicha. Professor A.N.Kononov [5:362] va A.G'.G'ulomov ishlarida [6], miqdor-daraja holining ifodalanishi va ma'nosi qisqa tarzda bayon etilgan.

Fors tilida miqdor-daraja holining ifodalanishi to'liq yoritilgan biror manba mavjud emas. Faqat Yu.Rubinchikning “Грамматика современного персидского литературного языка” asarida [7:460] juda qisqa ta'rif keltirilgan holos. Miqdor daraja-holi holning boshqa turlaridan tubdan farq qiladi. Miqdor holi, odatda, kesimdan ish-harakatning miqdorini, darajasini, shuningdek, ish-harakatning hajmini, payt yoki og'irlik miqdori kabi ma'nolarni bildiradi. Sube'kt voqelikka nisbatan turli xil munosabatda bo'ladi. Bu hol turi mana shu munosabatning to'g'ri aks ettirilishi jihatidan bir qancha ko'inishlarga ega. Masalan, sanov-o'lchov, o'lchov-daraja, kuchaytiruv, takror kabi ma'nolarni anglatuvchi miqdor holi. Quyida bu semantik guruhlariga batafsil to'xtalamiz.

Sanoq-o'lchov ma'nosini anglatuvchi miqdor holi (sanov-o'lchov holi). Hayotiy zaruriyat natijasida predmetlar sanaladi, o'lchanadi. Mana shu sanov-o'lchov belgilarini ifodalovchi so'z ot bilan

grammatik aloqaga kirsan aniqlovchi, fe'l bilan grammatik aloqaga kirsan hol vazifasini bajaradi: *Ikki qog'ozni buklad. Qog'ozni ikki buklad. Uch kilo ko'k choy oldi. Ko'k choydan uch kilo oldi.*

Sanov-o'lchov holi miqdor anglatish jihatidan real va nisbiy miqdorni ko'rsatadi. Real sanov-o'lchov holi harakat-holatning qancha bajarilganligini miqdor holining boshqa turlarga nisbatan real ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu hol harakat-holatning belgisini anglatadi va چند qancha? چند necha? چند بار necha marta? چند كيلو necha kilo? چند necha soat? چند متر necha metr? چه قیمتی necha pulga? necha so'mga? kabi bir qancha so'roqlarga javob bo'ladi.

Sanoqni bildiruvchi hollar. Sanoqni bildiruvchi hollar harakat yoki holatning necha marta bo'lganligini, umuman sanoqni ko'rsatadi. Bu xil hollar *bir, ikki* kabi sonlar yoki shu sonlarning numerativ so'zlar bilan kelishidan hosil bo'ladi. Oldingisiga qaraganda keyingisi ko'p uchraydi: *Zokir qo'lidagi qog'ozni ikki buklab cho'ntagiga soldi (5:47).*

مجید از این ماهیها یک تا گرفت “*Majid bu baliqlardan bittasini oldi*”.

Og'irlikni bildiruvchi hollar. Og'irlikni bildiruvchi hollar harakatning biror pribor-narsa (masalan, tarozi) bilan o'lchanadigan predmetlarga xos belgisini ko'rsatadi, predmet holati belgisini esa ko'rsatmaydi. Og'irlikni bildiruvchi hollar o'timli fe'l bilan ifodalangan kesimlar yoki o'timlilik holatini saqlagan boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kiradi. Bu hollar sanoq sonlarning گرام gramm, كيلو kilo, تن tonna, لیتر liter, کاسه kosa, پیاله piyola, قاشق qoshiq, ستل chelak, دست hovuch, سبد savat, جعبه yashik, ماشین mashina, واگون vagon kabi so'zlar bilan kelishidan hosil bo'ladi: *U ikki-uch hovuch tutni og'ziga tiqdi-yu, yana bir hovuch terib, juvonga o'girildi (8:19).*

Og'irlikni bildiruvchi hollar takror so'zlardan ham bo'ladi. Masalan: *Surmaday qilib tortilgan bahori bug'doy undan a'zolarimiz qop-qop oldi (8:35).*

(1:141) مادرشوهرم یک سبد بادمجانهارا روی میز آشپزخانه گذاشت
“*Qaynonam bir savat baqlajonni oshxona stoli ustiga qo ‘ydi*”.

Narx-navoni bildiruvchi hollar. Narx-navoni bildiruvchi hollar harakatning narx, ekvivalentlik kabi belgilarini anglatadi va *qancha?*, *necha pulga?*, *necha so ‘mga?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Bu hol sonning *tiyin, tanga, so ‘m*, fors tilida esa *تومان, ریال* kabi so‘zlar bilan kelishidan hosil bo‘ladi: *Ikki yuz so ‘mga katak daftar, ming so ‘mga yumshoq qora qalam oldim. O ‘n besh ming so ‘m to ‘ladi.*

(1:65) *Nasim o ‘zi uchun* “*Nasim o ‘zi uchun* نسیم برای خود شش صد ریال از پدرم گرفت
otamdan olti yuz riyol oldi”.

Bu birikma o ‘zbek tilida chiqish kelishigi formasida kelib, *ko ‘p, ortiq, ziyod, oz, mo ‘l, kam* so‘zlari, fors tilida esa *از, بیشتر, کم* so‘zlari bilan ham qo‘llanadi.

Ikki ming so ‘mdan ziyodroq to ‘ladi.

(1:65) *Farid bu* “*Farid bu* فرید بیش از هفت هزار تومان به این سرویس طلا پرداخت.
tilla taqinchoq uchun yetti ming tumandan ko ‘proq pul to ‘ladi”.

Muddatni anglatuvchi hollar. Muddatni anglatuvchi hollar harakat yoki holatning paytga bog‘liq belgisini ko‘rsatadi va *qancha?*, *qanchagacha?*, *necha soat?*, *necha kun?*, *necha oy?*, *necha yil?*, *necha asr?* kabi so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bu hollar sonning *minut, soat, kun, hafta, asr* kabi so‘zlar bilan kelishidan hosil bo‘ladi: *Onaxon ikki kecha ko ‘ziga uyqu olmadi (8:12). E ‘zozxon Botiralini ucha hafta ko ‘rmadi (8:98).*

(1:15) *Bir haftagacha do ‘stlarim* “*Bir haftagacha* یک هفته دوستانم و فامیلها تلفن میزدند
va qarindoshlarim qo ‘ng ‘iroq qildilar”.

Masofani anglatuvchi hollar. Uzoq-yaqinlik, uzun-qisqalik kabi belgilarni ko‘rsatuvchi hollar harakatning metr o‘lchoviga asoslangan belgisini ifoda etadi. Bu hol ham holat belgisini ko‘rsatmaydi. Uzoq-yaqinlik, uzun-qisqalik belgisini ko‘rsatuvchi hollar *santimetr*,

metr, kilometr, gektar kabi soʻzlarning son bilan birikib kelishidan hosil boʻladi. Bu soʻzlarning baʼzilari oʻrni bilan son bilan birimasdan ham hol vazifasini bajaradi: *Ikki yarim kilometr*dan koʻproq yayov yurib, manzilga yetdik (8:24). *انها پنجاه كيلومتر راه رفتند* (2:54) “*Ular ellik kilometr yoʻl yurdilar*”.

Nisbiy miqdor holi. Ikkinchi guruhga kiruvchi sanoq-oʻlchov holi (miqdorni nisbiy koʻrsatuvchi hol) harakat-holat belgisini nisbiy koʻrsatadi, yaʼni soʻzlovchi yoki yozuvchi harakat-holat belgisini boshqa biror voqelikka nisbatan belgilaydi. Bunda ham reallik bor, lekin bu reallik biror boshqa voqelikka qarab belgilangan nisbiy reallikdir. Nisbiy miqdor holi harakat yoki holatning sanoq, ogʻirlik, narx-navo, muddat, uzoq-yaqinlik, uzun-qisqalik kabi raqam bilan atalmaydigan belgisini ifoda etadi. Bu belgilar moʻllik, kamlikdan iborat. Moʻllikni *koʻp*, *ancho*, *orttiirib*, *ortigʻi bilan*, *oshirib*, *oshigʻi bilan* kabi soʻzlar, soʻz birikmalari koʻrsatsa, kamlikni *oz*, *picha*, *oxrde ay sal*, *sal-pal*, *bir oz*, *uncha-muncha*, *oxrdxord* “oz-ozdan”, *yxkhoa*, *qittak*, *jinday*, *jindakkina* singari soʻzlar, soʻz birimalari koʻrsatadi.

Men siz haqingizda koʻp eshitganman (5:86). *بايد کمی آب ميخوردم* (1:11) “*Ozgina suv ichib olishim kerak edi*”.

Oʻrni bilan oʻzbek tilida *yaxshi*, *yomon* kabi sifatlar ham nisbiy miqdorni koʻrsatib keladi: *Yaxshi yordam bedi*. *Katta yordam berdi*. *Qodir koʻp ishladi*, *siz ham yaxshi ishladingiz*.

Oʻlchov-daraja maʼnosini anglatuvchi miqdor holi (oʻlchov-daraja holi). Oʻlchov-daraja holi harakat yoki holatning miqdor belgisini darajalab koʻrsatadi, harakat-holatning qay darajada bajarilganini aniqlaydi. Bu mazmun va ifodalanish materialiga qarab *qancha?*, *qanchalik?*, *qanday darajada?*, *qay darajada?*, *kim darajasida?* *kimcha?* kabi soʻroqlarga javob boʻladi. Oʻlchov daraja holi mazmunan quyidagi turlarga boʻlinadi:

- Bir kishining xususiyati darajalab ko'rsatiladi: Qo'lidan kelgancha yordam beradi. Savollaringizga bilganimcha javob beraman.

- Bir kishining xususiyati, harakati ikkinchi bir kishining xususiyati bilan darajalanadi: Mencha biladi. Sencha bilmaydi.

- Kishining biror harakati, xususiyati boshqa bir predmet xususiyati bilan darajalanadi: Maktab programmasi hajmida biladi. Oliy o'quv yurti programmasi darajasida bilamiz.

O'lchov-daraja holida qiyoslash tushunchasi ham bor, ya'ni harakatning miqdor belgisi qiyoslash yo'li bilan darajalanib ko'rsatiladi. Nima bilan qiyoslanish o'lchov daraja holida ba'zan aniq seziladi, masalan, yuqoridagi uch punktda. Ba'zan esa u aniq sezilmaydi: Qo'lyozmaning xuddi ana shu qismi hozir ham juda va mislsiz darajada qiziqtirarlidir. Ma'lum darajada yordam berdi. Beqiys darajada yordam berdi.

O'lchov-daraja holi vazifasida ko'pincha mencha, bilgancha (bilganicha), o'lguday kabi daraja ravishlari, qancha, shuncha kabi olmoshlar, tarkibida daraja so'zi bo'lgan birikmalar qo'llanadi: U sho'xlikni qancha bilsa, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvatni ham shuncha bilar edi (7:38).

Fors tilida miqor-daraja hollari ish-harakat bajarilishining qiyoslanishini anglatib kelish hollari ko'p uchraydi. Bunday miqdor-daraja hollari ish-harakat bajarilishi yoki holatining oldingi holat bilan keyingisini qiyoslash orqali ko'rsatadi.

گل خانم وحشتزده تراز بیش فریاد کشید (3:44) "Gul xonim oldingidan ham dahshatliroq baqirdi".

To'plagan materiallarimiz shuni ko'rsatdiki, fors tilida miqdor-daraja hollari qiyoslanish ma'nosini anglatib kelganda, ish-harakat yoki holatni oldingi holat bilan keyingisini qiyoslash orqali ko'rsatishdan tashqari, harakat belgisining mavhumlashtirilgan holda kuchayganligi yoki kuchsizlanganligini ko'rsatadi.

عباس صدای گریه اشرا بلندتر کرد (1:223) “*Abbos qattiqroq yig‘lay boshladi*”.

ریزش قطرات باران تندتر شده بود (3:24) “*Yomg‘ir yog‘ishi tezlashgandi*”.

Kuchaytiruv ma‘nosini anglatuvchi miqdor holi (kuchaytiruv holi). Bunday miqdor-daraja holi kesimdan anglashilgan ish-harakatning ortiqligini ifoda etadi. Bu hol harakat yoki holatning og‘irlik, narx-navo, uzoq-yaqinlik, uzun-qisqalikka oid miqdor belgilarini kuchaytirib ko‘rsatadi. Shuningdek, u ish-harakatning kuchli darajasini bildirishi mumkin. Bunday hollarda miqdor-daraja holi *nihoyatda, juda, g‘oyat, aslo, hech, sira, behad* kabi ravishlar bilan ifodalanadi. “O‘zbek tili” kitoblarida miqdor-daraja holi “*ish-harakatning bajarilishini miqdor va daraja jihatdan aniqlaydi*” degan umumiy ta‘rif beriladi, xolos. Vaholangki, miqdor-daraja holi daraja jihatdan kuchayish va kuchsizlanish ma‘nolarini bildiradi. Miqdor-daraja holi kuchayish ma‘nosini quyidagi yo‘llar bilan ifodalashi mumkin:

a) tasdiqlash yo‘li bilan. Bunday miqdor-daraja holi odatda, *juda, juda (ham), biram, qattiq, nihoyat (da), nihoyat, zo‘rg‘a, nax, g‘oyat (da), g‘oyat, yurakdan, ich-ichidan, butun vujudi bilan, chunon* kabi so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalaniib, ular o‘timli fe‘l bilan ifodalangan kesimga bog‘lanadi: *Aziz do‘stim, seni juda-juda ko‘rgim keladi, sog‘indim.*

Badiiylik, obrazlilik yaratish maqsadida ba‘zi bir so‘zlar ko‘chma ma‘noda qo‘llanib, miqdorni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Ishq seli ko‘zlarimda oz emas, daryocha bor, Yor mehri dilga sig‘mas, hasrati dunyocha bor.*

Fors tilida “*ravish+sifat*” tarkibli birikmalar orasida خلی “*juda*” ravishi bilan birikib kelgan birikmalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bular miqdor-daraja holini ifodalab kelganda, miqdor belgisini kuchaytirib ko‘rsatishini quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin: آقا خلی خشک

جواب سلام آقا رضا را از مخرج ادا کرد
o'ta quruq alik oldi”;

b) inkor yo'li bilan. Mazkur miqdor-daraja hollarinig xarakterli xususiyati shundaki, ular bo'lishsiz fe'l bilan ifodalangan kesimga tobe' bo'ladi. Bunday miqdor-daraja hollari *aslo, hech, sira, mutlaqo* va boshqa ravishlar bilan ifodalanadi: *Sher Durrotga qarab: “Sen xotirjam bo'l, men senga butlaqo zarar yetkazmayman, dushmanlik qilmayman...”* (Navoiy)

Miqdor-daraja hollari kuchsizlanish ma'nosini ham bildiradi. Bunday miqdor-daraja hollari kesimdan anglashilgan ish-harakatning ma'nosini kuchsiz, kam yoki past darajada ekanligini bildiradi va ular *arang, xiyla, xiyol, bazur, sal* kabi ravishlar bilan ifodalanadi. Fors tilida *بزحمت* “zo'rg'a”, *بزور* “*kuch bilan*”, *بسختی* “zo'rg'a” kabi ravishlar kuchsizlanish ma'nosini anglatadi.

نسیم بسختی سرشرا بلند کرد
“*Nasim zo'rg'a boshini ko'tardi*”.

Mavzu bo'yicha olib borilgan tahlillar quydagi xulosalarni keltirib chiqardi: Miqdor-daraja holining ifodalanishi ham xilma-xil. Lekin o'zbek tilida fors tiliga nisbatan miqdor-daraja holini ifodalovchi vositalar xilma xilligi bilan ajralib turadi. O'zbek va fors tillarida miqdor-daraja holi anglatuvchi semantik ma'nolar deyarli bir-biridan farqlanmaydi. Faqat ularni ifodalovchi vositalar o'rtasida farq kuzatiladi. Miqdor holi harakat yoki holatning bajarilish miqdorini ko'rsatadi. Bu hol turi harakat-holatning miqdor belgisini o'lchab, kuchaytirib, darajalab ko'rsatadi, shuningdek takroni ham bildiradi. Hol vazifasida kelgan dona, chama, taqsim, jamlovchi sonlar *bo'lib* so'zi bilan qo'llanadi. Sonning hol vazifasida qo'llanishida *marta, karra, juft, nafar, nusxa, to'p, tup* singari to'da yoki donani va shulardek masofa, uzunlik, og'rlik kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zlarning roli kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. تکين حمزه لو. افسون سبز. - تهران، ۱۳۷۱
2. مهين تولى. ويولون شكسته. - تهران؛ ۱۳۷۶
3. Ахмедова Д. Форс тилида тарз холининг структур ва семантик таснифи: Филол.фан.номзоди...дисс. –Тошкент, 2011.
4. Ахмедова Д. Форс тилида хол категорияси. Монография. – Тошкент: 2019
5. Кононов А. Грамматика современного узбекского литературного языка, М. – Л., 1960. – стр.362.
6. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература РАН, 2001. – 600 б.
7. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент:Ўқитувчи, 1987.

ARAB TILIDAGI DIAKRITIK BELGILARNING TARIXI HAQIDA

*Sultonbek Boltaboyev,
Oriental universiteti katta o‘qituvchisi*

Arab tilidagi diakritik belgilarning yuzaga kelishi o‘rta asrlarga borib taqaladi. Arablarning grammatik sistemasiga o‘sha davrlardayoq asos solingan va bu Qur’oni Karimning dastxat qilinishi bilan uzviy bog‘liq. Chunki islom dinining tarqalishi, Qur’onning muqaddas kitob sifatida turli arab qabilalari va arab bo‘lmaganlar tomonidan o‘rganilishi til haqidagi ilm bo‘lishini taqozo qildi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha xalifa Ali ibn Abu Tolib (Alloh u zotdan rozi bo‘lsin) Qur’on o‘qiyotgan bir kishining oldidan o‘ta turib, uning quyidagicha o‘qiyotganini eshitib qoldi:

أَنَّ اللَّهَ بَرِيءٌ مِنَ الْمُشْرِكِينَ وَرَسُولِهِ (Tavba surasi, 3 oyat).

Bundan: “Alloh mushriklardan va o‘z payg‘ambaridan bezordir” degan ma’no kelib chiqadi. Bu islom aqidasi va Qur‘on matniga mutlaqo to‘g‘ri kelmas edi. Aslida **وَرَسُولُهُ** so‘zi **وَرَسُولِهِ** deb o‘qilishi kerak edi. Shunda: “Alloh va uning payg‘ambari mushriklardan bezordir” (tarjima Alovuddin Mansurniki) degan ma’no kelib chiqadi.

Shunda xalifa Ali (Alloh u zotdan rozi bo‘lsin) “Men bunchalikka borishini hech o‘ylamagan edim” deb, o‘z oldiga o‘sha zamonning allomasi

أَبُو الْأَسْوَدِ الدُّوَلِيِّ – Abu – l – Asvad ad Dualiyni chaqirib: “Sen til haqida bir ilm yaratgin, uning asosiy qonun – qoidalarini ta’riflab bergin, masalan:

الْكَلِمَةُ: إِسْمٌ وَ فِعْلٌ وَ حَرْفٌ وَ نَحْوُهُ – So‘zlar: ism, fe‘l yoki harflar bo‘ladi va shu kabi “davom etgin”, deydi.

Abu – l -Asvad ad - Dualiy va boshqa tilshunoslar ana shu **نَحْوُهُ**ni, jumladan, diakritik belgilarni ham ishlab chiqadilar. Shundan grammatika ilmi “an – nahvu” deb atala boshlagan.

Bu haqda yaqinda internet ijtimoiy tarmog‘ida "ظُهُورُ عِلْمِ النَّحْوِ" sarlavhasi ostida quyidagi ma’lumot paydo bo‘ldi, unda Abu – l -Asvad ad -Dualiyning to‘liq nomi ham aytib o‘tilgan:

أَوَّلًا: ظُهُورُ عِلْمِ النَّحْوِ عِلْمِ الْأَعْرَابِ، وَ النَّقَاطِ الْأَعْجَامِ:
أَبُو الْأَسْوَدِ ظَالِمُ بْنُ عَمْرٍو الدُّوَلِيُّ، وَ تَلْمِيذَاهُ: نَصْرُ بْنُ عَاصِمٍ وَ عَبْدُ الرَّحْمَنِ بْنُ هُرْمُزٍ.
وَ ضَعَّ الدُّوَلِيُّ عِلْمَ الْأَعْرَابِ.
وَ ضَعَّ نَصْرُ بْنُ عَاصِمٍ أَوْ يَحْيَى بْنُ يَعْمُرٍ لِنُقَاطِ الْأَجَامِ.
تَفْسِيْمُ نَصْرُ بْنُ عَاصِمٍ آيَاتِ الْقُرْآنِ الْكَرِيمِ.

Ya’ni: Birlamchi: Arabcha so‘zlarning kelishik qo‘shimchalari va arab alifbosidagi harflarning diakritik nuqtalarining paydo bo‘lishi.

Abu – l- Asvad Zolim bin Amru ad-Dualiy va uning ikki izdoshi (o‘quvchilari) Nasr bin Osim va Abdurahmon bin Hurmuzlardir.

Ad-Dualiy Qur‘oni Karimga kelishik qo‘shimchalarini qo‘ygan.

Nasr bin Osim yoki Yahyo arab alifbosidagi harflarning diakritik nuqtalarini qo‘ygan.

Nasr bin Osim Qur‘oni Karim oyatlarini juzlarga (ya‘ni 30 poraga) taqsimlab chiqqan.

Bu haqda yana marhum ustozlarimizdan, professor Mutallib Usmonov o‘zining “Qur‘oni Karim va janobi Rasulullohning amallari” nomli risolasida shunday yozadilar:

“Qur‘on suralarini to‘plash va dastxat qilish xalifa Usmon ibn Affon davrida tugallangan edi. Ummaviylar davrida esa, faqat bir marotaba Qur‘on matniga harflarning ustiga va ostiga qo‘yiladigan **nuqtalar, unli tovushlar** va o‘qish uslubi bilan bog‘liq bo‘lgan belgilar qo‘yib chiqilgan...

... ilgaridan o‘z ixtiyori bilan suralarni yozib yurgan va alohida to‘plam qilib olgan ayrim kishilar qo‘lidagi nusxalarning xalifalikning ayrim shaharlarida o‘qish va ibodatlarda ulardan foydalanish kengayib borgan sari ana shu nusxalar orasidagi (yuqoridagi kabi) tafovut sezilib qolgan. Ilohiy kitobda kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan xilma – xillik va tafovutlarning oldini olish maqsadida xalifa Usmon ibn Affon 651 yilda barcha mavjud dastxatlarni to‘plab, taqqoslab chiqish va ular asosida Qur‘onning yagona nushasini tayyorlashga amr bergan va o‘zi bu ishga bevosita boshchilik qilgan.

...Ayrim tadqiqotlarda Qur‘onning oxirgi tahriri Ummaviylar xonadonidan bo‘lgan xalifa Abdu – l – Malik hukmronlik qilgan davrda (685 – 705) amalga oshirilgan degan fikr ham uchraydi. Lekin aslida bu tahrir emasdi. Ana shu davrgacha Qur‘on matniga arab yozuviga xos bo‘lgan **qisqa unlilarning** belgilarigina emas, balki harflarning ustiga va ostiga qo‘yiladigan nuqtalar ham amalda bo‘lmagan va bu hol kitobning o‘qilishi va tushunilishida nomuvofiqlik tug‘dirar edi. Shuning uchun bu davrda Iroq hokimi bo‘lgan al -Hajjoj ibn Yusuf (hukmronlik davri 694 – 714 – yillar) Qur‘on matnining o‘qilishidagi chalkashliklarga

xotima berish maqsadida ana shunday nuqtalar va **belgilarni** qo'yib chiqishni buyurgan.

Tarixiy ma'lumotlar bo'yicha, **unli belgilar va diakritik belgilarni** ijod etgan va al – Hajjoj buyrug'i bilan Qur'on matniga qo'yib chiqqan adib Abu – l - Asvad ad – Dualiy bu ishni 697 yilda tugallagan. Demak bu aslida faqat **unli harf belgilarini va nuqtalarni** qo'yish bilan bog'liq ish bo'lgan va bu vaqtda Qur'on matniga qandaydir o'zgartirish kiritish imkoniyati bo'lmagan”...

... Bundan tashqari, Al – Hajjoj islohlarda Qur'on matniga uni o'qish qoidalari bilan bog'liq bo'lgan **belgilar ham** qo'yilgan va shu munosabat bilan uni qiroat qilish usullari ham qonunlashtirilgan.

Demak, diakritik belgilarni yuzaga kelish jarayoni ana shu tariqa kechgan. Arablarning o'zlari mazkur belgilarni: damma, fatha, kasra, sukun, tanvinlar, shadda, madda, vasla kabi belgilarni xuddi tirik a'zolardek qabul qilganlar va bularsiz arabcha matnlarni o'zlashtirish mushkuldir.

Arab tiliga xos bo'lgan diakritik belgilarni, zamonaviy o'zbek tilidagi tinish belgilariga bir oz taqqoslash mumkin. Vaholanki o'tgan asr boshlarigacha bo'lgan barcha ilmiy va badiiy asarlarda , turkigo'y shoirlar ijodlarida ham nuqta, vergul, ikki nuqta, tire, qo'shtirnoq, so'roq va undov belgilari, qavs, paragraf va shunga o'xshash belgilar amalda bo'lmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova M., Abdurahmonov X. O'zbek tili grammatikasining praktikumi. –T.: O'qituvchi. 1972.

2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili.-T.: O'qituvchi. – 1970.

3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.-1997.

4. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М.: Восточная литература.2-издание.-1998.
5. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. -М., 2-издание.-1987.
6. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. “Toshkent islom universiteti” nashriyoti – 2001.
7. انطوان الدحدح " معجم لغة النحو العروبي" مكتبة لبنان ناشرون 1993م.
8. أحمد قبث " الكامل في النحو و الصرف و الاعراب" دمشق. بيروت. 1986.
9. شرح الانموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الاردبيلي. مكتبة الاداب. مصر. القاهرة. 1990
10. عبدالعزيز محمد فاخر " توضيح النحو" مصر. الازهر. القاهرة. الجزء الثالث. 1996
11. عبد القاهر الجرجاني مئة عامل .
12. المنجد في اللغة و الاعلام . دار المشرق . المكتبة الشرقية . بيروت . لبنان. 1987.
13. القرآن الكريم.
14. احمد محمد طاحون " من وصايا الرسول صلي الله عليه و سلم خمس و الصعودية. خمسون وصية"
15. Mutallib Usmonov. Qur’oni Karim va Janobi Rosulullohning amallari. – T.: O‘qituvchi. 1993.

ARAB TILIDA “UYADOSH” SO‘ZLAR

Maxmudova Diyora Jamol qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada arab tilida tarkibidagi birinchi va ikkinchi harflari bir-biriga o‘xshash bo‘lgan uyadosh so‘zlar tadqiq qilinib, mavzu misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: feʼl, tovush, tovush maxraji, harakat, maʼno kuchayishi, zid maʼno, aniq va majhul nisbat sifatdosh shakllari.

Jahon tillari ichida oʻziga xos til qurilish sistemasiga ega boʻlgan arab tili oʻzining grammatik, leksik xususiyatlari bilan koʻplab tilshunos tadqiqotchilarning eʼtiborini jalb qilib kelmoqda. Maʼlumki, arab tili dunyo tillari oilasining somiy tillar guruhiga kirib, bu guruhga kiruvchi tillarda aksariyat soʻzlar uch undosh harfli oʻzakdan hosil boʻladi. Oʻzagi uch harfdan iborat arabcha hosila soʻzlarning koʻpchilik qismi kengaytirilgan asosga, toʻrt harflilari esa sodda asosga ega. Arab tilida soʻzlar asosan feʼl oʻzakdan yasilib, dastlabki ikki harfi bir xil boʻlgan soʻzlarda semantik jihatdan oʻxshashlik kuzatiladi. Masalan, *نب* *nb* uyasi asosida yasalgan feʼllar nimaningdir ichidan yuqoriga yoki tashqariga sodir etilgan harakat maʼnosini anglatadi:

نَبَا – “koʻtarilmoq”, “balandlashmoq”, “oshmoq”

نَبَت – “oʻsimoq”

نَبَس – “tashlab yubormoq”

نَبَج – “tashqariga chiqmoq”

نَبِيخ – “koʻtarilmoq” (xamir haqida)

نَبِر – “ulgʻaymoq”

نَبِض – “urib turmoq” (yurak haqida).

فِر uyasidan hosil qilingan feʼllar har tarafga qarab sodir etilgan harakatni anglatadi:

فِرَج – “yormoq”, “maydalamoq”, “parchalamoq”

فِرْد – “ajratmoq”

فِرْس – “gʻajib tashlamoq”, “burda-burda qilmoq”

فِرْك – “maydalamoq”, “surkamoq”, “uqalamoq”

فِرْم – “maydalamoq”, “burdalamoq”.

قِت *qt* uyasidan yasalgan soʻzlar “kesmoq”, “qirqmoq”, “uzmoq”, “yirtmoq” degan maʼnolarni bersa, *فِل* *fl* uyasi yordamida yasalgan

soʻzlar “kesib ajratmoq” yoki “boʻlmoq” maʼnolarini anglatadi, فخ *fx* uyasi esa “esmoq”, “esib turmoq” maʼnolarini ifodalaydi [1;30].

Klassik arab tilshunoslaridan Ibn Jinniy ham ikki tovushi oʻxshash, uchinchi bilan farqlangan baʼzi soʻzlarning maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlishini qayd etgan. Ibn Jinniy, agarda ikki turli xil tovush maxraji yoki tovush sifati jihatidan bir-biriga yaqin boʻlsa, bunday soʻzlarni “تعاقب الألفاظ لتعاقب المعاني” – “Maʼnolar ketma-ketligida soʻzlarning almashinuvi” bobiga kiritgan [4;147]. Quyida uning bu bobda keltirgan baʼzi misollari keltirilgan:

“العجز: خفة و طيش و قلق يعرض للإنسان، و قالوا: العلوّص لوجع في الجوف يلتوي له الإنسان و يقلق منه، فذاك من (ع ل ز) و هذا من (ع ل ص) و الزاي أخت الصاد”
“العجز” inson boshidan oʻtkazuvchi uyqusizlik, fahm-farosatsizlik, yengil tabiatlikni bildiradi; ular “العلّوص” deb, insonning uyqusiz boʻlib, bukchayib qoladigan darajada och qolishiga aytganlar; dastlabki soʻz ع، ل، ص harflaridan tashkil topgan boʻlgan boʻlsa, bunisi ع، ل، ص harflaridan iboratdir, “za” harfi esa “sod” ning opasidir [4;150].

“العجز” hamda “العلّوص” soʻzlari umumiy “uyqusizlik” maʼnosini kasb etsada, “العجز” ga nisbatan “العلّوص” soʻzi qattiq och qolganidan uxlay olmaydigan inson holatini ifodalaydi.

“العين أخت الهمزة كما أن الأسف يعسف النفس و ينال منها و الهمزة أقوى من العين كما أن أسف النفس أغلظ من التردد بالعسف”

“Afsus-nadomat jonni ezib, unga zarar yetkazgani kabi aʼyn hamzaning singlisidir; jonning afsus-nadomat chekishi takror ezilmoqdan koʻra, uni qiyinroq ahvolga solgani kabi hamza ham aʼyndan kuchliroqdir” [4;148].

“الأسف” soʻzi “afsus-nadomat” maʼnosini anglatsa, “العسف” esa “qiyin ahvolga tushish” maʼnosini bildiradi. Oʻzbek tilidagi ushbu ikki soʻzning semantik maʼnosi solishtirilsa, “qiyin ahvolga tushish” dan koʻra “afsus-nadomat” insonning ruhiy holatiga kuchliroq taʼsir koʻrsatishi maʼlum boʻladi.

Zamonaviy davr arab tilshunosi S.A. Janabiy "الاشتقاق عند ابن جني" asarida harflarning soʻz maʼnosiga boʻlgan taʼsiri haqida shunday deydi [2;185]:

"جعلوا الصوت الأقوى للفعل الأقوى و الصوت الأضعف للفعل الأضعف"

“Ular eng kuchli tovushni eng kuchli feʼlga, eng zaif tovushni esa eng zaif feʼlga qoʻyganlar”.

Olim bu gapini quyidagi misollar orqali izohlaydi:

صرّ الجندب – *chigirtka chirriladi*

صرصر البازي – *lochin qagʻilladi* (“ro” harfi takrorlanishi bilan)

قطّ الشيء – *qirqmoq* (*eniga*)

قدّ الشيء – *qirqmoq* (boʻyiga)

مدّ الحبل – *arqon bogʻlandi*

متّ إليه بقرابة – *unga qarindoshlik aloqasi bilan bogʻlandi* [2;34].

Arabcha soʻzlar tarkibidagi bir harfni talaffuz jihatdan oʻziga yaqin boshqasiga oʻzgartirish yoki soʻzga birgina harfni qoʻshish orqali maʼno kuchayishi yoki unga mutlaqo zid mazmunli soʻz yasalishi mumkin. Masalan, arablar zaruriyat boʻlgan paytdagina ichsa boʻladigan shoʻr suvga شروب soʻzini qoʻllasalar, yaroqli suvni ichish deganda شريب soʻzidan foydalanadilar. Kishi libosiga ignaning uchidek tekkan najasni bir ozgina suv sepib tozalash نضح (“suv sepmoq”) deb atalsa, uni suvga botirib tozalash نضح deyiladi. Quyida ana shunday holatlarga boshqa misollar keltirilgan [3;13]:

قبض	qarmoqlar bilan ushlamoq	قبص
خضم	qishlamlar bilan yemoq	قضم
خامدة	butunlay oʻchgan olov	هامدة
صائن	otda ketuvchi	صائم

mukofot	شكْم	narotaba beriladigan sovg‘a	شكْدَا
hisobda adashish	غلت	bilmay qilingan xato	غلط
	حوص		خوض
	حوص		حوص

Arab tilida nafaqat harflar, balki harakatlar ham so‘z ma’nosida muhim ahamiyat kasb etadi: o‘zak tarkibidagi birgina harakat orqali so‘zning aniq yoki majhul nisbat sifatdosh ekanligini aniqlash mumkin. Masalan:

Agarda odamlar biror kishini la’natlasalar, u odam la’natlangan *رَجُلٌ لُعْنَةٌ*, agarda u odamlarni la’natlasa *رَجُلٌ لَعْنَةٌ*, deb ataladi. Haqoratlangan kishi *رَجُلٌ سَبَّهٌ*, haqorotlovchi esa *رَجُلٌ سَبَّيَةٌ* deyiladi (ushbu misollardagi *لُعْنَةٌ* so‘zidagi “a’yn” ga va *سَبَّيَةٌ* so‘zidagi birinchi “ba” harfiga” “fatha” harakatini qo‘yish orqali ushbu so‘zning aniq nisbat sifatdosh shakli yasaladi).

Shunday qilib, so‘z tarkibidagi harflar hamda so‘z ma’nosining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

Birinchidan, arab tilini o‘rganish jarayonida talaba ushbu tilga nisbatan nafaqat grammatik, balki semantik jihatdan ham yondashmog‘i lozim, negaki grammatika talabani tilda mavjud bo‘lgan qonun-qoidalar to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlasa, semantika, xususan, harflarning so‘z ma’nosiga ta’sirini o‘rganish orqali u o‘zining grammatik darsliklardan o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llab, arab tilining eng nozik va e’tiborga molik jihatlarini ham o‘rganadi.

Ikkinchidan, o‘zak harflari o‘xshash bo‘lgan sodda negizli fe’llar umumiy semantik belgiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, kuchli semantik ma’noni ifodalaydigan fe’llar va so‘zlar tarkibidagi ikkinchi yoki uchinchi harf o‘rnida, odatda, jarangdor yoki portlovchi tovushlarning kelishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. –Toshkent, 2010.
2. Sirvon Abduzzahra Janabiy. Al-ishtiqaq inda Ibn Jinniy. –Kufa.
3. Abu Robiy’i. Ittifaq al-mabaniy va ixtilaaf al-ma’aniy.
4. Ibn Jinniy. Al-xasois. – Qohira, 1956.

O‘ZBEK ADABIY ILMIY TILINING BIR ASRDAGI FARQIDAN NAMUNA

*Fayzullo Omanovich Musayev,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada muallif XX asr o‘zbek adabiy ilmiy tilini bugungi tilimiz bilan qiyosi asosida til rivojidagi leksik, fonetik, semantik va boshqa o‘zgarishlarni ilmiy asosda uzatadi va asoslangan xulosalarga keladi.

Kalit so‘zlar: til rivoji, leksik o‘zgarish, fonetik o‘zgarish, semantik o‘zgarish, qiyoslash

Ma’lumki, til qotib qolgan narsa emas. U tirik organizm kabi doimo o‘zgarishda, rivojlanishda. Bu hodisa muayyan bir tilga tegishli ikki zamonga oid matnni qiyoslasa aniq va ravshvn namoyon bo‘ladi. Quyida biz o‘zbek adabiy ilmiy tiliga oid ikki matn qiyosidagi tafovutlardan ba’zilari bilan tanishasiz. Bu ishga biz asosiy manba sifatida XX asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan hamshahar olimimiz Hoji qori taxallusli Muhammad Zariyf Shoshiy Koshg‘ariyning “al-Kavsar” surasi tafsiriga tegishli matndan foydalandik.

Bunda farq qiluvchi leksik birliklar asosan so‘zlar, so‘z birliklari va kamroq jumlarlar shaklida namoyon bo‘lganiga guvoh bo‘ldik. Mana

o'sha matnning "word" va toshbosma nusxalaridan bir sahifadan hukmingizga havola:

(600) ابن جریر طبری کوثر دن مراد نہر جنت یا خیر کثیر یا حوض مشہور دیگران قول لار بارہ سیدہ روایت قیلینغان اثر لارنی ذکر قیلیب، سونگرہ دیب دورکہ منینگ نزدیم ده اوشبو قول لار نینگ صواب غه یقین راقی کوثر جنت ده رسول الله غه عطا قیلینغان نہرنینگ اسمی دیگران کیشیلار نینگ قولی دور. بو قولنی همه قول لار دن اولی دور دیمک لیکیم بو بارہ دا رسول الله دن وارد بولغان خیر لار نینگ تتابعی (تتابع پی در پی بری آرقہ سیدن بری کلمک معنی سی ده) جہتی دن دورکہ اخبار واردہ لار ده شونداغ کیلیب دور، سونگرہ ابن جریر بو بارہ ده حضرت انس روایتی ایله وارد بولغان خبر لارنی متعدد طرق لار برلہ ذکر ایتیب دور، لیکن فقیر بو یرده کوثر خیر کثیر معنی سیدہ بولغان ده، بو بارہ دا بیان قیلینغان وهم بیان قیلماق غه مناسبت و گنخایشی بار جمیع عطایای کثیرہ مواہب وفیرہ غه شامل بولمک لیکی نی و جناب رسول الله غه عطا قیلینغان دنیویہ و اخرویہ انفسیہ و آفاقیہ عطایای ظاہرہ و باطنہ لار اندن خارج اولماسلیکی نی اعتبار غه آلیب خیر کثیر معنی سی نی ترجیح و اختیار قیلدیم. حالبوکہ کوثر دن مراد خیر کثیر ایکانیدہ وارد بولغان اثر لار مو بار دور، چنانچہ صحیح بخاری ده ایتیب دور، ابو بشر سعید بن جبیر دن اول ابن عباس رضی الله عنہما دن روایت قیلیب دور، ابن عباس جناب لاری ایتیب دور : کوثر خیر کثیری دور کیم الله تعالیٰ انی پیغمبر ﷺ غه عطا قیلیب دور دیب، ابو بشر ایتادور سعید بن جبیر غه ددیم کہ آدملا کوثر دن مراد جنت ده بر نہر دور دیب گمان ایتادور لار، ((سن انی خیر کثیر ور دیر سن)) پس سعید بن جبیر دیدیکہ ((جنت داکی نہر هم رسول اللع جنابی غه عطا قیلینغان خیر کثیر جملہ سدن بر خیر دور دیب)).

ابن جریر طبری بو معنی ده وارد بولغان اثر لار نی ابن عباس دن، مجاہد دن، عکرمہ دن سعید بن جبیر دن و عطا بن السائب دن متعدد طرق لار ایله نقل ایتیب دور. منا کوثرنی خیر کثیر معنی سیغہ حمل قیلغانده سعید بن جبیر رحمہ الله جناب لاری دیکان دیک، نہر کوثر هم انینگ ضمنی غه داخل بولادور، چنکہ کوثر هم رسول اکرم صلعم غه طرف الہی دن عطا قیلنغان عطایای کثیرہ و خیرات دنیویہ و اخرویہ جملہ سی دن برگینہ عطیہ دور.

پس کلام الہی نینگ اعجازی جہتی غه وهم کلام عرب ده کوثر نینگ خیر کثیر معنی سی ده استعمال قیلینغان لیقی غه کورہ کوثر نی خیر کثیر معنی سی غه حمل ایتمک، و

اول معنی نی روایةً ودرایةً ترجیح ایتمک اولی دور دیمک نی اختیار ایتمیم، زیرا که کوثر کثرت دن صیغہء مبالغہ دور نوفل نفل دن و جوهر جهر دن صیغہء مبالغہ بولغان دیک.
عرب لار هر بر نرسه که انینک عددی تولا وقدر واولوقلیقی کوب بولسه کوثر دیرلار، کوثر صیغہ سی کثرت ده مبالغہ نی واندہ افرات نی افاده قیلادورغان بر کلمه دور.

(600). Ibn Jariyr Tabariy: “Kavsar”dan murod jannatdagi daryo, yo ko‘p yaxshilik, yo mashhur hovuz degan qavllar borasida rivoyat qilingan asarlarni eslab: (600). Ibn Jariyr Tabariy: “Kavsar”dan murod *nahri jannat, yo xayri kasiyr, yo havzi mashhur* degan qavllar borasida rivoyat qiling‘on asarlarni zikr qilib, so‘ngra debdurki, “ mening nazarimda ushbu gaplarning to‘g‘rirog‘i : Kavsar jannatda *Rasululloh*ga ato qilingan daryoning ismi degan kishilarning gapidir. Ushbu qavllarning savobg‘a yaqiyinroqi kavsar jannatda raasulullohg‘a ato qiling‘on nahrning ismi degan kishilarning qavlidur. Bu qavlni hamma qavllardin afzal deyishim, bu borada *Rasulullohdan* keltirilgan xabarlarning uzuliksizligi jihatidindir”- deydi. Bu qavlni hamma qavllardan avlodur demakligim, bu borada rasuvlullohdan vorid bo‘lg‘on xabarlarning tatobu‘i (tatobu‘ pay dar pay biri orqasidan biri kelmak ma‘nosida) jihatidandurki, axbori voridalarda shundog‘ kelibdur. So‘ngra ibn Jariyr bu borada hazrati Anas rivoyati bilan kelgan xabarlarni turli yo‘llar birla zikr etgan. So‘ngra ibn Jariyr bu borada hazrati Anas rivoyati bilan vorid bo‘lg‘on xabarlarni mutaaddid turuqlar birla zikr etibdur. Lekin men bu yerda “kavsar” - “ko‘p yaxshilik” ma‘nosida bo‘lganda bu borada bayon qilingan va bayon qilinishi mumkin bo‘lgan barcha ato etilgan xislat va fazilat, sifat va istedodlarni qamray olishini va xususan janobi rasulullohgagina ato etilgan dunyaviy va uxraviy fazilatlar va hamda maxfiy va oshkora ilohiy in‘omlar...?... undan tashqarida qolmasligini e‘tiborga olib, “ko‘p yaxshilik” ma‘nosini afzal bildim va ixtiyor qildim. Lekin faqiyr¹¹ bu

¹¹ men degan ma‘noda muallif o‘zini kamtarlik bilan “faqiyr”, “banda” deb atash udumi ma‘lum.

yerda “kavsar” *xayri kasiyr* ma’nosida bo‘lg‘onda bu borada bayon qiling‘on va bayon qilmoqqa munosabatga xohishi (?) bor *jamiy’ atoyoyi kasiyra* va *mavohbi vafiyrag‘a* shomil bo‘lmakligini va *janobi rasulullohg‘a* ato qiling‘on dunyaviyya va uxraviyya?... *atoyoyi zohira va botinalar* andin xorij o‘lmasligini e’tiborga olib, *xayri kasiyr* ma’nosini tarjiyh va ixtiyor qildim. Holbuki, kavasrdan murod “ko‘p yaxshilik” ekani haqida kelgan asrlar ham bor. Holbuki, kavasrdan murod *xayri kasiyr* ekanida vorid bo‘lg‘on asrlarmu¹²__ bordur. Chunonchi, Sahiyh Buxoriyda aytiladiki, Abu Bishr Sa’iyd ibn Jubayrdan, u ibn Abbos *roziyallohu anhumodan* rivoyat qilishicha: Ibn Abbos janoblari: “Kavsar **ko‘p yaxshilik**dirki, Alloh taolo uni payg‘ambar *sallollohu alayhi vasallamga* beripti,” deb aytipti. Chunonchi, Sahiyh Buxoriyda aytibdur: Abu Bishr Sa’iyd ibn Jubayrdan, ul ibn Abbos *roziyallohu anhumodan* rivoyat qilibdur: Ibn Abbos janoblari aytibdur: “Kavsar *xayri kasiyrdurkim*, Alloh taolo ani payg‘ambar *sallollohu alayhi vasallamg‘a* ato qilibdur,” deb. Abu Bishr: “Sa’iyd ibn Jubayrga dedimki, Odamlar “Kavsar”dan murod jannatdagi bir daryodir deb o‘ylaydilar, nega sen uni ko‘p yaxshilik deysan ?!) Abu Bishr aytadur: “Sa’iyd ibn Jubayrg‘a dedimki, Odamlar “Kavsar”dan murod jannatda bir nahrdur deb gumon etadurlar, (san ani *xayri kasiyr* dersan ?!). Shunda Sa’iyd ubn Jubayr dediki, jannatdagi daryo ham *rasululloh* janobiga ato qiling‘on ko‘p yaxshilik jumlasidandur,” deb. Pas, Sa’iyd ubn Jubayr dediki, jannatdagi nahr ham *rasululloh* janobig‘a ato qiling‘on *xayri kasiyr* jumlasidandur,” deb. Ibn Jariyr Tabariy bu ma’noda kelgan asarlarni Ibn Abbosdan, Mujohiddan, Ikrimadan, Sa’iyd ibn Jubayrdan va Ato ibn asSoibdan turli yo‘llar bilan keltiradi. Ibn Jariyr Tabariy bu ma’noda vorid bo‘lg‘on asarlarni Ibn Abbosdan, Mujohiddan, Ikrimadan, Sa’iyd ibn Jubayrdan va Ato ibn asSoibdan mutaaddid turuqlar ila naql etibdur. Mana shunday qilib kavsarni *ko‘p*

¹² *Mu-* ham ma’nosida

yaxshilik ma'nosida tushunilganda Sa'iyd ibn Jubayr, *rahimahulloh*, janoblari degandek, *kavsar daryosi* ham uning ichiga kiradi. Mana kavsarni *xayri kasiyr* ma'nosig'a haml qilg'onda Sa'iyd ibn Jubayr, *rahimahulloh*, janoblari degandek, *nahri kavsar* ham aning zimnig'a doxil bo'ladur. Chunki Kavsar ham *rasuli akram sallollohu alayhi vasallamga* ilohiy tarafdin ato qilingan ko'p sovg'a va dunyaviy va yaxshiliklar jumlasidan birginasidir. Chunki Kavsar ham *rasuli akram sallollohu alayhi vasallamg'a* tarafi ilohiydan ato qiling'on *atoyoyi kasiyra* va *xayroti dunyaviyya va uxraviyya* jumlasidan birgina atiyadur. Shunday qilib, ilohiy kalomning mo'jizaviy jihatiga va arab tilida "kavsar"ning ko'p yaxshilik ma'nosida ishlatilishiga ko'ra uni *xayri kasiyr* ma'nosiga o'tkazishni va o'sha ma'noni tushunish uchun afzal deyishni keltirilgan rivoyatga asoslanib ixtiyor ettim. Pas, *kalomi ilohiyning* i'jiziy jihatig'a va ham kalomi arabda kavsarning *xayri kasiyr* ma'nosida iste'mol qiling'onliqig'a ko'ra kavsarni *xayri kasiyr* ma'nosig'a haml etmak va ul ma'noni *rivoyatan va diroyatan* arjih etmak avlodur demakni ixtiyor ettim. Zero, navfal naflidan, javhar juhardan mubolag'a shakli bo'lganidek, "kavsar" ham "kasrat"ning mubolag'a shaklidir. Arablar har bir narsaga uning miqdori ko'p, qadr va ulug'ligi zo'r bo'lsa, kavsar deyishadi. Kavsar shakli kasratning mubolag'asini va uning o'ta mubolag'asi (ifrot – giperbola)sini ifoda etadigan bir so'zdir. Zeroki, kavsar kasratdin *siyg'ayi mubolag'adur*; navfal naflidan, javhar juhardan *siyg'ayi mubolag'a* bo'lg'onidek. Arablar har bir narsaga aning adadi to'la, qadr va ulug'liqi ko'p bo'lsa, kavsar derlar. Kavsar *siyg'asi kasratda mubolag'ani* va anda ifrotni ifoda qiladurg'on bir kalimadur.

البتہ اول بیڑ نینک شائیمیزہ دور قرآن دہ اعم ما ضیہ نینک قصہ لاریخی، وادار نینک سبب
ہلاک و باعث عقوبت لاریخی، ذکر قلیماق، بے شبہ بیزامت اسلامہ نے تشبیہ ایلاب
انداز موجب ہلاکت و عذاب بولا دورغان افعال قبیحہ لاردن تحذیر ایتیمک اوچون دور
مونداز بولغاندن کیین بیز مسلمان لار نینک بو سورہ شریفہ دن آکا دورغان حنظلی میز بودور
اوشبو سورہ دہ ذکر قلینغان اخلاق شنیعہ لاردن کہ دین نے تکذیب قلیماق نینک نشاندہ سی دور
اجتناب ایتیمک نے اوڑ میز نہ ضرور و ایتیم و فرض محکم بیلگایمیزہ۔ تمام بولدی سورہ ماغون
تفسیری بمنہ و توفیقہ تعالیٰ۔

تم تم

سورہ کوثر مکہ دہ نازل بولمیش آیت لاری اوچ کلمہ لاری اون حرف
لاری قرق ایکی دور

بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ

اِنَّا اعطینک الکوثر ای محبت تحقیق بیڑ سنکا کوب خیر لار نے عطا
قیلوق یعنی علم و عمل دن، و دنیا و آخرت نینک شرف و سعادت دن، کوب لیک دہ درجہ نہایت دہ
بولغان پختی ایش لار نے سنکا عطا قیلوق۔

کوثر بار سیدہ علماء تفسیر تولا قول لار نے بکتور دن دور لار چنانچہ کوثر جنت دہ بر نہر
مشہور یا نبوت، یا قرآن، یا اصحاب و امت، یا علم و حکمت، یا معجزات، یا اجابت دعا، یا رسول اکرم
نینک دل مطہری نینک نوری و انشراح، یا مبارک نامی بو مؤثر فی نینک بلند و مشہور عالم بولمکن، یا
شفاعت کبری یا تسہیل شرایع دین، یا اولاد کرام، یا کثرۃ اتباع و شیاع، یا فضائل کثیرہ یا خلق
حسن، یا مقام محمود، و شونکا اوششہ اقوال لایکم تمام سیرہ ما فوڑہ لار دہ مذکور دور
امام رازی بوبارہ دہ ذکر قلینغان و جد لار نینک اولی: کہ کوثر نینک جنت داکا بر نہر ایکانے
نے ذکر ایتیب بوقول سلف و خلف تزدیدہ مشہور و مستفیض دور دیب دور

لے شیخ محمد عبیدہ رحمہ اللہ تفسیر جزء عم دہ کوثر بار سیدہ و از بولغان تفسیر لاردن ایکی قول نے اختیار ایتیب دور برنجی
قول کوثر دن مراد نبوت یا علم و حکمت یا نور قلب کیم ہدایت و رشد و امن عبادت دور نبی قولی کوثر دن مراد خیر و نیوی و اخروی دور
دوب دور

ابن جریر طبری کوثر دن مراد نہر جنت یا خیر کثیر یا حوض مشہور دیگان قول لار بار سیدہ روایت قبلیخان اثر لار نے ذکر قلیب، سو نگرہ دیب دور کہ میننگ نزدیم ده او شہو قول لاریننگ صواب غہ یقین راقی کوثر جنت ده رسول اللہ غہ عطا قبلیخان نہرننگ اسمی دیگان کیشیلار نینگ قولی دور بو قول سنہ سورہ قول لار دن اولی دور ویک لیکیم بو بارہ دار رسول اللہ دن وارد بولغان خیر لار نینگ تاملی جہتی دن ہو کہ اجدر واردہ لارده شونداغ کلب دور سو نگرہ ابن جبریر بو بارہ ده حضرت انس روایتی ایله وارد بولغان خبر لار نے متعدد طرق لار برہر ذکر ایتیب دور، لیکن فقیر بو یرده کوثر خیر کثیر معنی سیدہ بولغان ده، بو بارہ دا بیان قبلیخان و ہم بیان قیلماق غہ مناسبت و گنایشی بار جمیع عطایای کثیرہ و مو اہیب و فقیرہ غہ شامل بولمک لیکے، و جناب رسول اللہ غہ عطا قبلیخان دنیویہ و اخرویہ نفسیہ و آفاقیہ عطایای ظاہرہ و باطنہ لار ان دن خارج اولماس لیکے، اعتبار غہ آلب خیر کثیر معنی سی نے ترجیح و اختیار قیلدیم، حالہو کہ کوثر دن مراد خیر کثیر ایچانیدہ وارد بولغان اثر لار مو بار دور، چنانچہ صحیح بخاری ده ایتیب دور ابو بشر سعید بن جبریر دن اول ابن عباس رضی اللہ عنہما دن روایت قیلیب دور ابن عباس جناب لاری ایتیب دور کوثر خیر کثیری دور کیم اللہ تعالیٰ نے پیغمبر صلے اللہ علیہ وسلم غہ عطا قلیب دور دیب ابو بشر ایتادور سعید بن جبریر غہ دیدیم کہ آدم لار کوثر دن مراد جنت ده بر نہر دور دیب گمان ایتادور لار (سن لار نے خیر کثیر دور ویر سن) پس سعید بن جبریر دیدیکہ جنت و اکی نہر ہم رسول اللہ جنابی غہ عطا قبلیخان خیر کثیر جملہ سیدان بر جبریر دور دیب۔

۰۰ ابن جریر طبری بو معنی ده وارد بولغان اثر لار نے ابن عباس دن، مجاہد دن، عکرمہ دن، سعید بن جبریر دن، و عطاء بن السائب دن، متعدد طرق لار ایله نقل ایتیب دور۔
 مٹا کوثر نے خیر کثیر معنی سیغہ حل قبلیخان ده سعید بن جبریر رحمہ اللہ جناب لاری دیگان دیک، نہر کوثر ہم انجک ضمنی غہ داخل بولادور۔ چونکہ کوثر ہم رسول اکرم صلعم غہ طرف الہی دن عطا قبلیخان عطا یای کثیرہ و خیرات دنیویہ و اخرویہ جملہ سی دن برگینہ عطیہ دور۔
 پس کلام الہی نینگ اعجازی جہتی غہ، و ہم کلام عرب ده کوثر نینگ خیر کثیر معنی سی ده استعمال قبلیخان یعنی غہ کورہ کوثر نے خیر کثیر معنی سیغہ حمل ایتیمک، و اول معنی نے روایت و درایت ترجیح ایتیمک، اولی دور دیک نے اختیار ایتیم۔ زیرا کہ کوثر کثرت دن صیغہ مبالغہ دور، کوثر نقل دن و جو نہر جبریر دن صیغہ مبالغہ بولغان دیک۔
 عرب لار ہر برسہ کہ ایتیمک عددی تو لا و قدر و اولو غلوتی کوب بولسہ کوثر دیر لار کوثر صیغہ سے کثرت ده مبالغہ نے و اندہ اظہار نے افادہ قیلادور غان بر کلمہ دور۔

Leksik birliklarning soʻz, soʻz birikmalari va jumla shakllaridagi farqlari:

Bugungi zamonaviy varianti va XX asr boshidagi asl varianti

<p>(599). “Kavsar” surasi</p> <p>Makkada nozil boʻlgan, oyatlari uch, soʻzlari oʻn, harflari qirq ikkidur.</p> <p>بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ. إِنَّا أَعْطَيْنَكَ الْكَوْثَرَ (١) فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ (٢) إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ (٣) إِنَّا أَعْطَيْنَكَ¹³ الْكَوْثَرَ (١)</p> <p>Ey, Muhammad, haqiqatan, biz senga koʻp yaxshiliklarni ato qildik¹⁴, yaʼni ilm va amal, dunyo va oxiratning sharafi va saodatidan, benihoya koʻp yaxshi ishlarni senga ato qildik. “Kavsar” borasida tafsirchi olimlar koʻp <i>qavllarni</i> keltirishgan. Chunonchi, ishonchli tafsirlarda zikr etib keltirilishicha, “kavsar” bu jannatdagi bir mashhur daryo, yoki</p>	<p>(599) Surayi “Kavsar”, Makkada nozil boʻlmish, oyatlari uch, kalimalari oʻn, harflari qirq ikkidur.</p> <p>بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ إِنَّا أَعْطَيْنَكَ¹⁸ الْكَوْثَرَ (١) فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ (٢) إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ (٣)</p> <p>Ey, Muhammad, batahqiq, biz sanga koʻp xayrlarni ato qilduq¹⁹, yaʼni ilm-u amaldan, dunyov-u oxiratning sharaf-u saodatidan, koʻplikda – <i>daraja-i nihoyat</i>²⁰da boʻlgʻon yaxshi ishlarni sanga ato qilduq. “Kavsar” borasida <i>ulamo-i tafsir toʻla</i>²¹ <i>qavllarni</i> keltiribdurlar. Chunonchi, “Kavsar” Jannatda bir <i>nahr-i mashhur</i>, yo <i>nubuvvat</i>, yo Qurʼon, yo <i>ashob</i> va <i>ummat</i>, yo ilm va <i>hikmat</i>, yo <i>moʻjizot</i>, yo <i>ijobat-i duo</i>, yo <i>rasul-i</i></p>
---	---

¹³ أَعْطَيْنَكَ soʻzi, garchi bugungi arab yozuvi qoidalariga koʻra “nun” va “kof” orasida “alif” boʻlishini taqozo etsada, Qurʼoni karim matnida alifsiz, “nun” ustida tikka fatha bilan yozilgani bois asl holiga muvofiq shaklda berildi.

¹⁴ Ushbu tafsir muallif tarjimasi **yirik qora harflar**da, tafsiri esa oddiy holda terildi.

<p>payg‘ambarlik, yoki Qur‘on, yoki sahoba¹⁵lar va ummat, yo ilm va hikmat, yo mo‘‘jizalar, yo duo ijobati, yo rasul-i akramning pokiza dilining nuri va ko‘ksining yorilishi (<i>voqeasi</i>), yo muborak nomi va sharafining baland va mashhur-i olam bo‘lmog‘i, yoki buyuk <i>shafatchi</i>¹⁶ligi, yoki diniga tegishli qonun qoidalarni yengillashtirilgani, yoki muhtaram zurriyotlari, yo izdoshlarining hamda ularga tegishli narsalarning ko‘pligi, yoki fazilatlarining ko‘pligi, yoki go‘zal xulqi, yoki “<i>maqom-i mahmud</i>”¹⁷ i va shunga o‘xshash qavllardur. <u>Imomi Roziy</u> bu borada zikr qilingan tushunchalarning avvalida</p>	<p><u>akramning dil-i mutohharining nuri va inshirohi</u>, yo muborak nomi va sharafining baland va <u>mashhur-i olam</u> bo‘lmaki, yo <u>shafaat-i kubro</u>, yo <u>tashil-i sharoyi’-e diyn</u>, yo <u>avlod-i kirom</u>, yo <u>kasrat-i atbo‘ va ashyo‘</u>, yo <u>fazoil-i kasiyra</u>, yo <u>xulq-i hasan</u>, yo <u>maqom-i mahmud</u> va shunga o‘xsha(<i>sh</i>)²² <u>aqvollarkim, tafosir-i ma‘suralarda mazkur</u>dur.</p> <p><u>Imomi Roziy</u> bu borada zikr qiling‘on <i>vajhlarning</i> avvalida “Kavsar”ning Jannatdagi bir <i>nahr</i> ekanini zikr etib, “bu <i>qavl salaf</i> va <i>xalaf nazdida</i> mashhur va <i>mustafiyzdur</i>²³”, - debdur.</p>
---	---

¹⁸ أَعْطَيْتَكَ so‘zi, garchi bugungi arab yozuvi qoidalariga ko‘ra “nun” va “kof” orasida “alif” bo‘lishini taqozo etsada, Qur‘oni karim matnida alifsiz, “nun” ustida tikka fatha bilan yozilgani bois asl holiga muvofiq shaklda berildi.

¹⁹ Ushbu tafsir muallif tarjimai **yirik qora harflar**da, tafsiri esa oddiy holda terildi.

²⁰ Bugungi o‘zbek tilida sharhlash lozim deb topilgan arabcha va forscha *so‘zlar kursiv*da berildi va iboralar esa tagiga chizildi

²¹ “to‘la” so‘zi bu o‘rinda “ko‘p” ma‘nosida qo‘llanilgan ko‘rinadi. Agar matnda “ulamoi” so‘zining oxirida forsiy izofani ifodalovchi “zer” bo‘lmasa edi, “to‘la” so‘zini avvalgi “tafsir” so‘ziga qo‘shib “tafsir to‘la” deb o‘qish mumkin edi. Qo‘lyozma kotiblari hamma vaqt ham to‘g‘ri ko‘chiravermasligi ma‘lum esada, matndan xato izlashdan ko‘ra uni to‘g‘ri deb topib, tushunishga intilishni afzal ko‘rdik.

¹⁵ yo‘ldosh va hammaslak

¹⁶ qiyomat kuni Alloh huzurida ummatlarining gunohini tilab olish imtiyozi va mansabi.

¹⁷ Qiyomatda faqat Muhammad SAVga berilishi va‘da qilingan yuksak maqom, mansab.

²² Matnga qo‘shishni lozim topilgani, masalan, bu o‘rinda (*sh*) qavs ichida (*kursiv*)da berildi.

²³ (Shayx Muhammad Abdo‘h, rahimahulloh, Tafsiyri juz‘i «Amma»da “Kavsar” borasida *vorid* bo‘lg‘on tafsirlardan ikki *qavl*ni ixtiyor etibdur. Birinchi *qavl*: “Kavsar”din murod *nubuvvat*, yo ilm va hikmat, yo nuri qalbkim, hidoyat va *rashoddin* iboratdur; Ikkinchi *qavl*: “Kavsar”din murod xayri dunyaviy va uxraviydur”, - debdur.)

“Kavsar”ning jannatdagi bir <i>nahr</i> ekanini zikr etib, “bu <i>qavl</i> oldingi va keyingi olimlar nazarida mashhur va qoniqtirarlidir”, - degan.	
so‘z	kalima
haqiqatan	batahqiq
Yaxshiliklar qildik	Xayrlar qilduq
Ilm va amal	Ilmu amal
Dunyo va oxirat	Dunyovu oxirat
Sharafi va saodatidan	Sharafu saodatidan
Benihoya ko‘p	Ko‘plikda darajai nihoyatda bo‘lg‘on
borasida	borasinda
Tafsirchi olimlar	Ulamoi tafsir
ko‘p	to‘la
keltirishgan	keltirubdurlar
mashhur daryo payg‘ambarlik, sahoba ²⁴ lar mo‘‘jizalar duo ijobati pokiza dili pokiza ko‘ksining yorilishi (voqeasi) bo‘lmog‘i buyuk <i>shafatchi</i> ²⁵ ligi	<u><i>nahr-i mashhur</i></u> <i>nubuvvat</i> <i>ashob</i> <i>mo‘‘jizot,</i> <u><i>ijobat-i duo</i></u> <u><i>dil-i mutohhari</i></u> <u><i>dil-i mutohharining</i></u> <i>inshirohi, bo‘lmaki</i> <u><i>shafaat-i kubro,</i></u> <u><i>tashil-i sharoyi’-e diyn</i></u>

²⁴ yo‘ldosh va hammaslak

²⁵ qiyomat kuni Alloh huzurida ummatlarining gunohini tilab olish imtiyozi va mansabi.

<p> diniga tegishli qonun qoidalarni yengillashtirilgani muhtaram zurriyotlari ko‘p faziylatlari izdoshlarining hamda ularga tegishli narsalarning ko‘pligi fazilatlarining ko‘pligi go‘zal xulqi o‘xshash qavllar ishonchli tafsirlar eslab o‘tilgan tushunchalar (sabablar) boshida qilingan gap oldingi va keyingi olimlar nazarida qoniqtirarli </p>	<p> <u>avlod-i kirom</u> <u>kasrat-i atbo‘ va ashyo‘</u> <u>fazoil-i kasiyra</u> <u>xulq-i hasan</u> o‘xsha(<i>sh</i>)²⁶ aqvollar <u>tafosir-i ma’suralar</u> mazkurdur. Vajhlar avvalida qiling‘on qavl salaf va xalaf nazdida mustafiyz </p>
<p> jannatdagi daryo ko‘p yaxshilik mashhur hovuz qilingan eslab </p>	<p> <i>nahri jannat</i> <i>xayri kasiyr</i> <i>havzi mashhur</i> qiling‘on zikr qilib so‘ngra debdurki, </p>
<p> ushbu gaplar to‘g‘rirog‘i qilingan daryo </p>	<p> Ushbu qavllar savobg‘a yaqiyinroqi qiling‘on nahr </p>

²⁶ Matnga qo‘shishni lozim topilgani, masalan, bu o‘rinda (*sh*) qavs ichida (*kursiv*)da berildi.

gapi	qavli
------	-------

Ko‘rib turganimizdek, tilning davr kesimidagi rivojida eng ko‘p ta’sirlanuvchi qismi bu tilning leksik qatlami bo‘lib, boshqa birliklar o‘zgarishga nisbatan kamroq duchor bo‘lar ekan. So‘zlardagi fonetik o‘zgarishlar ham birmuncha faollik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. 1-t. –T., 2017.
2. Al Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. 2-t. –T., 2017.
3. Al Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. 3-t. –T., 2019.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom M.1981
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom M. 1981
6. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. – T., 1978
7. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. –T., 1978
8. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. –М., 1969.

FORS TILIDAGI AYRIM TURKIY O‘ZLASHMALAR XUSUSIDA

*Alimova Zarifaxon Vaxobovna,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning lug‘at boyligi, bir tildan ikkinchi tilga leksik birliklarning o‘tishi, fors tili lug‘at tarkibida o‘zlashgan qatlam, turkiy o‘zlashmalarning fors tiliga kirib kelishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada fors tilidagi harbiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘muriy, maishiy, sanoat, hunarmandchilik,

qishloq xo'jaligi, chorvachilik sohalariga oid bo'lgan turkiy o'zlashmalar, fors tiliga turkiy tildan o'tgan suffikslar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: o'zlashma, lug'at boyligi, so'z turkumlari, suffikslar, shaxs otlari.

Tilning lug'at boyligi oshib borishining ikkita asosiy manbai bor: birinchisi va asosiysi – tilning ichki imkoniyatlari bo'lsa, ikkinchisi o'zlashmalardir. Til alohida ravishda, boshqa tillardan ajralgan holda rivojlana olmaydi, «...*har bir til, odatda, turli-tuman leksik unsurlarning qo'shilishidan iborat bo'ladi*» [3;85].

O'zlashmalarning oz-ko'pligi tilning tarixiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon ingliz tili lug'at tarkibining tashkil topishida fransuz va skandinaviya tillaridan kirgan o'zlashmalar muhim o'rin tutadi [11; 251]. Urdu tilida esa arabcha, forscha so'zlar miqdori salkam 50% dir [6; 11].

O'zlashmalar haqida so'z borganda A.Navoiy ijodi haqida alohida to'xtalish lozim. Alisher Navoiy yozgan adabiy tilda umumturkiy va mahalliy sheva elementlaridan tashqari qadimiy uyg'ur, turkman, ozarbayjon, arab, fors-tojik so'zlari ham uchraydi [4;106]. Navoiy asarlaridagi butun so'zlarning 55 foizi o'zbekcha (turkiy), 20 foizi arabcha, 19 foizi forscha-tojikchadir. Ba'zi manbalarda Navoiy ijodidagi arabcha so'zlar miqdori 30-33 foizni tashkil etishi ta'kidlanadi [5; 29]. Alisher Navoiy asarlari leksikasida 5489 ta forscha-tojikcha so'z qo'llangan bo'lsa, «*Qissasi Rabg'uziy*» asarida 321ta forscha-tojikcha, arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalardan yasalgan 9 ta forscha-tojikcha, jumladan «*nomustaqim*», «*nopok*», «*noumid*», «*umidsiz*», «*sajdagoh*», «*ammazoda*», «*amakivachcha*», «*xayrli avlod*», «*halolzoda*» leksemalari ishlatilgan [2; 82].

Tadqiqodchi D.Abduvaliyevaning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy qalamiga mansub «*Tarixi muluki Ajam*» asari leksikasining umumiy

miqdori 2418ta soʻzdan iborat boʻlib, bulardan 581tasi turkiy, 1188tasi arabcha, 601tasi forscha-tojikcha soʻzlardir [1;10].

Maʼlumki, Bobur ham oʻz asarlarida fors-tojik tiliga mansub soʻzlardan foydalangan. Manbalarda keltirilishicha, «*Boburnoma*» asarida 7600ta forscha-tojikcha leksemalar mavjud [12; 58].

Oʻzlashmalarga boʻlgan asosiy talab fonetik jihatdan moslashishdir [9; 69]. Yu.A.Rubinchikning qayd etishicha, arabcha oʻzlashmalar fors tilida jiddiy fonetik oʻzgarishlarga uchragan: fors tili uchun xos boʻlmagan tovushlar fors tilidagi oʻxshash tovushlarga almashtirilgan [7; 69]. «*Forscha-ruscha*» lugʻatda («*Персидско-русский словарь*») keltirilishicha, arablar Eronni bosib olganlaridan soʻng fors tiliga diniy, fan, maishiy hamda ijtimoiy hayotga oid koʻplab arabcha soʻzlar kirib kelgan. Shuningdek, fors tiliga turk-moʻgʻul, rus, yunon, hind va boshqa tillardan kirgan soʻzlar ham oʻzlashgan [10; 803].

Rus sharqshunosi L.S.Peysikov oʻzining «*Лексикология современного персидского языка*» kitobida taʼkidlaganidek, turkiy oʻzlashmalar fors tiliga Islom dini kirib kelgunga qadar boʻlgan davrda oʻzlashgan [9; 46].

Fors tiliga oʻzlashgan turkiy soʻzlar arab oʻzlashmalariga qaraganda ancha nofaol, lekin shunga qaramasdan miqdor jihatidan hozirga fors tili lugʻat tarkibida arab va Yevropa soʻzlaridan keyin uchinchi oʻrinda turadi [9; 46].

Qadim zamonlardan gʻarbiy va sharqiy eronliklar turkiy xalqlar bilan qalin aloqada boʻlganlar. Bu haqda koʻplab tarixiy faktlar, arxeologik qazilmalar, badiiy adabiyot namunalari hamda leksikografik ishlar guvohlik beradi. Keyingi davrda fors tiliga soʻzlarning oʻzlashish jarayoni oshib bordi. Jumladan, Firdavsiyning «*Shohnoma*» asarida ayrim turkiy soʻzlarni (**tagin** – تگین «*qahramon*», «*botir*», **buq** – بوق «*qichqiriq*», «*signal*») va koʻplab antroponimlarni uchratish mumkin. Asadi Tusiyning fors-dari tilida

yoʻzilgan «*Lugʻat-e fors*» nomli lugʻatida turkiy tildan oʻtgan koʻplab maishiy soʻzlarni koʻrish mumkin: **yarandoq** – **يرنداق** xom teri, **choroʻq** – **چارق** dehqon oyoq kiyimi, **soʻmoq**- **سوماق** sumak, **qalpa** – **قلپه** hakka, zagʻizgʻon va boshqalar [9; 46].

Fors tiliga oʻzlashgan turkiy soʻzlar arab oʻzlashmalariga qaraganda ancha nafaol, lekin shunga qaramasdan miqdor jihatidan hozirga fors tili lugʻat tarkibida arab va Yevropa soʻzlaridan keyin uchinchi oʻrinda turadi.

Turkiy oʻzlashmalar orasida iqtisodiy, madaniy, maʼmuriy, maishiy va boshqa sohalarga oid yuzlab soʻzlar mavjud. Ayniqsa, juda koʻp soʻzlar harbiy, maishiy, savdo-sotiq, qishloq xoʻjaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va boshqa sohalarga tegishlidir. Ayrim soʻzlar Eronda hukmronlik qilgan turk dinastiyalarining (safavidlar, kajarlar) saroy hayoti bilan bogʻliq.

Harbiy oʻzlashmalar tarkibiga quyidagi soʻzlarni kiritish mumkin: **tup** – **توپ** *pushka*, **kashik** – **كشيك** *navbatchilik*, **toʻfang** – **تفنگ** *qurol*, **miltiq**, **qoʻndoq** – **قنداق** *qoʻndoq*, **feshang** – **فشنگ** *patron*, **yortma** – **يارتمه** *otda yoʻrtib borish*, **yaroq** – **يراق** *egar - jabduq*, **qamchi** – **قمچي** *qamchi*, **qashoʻv** – **قشوو** *otqashlagʻich*, **chol** – **چال** *koʻkish*, **xoldor ot**, **shamxol** – **شمجال** *mushket (qadimgi pilt miltiq)*, **shamxolchi** – **شمخالچي** *mushketyor (mushket bilan qurollangan soldat)* [9ʻ48].

Tuman **تومان** soʻzi dastlab fors tilida «oʻn ming», «qorongʻilik, *zulmat*», «oʻn minglik askar» kabi maʼnolarni, keyinchalik fors pul birligini ifodalagan. Hozirda «*rayon, tuman*» maʼnosida qoʻllanilayotgan boʻluk **بولوق** soʻzi dastlab «*harbiy otryad*» maʼnosini ifodalagan. Ozuqa **آزوقه** soʻzi ilgari «*oziq-ovqat (armiya uchun)*» maʼnosinigina bildirgan boʻlsa, hozirgi paytda umumiy, barcha uchun umumiy oziq-ovqat mahsulotlari tushuniladi.

Turkiy oʻzlashmalar tarkibidagi harbiy terminlar Erondagi puristik oqimlar rivojlanishidan oldin kam hollarda qoʻllanilgan edi.

30-yillarning oxirida Eron shohi Rizoshohning maxsus farmoni bilan turkiy harbiy o‘zlashmalar forsiy so‘zlar bilan almashtirilgan. Jumladan, soxlo‘v ساخلو (*garnizon*) so‘zi yangi harbiy adabiyotda qo‘llaniladigan forscha “podegon” so‘zi bilan almashtirildi. «*Bolobonchi*» بالابانچى so‘zi o‘rniga arabiy-forsiy gibrid (*chatishma*) tablzan تبلزن , qo‘shun قشون (*armiya, qo‘shin*) so‘zi o‘rniga forscha artesh ارتش , qoqrovul قاقراوول (*soqchi*) o‘rniga forscha negahbon نگهبان , o‘troq اوتراق (*yo‘lda dam olish uchun to‘xtash, to‘xtash joyi*) o‘rniga forscha rohatbosh راهتباش va boshqa shu kabi so‘zlar qo‘llanilmoqda. Turkiy qur قور so‘zi arabiy aslaha اسلحه so‘zi bilan almashindi. Shamxol شمخال (*mushket*), yuzboshi يوزباشى (*yuzboshi*), to‘puz تپوز (*gurzi, to‘qmoq*) kabi so‘zlar harbiy ish va harbiy texnika rivojlanishi natijasida arxaik so‘zlarga aylandi.

Fors maishiy leksikasi tarkibidan juda ko‘p turkiy o‘zlashmalar joy olgan. Jumladan, kundalik turmush tarzida uchraydigan qosho‘q - قاشق *qoshiq*, bo‘shqob – بشقاب *tarelka*, alak – الـک *elak*, to‘shak – توشک *to‘shak*, qeychi – قیچی *qaychi*, qoplome – قاپلامه *kostryulka*, qeymoq – قیماق *qaymoq*, chakme- چکمه *etik*, o‘joq - اجاق *pechka*, o‘choq, o‘tu – اتو *dazmol* kabi turkiy o‘zlashmalar shular jumlasidandir.

Sanoat, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik sohalariga oid bo‘lgan tutun – توتون *tamaki*, go‘mro‘k – گمرک *bojxona*, qochoq – قاچاق *kontrabanda*, qeshloq – قشلاق *qishda yashaydigan joy*, qishlov, yayloq – ییلاق *yaylov (dacha ma‘nosi ham bor)*, botloq – باتلاق *botqoq*, olochiq – الاچیق *chodir*, saqqez – سقیز *smola*, pol bo‘yoq, kuch – کوچ *podani yozgi yaylovga ko‘chirish* kabi turkiy o‘zlashmalar fors tili lug‘at tarkibida hozirda ham mavjud [9;48].

Parrandalar, hayvonlar, o‘simliklar nomlari: o‘rdak – اوردک *o‘rdak*, qoz – قاز *g‘oz*, o‘loq - الاق *eshak*, belderchin – بلدرچین *bedana*, qush – قوش *lochin (qush)*, saman – سامان *somon*, qarch – قرچ *qo‘ziqorin*,

qaroqush – قراقوش *qirg'iy, qarchig'ay*, qoter – قاتر *xamir*, bid – بيد *kuya* (taqqoslang: qadimgi turkiy «bit» - *bit*) [9; 49].

Safavidlar va kajarlar dinastiyasi davrining saroy hayotiga oid bo'lgan ayrim o'zlashmalar arxaik so'zlarga aylandi: xonsolorboshi – خانسالارباشی *saroy a'yoni*, ayoqchi – اياقچی *saroy sharbatdori (soqiy, kosagul)*, qopuchi قاپوچی *darvozabon, darvoza qorovuli*, ishikoqosiboshi – ايشيكاكاسی باشی *saroy marosimlarini boshqaruvchi*, cho'moq – چماق *hassa, aso*, ko'mak – كمك *yordam*, so'vgeli – سوگلی *sevimli (ayol)*, ma'shuqa, do'lmoq – دلماق *tilmoch, tarjimon*, ilchi – ایلچی *elchi*, dustoq – دوستاق *turma, qamoqxona* va boshqalar.

Fors tili lug'ati tarkibida ko'p so'z turkumlariga oid turkiy o'zlashmalar mavjud. Boshqa so'z turkumlari qatorida sifatlar ham uchraydi: choq – چاق *semiz*, yoqur – ياقور *baquvvat, sog'lom*, sabo'k – سبک *yengil*, qoti – قاتی *aralash*, kuchek – کوچک *kichik* (qadimgi turkiy tilda: *kichik*), qo'lcho'moq – قلچماق *kuchli; surbet, bezbet*.

Ravish o'zlashmalarni ham ko'rish mumkin: sollone-sollone – سالانه سالانه *sekin, ohista*. M.Adamiyat «*Nutq asoslari*» asarida hozirgi zamon fors tilidagi turk-mongol tillaridan o'zlashgan 294 ta so'zlar izohini beradi [8; 49].

Turkiy va mongol o'zlashmalari fors tili so'z yasaliş tizimiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi. Ular fors tilidagi so'z yasovchi birliklarga qo'shilgan holda yasama (hosila) yoki qo'shma so'z hosil qilishda asos vazifasini bajarishi mumkin. Shunday usul orqali qopidan- قاپیدن *ushlamoq*, kuchidan – کوچیدن *ko'chmoq*, qoratidan – قارتیدن *o'g'irlamoq, talamoq*, tupxone – توپخانه *artilleriya*, feshangbiyor – فشنگ بیار *patron keltiruvchi*, jelo'vdor – جلودار *avangard*, do'gmesozi – دگمه سازی *tugma ishlab chiqarish* va boshqa shu kabi so'zlar hosil bo'lgan.

Fors tiliga o'zlashgan turkiy so'zlar bilan birga quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar ham o'tgan [9; 50]:

-chi suffiksi fors va boshqa til asoslariga qo‘shilib, kasb ma’nosini ifodalovchi so‘z yasaydi: shekorchi – شکارچی *ovchi*, ma’danchi – معدنچی *shaxtyor*, do‘ro‘shkechi – درشکه چی *aravakash*, jarchi – جرچی *jarchi*, keshikchi – کشیکچی *navbatchi* va boshqalar.

Og‘zaki uslubda ayrim shaxs otlarini ifodalashda ham –chi qo‘shimchasidan foydalaniladi. Masalan, ruznomechi – روزنامه چی *gazetachi*, mashvaratchi – مشورتچی *maslahatchi*, sinemochi – سینماچی *kinochi*, rostchi – پوستچی *pochtachi*.

-tosh suffiksi kammahsul, arxaik bo‘lib, ayrim so‘zlargagina qo‘shiladi: xeyltosh – خیلتاش *hamkasb*, *hamkor*, xojetosh – خاجه تاش *janob*, shahrtosh – شهر تاش *hamshahar*, teymurtosh – تیمور تاش *Teymurtosh* (ism).

Turkiy so‘z hisoblangan *-boshi* (bosh + i taalluqlilik suffiksi) o‘z ma’nosiga qo‘shimcha ma’no kasb etib, so‘z yasovchi birlikka aylandi. *-boshi* elementi nafaqat turkiy o‘zlashmalar tarkibida, balki arabiy va forsiy so‘zlar tarkibida ham uchraydi. Barcha yasalmalarda *-boshi* «boshliq, rahbar» ma’nolarini ifodalab, kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi hamda murojaat so‘zi vazifasini bajaradi [9,51 b]: yuzboshi – یوزباشی *yuzboshi*, bog‘bonboshi – باغبان باشی *bosh bog‘bon*, tojerboshi – تاجر باشی *bosh savdogar*, hakimboshi – حکیم باشی *bosh tabib* (*saroy a‘yonlariga, podshoh xonadoniga qarovchi shifokor*), hammolboshi – حمل باشی *bosh yuk ko‘taruvchi*, na‘lbandboshi – نعلبند باشی *bosh temirchi* va boshqalar.

Forscha so‘zlar ba’zi fonetik xususiyatlari bilan boshqa tillardagi so‘zlardan ajralib turadi. Masalan, j tovushi fors tiliga xos bo‘lib, u *gijda, mujda* kabi so‘zlar tarkibida tilimizga kirib kelgan. – and (farzand, monand), -xt (*baxt, taxt, daraxt, karaxt, poytaxt*), -sht (*go‘shht, musht, dasht, g‘isht*), -mon (*armon, darmon, qahramon*), bar- (*barno, barpo, barbod*), dar- (*darbon, dargoh, dargumon, darbadar, darhol*) kabi elementlar ham forscha so‘zlarni boshqa so‘zlardan farqlab turadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, fors tiliga o'zlashgan turkiy so'zlar arab o'zlashmalariga qaraganda u darajada faol emas. Shunday bo'lsa-da, turkiy o'zlashmalar tarkibida iqtisodiy, madaniy, ma'muriy, maishiy va boshqa sohalarga oid ko'plab so'zlar mavjud. Xususan, ko'p so'zlar harbiy, maishiy, savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va boshqa sohalarga taalluqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Ф.ф.ф.доктори (PhD) дисс... автореф.- Тошкент, 2017. - 48 б.
2. Абдушукуров Б. Эски туркий адабий тил лексикаси.- Тошкент, 2015. – 192 б.
3. Баранников А.П. Значение поздних заимствований для понимания давних языковых фактов // Доклады Академии наук СССР, серия «Б», № 05, 1929. – С. 85-88.
4. Бегматов Э. Нозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.-Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1985. -200 б.
5. Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари.- Фарғона, 2018. – 87 б.
6. Зограф Г.А. Предисловие // С.К. Чаттерджи. Введение в индоарийское языкознание. М., Гл. ред. вост. лит-ры, 1977. – 178 с.
7. Иброҳимов А. Ўзлашмаларда имло масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 2007.-№ 1. –Б.68-71.
8. Мўхаммад Нўсейн Рўкнзоде. Адамийят. Аркон-е сўхан. – Техрон, 1347 (1968).- 137 с.
9. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка.-Москва: 1975. – 205 с.

10. Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка // Персидско-русский словарь. Т.2. –Москва: Русский язык, 1983. – 350 с.

11. Смирницкий И.А. Лексикология английского языка. - Москва., 1956. -251 с.

12. Холманова З. «Бобурнома» лексикаси.-Тошкент: Фан, 2007. – 176 б.

TEMURIYLAR DAVLATINING RASMIY TILI VA UNING YOZMA YODGORLIKLARDA AKS ETISHI

*Jahongir Turdiyev,
Oriental universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqola turkiy til, uning temuriylar davlatining rasmiy tili sifatida iste'molda bo'lishi, Mazkur til imkoniyatlar va xususiyatlariga bag'ishlangan. Unda asar tilining leksik va morfologik xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Turkiy tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida uning mamlakat rasmiy tili maqomi darajasida bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bunda tilning tarixiyligi va hozirgi holat masalasini ajratish muhim ahamiyatga ega. Yozma yodgorliklar til xususiyatlarini yoritishda ana shu jihatlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada temuriylar davrida ko'chirilgan nodir yozma yodgorliklar tilining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatlari haqida bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiy til, rasmiy til, bitik, qolyozma, arab yozuvi, eski uyg'ur yozuvi, baxshi.

Turkiy til taraqqiyotida temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Amir Temur va temuriylar turkiy tilga e‘tiborni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Temuriylar davlatining yirik madaniy markazlari bo‘lmish Samarqand, Hirot kabi shaharlarda yirik xattotlik maktablari yuzaga kelib, mazkur markazlarda turli sohaga oid asarlarni turkiy tilda bitish va ko‘chirish keng miqyosda olib borildi. Dastlab sohibqiron Temur, keyinchalik Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek singari ma‘rifatparvarlar va ilm tarafdorlari sohaning boshida turdilar.

Bu davrda yozuv madaniyati, xattotlik san‘ati ham rivojlandi. Bu chog‘larda temuriylarning sa‘y-harakati, urinishi tufayli, arab xati bilan bir qatorda, ota-bobolardan meros bo‘lib kelayotgan eski uyg‘ur yozuvi, Navoiy so‘zi bilan aytganda **turkcha xat** ham keng ishlatildi.

Ko‘pgina olimlar tomonidan uyg‘ur yozuvi deb atalib kelinayotgan bitik aslida faqatgina uyg‘urlarga tegishli emas. Bu alifbo ma‘lum davr mobaynida ko‘plab turkiy xalqlarning madaniy hayotida muhim o‘rin egallab kelgan. Bu yozuv shakliy jihatdan bir paytlar juda katta hududni qamrab olgan so‘g‘d xatiga o‘xshab ketadi. Olimlarning aytishicha, har ikki yozuvning kelib chiqishi qadimgi oromiy yozuviga borib taqaladi.

Uyg‘ur yozuvi ham uzoq vaqt davomida Markaziy osiyo xalqlari tomonidan foydalanib kelingan. Qadimgi so‘g‘d yozuvi asosida shakllangan eski uyg‘ur alifbosida xat tepadan pastga yoki o‘ngdan chapga tomon yozilgan.

Garchi Markaziy osiyoda arab alifbosi uyg‘ur yozuvini siqib chiqargan bo‘lsa-da, uyg‘ur alifbosida o‘rta asrlarda ham qator asarlar, jumladan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, “Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari, Lutfiyning bir qancha g‘azallari ushbu yozuvda ko‘chirilgan. Temuriylar paytida ham ushbu alifbo amalda bo‘lgan.

Temuriylar davridan qolgan, o‘zbek kitobat san‘ati tarixida o‘ta qimmatli va nodir sanalgan yodgorliklardan biri o‘z davrining yirik

madaniyat markazlaridan bo‘lgan Hirotda Abu Malik baxshi ko‘chirgan uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmadir. Qo‘lyozma kitob hozir Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi saqlanmoqda.

Muqovasi qalin charmdan, qog‘ozi yupqa, silliq, sarg‘ish, o‘rta asrlarda Sharqda dovrug‘ qozongan Hirot qog‘ozi. Biror matn bitish mo‘ljallangan chog‘i, kitobning boshlanishida, orada ham bir-ikki o‘rinda bo‘sh varaqlar tashlab ketilgan.

Qo‘lyozmaga ikki asar kiritilgan: biri “Me’rojnomasi” bo‘lsa, ikkinchisi Farididdin Attor qalamiga mansub “Tazkiratu-l-avliyo” asarining turkiy tarjimasidir.

Uyg‘ur yozuvli qo‘lyozma Temuriylar davrida bitilgan turkiy til va adabiyotini o‘rganishda qimmatli va nodir yozma yodgorliklaridan biri bo‘lib, uni o‘z davrining yirik madaniyat markazlaridan bo‘lgan Hirotda hijriy 840 (melodiy 1436-1437) yili Abu Malik baxshi tomonidan ko‘chirilgan.

Ma’lumki, o‘tmishda baxshi so‘zi asosan kotiblarga nisbatan aytilgan. Ushbu atama qadimgi turk budda, moniy diniy jamoalarida “ustoz, murabbiy; muallim” ma’nolarida ishlatilgan [2;43].

Zamonasining xat-savodli, o‘qimishli kishilariga nisbatan qo‘llangan bu so‘z keyinchalik turkiy tilda va uyg‘ur xatida bituvchi kotiblarning nomida saqlanib qoldi. Hozirgi o‘zbek tilida esa **baxshi** so‘zi “xalq dostonchisi, baxshi”ni bildiradi. Ayrim o‘zbek shevalarida “tabib” hamda “folbin”ni ham **baxshi** deyishadi.

O‘tmishda uyg‘ur xatining bir qancha uslubiy turi ishlatilgan edi. Shunga qaramay, yozish texnikasining o‘ng‘ayligi, qulay o‘qilishiga qarab, keyinchalik yugurik xat uslubi ommalashib ketdi. Bu xat uslubidan Hirotda ijod qilgan boshqa baxshilar ham, Yazd, Samarqand, Andijon baxshilari ham keng foydalandilar.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ijod etgan chog‘larda arab xati bilan bir qatorda eski uyg‘ur yozuvi ham ishlatilar edi. Ayniqsa, XV

yuzyillikning boshlarida hali eski turkiy yozuvning mavqeyi yuqori bo‘lib, o‘sha kezlardagi ijod ahli, xususan, Mavlono Lutfiy, Sakkokiy singari katta avlod kishilarining xat savodi uyg‘ur yozuvida chiqqan, ular o‘z asarlarini ko‘proq uyg‘ur xatida yozganlar.

Navoiyning bobolari, otasi ham, el qatori, uyg‘ur xatini ishlatgan. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarining to‘qson ikkinchi faslida Mir Alisher Navoiy to‘g‘risida ma‘lumot bera turib, “Ularning otalarini “andakkina baxshi” deydurlar” deb yozgan edi. Tarixchining bu yozganlari Navoiyning otasi baxshi (kotib) o‘tganidan darak beradi; uni G‘iyosiddin baxshi ataganlari ham bejiz emas. Navoiy ham yoshlik yillari uyg‘ur xatini yaxshigina o‘zlashtirgan, ilk she‘rlari ichida o‘sha yozuvda bitilganlari ham bo‘lishi kerak, keyinchalik zamon o‘zgarishiga qarab, arab yozuviga e‘tibori ortgan ko‘rinadi.

Shu fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, Navoiy mazkur kitob bilan tanish bo‘lgan. U ushbu asarlarning uyg‘ur yozuvli ayni qo‘lyozmasini ham ko‘rgan va undan foydalangan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas.

XV yuzyillikning oxirlariga kelib uyg‘ur yozuvi iste‘moldan chiqa boshladi. Temuriylar zamonida bitilgan bebaho yozma obidalarning ayrimlari va, aytish mumkinki, eng nodirlari kunimizgacha yetib kelgan.

Temuriylar davri madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turkiy adabiyot va adabiy tilining takomili, adabiy til yozma me‘yorlarining, yozma uslublarining muayyan qolipga tushuvi va turkiy matnchilikning rivojida uyg‘ur yozuvining ulushi katta bo‘ldi. Qadimgi turk yozuv an‘anasini saqlab, turk islom dunyosida uyg‘ur xatini so‘ng bor qo‘llagan ham temuriylar edi. Temurbek o‘z davlatining rasmiy shlarida, ichki hamda xalqaro diplomatik munosabatlarda, badiiy adabiyot sohasida, bilim kishilari orasida uyg‘ur xatining keng amal qilishiga hayrixohlik qildi va buning ijrosiga katta e‘tibor qaratdi. Temuriylar davrida uyg‘ur xati turkiy yozma til “chig‘atoy turkiysi”)ning yetakchi,

butun bir saltanatning ish yurituvchi rasmiy yozuviga aylandi. Uygʻur xati Temuriylar davlatining rasmiy yozuvi edi

Yozuv madaniyati tarixida temuriylar davri uygʻur va arab yozuvlarining yonma-yon (parallel) qoʻllanilganligi bilan ahamiyatlidir. Muhimi, oʻsha kezlar uygʻur xatining mavqeyi arab yozuvidan oz emasdi. Oʻsha chogʻlardan qolgan turkiy adabiy asarlarning qoʻlyozmalari uygʻur va arab yozuvlarida. Yodgorliklarning eski, qadimiy qoʻlyozmalari koʻproq uygʻur xatida bitilgan boʻlsa, keyingi davrlarga tegishlilari arab xatidadir

Uygʻur xati temuriylar davlatining rasmiy yozuvi ham edi. Temuriylar oʻz orliqlarini, rasmiy hujjatlarini uygʻur xatida yozganlar. Temurbek oʻzi yorliqlarini, qoʻshni ellarning hukumdorlariga yoʻllagan maktublarini uygʻur xatida va turkiy tilda yozdirgan, temuriylarning shajaralari ham ayni yozuvda. Temurbekning oʻlimidan keyin Shohruh va Mirzo Ulugʻbek, Abu Said Mirzo va uning oʻgʻli Umar Shayx Mirzo ham oʻz devonida, davlat ishlarida qadimgi turkiy alifboni keng qoʻllagani maʼlum. Bu yozuvni Zahiriddin Bobur ham yaxshi bilgan.

Umuman, turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida uygʻur xatining ahamiyati katta. Uning tarixiy taraqqiyoti davomida temuriylar davri muhim bosqich sanaladi. Qadimgi turk yozuv anʼanasining davom etishida, uygʻur xatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi oʻrnini belgilashda, rasmiy va diplomatik munosabatlardagi mavqeyi ni taʼminlashda temuriylarning xizmati katta boʻldi. Eski oʻzbek adabiy tili (“chigʻatoy turkiysi”) yozma meʼyorlarining tartibga tushuvida, til uslublarining takomillashuvi, matn tuzish va kitobat ishining yangi bir osqichga erishuvi, uning gullab-yashnashida uygʻur xatining xizmati katta boʻlganini alohida taʼkidlamoq kerak. Ushbu yozuv mumtoz oʻzbek yozma adabiyotining sara asarlarini, temuriylar yaratgan ulkan obidalarni kunimizgacha yetkazib keldi.

“Me’rojnoma”ning Fransiyada turkcha xat (uyg‘ur alifbosi)da va Istanbulda arab alifbosida yozilgan ikki nusxasi mavjud. Turkcha xatdagi matn 1436-yilda Hirotda Malik baxshi tomonidan yozilgan [5;75]. Aslida “Me’rojnoma”ning har ikkala nusxasining hech qayerida asar yozilgan yil yoki muallifi haqida ma’lumot yozilmagan. Lekin majmuada “Me’rojoma”dan keyin o‘rin olgan va turkcha xatda yozilgan “Tazkiratul avliyo” asarining kolofonida Abu Malik baxshi nomi va asar yozilgan yil qayd qilingan.

Har ikkala asar bir xil alifbo, bir xil qog‘oz turi va bir xil dastxatda yozilganligi “Me’rojnoma” yozilgan yil va uning muallifi haqida ma’lumot beradi [6; 266]. Gruberning asar yozilgan sana haqidagi fikri diqqatga sazovor. Bu xususda shunday ta’kidlanadi: Tazkirada bitilgan ma’sayix avliyāların hikāyat sözləri tügätildi. Tarix sekiz yüz qırqta at yıl jumadul-axir ayniñ onıda Haruda Abu Malik baxşı bitidim. [4;12]. (Tarix sakkiz yuz qirqinchi, ot yili, jumadul-oxir oyining o‘ninchisida Hirotda Abu Malik baxshi yozdim). Uyg‘ur yozuvli bu qo‘lyozma hijriy 840 (melodiy 1436) yili Hirotda Abu Malik baxshi tomonidan ko‘chirilgan.

Tarixiy yoki badiiy asarlardagi ta’rix uch komponentdan tuzilgan bo‘ladi: sana, matnni ko‘chiruvchi kotibning oti, matn bitilgan yer. Turkiy ta’rix ana shu komponentlarning birligida iborat [Sodiqov 3;274]. Islom davri matnlarida sana aksar hollarda tarix so‘zi bilan birga keltirilib, bu so‘z qo‘llash bilan matnning yozilish sanasiga ishora qilinadi. Yuqoridagi jumalarga e’tibor qaratsak, ta’rixdan avval asar tugaganligi qayd etilgan. Bundan xattot asarlarni to‘liq ko‘chirib, o‘zining mas’uliyatli vazifasini oxiriga yetkazganini bilish mumkin. Tarix so‘zidan so‘ng hijriy sana ya’ni, sakkiz yuz qirqinchi yil yozilgan. Hijriy yildan so‘ng turkiy muchal yil nomi qayd etilgan. Demak, asar turkiy muchalning ot yilida ko‘chirilgan. Bu esa o‘sha kezlarda xalq orasida turkiy muchal yilning alohida ahamiyat kasb etganiga dalolat

qiladi. Zero, Me'rojnoma asarining muqaddimasida asarni turkiyga o'g'irishdan asosiy maqsad ham oddiy xalqning ma'naviy manfaati ekani ta'kidlangan: «Emdi bilgil-kim, bu kitabni atı “Merajnama» türür. “Nahjul-faradis» atlıq kitabdın türk tiligä evürdük. Köp kişilärgä fäyda teksün tep, Täñri ta'älänin tavfiqi birlä tamäm bitilib, xaläyiqnün köñli közigä širin körüngäy» [1;1]. («Endi bilginki, bu kitobning nomi «Me'rojnoma»dir. «Nahj ul-faradis» nomli kitobdan turkiy tilga o'g'irdik. Ko'p kishilarga foydasi tegsin deb. Tangri taoloning tavfiqi bilan yozilib xalqning ko'ngil ko'ziga shirin ko'ringay).

Turkiy tildagi «Me'rojnoma»ning uyg'ur yozuvli nusxasi Temuriylar davrida yozilgan o'zbek matnshunosligi tili, adabiyoti va o'zbek kitobchilik san'atini o'rganishda nodir yozma obidalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Courteille, Pavet de (1882). Mirâdj-nâme, Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Composé A.H. 840/1436-1437. Amsterdam: Philo Press.
2. Sodiqov Q. Eski turkiy yozuvlar. Toshkent, 2008.
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. Toshkent, 2009.
4. Sertkaya O.F. İslami devrenin uygur harfli eserlerine toplu bir bakış. Boçum, 1977.
5. Çağatay Saadet. Turk lehçeleri örnekleri. Ankara, 1950.
6. Gruber Christiane. The Timurid “Book of Ascension” (Mi'rajnama): A study of text and image in a pan-Asian context. Valencia. Patrimonio. 2008.

HSK5 XITOIY TILINI BILISH DARAJASIDA YOZUV MALAKASIGA OID VAZIFALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Shasaidova Lola Shamaksudovna,
O‘zDJTU dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. HSK5 Xitoy tilini bilish darajasida yozuv malakasi bo‘limi uch qismligina: gapni yakunlash, berilgan so‘zlardan foydalanib bayon yozish va keltirilgan rasimga insho yozish kabi vazifalardan iborat. Mazkur darajaning yozuv malakasi katta miqdordagi iyerogliflardan iborat leksik bazani, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va xitoy tili grammatikasi bo‘yicha aniq va puxta bilimlarni talab qiladi. Mazkur daraja o‘ziga xos qiziq va yetarlicha murakkab bo‘lib, vazifalarni bajarish uchun imtihon topshiruvchilar puxta nazariy va amaliy tayyorgarliklik ko‘rishlari kerak bo‘ladi. Maqolada mazkur darajaga tayyorgarlik ko‘rayotganlar uchun yozuv malakasiga oid mustaqil o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar, qo‘llaniladigan maxsus jumlar, iboralar, birikmalar, qoida, ko‘rsatma va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: HSK5 Xitoy tilini bilish darajasi, test savollari, gapni tugallash, yozuv malakasi; insho, standartlar, savol turlari.

在 HSK 五级考试的第三部分书写当中有两部分试题。考试时间是40分钟。第一部分，是第 91 到 98 题 题型是完成句子。第二部分 包括第 99 题和第 100 题 题型是写短文。

第 99 题的具体要求是 请结合下列词语，括号，要全部使用 顺序不分先后，写一篇 80 字左右的短文。 第 100 题的具体要求是 请结合这张图片，写一篇 80 字左右的短文。

这就是 99 题和 100 题的具体情况 和卷面情况。这两道题的答卷 就是右边这张图。 这个答卷跟前面的答卷也是不一样的，它用的是稿纸。那如果我们设想一下在这 40 分钟里面完成句子，也就是第 91 到 98 题需要花十分钟左右的的时间的话 那么分配给我们写短文的时间大概是半个小时左右。两个小题目各占 15 分钟，也就是 99 题，你用 15 分钟来完成；100 题也差不多 15 分钟来完成

第 99 题的具体情况是这样的： 就是请结合下列词语，括号，要全部使用 顺序不分先后，写一篇 80 字左右的短文。

在考试大纲中的样卷 这道题给的五个词语是 家乡、 如今、 偶尔、 熟悉、 想念。那么这道题有什么特点呢？。 这道题的特点主要表现在以下几个方面。

首先呢，题目给了考生一个限制 就是必须要使用这五个指定的词语。当然，使用的先后顺序 可以随意，这是第一个特点。

第二个特点是 所给的五个词语，以名词、 动词、 形容词、 副词等实词为主 但是我们也不能排除会出现虚词。

第三个特点，从样卷来看 所给的五个词难度基本是一致的。这五个词，家乡、如今、偶尔、熟悉、想念 都是五级的 2500 词当中的词语，这道题的第四个特点是 这个题目要求考生能够准确地理解这五个词语的意思 并且能够准确使用这些词语。我们再来看第五个特点，第五个特点就是答题的时间比较紧。 就是要在短短的 15 分钟时间里面，围绕这五个词构思一个中心意思或者中心事件。

语言表达要有逻辑性，这需要考生具有比较强的思维能力和想象能力。好，最后一个特点是 考试提出的要求还是比较高的。这 15 分钟时间不仅要用来思考，还要用来写出一篇 80 字左右的短文，语言表达需要准确流利 这对考生在语言水平上提出了不低的要求。所以要很好地完成这个题目 既要求考生要有相应的汉语能力，同时也很有必要 平时要在老师的指导下接受有针对性的训练

第 99 题的评分标准.

首先第一点，五个词语都要使用 而且要写满 80 字。

第二点, 语法要正确。

第三点, 不能有错别字。

第四点, 内容要连贯，而且符合逻辑，这一点是 强调的、 比较重要的。

99 题最重要的一点 就是把词语连贯地组合成段落或者说短文。所谓连贯 就是在一个中心事件或中心观点统领下 用语言进行成段表达的过程，连贯主要指两个方面。

第一是语言表达要连贯。

第二是文章的内容要连贯。

怎样才能做到内容连贯呢？给考生提出三个建议。

第一个是统一的话题,第二个是合理的顺序，第三个是前后的呼应。

统一的话题。 实际上也就是要有一个核心的事件或论题。再短的文章也需要有核心的事件和论题。只有这样，文章的词句才能围绕着这个主题，而有机地结合在一起，可以避免东拉西扯 使得文章的内容呢支离破碎。

合理的顺序。 就是说短文当中的语句按照一定的逻辑关系连接和组合起来 而不是乱七八糟、杂乱无章地堆在一起。

前后的呼应。 再短的文章也会有开头和结尾，80 字的短文当然也不例外。那么所谓的前后呼应是指 第一，短文的开头和结尾要建立一种联系，让人感觉到这是一个完整的整体。第二呢，短文的内容和意思也要前后一致，贯通顺畅。

试题以后该怎么办呢？

首先，当考生看到所给的词语以后，要根据这些词语的语意和感情色彩迅速地构思中心话题或中心事件。比如我们看到这样五个词，元旦、放松、礼物、表演、善良。你们马上会想到什么呢？我们马上就可以确定这段话、可以以元旦的活动为中心事件来写，对吧。词语中的放松、善良是带有褒义色彩的元旦、礼物、表演放到一定的语境当中也是表现积极、乐观情绪的词语。所以我们基本上可以确定，这篇短文可以表现元旦假期轻松愉快的气氛和假期生活。确定这个主题以后，你所写的内容就有了依据每个句子都围绕主题来写。保证全文的连贯性和完整性。

第二，如果所给的词语之间的相关性不像前面我们讲的那么清楚那么我们可以根据所给词语当中的名词、动词这一类的实词来确定中心话题。比如有这样五个词语：爱好、影响、烦恼、鼓励、还是。我们可以根据第一个名词爱好，来确定中心话题。围绕着这一点来展开内容。而贬义词烦恼和褒义词鼓励可以用来描述在发展这个爱好的过程当中所经历的具体的事例。**第三点**，要注意所给词语之间的内在联系寻找词语之间的连接点。

比如刚才说到的五个词元旦、放松、礼物、表演、善良。这五个词都是实词，语意很清楚。那么稍加留意我们可以发现，它们之间有着很大的关联性连接点也很明显。第一个词表明了时间，第二个词放松，表现了这时候的心情。第三个词，礼物也带

有很明显的假日特征。 第四个词，表演 也是假日当中我们常常会遇到或者直接参加的一种活动。 第五个词善良，这个是对某个人性格的描述。 所以把它们联系起来，并不是一件很难的事情。

第四，我们要发挥想象力和联想能力。 刚才样卷当中所给的五个词语 家乡、 如今、 偶尔、 熟悉、 想念。 我们可以很快找到话题，就是想念家乡。 但要把五个词都用上，这就需要考生发挥自己的想象力和联想能力。 设计一个小小的情节加进去。 一个或者几个，这样才能把五个词有机地结合起来。

下面我们试着来写 写一下这个 80 字的短文，我们用这五个词大家看一下。

我来中国留学一年了，日子过得很充实。 偶尔闲下来时，会非常想念自己的家乡 和家人、 朋友，不知道他们如今会过得怎么样。 每当这时候，我就通过网络跟他们联系一下 看到他们熟悉的面容，我觉得非常亲切和开心。 我们发挥想象力和联想能力设计了一些细节。 比如说闲下来、 如今怎么样、 网络联系、 熟悉的面容等等。 那么这样的话，就把这五个词语连贯地组合在一起了。 不会给人别扭的感觉。 拿到 试题以后，我们的第五个方法就是要学会打腹稿。 所谓打腹稿就是在默读五个词语的同时，就应该快速地考虑一下。 我这段文字要表达一个什么中心意思？ 应该先说什么、 再说什么、 最后说什么。 要在脑子里面形成中心话题或者中

心事件。也就是想好自己要写什么、怎么写。这个过程大概耗费两到三分钟是正常的。但是最多不要超过5分钟，如果默读和打腹稿的时间多于5分钟，那么就会给后面完成这个考题带来很大的压力，后面就来不及。所以建议考生看到题目以后一边默读词语，一边打腹稿，然后再动笔写作。这样写出来的短文一定是层次分明，内容清楚、井然有序的。

根据图片写短文-

人物图片：

1. 根据人物的主要动作先写最简单的句子；
2. 再从动作，表情，外貌，衣着的描绘，猜测人物的身份的惯习。根据表情动作猜测心理。这样就使短文丰富起来，充满故事性。

非人物图片：

1. 根据图片写出最简单的句子；列如：图片是一块禁止钓鱼的标志牌。可以写下禁止钓鱼。
2. 围绕这个句子提出问题，越多越好。列如：谁立了这块牌子，为什么立了？这个地方有什么特点？我的观点如何？。。。。。
3. 逐个回答在我的设问，并适度展开。

基于HSK五级书写部分的研究旨在可以丰富新HSK书写部分现有的研究成果,同时对从事新HSK五级书写部分教学的教师、辅导以及备考新HSK五级的考生提供一定的帮助,以期可以促进教学相长、以考促学、以考促教的进一步开展。

参考文献

1. [刘云](#)。新汉语水平考试HSK(五级)攻略. 写作。北京大学出版社。2014
2. [李春红](#)。 [基于汉语国际推广战略的新汉语水平考试效度研究——以新HSK五级写作测试为个案](#)。来源期刊。2013

FAXRUDDIN O‘ZJANDIYNING ILMIY MEROSI

*Ikromjonov Akmaljon,
Oriental universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Qoraxoniylar davrida yetishib chiqqan faqihlar Movarounnahr mintaqasida hanafiy mazhabining rivojlanishida katta xizmat qilganlar. Shulardan biri alloma Faxruddin O‘zjandiydir. Ushbu maqolada alloma yashagan davr ijtimoiy muhiti va allomaning ilmiy merosi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy muhit, kunya, faqih, alloma, Qoraxoniylar davri.

Faxruddin O‘zjandiyning to‘liq ismi Hasan ibn Mansur ibn Abul-Qosim Mahmud ibn Abdulaziz ibn Abdur-Razzoq al-O‘zjandiy al-Farg‘oniydir. Movarounnahda VI/XII asrda yashab ijob qilgan

Faxruddin O'zjandiy hanafiy mazhabining yetuk faqihlaridan biri hisoblanadi.

Faxruddin O'zjandiyning tavallud topgan sanasi tabaqot kitoblarida ko'rsatilmagan. Uning ustozlaridan bo'lgan Abu Ishoq Ibrohim ibn Ismoil ibn Ahmad ibn Shis ibn Hakam as-Saffor 534/1139 yili[1] vafot etgani, uning o'zi esa 592/1195 yili dunyodan ko'z yumgani haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqib, ustozdan fiqh ilmini o'rgana olishi uchun 14-15 yoshlarda bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bundan kelib chiqib, Qozixon 1124-22 yilda tavallud topgan degan fikrni ilgari surish mumkin.

Faxruddin O'zjandiy hijriy 592-yili, Ramazon oyining o'n beshinchi kuni, melodiy 1195 yili, 12 avgustda Buxoroda vafot etgan[2] va o'sha yerdagi "Al-Quzot as-Sab'a" (Yetti qozi) qabristonida dafn qilingan. Qozixonning 1122-25 yilda tavallud topib, 1195 yili vafot etganidan kelib chiqib, taxminan 70-73 yoshda vafot etgan.

Tabaqot kitoblarida u kishi "Al-Imom Al-kabir" (buyuk imom), "Al-Olim an-Nihrir" (etuk olim), "Bahr" (dengiz), "G'avvos fil-ma'oniyy" (ma'nolarga chuqur kira oluvchi), va "Fahhoma" (teran tushunuvchi), Abul-Mafoxir", "Abul-Mahasin" kabi unvonlar bilan zikr qilingan.

Ahmad ibn Sulaymon ibn Kamol Bosho (vaf. 940/1533 y.) o'zining "Tabaqotul-mujtahidin" nomli asarida faqihlarning yetti tabaqasini va har bir tabaqa faqihlarining xususiyatlarini bayon qilib, Faxruddin O'zjandiyni (vaf. 592/1195 y.) Abu Bakr Ahmad ibn Amr Al-Xassof (vaf. 261/874 y.), Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad At-Tahoviy (229/843-321/933 yy.), Abul-Hasan Ubaydulloh ibn Husayn Al-Karxiy (260/873-340/951 yy.), Shamsul-a'imma Abdulaziz ibn Ahmad Al-Halvoniy (vaf. 449/1057 y.), Shamsul-a'imma Muhammad ibn Ahmad As-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.) va Faxrul-Islom Pazdaviy (vaf. 482/1089 y.) va boshqalar qatorida uchinchi tabaqa vakili o'laroq zikr qiladi[3].

Mazkur tabaqa “طَبَقَةُ الْمُجْتَهِدِينَ فِي الْمَسَائِلِ” “Masalada mujtahid bo‘lgan faqihlar” tabaqasi deb atalib, Ibn Kamol Boshoning aytishicha, unga mansub faqihlar hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifadan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha ijtihod qila olish darajasidagi mujtahid faqihlardir. Ushbu tabaqa faqihlari mazhab asoschisiga *usul*²⁷ qoidalari va *furu*²⁸ masalalarida qarshi fikr ayta olmaydilar. Lekin ular Abu Xanifa o‘rnatgan qoidalar asosida, undan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha dalillardan hukmlarni ishlab chiqadilar[4,14].

Faxruddin O‘zjandiyning katta bobosi Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq ibn Abu Nasr ibn Ja‘far ibn Sulaymon al-Marg‘inoniy 477/1084 yili 68 yoshda Marg‘inonda vafot etgan[5,434]. U XI asrda Movarounnahrda fiqh sohasida faoliyat olib borgan yetuk faqihlardan hisoblanadi.

Faxruddin O‘zjandiyning otasi Mansur ibn Mahmud ibn Abdul-Aziz ham faqih bo‘lganligini “Fatovoi Qozixon” asarining oxirgi sahifasida kelgan quyidagi so‘zlardan bilish mumkin. Unda shunday deyilgan: “هذا آخر فتاوى الشيخ أبي المحاسن الحسن بن القاضي الإمام الأجلّ بدر الدين منصور”. Tarjimasi: “Bu buyuk imom Badruddin Mansurning o‘g‘li Shayx Abul-Mahasin Hasan fatvolarining oxirgisidir”[6,503]. Faxruddin O‘zjandiyning bobosidan ilm olib, uning tarbiyasida bo‘lganidan otasining erta vafot etgan deb, xulosa qilish mumkin.

Faxruddin O‘zjandiy ustozlarining silsilasi quyidagi tartibda berilgan: Faxruddin Qozixon (vaf. 592/1195 y.) Zahiruddin Hasan ibn Aliy al-Marg‘inoniydan (vaf. 600/1203 y.), u Burhonuddin al-Kabir Abdul-Aziz ibn Umar ibn Moza (vaf. 517/1123 y.) va Mahmud ibn Abdul-Aziz al-O‘zjandiydan, ular Shamsul-a‘imma Muhammad ibn Ahmad As-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.), u Shamsul-a‘imma Abdulaziz ibn Ahmad Al-Halvoniy (vaf. 449/1057 y.), u Al-Husayn ibn Xadr Abu

²⁷ Усул – Абу Ханифа томонидан ишлаб чиқилган ва унинг Қуръон ва ҳадисдан шаръий ҳукмларни ишлаб чиқишда қўллаган усул, метод ва қоидалари.

²⁸ Фуруъ – ишлаб чиқилган масалалар, фатволар.

Aliy an-Nasafiydan (vaf. 424/1033 y.), u Abu Bakr Muhammad ibn Fazldan al-Buxoriy (vaf. 381/991 y.), u Abdulloh ibn Muhammad ibn Ya'qub as-Subazmuniydan (258/871-340/971 yy.), u Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs Abu Hafs As-Sag'irdan (vaf. 264/877 y.), u otasi Ahmad ibn Hafs ibn Zabruqon Abu Hafs Al-Kabirdan (vaf. 150/-217/), u Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniydan (131/748-189/805 yy.), u Abu Hanifadan (80/699-150/767 yy.) ilm olgan[7,93].

Tabaqot kitoblarida Fohruddin O'zjandiyning bir qancha asar yozib qoldirgani haqida ma'lumotlar kelgan. Ularning ayrimlari bizgacha yetib kelmagan. Hozirgi kunga qadar Fohruddin O'zjandiyning to'rtta asari haqidagi ma'lumotlar o'z tasdig'ini topgan. Ular quyidagi asarlardir:

1. "Fatovo Qozixon"[8] asari (فَتَاوَى قَاضِيخَانَ).
2. "Sharh al-Jome as-Sag'ir"[9] asari (شَرْحُ الْجَامِعِ الصَّغِيرِ).

Mazkur asar ikki juzdan iborat bo'lib bo'lib, u Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniydan rivoyat qilingan "Zohirur-rivoya" nomli to'plam tarkibiga kiruvchi "Al-Jome as-Sag'ir" asariga yozilgan muhim sharhlardan biridir[10]. Asarda "Al-Jome as-Sag'ir" asarining matni sharhdan ajratib yozilmagan. Muallif "Fatovo Qozixon" asarida kelganidek avval Abu Hanifa, u kishining shogirdlari va boshqa hanafiy faqihlari, Imom Shofe'iy, Imom Molik va tobein mujtahid faqihlaridan keyin o'zining qarashini zikr etgan.

Mazkur asarning qo'lyozma nusxalari Istambul "Millet" kutubxonasida 752 raqam ostida, "Hasan Pasha II" kutubxonasida 4230 raqam ostida, "Süleymaniye" kutubxonasida 00436, 01687, 01690, 00852, 00853 va 00668 raqamlari ostida saqlanmoqda. Shuningdek, Karl Brokkelman asarning qo'lyozma nusxalari Qohirada 74 raqami ostida, Iskandariyada 32 raqami ostida, Rampurda 206 raqami ostida, Tunisdagi "Az-Zaytuna" kutubxonasida 2119 raqami ostida saqlanayotgani haqida yozgan[11].

3. "Sharh az-Ziyodot" asari (شَرْحُ الزِّيَادَاتِ).

Ushbu asar ham Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning “Az-Ziyodot” nomli asariga yozilgan sharhdir[13]. Ushbu sharhning ilmiy qiymati va o‘ziga xosligi shundaki, muallif unda avval fiqhiy qoidalardan iborat tamalni keltirib, so‘ng ular asosida masalalarni keltirgan.

Asarning qo‘lyozma nusxalari Istambul “Millet” kutubxonasida 761, 762 raqamlari ostida, “Süleymaniye” kutubxonasida 00974, 01708, 01707, 01706, 00381 raqamlari ostida, “Selimiye” kutubxonasida 824 raqami ostida saqlanadi. Shuningdek, Karl Brokkelman asarning qo‘lyozma nusxalari Iskandariyada 1330 raqami ostida, Berlinda 1191 raqam ostida, Bag‘dodda 4050 raqami ostida saqlanayotganini yozgan[14].

4. “Kitab masa‘il al-gurur” asari (كِتَابُ مَسَائِلِ الْغُرُورِ).

Karl Brokkelmanning yozishicha, ushbu asarning qo‘lyozma nusxasi Berlin Davlat kutubxonasida saqlanmoqda. Kavakji mazkur asarning mustaqil asar ekanini shubha ostiga olgan.

Faxruddin O‘zjandiyning hozirgi davrga qadar yetib kelmagan asarlari:

1. “Sharh al-Jome al-kabir” asari (شَرْحُ الْجَامِعِ الْكَبِيرِ)

Ushbu asar haqida faqat Ismoil Posho, shuningdek Hoji Xalifa “Al-Jome al-kabir” asarining sharhlari qatorida zikr etgan[15]. Qozixonning ushbu asarga sharh yozganini uning “Sharh al-Ziyodot” asarida “Biz bu haqda al-Jome al-kabir asarida aytib o‘tganmiz” degan so‘zi ham isbotlaydi.

2. “Sharh adab al-Qoziy”[16] asari (شَرْحُ آدَبِ الْقَاضِي لِلْخَصَّافِ).

Ushbu asarning qo‘lyozma nusxalari hozirgacha aniqlanmagan.

3. “Al-Voqeot”[2] asari (الْوَأَقِعَاتُ).

4. “Al-Amaliy fil-fiqhi”[2] asari (الْأَمَالِي فِي الْفِقْهِ).

Hoji Xalifa ushbu asarni “Amaliy al-Imam Faxruddin Qozixon” deb keltirgan. Shamsuddin Zahabiy o‘zining “Siyarul-A‘lom” asarida

“Men ko‘rgan ko‘p o‘rinlarda imlo qildirgan” deb yozgani asar xususida aytilgan bo‘lishi mumkin[17]. Shuningdek, Zahabiy “Tarixul-Islom” asarida “Men uning “Al-Amaliy” asarining bir jildini besh yuz sakson to‘qqizinchi yili ko‘rganman” deb yozgan[12].

5. “Al-Mahodir”[2] asari (المَحَاضِرُ).

6. “Adab al-fudalo fil-lug‘ati” asari (آدَابُ الْفُضَلَاءِ فِي اللُّغَةِ)

Ushbu asarning Qozixon qalamiga mansub ekani haqida faqat Ismoil Posho “Hadiyya al-‘orifin” ma’lumot keltirgan.

Faxruddin Qozixon qoldirgan ilmiy meros asosan fiqh ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asarlari aholi o‘rtasida yozaga kelgan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal qilishda asosiy qo‘llanma vazifasini bajargan. Shundan xulosa qilib, mazkur alloma ilmiy merosini o‘rganish tariximizning huquqiy jihatini yoritishda katta hissa qo‘shadi deb aytish mumkin.

Faxruddin O‘zjandiy Qoraxoniylar davrida Buxoroda qozi vazifasiga tayinlangan. Uning Oli Moza oilasiga muxolif bo‘lgan Ibrohim ibn Abu Nasr as-Saffordan dars olgani uning bu mansabga o‘tirishiga to‘sqinlik qilmagan. Faxruddin O‘zjandiyning bobosi Mahmud ibn Abdul-Aziz al-O‘zjandiy va Abdul-Aziz ibn Umar ibn Mozalarning bir ustoz Shamsul-aimma ac-Saraxsiydan dars olishgani, shuningdek, Faxruddin O‘zjandiyning ustozlaridan biri bo‘lgan Zahiruddin al-Hasan ibn Aliy al-Marg‘inoniyning ham Abdul-Aziz ibn Umar ibn Mozadan fiqh ilmini o‘rgangani buni isbot etadi. Shuningdek, Qoraxoniy xoqonlar o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun mansablarga o‘zlariga xayrixoh bo‘lgan ulamolarni tayinlashga intilishgan. Shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, Faxruddin Qozixonning Qoraxoniylar tomonidan qozilik mansabiga tayinlangani u kishining nafaqat faqih va qozi, balki ayni vaqtda hokimiyatni qo‘llagan faqihlardan ham bo‘lganiga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Исмоил Пошо ал-Бағдодий. Ҳадийятул-орифин. 2 жилдли. – Байрут: Дор ихйо ат-турос ал-арабий, 1951. Ж.1. – Б. 9 (Бундан кейин: Ҳадийятул-орифин.); Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 24; Кавакжи. – Б. 224

2.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А’лом. Ж.2. – Б. 224; Каҳҳола. Мў’жам. Ж.1. – Б. 594; Тошкўпризода. Ж.2. – Б.252

3.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-муҷтаҳидин. // Абу ‘Абдурахмон ибн ‘Ақил таҳрири остида. – Миср: Матба‘ат ал-Жабловий, 1977. – Б. 14. (Бундан кейин: Ибн Камол Пошо. Табақот ал-муҷтаҳидин.); Ибн Қутлубуғо. Ат-Тасҳиҳ ала Муҳтасар ал-Қудурий. – Б. 23; Ибн ал-Имод. Шазарот аз-заҳаб. Ж.6. – Б. 504; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111

4.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-муҷтаҳидин. – Б. 14.

5.Самъоний. Ал-Ансоб. Ж.11. –Б 249; Ал-Қураший. Ал-Жавохир. Ж.2. – Б. 434

6.Фатовои Қодихон. УзР ФА ШИ № 11228. Ж. 4. – Б. 503 (Бундан кейин: Фатово Қозихон).

7.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111, 107, 166, 342, 261, 162, 113, 303, 177, 39, 268; Аз-Заҳабий. Сиярул-Аълум. Ж.12. – Б. 617; Ал-Қураший. Ал-Жавохир. Ж.2. – Б. 93, 74, 437

Ал-Қураший. Ал-Жавохир. Ж.2. – Б. 93; Ибн Қутлубуғо. Тож ат-Тарожум. – Б. 151; Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. Ж.3. – Б. 116; 8.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А’лом. Ж.2. – Б. 224; Каҳҳола. Мў’жам. Ж.1. – Б. 594; Тошкубризода. Мифтоҳ ас-саода. Ж.2. – Б. 252; Ибн ал-‘Имод. Шазарот аз-заҳаб. Ж.6. – Б. 504

Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. Ж.2. – Б. 93; Ибн Қутлубуғо. Тож ат-Тарожум. – Б. 151; Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. Ж.3. – Б. 116; 9.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. Ж.2. – Б. 224; Каҳҳола. Мў‘жам. Ж.1. – Б. 594; Тошқубризода. Мифтоҳ ас-саода. Ж.2. – Б. 252; Ибн ал-‘Имод. Шазарот аз-заҳаб. Ж.6. – Б. 504; Ҳадийя ал-‘орифин. Ж.1. – Б. 280

10.Сезгин Ф. Тарих ат-турос ал-арабий. 4 жилдли. Махмуд Фаҳмий Ҳижозий томонидан араб тилига таржима қилинган. Арафа Мустафо ва Саид Абдур-Раҳим таҳрири остида. – Ар-Риёд. 1991. Ж.1. 3-Фасл. – Б. 69 (Бундан кейин: Сезгин. Тарих ат-турос.)

11. Броккелман К. Тарих ал-адаб ал-арабий. 6 жилдли. Абдулҳалим Нажжор томонидан араб тилига ўгирилган. – Қоҳира: Дор ал-Маориф, 1959. Ж.3. – Б. 254 (Бундан кейин: Броккелман. Тарих ал-адаб.); Сезгин. Тарих ат-турос. Ж.1. – Б. 69

12. Ибн Қутлубуғо. Тож ат-Тарожум. – Б. 151; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. Ж.2. – Б. 224; Каҳҳола. Мў‘жам. Ж.1. – Б. 594; Тошқубризода. Мифтоҳ ас-саода. Ж.2. – Б. 252

13.Сезгин. Тарих ат-турос. Ж.1. 3-Фасл. – Б. 58

14. Броккелман. Тарих ал-адаб. Ж.3. – Б. 254; Сезгин. Тарих ат-турос. Ж.1. 3-Фасл. – Б. 58

15.Ҳадийя ал-‘орифин. Ж.1. – Б. 280; Ҳожи Халифа. Кашф аз-зунун. Ж.1. – Б. 569

16. Ибн Қутлубуғо. Тож ат-Тарожум. – Б. 151; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. Ж.2. – Б. 224; Каҳҳола. Мў‘жам. Ж.1. – Б. 594; Тошқубризода. Мифтоҳ ас-саода. Ж.2. – Б. 252; Ҳадийя ал-‘орифин. Ж.1. – Б. 280

17. Аз-Заҳабий. Сиярул-Аълум. Ж.21. – Б. 232

ARAB NAHVCHILARI TALQINIDA “MAF’UL”LAR MASALASI

*Isamutdinov Azizbek,
Oriental universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Arab nahvining rivojlanishi jarayoniga nazar tashlanadigan bo‘lsa, undagi grammatikaga oid atamalarning davr va grammatik maktablarning yo‘nalishlari bir-biridan farqlanishiga ko‘ra turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. Shu bois maqolada maf’ul va unga arab nahvchilarining talqini masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: gap bo‘laklari, tushum kelishigi, naxv, sarf, i’rob, lahn.

Hijriy birinchi va ikkinchi asr nahvchilari, xususan, Abu-l-Asvad ad-Dualiy, Nasr ibn Osim, Yahyo ibn Ya‘mur al-Udvoniy, Maymun al-Aqran, Anbasa al-Fiyl, Abdurahmon ibn Harmuzlar tomonidan “al-arabiyya”, “al-kalom”, “lahn”, “i’rob”, “majoz” so‘zlari “nahv” ma’nosida qo‘llanilgan. Biroq ularning “nahv” terminining ishlatganlari ma’lumotlarda uchramaydi. Bu tabiiy holdir. Chunki nahv ilmi davr o‘tishi bilan rivojlanib borgan²⁹.

“Lahn” so‘zi to‘g‘risida asar muallifi Avz Hamd al-Qavziy shunday deydi: “lahn” so‘zini “nahv” ma’nosida birinchi bo‘lib Umar ibn Xattob (r.a) ning so‘zida uchratamiz. U: “Faroiz, sunnat va lahni Qur’onni o‘rganayotganlaringdek o‘rganinglar”,- dedi. Abu Bakr al-Anboriy bu borada Yazid ibn Horun ushbu gapni aytganida unga “lahn” nima deyilganini, shunda u “nahv” deb aytganini aytadi (QMN, 9).

²⁹ ҚМН – Авз Ҳамд ал-Қавзий. Ал-Мусталаҳу-н-наҳвий: нашъатуҳу ва татаввuruҳу. – Б. 16

“I’rob” so‘zi ham hijriy birinchi asrda keng tarqalgan termin bo‘lgan. Bu haqida Suyutiy Umar ibn Xattobdan qilingan rivoyatni keltiradi va uning “Abu-l-Asvad Basra ahliga i’robni ta’lim bersin” deganida “i’rob” so‘zini “nahv” ma’nosida qo‘llaganini aytadi.

“Majoz” so‘zi ham “nahv” ma’nosida kelgan ilk terminlardandir. Bu so‘z bilan ayni hozirgi kundagi “nahv” atamasining aynan ma’nosi ifodalangan bo‘lmasada, o‘sha paytda tinglovchi so‘zlovchini tushunishi uchun jumladagi so‘zlarning bir-biri bilan tartibi va qanday bo‘lishi nazarda tutilgan. “Majoz” so‘zi hijriy 208 yil Abu Ubayda davrigacha balog‘atdagi ma’nosida bo‘lmagan”, - deydi professor Ibrohim Mustafu (QMN, 16).

“Nahv” atamasiga kelsak, Al-Lays bizga Abu-l-Asvadning arab tilining tomonlarini belgilab odamlarga انحو نحوه degani, shundan so‘ng “ نحو ” deb nomlanib ketganligi yetib kelgan deydi (QMN, 16).

Imom Dovudiy “nahv” so‘zining ma’nolarini quyidagi baytlarida keltirib o‘tgan:

لِلنحو سبع معانٍ قد أتت لغةً جمعتها ضمن بيت مفرد كمالاً
قصدٌ، مثلٌ، مقدارٌ، ناحيةٌ، نوعٌ، بعضٌ، حرفٌ، فاحفظ المثلاً

“Tilda “nahv”ning yetti ma’nosi kelgan,

Ularni bir baytda to‘liq jamladim.

“Maqsad, misl, miqdor, taraf,

Tur, ba’zi, harf” bo‘lib masalni yod ol”

Abu-l-Asvad ad-Dualiy o‘z davrida qoidalarni tushuntirishda aynan terminning nomini aytib keltirmagan bo‘lsada, termin ifodalaydigan ma’noni, aniqrog‘i, qoidani his qilib tushuntirib bergan. Uning shogirdlari davrida esa terminlar anchagina yo‘lga tushib qolgan edi. Hatto olimlar bosh kelishikdagi ismlarning birini “foil” va yana boshqasini “maf’ul” deb nomlashgach Abu-l-Asvad “foil” va “maf’ul” boblariga asos soldi deb ham aytishgan. Garchi

Abu-l-Asvadning o‘zi “foil”, “maf’ul”ni bilmagan bo‘lsada. Ehtimol, “raf” va “nasb”ni ham bilmagandir. Bu atamalarga u asos solgan deyilishining sababi “raf”, “nasb” alomatlarini yaratish to‘g‘risida birinchi bo‘lib u fikr yuritganligidir (QMN, 16).

“Maf’ul”lar masalasi arab nahvchilari tomonidan juda keng ko‘lamda o‘rganilgan. Biroq ushbu terminning ishlatilishi arab nahvining rivojlanish bosqichiga ko‘ra asarlarda bir xilda namoyon bo‘lmaydi. Jumladan, arab nahvshunoslaridan XII asrda yashab ijod etgan Abu Abdulloh Jamoliddin Ibn Molikning “Alfiyya” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Al-Xulosa” asarida ushbu termini yaxlit holatda ishlatilganini yoki atama sifatida ishlatilgani kuzatilmaydi. Balki maf’ullarning gapda ifodalanishi va bajaradigan vazifalari ularning lug‘aviy ma’nosi bilan izohlanganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq XII asrning oxiri XIII asrning boshlarida yashab ijod etgan arab nahvshunoslaridan Abu Muhammad Abdulloh Jamoliddin Ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Hishom al-ansoriy va Abdulloh Bahouddin ibn Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Abdulloh ibn Aqiyllarning uning ushbu asariga yozgan sharhlarida maf’ullarning har birini atama sifatida ishlatilganini kuzatishimiz mumkin. Arab nahvshunoslarining “maf’ul”lar to‘g‘risida keltirgan fikrlari va ularning bir-biriga naqadar muvofiqligi borasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

XX asr arab nahvshunoslaridan Mustafu G‘alayiyniyning maf’ul bihiga bergan quyidagi ta’rifi bilan tanishib chiqamiz: “Bajaruvchining ish-harakati nimaning ustida ro‘y bersa, ish-harakatning bo‘lishli yoki bo‘lishsiz bo‘lishidan qat’iy nazar o‘sha narsani anglatuvchi so‘z maf’ul bihidir. Buning uchun fe’l shakli aniq nisbatda turadi. Masalan:

بريت القلم – qalamni yo‘ndim.

ما بريت القلم – qalamni yo‘nmadim.

Agar fe'l gapda bittadan ko'proq maf'ul bihini talab qiladigan bo'lsa, maf'ul bihi uyushib keladi. Masalan:

أعطيت الفقيرَ درهماً – Faqirga dirham berdim.

ظننت الامرَ واقعاً – Ishni bo'ldi (ro'y berdi) deb o'ylabman.

أعلمت سعيداً الامرَ جلياً – Saidga ishni aniq ekanligini bildirdim"[1].

Maf'ul bihiga berilgan ushbu ta'rif va uning gapda uyushib kelishi to'g'risidagi fikr boshqa arab nahv kitoblarida keltirilgan ma'lumotlar bilan mushtarak. Biroq Ibn Aqiyl gohida jumladagi ma'no aniq ko'rinib turganida to'ldiruvchi bosh kelishikda, gapning egasi esa tushum kelishigida kelishi mumkinligini aytib, “خرق الثوبُ المسمارَ” – Mix kiyimni teshdi (kelishik qo'shimchalariga ko'ra so'zma-so'z tarjima: kiyim mixni teshdi)” misolini keltiradi va o'z navbatida bunga qiyosan ish ko'rilmaligini ham aytib o'tadi[2].

Shuni ham aytib o'tish kerakki, ibn Molik “maf'ul bihi”ni alohida mavzu ostida emas, balki fe'llar va ularning turlarini tushuntirish orqali ifodalab bergan[2].

Mustafo G'alayiyiy maf'ul bihini ikkiga sarih va g'oyri sarihga, ochiq va ochiq bo'lmagan turlarga bo'ladi va sarihning o'zini o'z navbatida zohir (alohida ko'rinib turgan) va muttasil (birikma olmosh bilan ifodalangan) ga ajratadi. Misol sifatida فتح خالد الحيرة - Xolid Hiyrani fath qildi; أكرمتك – Seni hurmat qildim, jumllarini keltiradi[2].

Ko'rinib turibdiki, maf'ul bihining sarih turi o'zbek tilidagi oddiy to'ldiruvchili gapga to'g'ri kelmoqda.

G'oyri sarihni ham quyidagi uch qismga bo'ladi: 1) o'zidan keyingi so'zning ma'nosini masdarning ma'nosiga tenglashtirib beradigan yuklama bilan kelgan gap. Masalan, علمت أنك مجتهدٌ - tirishqoq ekanligingni bildim; 2) ma'nosi bir so'z ma'nosiga teng bo'lgan jumla, masalan, ظننتك تجتهد - seni qattiq harakat qilyapsan deb o'yladim (ظن –

o‘ylamoq fe’li ikkita maf’ul bihini talab qiladigan fe’lardan bo‘lib, jumladagi birikuvchi olmosh uning birinchi maf’ul bihisi, harakat qilmoq fe’li esa ikkinchi maf’ul bihisi o‘rnidadir); 3) predlog bilan kelgan qaratqich kelishigidagi ism, masalan, أمسكت بيدك - qo‘lingni tutdim[2].

Maf’ul bihining g‘ayri sarih turining birinchi va ikkinchi bandi to‘ldiruvchi ergash gap ekanligi ko‘rinmoqda. Uchinchi banddagi misolda esa predlog bilan kelayotgan to‘ldiruvchi aslida fe’lning ma’no talabi bilan predlogsiz tushum kelishigida kelishi kerak edi. Shunga ko‘ra ushbu o‘rinda predlog maf’ul bihini ochiqdan –ochiq tushum kelishigida ko‘rinishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun ham maf’ul bihining biror predlog yoki yuklama sababli ochiq-oydin tushum kelishigida ko‘rinmasligi g‘ayri sarih deb olinmoqda.

M.G‘alayiyniy maf’ul bihini yuqoridagi turlarga bo‘lganidan so‘ng uning hukmlari to‘g‘risida quyidagilarni keltiradi:

- 1) maf’ul bihini tushum kelishigida keltirish shart;
- 2) jumlada borligi bilinib turgan vaqtda uni tushirib qoldirish mumkin. Masalan, هل رأيت خليلاً؟ - رأيث - Xalilni ko‘rdingmi? – Ko‘rdim. Maqsadning maf’ul bihi anglatadigan ma’no bilan bog‘liq bo‘lmaganligi uchun maf’ul bihi keltirilmaydi va bor deb faraz ham qilinmaydi. Masalan, (Zumar surasi, 9-oyat). Agar to‘ldiruvchining borligini bildirib turadigan so‘z mavjud bo‘lsa, o‘zidan keyin ikkita to‘ldiruvchini talab qiluvchi gumon fe’llaridan so‘ng har ikkala maf’ul bihini yoki bittasini tushirib qoldirish mumkin. Bittasini tushirib qoldirilganligiga Antaraning she’ridan quyidagi misol: ولقد نزلت فلا تظني - kelding, mahbub o‘rnida gumon qilma, غيرِه - مني بمنزلة المحب المكرم - undan o‘zgani bo‘ldi deb gumon qilma... tarzida bo‘lgan. Ikkala maf’ul bihining ham tushirilib qoldirilganligiga misol: (Qasos surasi, 62-74-oyatlar), ya’ni تزعمونهم شركائى - ularni mening sheriklarim deb gumon qilasizlar.

3) fe'lini tushirib qoldirish mumkin. Masalan, من أكرم؟ - العلماء - kimni hurmat qilay?- Olimlarni. Masal va shunga o'xshash frazeologik iboralar va turg'un birikmalarda fe'lni tushirib qoldirish shart bo'ladi. masalan, ارسل الكلاب على البقر - "itlarni sigirlarga", ya'ni - itlarni sigirlarga yubor. Hush - جئت اهلاً و نزلت سهلاً , اهلاً و سهلاً ya'ni kelibsiz[3].

Mustafo G'alayiyning maf'ul bihining hukmlari deb keltirgan ma'lumotlaridan birinchi bandi ahamiyatga molikdir. Chunki maf'ul bihining tushum kelishigida kelishigi masalasi Sibavayhi va ibn Molik va ibn Aqiyllar va ulardan boshqa zamonaviy arab nahvshunoslari, jumladan, Hifni Nosiflarning fikrlarida ham o'z aksini topgan.

Maf'ul bihini egadan oldin va undan keyin keltirish. Mustafo G'alayiy maf'ul bihini egadan oldin va undan keyin keltirish borasida quyidagilarni keltiradi:

Aslida fe'liy jumlaning egasi fe'ldan keyin uning bir qismi sifatida keltiriladi. So'ng maf'ul, ya'ni gapning ikkinchi darajali bo'lagi keltiriladi. Gohida esa buning teskarisi bo'lib, bu holat ba'zida mumkin, ba'zida shart, ba'zida esa mumkin emas.

Maf'ul bihini egadan oldin yoki undan keyin keltirish كتب زهيرٌ - Zuhayr darsni yozdi kabi jumlalarda mumkin. Biroq birini boshqasidan oldin keltirish beshta o'rinda shart bo'ladi. Bular quyidagilar:

1) ega bilan maf'ul bihining kelishiklari aniq bilinmaganda avval ega so'ng maf'ul bihini keltirish shart bo'ladi. masalan, علم موسى - Muso Iysoga ta'lim berdi. Yoki أكرم ابني اخي - O'g'lim akamni hurmat qildi.

2) Maf'ul bihiga qaytuvchi olmosh egaga qo'shilib kelganda, masalan, أكرم سعيداً غلامه - Saidni g'ulomi hurmat qildi. Chunki qaytuvchi olmosh o'zidan keyingi so'zga qaytmaydi. Qaytuvchi olmoshning o'zidan keyingi so'zga qaytishi ayrim she'rlarda uchraydi. Masalan, ولو

agar ulug‘lik - أن مجداً أخذ الدهرَ واحداً من الناس أبقى مجده الدهرَ مطعماً odamlardan birortasini boqiy qoldirganida edi, Mut‘imning ulug‘ligi uni boqiy qoldirgan bo‘lardi. Ushbu holat she‘rda zarurat yuzasidan bo‘lsa, garchi yaxshi ko‘rinmasada ruxsat berilgan. Biroq nasrda mumkin emas. Agar maf‘ul bihiga egaga qaytuvchi olmosh qo‘shilgan bo‘lsa, maf‘ul bihini egadan oldin ham undan keyin ham keltirish mumkin. Masalan, أكرم الاستاذ تلميذه و أكرم تلميذه الاستاذ - Ustoz shogirdini hurmat qildi. Chunki oldin yoki keyin kelishidan qat‘iy nazar eganing o‘rni oldinda bo‘ladi.

3) Ega fe‘l kesim tarkibida bo‘lib, maf‘ul bihi ham birikuvchi olmosh bilan keltirilgan bo‘lsa. Bunda ham eganing maf‘ul bihidan oldin keltirilishi shart bo‘ladi. masalan, أكرمته - uni hurmat qildim.

4) Biri birikuvchi olmosh, ikkinchisi aniq ism bo‘lsa, birikuvchi olmosh bilan kelganini oldin keltirish shart bo‘ladi. masalan, أكرمت علياً – Alini hurmat qildim; أكرمنى على – Ali meni hurmat qildim.

5) انما va الا yuklamalari bilan ish-harakat gapning biror bo‘lagida cheklanganida o‘sha bo‘lakni keyin keltirish kerak bo‘ladi. masalan, ما أكرم سعيد الا خالداً - Said Xolidnigina hurmat qildi; yoki ما أكرم سعيداً الا خالداً - Saidni Xolidgina hurmat qildi. انما أكرم سعيداً خالداً - Saidni Xolidgina hurmat qildi.

Ushbu keltirilgan fikrlar bilan Ibn Molik va Ibn Aqiyl, Ibn Hishomlarning fiklari mushtarak. Ushbu olimlarning fikrlari o‘rtasida qarama-qarshiliklar yo‘q. Biroq shuni ham aytib o‘tish kerakki, Ibn Aqiyl انما bilan chegaralangan ismni gapning oxirida keltirish shart, chunki uning chegaralanayotgani gapning oxirida keltirilayotgani bilan bilinadi, lekin الا bilan chegaralanayotgan ismni oldinham keyin ham keltirish mumkin, deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. الشيخ مصطفى غلابيني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 394.

عبد الله بهاء الدين بن عبد الله بن عبد الرحمان بن عبد الله بن عقيل. شرح ابن عقيل. 2.
علي الفية ابن مالك. مكتبة دار التراث. القاهرة. 2005م. الصفحة-264
الشيخ مصطفى غلاييني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 3.395

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA ARAB TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Yakubova Feruza Rashidovna,
Oriental universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamnaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida arab tili darslarining samaradorligini oshirish, xususan bumerang texnologiyasining arab grammatik qoidalarini tushuntirishdagi ahamiyati va undan foydalanish yollari va ko'rsatmalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogika, texnologiya, innovatsion texnologiya, an'anaviy ta'lim, bumerang texnologiyasi, interfaol usullar, pedtexnologiya. ta'lim samaradorligi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda shu jumladan ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa chet tillariga bo'lgan munosabat keskin o'zgardi, talab oshdi. Hozirda zamonaviy, o'z kelajagini yorqin tasavvur qilgan har bir talaba chet tillarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ma'lumki, 2011-yil kuzida "Jamiyat, madaniyat, til" mavzusida Moskva shahrida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman bo'lib o'tdi. Ushbu anjumandan so'ng dunyodagi barcha mamlakatlar globallashuvning umumiy tilini joriy etish maqsadida bir qator islohotlar olib bordi. Jumladan, yurtimizda ushbu islohatlarni amalga oshirishni ko'zda tutib qabul qilingan Prezidentning 2012-yil 10- dekabr kungi "Chet tillarini

o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi [1.]. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” [2] gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillar o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi. Yuqoridagi qarorning bugungi kunda amalga oshirilayotganligini va chet tilini o‘qitishga katta ahamiyat berilayotganligini hisobga olib, biz o‘qituvchilar mamlakatimiz rivoji va ravnaqiga o‘z ona tilimiz qiyosida boshqa tillarni shu jumladan sharq tillarini ilmga chanqoq talabalarga o‘rgatish orqali o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Ana shunday islohatlarning samarasi o‘laroq ingliz tilini puxta egallagan yoshlar ko‘paydi, ularda o‘z bilimiga ishonch shakllandi. Endi ular ingliz tili bilan kifoyalanmay, balki yana biror sharq tillarini o‘rganishga ehtiyoj seza boshladilar.

Shunday ekan, o‘zbek yoshlarining hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari, zamonaviy bilim berishda munosib sharoitlar yaratib berilgan bir davrda shet tillarini o‘rgatishda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh til o‘rgatishdagi samaradorlik deganda nimani tushunish mumkin?

“Samaradorlik” so‘zi ma’lumki, “foydali bo‘lish”, “yaxshi natija berish” degan ma’nolarni ifodalaydi [3]. Arab tili darslari samaradorligini oshirish uchun sharq tili o‘qituvchisi o‘z faoliyati davomida yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib, ularni yangilab borishi va yordamchi o‘quv vositalari (ko‘rgazmali qurollar, turli rasmlar, tarqatma materiallar, o‘qitishning texnik vositalari)ni har doim takomillashtirib bormog‘i lozim. Ana shunday tashkil etilgan dars jarayonida talabalarning sharq tiliga bo‘lgan qiziqishlari ortib boradi.

Ma'lumki, ilgari an'anaviy ta'limda talabalarlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ishlash ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv tarbiya jarayonida interfaol usublardan foydalanib, darsning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni talabalar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishiga, shuningdek, erkin fikrlab kursdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan birga boshqaruvchilik, yunaltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday dars jarayonida talaba markaziy ishtirokchiga aylanadi [4;9]

Sharq tillarini o'qitishda hozirda keng qo'llanilayotgan klaster, aqliy hujum, charxpalak, BBB, baliq skileti, kabi ko'plab metodlar sizga ma'lumdir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki har bir oqituvchi dars davomida jahon standartlari talabiga javob beruvchi pedtexnologiyalar bilan bir qatorda, o'zining shaxsiy usullaridan foydalanishi yoki mavjud texnologiyaga o'zgarish va qo'shimchalar kiritishi mumkin, toki bu guruh saviyasi va talabalarning iqtidori bilan bogliq.

Hozirda aksariyat til o'rganuvchilar tilni ko'p yillar davomida o'rganishlariga qaramasdan unda muloqat qilishga qiynaladilar. Talabalar guruh oldida gapirishga uyaladilar. Ko'pincha talabalarning gapirish darajalari imtihon qilinmaydi va imtihonlar aksincha grammatikaga asoslangan bo'ladi. Katta guruhlarda har bir talabaga yetarlicha tildan foydalanish uchun imkoniyat berish qiyin. Ana shunday

dolzarb muammolarni oldini olishda, darsni interfaol usullar asosida pedtexnologiyalardan unumli foydalangan holda tashkil etilishi ma'lum ma'noda yordam beradi.

Darslarda vazifa turiga qarab talabalar alohida, juft yoki guruh bo'lib ishlashlari mumkin. Shunday interfaol darsni tashkillashtirishda ko'p pedtexnologiyalar qatorida bumerang texnologiyasini ham misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu texnologiya aksariyat hollarda siyosiy va ijtimoiy fanlarda ishlatiladi. Lekin biz uni sharq tillarini o'rgatishda ham foydalanishimiz mumkin. Bumerang texnologiyasi orqali yangi mavzuni tushuntirish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida samarali foydalanish mumkin.

Arab tili grammatikasidagi katta xajmli, bir necha qoidalarni o'zida birlashtirgan mavzular borki, masalan jins kategoriyasi, xol, ergash gapli qo'shma gaplar kabi mavzularini tushuntirishda bumerang texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1. Ma'lum mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan tarqatma material tayyorlanadi. Shunda mavzu yoki mavzuga aloqador bo'lgan qoidalar 3-4 qismga bo'linadi.

2. Talabalar 3-4 guruhga taqsimlanadi. Har bir guruhda masalan 4 tadan talaba bor.

3. 1- guruhga mavzuning birinchi qismi beriladi. Guruhdagi har bir talabaning qo'lida alohida nus'ha bo'lishi kerak. 2- guruhga mavzuning ikkinchi qismi, 3-4 guruhlarga 3-4 qismlari beriladi.

4. Guruhlar qo'llaridagi ma'lumotlarni o'zlashtirishlari uchun 10 daqiqa ajratiladi..

5. Belgilangan vaqtdan so'ng har bir guruhdan bir vakil doskaga birma-bir chiqib o'ziga berilgan qism bo'yicha ma'lumotlarini boshqa guruhlarga tushuntirib beradi, misollar doskaga yoziladi va

sharhlanadi. Natijada talabalar yangi mavzuning barcha qismi bilan to'liq tanishib oladilar.

6. O'qituvchi tomonidan har bir guruh o'ziga berilgan qism bo'yicha murakkab bir savol tayyorlash buyuriladi.

7. Guruhlar navbat bilan tayyorlangan savollarni o'qiydilar. Har bir guruh o'z javob variantini aytadi. Batafsil javob bergan guruhga 3 bal, qisman berilgan javobga 2 bal. To'ldirish kiritgan guruhga esa 1 bal bilan baholanadi.

8. Yoki savol- javobni boshqacha tarzda ham olib borish mumkin, ya'ni savollar o'qituvchi tomonidan o'qiladi guruhlar esa navbat bilan javob beradilar.

9. O'qituvchi barcha jarayonni kuzatib, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatadi hamda mavzuga umumiy xulosa yasab beradi.

Ushbu pedtexnologiyada o'qituvchilar markaziy o'ringa emas, balki talabalar markaziy o'ringa qo'yilib, o'qituvchilar faqat mavzuni o'zlashtirishda talabalarga yordamchi yoki boshlovchi vazifasini bajaradi. Bunda talabalarda mustaqil ishlash qobiliyati yanada rivojlanadi.

Turli rangba-rang rasmlarni hikoya qilib berish, qisqa filmlarni tomosha qilish va birgalikda muhokama qilish, mavzuga mos yangiliklarni tinglash va tushunishga xarakat qilish. Shunga o'xshash boshqa ko'plab til o'rgatish usullarini keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol uslublar muntazam muloqatga asoslangan uslublar bo'lib, talabalarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimiga aytiladi. Ushbu yangi innovatsion chet tillarini o'qitish uslublariga tayangan holda dars berish o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda. Arab tili grammatikasidagi katta xajmli, bir necha qoidalarni o'zida birlashtirgan mavzular masalan, jins kategoriyasi, xol, ergash gapli qo'shma gaplar kabi mavzularini

tushuntirishda bumerang texnologiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10- dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875- sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 23.09.2020 tildagi O‘RQ-637- son.

3. Usmonova N., Azlarov E., Sharipov G. O‘zbek tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1991.

4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar, Toshkent-2013; 9-bet.

5. Usmonova N., Azlarov E., Sharipov G. O‘zbek tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1991

6. Ismailova Sh.K. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash shartlari. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2009.

ARAB TILIDA MURODIFLAR VA SINONIMIYA HODISASINING TURLI XILLIGI

*Mahmuda Po‘latova,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada murodiflar - sinonimlar haqida tushuncha berilib, ularning arab tili lug‘at boyligidagi o‘rni, ahamiyati haqida so‘z borgan. Arab tilidagi sinonimlar tahlil qilinib, ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari ko‘rib chiqilgan. Ba’zi misollar qiyosan o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Arab tili, tilshunoslik, sinonim, sinonimiya, lug‘at,

Arab tili yer yuzidagi o‘n milliondan ziyod insonlar uchun rasmiy va yuz milliondan ziyod kishilar uchun esa ularning dinlariga xos til hisoblanib, tomirlarda oqib turguvchi qon kabi mudom harakatdadir. Bunday shiddat bilan ilgarilayotgan til hozirda dunyoning turli burchaklariga kirib bormoqda. Insonlarning ushbu til bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan islom dinini o‘rganish tufayli ham arab tilini o‘zlashtirishga intilmoqdalar.

Hatto fransuzlar ham arab tilini o‘rganilish kerak bo‘lgan til sifatida ko‘rmoqdalar. Ushbu millatga mansub bo‘lgan mashhur sharqshunos arab tili haqida shunday mulohazalarni keltirib o‘tgan: “U go‘zal va boy tildir. Ushbu tilda lug‘at boyligi bisyor, ma’nolar o‘ta ravshan, til tuzilishidagi mantiqiylik esa juda ajoyibdir”.

Darhaqiqat, bugungi kunda Fransiyada arab tili 2 – eng ko‘p so‘zlashiladigan til sifatida baholanmoqda. Shuningdek, fransuz ko‘chajargon tilining manbai ham hisoblanadi.

Arab tilining jilolanib turishida muhim o‘rin tutadigan ustunlaridan biri—sinonimiya hodisasidir. Arab tilida so‘zlar shu qadar xilma-xil va murakkab sifatlariga egaki, bu uning jahon tillari orasida shu jihatdan boshqacha o‘rinni egallab turishiga sabab bo‘lmoqda.

Shubhasiz, arab tili keng qamrovlarga ega fasih tildir. U boshqa jonli tillarda mavjud bo‘lmagan sifatga ega: Unda lug‘at boyligi , va uning bir bo‘lagi bo‘lmish sinonimlar bemisidir .

Arab tili yana talaffuzda ohangdorligi, inson tilining ushbu tilga tez moslashuvi va ko‘nikuvining oson amalga oshishi bilan ajralib turadi. Sinonimlarning ko‘pligi ajablanarlidir. Misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak:

Birgina *asal* – عسل so‘zining sinonimlari 80 ga yaqindir. Ulardan : الشَّهْد، الضرب، الضربة، الضريب، الشوب، الذوب الحميت، التحمويت، الجلس، الورد، الرحيق va boshqalar. *Qilich* سيف so‘zining esa 10

ga yaqin ma'nodoshlari iste'molda qo'llaniladi. Shulardan: الصارم، الرداء، المفقر، الصمصامة، الكهام، المشرفي، الحسام، العضب، المذكر، المهند، الصقيل، القضيب الأبيض kabilardir.

Arab tilidagi sinonimlarning hayratlanarli shaklda ko'p ekanligi va ularning xilma-xil ma'nolarni ifodalashiga ishora qilgan holda mashhur arab publitsist olimi Jurji Jaydan (XIX asrning oxiri- XX asrning boshlar) shunday deydi: “ Barcha tillarda sinonimlar, turfa xil ma'noga ega so'zlar mavjud , albatta. Lekin arab lug'ati bu borada yetib bo'lmas darajada ilgaridadir. Faqatgina arab tilida *yil*-السنة so'zining 24 ta, *yoruglik*-النور so'zining 21 ta, *tun*-ظلام so'zining 52 ta ma'nodoshlari mavjuddir. ” Ushbu tilida , shu bilan birgalikda , *Quyosh* – الشمس so'zining 29 ta , *Bulut* – السحاب so'zining 50 ta , *Yomg'ir*-المطر so'zining 64 ta , *Quduq* - البئر so'zining 88 ta , *Suv*- الماء so'zining 170 ta (!) , *Sut*-اللبن so'zining 13 ta , *Sharob*- الشراب so'zining 100 ta, *Sher*- الاسد so'zining 350 ta, *Soqol* -اللحية so'zi esa lafzda 100 nom ataladi.

Sifat so'z turkumiga mansub so'zlar ham bunday xilma-xillikdan mustasno emas. Masalan, *Uzun* -الطويل so'zi 91 lafz bilan, *Qisqa* - القصير so'zi 160

So'zlovchi yoki kotib arab tili kalimalaridan foydalanar ekan, unga , albatta, bir kalimaning bir necha ma'nolarini bilishi asqotadi. Chunki bir gapda yoki bir necha gaplar guruhida bir so'zni ayni am'nosini va ayni ko'rinishini takror va takror qo'llash fasohat va balog'at shart va qoidalariga to'g'ri kelmaydi. Shunda yozuvchi yoki gaplarni tuzuvchiga sinonimlar manbalari kerak bo'lib qoladi.

Hozirda bunday manbalarni toppish qiyin bo'lmay qoldi. Mana shunday manbalardan biri sifatida <https://www.almaany.com/> saytini (Arab tilidagi mavjud kalimalarning ma'nolari haqida ma'lumot beruvchi sayt) keltirish mumkin. Yoki <https://www.maajim.com/> sayti. Bular yordamida xohlagan kalimalarni ma'nolari, tuzilishi, tarkibi v ahakozo ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Bu kabi manbalarning yana

bir qancha afzalliklari mavjud, jumladan, o'ziga xos ma'noli so'zlarni topish, ma'lum so'zlarni noma'lum bo'lgan boshqa- boshqa ma'nolarini kashf etish, ushbu kalimalarning biror asarlar, filmlar, hikoyalarda qo'llanishini ko'rib, solishtirish, umumiy ma'noga ega so'zlarni nozik o'zaro farqlarini aniqlash kabilardir.

Olimlar, tilshunoslar, yozuvchilar va tadqiqotchilar tomonidan ko'p muhokama qilingan arab tilidagi *sinonimiya hodisasi* ham qadimgi, ham hozirgi zamon arab tilining o'ziga xos afzal xususiyatlaridan biri sifatida baholangan.

Sinonimlar eng avval yunon faylasuflari tomonidan o'rganib, tadqiq etilgan deb hisoblanadi.

Sinonimlardan foydalanish juda muhim, chunki ular matnning badiiy jihatdan sifatini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarga matnning aniq va o'ziga xos ko'rinishda tasvirlab beradi. Bundan tashqari, u oldinda aytib o'tilganidek, og'zaki va yozma ko'nikmalarni ham yaxshilashi mumkin.

Sinonimlar va unga aloqador so'zlar matnlarda uni o'qishni osonlashtirish uchun ishlatiladi. Sinonimlardan foydalanishning ba'zi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Matnni yanada jozibali qiladi;
- Gapirish va yozishda monotonlikdan qochishga yordam beradi;
- Siz va boshqalar o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi;
- O'quvchilarga yaxshiroq tasavvur qilishda yordam beradi.

Arab adabiyotida yuqoridagi talablar asosida yozilgan badiiy asarlarni uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. - T., 1998,2003.

2. Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.
3. Abdujabborov A. Arab tili. - T., 2005.
4. Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
5. Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. - М., 1998.
6. Talabov E. Arab tili.-T.: O‘zbekiston, 1993.
7. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, 1981.

KOREYS TILI TA'LIMIDA MAQOLLAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

*Pulatova Dilrabo Dilshodovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada koreys tilini chet tili sifatida o‘qitishning eng keskin muammolaridan biri - interferentsiya haqida so‘z boradi. Tadqiqot koreys tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonini tashkil etishda tillararo transfer va aralashuvni hisobga olish xususiyatlarini ochib beradi. Koreys tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ona tili yoki vositachi tilidan foydalanish uslubiy jihatdan asosli va maqsadga muvofiq deb hisoblanishi, shuningdek, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan dalillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, til, maqol, mezon, kompetensiya, ta‘lim, jarayon.

Til nafaqat insoniyat madaniyatining o‘zagida turadi, balki insoniyat madaniyatining harakatlantiruvchi kuchiga ham aylanadi. Til ana shu xususiyatlar bilan bu jarayonni boshdan kechirar ekan, unda

ko‘plab madaniy elementlar to‘plangan, madaniyat ham o‘z unsurlarida tilni aks ettiradi. Til va madaniyat bir-birini yaratadi va rivojlantiradi

Bir-birini to‘ldirgan holda, ular bir-biriga proyeksiya qiladilar. Shunday ekan, tilni mensimaslik bilan madaniyatni tushuna olmaganingiz kabi, madaniyatni ham mensimaslik bilan tilni tushuna olmasligingiz tabiiy oqibatdir.

Madaniyat ijtimoiy va tarixiy mahsulotdir. Ularning birortasini insonlar bilan makon va vaqtdan oshib, ajratib bo‘lmaydi, jamiyatdan yuz o‘giran o‘quvchi yo‘q, ma’lum bir zamonga bo‘ysunuvchi turg‘un mavjudot yo‘q. Dinamik tabiatga ega bo‘lgan koinotda bu instinkt sifatida tug‘ilgan odam ham dinamikdir va dinamik olamning tanasi.

U ifodalagan vaqt dinamikdir. Zero, olamda mavjud bo‘lgan hamma narsa dinamik bo‘lib, buning ichida tabiatan dinamik bo‘lgan insonga tegishli barcha faoliyat va hodisalar ham dinamikdir. Demak, butun tarix o‘z tabiatiga ko‘ra dinamik bo‘lib, uning ichidagi barcha hodisalarni, shu jumladan madaniyat va tilni ham qamrab oladi.

Madaniyat tushunchasi nima, degan savolga inson tili chegaraga keladi. To‘g‘ri aytganda, insoniy lingvistik cheklovlar emas, balki madaniy murakkablik tushunchaning cheklovlarini inkor etadi. Madaniyat plyuralistik kompleksdir. Qaysidir ma’noda, bu cheksiz kompleksdir. Obyekt komponentlari ko‘pincha tashlab yuboriladi va butunlay boshqa modelni yaratish uchun birlashtiriladi. Kamalak - bu ko‘p sonli ranglarning jismoniy birlashmasi, ammo madaniyat ko‘plab turli xil elementlarning kompozitsiyasi, jismoniy birlashma va kimyoviy aralashmaning murakkab yoki oraliq shaklidir.[1,67]

Maqol ta’limining madaniy ta’lim standartlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi va standartlar sifatida Geum-Hyeon Mun idiomatik ma’nolarni tushunish, tarkibiy so‘zlarning qiyinchilik darajasi va foydalanish chastotasini keltirdi va Jong-Cheol Li maqollarning qo‘llanishini keltirib o‘tgan. Ko‘p chastotali maqollar, qo‘llanish doirasi

keng, asosiy ma'nosi yaxshi saqlangan maqollar, o'quvchining rivojlanish bosqichiga mos maqollar tilga olingan.

Murakkablik madaniyat va til o'rtasida farq qilmaydi. Tilda sof ota-onalikni izlash idealdan ko'ra ko'proq fikrlash o'yinidir. Asosiy murakkablikning subyekti bo'lgan til, madaniyat va insonlarning umumiy xususiyatlaridagi ustunlik va pastlikni farqlash oson emas.[1,78]

Kroeber va Kluchhohn (1963) 300 ga yaqin madaniy ta'riflarni ko'rsatadigan eng yaxshi misol bo'ladi. O'shandan beri madaniyat ta'rifi bixevioristik, kognitiv va semiotik nuqtai nazar kabi turli xil nazariy farqlarga ko'ra yanada xilma-xillik bilan tavsiflanadi. Bixevioristik nuqtai nazar sirdagi xatti-harakatlarga yoki uning orqasida va ularning umumiy tomonlariga e'tibor qaratadi va shuning uchun yuzaga keladigan hodisaga og'irlik qiladi, kognitiv nuqtai nazar esa, madaniyatni idrok etish va egallash kabi ichki tomonga e'tibor beradi. Ichki almashishda tomonlarga ko'proq e'tibor bering. Shunday qilib, shu nuqtai nazardan qaraganda, madaniyat natijadan ko'ra jarayonga ko'proq ahamiyat beradi va shu bilan birga ancha individual va shaxsiy xususiyatga ega. Boshqa tomondan, semiotik nuqtai nazardan madaniyat deganda o'ziga xos shakllar va o'ziga xos ma'nolarni tarixiy jarayonlar orqali birlashtirib, hosil bo'lgan belgilar tizimi ham tushuniladi. Masalan, til o'ziga xos tovush va ma'nolarning birikishi natijasida hosil bo'lgan belgilar tizimidir.[1,34]

Koreys tili ta'limida yoritiladigan maqollarni tanlashda ushbu maqol koreys madaniyatini to'g'ri ochib beradimi-yo'qmi mezonlarda o'z aksini topishi, ya'ni mazmuni yuqori, ijtimoiy hamdardlik va real hayotdan foydalanishga ega bo'lishi kerak. Maqol materialidagi fikrlash yoki xulq-atvorni ochib berish va mavzuni maqol sifatida tizimli ravishda tanlash kerak [1,58].

Yuqorida koreys tilidagi ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan koreys tili darsliklaridagi maqollarni tahlil qilgan edik. Bu yerda maqol ta'limi bilan bog'liq yuzaga kelgan muammolarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Birinchidan, maqol ta'limi boshlang'ich bosqichda berilmagan. Koreya universiteti suhbat darsligida bitta maqol berilgan bo'lsa-da, boshqa darsliklarda yo'q. Shuning uchun ham maqol ta'limi boshlang'ich bosqichda berilmaganligini ko'rish mumkin.

Albatta, koreys tilini ilg'or o'rganuvchilar ham maqollarni yaxshi ishlata olmasligi, ularni to'g'ri ifodalay olmasligi holatlari ko'p bo'ladi. Maqollar boshqa lug'atlarga qaraganda uzun bo'lgani uchun ularni yodlash og'ir, ular asosan eski so'zlarga asoslanganligi uchun foydalanilgan so'z boyligi. Hozirgi kunda ko'p qo'llanilmaydi. Bu hollar ko'p bo'lgani uchun bo'lishi mumkin. Shuningdek, maqolning individual ma'nosini bilsangiz ham, umumiy ma'nosini bila olmaydigan holatlar ko'p.

Biroq, agar siz maqolning asl ma'lumotlarini, ya'ni uning keng kelib chiqishini bilsangiz, uni o'rganish oson bo'lsa-da, uning faqat o'rta yoki undan yuqori darajalarda paydo bo'lishiga hech qanday sabab yo'q deb o'ylayman, chunki etimologiyaning izohi. zarur.

Ikkinchidan, har bir darslikda uchraydigan maqollarni maktablar bo'yicha solishtirganda bir-biriga mos kelmasligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, bir xil darajada kelgan maqollar nisbatan uyg'unlashtirilmagan. Kyung Xi universitetining oraliq darsliklarida uchraydigan maqollar. va Seul Milliy Universitetida "keki guruch" rasmi Koreya universitetining ilg'or darsliklarida uchraydi. Bu kabi misollar ko'p.

Maqolning qiyinligini baholash usullari xilma-xil bo'lgani uchun va ta'lim muassasasidan ta'lim muassasasida turlicha bo'lganligi sababli, maqolning darajasi bir xil bo'lishi mumkin emas, lekin menimcha,

standart model orqali iloji boricha standart standart yaratish kerak, har bir o‘quv dasturi uchun qiyinchilik darajasi uchun.[2,45]

Uchinchidan, maqollarni qo‘llash usuli bir xilda. Ba’zi hollarda maqollar jumla ko‘rinishida berilganligi va o‘ziga xos qo‘llanish usulining mavjud emasligi o‘quvchilarning maqollardan unumli foydalanishini qiyinlashtiradi.

Maqolning ma’nosi uning tarkibiy leksemalarining arifmetik ma’nosini qo‘shib hisoblab chiqilmagani uchun chet ellik o‘rganuvchilar uchun maqolning ma’nosini faqat lug‘at ma’nosidagina oson tushunish qiyin. Masalan, “Qayiqchi ko‘p bo‘lsa, qayiq tog‘ga chiqadi” maqolini “Ko‘p mehnat qilsa, har qanday ish (qiyin ish) bo‘ladi”, deb talqin qiladigan o‘quvchilar ham bor. Yaqin Sharqdagi suv tanqis bo‘lgan mamlakatlardan kelgan o‘quvchilar, hatto ilg‘or o‘quvchilar ham geografik va madaniy farqlar tufayli pulni juda tejamkorlik bilan sarflash kerakligini i tushunishadi.

Bundan tashqari, maqollarni noto‘g‘ri tushunish madaniy lug‘atni tushunmaslik tufayli yuzaga keladi.

Shuning uchun maqollar madaniy ta’lim materiali sifatida foydalidir, lekin ularning mazmunini tushunish uchun alohida o‘rganishni talab qiladi. Bundan tashqari, madaniy farqlardan kelib chiqadigan ifodalardagi farqlar ham e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan omillardir. Hatto bir xil Sharq madaniyati sohasida Koreya, Yaponiya va Xitoy o‘rtasida farqlar mavjud va kengroq ma’noda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy farqlardan kelib chiqadigan ifodalashda ko‘plab farqlar mavjud.[3,56]

Albatta, madaniy ta’lim mazmuni, jumladan, maqol tarbiyasi nafaqat madaniy ta’lim maqsadiga, balki mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarga ham qarab o‘zgarishi kerak. Vakil sifatida, Britaniya va Amerika madaniyatlari va Koreya madaniyatlari o‘rtasidagi farqlarni, Sharq mamlakatlaridagi nozik farqlar nimada va

madaniy ta'lim mazmuni bu tubdan farqli madaniy farqlar tufayli qanday o'zgarishi kerakligini o'rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kim Nayong (2008), Koreys maqollarini til yozuvi bo 'yicha o 'rganish: Hoon Proverb Shim, Myung Yeo-Won Korean Language Guk va Sanon.

2. Kim Son Chon, Kim Song Su (2006), Koreys maqollarini qayta tiklash bo 'yicha tadqiqot, Chet tili ta'limi 13-2, Chet tillar jamiyati, 489-507-betlar.

3.중국 대학교에서의 한국어 교육과 교수법 . 한국어 교육 제13권 2호. 국제한국어교육학회. 김광해. 1993.

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA "ALDOQCHI SO'ZLAR" VA ULARNING TIL TA'LIMIGA TA'SIRI

*Mamadjonov Sherzod Luqmonjon o'g'li,
Oriental universiteti stajyor-o 'qituvchisi*

Annotatsiya. Ikki tilda bir xil talaffuz qilinib, bir xil shaklga ega, lekin ma'no jihatdan tamoman farqli bo'lgan so'zlar til o'rganuvchilar hamda tarjimonlarga katta qiyinchilikni keltirib chiqaradi. "Aldoqchi so'zlar" deb nom berilgan bunday so'zlar asosan qardosh tillarda ko'p uchrashi bilan birga, e'tiborsizlik bilan qaralsa, qo'pol xatolarga olib keladi. Ta'lim jarayonida bunday so'zlarni to'g'ri shaklda o'rgatish asosiy muammolardan biri. "Aldoqchi so'zlar"ni to'g'ri o'rgatish uchun esa, avval, ularning kelib chiqish sabablari, ma'nolaridagi farqlar, bir-biriga bog'liqlik darajasi, qaysi so'z turkumlarida yuzaga kelishi mumkinligi kabi bir qancha perspektivlar doirasida chuqur tahlil

qilinishi zarur. Shundagina, bunday soʻzlarni taʼlim jarayoniga toʻgʻri shaklda olib kira olamiz. Ushbu ilmiy ishimizda ham aldoqchi soʻzlarni guruhlarga ajratish va til oʻrgatish jarayonida nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida bahs yuritdik.

Kalit soʻzlari: Qardosh tillar, aldoqchi soʻzlar, tasodifiy aldoqchi soʻzlar, etimologik aldoqchi soʻzlar, qisman va toʻliq aldoqchi soʻzlar.

Ikki tilning leksik boyligʻida shakli va talaffuzi bir xil yoki bir - biriga yaqin ammo maʼno jihatdan farq qiladigan soʻzlar mavjud. Bunday soʻzlar “aldoqchi soʻzlar” deb ataladi. Koʻpincha, bunday soʻzlarni obrazli qilib “aldoqchi doʻstlar” deb ham atash mumkin. Oʻzbek va turk tillari bir til oilasiga kiruvchi oʻzaro yaqin tillardir. Agar turk va oʻzbek tillarining soʻz boyligini birma-bir qiyoslaydigan boʻlsak, tashqi koʻrinishi, talaffuzi bir xil yoki bir-biriga oʻxshash, ammo maʼno jihatidan farq qiladigan soʻzlarni koʻrishimiz mumkin. Aslini olganda bu tillarda aldoqchi soʻzlar soni oʻylaganimizdan koʻproq. Hatto-ki, alohida lugʻat tuzsa boʻladigan darajada koʻp. Xususan, taniqli olim Yusuf Berdaq bu ishga qoʻl urub, “Turkcha oʻzbekcha aldoqchi soʻzlar lugʻati”[4; 220] nomli lugʻat yaratdi va unda oʻzbek va turk tillarida 3000 ga yaqin talaffuzi va shakli bir xil yoki bir-biriga oʻxshash ammo maʼno jihatdan farqli boʻlgan soʻzlarni qiyoslab oʻrganib chiqdi. Ushbu lugʻat tuzish jarayonida turkcha illyustrativ soʻzlarni oʻzbek tiliga va oʻzbekcha illyustrativ soʻzlarni turk tiliga, asosan, muallifning oʻzi tarjima qilib chiqqan. Faqat baʼzi oʻrinlardagina Ahsan Batur, Bayram Oʻroq, Chigʻatoy Koʻcharlarning oʻzbek tilidan turk tiliga qilgan tarjimalaridan foydalanilganligini keltirib oʻtgan.

“Aldoqchi soʻzlar” XIX asrning oxirida ilmiy tadqiqotlarda ilk marta koʻrina boshlagan. Faqat bunday soʻzlar XX asrning boshlariga kelibgina chuqur oʻrganila boshlandi. Fransuz leksikograflari birinchi marta “Ingliz-fransuz tarjimonining aldoqchi doʻstlari” lugʻatini nashr

ettirdilar. Keyinchalik, tilning ushbu hodisasini ifodalash uchun boshqa atamalar paydo bo‘ldi. Ushbu jumladan “tillararo omonimlar”, “tillararo o‘xshashliklar”, “aldamchi kognatalar”, “aldoqchi so‘zlar” va boshqalar.

Turk va o‘zbek tillaridagi “aldoqchi so‘zlar”ni paydo bo‘lishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin.

1. *Tasodifiy aldoqchi so‘zlar.*
2. *Etimologik aldoqchi so‘zlar.*

Tasodifiy aldoqchi so‘zlar ikki tilda hech qanday tashqi ta’sirlarsiz, tilning ichki imkonyatlari doirasida bir-biridan mustaqil tarzda shakllangan bo‘ladi. Ya’ni, bir tilda boshqa ma’no, ikkinchi bir tilda boshqa ma’noni anglatuvchi so‘zlarning, talaffuzi va shakli bir xil bo‘lib qolishidir. Faqat bunda bu ikki so‘z etimologik jihatdan bir-biriga umuman aloqasi bo‘lmasligi kerak. Umuman olganda, bunday so‘zlar tasodifiy xususiyatga ega. Bunday so‘zlar qardosh bo‘lmagan, bir til oylasiga kirmagan tillarda yaqqol ko‘rinadi. Qardosh tillarda esa nisbatan kamroq. Shunday bo‘lsa ham o‘zbek va turk tillarida bunday so‘zlar talaygina. Quyida bir nechta misollar keltiramiz:

ayık (turkcha) – hushyor

ayiq (o‘zbekcha) – hayvon turi

irin (turkcha) – yiring, yallig‘

irin (o‘zbekcha) – dudoq, lab

jön (turkcha) – yosh, navqiron

jo‘n (o‘zbekcha) – oddiy, sodda

kürk (turkcha) - mo‘yna, po‘stin

kurk (o‘zbekcha) – kurk tovuq

iyе (turkcha) – ega, sohib

iyе (o‘zbekcha) – hayronlikni ifodalovchi undov so‘z.

Etimologik aldoqchi so‘zlar bir til oilasiga kiruvchi qardosh tillardagina mavjud bo‘lib, bunday tillardagi o‘qilishi va yozilishi bir xil, lekin turli xil ma’nolarni anglatuvchi so‘zlardir. Bunday so‘zlar aslida

tarixan bir soʻz boʻlgan. Vaqt oʻtishi bilan tillarning rivojlanish jarayonlarida bu soʻzlarga boshqa maʼnolar ham yuklana boshlaydi va natijada aldoqchi soʻzlar paydo boʻlib boradi.

Misollar.

balans (turkcha) – muvozanat

balans (oʻzbekcha) – hisob, kirim-chiqim oʻrtasidagi nisbat

bedava (turkcha) – tekin

bedavo (oʻzbekcha) – davosiz

fakat (turkcha) – ammo

faqat (oʻzbekcha) – yolgʻiz, -gina

iltica (turkcha) – boshpana

iltijo (oʻzbekcha) – yolvorish, yalinish

kondüktör (turkcha) – provodnik

konduktor (oʻzbekcha) – pattachi, avtobusda bilet sotuvchi.

Aldoqchi soʻzlarni biz turli guruhlariga ajratdik. Faqat buni turlarga boʻlishda bir qancha jihatlarni hisobga olish kerak boʻladi. Bir til oilasiga kiruvchi tillarning soʻz boyligi, qoʻshimchalar, gap tuzilishi shakllari bir-biriga yaqin boʻlganligi uchun ham bu xususiyat yani aldoqchilik xususiyati faqat soʻzlarda emas, balki qoʻshimchalarda, soʻz birikmalari va hatto iboralarda ham koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari bir til oilasiga kiruvchi tillarda bir oʻzakdan tuzilgan soʻzlarning yon maʼnolari yaʼni koʻchma maʼnolari orqali ham aldoqchilik yuzaga kelishi mumkin. Bir til oilasiga kirmagan tillarda esa aldoqchi soʻzlar faqatgina fonetik jihatdan bir-biriga mos soʻzlar vositasida yuzaga keladi.

Shunga koʻra oʻzbek va turk tillaridagi aldoqchi soʻzlarni maʼno jihatidan ikki turga boʻlishga harakat qildik.

1. Toʻliq aldoqchi soʻzlar
2. Qisman aldoqchi soʻzlar

Aldoqchi soʻzlarning bunday sinflarga boʻlib oʻrganish asosan Mustafu Ugʻurlu[6; 59-80], Ahmad Karadogʻan[1; 1591-1602], Ataman Halife Alkan [2; 671-688], Asim Şenol[7; 609-627], Selim Gedik[5; 114-126], Ercan Alkaya[3; 51] kabi bir qancha taniqli olimlar tomonidan ilgari surilmoqda.

Ahmad Karadogʻan toʻliq aldoqchi soʻzlarni manba til va tarjima etiladigan til orasida tartibli fonetik xususiyatlari bilan bir ildizga egaligi uchun faqat qoʻllanish sohasi yoki vazifasi jihatdan bir biriga mos boʻlmagan soʻzlar ekanligini aytib oʻtadi[1; 1595].

Yuqorida aytib oʻtilganlarni hisobga olsak, aldoqchi soʻzlar qardosh tillarda koʻplab uchraydi. Chunki qardosh boʻlmagan tillarda aldoqchi soʻzlar tasodifan shakllansa, yaʼni faqatgina fonetik jihatdan bir biriga aloqador boʻlmagan holda shakllangan boʻlsa (Tom inglizcha mushukning erkagi, erkak mushuk / tom oʻzbekcha uyning yuqori qismi), qardosh tillarda qadimda bir xil maʼno anglatgan soʻzlar vaqt oʻtishi bilan tillarni bir biridan uzoqlashishi, qoʻllanish sohalaridagi farqning yuzaga kelishi bilan shakllanadi (*yaman - turkcha kuchli, baquvvat maʼnolarni bildiradi: yaman adam – kuchli odam (ijobiy maʼno) / yomon – oʻzbekcha yovuz, qabih soʻzlariga sinonim: yomon odam – yovuz odam (salbiy maʼno)*).

Birdan koʻp bir xil maʼnoli soʻzlar bilan asos tildagi bir soʻzning tushuncha sohasi bilan tarjima qilinuvchi tilda bir emas birdan ortiq soʻzning tushuncha sohasining barcha yoki qisman mos kelishiga aytiladi [6; 61-62].

Qisman aldoqchi soʻzlar ham qardosh tillarda xususan oʻzbek va turk tillarida koʻp uchraydi. Qardosh boʻlmagan tillarda esa maʼlum bir terminlar yoki oʻzlashma soʻzlardan tashqari deyarli uchramaydi. Chunki oʻzlashma soʻzlar va atamalar asosan bir tildan ikkinchi tilga koʻchib yuradi. Vaqt oʻtishi bilan esa ular ham millatning turmush tarziga singib maʼnoda oʻzgarish roʻy beradi. Misol uchun, arab va

o‘zbek tillarida bunday misollar juda ko‘plab uchraydi. Bunga sabab ilk o‘rta asarlarda yurtimizga arablarning bostirib kelishi va islom dinini qabul qilishimizdir. Natijada arab tilidan turk tili va undan keyingi davrlarda o‘zbek tiliga ko‘plab so‘zlar me‘ros bo‘lib qolgan, ammo bular vaqt o‘tishi bilan asl arab tilidagi ma‘nosidan uzoqlashib, unga yaqin bo‘lgan ma‘noni o‘ziga sindirgan. Misol tariqasida, bunday so‘zlarga *bid‘at*, *fuqaro* kabi so‘zlarni olishimiz mumkin. *Bid‘at* so‘zi arabchada yangilik, keyin kiritilgan ma‘nosini bersa, o‘zbek tilida xurofot, zamonda ortda qolgan ma‘nosini beradi. *Fuqaro* so‘zi ham arabchada faqir, yo‘qsil kishilarning ko‘pligi ma‘nosini bersa, hozirgi o‘zbek tilida termin ma‘nosini kasb etib biror bir davlatga oid shaxs ma‘nosini beradi.

Aldoqchi so‘zlarni, o‘z o‘rnida, so‘z turkumlariga qarab ham turlarga ajratimiz mumkin.

- Ot so‘z turkumidagi aldoqchi so‘zlar
- Fe‘l so‘z turkumidagi aldoqchi so‘zlar
- Sifat va ravish so‘z turkumidagi aldoqchi so‘zlar
- Yordamchilar va yordamchi vazifasida keluvchi aldoqchi so‘zlar

Aldoqchi so‘zlarni bu shaklda guruhlariga bo‘lishda ham, ta‘biyki, ma‘lum bir o‘ziga xosliklarga tayaniladi. Misol uchun, Ot va fe‘l so‘z turkumlarda aldoqchi so‘zlar boshqa turdagilarda ancha ko‘p. Bunga sabab ot so‘z turkumida yuqorida aytib o‘tganimizdek, atamalar va o‘zlashma so‘zlarni ko‘pligi bo‘lsa, o‘zbek tili ham turk tili ham fe‘lga asoslanga gramatik quruluşga egaligidir. Agar turkiy tillar fe‘l so‘z turkumidan voz kechsa, dunyoda turkiy til yoki o‘zbek tili degan til qolmaydi. Shuning uchun ham, fe‘l so‘z turkumi turkiy tillar qatoriga kiruvchi turk va o‘zbek tillarida katta ahamiyatga ega va eng ko‘p ma‘noni o‘zida jamlay oladi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, bir fe‘l vaqt o‘tishi bilan insonlarning turmush sharoiti va madaniy

rivojlanishidan kelib chiqib o‘ziga juda ko‘p ma’nolarni biriktira oladi. Albattaki, bunday xususiyat boshqa so‘z turkumlarida ham bor, lekin chegaralangan. Misol uchun “*bo‘shamoq*” fe’lini olsak, aslida turk tilida ham o‘zbek tilida ham bo‘shamoq – bog‘liq bo‘lgan biror bir narsadan yechilmoq ma’nosini bildirgan. Vaqt o‘tishi bilan tillarning orasi uzoqlashgan, so‘zning qo‘llanish sohasi kengaygan, turli xil ma’nolar yuklangan va ko‘chma ma’nolar ortib borganligi uchun bu fe’l bugungi kunimizda aldoqchi fe’llar ro‘yxatidan joy olmoqda.

Bo‘shamoq – bog‘liq holda turgan narsani bog‘liq bo‘lgan joyidan ayrilishi, arqondan bo‘shamoq, ishdan bo‘shamoq.

Boşamak – qonunan er-xotindan biri oila aloqalarini to‘xtatishi, ajralish.

Ta’lim jarayonida esa “aldiqchi so‘zlar” o‘quvchilar oldida turgan to‘siqlardan biri. Chunki, bir-biriga talaffuz va yozilish jihatidan o‘xshash so‘zlarni ma’nosini o‘rganish va esda saqlash, umuman o‘xshamaydigan so‘zlarning tarjimasini eslab qolishdan anchayin qiyin hisoblanadi. Ayniqsa, bu o‘zbek o‘quvchilari uchun turk, ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq kabi qardosh tillarni o‘zlashtirishda chalkashlikka yo‘l ochadi. Bu chalkashlikning yechimi, albatta, malakali ustozning bilim va ko‘nikmalaridan o‘tadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga matndagi so‘zlarni aynan keltirish emas, matn ma’nosiga aloqador ma’nosini topishni o‘rgatishi kerak bo‘ladi. Qolaversa, elektron lug‘atlardan foydalanish jarayonida ustoz talabalarga alohida tushuntirish ishlarini olib borishi va talabalar tomonidan tarjima qilinayotgan so‘zlarni doimiy ravishda tekshirib borishi kerak. Qardosh tillardan biror bir matn yoki matn parchasini tarjima etarar ekan, o‘qituvchi, tarjimaning to‘g‘ri va sifatli chiqishi uchun tarjima qilingan matnga kognitiv tilshunoslik jihatidan ham yondashishi kerak bo‘ladi. Kognitivlik so‘zlarni matn ichida qanday ma’no ifodalashini inson ongida shakllantirib beruvchi tilshunoslik bo‘limi bo‘lganligi uchun tarjimada biz uchun juda muhim.

Aks holda tarjima avtomatik tarzda robot tomonidan tarjima qilingandek bo‘lib qoladi. Ustiga ustak, aldoqchi so‘zlarni to‘g‘ridan tog‘ri tarjima qilish butun boshli matn yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi. O‘qituvchi turk tilini o‘rgatar ekan, albatta, shunday xususiyatlarga e‘tibor qilishi, “aldoqchi so‘zlar”ni to‘g‘ri ajarata olishi va tarjimalarini to‘g‘ri izohlab berishi kerak. Shundagina, til o‘rganuvchilar yoki o‘quvchilar qardosh tillarni, xususan, turk tilini mukammal o‘rgana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmet K. “Türk Lehçeleri Arasında Yapı Eş değeri ve Yalancı Eş Değerli Yapılar”, V. Uluslar arası Türk Dil Kurultayı Bildirileri, Ankara: TDK Yayınları, 2004. ss. 1591-1602.

2. Alkan H. Lehçeler arası aktarmalarda yalancı eş değerler sorunu:(Türkiye Türkçesi-Özbek Türkçesi-Yeni Uygur Türkçesi fiil örneği) //Electronic Turkish Studies. – 2012. – T. 7. – №. 4. ss. 671-688

3. Alkaya E., Çelik S. Türkiye Türkçesi Kırım Tatar Türkçesi Ve Özbek Türkçesi Arasındaki Yalancı Eş Değerler/False Friends Between Turkey Turkish, Crimean Tatar Turkish And Uzbek Turkish //Türk Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi. – 2020. – №. 23. – C. 51.

4. Berdaq Y. “Turkcha o‘zbekcha aldoqchi so‘zlar lug‘ati”. Toshkent. Voris nashriyoti. 2009.

5. Gedik S., İsrail U. “Bälä Älişer” İsimli Eser Esasında Özbek Türkçesi ve Türkiye Türkçesi Arası “Yalancı Eş Değerlik” Üzerine Bir İnceleme //Kahramanmaraş Sütçü İmam Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. – 2015. – T. 12. – №. 1. – C. 114-126.

6. Mustafa U. “Türk Lehçeleri Arasında Aktarma Meseleleri ve ‘Abay Yolu’ Romanı”, 2000. Bilig: Sayı: 15, ss. 59-80.

7.ŞENOL A. Yalancı Eş Değerlik veya Anlam Değişmesi Kavramları Üzerine Bir Değerlendirme //Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. – 2020. – T. 20. – №. 2. – C. 409-427.

XITOV QADIMGI VENYAN TILIDA UNDOV SO‘ZLARNING IFODALANISHI

*Tashmuxamedova Dildora Aziz qizi,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Venyan bir necha asrlar davomida xitoy yozma va og‘zaki tili sifatida amalda bo‘lgan, biroq XX asrning boshlarida uning o‘mini soddaroq til egalladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, venyanda ifoda etilgan undov so‘zlarning bir qanchasi hozir ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Maqolada xitoy olimarining qadimgi xitoy klassik tilida undov so‘zlar haqidagi fikrlari va undov so‘zlarning asarlarda ifodalanishi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar. venyan, putunhua, undov so‘z, his-hayajonni ifodalovchi undov, g‘am-qayg‘uni ifodalovchi undov, g‘azab undovlari.

Insoniyat taraqqiyotga erishar ekan, u so‘zlashadigan til ham yangi atamalar bilan boyib boradi. Bu jarayon ba‘zi so‘zlarning eskirib, muloqotdan chiqib ketishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Insonning biror holat yoki vaziyatga munosabatini o‘zida aks ettiruvchi undov so‘zlar esa doimo nutqda faol qo‘llanilib, u xoh qadimgi tillar bo‘lsin, xoh hozirgi til, doimo o‘z ahamiyatini saqlab keladi. Buni biz qadimgi xitoy adabiy tili – venyan va hozirgi zamonaviy sodda til – putunhua misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Xitoyda XX asrning birinchi yarmidan venyan tili batamom siqib chiqarilgan bo‘lsa-da, soddaroq shaklda putunhuada o‘zini ifoda eta

boshladi. Qadimgi xitoy tilida undov soʻzlar borasidagi nazariy qarashlar va undov soʻzlarning nutqda qoʻllanilishi hozirgisidan biroz farq qiladi. Quyida qadimgi xitoy tilida undov soʻzlar borasidagi nazariy qarashlar va ularning talqini haqida soʻz yuritiladi.

Qadimi xitoy tilshunos olimi Li Jinxi (黎锦熙) undov soʻzlarga quyidagicha taʼrif beradi: “Undov soʻzlar insonning nutq paytidagi hissiyotlarini ifoda etuvchi ovozdir, ular aslida hech qanday maʼnoga ega boʻlmagan, gapga sintaktik boʻysunmaydigan va boshqa turkumlarga bogʻlanmaydigan mustaqil soʻzlardir” [1; 17-18] Lui Shuxiang (吕叔湘) undov soʻzlarga sintaktik yondoshib, undov soʻzlarni mustaqil yuklamalardir, deb atagan [2; 124]. Wang Li (王力) esa biz oʻzbek tilida undov soʻz deb ataydigan vaziyat yoki holatga munosabatni bildiruvchi soʻzlarni “kayfiyatni ifodalovchi ovoz” deb atashni taklif qilgan [3; 423].

Venyanda undov soʻzlarni morfologik tahlil qilgan olimlar ikki guruhni tashkil qiladi. 马建中[4; 12], 朱德熙[5; 224], 史存直 [6; 35] singari olimlar undov soʻzlarni mustaqil soʻz turkumlari tarkibiga kiritsalar, 邵敬敏, 姚锡远 kabi tilshunoslar ularni aslida mustaqil soʻz turkumiga mansubligini taʼkidlaydilar.

Qadimgi xitoy adabiy tilida undov soʻzlarning guruhlanish masalasida ham turlicha yondoshuvlar mavjud. Li Jinxi ularni 5ta guruhga ajratadi: ajablanish va hayrat undovlari (表惊讶或赞叹 *biǎo jīngyà huò zàntàn*); gʻam - qaygʻu undovlari (表伤感或病情 *biǎo shānggǎn huò bìngqíng*); xursandchilik undovlari (表欢笑或讥嘲 *biǎo huānxiào huò jīcháo*); gʻazab undovlari (表愤怒或鄙斥 *biǎo fènnù huò bǐ chī*); savol va javob undovlari (表呼问或应答 *biǎo hū wèn huò yìngdá*).

Lui Shuxiang 4 guruhga quyidagicha ajratadi: ajablanish va hayrat undovlari (表惊讶或赞叹 *biǎo jīngyà huò zàntàn*); hoʻrsinish, gʻam,

alam yoki g‘azabni ifodalovchi undovlar (表叹息或哀伤或悔恨或愤怒 *biǎo tànxi huò āishāng huò huǐhèn huò fènnù*); kutilmagan holatni ifodalovchi (表诧异 *biǎo chàyi*); anglash undovlari (表醒悟 *biǎo xǐngwù*).

Qadimgi xitoy adabiy tili hozirda aloqadan siqib chiqarilganligi bois, biz uni venyanda yozilgan asarlardan o‘rganamiz. Quyidagi jadvalda Singacha (mil.avv 221gacha) bo‘lgan davr, Han davri (mil.avv. 206 – milodiy 220), Wei (220 – 265) va Jin (265 – 420) davrlarida qadimgi xitoy adabiy tilida bitilgan yozma manbalarda undov so‘zlarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Asar nomlari	Asarda uchragan undov so‘zlar	Undov so‘z turlarining soni	Undov so‘zlarning umumiy soni
“论语” (“ <i>Lúnyǔ</i> ”)	噫(1), 呜呼(1), 咨(1)	3	3
“孟子” (“ <i>Mèngzǐ</i> ”)	恶(3), 於(1)	2	4
“庄子” (“ <i>Zhuāngzǐ</i> ”)	噫(4), 意(5), 嘻(4), 嘻(1), 恶(1), 嗟乎(3), 嗟(1), 呜呼(1), 吁(1), 嚇(1), 吓(1), 唉(1), 叱(1)	13	25
“荀子” (“ <i>Xúnzǐ</i> ”)	呜呼(3), 於乎(3), 吁(1), 恶(1)	4	8
“韩非子” (“ <i>Hánfēizǐ</i> ”)	鸟乎(1), 嘻(1), 嗟乎(1), 呼(1), 哑(1)	5	5
“吕氏春秋” (“ <i>Lǚ</i> ”)	嘻(17), 嗟乎(3), 呜呼(3)	3	23

<i>shì chūnqū</i>)			
“左传” (“ <i>Zuǒ chuán</i> ”)	鸣呼(2), 嘻(1), 呼(1), 乎(1)	4	5
“战国策” (“ <i>Zhànguó cè</i> ”)	鸣呼(1), 叱嗟(1), 嗟乎(6), 嗟 (1) , 吁 (1), 嗟嗞乎 (1) , 嘻(1)	7	12
“史记” (“ <i>Shǐjì</i> ”)	噫嘻(2), 唉 (1) , 咄 (1) , 黠颺(1), 嘎(1), 吁 (5), 嗟(9), 嗟乎(30), 於乎 (2), 於戏(8), 嘻(3), 鸣呼(8)	12	71
“发言” (“ <i>Fāyán</i> ”)	鸣呼(1), 吁 (2)	2	3
“淮南子” (“ <i>Huáinán zǐ</i> ”)	嘻(1)	1	1
“韩式外传” (“ <i>Hán shì wàizhuàn</i> ”)	嘻(2), 嗟乎(1), 鸣呼(1), 噫 (1), 咄 (1) , 於戏 (1)	6	7
“论衡” (“ <i>Lùn héng</i> ”)	噫(1), 嘻(3), 嗟乎(1), 於戏 (1)	4	6
“抱朴子” (“ <i>Bào pǔ zǐ</i> ”)	鸣呼(2), 嗟乎(2)	2	4
“颜氏家训” (“ <i>Yán shìjiā xùn</i> ”)	鸣呼(2), 嗟乎(1)	2	3
“三国志” (“ <i>Sānguózhì</i> ”)	鸣呼(9), 咨 (1), 噫(1), 於乎 (2)	4	12

“世说新语” (“ <i>Shì shuō xīn yǔ</i> ”)	恶 (1), 噫(2)	2	3
--	-------------	---	---

Yuqoridagi tahlillardan shuni bilishimiz mumkinki, “庄子” (“*Zhuāngzǐ*”) da undov soʻzlarning turlari boshqa asarlarga nisbatan koʻp (13xil undov soʻz qoʻllanilgan). Undan keyin esa 12 xil undov soʻz mavjud boʻlgan “史记” (“*Shǐjì*”) asari turibdi. Bundan tashqari “史记” ichida eng koʻp undov soʻz qoʻllanilgan asar hisoblanadi. Birgina asarda undov soʻzlar 71 marotaba kelgan. Venyanda qoʻllanilgan undov soʻzlar asosan 40tani tashkil qilib, ular 嘻, 噫, 咄, 嗟, 啞, 咨, 吁, 叱, 於, 恶, 呜呼, 於戏, 噫嘻, 嗟乎, 叱嗟, 于嗟呼, 嗟嗞乎, 噫吁戏 va boshqalarni tashkil qiladi. Ular orasida 呜呼, 嗟乎 undovlari eng koʻp qoʻllaniladi, undan keyingi oʻrinlarni esa 噫, 嘻 undovlari egallaydi. 咄, 叱, 唉 undovlari nisbatan kamroq qoʻllanilgan. 夥颐 va 噉 undovlarini faqat “史记”da uchratamiz.

Yuqoridagi asarlar eramizdan avvalgi va milodning boshlarida yozilgan boʻlishiga qaramasdan, unda qoʻllanilgan soʻzlar va iboralar hanuz oʻz ahamiyatni yoʻqotmagan va qadimgi xitoy tili olimlari tomonidan tadqiq etib kelinadi. Xitoy tilining oʻziga xoslik jihati shundan iboratki, uning yozuv tizimi biror matnni tushunish boʻyicha oʻquvchilarga doimo yengillik beradi, yaʼni bugungi kunga kelib biroz shaklini oʻzgartirgan xitoy belgi (iyeroglif)lari hozirda ham avvalgiday maʼno anglatadi va bu undov soʻzlar borasidagi izlanishlarni bir qadar yengillashiradi. Yuqoridagi undov soʻzlar hanuz xitoy yozma va ogʻzaki tilida faol qoʻllanilib, tilning boyib borishi natijasida maʼno doirasini kengaytirgan holda tilda yashab kelmoqda. Masalan, asarlarda eng koʻp uchragan 呼 undovi baland ovozda baqirishni, 嘻 undovi kulishni (ha-

ha, voy) ma'nolarini anglatadi. Biroz kamroq qo'llanilgan 咄 nafratni (hayt, tuf), 唉 rozilik, og'riq, tan olishlik (ha, oh, voy) ma'nolarini anglatadi. 唉 undovi putunhuada eng faol undovlardan biri sanaladi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, insonning hissiy munosabatlarini o'zida aks ettirgan undov so'zlar nutqda doimo faol bo'lib, qadimgi yozma manbalarda ham keng qo'llanilgan. Ular eskirgan so'zlarga kirmaydi va hanuz o'z m'nosini saqlab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 黎锦熙. 新著国语文法. – 北京: 湖南教育出版社, 2007.
2. 吕叔湘全集. 中国文法要略. – 北京: 辽宁教育出版, 2012年
3. 王力文集. 中国汉语语法. – 北京: 商务印书馆出版, 1985年
4. 马建中. 马氏文通. – 北京: 商务印书馆, 1983.
5. 朱德熙文集. 语法讲义. – 北京: 北京商务印书馆, 1999.

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI RUHIY HOLAT IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

*Boborajabov Muhammadiqbol,
Oriental universiteti stajyor-o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada arab va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu muammoga yechim topish maqsadida arab va o'zbek tillaridagi ayrim frazeologizmlar tanlanib, ularning matnda qo'llanilishi va leksik-semantik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, arab va o'zbek

tillaridagi frazeologizmlarning semantik jihatdan farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, ibora, antropotsentrik tilshunoslik, semantika, ruhiy holat, aspekt, lingvomadaniy.

XXI asr boshlariga kelib dunyo tilshunosligida til birliklarini antroposentrik aspektda tadqiq etishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, turli xalq tillarini qiyosiy-chog'ishtirma yo'nalishda inson omili bilan bog'liq holda o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Antropotsentrik aspektda olib borilgan tadqiqotlarda til birliklari insonga xos shaxsiy xususiyatlar: uning mentaliteti, tashqi olamga bo'lgan munosabati, milliy-madaniy qarashlari, tasavvurlari, tashqi olamni idrok etishi, kasb-kori, ijtimoiy mavqeyi kabilar bilan aloqadorlikda, o'zaro bog'lanishda tadqiq etildi. Darhaqiqat, til birliklarini inson omili bilan bog'liqlikda o'rganish tilda insonga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi masalasiga aniqlik kiritishda ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan arab va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Ma'lumki, turli tillardagi frazeologik birliklarning o'xshashlik jihatlari aksar hollarda xalqlarning turmush sharoitlari, urf-odat va an'analari, shuningdek, tafakkur tarzi, dunyoni idrok etishidagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til birliklari singari frazeologizmlar ham umuminsoniy qadriyatlar, kishilarning hayotiy tajribalari, kuzatishlari asosida vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan arab va o'zbek tillaridagi inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarni semantik jihatdan tahlil qilish, lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish ushbu xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari va an'analarni yanada chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi.

Arab tilidagi frazeologizmlar semantik jihatdan rang-barang bo'lib, quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- تعبيرات مستحدثة – zamonaviy frazeologizmlar;**
- تعبيرات معربة – arablashgan frazeologizmlar;**
- تعبيرات تراثية – madaniy merosga oid frazeologizmlar;**
- تعبيرات قرآنية – Qur’oni karimda kelgan frazeologizmlar;**
- تعبيرات نبوية من السنة – Hadislardagi frazeologizmlar;**
- تعبيرات مصدرها طبي أو علمي – tibbiy va ilmiy frazeologizmlar;**
- تعبيرات من المجال العسكري – harbiy sohaga oid frazeologizmlar;**
- تعبيرات من العامية – shevaga xos frazeologizmlar; [6]**

Ushbu tasnifdan ma’lum bo’ladiki, arab tilidagi frazeologik birliklar bir belgi asosida tasniflanmagan. Tasnifda frazeologizmlarning mavzuviy (madaniy merosga oid frazeologizmlar, tibbiy va ilmiy frazeologizmlar, harbiy sohaga oid frazeologizmlar), qo‘llanish o‘rniga ko‘ra (Qur’oni karimda kelgan frazeologizmlar, Hadislardagi frazeologizmlar, shevaga xos frazeologizmlar), genetik jihatdan (arablashgan), tarixiylik jihatdan (zamonaviy frazeologizmlar)ga ajratilgan.

O‘zbek tilida ham frazeologizmlar semantik jihatdan bir-biridan farqlanadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik, uslubiy, lingvomadaniy xususiyatlari, hosil bo‘lishi, tuzilishiga ko‘ra turlari, sinonimik, antonimik, omonimik variantlarini o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, frazeologizmlar semantik jihatdan turlarga bo‘lib o‘rganilgan. Xususan, X.Berdiyurov, R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni ma’naviy, uslubiy xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘lishgan: 1) leksik-frazeologik birliklar; 2) haqiqiy frazeologik birliklar; 3) frazeologik shtamplar. [2. 4-7 b]

Sh.Rahmatullayev esa frazeologizmlarni semantik jihatdan frazeologik butunlik va frazeologik chatishma turlariga tasniflagan. [3.74-b]

Ko‘rinadiki, ushbu tasniflarda frazeologik birliklar mavzuviy jihatdan tasniflanmagan. Har ikki tasnifda ham asosiy e‘tibor frazeologizmlarning hosil bo‘lish usuliga qaratilgan.

Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni mavzuviy jihatdan ruhiy holat ifodalovchi frazeologizmlarga ajratib o‘rganish mumkin. Ushbu maqolada shu turdagi frazeologik birliklar lingvomadaniy aspektida tahlil qilindi.

Arab va o‘zbek tillarida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlar xilma-xil bo‘lib, ular insonning ruhiy kechinmalari: qo‘rquvi, hayajoni, shodligi, quvonchi kabilarni ifodalab keladi. Xarakterli jihati shundaki, har ikki tilda ruhiy holat ifodalovchi frazeologizmlarning ko‘proq *yurak*, *jon* so‘zlari bilan hosil bo‘lishi kuzatiladi.

Arab tilida قَلْبٌ (yurak) so‘zi bilan hosil bo‘lib, insonning ruhiy holatini ifodalovchi quyidagi frazeologizmlar mavjud. Masalan: قَلْبُهُ وَقَعَ (yuragi qinidan chiqib ketmoq), سَلِمَ قَلْبُهُ (yuragi toza bo‘lmoq), فِي رِجْلَيْهِ (yuragi qinidan chiqib ketmoq), تَفَرَّحَ قَلْبُهُ (yuragi ochilmoq), حَزَنَ قَلْبُهُ (yuragi tilka-pora bo‘lmoq), انْفَطَرَ قَلْبُهُ (yuragi g‘ash bo‘lmoq), يَقْطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (yuragidan qon oqmoq) va boshqalar.

Bulardan تَفَرَّحَ قَلْبُهُ (yuragi ochilmoq), سَلِمَ قَلْبُهُ (yuragi toza bo‘lmoq) kabi ayrim frazeologizmlari insonning quvonchi, shodligini ifodalasa, انْفَطَرَ قَلْبُهُ (yuragi tilka-pora bo‘lmoq), حَزَنَ قَلْبُهُ (yuragi g‘ash bo‘lmoq), يَقْطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (yuragidan qon oqmoq), قَلْبُهُ وَقَعَ فِي رِجْلَيْهِ (yuragi qinidan chiqib ketmoq) kabi frazeologik birliklar qayg‘u, qo‘rquv kabi ma‘nolarni anglatadi.

O‘zbek tilida ham *yurak*, *jon* leksemalari ruhiy holat ifodalovchi frazeologizmlar tarkibida juda ko‘p uchraydi. Masalan: *Yuragi yorilmoq*, *yurak bag‘ri qon bo‘lmoq*, *yuragi qinidan chiqib ketmoq*, *yuragi g‘ash bo‘lmoq*, *jongga oro kirmoq*, *joni achimoq*, *joni hiqildog‘iga kelmoq* va boshqalar.

Masalan, *yuragi qinidan chiqib ketmoq, joni hiqildog‘iga kelmoq, jon-poni chiqib ketmoq* iboralarida insonning qo‘rquv holati *yurak, jon* so‘zlari yordamida ochib berilgan. Misol: “*Ana Hakimboyvachcha! Joni hiqildog‘iga kelganga o‘xshaydi, ko‘rdingmi?*” Oybek “Qutlug‘ qon”.

Quyida ushbu frazeologizmlardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

قَلْبُهُ وَقَعَ فِي رَجُلَيْهِ (so‘zma-so‘z tarjimasi: *yuragi ikki oyog‘iga tushib ketdi*). Ushbu frazeologizm nutqda insonning ma‘lum bir sababga ko‘ra juda qattiq qo‘rqanlik holatiga nisbatan qo‘llaniladi. Frazeologizm “qalbning oyoqqa ko‘chishi” ko‘chma ma‘noda bo‘lib, u orqali yurakning tez-tez urishiga ishora qilinadi. [5.231 b]

Arab tilida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar tarkibida ba‘zan *قَلْبٌ* (yurak) so‘zi o‘rnida *رُوحٌ* (jon) leksik birligi uchraydi. Masalan: *الرُّوحُ تَلْهَبُ* (*joni yoki yuragi achimoq*), *الرُّوحُ تَرْتَاخُ* (*joniga aro kirmoq*), *مَسَّ شَعَافَ الرُّوحِ* (*yuragiga og‘ir botmoq*).

يَقْطُرُ قَلْبُهُ دَمًا (so‘zma-so‘z tarjimasi: *yuragi qon tomchiladi*). [4.434 b] Ushbu frazemadagi *يَقْطُرُ* (tomchilamoq) fe‘li hozirgi-kelasi zamonda bo‘lsa-da, iborada o‘tgan zamoni ifodalaydi va “*دَمًا*” (qon) so‘zi bilan birikma hosil qilganda “qonamoq” ma‘nosini bildiradi. Demak, ushbu iborani umumiy ma‘noda “yuragi qonadi” deb tushunish mumkin.

إذا ذكر الموت عنده يقطر قلبه دما (أبو حامد غزالي إحياء علوم الدين)

Agar uning huzurida o‘lim eslatilsa, qalbi qonaydi. (G‘azzoliy “Thyou ulumid din”)

Ushbu ibora ma‘no jihatidan o‘zbek tilidagi *yuragi qon bo‘lmoq* iborasi bilan teng. *Bo‘ri polvonning yurak-bag‘ri qon bo‘ladi, ammo do‘stidan voz kecholmaydi.* M.Ahmedova “Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida”.

انْقَطَرَ قَلْبُهُ (so‘zma-so‘z tarjimasi: *yuragi ezilmoq, tilka-pora bo‘lmoq*). Ushbu ibora umumiy ma‘noda ham insonning qayg‘u holatida ekanligini, yuragi ezilib ketganligini ifodalaydi. O‘zbek tilida ham

yuragi ezilmoq, yuragi tilka-pora bo‘lmoq iboralari ham aynan shu ma’noni ifodalaydi.

الرُّوحُ تَلَّهَبُ (so‘zma-so‘z tarjimasini: *jon kuymoqda*). [5. 231 b] Arab tilida ushbu frazeologiyani quyidagi ma’nolarini ko‘rish mumkin:

insonning ma’lum bir sabablarga ko‘ra qattiq siqilishi;

insonning tushkun kayfiyatda ekanligi;

bir insonning boshqa bir insonga rahmi kelishi;

O‘zbek tilida ham *Joni achimoq* iborasi rahmi kelmoq, achinmoq, iztirob chekmoq ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan: *Ruhiy iztiroblari adog‘ida o‘zi izlagan ma’niga yaqinlashgan Botir firqaning holatini ko‘ring:*

“*joni achidi... tani kuydi*” — “*tan-joni... shodlandi*” D.Qurbonov “Tog‘ay Murod Xirgoyilari” “Hurriyat gazetasi 2007”.

الرُّوحُ تَرْتَاخُ (so‘zma-so‘z tarjimasini: *joni dam olmoq*). [5. 231 b] Ushbu ibora arab tilida insonning biror bir muammodan qutilishi, qiyinchilikdan keyingi yengillik holatini ifodalaydi. O‘zbek tilida ham ushbu ibora “jon” so‘zi bilan ifodalanadi. Masalan: *Joniga aro kirmoq*. Bu iborada xursand bo‘lish holati ifodalanmoqda. *Beshta (temir niqob tayyorlab qo‘ydim. Ertaga olib ketsanglar, azmatlarning joniga aro kirib qoladi*. M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha. [1. 96 b]

مَسَّ شَغَافَ الرُّوحِ (so‘zma-so‘z tarjimasini: *jonga yomon ta’sir qilmoq*). Ushbu ibora har qanday narsani o‘ziga oluvchi pessimist inson holatini ifodalaydi. [6.231 b]. O‘zbek tilida ushbu iborani mazmun jihatdan o‘ziga olmoq, yuragiga og‘ir botmoq iboralari bilan tenglashtirish mumkin. [1.369 b]

Shuningdek arab va o‘zbek tillarida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning soni juda ko‘p bo‘lib, turli vositalar bilan ifodalanadi. Ulardan ayrimlari eskirgan bo‘lsa, ayrimlari hamon tilda qo‘llanilib kelinmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, til birliklari har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyati, urf – odat va an’analari, yashash tarziga ko‘ra shakllanadi. Jumladan, frazeologik birliklar ham dunyo, obektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma’lumot beruvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini namoyon etadi va ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. Arab va o‘zbek tilidagi frazeologizmlar ham ushbu ikki xalqqa xos bo‘lgan madaniy hayotini ko‘rsatib beradi. Arab va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish jarayonida ushbu ikki xalqning mentaliteti, madaniyati urf odat va an’analarini o‘rganib chiqish va tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu jarayon o‘z navbatida ikki tildagi frazeologik birliklarni yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati-Toshkent: O‘qituvchi, 1978.-B.407.
2. Berdiyurov X., Rasulov R., Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. I qism.-Samarqand, 1976.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992.
4. Саѐд Мустафа А.М., Родинова Л.В Учебный русско-арабский фразеологический словарь – Москва: Русский язык, 1989.- С.611.
5. عالء الدين فرحات حسن أبو العال الأستاذ المساعد بقسم اللغات السالفية – شعبة اللغة الروسية كلية اللسن - جامعة عين شمس. التعبيرات الاصطلاحية التي تعبر عن العالم الروحي لالنسان في اللغتين العربية والروسية. ص:237. 2017.
6. **التعبير الاصطلاحي – مفهومه وتصنيفاته مصطفى أحمد قنبر 2019**

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ZAMONAVIY LEKSIKANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

*Abdullayev Oxunjon Ikrom o‘g‘li,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi zamonaviy leksikanning til madaniyatiga ta’siri masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada so‘nggi yillarda ikki tilga o‘zlashgan zamonaviy leksikaning tildagi o‘rni va ahamiyati haqida mulohazalar bildirilgan hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy leksika, termin, globallashuv, so‘z o‘zlashishi, muqobil leksika, user, auditor.

Tilda so‘z o‘zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, tovarlarning keng ko‘lamda savdo-sotig‘i, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma’lum bir tuzumdan yangi shaklga o‘tishi kabilar bilan bog‘liq. Fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet tizimi asosida turli tilda so‘zlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida XX asrning 90-yillaridan so‘ng dunyo miqyosida globallashgan zamonaviy texnologiyalarga oid so‘z va atamalarning baynalmillalashuvi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq [1; 196].

Bu davrdagi yangi so‘zlar o‘zlashishida, avvalo, siyosiy sohada oid bo‘lgan *president, spiker, parlament* kabi so‘zlarning kirib kelishi kuchaydi, ayrimlarida ishlatish faollashdi. Shuningdek, *kompyuter, display, fayl, monitoring, user, pleyyer, peydjer* kabi fan-texnikaga oid yangi so‘zlar, iqtisodiyotga doir *auditor, barter, diler, broker* kabi

soʻzlar, madaniy sohaga oid *xit*, *xit-parad*, *shou* soʻzlari shular jumlasidandir.

Mustaqillikdan soʻng oʻzbek va qoraqalpoq tilining mavqeyi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy hayotdagi, davlat idoralarida ish yuritishdagi va matbuotdagi oʻrniga boʻlgan ahamiyat kuchaydi. Tilimizning goʻzal imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uning ifodaviyligi, jozibadorligini koʻrsatib berish, turli sohalarga oid xalqaro miqyosda umumlashayotgan soʻz va iboralarni tilimiz qonuniyatlariga mos holda olib kirish ishlariga alohida eʼtibor berila boshladi.

Tarixdan maʼlumki, uzoq davrlar davomida takomillashgan turkiy tillar xalqaro miqyosda oʻz oʻrniga ega boʻlgan. Oʻzbek qozoq, qirgʻiz kabi tillar uchun bobo til hisoblangan turkiy tilda yirik-yirik nasriy va nazmiy asarlar yaratilgan, olamshumul ahamiyatga ega boʻlgan “Xamsa” kabi shoh asarlar yaratilgan.

Koʻp asrlik taraqqiyotga ega boʻlgan oʻzbek va qoraqalpoq tili koʻplab tillarning oʻzlashma soʻzlari hisobiga boyimoqda va koʻplab tillarga soʻz berib kelmoqda.

Soʻz oʻzlashish jarayoni har bir jonli tilga xos boʻlgan qonuniyat boʻlib, dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, maʼnaviy sohalar asosida toʻxtovsiz harakatda boʻladi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inlizcha soʻzlarning oʻzlashishi nafaqat oʻzbek tiliga, balki qoraqalpoq tiliga ham taʼsir qildi. Biroq rus tili ham ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlgani bois bu tilning taʼsirini tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatish mumkin [2; 8].

Oʻzbek va qoraqalpoq tiliga inglizcha yangi oʻzlashma soʻzlarning oʻzlashish yoʻllari tulichadir. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan oʻzbekcha nomlanishga ega boʻlmasa yoki oʻzlashma soʻz tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan oʻzining ijobiy va samarali taʼsiriga ega boʻlsa,

to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish yoki aynan o'zlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, *chat (chat) – suhbat, bifshteks – (beefsteaks)* – qovurilgan mol go'shtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi, *mani (money) – pul, boy-frend (boy-friend) – do'st, o'rtoq* kabi so'zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi e'tiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda.

Bu kabi so'zlar odatda tushuncha ifodalashi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda o'z ekvivalentiga ega bo'lsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga ko'ra ma'noni tasviriy ifodalashiga ko'ra farqlanadi.

Bugungi kunda matbuot va jamoat mutaxassislarining fikir-mulohazalariga ko'ra, 40-50 yoshdagi kishilarning fikrlari hozirgi yoshlar nutqidan qoniqish hosil qilmayotgani va yangi o'zlashayotgan so'zlarga nisbatan salbiy munosabatda ekanligini aniqlashgan.

O'zlashma so'zning o'zlashgan tilda sinonimi bo'lsa, uning qo'llanishi uchun turli sabablar mavjud bo'ladi. Ya'ni, sinonim sifatida kirib kelgan so'z tilda termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma'no ifodalovchi so'z bo'ladi, yoki o'z zidlanuvchi so'zga nisbatan mavhum tushuncha ifodalaydi, ba'zan esa yoshlar orasida odat tusini olmoqda.

Ingliz va rus tillari bir til oilasiga mansub bo'lgani bois inglizcha so'zlarning rus tilida o'zlashish jarayoni o'zbek tiliga nisbatan faol va keng qatlamni tashkil etadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, ko'pchilik inglizcha o'zlashma so'zlar tilda, avvalo, okkozional (muvaqqat) xarakterga ega bo'ladi, vaqt o'tishi bilan okkazional neologizmlar o'zining bilingvizm (ikki tillilik) xususiyatini kengaytira boshlaydi.

Hozirgi paytda gazeta, jurnal, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda muxlislarni o'ziga jalb etadigan mavzular nomi inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlarini bilan bog'liq holatlar tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosiy arboblari, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar ham

o‘zlarining nutqlarida sohalariga mos holatda o‘rni bilan inglizcha o‘zlashmalarga murojaat qilib turishadi.

Manbalarda so‘z o‘zlashtirishning ikki yo‘li borligi ta’kidlanadi:

1) jonli so‘zlashuv orqali so‘z o‘zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi so‘zlar o‘zbek va qoraqalpoq tiliga mahalliy aholining og‘zaki nutqi orqali o‘tadi. Masalan, *online restaurant, site* so‘zlari o‘zbek tilining jonli so‘zlashuvidan *onlayn, restoran, sayt* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o‘zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o‘zlashgan;

2) bosma manbalar orqali so‘z o‘zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi matnni o‘zbek va qoraqalpoq tiliga tarjima qilish yoki shu tillarda yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so‘zlarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali bo‘ladigan o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet, gipotenuza, adabiyotshunoslikdagi kulminatsiya, syujet* kabi terminlar, *ocherk, roman, povest* kabi so‘zlar shu yo‘l bilan o‘zlashtirilgandir [3; 46].

Ko‘pgina tilshunoslar so‘z o‘zlashishining asosiy sababi sifatida quyidagilarni ko‘rsatishadi:

- xalqlarning tarixiy aloqasi;
- yangi predmet, jarayon va tushunchani nomlash zaruriyati;
- nutqiy tejamkorlik imkoniyatiga intilish;
- ikki tildan foydalanishning alohida turi;
- chet tili so‘zlarini yangilik sifatida qo‘llash;
- biror millatning o‘ziga xos udum yoki rasm-rusumlariga nisbatan ko‘r-ko‘rona ergashish.

Yoshlar nutqi kuzatiladigan bo‘lsa, 15-20 yosh orasidagi o‘smirlar nutqida ayrim o‘ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Sababi kompyuterda o‘tirib, internet orqali dunyo yangiliklari bilan tanishib borishadi. Xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirib borayotgan yoshlar o‘zlarining qiziqishlariga oid ingliz, rus yoki boshqa chet tiladgi ma’lumotlarni ham ko‘zdan kechiradi. Ayniqsa, xorijiy tildagi kinofilm yoki musiqalarni

tinglash orqali yoshlar nutqiga juda ko‘plab xorijiy tildan kirib kelayotgan so‘zlar o‘zlashmoqda.

Umuman olganda, so‘z o‘zlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni bo‘lib, o‘zbek va qoraqalpoq tili leksikasiga o‘zlashishi sezilarli darajada ta’sir qilgan 20 dan ortiq til o‘zlashmalari mavjud.

Ma’lumki, dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q. Tilning sofliги uning o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. Tillarning o‘zaro integratsiyasi, birining ikkinchisiga ta’sir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda me’yoriy, me’yordan past va me’yordan ortiq ta’siri ko‘zga tashlanib, so‘z o‘zlashishining me’yordan past va me’yordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida ma’lum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O‘zbek va qoraqalpoq tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash, o‘zga tillardan so‘z olish, eskirgan so‘zlarning chiqib ketishi kabi ma’lum bir o‘zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Xalqlarning o‘zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning integratsiyalashish holatiga sabab bo‘ladi.

Qoraqalpoq tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ma’lum bir davr bosqichlari asosida o‘rganish mumkin. Shu sababli ham tillarning o‘zaro ta’siri, ularning aholi turmushida birgalikda, yonma-yon faoliyat ko‘rsatishi uchun shu tillar bilan aloqa qiluvchi til egalarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda va kundalik hayotda aloqa qilishlari zarur deb hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston shaharlarida aholi aralash yashaydi. Ammo, so‘z o‘zlashish jarayoni har xil millat vakillarining hamda mahalliy millat

vakillarining hisobiga to'g'ri keladi. Qoraqalpoqg'istonda aholi individual xarakterga ega ikkitilli shaxslardir. Ularning ikkitilliligi ona tili zaminida yuzaga kelgan ikkitillilik bo'lib, u doim tarjimaga muhtoj bo'ladi va ona tili asosidagi fikrlashga ekvivalent topilganidagina o'zaro va shaxslararo tushunish yuzaga keladi. So'nggi bir necha yil davomida qoraqalpoq tiliga rus tilining ta'siri birmuncha susaydi. Rus tili orqali ifodalanadigan so'zlar o'rniga qoraqalpoqcha variantdagi so'zlar qo'llana boshlandi. Ammo, rus tili susayishi bilan qoraqalpoq tilida yangi leksemalar o'zlashtirilishi boshqa tillardan ko'plab kirib kela boshladi. Asosan, ovqatlanish shahobchalari, savdo obyektlari va shunga o'xshash bir qator inshootlarga nom berish chet tilidan kirib kelayotgan yangi (zamonaviy) leksemalar orqali amalga oshirilmoqda.

Uzoq vaqtlik muloqot natijasida til integratsiyasi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta'sir qildi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, hattoki so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar avvalo mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinlashdi.

Muhimi shundaki, tilimizning shunday ko'p yillik omuxtalashish jarayonida ham leksik qatlamining katta qismi o'z so'zlarimiz hisobiga saqlab qolgani quvonarli hodisadir. Zeroki, leksikamizdagi o'zlashma so'zlar hisobi hozirgi davr fors tili leksikasiga qiyoslanadigan bo'lsa (ayrim mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu til leksik qatlamining 65% ini arabcha so'zlar tashkil etadi) yuqoridagi holat nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi va bugungi kunda fors millati uchun til sofligini saqlash davlat ahamiyatidagi masala sifatida turgani ma'lum bo'ladi. Bu holat tilda so'z o'zlashishining me'yordan ortiq darajasi bo'lsa, tilimizdagi arab, fors so'zlarining leksik qatlamdagi o'rnini, qo'llanishi va miqdori esa so'z o'zlashishining me'yor darajasidagi holatini ko'rsatadi [4; 8].

Aynan shu soʻz oʻzlashishining meʼyordan ortiqlik darajasi til taraqqiyotining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ham aytish lozimki, til omuxtalishishidan chetda qolgan, soʻz oʻzlashishining meʼyordan past darajasida boʻlgan, globallashtiruv, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, sport aloqalaridan uzilgan tilda ham shunday “yakkalanish” holatlar kutilishi mumkin. Hozirgi paytda dunyo tillari orasida oʻlik tillar qatoriga oʻtib borayotgan bir necha tillar shunday tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жамолхонов Н. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 2005 й. 196 бет.
2. Mahmudov N. Oʻzbek tilida oʻzlashma soʻzlar: meʼyor va milliylik // Oʻzbek tili va adabiyoti. 2010. 6-son. 8-bet.
3. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Қарши: Насаф, 2005 й. 46 бет.
4. Madvaliyev A va b. Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lugʻati. – Т.: 2020. 8-bet.

ARAB TILIDA ISHTIQOQNING XUSUSIYATLARI HAQIDA

*Hakimov Abdulvohid,
Oriental universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida ishtiqaq, uning oʻziga xos xususiyatlari, bu hodisa haqida qarashlar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: ishtiqaq, soʻz yasalishi, yasama soʻz, katta ishtiqaq, kichik ishtiqaq.

Arab tilshunosligida so‘z yasash hodisasi ishtiqoq (الاشتقاق) deb yuritiladi. Bu istiloh اشتقاق “yasash”, “paydo qilish”, “kelib chiqish” manolarini anglatadi.

Zamonamizning mashhur tilshunoslaridan Muhammad Ibrohim bu so‘zga quyidagicha tarif bergan: “Bir so‘zdan boshqa so‘zni olish bo‘lib, ikki so‘zga bog‘liq ma’no va tuzilish qoidalariga muvofiq holda, ma’lum morfologik qolip asosida amalga oshuvchi hodisadir” [1,169].

Arab tilshunosligi tarixida bu hodisa IV hijriy asr o‘rtalarigacha الاشتقاق الصغير أو الأصغر deb yuritilgan. IV hijriy asrning oxirlariga kelib, Ibn Jinniy yangi bir bob qo‘shdi. Bu bob umumiy mano doirasidagi yasalgan so‘zlar bobi bo‘lib, bu الاشتقاق الكبير أو الأكبر deb nomlandi [2,140].

Abu Yaqub Sakkokiy bu til hodisasi haqida shunday bahs yuritadi: وإذا تمهد هذا فنقول الطريق على ذلك هو أن تبتدى فيما يحتمل التنويع من حيث انتهى الواضع في تنويعه وهي الأوضاع الجزئية. فترجع منها القهقري في التجنيس و هو التعميم إلى حيث ابتداء منه وهو وضعه الكلي لتلك الجزئية كنحو أن تبتدى من مثل لفظ المتباين وهو موضع التباين فترده إلى معنى أعم في لفظ التباين وهو المباينة من الجانبين ثم ترد التباين إلى أعم وهو المباينة من جانب في لفظ باين ثم ترده إلى أعم وهو حصول البيونة في لفظ بان ثم ترده إلى أعم وهو مجرد البين وهذا هو الذي يعنيه أصحابنا في هذا النوع بالاشتقاق.

Mazmuni: “Bunga kirishiladigan bo‘lsa, biz bu haqda shunday deymiz: bunga olib boradigan yo‘l – biror bir shaklni oxirigacha turli shakllarga solishni amalga oshiradi. Bu turli shakllar juz‘iy shakllar bo‘lib, o‘quvchi shakllarni boshqa holga keltirishda shakl ortidan orqaga qaytadi. Boshlangan joyga qaytish تعميم ya’ni umumlashishdir. Umumiy shakl avvalgi juziy shaklga, albatta, oiddir. Misol uchun- متباين “ajralib turuvchi” bu تباين “ajralib turish” so‘zidan olingan bo‘lib umumiy ma’noga qaytarilsa, ikki hosil qilingan so‘z umumiy shakl مباينة “farq qilish” so‘ziga borib taqaladi. so‘zi umumiylikka qaytarilsa, so‘zi e’tiboridan مباينة “faqr qilish” bo‘ladi. باين va بان so‘zlarini

umumiylikka qaytarilsa, boshlang'ich shakl hisoblanuvchi masdar بين "ajralish" ga borib taqaladi. Bu sohiblarimiz aytgan fikrdir" [3,17].

Arab tilshunosligi so'z yasash sohasida morfologik qolip yetakchi o'rin egallashini yuqoridagi berilgan ta'rifdan ham bilib olish mumkin. Yasalgan so'zning morfologik birlamchi o'zagini topish ushbu ta'rifda keltirilganidek, darajama-daraja amalga oshiriladi. Bu ham bo'lsa, o'quvchiga soddalashtirish maqsadida. Ta'rifdagi yasalgan so'zning birlamchi shakli, o'zagi بان متفاعل morfologik qolipiga solinishi natijasida متباين "ajralib turuvchi" so'ziga olib bordi. Birlamchi o'zak so'z ma'nosi semantik jihatdan yasalgan yangi so'zlar ma'nosi bilan, fonetik jihatdan asl o'zak tovushlar bir xilligi bilan uzviy bog'liq. (متباين "ajralib turuvchi" bu تباين "ajralib turish", مباينة "farq qilish", بين "ajralish" hamma so'zlarning o'zak harflarini ب ي ن tashkil qilgan).

Arab tilshunoslari o'rtasida ishtiyoq asli borasida tortishuv bor, bu tortishuv ikkita katta arab tilshunoslik maktablari o'rtasida kechadi. Abu Yaqub Sakkokiy ta'rifidagi "Bu sohiblarimiz aytgan fikrdir" degan fikr Basra tilshunoslik maktabi vakillariga ishoradir.

Ishtiyoq ismimi? Yoki fe'l?

Basralik va kufalik arab tilshunos olimlari bu borada keng ilmiy munozara qilishgan. Bunga ko'ra basralik olimlar: "Ishtiyoq asli masdar (harakat nomi) dir, chunki fe'l harakat nomidan olingan". Kufalik olimlar esa bu fikrning aksini aytishadi, ya'ni ishtiyoq asli fe'l. Har ikkala tomon ham o'z qarashlarini quvvatlovchi dalillarni keltirishadi.

Basralik olimlarning dalillari:

Masdar zamoni ifodalamaydi. Fe'l esa ma'lum bir zamoni ifodalaydi. Shuningdek, masdarning zamoni ifodalamasligi asl unga bog'langanidan. Shuning uchun masdar fe'lning aslidir.

1. Masdar ism hisoblanadi. Ism o'zi fe'l bilan bog'lanmagani holda ma'no anglatadi, lekin fe'lning o'zi ismsiz ma'no anglatmaydi.

Ma'no anglatishda fe'lga muhtoj bo'ladi. Asl faqatgina o'zi ma'no anglatadi.

2. Darhaqiqat, masdar fe'lining asli bo'lgani uchun shunday nomlangan.

3. Masdar bir narsaning ma'nosini ifoda etadi va u voqealidir. Fe'l esa voqayelik bilan zamoni ifoda etadi. Shuningdek, bir narsa ikkita narsaning asli bo'ganidek, fe'lining asli masdardir.

4. Masdar bir ma'noni anglatadi, fe'l esa turli xil ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun oltinning bir turi bor, uning ko'rinishlari, xillari yo'q.

Kufalik tilshunos olimlarning dalillari:

1. Fe'l illatli harflardan xoli bo'lsa, masdar ham shunday bo'ladi. Illatli harfi bo'lsa, masdarda ham shunday bo'ladi.

2. Masdar fe'lining ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi. Ta'kidlanuvchi ta'kidlovchidan ustun turadi.

3. Shunday fe'llar ham borki, ularning masdarlari yo'q (نعم وبئس) (وعسى وليس وحبذا و إلخ). Agar masdar asl bo'lsa, nega bu fe'llarning masdari yo'q?!

4. Fe'l masdar qo'llanishida sabab hisoblanadi. Shuning uchun masdar fe'lining bir qismidir.

5. Ish harakat bajaruvchisi harakati bo'lmasa, masdar ma'no anglatmaydi. Masdar fe'l bilan ma'no anglatgani uchun ham uning asli fe'ldir [4, 235-245].

Yuqoridagi ilmiy bahsning eng muhim qismlari keltirildi. Arab tilida shunday so'zlar ham borki, fe'l bilan ham masdar bilan ham bog'liq bo'lmagan. Ular yordamchi so'z turkumlari. Bundan bilib olish mumkinki, hech bir morfologik qolip asosida yasalmagan tub so'zlar ham mavjud. Ishtiyoq hodisasi keng doirada ism (ot, sifat, son, olmosh, son) va fe'lga bog'liq til hodisasidir. Shuningdek, arab tiliga o'zlashgan

soʻzlarda, taqlid soʻzlarda, sintaktik vazifalarda oʻzgarmaydigan soʻzlarda ham ishtiyoq hodisasi kuzatilmaydi [5,35].

Arab tilshunosligida katta mavqega ega boʻlgan Ibn Jinniy ishtiyoqqa quyidagicha taʼrif beradi: “Ishtiyoq - mening fikrimcha ikki hil boʻladi: kichik ishtiyoq va katta ishtiyoq. Kichik ishtiyoq- soʻzning oʻzak undoshlarini olib, olingan harflarni sinchiklab oʻrganib, ularni maʼlum maʼnolar atrofida birlashtiriladi va albatta bu birlashtirishda soʻzlarning qurilish tizimi va maʼnolari bir-biridan farqli boʻladi. Misol uchun, " سلم (sogʻ-salomat boʻlmoq) oʻzak harflari, bundan " سلامة (sogʻ-salomat boʻlish) hosil qilindi. Bu oʻzak harflarini maʼlum morfologik qolipga solish orqali:" سلم - sogʻlom, " سلم - tinchlik, يسلم " - sogʻlom boʻladi, " سلمان " Salmon soʻzlari hosil boʻladi. Mana shu hodisa kichik ishtiyoq (الإشتقاق الصغير) hisoblanadi. Katta ishtiyoq esa faqatgina uch oʻzak undoshdagina kuzatiladi. Bu ishtiyoqda uch oʻzak undosh oʻrinlari almashtirib, oltita variant hosil qilinadi va bir maʼno atrofida birlashtiriladi. Misol uchun: ق و ل و ق و ل و ق و ل و ق و ل و ق و ل bu oltita variantdagi soʻzlarning maʼnosi yengil va tez maʼnolari atrofida aylanadi. Mana shu til hodisasi katta ishtiyoq (الإشتقاق الأكبر) boʻladi” [6,133].

Abu Yaqub Sakkokiy yuqoridagi taʼrifga eʼtiroz oʻlaroq: “Agar umumiy maʼnoga boshqa maʼnolar yuklansa, maʼlum tartib asosida uch ta turli harflarni oltita koʻrinishga, toʻrtta harfni yigirma toʻrtta koʻrinishga va beshta turli harflarni bir yuz yigirma koʻrinishga solinsa, bu ishtiyoq kabir boʻladi”, deb yozadi.

Oʻrta asr arab tilshunoslaridan Ibn Durayd ishtiyoqni quyidagi turlarga ajratadi: “Ishtiyoq boshqa soʻzdan maʼlum yangi maʼnoga ega boʻlgan soʻzni olish boʻlib, bu ikki soʻz oʻrtasida maʼlum munosabatlar orqali amalga oshadi. U uch xil boʻlib, harflari va undagi harakatlar tartib bilan olingan boʻlsa, bu kichik ishtiyoq (misol: أكل – yemoq feʼlidan الأكل – yemish); oʻzak harflari tarkib bilan olinmagani boʻlsa, bu

katta ishtiyoq (misol: جذب – sudramoq fe’lidan – tortish); o‘zakdan yangi so‘z hosil qilin paytda yangi so‘zda talaffuzida bir-biriga yaqin harflarning almashish hodisasi bo‘lsa, bu eng katta ishtiyoq bo‘ladi: أنهق – hangramoq fe’lidan نطق - hangrash hosil bo‘ladi [7,31].

Arab tili dunyo tillari ichida eng ko‘p morfologik qolip orqali so‘z yasaluvchi til hisoblanib, qadimgi lotin tili, somiy tillar tarkibiga kiruvchi ayrim tillar bu jihat bilan bu tilga o‘xshash hisoblanadi [8,37].

Leksika doim harakatda bo‘lib, uning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, so‘z yasash, ma’lum bir morfologik qolip asosida yangi so‘zlar hosil qilish. So‘z yasash - turli vositalar, har xil usullar, ma’lum morfologik qo‘shimchalar orqali amalga oshiriladigan tilning barcha sohalariga bog‘liq hodisadir. Yangi so‘zlarni hosil qilish yo‘llarini, bu jarayonda ishtirok etuvchi morfologik qoliplarning xosliklarini, unda bo‘ladigan o‘ziga xos hodisalarni so‘z yasalishi bo‘limi tekshiradi.

Taniqli arab tilshunosi Roji Asmar ishtiyoqqa quyidagicha ta’rif beradi: “Ishtiyoq - asldan ajrab chiqqan qism bo‘lib, qism ajralib chiqqanda o‘zakning harflari unda ham aks etishi” [2,139]. Ishtiyoq hodisasini ma’lum morfologik qolip tashkil qilishini yuqorida zikr qilindi. Bu morfologik qolipning asl harflari va ziyoda harflari bo‘ladi. Bu ham ma’lum qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu hodisadagi ma’lum bir qonuniyatlar morfologik, semantik, fonetik jihatlarga bog‘liq holda bo‘ladi.

Sakkokiy ishtiyoq va uning muhim belgilari haqida shunday yozadi: “O‘zakni tashkil qiluvchi asl harflar hodisasiga to‘talsak, bu o‘zida ishtirok etuvchi harflarning me’yorini talab qilib, juz’iy ma’nolari umumiy ma’noga qaytuvchi o‘xshashlariga erishish hodisasidir. Bu hodisada harflarni o‘zgartirish, tushirib qoldirish yoki ortirishni man qiladigan qiladigan hodisa emas. Bularning bari ma’lum qonuniyatga asoslangan bo‘ladi. O‘zgartirish (القلب) hodisasi kichik ishtiyoqda ham

uchraydi. Mutlaqo aniq bo'lsa ham, muayyan qoida qatnashadi. Bu muayyan qoidalarsiz so'z hosil qilinsa, to'g'ri bo'lmaydi. Bu qoidalar harflar bo'lib, ular o'zak harflari deb nomlanadi. So'zdagi o'zak harflardan boshqalari ziyoda harflar deb yuritiladi. Agar o'zak harflarni aniqlashtirish lozim bo'lsa, ular morfologik shakl hosil qiluvchi ف ع ل bilan tartib bilan almashtiriladi. So'z o'zagi to'rtta yoki beshta bo'lsa, ل ziyoda qilinadi.”

Arab tilida so'z yasalishi ma'lum morfologik shakllar orqali amalga oshiriladi. Bu morfologik qoliplar o'z ichiga affiksatsiya, konversiya, fonetik so'z yasash uslublarini qamrab oladi. Bu tilda so'z yasashning keng qo'llanadigan eng unumli, yetakchi uslubi morfologik qolip orqali so'z yasash yo'lidir. Bu yo'l bilan yasashda, birinchidan, semantik boshqachalik (misol, o'zak hisoblanuvchi so'z yasalgan so'z ma'nosidan jiddiy farqlanadigan umumiy ma'nodan chiqib ketmaydigan yangi ma'noga ega bo'lishi), ikkinchidan, morfologik-fonetik boshqachalik (o'zak so'zning qolipi yoki tovushlari yasalgan so'znikidan farqlanishi) kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. محمدإبراهيم عبادة. معجم المصطلحات النحو والصرف والعروض والقافية. – القاهرة، مكتبة الاداب. 2011م،صفحة 356
2. الأستاذراجي الأسمر. المعجم المفصل في علم الصرف. – بيروت، دار الكتب العلمية. 1997م، صفحة 637
3. الامامابو يعقوب يوسف بن ابي بكر بن محمد السكاكي تحقيق حمدي محمد قابل. مفتاح العلوم.-.القاهرة، دار التوفيقية، صفحة 535
4. عبدالرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في مسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. – القاهرة، مطبعة السعادة. 1961م، الجزء الأول، صفحة 880
5. ابنعصفور الإشبيلي. الممتع الكبير في التصريف. – لبنان، ناشرون. 1996م، صفحة 563

6. أبو الفتح عثمان بن جني. بتحقيق محمد علي النجار. الخصائص. – القاهرة، المكتبة العلمية. 1956م، الجزء الثاني، صفحة 512
7. العلامة الألمعي الأديب التحرير الألمعي الأديب التحرير الشيخ محمود العالم المذ زلي. الأصول الوافية الموسومة بأنوار الربيع في الصرف والنحو والمعاني والبيان والبديع. – القاهرة، مطبعة التقدم العلمية. 1322هـ، صفحة 236
8. عبدالقادر عبد الجليل. علم الصرف الصوتي. – عمان، أزمنة. 1998م، صفحة 456

ARAB GRAMMATIKASIDA EGANING NOANIQ BO‘LIB KELISHI BAYONI

*Mahmudov Akram,
Oriental universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ma'lumki har bir tilni o'rganib unda bexato so'zlashish uchun o'sha tilning grammatik qoidalari imkon qadar mukammal o'rganiladi. Ushbu maqolada arab adabiy tilida eganing ta'rifi va uning qachon atoqli holda va qachon va nechta o'rinda noaniq bo'lib kelishi bayon qilingan. Bularning har – biriga arab tilining asosi bo'lgan Qur'on va shoirlarning she'rlaridan misollar keltirilib ularning tarjimalari berilgan.

Kalit so'zlar: Ega, kesim, lafziy omil, aniqlanmish, qaralmish, yasama ko'makchi, old ko'makchi.

Arab tili qoidasida ega (mubtado) deb bosh kelishikda kelgan lafziy omil (o'zidan keyin keladigan ismga ta'sirini o'tkazadigan sabab) lardan xoli bo'lgan ismdir: زيدٌ مريضٌ – Zayd kasal.

Demak arab tilida ism bilan boshlangan gapda ega bo'lishi uchun unda uchta shart topilishi kerak bo'ladi. Birinchi: uning ism bo'lishi. Bu bilan fe'l (ish harakat) va harf (old ko'makchi)lar ega bo'la olmaydi.

Ega bosh kelishikda bo‘ladi deganimizdan eganing tushum va qaratqich kelishiklarida kelmasligi ma‘lum bo‘ladi. Eganing lafziy omillardan xoli bo‘lishi bilan fe‘l va “kana” (كان) va uning izdoshlaridan kiyin kelgan ism ega deb nomlanmaydi.

Uchala sharti topilgan eganing misoli: Zayd talabdir – زيدٌ طالبٌ

Aytib o‘tishimiz kerakki ega ochiq ism va muavval (fe‘ldan paydo qilingan) bo‘lishi ham mumkin.

Misol: “Ro‘za tutmoqlaring sizlar uchun yaxshidir” – **أن تصوموا** – “خَيْرٌ لَكُمْ” Baqara surasi 184.

Ma‘lumki, ega aniq (ma‘rifa) bo‘lib, uning noaniq (nakra) bo‘lishi mumkin emas. Buning sababi noaniq ism ma‘lum bo‘lmay unga hukm qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ayrim hollarda agar ega umumni ifodalasa yoki xoslangan bo‘lsa, o‘shanda ega noaniq bo‘lishi mumkin.

Misol: Hovlida biron kishi yo‘q – ما رجل في الدار – *“Alloh bilan biron iloh bormi”* – **“أله مع الله”** Naml surasi 60.

Bu ikki misolda egalar noaniq bo‘lishining sababi uning inkor va so‘roq shaklida kelganidir. Inkor va so‘roq iboralardagi noaniq so‘zlar umumni ifodalaydi. Buning dalili:

“Shubhasiz, ozod mushrikdan – garchi u sizga yoqsa-da,– iymonli qul yaxshiroqdir”. – **“و لعد مؤمن خير من مشرك”** Baqara surasi 221.

“Alloh ularni bir kecha va kunduzda farz qilgan beshta namoz bordir” –

“خمس صلوات كتبهن الله في اليوم و الليلة”

Bu ikki misollarning birinchisida ega aniqlanmish (na‘t) bo‘lib ikkinchisida esa aniqlanmish yoki qaralmish deyiladi. Bunga arab tilida (muzofun – مضاف) deb ataladi. Ayrim nahvchi olimlar eganing noaniq bo‘lishining bir nechtagina holatlarini aytgan bo‘lsalar, boshqa nahv olimlari ularni o‘ttiz nechta ekanligini aytganlar. Ba‘zilar esa bo‘larning hammasi موصوف va مضاف aniqlanmish va qaralmish holatdagi egalarga bog‘liqligini aytgan.

Ega aslida atoqli bo'ladi. Ba'zi hollarda ayrim narsalarni ifodalash yoki xoslash maqsadida noaniq kelishi ham mumkin.

Quyida noaniq holda kelgan eganing misollarini keltiramiz:

Birinchi: Kesim egadan oldin kelib, u **yasama** (yoki ravish) **ko'makchi**³⁰¹ (zarf) yoki **old ko'makchi** (jar va majrur) bo'ladi Misol: عند زيد نَمِرَةٌ Namira (arablar kiyadigan yo'l-yo'l kiyim) Zaydning oldida, "Kishi hovlida" الرجل في الدار. "Kishi hovlida" oldingi ibora bilan keyingi iboraning tarjimasi o'zbek tilida bir xil bo'lsada, arab tilida birinchi misolda "kishi" so'zi noaniqlikni ifodalasa, ikkinchi misoldagi "kishi" so'zi muayyan bir ma'lum kishi maqsad qilingan bo'ladi. Kesim egadan oldin kelib **u zarf yoki jar va majrur** bo'lmasa grammatik jihatdan xato hisoblanadi. Misol: قائم زيد Zayd turuvchidir.

Ega deb unga biron narsa bilan hukm qilingan atoqli ismga, xabar deb egaga qaratilgan hukmga aytiladi. Shuning uchun ega xabardan oldin keladi. Noaniq ism yoki narsalarga hukm qilish va uni gapning avvalida keltirish tinglovchini hayratga (tushunmaslik)ga olib kelib, uni gapning mazmuniga quloq solmasligiga olib keladi. Shu sababli ega atoqli va muayyan yoki xoslangan noaniq ism bo'lishi shart qilinadi.

Ibn Hojib kabi ba'zi nahvchi olimlar ega so'roq yuklamasidan keyin noaniq ism bilan gapni boshlash uchun ikkita narsani shart qiladilar. Birinchisi: so'roq harfi ا (hamza) bo'lishini va undan so'ng أم (yoki) bog'lovchi bo'lishini aytadilar. Misol:

³⁰ Yasama ko'makchi ismdan yasalgan bir ma'noli bo'ladi. Ism ko'makchiga aylanganida tanvinsiz va tushum kelishigida bo'ladi. Ravish ko'makchilarga ushbu misol bo'ladi: البيت تحت السرير وراء الدار o'zning o'stida karavatning ostida, hovlining orqasida.

³¹ Bunday gaplarda ega old ko'makchi ismiy kesimdan keyin kelishi ham mumkin. **Bunday egani arablar :** "المبتدأ "kechikkan ega" deb ataydilar. Kesimdan keyin kelgan ega odatda noaniq holatda keladi. O'zbek tilida bunday gap "bor, turipti," so'zi bilan tarjima qilinadi. ل predlogi egalikni ifodalaydi va u bilan kelgan kesim egadan oldin kelganda "unda ... bor" deb tarjima qilinadi. Misollar: مجلة المنضدة على البيت (turipti yoki bor). للبيت Ular u yerda. هناك u yerda ravish hollari ham old ko'makchili ismiy kesim o'rnida ishlatiladi: هناك هم Ular u yerda. هنا نحن Biz bu yerdamiz.

أ رجلٌ عندك أم امرأةٌ Sening oldingda erkak kishi bormi yoki ayolmi. Lekin ko‘pchilik nahv olimlari mazkur shartlarni noto‘g‘ri deb hisoblaydilar.

Ikkinchi: Noaniq egadan oldin so‘roq (istifhom) belgisi oldin kelishi kerak, misol: هل فتى فيكم Yigit sizlarnikidami? Arab tilida so‘roq yuklamalari **inkorni** yoki **haqiqatni** ifodalash uchun ishlatiladi. Inkori ma‘nodagi so‘roqni ifodalaydigan harflar inkori ma‘noni anglatadigan harflar ma‘nosida keladi. Noaniq ismdan oldin inkori harfini kelishi uni (noaniq ismni) umumiyga aylantiradi. Agar siz o‘zingizda pul yuqligini bildirmoqchi bo‘lsangiz: أ نقودٌ عندي “Menda pul bormi” inkorni ifoda qiladigan ibora aytasiz. Ammo haqiqatni ifoda etadigan so‘roq gapdan muayan bo‘lmagan kim yoki nimadan so‘ralib, uni tayinlash talab qilinadi. Shunda muayan bo‘lmagan kim yoki nima so‘ralganlarning hammasiga tegishli mumkin bo‘ladi:

أ طالبٌ في المدرسة Maktabda (bironta) talaba bormi.

Uchinchi: Noaniq egadan oldin inkorni ifodalovchi yuklamalar oldin o‘tgan bo‘ladi, misol: ما خلٌ لنا hech qanday do‘stimiz yo‘q.

To‘rtinchi: Noaniq ega o‘zidan keyingi so‘zlar bilan sifatlanib keladi:

أ رجلٌ من الكرام عندنا Hurmatli kishi biznikidadir. Noaniq egani sifatlab keladigan so‘z uni xoslaydigan bo‘lishi shart qilinadi. Agar noaniq eganing sifati uni xoslay olmasa gapni noaniq ega bilan boshlash to‘g‘ri bo‘lmaydi: أ رجلٌ من الناس عندنا Insonlardan (qandaydir) bir kishi biznikida.

Beshinchi: Noaniq holda kelgan ega o‘zidan keyin kelgan ismga ta‘sirini o‘tkazib, uni bosh kelishik, tushum yoki qaratqich kelishikda bo‘lishini talab qiladi: أ رغبةٌ في الخير خيرٌ Yaxshi amallarga rag‘bat qilish yaxshidir. Ayrim hollarda noaniq ega o‘zidan keyingi ismni bosh kelishikda bo‘lishiga tasir etadi: أ ضربٌ الزيدان حسنٌ Ikki Zaydning zarbasi yaxshidir. أ ضربٌ masdar bo‘lib, egadir. Ikki Zayd esa masdardan tushunilgan ish harakatning egasi (foili)dir. Avvalgi misoldagi kabi

masdar o‘zidan keyingi ismni tushum yoki qaratqich kelishigida kelishiga ham ta’sir qiladi.

Oltinchi: Ism muzof bo‘lganda ham ega bo‘ladi: **عَمَلٌ بَرٌّ يَزِينُ**
Yaxshi amal qilish (insonni) ziynatlaydi.

Yettinchi: Shartni ifodalagan ismlar ham noaniq bo‘lib, ega bo‘ladi: **مَنْ يَقُمْ أَقْمَ مَعَهُ** Kim to‘rsa u bilan birga to‘raman.

Sakkizinchi: Avval o‘tgan gapga javob tariqasida aytilganda ega noaniq holda keladi. Sizdan: **من عندك** Senikida kim bor, deb so‘ralsa, siz unga **رَجُلٌ** kishi bor, deb aytasiz.

To‘qqizinchi: Umumni ifoda qiladigan so‘zlar noaniq holda ega buladi: **كُلُّ يَمُوتُ** Hamma vafot qiladi.

O‘ninch: Navlarni maqsad qilingan noaniq ism ham ega bo‘lib keladi. Shoir aytadi: **أَقْبَلْتُ زَحْفًا عَلَى الرِّكْبَتَيْنِ – فَتَوْبٌ لِبَيْتِ فَتَوْبٌ أَجْرٌ** Tizza bilan engashib keldim, bir mato borki uni kiydim, bir mato borki uni so‘dradim.

O‘n birinchi: Duo maqsadida ega noaniq holda keladi:

" **سَلَامٌ عَلَى إِبْرَاهِيمَ** " **Ilyosga salom bo‘lsin**” Soffat 130-oyat.

O‘n ikkinchi: Noaniq egada taajjublanish ma’nosi bo‘ladi: **ما أحسن زيدا**

Zayd qanday ham yaxshi.

O‘n uchinchi: Noaniq ega sifatlanganning o‘rniga keladi: **صَدِيقٌ**
Do‘st dushmanidan yaxshidir.

O‘n to‘rtinchi: Kichraytirilgan bo‘ladi: **رجيلٌ عندنا** Kichkina kishi biznikida.

O‘n beshinchi: Cheklangan (qamralgan) bo‘ladi: **شَرٌّ أَهَرٌّ ذَا نَابٍ**
Faqatgina yomon narsa qoziq tishli hayvonni qo‘rqita oladi.

Bu gapning asli: **ما أَهَرٌّ ذَا نَابٍ إِلَّا شَرٌّ** bo‘lgan.

O‘n oltinchi: Noaniq egadan oldin holatni anglatuvchi **و (vov)** harfi o‘tgan bo‘ladi: **سَرِينَا وَ نَجْمٌ قَدْ أَضَاءَ فَمَذَبَا مَحْيَاكَ أَخْفَى ضَوْؤُهُ كَلَّ شَارِفٍ** Biz

qandaydir bir yulduz nur taratgan holda kechasi yurdik, sening muhayyong ko‘ringanidan beri uning nuri har tomonda qolib ketdi.

O‘n yettinchi: Atoqli ismga bog‘lanib keladi زَيْدٌ ورجلٌ قائمان Zayd va bir kishi turuvchidir.

O‘n sakkizinchi: Sifatni anglatgan ismga bog‘langan bo‘ladi:

تاميميّ و رجلٌ في الدار Tamimiylik va bir kishi hovlidadir.

O‘n to‘qqizinchi: Ism noma‘lum bo‘lsa ham ega bo‘lib keladi: مرسعةٌ بين أرساغه- به عسمٌ بيتغي أرنبا Uning bilaklari orasida tumor bor, qo‘li qiyshiq bo‘lib, quyon ovlashni xohlaydi.

Yigirmanchi: Noaniq egadan keyin sifatlangan ism keladi: امرأةٌ طويلةٌ في الدار Kishi va uzun ayol hovlida.

Yigirma birinchi: Noaniq ism لا لو dan kiyin keladi: لو لا مودة بينكم Agar oralaringda muhabbat bo‘lmaganida, bir-birlaringni o‘ldirgan bo‘lardinglar.

Yigirma ikkinchi: Shartning javobi bo‘lib kelgan ف “fa” harfidan so‘ng ega noaniq keladi: إن ذهب عيرٌ فعيرٌ في الرباط Eshak agar yo‘qolgan bo‘lsa, tushovda boshqa bir eshak bor. Bu iboradan arablar, qo‘ldan ketgan narsaga afsuslanmasdan boriga qanoat qilishni maqsad qiladilar.

Yigirma uchinchi: Noaniq egaga gapni boshlash uchun eganing avvalida qo‘llaniladigan ل (la) harfi kiradi: لرجلٌ قائمٌ Haqiqatda kishi to‘ruvchidir.

Yigirma to‘rtinchi: Xabarni ifodalaydigan كم (qancha) so‘zidan kiyin ega noaniq holda bo‘ladi: كم عمّةٌ لك يا جريرٌ و خالةٌ فدعاءٌ قد حلبتٌ عليّ Ey Jarir sening qancha amma xolalaring bor, shunday bo‘lsada menga barmog‘i qiyshiq (ayol) tuya (so‘t) sog‘ib berdi.

Arab tili hozirgi kunda tan olingan oltita tillarning biri deb e‘tibor qilinadi. Arab tilida gaplashuchilar soni ko‘pligi sababli har bir mintaqaning o‘ziga xos shevalari bor. Shunday bo‘lishiga qaramasdan arab adabiy tili hech o‘zgarmaydi. Buning sababi arab tili Quron tili ilohiy til bo‘lganligidir. Shuning uchun bu tilni o‘rganmoqchi bo‘lganlar

soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Arab tilini o‘rganishni istagan har – bir kishi arab tilining grammatik qoydalarini o‘rganishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири, Шайх Абдулазиз Мансур, Қайта ишланган нашр, “Sano standart” нашриёти, Тошкент 2021.
2. Ан-Наъим. Арабча ўзбекча луғат. – Тошкент: Халқ мероси, 2003.
3. Ҳасанов М. Араб тили. – Toshkent: C Global Books, 2019.
4. Ибну Маликнинг Алфиясига Ибну Оқилнинг шарҳи.– Қоҳира: Дорут –Турос, 2005.
5. Қотрун – Надо ва Баллус – Садо. Муҳаммад Муҳийиддин Абдулҳамид. – Қоҳира: Дорут –Талоийъ, 2009.

TILSHUNOSLIKDA NAVOIY ASARLARINING LINGVISTIK O‘RGANILISHI

*Musurmanov Muhiddin,
Oriental universiteti Lingvistika mutaxassisligi talabasi
Ilmiy rahbar: Gavhar Rahmatova*

Annotatsiya. Navoiy o‘zi hayotlik chog‘idayoq ijodi qadr topgan, muxlislar e’tirofiga sazovor bo‘lgan vas hu bilan birga hayotlik chog‘idayoq ijodi o‘rganila boshlagan ijodkorlar qatorida turadi. Navoiy asarlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan yo‘nalishlar Ichida shoir lirik merosi leksikasi tadqiqi alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Navoiyning “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonida leksik qatlam va unda arabizmlarning o‘rni masalasi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: leksika, semantika, arabizm, turkiy til, struktura, stilistika.

Bizga ma'lumki Navoiy hayotining so'ngi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug'at ishlanganligi u kishining ijodiga tilshunoslik nuqtayi nazaridan baho berish shoirni hayot davrida boshlanganligini ko'rsatadi[1,317]. Avvalo, shuni aytish kerakki, shoirning asarlari tilini birinchi bo'lib o'rgana boshlagan tadqiqotchi ham Navoiyning o'zi hisoblanadi. Buni biz olimning "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida dunyoning eng yirik ikkita tili bo'lmish fors va turk tillarini bir-biri bilan qiyoslab ularga ilmiy baho berishi va barcha ilmiy fikrlarini, qarashlarini o'z ijodidan namunalar keltirish bilan dalillab, o'zining tilshunoslik sohasida ham benazir olim ekanligini isbotlaganligida ko'rishimiz mumkin[2,3]. Qolaversa, shoirning "Sab'at abhur" lug'atini tuzishi ijodkorning arab tili ustida yillar davomida ilmiy tadqiqot olib boganligini ko'rsatadi. Bu borada tilshunos va adabiyotshunos Botirbek Hasanov "Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati" nomli kitobi ushbu lug'atning Navoiyga tegishli yoki unga mansub emasligi haqida bahs yuritadi hamda ushbu lug'atda arab tili tarixi, leksikografiyasi va arabizmlarning turkiy tilga o'zlashishiga doir qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi[3]. Tilshunos Bahrom Bafoevning tadqiqotlari Navoiy ijodini o'rganishda salmoqli o'rinni egallaydi. Xususan, u kishining izlanishlarida Navoiyning eski o'zbek adabiy tiliga munosabati, adibning turkiy tildagi asarlari leksikasining statistikasi, kishi nomlarining shoir ijodida qo'llanilishi, geografik joy otlarining adib ijodidan o'rin olishi masalalari keng tadqiq etilgan. Bundan tashqari Navoiyning ko'pma'nollik san'atidan foydalanishi, polisemiya, sinonimiya, antonimlar va antitezalarning shoir ijodida qo'llanishi kabi jihatlar ilmiy asosda tekshirilgan. Xususan, ushbu monografiyada Navoiyning dunyo tillaridan o'zlashtirgan so'zlarining statistikasi ko'rsatib chiqilgan. U kishi arab tilidagi so'zlarga ham to'xtalib, Navoiy jami 26035 so'z qo'llagan bo'lsa, shundan sof arabcha so'zlar 7973 ta

ya'ni umumiy leksikasining 30, 62 foizini tashkil etaganligi ko'rsatilgan[4,326].

Navoiy asarlari tiliga izohli lug'at tuzish shoir ijodining o'rganishni yangi ufqlarini ochishga xizmat qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, to'rt jildan iborat ushbu lug'atda shoir qo'llagan barcha so'zlar kiritilgan. So'zlikda adib ijodida muomalada bo'lgan so'z, iboralar, va turg'un birikmalar ham kiritilgan. Bundan tashqari barcha so'z turkumlariga doir tub, yasama, qo'shma so'zlar, hamda arab, fors-tojik va boshqa tillaridan o'zlashgan so'zlarga ham izohlar berilgan. Navoiy asarlaridagi uchraydigan har bir so'zning atash ma'nosi aniq, qisqa, lo'nda va tiniq sharhlar bilan ifoda etib berilgan. Eng asosiysi, ushbu lug'atni tuzish jarayonida so'zlarning tuzi-ma'nosini izohlashda matn, so'zlarning hozirgi tilimizdagi leksik, grammatik ma'nodoshlari nazarda tutilgan.

“Navoiy tilining grammatik xususiyatlari” nomli tadqiqotda shoir tilining fonetik va grammatikasiga oid jihatlari Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalariga tayangan holda qisqacha yoritib berilgan. Navoiy asarlarida eng ko'p uchraydigan va bugungi kun o'quvchisiga tushinishi qiyin bo'lgan so'zlar uchun 1993-yilda atoqli tilshunos olim Botirbek Hasanov shoir asarlari uchun yana bir qisqacha lug'at tuzub, adibning muxlislariga taqdim etganligi Navoiyshunoslik bo'yicha tuzilgan lug'atlar safini yanada kengayishiga xizmat qildi.

Tilshunos Ergash Fozilovning tadqiqotlarida Navoiygacha bo'lgan turkiy tillarning adabiy til sifatida shakllanishi, rivojlanishi, Navoiyga ta'siri va Navoiyning o'z davri turkiy adabiy tilga bo'lgan yondashuvi, ko'rsatgan lingvistik ta'sirlari hamda Navoiy asarlarining fonetik va morfologik xususiyatlari alohida o'rganilgan, ilmiy baho berilgan. X. Doniyorovning *“Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili”* monografiyasida esa o'zbek adabiy tilining shakllanishida Navoiyning xizmatlari, tilshunoslik faoliyati va uning asarlari tili lisoniy jihatdan o'rganilgan.

Qolaversa, Navoiy tilining dialektik asoslari, tarkibiy qismi, bugungi kun jonli tilimizdagi ildizlari hamda aloqasi chuqur tekshirilgan. Navoiy asarlari uchun tuzilgan lugʻatlarni taqqoslash, xossatan, “Lugʻati atrokiya” va “Badoe’ ul-lugʻat”, “Lugʻati atrokiya” va “Abushqa”, “Lugʻati atrokiya” va “Sangloh” kabi lugʻatlarning bir-birlari oʻrtasidagi farqlar, soʻzliklarda uslub va yondashuv, qamrov va mukammallik, shoir ijodini oʻrganishda qulaylik tugʻdirish jihatlariga ega boy lugʻatlarni tekshirish ishlari tilshunos Sh. Jonibekovning “*Lugʻati atrokiya*”ga bagʻishlangan risolasida diqqat bilan oʻrganilgan. Bundan tashqari shoir ijodida zoonimlarning oʻziga xos badiiy talqini ham, hayvonot obrazlarining shoir badiiy mahoratini ochib berishdagi roli, qoʻllangan badiiy sanʼatlarda zoonimlarning leksik-uslubiy xususiyatlari va badiiy matn poetik qurilishidagi vazifalari maxsus tadqiq etilgan. Sh. Egamovanning “*Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi*” nomli monografiyasida shoir asarlari tilida qoʻllangan qadimgi va eski turkiy tilga oid tub soʻzlar lingvostatistik, strkutor-fonetik hamda funksional-semantik aspektlarda tadqiq etilgan[1,349]. Shuningdek, “*Alisher Navoiy lirikasida qoʻshma otlar (Xazoyin ul-maoniy materiallari asosida)*” nomli dissertatsiyada Alisher Navoiyning oʻzbek tili taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi, fors-tojik tili bilan turkiy tilning oʻzaro taʼsiri, shu bilan birga, qoʻshma otlarning yasalishi hodisalarini tekshirilgan. Xususan, ushbu ishda otlarning yasalishi uch guruhga boʻlib oʻrganilganligi koʻrinadi:

1) Qoʻshilgan otlar – bu guruhdagi qoʻshma otlar qoʻshma soʻzning barcha belgilarini oʻzida aks ettirgan;

2) soddalashgan yoki tarixan qoʻshma boʻlgan soʻzlar. Bunda komponent koʻpincha “soʻz+yasovchi” shaklida boʻladi;

3) qoʻshma ot bilan soʻz birikmasi orasida “tebranib turuvchi” til birliklari[1,381], deya tasnif qilinib, keng koʻlamda oʻrganilgan. Tadqiqotchilardan H. Mamadovning filologiya fanlari nomzodi ilmiy

darajasini olish uchun yozgan *“Navoiy badiiy prozasining leksik va stilistik xususiyatlari”* nomli ishida esa Navoiygacha bo‘lgan eski o‘zbek tili hozirgi o‘zbek tili bilan taqqoslangan. Xronologik tarafdin o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotiga, uning rivojlanishiga chuqur nazar tashlangan. Tilimizdagi aksar so‘zlar arab va fors-tojik qatlamdan o‘zlashganini ta’kidlagan olim shu tillarga mansubligi nuqtai nazaridan Navoiy badiiy prozasi leksik tarkibini quyidagicha qatlamlarga bo‘lib o‘rgangan:

1. Asl o‘zbek va umum turkiy so‘zlar qatlami.
2. Fors-tojik so‘zlari.
3. Arabiy so‘zlar.
4. O‘zbek, fors-tojik va arab tili elementlaridan tuzilgan aralash formalari so‘zlar. Shuningdek ishda *“Mahbub ul-qulub”* dagi arabiy so‘zlar ham alohida tasnif qilingan. Ba’zi arabcha so‘zlarning bugungi o‘zbek tilidagi ma’nosi Navoiy asarlaridagi ma’nosi bilan qiyosiy tarzda jadval shaklida berib chiqilgan. Arabiy so‘zlarni aniqlashda tadqiqotchi faqat arab tilidagina bo‘lgan tovush-harflarni ham alohida keltirib, shu harflar bilan yozilgan so‘zlarga diqqat qaratishni ta’kidlagan.[1,382] Bundan tashqari U.S.Sanaqulovning *“Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining tili (fonetika va morfologiya)*, A. Karimovning *“Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari”*, Is’hoq Nosirovning *“Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarining leksikasi”*, Muhammad Yusupovning *“Alisher Navoiy nasriy asarlarida izofali birikmalar”*, Samixon Ashurboyevning *“Alisher Navoiy nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma’no xususiyatlari”*, Sharofjon Yoqubovning *“Navoiy asarlari onomastikasi”*, Farhod Hayitmetovning *“Alisher Navoiy g‘azallari qofiyasida mantiq urg‘usining berilishi”* (1998), Inomjon Azimovning *“Alisher Navoiyning nasriy asarlarida kesim markazli bosh bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari”* (2001), Nargiza

Umarovning *“Alisher Navoiy g‘azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatlarining ifodalanishi”* (2005), Egamova Shohistaning *“Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantik aspektlarda)”* (2007), Mardon Rahmatovning *“Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari”* (2008), O‘tkirjon Islamovning *“Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini”* (2011), Dilnoza Abduvalievaning *“Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi”* (2017) kabi mavzularda olib borilgan tadqiqot ishlarida shoir ijodida aks etgan tiliy xususiyatlarga turli rakurslardan turib ilmiy baho berilgan.

Bevosita bizning mavzumizga aloqador bo‘lgan ishlardan Abdulhay Nishonovning *“Navoiy tilidagi arabizmlarning fonetik-morfologik va leksik-semantik tahlili”* (1990, rus tilida) nomli dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Negaki, aynan shu tadqiqotda Alisher Navoiyning asarlari tilida uchraydigan arabcha so‘zlar fonetik-morfologik hamda leksik-semantik jihatdan tasnif va tahlil qilingan. Arabizmlarning bizning tilimizga chuqur o‘zlashib, singib ketganligi, o‘ziga xos adaptatsiyaga uchraganligi islom dinining O‘rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning hayotida, turmush tarzida ham nazariy, ham amliy jihatdan keng o‘rin olganligi bilan bog‘lab tadqiq etilgan. Qur‘on va hadislar tili bo‘lmish arab tiliga xalqimizning cheksiz hurmati va islom ta‘limotini benihoya sevishganligi, shu bilan birga, arab tili ta‘limiga katta e‘tibor qaratilganligi bois tariximizdagi aksar asarlar arab tilida yozilganligi arabizmlarning ko‘plab o‘zlashishiga sabab bo‘lganligini olim e‘tirof etib o‘tgan.

M.Tojiboyevaning *“Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarning leksik-semantik talqini”* (2011) dissertatsiyasida ham arabiy so‘z va jumlar leksik-semantik jihatdan tahlilga tortilgan. Ishning birinchi bobi *“Badiiy so‘z va arabcha o‘zlashmalar”* deb atalib, u ikki

fasldan iborat. Birinchi faslida “Arabcha o‘zlashmalarning badiiy matndagi serqirraligi”ga ahamiyat qaratilib, arab tilidan turkiy tilga o‘zlashgan so‘zlarning badiiy matnda alohida jihat kasb etishiga urg‘u berilgan va she‘riy asarlarda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari muayyan lug‘aviy fondni tashkil etishi hamda bu o‘zlashmalar shoir she‘riyatida poetizm sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. “Arabcha o‘zlashmalarning badiiy matndagi o‘rni va “Ilk devon”da qo‘llanishi” deb nomlangan keyingi ikkinchi faslda arabcha o‘zlashmalarning ma’noviy guruhlariga to‘xtalangan va ushbu ma’noviy guruhlar 16 jihatdan tasniflab chiqilgan. “Ilk devon”dagi arabizmlarning qo‘llanishi”ga doir masalalar keyingi bobda tahlil etilib, “Ilk devon”dagi o‘zlashmalarning statistik tahlili o‘tkazilgan va hamda devonda 32060 ta arabcha o‘zlashma qo‘llanganligi sanab chiqilgan. Bobning “Ilk devon”dagi arabizmlarning mavzu guruhleri” deb atalgan faslida o‘zlashgan arabiy so‘zlar 12 semantik mavzuiy maydonga bo‘lib tahlil qilingan. Ishning uchunchi bobi “Ilk devon”dagi arabizmlarning leksik-semantik xususiyatlari” deb atalgan. Bobning birinchi faslida olim “Ilk devon”dagi bir, ikki va uch o‘zakli arabizmlarning leksik-semantik tomonlarini keng tahlilga tortib, arabiy o‘zlashmalar muallifning muayyan maqsadlari o‘laroq unig she‘rlari matnidan joy olganligi ta’kidlanadi. Bunday holat badiiy matndagi arabizmlarning ma’no qirralari bilan bog‘liqligi, bir o‘zakli arabizmlarda asosiy ma’no asosning o‘zida namoyon bo‘lishligi, bu esa shoirning so‘z qo‘llash va uni mazmunga bo‘ysindirish yo‘sinini belgilab berishiga urg‘u berilgan. “Ilk devon”dagi arabizmlarning badiiy san’at yaratishdagi o‘rni” masalasiga bag‘ishlangan keyingi faslda tadqiqotchi o‘zlashmalarning o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi holati ularning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi ahamiyatini yanada oshirishini misollar asosda ko‘rsatib bergan[6].

Keyingi yillarda Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligi munosabati bilan “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati bir guruh navoiyshunoslar tomonidan tayyorlangan ikki jildli “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at”[1] ini nashr etdi. Bu nashr faqat navoiyshunoslikda emas, balki milliy qadriyatlarimiz va boy adabiy merosimizni o‘rganish, ma’naviyatimizning tarkibiy qismi hisoblangan o‘zbek mumtoz adabiyoti va tilining durdonalarini tadqiq etishda ham kitobxonlar muhim qimmatga ega bo‘ldi. Bundan tashqari 2016-yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti har yili shoir tavalludi arafasida “Alisher Navoiy va XXI asr” an’anaviy ilmiy-nazariy konferensiyasini o‘tkazishni yo‘lga qo‘yildi.

Butun dunyoda yuz berayotgan turli ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar, ma’naviy tafakkurdagi yangilanishlar buyuk Sharq mutafakkirlari, xususan Alisher Navoiy ijodiga yangicha yondashuvning shakllanishiga zamin hozirladi. Yangi asrning ilk yillaridan boshlab jahonning ko‘plab mamlakatlarida hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy anjuman va simpoziumlar o‘tkazilib kelinishi an’anga aylandi. Shoir tavalludi munosabati bilan Turkiya, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Ukraina, Germaniya, Eronda xalqaro konferensiyalarning o‘tkazilishi va unda o‘zbekistonlik olimlarning ham ishtiroki diqqatga molik jihatlardandir.

So‘ngi yillarda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada shoirning ijodidan o‘rin olgan devonlaridagi g‘azallarda, xususan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida qo‘llangan arabiy so‘z va jumlalar tadqiqi, ularning leksik-semantik aspektda o‘rganilishi baribir dolzarbligicha qolmoqda. So‘zimizning oxirida shuni ta’kidlamoqchimizki, yuqorida ko‘rib o‘tilgan ilmiy tadqiqotlar Navoiy ijodidan bir debocha xolos. So‘z va atamalar ummoniga aylangan shoir asarlari hali ko‘pdan-ko‘p ilmiy bahslarga asos bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 317.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-том. – Т.: Фан, 2000. – Б. 3.
3. Ҳасанов Б. Алишер Навоийнинг “Сабъат абхур” луғати. – Т.: Фан, 1981.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983.
5. Тожибоева М. Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha soʻzlarning leksik-semantik talqini. PhD dissertatsiyasi. – Т., 2011. – 192 б.

ARAB TILINI OʻRGANISHNING MIYA FAOLIYATIDAGI IJOBIY TAʼSIRI

Xalilova Moʻtabar Tohir qizi
Oriental universiteti pedagogika
va psixologiya yoʻnalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: M.Mamadaliyev

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilini oʻrganishning uslubiy va psixologik jihatlarini muhokama qiladi. Til oʻrganish davomida inson miyasida roʻy beradigan jarayonlarni tahlil qiladi. Maqolada arab tilining boshqa tillardan farqi va ustuvor taraflari muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar: arab tili, lingvofiziologiya, oʻng yarim shar, chap yarim shar, diqqat, ong, miya.

Chet tili oʻqitish metodikasi psixologiya bilan ikki taraflama — nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bogʻlaydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasida (lingvofiziologiya) va nutqning sodir boʻlishi hamda uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq til materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga

keladi. Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zaminida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko'rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqe'likni umumlashtirish asosida ish ko'radi.

Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosiga ham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar signali bo'lib, so'z bilan ifodalanadi. Inson, hayvondan farqli o'laroq, nutqni idrok etganida, uning mazmuniga e'tibor beradi. Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tomoni deyiladi. Ichki tomoni esa, nutq, harakat, eshitish, ko'rish va qo'l harakati timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi. Stereotiplarning ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi.

Ona tilida belgilar stereotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va nutqning shakllanish chog'ida beixtiyor hosil bo'ladi va ong ishtirokisiz (aniqrog'i, deyarli ong ishtirok etmagan holda) faoliyat ko'rsatadi. Chet tilini egallashdan oldin o'rganilgan tillar asosida o'xshash elementlar (tovush, so'z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog'lanishlari, yot elementlar esa — yangi bog'lanishlar paydo etilishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi.

Psixolingvistika muammolarini hal qilishda professorlar — Lev Semyonovich Vigotskiy, Nikolay Ivanovich Jinkin, Aleksey Alekseyevich Leontyev, Irina Alekseyevna Zimnyaya kabi atoqli psixologlarning hissasi katta. Bir va undan ortiq tilni biluvchilar fanda alohida terminlar bilan nomlangan: monolingv (bir til egasi), bilingv (ikki til biluvchi), trilingv (uch tilda fikr almashuvchi) va polyglot (ko'p tillarni biladigan odam). O'zbek maktablarida o'quvchilarning aksariyati bilingvlar bo'lib, chet tilini uchinchi til sifatida o'rgana boshlaydilar (trilingv bo'lish imkoniga egadirlar).

Chet tilini bilish turlari uchta — aktiv, passiv va aralash holda bo‘lishi mumkin. Aktiv bilish deganda, barcha nutq faoliyati turlarini ona tilidagidek mukammal egallash nazarda tutiladi. Passiv bilish — og‘zaki va yozma matnni tushuna olishdir. Aralash holda bilish til materialining bir qismini aktiv, boshqa qismini passiv tarzda nutqda egallash tushuniladi [2: 139].

So‘nggi tadqiqotlar shuni isbotladiki, til inson xulq-atvoriga, fikrlash tarziga, qarorlar qabul qilishiga, yetakchilik qobiliyatiga ta’sir qiladi. Kanadalik psixolog Stiven Bunkerning fikricha, til insonning aqliy harakati qobiliyatini oshiradi.

Siz ishlatgan so‘zlar hayot tarzingizni shakllantiradi, xulq-atvoringizni, fazilatlaringsizni, tarixiy-insoniy tajribangizni ochib beradi. Kelajakka qo‘rquv uyg‘otadigan nojo‘ya so‘zlarni ishlatganingizda, zerikishingiz va tashvishlanishingiz mumkin. Siz aytgan so‘zlar boshqalarga ta’sir qilishdan oldin o‘zingizning ongingiz va qalbingizga ta’sir qiladi.

Iqtisod professori Keyt Chen tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili iqtisodiy xatti-harakatlarga, masalan, sarf-xarajatlarga, iste‘mol va jamg‘armalarga ta’sir qiladi hamda moddiy ehtiyojlarga e’tiborni kuchaytiradi. Bu esa odamlarni pensiya davri uchun pul tejab qolishga undashini aniqlagan.

Buyuk vatandoshimiz imom Buxoriy “At-Tarixul-Kabir” asarida rivoyat qilganidek, mo‘minlarning amiri Umar ibn Xattob roziyallohu anhu: “Arab tilini o‘rganinglar. Bu aqlni mustahkamlaydi va muruvvatni oshiradi”. deganlar. Bu gapni Imom Shofeiyya nisbat berganlar ham bor.

Mumtoz arab tilida gaplashishning ta’siri faqat til bilan chegaralanmaydi. Balki, u aqlga, xulq-atvorga, dinga kuchli ta’sir etadi. Shuningdek, bu odamlarni sahoba va tobe‘inlarga aql, dini va xarakterida o‘xshashga ham undaydi.

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu aytganlaridek, “Arab tili saviyani oshiradi”. Qat’iyatli insonni yuksaklikka, shon-shuhratga, hukmronlik va yetakchilikka intilishga undaydi. U o‘z nutqida kuchli so‘zlarni ko‘proq takrorlasa, xalqining u bilan faxrlanishiga erishishga bo‘lgan qiziqishi ortib, qalbiga mehnatsevarlik qalbiga joylashtiradi [5].

Arab tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biridir. Day Translations bergan malumotga ko‘ra, yangi tilni o‘rganish inson miyasini rivojlantiradi, aynan arab tili esa, xotira funksiyasini yaxshilaydi. Kognitiv salomatlikni rivojlantiradi va uzoq muddatda IQ ni oshiradi, chunki unda kuchli konsentratsiya va amaliyotni talab qiladigan so‘zlar mavjud.

AQShdagi tadqiqot instituti tomonidan e‘lon qilingan bayonot shuni tasdiqlaydiki, yangi tillarni, jumladan arab tilini o‘rgangan va umuman yangi til o‘rganmagan odamlarda MRI texnologiyasidan foydalangan holda miya skanerdan o‘tkazilganda, natijalar turlicha chiqdi. Til o‘rganuvchilar, xususan, arab tilini o‘rganuvchilar miyasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Ularda diqqatni jamlash, yodlash tezligining oshirishi yaqqol namoyon bo‘ldi. Arab tilining murakkab grammatikasi tufayli ularning miyasi boshqa tillarni o‘rganganlarga qaraganda yaxshiroq ishladi.

Tadqiqotchi olimlarning tushuntirishicha, barcha tillar ijobiy ta’sir jihatidan teng yaratilmagan, lekin, ayniqsa, arab tilida inson miyasi uchun boshqa turdagi aqliy mashqlar mavjud va bu miyani har qanday tilni o‘rganishdan ko‘ra qattiqroq va diqqatliroq ishlashga undaydi.

Ularning ta’kidlashicha, arab tilini o‘rganish miyani to‘g‘ri diqqat markazida bo‘lishga va uning ko‘p va kesishuvchi ma’nolarini tushunish uchun nozik detallarni qayta ishlashga undaydi. Chunki unda undoshlar, unlilar va ko‘plab qoidalar mavjud. Shuningdek, talaffuzdagi nozik farqlarga nisbatan o‘ta e’tiborli bo‘lishi shart. Aks holda ma’no tamoman o‘zgarib ketadi [3].

“Day translations” bergan ma’lumotlarga ko‘ra, boshqa tillar, xususan, nemis tili bilan arab tilidagi farqlarni tadqiq qilib “Nima uchun arab tilida so‘zlashuvchilarning miyasi nemis tilida so‘zlashuvchilarga qaraganda yaxshiroq?” mavzusida tadqiqot olib borilgan.

Har qanday tilni o‘rganish miyani rivojlantiradi. Olimlar hattoki ikki yoki undan ortiq chet tilini yomon bilish bilim qobiliyatini bir tilda ravon gapirishdan ko‘ra sezilarli darajada yaxshilashini aniqladilar. Ammo ma’lum bo‘lishicha, masalan, arab tilini bilish nemis tilini bilishdan ko‘ra insonning neyro-miya tuzilmalariga yaxshiroq ta’sir qiladi. Lekin bu qanday bo‘lishi mumkin?

Til miyaga ta’sir qiladi.

Maks Plank nomidagi Inson kognitiv tadqiqotlar institutining nemis olimlari turli xil xorijiy tillarda so‘zlashuvchi 94 nafar ko‘ngillining miya faoliyatini o‘rganishdi. Magnit-rezonans tomografiyadan foydalanib, ular ma’lum bir ona tilida fikrlash jarayonida miya tuzilmalari sohalari o‘rtasidagi neyron aloqalarni aniqladilar. Tadqiqotchilar til tarmog‘ining oq miya materiya aloqalari turli til guruhlarida odamlari o‘rtasida farqlarga ega ekanligini va nutq va yozishni tushunishning qayta ishlash talablari va qiyinchiliklariga juda boshqacha moslashish xususiyatlariga ega ekanligini aniqladilar. Miyadagi bog‘lanishlar, asosan, bolalik davrida va, asosan, o‘rganish va atrof-muhit bilan aloqa qilish orqali shakllanganligi sababli neyrotuzilmalar ishi ma’lum bir qat’iy tarzda o‘rnatiladi hamda ma’lumotni kengroq idrok etishga ta’sir qiladi.

Nemislarda chap miya ko‘p ishlaydi.

Neyroserebral tuzilmalarning yuqori aniqlikdagi magnit-rezonans tomografiya tasvirlari shuni ko‘rsatdiki, masalan, arab tilida so‘zlashuvchilar chap va o‘ng yarim sharlar o‘rtasida nemis tilida so‘zlashuvchilarga qaraganda kuchliroq aloqaga ega. Nemislar o‘ngdan farqli o‘laroq, chap yarim sharning nutq tarmog‘ida zichroq aloqalarga

ega. Bularning barchasi, ehtimol, nemis tilining murakkab sintaktik ishlovi bilan bogʻliq. Boshqacha qilib aytganda, ona tili nemis boʻlgan odamlarda chap yarim shar koʻproq aqliy mehnatga jalb qilinadi va oʻng bilan aloqalar odatda faol emas. Ayni paytda, barcha odamlarda miyaning chap yarim shari mantiqiy fikrlash, matematik hisoblar va pragmatizm uchun javobgardir. Darhaqiqat, nemislar, xuddi shunga oʻxshash til guruhidagi boshqa koʻplab yevropaliklar kabi, bunday fazilatlari bilan mashhur.

Arablarda ikkala yarim shar ham faol.

Ammo arab tilida soʻzlashuvchi odamlarda, nemis olimlari aniqlaganidek, miyaning oʻng tomoni ham yaxshi ishlaydi va ikkala yarim shar oʻrtasida kuchli aloqa mavjud. Oʻng yarim sharining faolligi arab tilining murakkab fonetik tovushi va yozma soʻzlarida unilarning yoʻqligi bilan bogʻliq. Shuning uchun, faqat undoshlar bilan yozilgan soʻzni qanday oʻqishni tushunish uchun siz nafaqat katta lugʻatga ega boʻlishingiz, balki oʻqiganingiz kontekstini ham doimo yodda tutishingiz kerak. Ushbu yaxshilangan xotira ishi tufayli neyro-miya aloqalari barqaror ohangda saqlanadi. Maks Plank nomidagi Inson Kognitiv Tadqiqotlar Institutida ushbu tajriba ustida ishlagan psixonevrologlar arab tilida soʻzlashadigan odamlarda miya yaxshi rivojlanganligini xulosa qilishdi. Ularning miyasida ikkala yarim sharining tuzilmalari doimiy faol ishda va ularning aloqalari Yevropa tillarida soʻzlashuvchilarga qaraganda ancha kuchli.

Hatto arablarning dunyo haqidagi tushunchasi biroz boshqacha. Arab tilida soʻzlashadigan odamlar uchun tilning semantikasi tufayli yetakchi yarim shar hali ham goʻzallik va ideallar uchun majoziy maʼnoda masʼul boʻlgan oʻng yarim shar boʻlganligi sababli, ularning hayotiy intilishlari koʻproq darajada shu tekislikda yotadi. Ayni paytda ularning miyasining chap yarim shari faol ishtirok etadi, chunki arab

yozuvi o‘ngdan chapga yoziladi va matematik hisoblar barcha o‘qimishli odamlardagi kabi doim aktiv holatda turishni talab etadi [4].

Xulosa o‘rnida yana shularni aytish mumkinki, arab tilini o‘rganish miyani rivojlantiribgina qolmay, u bilan shug‘ullanish miyaga massaj vazifasini ham o‘taydi. Demak, chet tilini o‘rganish miyangiz uchun sport zaliga o‘xshaydi. Nerv to‘qimalarining sifati yaxshilanadi. Axir, boshqa, notanish tilda ma’lumotni idrok etish qiyin ish va buni qanchalik tez-tez qilsangiz, miyangiz shunchalik ko‘p mashq qiladi. O‘ngdan chapga o‘qishni boshlaganingizda va kitoblarni “teskari” varaqlashga odatlanganingizda miya uchun ushbu "massaj" effektini o‘zingiz his qilasiz. Yana bir ajoyibligi shundaki, arab tili so‘zga boy. Birgina “sevgi” so‘zining o‘n bir xil sinonimi bor va ularning har biri o‘z o‘rniga ega. Ularni o‘rnini bilib ishlatish ham miyadan yuqori darajadagi diqqatni talab etadi [1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) <https://russianemirates.family/content/blog/iskusstvo-i-kultura/7-prichin-izuchat-arabskiy-yazyk/>

2) Mashrapova S. Chet til o‘qitishning ruhshunoslik asoslari // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education, 2022. – P. 138-141.

3) Исследование: Изучение арабского языка укрепляет память и повышает интеллект - Восход солнца (shorouknews.com)

4) Почему у говорящих по-арабски мозг развит лучше, чем у говорящих по-немецки | Русская Семёрка | Дзен (dzen.ru)

دراسة: تعلم اللغة العربية يقوي الذاكرة ويزيد الذكاء - بوابة الشروق (shorouknews.com)

5) اللغة العربية تعلم المروءة والأخلاق.. لماذا؟! | المقالات والدراسات | الجزيرة مباشر (aljazeeraamubasher.net)

3-SHO‘BA. DAVLAT TILI VA UNING O‘QITILISHI

“DAVLAT TILI HAQIDA”GI QONUNNING YARATILISH TARIXI VA HOZIRGI KUNDA QO‘LLANILISHI

Dilnoza Yuldasheva,

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Davlat tili haqida” gi qonun hamda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonunning joriy qilinishi qonunning yaratilish tarixi, shu bilan birga “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangilanishi haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat tili, milliy qadriyat, o‘zbek tili, lotin alifbosi, lotin yozuvi, joriy etish, lug‘at, izohli lug‘at.

1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonunni tayyorlash va uni umumxal muxokamasiga taqdim etishning o‘ziga xos tarixi bor. Bu qonunni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari o‘tgan asrning 80-yillaridayoq boshlangan edi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida “Davlat tili haqida”gi qonunning tayyorlanish jarayoni haqida juda muhim fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ma’lumki, milliy qadriyatlar orasida til alohida o‘rin tutadi. Xalqning tiliga qilinadigan har qanday tajovuz yoki nopisandlik uning milliy qadriyatiga ham zug‘um sifatida idrok etiladi va o‘sha millat

qalbida chuqur, o‘chmas iz qoldiradi. Shuning uchun ham har bir mamlakatda til, davlat tili u yoki bu millatning borligini va birligini ta’minlovchi betakror timsollardan biri sifatida g‘oyat qadrlanadi.

Xalqimizning ana shunday mo‘tabar milliy qadriyati va betakror timsoli bo‘lgan o‘zbek tili tarixda, turli davrlarda juda xilma-xil istilochilarning iskanjasi ostida juda ko‘plab ko‘rgiliklarni boshidan kechirganligi hozirgi kunga kelib hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Bunday ko‘rgiliklarning eng og‘irlari so‘nggi qariyb bir yarim asrlik istibdod davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘z ifoda-tasvir imkoniyatlarining benihoya sarhadsizligi bilan dunyo ahlining aqlini shoshirgan ona tilimiz nohaq zug‘umlar zahridan larzaga keldi, qo‘llanish doirasi behad torayib ketganligidan azob chekdi; o‘zbek xalqi esa o‘z tilining bunday tahqirlanishidan, eng qadrlil qadriyatimiz bo‘lgan tilning qadri kam bo‘lishidan azoblandi.

1989-yilning 21-oktabrida qabul qilingan O‘zbekistonning “Davlat tili haqida”gi qonuni ana shunday hasratlarga tamoman chek qo‘ygan edi. Bu qonun tilimizni har qanday kamsitishlardan himoya qiluvchi, har qanday balo-qazolardan asraguvchi; uning emin-erkin rivoji uchun kuch berguvchi o‘ziga xos dur-gavhar sifatida o‘ttiz uch yildan oshdiki, davlat tili maqomidagi o‘zbek tiliga har jihatdan o‘ktamlilik baxsh etib kelmoqda.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergan mazkur qonun O‘zbekistonning davlat mustaqilligi sari dadil qo‘yilgan ilk amaliy qadamlardan biri sifatida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shuni ham unutmaslik zarurki, bu qonunning tayyorlanishi va qabul qilinishi osonlik bilan, silliqqina amalga oshgani yo‘q. “Davlat tili haqida”gi qonunning hozirgi shaklda tayyorlanishi va qabul qilinishi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning serqirra faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Davlat tili haqida”gi qonun loyihasini tayyorlash uchun 1988-yilda huquqshunoslari, tilshunoslari, adabiyotshunoslari, madaniyat va san’at arboblari, yozuvchilar hamda tegishli boshqa mutaxassislardan iborat maxsus respublika komissiyasi tuzilgan edi. Ana shu komissiyaning a’zolari sifatida mamlakatimizning Azim Hojiyev, Iristoy Qo‘chqortoyev, Nizomiddin Mahmudov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov kabi yirik tilshunoslari va yozuvchilari bu ishda boshidan oxirigacha faol ishtirok etgan edilar. O‘sha paytdagi mamlakat rahbariyatining topshirig‘i va qat’iy talabiga ko‘ra dastlab "Tillar to‘g‘risida"gi qonun loyihasi hozirlanib, matbuotda e’lon qilingan edi. Ammo bu loyiha keng jamoatchilikning haqli va jiddiy e’tiroziga sabab bo‘ldi. Chunki mazkur loyiha nomidan ham ko‘rinib turganidek, bir til haqida emas, balki bir necha tillarga doir bo‘lib, respublikada o‘zbek va rus tillariga davlat tili maqomini berishni har jihatdan rasmiy jihatdan qonunlashtirishga intilishning o‘ziga xos namunasi edi.

O‘sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi turli respublikalarda davlat tili haqidagi masala jiddiy kun tartibiga qo‘yilayotgan edi. Bundan qattiq tahlikaga tushgan va bu sohada ham jilovni ham qo‘ldan chiqarishni aslo istamagan jilovdor markaz zudlik bilan “SSSR xalqlarining tillari to‘g‘risida” degan qonun loyihasini tayyorlab, uni "Izvestiya" gazetasi sahifalarida 1989-yilda e’lon qilgan edi. Bu loyiha o‘sha davrdagi til siyosatiga doir o‘ziga xos uzoqni ko‘zlangan tuzoq edi. Markaz tomonidan tayyorlab e’lon qilingan bu loyihada respublikalardagi milliy tillarga davlat maqomini berish, rus tilining esa barcha ittifoqdosh respublikalarning rasmiy tili sifatida to‘la amalda bo‘lishini ta’minlash nazarda tutilgan edi. Bu esa tabiiyki, jonga tekkan ikki tillilik g‘oyasining qayta tiriltirilishi ekanligini hamma millatparvar kishilar anglab etgan edilar. Shuning uchun o‘sha davrda bu loyiha amalga oshmay faqat qog‘ozdagina qolib ketdi.

2016-yil dekabr oyida Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylangandan so‘ng, Davlat tiliga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyi ni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5850-sonli farmoni imzolandi.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e‘tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Prezident farmonida Davlat tilini rivojlantirish departamentining vazifalari belgilab berilgan. Shulardan biri «lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish»dir. Bu borada yozuv qo‘shhokimiyatchiligiga barham berish asosiy

vazifadir. Davlat va jamiyat yagona yozuv amaliyotiga to‘liq va uzil-kesil o‘tmas ekan, umumxalq savodxonligini to‘liq tiklash imkonsizdir. Muammoning yechimi maxsus, qat’iy qarorni taqozo etadi.

Shuningdek, farmonda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Ana shu vazifa doirasida nazarda tutilishi kerakki, tarixiy jarayon taqozosi bilan «Davlat tili haqida»gi qonun va «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonun alohida-alohida qabul qilingan.

Farmon ijrosini ta’minlash uchun davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, tibbiyot sohalarida, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va harbiy muassasalar faoliyatida to‘liq davlat tilida ish yuritish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni kuchaytirishimiz kerak. Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O‘zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari ham o‘zbek tilini o‘rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e’tiborlidir.

Shu munosabat bilan bu borada motivatsiya omillarini kuchaytirish, maxsus darslik, lug‘at va qo‘llanmalar, video va audiomateriallar, zamonaviy o‘qitish uslublarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli qarori va 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyi ni tubdan oshirish chora-tadbirlari to ‘g‘risida”gi PF-5850–son Farmonida belgilangan vazifalar, institut Kengashining 2019-yil 29-noyabrdagi 4-son yig‘ilishi bayoni qarorlari ijrosini ta’minlash hamda institut kafedralarini yanada optimallashtirish shuningdek, institutda

davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini yanada oshirish maqsadida 2019-yil 4-dekabr Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektorining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini tashkil etish to‘g‘risidagi 841/-F-sonli buyrug‘i asosida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiyaga binoan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

1.2022-yil 21-oktabr kuni “Davlat tili: tadqiqi, ta’limi va amaliyotda qo‘llanilishi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2.Kafedra professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Qadring baland bo‘lsin, Ona tilim!” mavzusida insholar tanlovi bo‘lib o‘tdi.

3.D.Yuldasheva tomonidan ”O‘zbek tilida ornitonimlarning izohli lug‘ati” va Z.Ashurova hamda kafedra o‘qituvchisi M.Komilovalar tomonidan “O‘ziga xos so‘zlar lug‘ati” (A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab she’rlari misolida) nomli lug‘atlar nashrdan chiqdi.

Hozirgi kunda kafedra o‘qituvchilari tomonidan “Iqtisodiy terminlarning o‘zbekcha-ruscha izohli lug‘at”ini yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shu o‘rinda Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning «Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin» degan so‘zlaridan shuni anglab yetishimiz kerakki, til har bir millat madaniyatining o‘zagi, u xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydigan,

birlashtiradigan, tarbiyalaydigan, o‘qitadigan, urf-odat, ananalarini saqlaydigan asosiy vosita ekanligini har birimiz chuqur anglab,ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak. Bu bizning kelajak oldidagi vazifamiz va burchimizdir.

Qahramon shoirimiz Erkin Vohidov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q. Istiqloq unut bo‘lgan davlatchiligimizni tikladi, yo‘q bo‘lishga maxkum qilingan tilimizni, demakki millatimizni asradi va aziz qildi. Endi uning biz yo‘qotib ulgurgan boyligini tiklash, turlicha “izm” tamg‘alarini qo‘yib iste‘moldan chiqarilgan so‘zlarni o‘rniga qaytarish, buning uchun mumtoz adabiyotimizni chuqur o‘rganish hozirgi avlod zimmasidagi sharaflı burchdir...” [5, 13].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 167-I-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF-5850-son.
5. Erkin Vohidov. So‘z latofati. - Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 b.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQIDAGI TA’SIRCHANLIKNI TA’MINLASH MAZMUNI

*Tursunoy Yusupova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi*

Bugungi kunda maktab ona tili ta’limi mazmunini belgilashda kommunikativ yondashuvga alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Kommunikativlik nutq madaniyatini, muomala odobini amaliy maqsadlarda egallashga doir yondashuvlardan biridir. Chunonchi, jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida davlat tilini ritorika darajasida o‘rganish, uni keng miqyosda qo‘llash shuni taqazo etmoqda. Ayniqsa, nutq madaniyatini egallashga doir ishlar milliy ma’naviyatni singdirish shakllaridan biriga aylanib bormoqda.

Kommunikativlik nutq madaniyatini amaliy maqsadlarda egallashga doir yondashuvlardan biridir. Kommunikativ yondashuvning mohiyati shundaki, so‘zlovchi tinglovchiga axborot berish bilan birga, unga qandaydir ta’sir o‘tkazadi: o‘z so‘ziga ishontiradi, unga biror masalada dalda beradi, ruhini ko‘taradi, biror nojo‘ya xatti-harakatdan qaytaradi va hakazo. Gaplarni ta’sirchan qilib tuzishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonida ana shu kommunikativ jihatlarni ro‘y-rost amalga oshirish maktabi o‘taladi.

So‘z va so‘z shaklini to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish, chiroyli va ta’sirchan so‘zlash, nutqda ortiqcha so‘zlarni qo‘llamaslik kabilar qadimdan barcha ustozlar, jumladan, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk allomalar o‘gitlarining asosini tashkil qilib kelgan. Chunonchi, O‘rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, nutq madaniyati bilan shug‘ullanish o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib kelganligini ko‘rish

mumkin. “Mashhur turkolog Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bu masalaning juda qadimdan o‘rtaga qo‘yib kelinganligidan dalolat beradi. U davrlarda shartli ravishda nutq odobi deb yuritiladigan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va maznundor so‘zlash ... haqida fikrlar aytilgan”[1,24].

Rus tilini o‘qitish metodikasiga doir ishlarni va ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablarning ona tili ta‘limi tajribalarini o‘rganish shundan dalolat beradiki, ularning o‘quv rejalari tarkibiga hozirgi kunda ritorika fani ham kiritilgan. Metodist N.A.Ippolitova bu fanga shunday ta‘rif beradi: “Ritorika – bu samarali muloqot to‘g‘risidagi fan. Samarali muloqot, eng avvalo, o‘zidagi kommunikativ vazifani amalga oshira olish bilan bog‘liqdir”[2,16]. Demak, ritorika fani o‘quvchilarni muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirib, kommunikativ yondashuvni to‘liq joriy etishda o‘z ifodasini topadi.

Ona tili darslarining har birida nazariy ma‘lumotlar ustida ish olib borilganda, ya‘ni yangi mavzu tushuntirilganda, o‘tilganlar so‘ralganda har gal o‘quvchilardan misollar keltirish – gaplar tuzish talab etiladi, xolos. Aynan shu jarayon o‘quvchi nutqida ta‘sirchanlikni ta‘minlashga qaratilgan holda tashkil etilsa, natijada o‘quvchi nutqida barkamollikka erishish mumkin, aksincha shu jarayonda o‘quvchilar tuzadigan gaplarning mazmundorligiga, ta‘sirchanligiga, sintaktik qurilishining boyligi va rang-barangligiga, kommunikativ qiymatiga e‘tibor berilmasa, nutqiy rivojlanishda siljish sust boradi. Hammamiz yaxshi bilamiz, o‘quvchi nutqini o‘stirish, o‘quvchi nutqidagi ta‘sirchanlikni ta‘minlash masalasi, asosan, bog‘lanishli nutq yo‘nalishidagi yozma ishlar: ijodiy diktant, bayon, insho, esse va matn yaratish kabilar zimmasiga yuklanib kelmoqda. Chunonchi, nutq o‘stirish masalasiga o‘quv yili davomida e‘tibor qaratilmay, balki vaqti-vaqti bilan tashkil qilinadigan yozma ishlar jarayonidagina diqqat qilinadigan bo‘lsa,

muntazamlilik yo‘qoladi. Bu esa o‘quvchida o‘z nutqi ustida ishlash ko‘nikmasini shakllanishiga salbiy ta‘sir qiladi. Bugungi kun ona tili ta‘limida yozma ishlar ustida olib boriladigan ishlarda asosiy diqqat-e‘tibor yozma ishlarda yo‘l qo‘yiladigan xatolarga qaratilmoqda. Unda o‘quvchilar nutqi mahsullarini tekshirish va natijalarini baholashda yo‘l qo‘yilgan imloviy, leksik va grammatik, juda kam miqdorda uslubiy xatolar tahlil qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj amalga oshmay qoladi. Ayni shu muammolar bugungi kunda Ona tili ta‘limi Milliy dasturini yangilashni taqazo qiladi.

Respublika Ta‘lim Markazi tashabbusi bilan bir guruh olimlar hamda tajribali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari bilan hamkorlikda “Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi” loyihasi tayyorlanib keng jamoatchilikka taqdim etildi. Hoziri kunda u amalda qo‘llanilmoqda. Ona tili fani Milliy o‘quv dasturi asosida darliklar ham yaratila ham boshlandi. Dasturda ona tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvga asoslangan ta‘limga e‘tibor qaratilgan. Unda kommunikativ yondashuvga asoslangan ta‘lim quyidagi 4 xil kognitiv malakani o‘zida jamlashni nazarda tutadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilari, ayniqsa, bitiruvchilarining xalqaro standartlar talabi asosida o‘z ona tilida so‘zlashishning 4 xil kognitiv malakasini o‘zida jamlashi, ya‘ni eshitilgan yoki guvohi bo‘lgan video va audioaxborotlarni erkin sharhlashi (eshitib tushunish), ijtimoiy muloqot madaniyatiga ega bo‘lishi (fikrni og‘zaki bayon qilish), berilgan matnni tahlil qila olishi, axborot mazmunidan hukm va xulosalar chiqara olishi (o‘qib tushunish) va nutqiy vaziyatga ko‘ra mustaqil matn yarata olishi (fikrni yozma bayon qilish) muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Ona tilidan umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi” [3] da “Ona tili” fani nafaqat leksik va grammatik me‘yorlarni o‘rgatuvchi,

balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me‘yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fan sifatida tavsiflanadi. Dasturda o‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e‘tibor qaratiladi: ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtira olishi, o‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatining rivojlanishi masalalariga oydinlik kiritiladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchiga asosiy vazifa sifatida yuklatiladi. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishga qaratiladi. Demak, ona tili darslarida beriladigan bilimlar va amalga oshiriladigan barcha amaliy ishlar o‘quvchilar nutqidagi ta‘sirchanlikni ta‘minlash masalasiga qaratilishi lozim.

5-7-sinf ona tili darslarining har birida so‘z boyligidan keng foydalanib, turli munosabat bilan mazmundor va ta‘sirchan gap tuzishga muvaffaq bo‘linsa, 5-9-sinflarda o‘tiladigan jami o‘quv soatlarida kata

miqdordagi leksik qatlamni faollashtirishga erishiladi. Pirovardida har bir o'quvchining nutqiga beqiyos sifat o'zgarishlari olib kiriladi. Aksincha, loqaydlik bilan shunchaki topshiriqni bir amallab bajarish uchungina gap tuzish oxir-oqibatda bolalarning ona tilini o'rganishidagi noaniqlikka, ta'limiy mo'ljalsizlikka sabab bo'ladi.

1999-yilda qabul qilingan "Ona tili" davlat ta'lim standarti[4, 46-54] da so'y boyligini oshirish borasida qo'yilgan "Og'zaki va yozma nutqda so'zlarni funksional uslublarga mansubligini bilgan holda qo'llashlari" degan talabning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchilar so'zlashuv nutqida, ilmiy nutqda, publisistik va badiiy uslublarda ishlatiladigan so'zlarni o'zaro farqlay bilishlari va shu bilimlariga nutqda amal qilishlari shart. Lekin e'tirof etish kerakki, so'z boyligi jadal oshayotgan, shakllanayotgan 5-, qisman 6-sinf o'quvchisi uchun bir yo'la ikki vazifani: ham yangidan-yangi so'zlar bilan tanishish, ham ularning uslubiy mansubligini bila boorish birmuncha qiyin yumush sanaladi.

O'quvchi mazmunli va ta'sirchan so'zlash zaruriyati bilan o'z so'z boyligini oshirar ekan, bu ishda dastlabki kezlarda cheklashlarga uchramasligi, ko'proq lug'at zahirasidan foydalanishi lozim. Bu ishlar bolalarni ortiqcha qiynab qo'ymaslik niyatida qilinadi.

1999-yilda qabul qilingan "Ona tili" davlat ta'lim standartida "Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat", - deyiladi[4, 47]. Standartda: "Og'zaki va yozma nutqda so'zlarni funksional uslublarga mansubligini bilgan holda qo'llashlari, sinonim, omonim, paronim, undov so'zlarni, argon va jargon so'zlarni, iboralarni ishlatishlari, ularning uslubiy imkoniyatlarini, uslubiy bo'yoqdorlik darajasini bilishlari..." talab etiladi[4, 53]. Ko'rinib turibdiki, bunda ham nutq

mahsulining mazmundor va ta'sirchan bo'lishi lozimligi o'z ifodasini topmagan. Standart asosida yaratilgan darsliklar ham asosan shu yo'sinda yaratilgan.

Demak, o'quvchilarga mazmuni anglata olish va ta'sirchan gap tuzdirish yo'llarini ko'rsatish bilan bog'liq masalalarga oydinlik kirita olish bilan bir qatorda, o'quvchida uni shakllantirishning mashq orqali amalga oshirilishini nazarda tutgan holda mashq turlarini sanab o'tamiz:

- O'tilgan ma'lumotga doir misol aytish yoki yozish;
- Berilgan so'z yoki so'z birikmasi asosida gap tuzish;
- O'tilgan qoidaga mos misolni darslikdagi mashqdan yoki badiiy parchadan topib aytish yoki yozish;
- Berilgan gaplar orasidan ta'sirchan gaplarni ajratish;
- Berilgan gaplarni ta'sirchan gaplarga aylantirish;
- Rasm (tasviriy san'at asari) asosida gap tuzish;
- Berilgan gaplarning ta'sirchan chiqishini ta'minlagan leksik vositalarni aniqlash;
- Gapdagi uslubiy xatoni aniqlash;
- Gapni tahrir qilish;
- Badiiy uslubda yozilgan gapni ilmiy uslubga aylantirish;
- Ikki matnni qaysi uslubga mansubligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- Gaptuzish jarayonida tanish kishilar, taniqli shaxslar, asar qahramonlarini ko'z oldiga keltirish;
- Gap tuzish paytida ruhiy holatni belgilab olish;
- Gap tuzish paytida nutqiy vaziyatni aniqlab olish;
- Gap tuzish paytida badiiy adabiyotga xos tasviriy vositalardan foydalanish;
- Matn yaratishga o'rgatish;
- Tabiat hodisalari asosida matn yaratish.

Xulosa shuki, o‘quvchilarni ta’sirchan gap tuzishga o‘rgatish uchun muntazam, uzluksiz ravishda ona tili darslarida mana shu tipdagi mashqlar bilan ishlashni tashkil etish o‘quvchilar nutqidagi ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Капинос В.И. Культура речи // Методика развития речи на уроках русского языка: Пособие для учителей / Н.Е.Богуславская, 2. Ипполитова Н.А. Риторический аспект реализация методов обучения // Русский язык в школе. – 2007. №2. – С. 16.

3.http://uzviylik.tdi.uz/comment/?ELEMENT_ID=200&ID=7&PAGE_2=2 “O‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” loyihasi Ona tili // Respublika ta’lim markazi. 2020-yil. Ona tili fani Milliy o‘quv dasturi . // Respublika ta’lim markazi. 2022yil.

4. Давлат таълим стандартига шарҳ. Она тили / Муаллифлар: Й.Абдуллаев, Р.Сафарова, А.Сайфуллаев, Р.Йўлдошев. // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим дастури. – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни, 1999.

YOZMA NUTQ SAVODXONLIGI – MADANIYAT BELGISI

*Nargiza Ahmedova,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozma nutq va uning o‘ziga xos xususiyatlari, yozma nutqni shakllantirish omillari xususida fikr yuritiladi. Jamiyat a’zolarining o‘zbek tilidagi savodxonlik darajasi va

unga salbiy ta'sir qiluvchi holatlar, ularning oldini olish hamda savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, savodxonlik, imlo qoidalari, tinish belgilari, mutolaa madaniyati, tinish belgilari.

Yozma nutq savodxonligi hozirgi kunda jamiyatimizdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Yozma nutq savodxonligi til vositalaridan o'rinli va unumli foydalangan holda imlo qoidasiga mos o'z fikrini to'g'ri, ravon va sodda bayon qilish malakasidir.

Ma'lumki, savodxonlik hozirgi kunda jamiyatdagi dolzarb masalalardan biridir. Savodxonlik insonlarning hayotiy zarur bilimlarga ega bo'lishi va ularni og'zaki va yozma nutq orqali bayon eta olish malakasidir.

Mustaqillika erishganimizdan keyingi yillarda o'tkazilgan bir qator islohotlar davlatimiz fuqarolarining savodxonlik darajasini yaxshilashga qaratilgan. Ayniqsa, ona tili ta'limida savodxonlikka bosh masala sifatida qarala boshlandi. Davlat ta'lim standartlari, shu jumladan, ona tili Davlat ta'lim standarti ham ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqib belgilab beriladi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan asosiy maqsad o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yildi.[9] Bundan ko'rinib turibdiki, ona tili ta'limining maqsad va mazmuni ham o'quvchining savodxonligiga qaratilgan. Ammo hozirgi kunda mana shu maqsad qanchalik amalga oshirilayotgani ancha munozarali. Demak, savodxonlikning tushib

ketishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri ona tili ta'limi natijasining tushib ketganligida deb hisoblash mumkin.

Undan tashqari, hozirda ikkiyozuvlilik davom etarkan, bu ham savodxonlikka salbiy ta'sir qiladi. Sababi kirill va lotin imlo qoidalarida anchagina farqli holatlar mavjud bo'lib, ba'zi hollarda ikkita qoidani bir-biriga chalkashtirish natijasida xato yozilgan so'zlar yuzaga kelib qoladi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

1. *Orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi so'zlar imlosida hech qanday tovush orttirilishi kuzatilmaydi, ammo xalq orasida *orzuyim, orzuying, orzuyi; orzuyimiz, orzuyingiz* kabi xato yozish ko'p uchraydi.

2. Lotin alifbosi imlo qoidalarida *parvo, obro', mavqe, avzo* kabi so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, har uchta shaxsda ham y tovushi orttirilishi belgilab qo'yilgan: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz, avzoyi mavzuying, mavzusi* shaklida yozish qoidalashtirilgan. Ammo *parvoim, parvoing; parvoimiz, parvoingiz; obro'im, obro'ing; obro'imiz, obro'ingiz, avzoi, mavzuing, mavzuyi* shaklida xato yoziladi.

3. Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla tarzida, qolgan hollarda esa -illa yozilishi qoidalashtirilgan: *shovulla, lovulla, gurulla, taqilla, chiqilla*. Ammo kirill qoidalariga mos holda bu so'zlarni *shovilla, lovilla, gurilla* shaklida xato yozish uchraydi.

4. Lotin imlo qoidalarida g' tovushi bilan tugagan so'zlarga -ga qo'shimchasi qo'shilishi keltirib o'tilgan: *bog'ga, tog'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi. Ammo kirill qoidalariga mos holda *boqqa, toqqa, siqquncha* yozish holatlari ko'p uchraydi.

5. Lotin imlo qoidalarida *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi so'zlarni qo'shib yozish qoidalashtirilgan. Ammo bu so'zlar ko'pincha

kirill imlo qoidalariga ko‘ra *ming boshi, so‘z boshi, olma qoqi* kabi xato yozish holati ham uchraydi.

6. Lotin imlo qoidalarida quyidagi so‘zlar qo‘shilib yoziladi: *sheryurak, muzyorar, ishyoqmas* tarzida. Ba’zi hollarda kirill qoidalariga muvofiq *sher yurak, muz yorar, ish yoqmas, qo‘l yozma* shaklida xato yoziladi.

7. Lotin imlo qoidalarida juft so‘z qismlari orasida -u (yu) bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yilishi qoidalashtirilgan: *do‘st-u dushman, kecha-yu kunduz* kabi. Kirill imlo qoidalarida esa bu so‘zlar chiziqchasiz yozilishi qoidalashtirilgan, natijada bu so‘zlarni kirill imlo qoidalarida asosda xato yoziladi: *yeru osmon, oru nomus, tunu kun, kechayu kunduz, yoshu qari, qo‘yu qo‘zi* kabi.

8. Lotin imlo qoidalarida tartib sonlar arab raqamlari bilan ifodalansa, -nchi/inchi qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha qo‘yilishi qoidalashtirilgan: *2023-yilning 1-sentabri, 60-yillar* kabi. Kirill imlo qoidasida esa yil va sanalarni ko‘rsatuvchi arabcha raqamdan so‘ng chiziqcha qo‘yilmaydi, lotinda ham ba’zan shunday yozish uchraydi: *2023 yil 22 sentabr* kabi.

9. Lotin imlo qoidalarida *yildan yilga, tomdan tomga* kabi so‘zlar ajratib yozilishi aytilgan. Bunday birliklar kirill imlo qoidalariga ko‘ra chiziqcha bilan xato yoziladi: *yildan-yilga*.

10. Lotin imlo qoidalarida *ko‘pdan ko‘p, tekidan tekin* kabi so‘zlar ajratib yozilishi aytilgan. Bunday birliklar kirill imlo qoidalariga mos holda chiziqcha bilan yozilishi xato hisoblanadi: *ko‘pdan-ko‘p*.

11. Lotin imlo qoidalarida *izofali birikmalar* ajratib yozilishi, bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga **yi** shaklida qo‘shilishi aytilgan: *dardi bedavo, nuqtayi nazar*. Bunday birliklar kirill imlo qoidalarida ajratib yozilishi hamda **i** shaklida qo‘shilishi qoidalashtirilgan edi, mana shu qoidalarni chalkashtirish hisobiga *nuqtai nazar, tarjimai hol* tarzida xato yozilishi uchraydi.

12. Kirill alifbosidagi *ц* harfi lotin alifbosida baʼzan *s*, baʼzan *ts* bilan yoziladi, ammo amaliyotda bu qoidani ham chalkashtirish uchraydi: annotatsiya emas annotasiya, antisiklon emas antitsiklon tarzida.

13. Kirill alifbosidagi *е, ё, ю, я* harflarini lotin alifbosida yozish bilan bogʻliq xatolar ham talaygina: *Abdullayev* emas *Abdullaev*, *yer* emas *er*, *pyesa* emas *pesa* kabi. Yoki Yunus Rajabiy atoqli otini qisqartirishda *Y.Rajabiy* emas *Yu.Rajabiy* yozish ham uchraydi. Koʻp hollarda kirill yozuvidan lotin yozuviga oʻgiruvchi dasturdan foydalanish ham oʻzimizga bogʻliq boʻlmagan hollarda xatolarni keltirib chiqaradi.

14. Hozirgi kunda savodxonlikka salbiy taʼsir qilayotgan holatlardan biri tinish belgilari bilan bogʻliq xatolar hisoblanadi. Hozirgi paytda turli norasmiy muloqot vositalari biz uchun juda qulay hisoblanadi. Mana shunday yozma muloqot shakllarida tinish belgilari odatda ishlatilmaydi. Bu holat koʻpchilikka shunday singib qolyaptiki, rasmiy yozishmalarda ham bu holatlar, yaʼni tinish belgilarini ishlatmaslik holatlari uchrab turadi.

Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “har birimiz davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni mustaqillikka boʻlgan eʼtibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz oʻzimizdan, oʻz oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”.

Yozma nutqni rivojlantirish ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Yozma nutq grammatik va mazmun jihatdan toʻgʻri jumla tuzishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning

murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turiga xos me’yor foydalanuvchilarda asta-sekin shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022/<https://president.uz/oz/lists/view/5774>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyi ni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabr kuni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni
4. Eltazarov J. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent, 2006.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013
6. ЖАМОЛХОНОВ Х., САПАЕВ Қ. ИМЛО МУАММОЛАРИ. – Toshkent, 2007.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent, 1999.
8. O‘zbek tilining imlo lug‘ati./ Tuzuvchilar: Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
9. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2010.

KOMMUNIKATIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN DARSLARDA YOZMA MATN USTIDA ISHLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

*Karimova Shaxloxon,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining imloviy savodxonlikka erishuvidagi pedagogik-psixologik imkoniyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik usullar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Talabalarning yozma nutq madaniyati va uni shakllantirish, ona tili, yozma nutq bobida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish va o'stirish yo'llari, usullarini ular ongiga singdirish asosda savodxonlikning talab darajasida bo'lishini, o'zbek tili imkoniyatlaridan o'z o'rnida foydalanishni ta'minlash masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, og'zaki va yozma nutq, dialogik nutq, tinglab tushinish, bevosita yordam, mustaqil ta'lim, zamonaviy yondashuv.

Insonning birlamchi til malakasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko'p ishlash og'zaki nutq o'z-o'zidan rivojlanib qolishga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatdan bir nuqtada birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayon inson ongda boshqa-boshqa mexanizmning ishlash orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e'tibor qaratishi zarur. "Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi,

tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko‘pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to‘g‘ri anglamaslik natijasida paydo bo‘lgan noto‘g‘ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko‘rishi, eshitishi vositasi hamdir.”[1]

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma‘naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga to‘liq joriy qilish to‘grisida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda.

Zero, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ham ta‘limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o‘quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo‘ladigan ona tili ta‘limida o‘quvchi o‘z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo‘lishi va to‘g‘ri savodli yoza oladigan bo‘lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni esa bilim, malakalari yetarli o‘qituvchilar amalaga oshiradi. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yozma va og‘zaki nutqini takomillashtirish masalasi esa birinchi galdagi ustuvor vazifalardir.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish va o‘z nutqini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir. Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy qarashlarida ham “Ta’lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi”, degan g‘oyalar bir necha asr avval aytilgan bo‘lsa ham hech bir zamonda ahamiyatini yo‘qotgan emas. Darsliklarning yangi avlodi, ayniqsa, ona tili fanidan yaratilayotgan darsliklar ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘quv adabiyotlaridan biridir. Fikrlarimizni amaldagi yangi darsliklar va ularda o‘qitishdagi asosiy vazifalarga diqqat qaratsak:

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi[2] da til o‘qitishning o‘rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishi va ana shu vaziyatlarda o‘rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi.

Tanlangan topshiriqlar vositasida o‘qituvchi o‘quvchlarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to‘g‘ri va kommunikativ jihatdan erkin so‘zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo‘yishi muhimdir. O‘quvchining tilni qo‘llashdagi real ehtiyoj (ijtimoiy muloqot, akademik ta’lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan. Grammatik bilimni yetkazish insonning til malakasi og‘zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi lmiy isbotlangan.

Ana shundan kelib chiqib, darsliklar yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va hokazo);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.[3]

Quyida yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan didaktik usullardan tavsiya qilamiz. "So'zlarning tuzilishi jihatdan turlari" mavzusi[4] ni mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot misolida

Avval matn audio shaklda o'qib eshittiriladi.

Rivoyat qilishlaricha, Mashrabning onasi unga homiladorligida qo'shnilarining uzumidan so'ramasdan yemoqchi bo'ladi. Shu payt ona qornidan: «Onajon, luqmayi haromni yemang, bog'ning egasini rozi qilib, keyin uzumni yeng», degan ovoz eshitilibdi. Hali tug'ilmagan Mashrab haromdan hazar qilgan. U tug'ilgandan so'ng ham shu e'tiqodida qoldi. Shoir ko'z ochib g'addor muhtojlikni ko'rdi. Qashshoqlik va benavolik, xo'rlik va nohaqlik shoir qalbini iztirobga solaverdi. U qancha yuksaklikka intilgan sari, haqiqat undan yiroqlashdi. Gumrohlik va adolatsizlik, firib-u nayrang shoirni tig'yalang'ochlab qarshi oldi. Shoir nohaqlikka qarshi chiday olmadi, u yovuzlikni, johillikni, adovatni parchalash uchun kurashdi. Qalandar

qiyofasida, darvesh qiyofasida: boshda kuloh, egnida xirqa, qo'lida aso, yelkasida xurjun bilan haq va adolat izlab yurt kezdi. Mudroq qalblarni bir chaqin bo'lib uyg'otdi. O'z vujudiga qarshi isyon ko'tardi.

(Rivoyatlardan)

1. Tinglab tushunish mashqi.

Audiomatn eshittirib bo'lingach, quyidagi savollar beriladi:

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so'z yuritilgan?
2. Halol va xarom luqma o'rtasida qanday farqlanishlar bor?
3. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Va uni asosan kimlar amalga oshiruvchi shaxslar kim?

2. Og'zaki nutqni o'stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo'lar edingiz?
2. Halol luqma tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Halol rizq va uning foydaliklari haqida qanday o'zbek maqollarini bilasiz?
4. Halol kasb yoki hunar kishining fidoyiliklariga bag'ishlangan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?
5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?
6. Qaysi qo'l mehnati bilan shug'ullanasiz?

3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq

1. Bo'g'iz tovushi h va chuqur til orqa undoshi x ning yozilishi yuzasidan mashq o'qituvchi so'zlarni aralash tarzda slaydda ko'rsatib ham turishi yoki doskada yozilgan variantini ham taqdim etishi mumkin. Talabalar ikki ustunga ajratib yozadilar. Namuna:

“H” undoshli so'zlar	“x” undoshli so'zlar
Halol	Xirqa
hali	xurjun
muhtojlik	Burch
gumrohlik	Xo'rlik
...	...

2. Lugʻat ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashda asosiy yordamchi vosita lugʻatlar ekanligi eʼtirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari koʻp qayd etilgan.[5]

4. Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq

1. Matndan soʻzlarning tuzilishiga koʻra faqat juft soʻzlarni ajratib yozing. Hosil boʻlishiga qiqqat qiling va soʻz turkumini aniqlang. Juft soʻz bogʻlanib kelgan soʻz bilan birga koʻchiring.

Masalan, ota-ona (ot soʻz turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin soʻzlardan tuzilgan), alang-jalang qaraydilar (Ravish soʻz turkumi, har ikki qismi atash maʼnosiga ega boʻlmagan soʻzlardan hosil boʻlgan).

Til taʼlimida talabalarning, ayniqsa, boshlangʻich taʼlimiy yoʻnalishida tahsil oluvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda turli didaktik usullaridan foydalanishi va darslarni interfaol metodlarga tayangan holda tashkil qilish oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosalarimiz quyidagicha:

1. Insonning til malakasi ogʻzaki nutqini tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni ogʻzaki va yozma ifodalash orqali shakllanish ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, til taʼlimida grammatik qoidalarni oʻrgatibgina qolmasdan tilga muloqot jarayonida asosiy vosita ekanligini inobatga olinishiga ahamiyat qaratish muhim.

2. Dars jarayonlarida grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilish haqidagi qarash asos qilib olinishi, bunda til oʻqitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilishi oʻzlashtirishga ham ijobiy taʼsir etuvchi omillardan ekanligi oydinlashdi.

3. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda oʻzgalar nutqini tushunishi va oʻz nutqini ravon, toʻgʻri ifodalashiga oʻrgatishdir.

4. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ilk savod chiqarishda chinakam savodxonlikka erishgan oʻqituvchilar qoʻlida taʼlim olishi talabalik davridanoq jiddiy eʼtibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent, 2005.
2. Mavlonova K. Ona tili va o'qish savodxonligi. 3-sinf uchun Darslik. Toshkent-2022.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b
4. Ona tili. 60110700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Fan Dasturi. O'z.Res. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
5. Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D.,
6. G'ulomova X. Husnixatga o'rgatish metodikasi. - Toshkent, 2007.
7. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligi oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
8. Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57
9. Kozimova N. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2009. – B.213.

ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

*Shodmonova Munira Burxonovna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish metodikasi, bu jarayonda yuzaga keladigan to'siqlar va ularni bartaraf

etish yo'llari hamda o'quvchilarning dars mashg'otlarini tashkil etishda samaradorlikni oshirish omillari xususidadagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, shakl, metod, vosita, usul, samaradorlik, muammo, yechim.

Milliy ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklar, kelajak avlod tarbiyasida bo'shliqlar paydo qilayotgan qusurlar ona tili va adabiyot o'qituvchisi faoliyatiga ham bevosita bog'liq. Muallimlar kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi ona tili va adabiyot fanini o'qitishdagi eng og'riqli nuqta hisoblanadi. Fan o'qituvchilarining ko'pchiligida nimani qanday o'qitish kerakligi to'g'risida yetarli tushuncha mavjud emas. Bu ularning darsni to'g'ri tashkil qila olmasliklariga olib keladi. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z fanlari o'qitilishining o'ziga xos jihatlarini intuitiv tarzdagina bilishadi. Ular bu jarayonni ilmiy asoslarda to'liq o'rganishmagan. Shuning uchun ham fanlarni o'qitishga qo'yilgan maqsad amalga oshmay, kutilayotgan natija yuzaga chiqmay qolayotir.

Aslida ona tili va adabiyot o'qitish ilmi alohida yo'nalish sifatida paydo bo'lmasidan ilgariroq muallimining pedagogik, ruhiy, kasbiy tayyorlik darajasiga juda jiddiy e'tibor berilgan. Bobolarimiz farzandiga dars o'tadigan domlani obdon surishtirib, so'ng qaror qabul qilishgan. O'sha damdayoq ona tilining savod o'rgatish bilan bog'liq, adabiyotning millat ma'naviyati, demakki, buguni va kelajagini tarbiyalashdek vazifasi ayon bo'lgan. Bugunga kelib, bu e'tibor birmuncha susaygani ayrim ona tili va adabiyot o'qituvchilarining aynan o'qitish metodikasidan bexabarligi, o'quvchini darsga qiziqtirish, ortidan ergashtirish malakasiga ega emasligida namoyon bo'lyapti.

Mazkur masalada ona tili va adabiyot o'quv fanlarining har biri o'z maqsad va vazifasiga egaligini inobatga olib, bir-biriga bog'liq, ammo alohida yo'nalish sifatida yoritishga harakat qildik.

Hayotda bo'layotgan o'zgarishlar, narsa va hodisalarning mohiyati til orqali ifodalanadi va anglanadi. Ma'lumki, keyingi-yillarda ona tilini o'qitishda o'quvchilarni faollashtirish hamda ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga nazariy jihatdan e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiqi, xususan, maktab ona tili darslaridagi samarasi sezilarli bo'lmayotir. Ayniqsa, maktabni bitirib, jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan kadrlarning ko'pchiligi yozuvida ko'zga tashlanayotgan imloviy xatolar, muloqotdagi kamchiliklarni mazkur muammoning oqibati deb qarash lozim bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchi ijodiy tafakkurni o'stirish uchun darslikdagi grammatik mashqlar hamda grammatik qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarni haqiqiy nutqiy va mantiqiy fikrlash faoliyati bilan shug'ullanishga o'rgatmog'i, asosiy e'tiborni matn tuzishga, shuningdek, matn ustida ishlashga qaratib, uning turli ijodiy usullarini o'ylab topmog'i zarur. Ana shundagina o'quvchilar ona tili darslarida izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar, ijod qilishga o'rganadilar. Dars o'tish jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham umumdidaktik va metodik tamoyillarga hozirgi zamon talabi nuqtai nazaridan qarashi lozim. Chunki o'quvchiga bir xil topshiriq, bir xil bilim berish uni toliqtiradi. O'quvchilarga o'rgatilishi lozim bo'lgan matnlar tarbiyaviy, ta'limiy, nazariy, ilmiy, falsafiy ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

Adabiyot fanining har bir mashg'ulotida o'qituvchi o'rganilajak asar asosida o'quvchilar bilimni boyitibgina qolmay, ta'lim oluvchilarning badiiy zavqini uyg'otishi, ma'naviyatini shakllantirishi, shaxslik sifatlarini qaror toptirishi ham kerak. Adabiyot darsidan bosh maqsad barkamol o'quvchi shaxsini shakllantirishdan iboratdir. Shu bois har bir darsga astoydil, har tomonlama chuqur tayyorlanishi lozim. Aks holda o'qituvchi o'quvchilar ma'naviyatiga kerakli ta'sir o'tkaza

olmaydi, natijada darsdan kutilgan tarbiyaviy va ta'limiy maqsad amalga oshmaydi.

Taassufki, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining ko'pchiligi badiiy asar haqida dars o'tish deganda, faqat asar voqealarini hikoya qilib berishnigina tushunib, bayonchilik bilan cheklanib qolishadi. Mumtoz adabiyot yoki zamonaviy she'riyat namunasi ekanidan qat'iy nazar, har bir badiiy matn avvalo, o'qituvchi nazaridan o'tishi, idrok etilishi, so'ng o'quvchilarga taqdim etilishi zarur. Shu bilan birga, o'qituvchi darslikdagi material bilangina chegaralanmasligi, o'tilajak har bir mavzuga doir qo'shimcha adabiyotlardan xabardor bo'lishi, yangi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularsiz adabiyot darslari samaradorligiga erishish imkonsiz yumushga aylanadi.

Kuztishlar natijasiga, afsuski, ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslari yaxshi ahvolda emasligiga guvoh bo'ldik. Maktab o'qituvchilari darslikdagi tahlil va savol-topshiriqlar bilangina kifoyalanishadi. Bu hol darsda o'quvchining ham passiv, ishtiyoqsiz qatnashishiga olib keladi. Badiiy matnni sharhlab o'qish, uning darslikda ko'zda tutilmagan ma'nolarini topish, ularda yashirin badiiy ma'noni kashf etish, tahlil qilish va hayotiy misollar asosida izohlash o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lishiga qaramay, ular tomonidan bu vazifaning astoydil bajarilganini ko'rmadik. Shu bois o'quvchilarning ham tahliliy idroki sust, badiiy zavqi yo'q darajada. Badiiy matn bilan ishlash metodikasini o'rganmaguncha, ona tili va adabiyot o'qituvchisi adabiyot darslari samaradorligiga erisha olmaydi. Badiiy material ta'limiy-tarbiyaviy materialga aylanib, o'ziga xos «pedagogik transformatsiya»ga uchragandagina adabiyot o'qituvchisi o'z kasbiy tayyorgarligi rivojlanishi yo'lida urinayotgan, mustaqil malaka oshirish bilan shug'ullanayotgan bo'ladi. Zotan, bilim berishning ham o'ziga xos tarzi, boshqalarnikidan ajralib turishi kerak bo'lgan yo'sini mavjud. U

o'quv jarayoni ishtirokchilarining yoshi, bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari, moyilliklarini hisobga olgan holda amal qiladi. Aynan shunday dars o'tish yo'sinining alohidaligi tufayli bitta mavzu bir yoshdagi o'quvchilarga tamomila farqli tarzda tushuntiriladi va keskin farqli ta'limiy natijaga erishiladi. Bir adabiyot o'qituvchisi mavzuni qiziqarli, tushunarli, hayajonli o'tsa, ikkinchisi uni hissiz, zerikarli mashg'ulotga aylantirishi mumkin. Shu bois adabiyot o'qituvchisi mashg'ulotdan oldin qaysi sinfga qaysi mavzuni qanday usulda o'tishini, o'rganilajak asarning barcha qirralarini, mavzuning turdosh fanlarga aloqasi kabi jihatlarni hisobga olgan holda dars loyihasini tuzib olishi shart.

Masalan, 8-sinfda Asqad Muxtorning «Chinor» romanidan parcha o'rganiladi, deylik. Unga oid bir necha dars shaklini keltirish mumkin:

1. Oldingi darsda o'rganilgan mavzu – adib umr yo'li, ijodi haqidagi ma'lumotlar so'ralib, uy vazifasi tekshiriladi. So'ng o'qituvchi roman haqida qisqacha ma'lumot berib, darslikdagi matn bilan tanishtiradi hamda birinchi qism uchun berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlanadi. Agar vaqt yetmasa, savol va topshiriqlar bilan ishlash uyga vazifa qilib beriladi.

2. Oldingi darsda romanning Ochil buva va nabirasi Azimjonlarning safari tasviri bilan tanishish uyga topshiriq qilib berilganligi bois uni to'la tahlil qilish uchun savol va topshiriqlar bilan ishlashga kirishiladi. O'tgan darsni so'rash mavzu to'liq tugagandan keyingi umumiy takrorlash va mustahkamlash mashg'ulotiga qoldiriladi.

3. Mashg'ulot avvalidan parcha tahliliga tutinib, darslikdagi hamda qo'shimcha tarzda o'qituvchining o'zi tuzgan savol va topshiriqlar asosida uni o'rganish, shuningdek, o'tilgan darsni yangi mavzuga bog'lash asnosida so'rab va mustahkamlab boriladi.

4. Asar mazmuni o'zlashtiriladi, badiiyati tahlilga tortiladi, Ochil buva, Azimjon, Sharofat aya, Akbarali, Bektemir, Hadya singari

obrazlar xarakteri, ruhiy-ma'naviy olami, adibning portret yaratishdagi badiiy mahorati yaxlit tarzda ochib boriladi. Lekin faqat darslikdagi savol va topshiriqlar bilan cheklanib qolish nojoizdir.

5. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'qituvchining topshirig'iga ko'ra uyda o'rganib kelishgan matnning o'zlariga berilgan qismini yoki undagi biror obraz yoxud ma'naviy muammoni tahlil etib, o'z mulohazalarini bayon etadilar, boshqa guruh fikrlariga munosabat bildiradilar, kerak o'rinda bahsga kirishadilar.

Ayni bir mavzu yuzasidan darsning yana bir qancha variantlarini keltirish mumkin. Biz keltirgan shakllar go'yo darsning «skeleti» bo'lib, ularga qolgan a'zolari ham «joylash» – «butlash» lozim. Bu ona tili va adabiyot o'qituvchisining bilimi, mahorati va, eng asosiysi, kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Shu qonuniyatni idrok etgan o'qituvchigina ayni mavzuni sinfdan-sinfga bir xil tarzda o'tib yurmasdan, har bir sinf xususiyatlarini hisobga olgan holda tamomila yangi va betakror mashg'ulotni o'tkazishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
2. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
3. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
4. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TDPU. 2017. – 52 b.

DIPLOMATIK YOZISHMALARNING TILI VA USLUBI

Asila Shodiyeva,

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada rasmiy uslubning turlaridan biri bo‘lgan diplomatik yozishmalarda til birliklarning ishlatishi, diplomatik yozishmalarning tarixan yuritilishi, shuningdek, rasmiy ish hujjatlarning tarixan nomlanishi ham berilgan.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, diplomatik yozishmalar, farmon, yorliq, arznoma, vasiqa, ariza, tushuntirish xati, tarjimayi hol, nota-bayonotlar.

O‘zbek tili davlat tili sifatida qonuniy ravishda ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida keng qo‘llanilmoqda, hukumatimiz tomonidan uni o‘rganish va o‘rgatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 1993-yil 2-sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun hamda 1995-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarori e‘lon qilindi.

Har bir shaxs o‘z fikrini to‘liq, tushunarli va aniq ifoda etishida til qoidalari bilan bir qatorda tildagi uslublardan ham xabardor bo‘lishi zarur. Davlat idoralari, hokimiyat, muassa, tashkilotlarga yozma tarzda murojaat qilishda, albatta, rasmiy ish uslubidan foydalanamiz. U davlat xodimi bo‘ladimi, ishchi, talaba, dehqon bo‘ladimi ariza, tushuntirish xati yoki ishonchnoma, tilxat kabi rasmiy ish hujjatlarini bir xil qolipda yozadilar.

Sharqda, aynan ajdodlarimiz yashagan hududlarda X-XIX asrlarda farmon, yorliq, arznoma, vasiqa yoki shunday mazmunga yaqin hujjatlar keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo‘lgan: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k. [2;5] Bu o‘rinda

To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qirolı Yag‘aylaga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Said Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda berilgan yorlig‘i, [8;34-35] Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1797-yil 2-iyunda Peterburgga – Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yorlig‘i [10;6] kabi namunalarini keltirishimiz mumkin.

Hozirgi hujjatchilikda bo‘lgani kabi tarixiy hujjatlarning rasmiyligini, yuridik asosga ega ekanligini, haqiqiygini muhr, tamg‘a, nishonlar belgilab bergan.

Tarixiy muhrlar uch, to‘rt. olti burchakli, doira yoki bodomsimon shaklli ko‘rinishlarda bo‘lgan. Muhrlarni, odatda, xonlar, sultonlar, amir va podshohlar qo‘llariga uzuk sifatida taqib yurishgan. Shunday muhrlarning yorqin namunalarini temuriylar davri hujjatchiligida uchratishimiz mumkin, bunday muhrlar “chorus muhr”. [1;17] deb atalgan.

Xususan, tarixiy rasmiy hujjatlarda muhr bosiladigan o‘rni ham muhim ahamiyat kasb etgan. O‘rinsiz bosilgan muhr ham kelishmovchilikka, o‘zaro munosabatlarning yomonlashuviga olib kelgan. “Boburnoma”da shu holat bilan bog‘liq misolni uchratishimiz mumkin: *“Xat bitmäkdin va bizni tilämäkdin munkir bolup, rustäiyäna va durušt javāblar yibärdilär. Ul rustäiliqlardın biri bu erdikim, Šahibek meñä bitilgän xatniñ arqasida beglär beglärgä, bälki uluğraq martabalik beglär kiçikräk čärgälik beglärgä muhr basar yerdä qağazniñ ortasida muhr basib yubaruptur. ... Ušbu sitezäläridin va rustäiliqlardan edikim, xānumānlarini öttüz, qırq yıl qazğanlarini barbäd berdilär”*. [1;187-188]

Rasmiy uslubning yana bir muhim turlaridan biri diplomatik va tijorat yozishmalari hujjat turlaridir. Ushbu hujjat turini uning mazmunidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri tanlash va yozish qonun-

qoidalariga to‘la va aniq amal qilish, hujjat yo‘llayotgan mamlakat an’analarini hisobga olish zarurdir. Diplomatik hujjatlarning qaysi turi yuborilgan bo‘lsa, shu turi bilan javob qaytarilishi shart. Diplomatik yozishmalar tashqi ishlar vazirliklari tomonidan shu mamlakatning davlat tilida olib boriladi va biror xalqaro tildagi tarjimasi ilova qilinadi. Elchixonalar ham yozishmalarni o‘z davlat tillarida yoki o‘zlari turgan mamlakat tilida olib borilishi mumkin.

Diplomatik hujjatlarda so‘zga e‘tiborli bo‘lish shart. Ularning tili sodda, ravon bo‘lib, ko‘chma so‘zlardan holi bo‘lishi, “kosa tagida nim kosa” qabilidagi ifodalar berilmasligi lozim. Maqtov so‘zlari diplomatik yozishmalarning eng asosiy turi bo‘lmish nota-bayonotlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. “*“Hurmatli janob”, Janobi oliylari”, “Sizga bo‘lgan yuksak hurmatimga ishonch bildirgaysiz”* kabi hurmat-e‘zoz so‘zlarining ko‘p qo‘llanishi unga do‘stonalik, oz qo‘llanishi esa rasmiy tus beradi.

***«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga
Muhtaram Prezident Janobi Oliylari,
Aziz birodarim,***

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami munosabati Siz, Janobi Oliylarini va butun o‘zbek xalqini xalqim va shaxsan o‘z nomi mdan eng samimiy tuyg‘ularim bilan tabriklayman.

Do‘st va qardosh O‘zbekiston Respublikasi Siz, Janobiy Oliylarini ng boshchiligida amalga oshirilgan islohotlarning ta‘sirida farovonlik va barqarorligini oshirib, mintaqaning barqarorligi va tinchligiga ham o‘z hissasini ko‘shmoqda.

Turkiya va turk xalqi O‘zbekistonning va o‘zbek birodarlarining bu sa‘y-harakatlarida kecha bo‘lganidek bugun ham, ertaga ham yelkadosh bo‘lishda davom etadi.

*Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mustahkam qardoshlik rishtalariga a
soslangan aloqalarimizga barpo etilgan strategik sheriklikni qisqa vaqt i
chida Siz, Janobiy Oliylari bilan birga misli ko‘rilmagan darajaga yuks
altirdik. Bu darajani saqlash uchun va yanada yuksaklarga ko‘tarish uc
hun kuchli iroda mavjud ekanligini ko‘rishdan juda mamnunman.*

*Shu fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliylariga, sog‘lik va baxt, d
o‘st va qardosh o‘zbek xalqiga farovonlik va omonlik tilayman.*

Rejep Tayyip Erdog‘an,

Turkiya Respublikasi Prezidenti (“Xalq so‘zi” gazetasi. 2021-
yilning 1-sentabrdagi soni).

«Diplomatik yozishmalarda sinonimik qatorning ko‘proq uslubiy
neytral so‘zlari emas, balki ijobiy hissiy-bo‘yoqli va kitobiy uslubga xos
so‘zlar: *bildiraman* so‘zi o‘rniga *izhor etaman*, *vaqt o‘rnida fursat*, *bir
marta o‘rnida bir bora*, *mansab o‘rnida lavozim*, *rahmat o‘rnida
tashakkur*, *xursand* so‘zi o‘rnida *mamnun* so‘zlari ko‘p qo‘llanadi.
Diplomatik bayonnomada ko‘chma na’noda qo‘llanuvchi turg‘un so‘z
birikmalari, jumladan, *bosh ustiga*, *boshimiz ko‘kka etdi*, *ko‘nglingizni
cho‘ktirmang*, *bir yoqadan bosh chiqarib*, *bir tan-u bir jon bo‘lib* kabi
iboralar, shuningdek, xalq maqollari, donolar bisotidan olingan
aforizmlar keng qo‘llanadi. Bunday turg‘un birikmalar yozishmaga
ko‘tarinki ruh berishga, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi»[2;310].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

*Sizni va qardosh O‘zbekiston xalqini o‘z nomimdan va Ozarbayjon
xalqi nomidan kirib kelgan Navro‘z bayrami bilan muborakbod etaman.*

*Tabiatdagi abadiy uyg‘unlikni ifoda etuvchi ushbu milliy bayram
xalqlarimizning insoniyat madaniyatiga qo‘shgan qimmatli hissasi
Yangilanish, yosharish va go‘zallik ramzi bo‘lmish ushbu ayyom*

qalblarni nurga to'ldirib, o'zaro anglashuv, do'stlik va hamjihatlikni tarannum etadi.

Sizning 2023-yil 1-3-mart kunlari Ozarbayjonga, Boku shahriga Qo'shilmaslik harakati Muloqot guruhining COVID-19 ga qarshi kurashish bo'yicha sammitida ishtirok etish uchun amalga oshirgan tashrifingizni yuksak qadrlayman, o'zaro ishonch ruhida o'tgan uchrashuvimizni mamnuniyat bilan eslayman.

Boy ma'naviy merosga ega qardosh xalqlarimiz farovonligi yo'lida hamda sherikligimiz va hamjihatligimizni asrab-avaylash, doimo mustahkamlab borish maqsadida birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni davom ettirishimizga ishonchim komil.

Ushbu qutlug' kunlarda Sizga va oilangizga mustahkam sog'lik va baxt-saodat, birodar O'zbekiston Respublikasining ravnaqi yo'lidagi oliy davlatchilik faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

Ilhom Aliyev,

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti (“Xalq so‘zi” gazetasi. 2023-yilning 21-martdagi soni).

Rasmiy hujjatlarda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.

«Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e‘lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi»[2;119].

Rasmiy uslubning asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi. Shuningdek, darak gaplar, uning, ayniqsa,

qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi. Masalan:

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir. (1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi qonunning 16-moddasidan)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, 1990.
2. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юришиш. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015.
3. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (илк ва ўрта асрлар). ДДА. –Тошкент, 2016.
4. Содиқов Қ. Эски уйғур ёзуви. Т., 1989.
5. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Сведней Азии в древние времена. 3 тома. М-Л., 1952.
6. ЦГВИА РФ, Архив внешней политики России. Фонд Ташкент скиедела, опись 132/1.
7. Ismail Hojaliyev, Asila Shodiyeva. [Extralinguistic Signs Of The Official Style.](#)
8. https://www.eprajournals.com/jpanel/upload/1141pm_87.EPRA%20

4-SHO‘BA.MADANIYATLARARO MULOQOT VA TARJIMA MASALALARI

ALIY SAFIY KOSHIFIY HIRAVIY - MOHIR XATTOT VA XOS KOTIB

(“Sharh-i Fusus al-hikam” asarining
nodir qo‘lyozma nusxasi misolida)

*Umurzoqov Bahridin Safarovich,
Oriental universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. XV–XVI asr mobaynida Hirotida yashab, ijod etgan shoir, yetuk manoqibnavis, Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy o‘z davrida Hirot ilmiy-adabiy muhitining yetuk allomalaridan, sharq mumtoz adabiyoti vakillaridan biri hisoblanadi. U o‘ziga xos ijodiy faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bilan o‘z davri adabiyotiga, xususan, manoqibnavislikka munosib hissa qo‘shgan buyuk ijodkordir.

Aliy Safiyning iste’dodli shoir, taniqli tazkiranavis va manoqibnavis, o‘z davrining mashhur voizi bo‘lgani u hayot bo‘lgan davr manbalarida ehtirom ila e’tirof etilgan (Navoiy, Xondamir, Komiy).

Aliy Safiy Hiraviy mohir xattot. xos kotib sifatida ham faoliyat yuritgan. Afsuski, ijodkor shaxsiyatining ushbu qirradi hozirgacha ilmda maxsus tadqiq etilmagan. Biz quyida ijodkorning ana shu noyob qobiliyati - xattotlik faoliyati, xos kotibliigi va uning samarali mehnati samarasi hisoblangan “Sharh-i Fusus al-hikam” (شرحی فصوص الحکم) qo‘lyozmasi kitobati haqida to‘xtalmoqchimiz. “Sharh-i Fusus al-hikam” Mavlono Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub yirik hajmli tasavvufiy asardir.

Kalit soʻzlar: Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy, “Sharh-i Fusus al-hikam”, dastxat nusxa, “Sharh-i Mullo” qoʻlyozmasi, “Xatt-i Qurʻoniy”, nasx xati, Mavloni Jomiy, USTOZ-I KULL (ilm-u ijodda, maʼrifatda barchaga USTOZ).

قال النبي صلى الله عليه وسلم:
حسن الخط نصف العلم³²

Mavloni Husayn Voiz Koshifiy (1442–1505)ning allomaligi, yaʼni koʻp ilmlarda, sohalarda asarlar ijod qilgani tafsilotli tadqiq etilgan (1, 41-44; 2, 14-15). Alisher Navoiy Mavloni Koshifiyning taʼriflar ekan, bekorga “Mavlonodin zu fununlik purkor boʻlubtur...” (3, 132) deb yozmagan. Biroq Husayn Voiz Koshifiyning xattotligi haqida esa umuman soʻz yuritilmay kelinayotir. Arabiy alifboda yozuv bitgan adiblar, shoirlar va olimlarning avtograf (dastxat)lari koʻzdan kechirilsa, ulardan koʻpchiligining yozuvlarida husnixatni koʻrmaymiz. Ammo Husayn Voiz Koshifiyning nodir kotib, qilqalam xattot boʻlganiga uning “Mavohib-i Aliyya” tafsiri qoʻlyozmasi dalolat qiladi. Mazkur qoʻlyozma kitob OʻzR FA ShI asosiy fondida №2181 inv. raqam ostida saqlanib kelinmoqda. Buxoro xonligining oxirgi qozikaloni Sadri Ziyoning qaydiga koʻra, ushbu qoʻlyozma “Muallif dastxatidir” (4, 1a) hisoblanadi.

Husayn Voiz Koshifiy shoir, adib va xattot boʻlgan ekan, uning oʻgʻli Aliy Safiy ham oʻz otasidek “zu funun”likka intilganmikan?

Yaqinda biz Faxruddin Aliy Safiyning oʻz otasi kabi savodli kotib va qilqalam xattotligiga dalolat qilgan betakror ishlaridan birini aniqlashga muvaffaq boʻldik. Bu ish oʻrta asrlar musulmon olamida “Shayxi akbar” nomini olgan zot Muhyiddin ibn Arabiyning “Fusus al-hikam” (فصوص الحكم) asariga Mavloni Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan “Sharh-i Fusus al-hikam” (شرح فصوص الحكم) asarining kitobat qilingan nodir qoʻlyozmasidir.

³² Tarjimasini: “Чиройли хат илмнинг ярмидир!”
Баъзиларга кўра, бу Ҳазрати Алийнинг муборак сўзларидандир.

“Sharh-i Fusus al-hikam” qo‘lyozmasi O‘zRFA ShI asosiy fondida №520 inv. raqam ostida saqlanadi. Qo‘lyozma jami 265 varaq (530 sahifa)dan iborat bo‘lib, uning kolofonida kotib o‘zini quyidagicha tanishtirgan (5, 254):

و قد تشرف باتمام كتابة هذه الشرح الشريف العبد الضعيف علي الصفي ابن الحسين
الواعظ الكاشفي ثبته الله تعالى على منهج الصدق و السداد في العمل و القول و الاعتقاد
و نقله من كتاب الذي كان بخط المصنف قدس الله تعالى سرّه و افاض علينا برّه - في
اواسط شهر صفر سنة سبع و تسعمائة
ثم قابلته مع الكتاب المنقول عنه بقدر الوسع و الامكان و الانسان مرگب من النسيان
و قد تمت المقابلة في اواخر شهر رمضان سنة سبع و تسمايه من هجرة سيدنا المبعوث
بأشرف الايمان صلوات الله و سلامه عليه ما اختلف الملوان و كرّ الجديدان، م

Tarjimasi: *Ushbu muborak “Sharh”ning ko‘chirilishi zaif banda Aliy as-Safiy ibn al-Husayn al-Voiz al-Koshifiyning qo‘li bilan tamomlandi – Alloh ta’olo uni sidq (to‘g‘ri)lik yo‘lida, solih amal (ezgu ishlar), ezgu so‘zlar va to‘g‘ri, haq e’tiqodda bardavom aylasin!*

(Kotib) bu (matn)ni musannifning – Alloh ta’olo ul zotning sirrini muqaddas (ya’ni, ixlosmandlarini ziyoda) aylasin va bizning ustimizga (ul zotning duolari ila) yaxshiliklar yog‘dirsin! – muborak xati bilan bitilgan ilk nusxadan naql etdi, to‘qqiz yuz yettinchi sananing Safar oyining o‘rtasida.

So‘ngra (maxfiy qolmasinkim,) bu kitobni ul zotdan (“Sharh” musannifi, Mavlono Jomiydan kitobat uchun o‘zim iltimos ila) qabul qilib oldim. Albatta, kuch va imkon yetguncha (bu ishni bajardim), inson nisyon (unutmoqlik)dan tarkib topgandir.

Va muqobala (dastxat nusxa bilan bu nusxani o‘zaro solishtirib chiqish ishi) sharafl iymon bilan yuborilgan Zot Sayyidimiz – toki Qutb yulduzi chiqib botar ekan va hayot davom etar ekan (ana shu muddatda) ul Zotga Alloh ta’oloning to‘xtovsiz rahmatlari va salomlari

bo'lsin! - hijratlaridan to'qqiz yuz yetti yil o'tganida Ramazon oyining oxirida (batamom) tugallandi".

Mazkur qo'lyozmaning 1 a va oxirgi 265 a sahifalarida Mavlono Abdurahmon Jomiyning dastxati bilan *Oldso'z* va *So'ngso'z* yozilganini ko'ramiz. Quyidagi suratda *Oldso'z* aks etgan:



*So'ngso'z*da Jomiy hazrat bu "Sharh"ning muqobalasini amalga oshirgan zot - o'zining zabardast shogirdi Mavlono Abdulg'afur Loriyga samimiy minnatdorchilik bildirgan va uning haqiga duoi xayr qilgan (5, 264):

تمت مقابلة هذا الكتاب بينى وبين صاحبه وهو الاخ الفاضل و المولى الكامل و الرأى الصايب و الفكر الثاقب رضى الملة و الدين عبد الغفور استخلصه الله سبحانه لنفسه و يكون له عوضا عن كل شئ، فى اواسط شهر جمادى الاولى المنتظمة فى سلك شهور سنة ست و تسعين و ثمانمأيه و أتا الفقير عبدالرحمن بن احمد الجامى عفى عنه

Quyidagi suratda mazkur *So'ngso'z* aks etgan:



Demak, bu asarning oxirgi tahrir ishlari hijriy sananing sakkiz yuz to‘qson oltinchisi Jumodu-l-oxir oyi o‘rtasida tamomlangan.

Bu nusxa Mavlono Abdulg‘afur Loriy uchun maxsus ko‘chirilgan. Aliy Safiy esa Mavlono Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan “Sharh-i Fusus al-hikam” asarining kotibi va muharriri bo‘lish sharafiga sazovor bo‘lgan.

Zero, shundan so‘ng kitobning Aliy Safiy tomonidan ham tahrir qilinganiga doir ma’lumot qayd etilgan:

حرره الفقير على بن الحسين الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى فى اواخر شهر ربيع الآخر لسنة ثلاث عشر و تسعمائة

م

“Sharh-i Fusus al-hikam” asari yirik hajmli asar – 265 varaq (530 sahifa). Qo‘lyozma hoshiyasida Mavlono Jomiyning, Mavlono Abdulg‘ofur Loriyning izohlari, qaydlari bitilganini ko‘ramiz. Bu

qo‘lyozmaning naqadar diqqat va ehtimom bilan kitobat qilingani, qayta-qayta tahrirdan o‘tkazilganiga dalolat qiladi.

“Rashahot”da bir necha o‘rinda, masalan, “Hazrat Maxdum quddisa sirruhu (Mavlono Abdurahmon Jomiy – B.U.)dan eshitilgan ma’rifatli so‘zlar bayoni”, “Hazrati Eshon (Xoja Ubaydulloh Ahror)dan eshitilgan ma’rifatli so‘zlar bayoni” boblarida rashhalarda Ibn Arabiyning “Fusus al-hikam” asaridan ko‘p misollar keltirilgan va ular sharhlangan. Demak, ma’lum bo‘lmoqdaki, Aliy Safiy “Sharh-i Fusus al-hikam”ni kitobat qilish bilan kifoyalanmagan, balki mazkur asardan kitobxonlar bilishi zarur bo‘lgan va muhim hisoblangan bir qancha ma’lumotlarni o‘z asari “Rashahot”da keltirgan.

Masalan, Ibn Arabiy “Fusus al-hikam”da “Har kim Meni tushida ko‘rsa, u kimsa Meni o‘ngida, albatta, ko‘radi”, mazmunidagi hadisi sharifni keltirgan. Mavlono Jomiy esa mazkur hadisi sharifni sharhlaydi. Jomiy ko‘ra, ushbu hadisi muborakdagi “Meni tushida ko‘rgan o‘ngida ham albat ko‘radi” iborasini “Meni tushida ko‘rgan shuni bilsinki, u Meni aniq ko‘ribdi,” shaklida sharhlagan (5, 264).

Aliy Safiy “Sharh-i Fusus al-hikam” asari nomini “Rashahot”da ko‘p o‘rinlarda keltirgan. Bu asarga Xojagon azizlari tomonidan berilgan ta’riflarni ham bayon qilgan. Bunga Xoja Abu Nasr Porsodan qilingan bir naqlni misol qilishimiz mumkin:

“Va yana Xoja Burhoniddin Abu Nasr Porso quddisa sirruhu edilar va ul zotga hazrat Xoja Abu Nasrning suhbatlari ko‘b ittifoq tushubdir. “Nafahot-u-l-uns”da yozib tururlarkim, bir kun alarning majlisi shariflarida Hazrat Shayx Muhyiddin ibn Arabiy quddisa sirruhuning zikri va alarning musannifotlarining zikri o‘tar edi. O‘z volidi buzrukvorlaridan naql ettilarkim, alar aytur erdilar: ”Fusus” jon erur, “Futuhot” esa dil!”

Va yana muni ham aytdilarki: "Har kishi "Fusus"ni yaxshi bilsa, unga Hazrat Payg'ambar sallohu alayhi va sallam mutobaatlarining do'iyasi qaviy aylanur" (7, 184).

Demak, bu parchadan ma'lum bo'lmoqdaki, Xoja Muhammad Porso o'z ilmiy, ma'rifiy suhbatlari asnosida Shayx Muhyiddin ibn Arabiy haqida, albatta, ehtirom bildirib to'xtalar ekan. Abu Nasr Porso, ya'ni Xoja Muhammad Porsoning o'g'li o'z otasidan naql qilishiga ko'ra, ul zot "Fusus" asarini haqidagi gapirib: "Fusus" jon erur, "Futuhot" esa dil!" degan.

Bu ta'rifdan nimani ko'zda tutilgani, ya'ni murod nima ekanini yana ul zot - Xoja Muhammad Porsoning o'zi bayon qilgan ekan: "Kimki "Fusus" asaridan yaxshi xabardor bo'lsa, unga Hazrat Payg'ambarimizga - sallohu alayhi va sallam! - ergashmoq, ya'ni ul zotning muborak sunnatlarini mahkam tutmoq, sunnat-i mutohharani tiriltirmoq istak-xohishi kuchli bo'ladi.

Xojagon-naqshbandiyya tariqati mansublarining iymon, ixlos va ma'rifat borasidagi xos afzalligi ham aslida mana shunda. Ya'ni, ul zotlar Hazrat Payg'ambarimizga - sallohu alayhi va sallam! - ergashmoq, ya'ni ul zotning muborak sunnatlarini mahkam tutmoq, sunnati mutohharani eng go'zal, eng chiroyli tarzda tiriltirmoq – sunnat amallarni o'z hayotlariga joriy qilmoq, va ana shu tarzda barchaga chiroyli, komil o'rnak bo'lmoq istak-xohishi, niyati bilan yashaydilar.

Bu ma'lumot orqali bizga Xojagon mashoyixining, ayniqsa, Xoja Ubaydulloh Ahror va Mavlono Abdurahmon Jomiyning Shayx Muhyiddin ibn Arabiy asarlariga, xususan, uning "Fusus" hamda "Futuhot" asarlari mutoalasiga aslo befarq bo'lmaganlari ma'lum bo'ladi.


Aliy Safiyning ma'lumot berishicha, Mavlono Abdurahmon Jomiy Samarqandga bir safar Xoja Ubaydulloh Ahror huzuriga Shayx

Muhyiddin ibn Arabiy asarlaridagi ba'zi nozik iboralarni ul zot sharhlab berishlari iltimosi bilan kelgan. (7,184).

“Sharh-i Fusus al-hikam” asarini kitobat qilish Aliy Safiy uchun Mavlono Jomiyga xizmatida bo‘lish baxti bilan birga keyinchalik o‘zining shoh asari “Rashahot”ni ham yanada mazmunli va ma’nodor asar bo‘lishida qo‘l keladi.

Shu o‘rinda yana bir narsaga diqqatingizni qaratmoqchimiz. Mavlono Husayn Voiz Koshifiy va uning o‘g‘li Faxruddin Aliy Safiyga xattotlikda, kotiblikda o‘rnak va namuna bo‘lgan zot Mavlono Abdurahmon Jomiydir. Zero, navoiyshunosligimizda “Navoiy albomi” deb nomlanuvchi “Majmu’a-i ruqu’ot” (Maktublar, nomalar to‘plami)dagi Hazrat Jomiyning dastxatlari murakkab mulloyi xatiga dalolat qilsa, “Tafsir-i Xoja Muhammad Porso”dagi Mavlono Jomiy qalamiga tegishli bo‘lgan uch sahifa kitobat va mazkur “Sharh-i Fusus al-hikam” asari Oldso‘z va So‘ngso‘z bitilgan sahifalardagi bitiglar (5, 264) esa ul zotning (ya’ni, Mavlono Abdurahmon Jomiyning) mohir xattot bo‘lganini bildiradi. Quyidagi foto-rasmda “Sharh-i Mullo” qo‘lyozmasining Jomiy hazrat o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan nusxasi, ya’ni avtograf nusxaning 1 b - 2 a hamda 51 b-52 a sahifalari aks etgan³³:

³³ Шахсий архивимизда сақланади.




Ushbu dastxat aks etgan foto-rasmlardan ham yaqqol ko‘rinib turibdiki, Mavlono Jomiy nasx xatida, boshqacha qilib aytganda, “Xatt-i Qur’oniy” bo‘lgan nasx xatini nafis yozish borasida, haqiqatan, mohir xattot bo‘lgan.

Demak, Mavlono Jomiy nafaqat ilm-u ijodda, hatto xattotlikda ham o‘z zamondoshlariga, shogirdlariga, o‘z ixlosmandlariga chiroyli namuna, o‘rnak bo‘lgani, ta’bir joiz bo‘lsa, “*ad-Dollu ala-l-xoyri kaffo‘ilihi*” (الذال على الخير كفاعله)³⁴ hadis-i sharifi da bayon qilingan abror³⁵ zotlardan ekani ma’lum bo‘lmoqda.

³⁴ Таржимаси: Эзгу ишга сабабчи бўлган одам ўша ишни бажарган кабидир.

³⁵ Солих, яхши, тақводор.



Mavlono Jomiy o'z davrida zamonning fuzalosi va ulamosi uchun **USTOZ-I KULL**, ya'ni ilm-u ijodda, ma'rifatda barchaga **USTOZ** maqomida edi.

Mavlono Abdurahmon Jomiy shaxsiyati, fikrlari, ma'rifati, irfonidan kelib chiqib, Husayn Voiz Koshifiyni, Alisher Navoiyni, Aliy Safiyni va boshqa Hirot adabiy va ilmiy muhitining barcha zabardast vakillari ijodini to'g'ri anglash, to'g'ri talqin qilish mumkin. Agar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ayniqsa, Mavlono Abdurahmon Jomiy ma'rifati, ilm-u ijodini yetarlicha bilmasak yoki to'g'ri baholay olmasak, ul zotga zamondosh qalam ahli ijodini, ul zot ixlosmandlari qarashlarini, maqsadlarini ham to'g'ri tushunish, to'g'ri baholash imkonsizdir.

Mavlono Jomiy, haqiqatan, deyarli barcha zamondoshlarining ijodlariga, ilm-u irfonlariga g‘oyat kuchli ta’sir o‘tkazgan ana shunday nodir shaxsiyat, betakror zotdir.

Nazarimizda Aliy Safiyga ham ilm-u ijodda va hatto xattotlikda ham eng kuchli ta’sir o‘tkazgan zot, shak-shubhasiz, Mavlono Abdurahmon Jomiy hisoblanadi.

“Rashahot” asarining “Hazrati Maxdumning ahvoli va ma’orifi, xoriqul-odotlari zikrlari bayonida” boblarida Aliy Safiy ba’zan ochiq-ravshan, ba’zi o‘rinlarda esa nozik ishoralar bilan Mavlono Abdurahmon Jomiyga o‘z samimiy munosabatini, yuksak ehtiromini bildiradi va ul zotga chuqur hurmatini orifona bayon qilishga intiladi.

“Rashahot” Mavlono Jomiyning va Xoja Ahrorning vafotlaridan keyin yozildi. Biz “Rashahot” asaridan shuni aniq anglashimiz mumkinki, xuddi Navoiy kabi Aliy Safiy ham sohib-i valoyat bo‘lgan (valiy zotligi bilan tanilgan) bu ikki zotning vafotlari sabab ayriliq firoqiga umrining oxirigacha ko‘nikaolmagan. Shuning uchun ham Hazrat Navoiy:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,

Meni istar kishini ko‘nglum pisand etmas, deb yozgan edi.

Aliy Safiy esa “Rashahot” muqaddimasida ana shunday kayfiyatda ushbu she’riy misralarni bitgan:

...Bu kun gul davri o‘tib, gulshan xarob bo‘lgan,

Men gul atrini kimdan qidiray? Gulobdan?!

Oftobimiz pinhon bo‘ldi va bizda ayriliq dog‘i,

Uning o‘rnini chirog‘ bosaolmagay! (7, 15).

“Rashahot” asari matnida ham ikki muborak zot - Xoja Ubaydulloh Ahror va Mavlono Abdurahmon Jomiy manoqiblari eng ko‘p o‘rin olgan. Bu Aliy Safiyning o‘z umri davomida avvalo e’tiqodda, so‘ngra ilm-u ijodda ko‘proq qaysi nodir shaxsiyatlarga, ya’ni

yuksak ma'naviyatga va ulkan ma'rifatga ega zabardast siymolarning ta'sirida bo'lganiga ochiq dalolat qiladi.

Navoiyshunosligimizda Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib va boshqalar uchun "Navoiyning kotiblari" iborasi qo'llaniladi. Ta'bir joiz bo'lsa, "Mavlono Jomiyning kotiblari" ham bo'lgan va o'sha kotiblar orasida Aliy Safiy birinchi o'rinda turadi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki Aliy Safiyning Mavlono Jomiy asarlaridan nusxa ko'chirishi shu birgina "Sharh-i Fusus al-hikam" asari bilan cheklanmagan. Aliy Safiy tomonidan Mavlono Jomiy qalamiga mansub "Shavohid an-Nubuvvat" (Payg'ambarlik alomatlari) asarining g'oyat chiroyli nasta'liq xatida kitobat qilingan bir nodir nusxasi bor. Mazkur nodir qo'lyozma ham O'zR FA ShI asosiy fondida saqlanadi.

Xulosa-i kalom, Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Hirot shahri katta jome'sida voiz, shoir, adib, tazkiranavis bo'lish bilan birga mohir xattot, savodli xos kotib sifatida ham faoliyat yuritgani uning o'ziga xos yana bir iste'dodiga, nodir qobiliyat egasi bo'lganligiga dalolat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умурзоқов Б. «Рашаҳот» асарининг нодир қўлёзма нусхаси. -Т.:2018, -Б. 41-44./ Убайдулла Каримов номидаги XV илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т., 2018. 400 б.

2. Умурзоқов Б. Фахруддин Алий Сафийнинг илмий-адабий мероси ва унинг «Рашаҳот» асарининг қиёсий-текстологик тадқиқи. Нурафшон,-Т.: 2019. -203 б.

³. Мажолисун-нафоис. 12-жилд. – Тошкент, 1966.

4. ЎзР ФА ШИ фонди. Қўлёзма №2181, 1 а.

5. ЎзР ФА ШИ фонди. Қўлёзма №520, 264 б.

6. ЎзР ФА ШИ асосий фонди. Қўлёзма № 520, – Б. 264.

7. Рашаҳот. – Тошкент, 2004. 504 б.

MUSHTARAK MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Tuychiyeva Oydin,
Oriental universiteti dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada xalq og‘zaki ijodining nodir na‘munasi hisoblangan maqollar badiiyati va ma‘no-mazmunidagi birlashtiruvchi jihatlari xususida so‘z yuritilgan. Bir nechta tilga oid mushtarak maqollar tasniflanib, semantik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, urf-odat, milliylik, dunyoqarash, xalqlar, uyg‘unlik, ijtimoiy-siyosiy, turg‘unlik.

Til - bu insoniy fikrlarni uzatish va muloqotning eng muhim vositasidir. Shu bilan birga, til milliy madaniyat va uni asrab-avaylovchi ko‘zgu vazifasini bajaradi.

Tilning milliy-madaniy semantikasi tarixning mahsulidir va xalq tarixi qanchalik boy bo‘lsa, til yanada yorqinroq va mazmunli bo‘ladi. Bir qator tilshunos olimlarning fikricha, aforizmning asosiy tarkibiy qismlari maqol, so‘zlar, iboralar va shiorlar hisoblanadi.

Maqollarda so‘z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki, maqollardagi so‘zlarni boshqa bilan almashtirish, biror so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. Hatto, nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda “qavlun” – gap, so‘z ma‘nosini ifodalasa, tojiklarning “zarbulmasal” atamalarida misol keltirish, ruslar “пословица” sida so‘zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi “ota” so‘zi da esa ajdodlar fikrini eslash ma‘nosida keladi.

Maqol va masallarning semantik qatlamlari voqelikning milliy-madaniy o‘ziga xosligini va xalqlar tilining majoziy tizimini aks ettiradi, ikki tilning umumiy va o‘ziga xos naqshlarini aniqlashga imkon beradi.

Maqollar va maqollarning tuzilishi haqida tojik olimi Abdug‘ani Mirzoev “ to‘liq maqol doim ikki qismdan iborat”- deb aytgan. Birinchi qismda voqealar yoki umumiy asoslar tavsifi berilgan; ikkinchisida odatda xulosa qilinadi [1:3].

Maqollar, matal, masal zarbulmasal - hikmat va hikmatli so‘zlar har madaniyatda fikr va mulohazalarning chuqurligini va millatning dunyoqarashini namoyon qilib kelgan, biz bu til tajribasini nafaqat ustozlardan, adiblardan, shoirlardan va ularning asarlaridan eshitganmiz, mutoala qilganmiz. balki xalqning og‘zidan ko‘cha-ko‘yda, bozorlarda necha bor tinglaganmiz. Binobarin, bir millatning maqollarini, matalu hikmatlarini boshqa bir millatda uchratsangiz, bu birliklar, o‘xshashliklar ikki millatning mushtarak tarixga ega ekanliklarining guvohi bo‘la oladi. Eron zamin xalqining ko‘hna va qadim Movaraunnahr xalqi bilan bo‘lgan bog‘liqligi, har ikki xalqning paydo bo‘lish tarixiga teng va barobar bo‘lib, ertak-u afsonalar bilan birga uzviy chambarchasdir.

Dunyoning ko‘plab xalqlarida ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan hikmatlar bor. Kundalik hayot saboqlariga asoslangan har bir maqol asosida, albatta, milliy xarakter, milliy qadriyatlar va urf-odatlar yotadi [5:3]. Bir-biriga nafaqat qardosh, balki qardosh bo‘lmagan xalqlar folklorida ma’nosi o‘xshash maqollarning uchrab qolishining guvohi bo‘lamiz. Ammo, ularda alohida ramz qilib olingan detal yoki biror obyekt birmuncha farqlarni ko‘rsatadi. Buning asosiy sababi sifatida xalqlarning geografik tuzilishi, iqlimi va hayvonot, nobotot olamidagi o‘zgachalik davr va mavsum nuqtai nazaridan ko‘rsatiladi.

Haqiqatdan ham maqollar xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirib beruvchi, haqiqatdan ogoh etuvchi pand-nasihatlar jamlanmasidir.

Maqollar- xalqning ma'naviy boyligi bo'libgina qolmay uning reallikdagi ifodasi hamdir. Ularning qo'llanishi o'rniga qarab, mazmuni kengayib boradi. Bu esa maqollardagi so'zlarning badiiy qiymatini namoyon etishdagi dastlabki bosqichlardan biri hisoblanadi. Xalqimizda vaqtini behuda ishlarga sarflaydigan, o'zining qo'lidan kelmaydigan ishga urinuvchi kimsalar uchrab turadi. Kishilarning bunday xil odati kun kelib o'ziga muammo orttirishini hisobga olgan holda "Behuda chiranish belni chiqaradi" maqoli aytiladi. Ushbu maqol kishilarni qo'lidan kelmaydigan ishga behuda urinishining salbiy oqibatga olib borishi haqida ogoh etuvchi manba sifatida qo'llanilgan. Xuddi shu ma'nodagi maqol forsiy xalqlar og'zaki ijodida "Ob bo qarbol bardoshtan" shaklida uchraydi. Yuqorida keltirilgan maqolning mazmuni saqlangan holda, yevropa xalqlari og'zaki ijodida ya'ni inglizlardagi: "Say no ill of the year till it be past", rus tilidagi "Криво дерево да яблоки сладки" maqollariga to'g'ri keladi. "Ikki qo'chqor kallasi bir qozonda qaynamaydi" maqoli nutqimizda faol maqollardan biri bo'lib, yozma manbalarimizda quyidagicha izohlanadi. "Ikki qo'chqar baši ešäctä pišmas". Bu maqol bir shaharda ikki beki, ikki boshliq bir-biri bilan chiqisha olmasligi, birining u yerni tark etib chiqib ketishi kerakligiga ishora qilib aytiladi. Shuning bilan bir qatorda berilgan maqolga ekvivalent sifatida devonda yana bir maqol uchraydi. Ammo, mazmunan bir-biridan keskin farq qilgan holda izohlanadi. "Qo'sh qilich bir qinga sig'mas" shaklida ya'ni, "Bir ish uchun intilgan ikki kishi, bir qizga sovchi yuborgan ikki odamga qarata so'zlanadi" [3:145]. Demak, bundan xulosa qilib aytish mumkinki, ikkala maqol ham bir qarashda o'xshash bo'lsada, tahlil jarayonida mazmunan turli farqlarga egadir. Bunday uslub orqali maqolning badiiyatini rang-barang tasniflash mumkin ekanligini kuzatamiz.

Forslarda: "Obeshon tuye yek juy namiravad", inglizlarda: "Two of a trade never agree", ruslarda: "Два

মেবেদ্যা ব একনয় বেরলোগে নে উজীবুতস্যা”, কাবী মাগুলারগা তো’গ’রী কেলাদী. Ʋুগোরীদা কেলতীরিলগান মাগুলারদা, দেতাল সীফাতীদা কেলতীরিলগান হা঳বনলারগা এ’তীবর কীলসাক, যা’নী ফরস খালগুলারীদা তুয়া হা঳বনী কো’প বোকীলাদী. Ʋুসলারদা এসা ও’রমোনলার সরেবলীগী তুফা঳লী ও’রমোনলারীদা ঳঳ীগুলারনী উছরাতীশ তাবী঳ হোল. Ʋীডা এসা কো’ছকোর হা঳বনী কেলতীরিলগান বো’লীব, বুনদা খালগুলারনীং তাবী঳ শারোতী অফজালীকলারীদান কেলীব ছীক্কান হোলদা উশবু মাগুল ঳ুজাগা কেলগান. Ʋম্মো মাগুলার মাজমুনী঳ ঳া঳লীতলীকদা ঳নান ও’খশহালীকনী ঳ফodalাগান. “Ʋোলগ’঳ ডারাক্ত ও’রমোন বো’লমাস”, “Ʋীর কারগ’া বীলান কীশ কেলমাস” বু মাগুলদা, জামী঳ত বীর ওদাম বীলান ও’জ-ও’জীদান শাকলানীব কোলমায়দী. জামী঳ত বো’লীশী উছুন ওদামলার জামো঳সীদান তাকশকীল তোপগান বো’লীশী কেরাক দেগান মাজোজী঳ মাজমুংগা ঳জোহ বেরীলগান. Ʋেলতীরিলগান মাগুলার কো’প মা’নোলী মাগুলার সরাসীগা কীরগান বো’লীব, ঳লারনী ও’জ বা কো’ছমা মা’নোদা হাম বীরদেক কো’ল্লাশ নুতক শারোতীগা হাম বোগ’লীক বো’লীব, বু নুতকী঳ ঳ছছামলীকনীং বারকোররলেশুবনী তা’মীনলায়দী. Ʋরস খালগুলারীদা: “Bo yek go’l bahor nemishavad” shaklida, ingliz og’zaki ijodida “One swallow does not make a summer”, rus xalqlarida “Одна ласточка еще не делает весны” maqollariga mos tushadi. “Shamol bo’lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi” bu maqol ko’proq asosli taxmin ma’nosini ifodalashda qo’llaniladi. Ya’ni biror bir hodisa yoki voqeaning hech qanday tasodifdan holi tarzda yuz bermasligi, unga ma’lum bir sabab turtki berishiga ishora qilib aytilgan. Forslarda “To naboshad chizki mardo’ m naguyand chizho”. Inglizlarda “No smoke without some fire”, ruslarda “Нет дыма без огня” holida uchraydi. Ʋuqorida berialgan tasnif orqali maqollar shu tarzda mushohada qilinadi. “Odobni odobsizdan o’rgan”, “Odobning boshi til”, “Aql Husan, Odob Hasan” Berialgan maqol zaminida “Bir inson odobsizlik qildi va odobsizligi sababli muhit sharoitida noqulay ahvolga tushib qoldi. Buni ko’rgan boshqa bir inson bundan o’ziga xulosa olishni va bu holni hayotida qaytarmasligiga kichik bir dars, maslahat yotibdi. Eshitganingga emas ko’rganingga

ishon hikmatiga ham to‘g‘ri keladi. Xuddi shu mazmundagi maqol forslarda “Adab az biadabon omuxtan” Ingliz va ruslarda “ Experience keeps a dear school, but fools learn in no other” maqollariga to‘g‘ri keladi. “Dunyoni suv bossa o‘rdakka ne g‘am”. Ushbu maqol beg‘am, loqayd, o‘z ishiga mas‘uliyatsiz insonlarga kesatish ma‘nosida nutqimizda faol ishlatiladigan maqol hisoblanadi. Ya‘ni, bir muhim ish yoki faoliyatda harakatchanligi sust kimsalarni o‘z ishiga jiddiyroq yondashishga chaqiradi, takabburlik va dangasalikdan holilik g‘oyasini o‘zida yuklaydi. Kishilarda sergaklik, serfahmlik hislatlarini shakllanishiga turtki beradi desak mubolag‘a bolmaydi. Boshqa xalqlar tilida shu mazmundagi maqolning ekvivalentlari quyidagicha beriladi. Inglizlarda: “Like water off a duck’s back”, “Как с гуся вода”, eronliklarda: “Do‘nyo ro ob beberat u ro xob mibarad”.

“Tog‘ tog‘ bilan qovushmaydi, odam odam bilan qovushadi”. Ushbu maqol vujudga kelish nuqtai nazaridan ko‘p yillik tarixga ega bo‘lib, ilk bor bu maqol Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ati-turk” asarida uchraydi. Maqolga quyidagicha izoh berib o‘tiladi. “Tağ tağqa qawušmas kiši kişikä qawušur”. “Tog‘ tog‘ bilan uchrashmas, chunki ular o‘z joylarida turg‘undirlar. Kishilar oradan ancha vaqt o‘tib ketsa ham, bir-birlari bilan uchrashadilar [3:375]. Eron xalq og‘zaki ijodida “Kuh be kuh namirasad vali be odam mirasad” Haqiqatda, maqol inson taqdiriga bashorat ma‘nosida yuzaga kelgan bo‘lib, o‘zida necha asrlik mazmun-mohiyatni saqlab kelgan. Bundan ko‘rinadiki, davr odamlarining dunyoqarashidagi turg‘unlik, xalqimizning o‘tmishi va buguni bilan chambarchas bog‘liqlikda davomiy ekanini ko‘rsatadi. “Pichoq qancha o‘tkir ham o‘z sopini kesmaydi” majoziy mazmundagi maqol bo‘lib, “Devoni lug‘ati-turk” asarida alohida to‘xtalib o‘tiladi. “Bu maqol o‘z ishini bajarolmay, boshqalar ishi to‘g‘risida so‘zlovchilarga qo‘llaniladi [3:155].

Keltirilgan maqolda g'iybatchilik, insonlarning bir-birini ko'ra olmaslik holatlari qattiq qoralanadi va "Oyni etak bilan yopib bo'lmas" maqoliga sinonimi sifatida qo'llaniladi. Forsiy yozma manbalarda aynan so'zmaso'z tarjima asosida keltiriladi. "Kord daste xo'd ro namibo'rad" كارد دست خود را نمی برد.

"Bo'zchi belbog'ga yolchimas, temirchi to'qaga", "Etikdo'zning etigi yirtiq, Temirchining teshasi kemtik", bu maqollar, bo'zchi qanchalik mahoratli bo'lmasin o'ziga hech yolchib belbog' tikib olmaydi. Lekin, o'z hunari bilan xalqning hojatini chiqarib yuradi. Xalqning ko'yida yurgan hunarmandlarning ijtimoiy hayot tarzidan kelib chiqib, shundan ta'sirlanib, ushbu maqol kuyinish ma'nosida ishlatiladi. Forslarda: "Kafshe pineduz poshne nadorad" كفش پینادوز پاشنه ندارد.

Inglizlarning: "The cobber's children usually go unshod", ruslarning "Портовой без кафтана сапожник без сапогов а плотник без дверей" maqollariga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqol va maqollarning qadr-qimmatini va jozibasi ular inson xotirasiga osonlikcha singib ketishi bilan bir qatorda, ularning uyg'unligida hamdir. Jahonning ko'plab xalqlarida shakli va mazmuni bir-biriga yaqin hikmatlar, iboralar, aforizmlar uchraydi. Kundalik hayotimizdan saboq beruvchi maqollar tag zaminida milliylik, xalqlarga xos bo'lgan dunyoqarash, xarakter, muhit, ajdodlardan qolgan urf-odat va qadriyatlar yotadi. Yuqorida keltirilgan namunalar orqali xalqlar hayotidagi o'zgarishlar, ular dunyoqarashidagi nozik tebranishlardagi yakdillik benihoya insonni quvontiradi. Shunday ekan, biz ma'nosi bir-biriga yaqin maqollarni kuzatishimiz orqali, ularga xos bo'lgan fikriy yaqinlikni aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzoyev A. Таджикские пословицы. - Сталинабад, 1940.

2. Xudoyorov I, Muhammedov Sh. Forscha o‘zbekcha mushtarak maqollar. –T, 2002.
3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘ati-t-turk. –T, 2017. – B. 488.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. –T, 1989. – B. 512.

TURKIY DOSTONCHILIKNING TARIXIY ILDIZLARI

*Rahmatova Gavhar Omonovna,
Oriental universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Turkiy xalqlar o‘zining badiiy tafakkuri bilan alohida ajralib turadi. Buni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida kelgan she’riy uzindilar misolida ko‘rish mumkin. Asarda munozara, ruboiy, qasida, doston, marsiya kabi qator turkiy og‘zaki adabiyot janr namunalari jamlangan. Ushbu maqolada turkiy dostonchilikning kelib chiqish ildizlari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy adabiyot, folklor, to‘rtlik, doston, vazn, qofiya.

Liro-epik [janr](#)lardan biri bo‘lgan **doston** turkiy xalqlar og‘zaki ijodida. «Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida [hikoya](#) qilinadi. Unda hayot, [voqelik](#) keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita [bosh](#) qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi»[1,14].

«Devonu lug‘ati-t-turk» asarida xalq dostonlaridan olingan uzindilar ham keltirilgan. Ularning katta qismi jangnoma, ya’ni qahramonlik dostonlaridir. Bunday dostonlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik kabi fazilatlar kuylanadi.

«Devonu lug‘ati-t-turk»da turkiy xalqlarning mardligi va jasoratidan so‘zlovchi jangnoma parchalar anchagina. Bunday she‘rlar adabiyotimiz tarixida *rajaz* deb ataladi[2,58]. I.Stebleva asardagi jangnoma she‘rlarni quyidagi guruhlarga bo‘lgan:

(1) tangutlar bilan jang;

(2) uyg‘urlar bilan bo‘lgan jang tasviri;

(3) yabaqular bilan bo‘lgan jang tasviri (bu turkum she‘rlar ikki guruhga bo‘lib beriladi. Bunga sabab parcha oxiridagi so‘z qofiyasi bilan bog‘liq);

(4) jang tasviri she‘rlari [3,204-209].

Bu jangnoma she‘rlarning katta qismi xalq dostonlaridan olingan parchalardir.

Jangnoma dostonlardan olingan parchalarda xalq ichidan chiqqan pahlavon yigitlar ulug‘lanib, beqiyos kuch-qudrati ta‘riflanadi. Bu parchalar orqali biz qadimgi turkiylarning jangovar ruhi, jangchining intizomi, qat‘iyati kabi fazilatlari bilan tanishamiz.

Jang tasviri, jangga chorlovlar, mardi maydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she‘rlarda jang manzaralari, shiddatli hujum, alplar to‘qnashuvi, qilichbozlik va nayzabozliklar tasvirlanadi. Quyidagi misolda *oquštilar*, *baqištilar*, *tuquštilar* so‘zlari bilan qofiyalangan ushbu parcha orqali dastavval, mard yigitlarning jangga chorlovlari, jangari saflarning bir-birlarini taqazo etib harakatlanishi tasviri beriladi:

أَرَنَ *Erän alpī*
أَلْبَى أَقِشْتِيلَارُ *oqištīlar,*
قِنْجِرُ *Qinjir közün /*
كُوزُنَ *közin baqištīlar,*
كُوزُنَ
بَقِشْتِيلَارُ
قَمُغُ *Qamuğ tolmun*
تُلْمُنُ نُقُشْتِيلَارُ *toquštīlar,*

قِلِجْ *Qilic qinqa*
قِنَقَا كُجُنْ *küçün sig'di.*
سِغْدِي

Mazmuni: Yigitlar bir-birlarini chaqirishdi, bir-birlariga qing'ir ko'z bilan o'qrayib qarashdi. Har xil jang qurollari bilan urushdilar. (Qilichning yuzi qon bilan qalinlashib), qiniga arang sig'di (DLT, 86).

Ular dushman jangchilariga o'tkir, g'azabli nigohlarini qadadilar. Bunda jangchilarning dushmanga munosabati, qahrini ko'rish mumkin. Bu shunchaki o'zaro jang emas, ozodlik, vatanparvarlik kurashidir. Chunki she'rda jangchilar turli xil qurollarda kurashgani aytilmoqda. Ushbu o'rinda biror yurtga bostirib kelgan yovga nisbatan qarshi chiqqan xalqning qo'liga ilingan narsa bilan olg'a borishi tasvirlanmoqda. Jang tasviri ham o'ta jonli berilgan. Biz buni so'nggi «Qilichlar qonlashib, qiniga kuch zarbi bilan sig'di» misrasi misolida ko'rishimiz mumkin.

«Devonu lug'ati-t-turk»dagi jangnoma she'rlarda yigitlarni jangga chorlovchi hayqiriqlar anchagina.

Misol uchun:

يغنىك *Yağın tara titrü*
تبا تترو بقب *baqip bügdän*
بكدنك بلا *bilä,*
اغرب *Oğrap qalî kelsä*
قلى كلسا سنكا *senä qarşu sülä.*
قرشو سلا

Mazmuni: Dushmaningni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Bekka qarshi yov kelsa, unga qarshi jang qil (DLT, 417).

Parchada beklikni himoya qilish nazarda tutilmoqda. Buning burchligini estatib, er kishiga nasihat qilinadi. Yurtga rahna solmoqchi bo'lgan dushman oddiy bo'lmasligi, shuning uchun dushmanni diqqat bilan kuzatib, unga qarshi jangga shay turish lozimligi uqtirilmoqda.

Vatan oldidagi burchni eslatib, bekklik nayzasini mahkam tutishi, agar bekkka qarshi dushman jang qilishni boshlasa, sen ham unga qarshi jang bilan javob berishi nasihat qilinadi. Bu mazmundagi she'rlarda turkiylarga xos bo'lgan jangovarlik va shiddatkorlik namoyon bo'lgan.

Parchadan ma'lum bo'ladiki, yurt mustaqilligini avaylab-asrash, tashqi dushmanlarga qarshi kurashish nafaqat hozirgi davr, balki qadimdan turkiy xalqlar milliy ruhining asosiy bo'g'ini bo'lib kelgan.

Asardagi parchalar ichida Tangut va Qatunsini o'rtasidagi jang tasviri ifodalangan doston parchalari ham mavjud. I.Stebleva o'zining «Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв.» nomli kitobida Tangut va Qatunsini o'rtasidagi jangto'g'risida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: «Все двадцать четверостиший этого сочинения написаны метром хазадж-и мурабб'а-и салим – четырехстопный правильный(полный) хазадж по формуле: мафā'илун / мафā'илун, т.е. v – – – / v – – – (слева направо)» [4,79].

Yana olim a o'z fikrini to'liq isbotlash uchun *Qatunsini* so'zi bilan boshlanuvchi quyidagi parchani misol qilib keltiradi hamda uni aruz vaznida tahlil qiladi:

Qatunsini oğiladi,

Tāñüt begin yağiladi.

Qani aqin žağiladi,

Boyun suwin qizil sağdi.

«Первая стопа хазаджа образована четырехсложным словом *Qatunsini*, в котором первый слог – *Qa* открытый и краткий, второй слог – *tun* закрытый и долгий – выражен буквой *tā*, третий слог – *si* открытый, но долгий, выражен буквой *sin*, огласованной касрой + неогласованной буквой *īā*; червертый слог – *niotkrytyy*, но тоже долгий, потому что выражен буквой *nun*, огласованной касрой + неогласованной буквой *īā*» [3,79].

Yuqoridagi parcha orqali ohangdorlik va jangavorona, kurashuvchanlikka chaqiruvchi misralar yoki qofiya soʻzlari jang sheʼrlarining asosiy xususiyati boʻlganini koʻramiz. Chunki bunda oʻquvchi oʻzining ong-shuuri bilan bu holatni his etishi talab etiladi. Ushbu uzindida berilayotgan tasvirdan ikki qoʻshni shahar aholisining jangini, urushning qanchalar talofatli yakunlanganligini, har birining oʻz beklari shu jangga boshlaganini bilib olishimiz mumkin. Jang tasvirini berishda esa *čoğiladi, uağiladi, žağiladi, sağdi* kabi soʻzlar boʻyoqdorlik ifoda etganligini kuzatamiz.

Bunday sheʼrlar qaysidir maʼnoda bilim beradi. Chunki jang tasviriga bagʻishlangan sheʼrlardan qadimgi turkiy xalqlarning yashagan shaharlari, qishloqlari, ularning qoʻni-qoʻshnilari haqidagi maʼlumotlarni bilib olamiz.

Gʻayridinlar bilan boʻlgan jang tasvirlari aks etgan dostonlarda uygʻur, yabogʻu va boshqa qabilalar bilan olib borilgan urushlar aks etgan.

Misol uchun:

ك	<i>Keldi meñä tat,</i>
لدى مَنكا	
تات	
ا	<i>Aydım emdi yat.</i>
يُدم اَمدى	
يات	
فُ	<i>Quşqa bolup et,</i>
شَقَا بُلُبْ	
آت	
سِد	<i>Seni tilär us,</i>
نى تِلَارُ	<i>böri.</i>
أُس بُرَى	

Aytmoqdaki: «Menga bir tot (hujum qilib) keldi; unga men: endi qushlarga yem bo‘l, qushlar, qurtlar seni kutayotirlar deb (uni o‘ldirdim)» (DLT, 29).

Asarda qahramonlik dostonlari bilan birga ijtimoiy mavzular aks etgan dostonlar ham mavjud.

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi quyidagi parchalarga hayotiy voqealarning kuylanishi, ma‘lum ijtimoiy qatlam muammolarining tilga olinishi bilan ilk turkiy dostonchilikning namunalari sifatida qarash mumkin:

قَنَّا	<i>Qanča bardîñ ey oğul?</i>
بَرْدِنِكَ اَي	
اُغُنْ	
اَرْدِين	<i>Erdîñ munda inç amul.</i>
كُنْ مُنْدَا اِنْج	
اَمَلْ	
اَتْنِ	<i>Attin emdi sen tönül,</i>
اَمْدَى سَن	
تونكول	
قِيلْدِين	<i>Qıldîñ ersä qılmağü.</i>
ك اَرْسَا	
قِيلْمَاغُو	

Ilgari o‘zi yonida yashab, so‘ng otini tashlab ketib, keyin otni so‘rab kelgan yigitga otni bermaslik uchun xitob qilib aytayapddiki: Mening yonimda salomat va tinch eding, ahvoling yaxshi, shod va mamnun eding, nega mendan yuz o‘girding? (DLT, 43).

Yoki yana bir misol:

بَرْد	<i>Bardîñ nelüg aymadîñ,</i>
نك نلك	
ايمدنك	
كِير	<i>Kirü körüp qaymadîñ.</i>

و کرب

قیمدنک

کز

Köñül berü yaymadiñ,

کا برو

بیمدنک

بلدن

Bolduñ erinč bolmağü.

ک ارنج

بلمغو

Ketding, ammo ketishingni nega aytmading, nega bo‘lishmading, orqangdagilarga e‘tibor bermading, nega ko‘ngling bizga moyil bo‘lmaydi. Endi o‘zingga noloyiq shunday bir holga tushding (DLT, 409).

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi ayrim she‘riy parchalarni I.Stebleva ma‘lum bir she‘riy dostonga birlashtiradi[5]. Bu turkum ichida Alp Er To‘nga marsiyasi mavjud:

Alp Er Toña öldimü?

Esiz, ažun qaldimu?

Ödläk öçin aldimu?

Emdi yüräk yirtilur.

Mazmuni: Alp Er To‘nga o‘ldimi? Esiz, dunyo undan ayrilib qoldimi? Zamona undan o‘chini oldimi? Endi (uni eslab) yuraklar qayg‘u chekmoqda (DLT, 31).

Mazkur turkumga kiruvchi to‘rtliklarning barchasi 4+3 vaznida bitilgan. Buni yuqoridagi misol orqali ko‘rib chiqamiz:

Alp+Er+To+ña / öl+di+mü //

E+siz+a+žun / qal+dī+mu //

Öδ+läk+ö+çin / al+dī+mu //

Em+di+yü+räk / yir+tī+lur.

Fanda Alp Er To‘nga marsiyaiga katta bir dostonning so‘nggi xotima qismi deb qaraladi. Ya’ni Alp Er To‘nga ko‘rsatgan jasoratlar tilga olinib, uning vafoti xalq ichida chuqur qayg‘uga sabab bo‘ladi.

Dostonda Alp Er To‘nganing mardligi va olijanoblighi madh etiladi, uning vafoti munosabati bilan xalqning chuqur qayg‘uda qolganini ifodalanadi. Mazkur to‘rtliklarni marsiya janri namunalari, deb atash mumkin. Ulardagi chuqur dard, alam, iztirob, achinish, umuman, hazin ruh shunday deyish uchun asos bo‘la oladi.

Alp Er To‘nganing o‘limi turkiylarning kuchsizlanishi, bilim ahlining e’tibordan chetda qolishi, ezgu ishlarning kamayishi va yovuzlikning kuchayishiga olib keladi. Hatto beklar ham qayg‘uga botadilar:

بِڪَلَا	<i>Beglär</i>	<i>atîn</i>
رَاتِنُ	<i>argurur,</i>	
أَرْغُرُبْ		
قَدَّ	<i>Qadğu</i>	<i>anı</i>
وَأَنِي	<i>turğurur,</i>	
تُرْغُرُبْ		
مَدَّ	<i>Meñzi</i>	<i>yüzi</i>
كَزْسُ يُزِي	<i>sargarir,</i>	
سَرْغَرِبْ		
كُرْ	<i>Kürküm</i>	<i>añar</i>
كُمُ أَنْكَرُ	<i>türtülür.</i>	
تُرْتُلُورُ		

Mazmuni: *Afrāsiyāb* ning o‘limiga achinib aytmoqda: Beklar otlarini charchatib keldilar. Qayg‘u beklarni ozdirdi, yuzlari za’faron surgandek sarg‘ayib ketdi (DLT, 192).

Dostonda Alp Er To‘nganing mard, jasur, olijanob kishi ekanligi va xalqning unga hurmati yuqori bo‘lganligini madx etilgan:

أَلِ
Ulišip erän börläyü,

ثِيْبُ اَرْنُ

بُورْلِيُو

يِر

Yirtin yaqa urlayu.

تِن يِقَا

اُورْلِيُو

سِد

SiqrİR üni yurlayu,

قُرْبُ

اُونِي

يُورْلِيُو

سِد

Siğtar közi örtülür

عُتْبُ

كُوزِي

اُرْتُلُور

Mazmuni: *Afrāsiyāb* ning o‘limiga achinib kishilar bo‘rilardek uvlashdilar, yoqa yirtishib baqirishdilar. Ba‘zan cholg‘uchilar cholg‘usining chinqirig‘i kabi baqirishadilar. (Ular shunchalik yig‘laydilarki, ko‘z yoshlari) ko‘zlarini qopladi (DLT, 88).

Alp Er To‘nga vafot etsa-da, barcha uni yodida tutadi, ezgu sifatlar bilan eslaydi, fojiali musibatdan qayg‘uradi. Butun tushkunlikning, ko‘ngil cho‘kishining sababi – uning bevaqt dunyoni tark etishi. Umuman, Alp Er To‘ngani doimiy qo‘msash ruhi butun marsiya bo‘ylab hukmronlik qiladi:

كُنْكَلْمُ اِجْنُ

Könlüm için

اُرْتَدِي

örtädi,

يَتْمِيْشُ يَشْغُ

Yetmiş

قَرْتَدِي

(bitmiş) yaşığ

(başığ) qartadi.

كَجْمَشُ

Keçmiş ödüg

اُدْكُ اِرْتَدِي

irtädi,

تُنْ كُنْ

Tün-kün

كجب ارتلور *keçir irtälür.*

Mazmuni: O‘lgan bir kishi to‘g‘risida aytmoqda: Tushgan musibat bilan ko‘nglim o‘rtandi, yurak-bag‘rimni yaraladi, o‘tgan kunlarni qo‘msatdi, kecha-kunduz izlatdi (DLT, 106).

Turkiy dostonchilikning tarixiga nazar tashlasak, xalq og‘zaki ijodi namunalari ichida ilk doston kurtaklari barmoq vaznida yaratilganini ko‘rish mumkin. Islom ta’siri va o‘zaro madaniyatlar almashinuvi natijasida esa, aruz vazni ham asta-sekinlik bilan turkiy og‘zaki she’riyatga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Buni asarda keltirilgan aruz vaznidagi parchalarda ham ko‘rish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi jangnoma dostonlar o‘zining pafosi, tasvirning jonli berilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Xalq dostonlarida asosiy e’tibor mamlakatni dushmanlar qo‘liga o‘tib ketishidan avaylab-asrash, yurt tinchligi uchun pahlavonlarni xushyorlikka chorlovchi she’riy parjalar beriladiki, bu mavzu hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

«Devonu lug‘ati-t-turk»dagi jang she’rlaridan biz qadimgi turkiylarning jangavorlik mashg‘ulotlari, jangchining intizomi, qat’iyati kabi fazilatlarini ko‘ramiz. Jangnoma ruhidagi she’rlar jangchilarga ruh bag‘ishlab turgan bo‘lsa ham ajab emas.

Shunday qilib aytish mumkinki, Turkiy og‘zaki ijod namunalari ichida dostonlarning uzindilari ham uchraydi. Bu narsa turkiy dostonchilikning genezisi miloddan avvalgi davrlarda yaratilgan turkiy xalqlar og‘zaki ijod namunalariga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: ТошДМИ, 2008. – Б. 14.

2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 58.

3. Стеблева И. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – Москва: Наука, 1976. – С. 204-209.

4. Стеблева И. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – С. 79.

5. Бу ҳақда қаранг: Стеблева И. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – Москва: Наука, 1971.

ABDULLA QODIRIY TARJIMALARI

*Usmonova Zulxumor Nazarovna,
ToshDTU katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima masalalari, o'zbek adabiyotida tarjimaning rivojlanishiva buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning tarjimonlik faoliyati hamda yozuvchining A.P.Chexovning “Buqalamun” asarining go'zal tarjimasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: yozuvchi, asar, tarjima, o'zga til, romanchilik maktabi, o'zgaruvchan tabiat, mahorat, usta.

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridanbiridir.Tarjimonlik ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq, ya'ni madaniyat, san'at va adabiyot tarixi bilan uzviydir. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniy hayotida tarixiy-adabiy janrlarga daxldor asarlar tarjimalari sezilarli o'rin tutdi.

Ma'lumki, VIII-XI asrlarda san'at, adabiyot, madaniyat yuqori

darajada rivojlandi. Bu davrda Forobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mashhur olimlar yetishib chiqdi. Ularning barchasi arab tilida ijod qilishgan. Biz ularni qadimiy tarjimachilik madaniyatimizni boyitgan ilk tarjimonlar sifatida qadrlaymiz va Sharq Renessans davrining vakillari, deb qaraymiz. XV-asrda, mumtoz adabiyotimiz gullab yashnagan davrida, tarjimonlikka bo'lgan e'tibor yo'qolmagan edi. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy adabiy va ilmiy asarlar bilan band bo'lishiga qaramay u o'zining ustozlari Abdurahmon Jomiyning "Chil hadis", "Nafohot ul-uns", "Nazm ul javohir" kabi asarlarini turkiy tilga tarjima qilgan.

O'zbek adabiyotida badiiy tarjimachilikdagi ilk yorqin misollar Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir. Zulfiya va boshqa ko'plab ijod ahllarining qalamiga mansubdir. O'zbek romanchilik maktabining yalovbardori Abdulla Qodiriy chet tillarni o'rganishni qadrlagan. U arab, rus, fors, turk, tatar, ozarboyjon tillarini o'rgangan. Abdulla Qodiriy 1919 yildan boshlab "O'tkan kunlar" romanini yozishga kirishadi. Shu davrdan boshlab mutolaa yo'li bilan ijod "sir"larini o'rganligi, lug'at ustida ishlash 60 va ruscha kitoblarni o'qish yo'li bilan Pushkin va Tolstoy tilini puxta o'rganganligiga guvoh bo'lamiz.

Abdulla Qodiriy roman, qissa, hikoya va hajviyalar yozish bilan birga, tarjimonlikka ham qo'l uradi. Badiiy adbiyot matnlari boshqa til auditoriyasi vakillari uchun yaratilsa ham, jahon adabiyotining tarkibiy qismi sifatida umuminsoniy ehtiyojlarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun shakl nuqtai nazaridan badiiy adabiyotda mazmunning qismi hisoblangan sezilarli cheklovlar bilan bo'lsa ham tarjimada unga xos pragmatik munosabatlar amalga oshirilishi mumkin. Bu yerda tarjima qilish darajasi janrga bog'liq bo'lib, nazmga qaraganda nasrni tarjima qilish tarjima qilishning yuqori darajasiga ega

bo‘ladi.[V.Komissarov,70]

A. Qodiriy asl nusxa va tarjimaning mazmun jihatdan bir biriga mos kelishiga katta e‘tibor bergan. 1935 yilda teatr taklifi bilan N.V.Gogolning “Uylanish” komediyasini tarjima qiladi.Adabiyotshunos olim Naim Karimov ushbu asar matnini 1972 yilda birinchi bo‘lib tarjimashunos olim Jumaniyoz Sharipov e‘lon qilganligini yozadi. J.Sharipov, tarjimaning sifatiga kelganda shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning bu tarjimasi o‘z davrining eng yaxshi tarjimalaridan biri bo‘libgina qolmay, hozirgi davrda ham qimmatini yo‘qotmagan nodir tarjima obidasidir,tarjimon Gogol uslubini yaxshi bera olgan, deb Qodiriyning tarjimonlik mahoratini yuqori baholaydi. Adib badiiy so‘z ustasi va o‘zbek hamda rus tillarini mukammal bilganligi uchun bu asarni maromiga yetkazib, o‘zbek tomoshabiniga tushunarli va qiziqarli qilib tarjima qilgan. Shu bilan birga rus yozuvchilaridan nafaqat Gogol, balki A.P.Chexovning asarlarini o‘zbek tiliga o‘giradi.Tarjimonlar madaniy va til to‘siqlarini engib o‘tish orqali matnlrni yaratish bo‘yicha mutaxassislardir. Mutaxassislar o‘z sohasida ekspertlar hisoblanib, o‘z faoliyati uchun mas’uldir. Kasbiy faoliyat sharti uning maqsadi, shuning uchun etkazib berish sharti va foydalaniladigan material tavsifi bilan aniqlanadi.[V.Romissarov,100]

Abdulla Qodiriy 1936-yilda “Sovet adabiyoti”(“Sho‘ro adabiyoti”) jurnali tahririyatining iltimosi bilan buyuk rus yozuvchisining “Xameleon” (“Buqalamun”) hajviy hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.A.P.Chexov shunday deydi: “Mayda hikoyalar yozganda so‘zni ortiqcha isrof qilgandan ko‘ra kerakliklarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak”. Abdulla Qodiriy o‘zining “Mayda hikoyalar yozganda so‘zni qanday tejash kerak” nomli maqolasida Chexovni mayda hikoyalar ustasi, deb so‘zga xasisligi, ortiqcha so‘zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qilishi, uning hikoyalarida so‘z isrofgarchiligiga sabab bo‘ladigan ortiqcha detallar

ham bolmasligi haqida yozadi. Ma'lumki, buqalamun qanday jonivorligini barcha biladi. A. Chexov bu hikoyasida majoziy ma'noda odamlarning salbiy fe'l-atvorini ko'rsatib beradi. Abdulla Qodiriy ham o'zbek tilida ajoyib mahorat bilan tasvirlaydi:

Matn: Елдырин, - обращается надзиратель к городовому, - узнай чья это собака, составляй б1 протокол! А собаку истребить надо.немедля! Она наверно бешеная... Чья это собака, спрашиваю? -Это, кажись, генерала Жигалова! –кричит кто-то из толпы.

Tarjimasi: Yeldirin, - dedi polis nazoratchisi gorodovoyni imlab, oldin itning kimniki ekanligini bil, undan so'ng protocol yoz! Itni bo'lsa o'ldirish kerak. Tezdan! Balki quturg'an bo'lsa ham ajab emas... Qani, xo'sh bu o'zi kimning iti? – Chamasi bu it, general Jikalovning iti bo'lsa kerak dedi xalq ichida allakim.

Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy, adabiy sharoitlarini o'rganishdir. Undan keyingi bosqich xarakterning asosiy belgilarini, uning mazmunini belgilash. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo'lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo'llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli vositalarini axtarib topishdir.[V.Komissarov,64]

Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo'lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta'sirchanlik kasb etadi.Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Matn: Нешто она достанет до пальца? Она маленька, а ты ведь вон какой здоровила? Ты, должна быть расковырял палец гвоздиком, а потом и пришла в твою голову идея, чтобы сорвать. Ты ведь... известный народ! Знаю вас, чертей! Он выше благородие, цыгаркой ей, в харю для смеха, а она будь дура и

тягни...Вздорный человек выше благородие.

Tarjimasi: -Qanday qilib bu itning bo‘yi sening barmoqlaringga yetdi ekan? Aqlim yetmaydi. It bo‘lsa nozik.Sen bo‘lsang ho‘kizdek, bo‘yningga qara! Balki barmog‘ingg‘a mix-pix kirgan bo‘lsa, xaligi mixni tortib olgansan, qonab ketkan, undan so‘ng boshingga...ha..de. Men siz xalqning miringdan siringni bilaman! Siz haloyiq juda bema‘ni odamlarsiz! –Oliynasab janoblari, balki uning o‘zi kulgi uchun uning burniga papirus tiqqan bo‘lsa, shundan so‘ng, it barmog‘ni tishlab olg‘an... Bu juda bema‘ni odam, oliynasab janoblari!

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o‘rtasida til topishish bo‘lishi zarur. Bunda til topishish deganda muallifning o‘ziga xosliklarini va muayyan asaming badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o‘z o‘quvchisiga katta ma‘naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi. Ushbu asar tarjimasi bilan tanishgan kitobxon uning rus yozuvchisi qalamiga mansub ekanligini faqat personajlarning ruscha nomlari tufayli bilishi mumkin. Abdulla Qodiriy esa uni o‘zbek kitobxoniga yuksak mahorat bilan ifodalab berdi.

Abdulla Qodiriy asrni tarjima qilish jarayonida har bir personajning xatti harakatlarini mohirona ifodalaydi. Adabiyotshunos olim filologiya fanlari doktori Bahodir Karim, o‘zaro bahsda qatnashayotgan turli xarakterli kishilarning xatti-harakatlari bilan birga, ayniqsa, buqalamunnusxa o‘zgaruvchan tabiatiga xos kalondimog‘lik o‘quvchining ko‘z oldida yaqqol namoyon bo‘lishi, tabiiyki bu hol tarjimonning mahoratidan dalolat berishini yozadi. Tarjima sohasininig bilimdoni V.Komissarov “Tarjimaning umumiy nazariyasi” kitobida, badiiy tarjima ikki yozuvchi va ikki xalqning bir xil ifodasidir, ya’ni tarjima qilinayotgan asar tarjima qilinadigan tilda o‘z aksini topadi, deb yozadi. Bunda tarjimonning mahorati shundaki, boshqa tilda

yozilgan asar ruhini o‘z tilida namoyon qiladi. Abdulla Qodiriy ham boshqa tildagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida zimmasidagi mas’uliyatni sidqidildan bajardi. Filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov “Abdulla Qodiriy – tarjimon ” nomli maqolasida, agar taqdir ulug‘ o‘zbek adibiga uzoq va erkin ijod qilish imkoniyatini berganida, u jahon adabiyotining buyuk durdonalarini o‘zbek tiliga qoyil- maqom qilib tarjima qilgan bo‘larmidi, deb yozadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy nafaqat ulug‘ yozuvchi, balki mohir tarjimondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov X.X. Tarjimashunoslik .–Toshkent, 2012
2. Karim B.Qodiriyning Chexovdan bir tarjimasi. X.Davron kutubxonasi / www.kh-davron.uz
- 3.Karimov N. Abdulla Qodiriy – mohir tarjimon // Jahon adabiyoti, 2014, №4
4. Комиссаров В.Теория перевода. – М: Высшая школа.1990.
5. Qodiriy A. So‘zni qanday tejash kerak. X.Davron kutubxonasi .www.kh-davron.uz

KULLIYOT TUZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Dexkanov Qutfiddin Nizomiddinovich,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kulliyotchilik an’anasining shakllanishi, uning genezisi va tadriji, kulliyotlarning turlari: to‘liq va to‘liqsiz kulliyotlar, kulliyotlarning kajkul, majmua, bayoz, tazkira, devon kabi boshqa adabiy asarlardan integratsion va differensial jihatlari, Sharq matnshunosligi va adabiy manbashunosligida

kulliyotlarning tutgan o‘rni, ularning mumtoz adabiyot vakillari ijodini yoritishda tutgan ahamiyati qo‘lyozma va toshbosma kulliyotlarning ilmiy tavsifi kabi masalalar muhokama etilgan. Zaruriy o‘rinlarga sharh va izohlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kulliyot, kajkul, majmua, bayoz, tazkira, devon, genezis, tadrij.

Kirish. Sharq qo‘lyozma kitoblari o‘zining tuzilishi, mazmuni, hajmi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra turli xil (tip)larga bo‘linadi va shunga ko‘ra turli nomlar bilan ataladi. Masalan: devon, bayoz, majmua, rasoil, manoqibi farhang, lug‘at, sharh va boshqalar. Mana shu kitobat tiplaridan biri Sharq kitobat ishining eng oliy turi kulliyotdir. “Kulliyot” termini arabcha “kulliy” (“to‘la”) so‘zidan olingan bo‘lib, “mukammal asarlar to‘plami” degan tushunchani anglatadi. Kulliyot mumtoz adabiyotimizdagi noyob hodisa sanaladi. Ko‘pchilik shoirlar devon tartib bergan bo‘lsa-da, kulliyot tuzgan shoirlar adabiyotimiz tarixida kam uchraydi.

Adabiyotlar tahlili. Kulliyot adabiy manba sifatida devonlar jamlanmasidan iborat kitob hisoblanadi. Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul -maoniy” kulliyoti mashhur. Mazkur kulliyot to‘rt devondan tuzilganligi sababli “Chor devon” ham deb nomlangan. Unga Navoiyning 2600 ta g‘azali kiritilgan bo‘lib, ular har bir devonga bir xil 650 tadan taqsimlangan.

Kulliyot shoirlarning ijodiy salohiyat mezonini belgilovchi adabiy manba sanaladi. Sharq adabiyotida sanoqli ijodkorlarga kulliyot tuzganlar. Kulliyotlarni boshqa asarlar: kajkul, gulchin, bayoz, majmua, tazkira, devon, manoqib va boshqalardan farqlash lozim. Kajkulning lug‘aviy ma‘nosi tasavvufdagi qalandar va darveshlarning yonida osib yuruvchi xaltasi ma‘nosini anglatadi. Qalandarlar kajkuliga odamlardan

tushgan non, shirinlik, ovqat, tanga kabi ehsonlarini solganlar va uni beva-bechoralarga ulashganlar. [5.7]

Kajkul istiloh sifatida adabiy manbaning nomini anglatadi. kajkul tuzish an'anasiga ko'ra shoir o'z ijodidagi turli xil janrdagi asarlarini bir kitobga jamlaydi. kajkulning bayoz va majmuadan farqli jihati badiiy asarlarning turli janr va turga mansubligidadir. Bayozda turli shoirlarning turli xil lirik asarlari jamlanadi. kajkulda esa bir shoirning turli janr va turdagi asarlari jamlanadi. kajkulning muayyan ijodkor tarjimai holi, faoliyati, dunyoqarashini o'rganishdagi ahamiyati katta bo'lib, kajkuldagi asarlarda shoir avtobiografiyasiga tegishli ma'lumotlar uchraydi. O'zbek adabiyotimiz tarixida Furqat "kajkul" tuzgan. [7]

Gulchin ham kajkul va bayozlarga o'xshash lirik asarlar to'plami sanaladi. Gulchinning bayoz va kajkuldan farqli jihati shuki, gulchin turli davrda yashagan, turli xil shoirlarning bir xil turdagi lirik asarlari jamlanmasi sanaladi. Odatda, gulchinga g'azallar jamlanadi. Tojik adabiyotida "Gulchini g'azaliyot" nomi ostida turli shoirlar (Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumi, Abdulqodir Bedil, Xojai Kirmoniy, Fariddin Attor va h.k.) g'azallari jamlangan manbalar ko'p uchraydi.

Yuqoridagi adabiy manbalardan devon, kulliyot va kajkul ko'proq shoirning o'zi tomonidan tuzilgan. Ularda shoirning avtobiografiyasiga oid ma'lumotlar bo'lganligi sababli devon va kulliyotlarning atributsiyasini aniqlash oson kechadi. Bayoz hamda gulchin ko'proq buyurmachi yoki kotiblar tomonidan tuzilgan, ko'proq XVIII–XIX asrlarda an'ana bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Muayyan bir qo'lyozma kitob to'la ma'noda kulliyot bo'lishi uchun Sharq kitobat san'ati tarixida uzoq asrlar davomida shakllangan ma'lum an'anaviy qoidalarga tushirilgan. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Kulliyot hajmi va farmati (o'lchovi)dan qat'iy nazar faqat bir qo'lyozma kitobdan iborat bo'ladi.

2. Qo'lyozma tarkibida faqat bir shoir yoki adib adabiy merosining deyarli hammasi yoki asosiy qismi jamlanadi.

3. Qo'lyozma tarkibiga o'sha shoir yoki adibning faqat bir turdagi emas, balki bir necha turdagi, masalan: lirik, epik, prozaik; ilmiy merosi kiritiladi.

4. Qo'lyozma tarkibiga kirgan asarlar mazmun va janr xususiyatlariga ko'ra ma'lum tartibda joylashadi.

5. Qo'lyozmani kitobat qilishga qancha muddat ketishidan qat'iy nazar uni boshidan oxirigacha faqat bir kotib ko'chirib chiqadi.

Mazkur qoidalarga amal qilib kitobat etilgan qo'lyozmagina to'la ma'noda kulliyot hisoblanadi. Boshqa har qanday qo'lyozmalar hajman ulkan bo'lishiga qaramay kulliyot bo'la olmaydi. Chunonchi, fors tojik adabiyotining buyuk shoiri Abulqosim Firdavsiy (940/1020-1030 yillar orasi)ning "Shohnoma" asari 120000 misradan iborat bo'lib, ayrim qo'lyozmalari qariyb 1000 varaqqa yaqinlashsa-da, kulliyot bo'la olmaydi. Chunki u bir turdagi dostonlar majmuasidan iborat.

Bir qancha kitobat nuqtai nazardan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik kulliyotlar muallif vafotidan so'ng kotiblar tomonidan tuzilgan. Bunga Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Bedil kulliyotlarini ko'rsatish mumkin. Ayrim kulliyotlar muallifning o'zi tomonidan umrining oxirlarida tasnif etilgan. Bunga Abdurrahmon Jomiy va Alisher Navoiy kulliyotlari yaqqol misol bo'la oladi. Kulliyotning tuzuvchisi ko'pincha uning ko'chiruvchisi (kotibi) ham bo'lgan. Agar kulliyot muallif hayot vaqtida tuzilgan bo'lsa, asarlarning joylanishi va mundarijasini muallifning o'zi belgilab bergan. Hatto muallif o'z kulliyoti uchun muqaddima ham yozgan. Muallif ko'rsatmalariga qat'iy amal qilgan holda, asarlarni ko'chirib chiqishni kotibning o'zi amalga oshirgan.

Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari adabiyotida kulliyotlar tuzish XIV asrdan boshlanadi. Dastlabki kulliyot Saʼdiy Sheroziy (1203-1292) asarlari boʻyicha tuzilgan. Saʼdiy vafotidan 30 yil keyin (yaʼni 1320 yillarda) Ali ibn Ahmad ibn Abu Bakr Besutun degan kishi Saʼdining barcha asarlarini toʻplab kulliyot tuzadi. Bu kulliyot janrlar boʻyicha 19 boʻlimdan iborat boʻlib, shoir adabiy merosining hammasini qamraydi. Biroq bu kulliyotda Saʼdiy gʻazallari arab alifbosi tarkibiga koʻra joylashtirilmagan edi. Bunday holatda boshlanma bayt (matlaʼ)ga qarab istalgan gʻazallarni topishda qiyinchilik tugʻdiradi. Bu mushkulni bartaraf etish uchun Besutun oradan 7-8 yil oʻtgach (1330-yillarga yaqin) Saʼdiy kulliyotidagi sheʼrlarning tartibini qayta koʻrib chiqadi va gʻazal, ruboiy hamda boshqa sheʼrlarni qofiya yoki radif soʻngidagi harfiga qarab joylashtiradi. Bu tartib Saʼdiyning istalgan gʻazal yoki ruboiysini birinchi bayt soʻngidagi qofiya yo radifga qarab juda osonlik bilan topish imkoniyatini yaratadi. Saʼdiy kulliyotining SSSR va xorijdagi qoʻlyozma fondlarida saqlagayotgan koʻplab nusxalari XIV asr boshlarida Besutun tuzgan va koʻchirgan ana shu kulliyotdan koʻchirilgan. [1.2]

XIV asr boshlariga mansub mashhur kulliyotlardan biri Amir Husrav Dehlaviy (1253-1325)ning adabiy merosi boʻyicha tuzilgan. Bu kulliyot OʻzSSR FA Sharqshunoslik institutida 9661 raqami bilan saqlanadi Uning tarkibiga Amir Husrav Dehlaviyning uchta devoni “Xamsa”sidagi besh doston va boshqa koʻplab asarlari jamlangan. Kulliyotni hattot Darvesh Muhammad ibn Amir Surx ibn Amir Muhammad 1503-yilda koʻchirib tugatgan.

Alisher Navoiy 1483-1485-yillarda besh dostonidan iborat “Xamsa”ni yozib tugatda. 1490-yillar boshida butun umri davomida yozgan sheʼrlarini toʻplab toʻrt devondan iborat “Xazoyinu-l-maoniy”ni tuzdi. Shundan keyin Navoiyda oʻz asarlarining kulliyotini tuzish fikri tugʻilda. Shoir bu ulkan va gʻoyat masʼuliyatli ishni oʻz davrining

mashhur xattoti Darvesh Muhammad Toqiy bu ishga 1495-yilda kirishadilar. Kotib 1495-yilgacha yaratilgan “Xamsa” dostonlarini, “Xazoyinu-l-maoniy” devonlari va boshqa asarlarni juzv-juzv holida ko‘chirib kulliyot uchun tayyorlab boraveradi (albatta, kulliyot o‘lchovida).

Shu jarayonda yangidan yaratilgan asarlar ham ko‘chirilib turgan . jumladan, 1498-1500-yillarda “Lisonu-t-tayr”, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”, “Siroju-l-muslimiyn” asarlari ham ana shu kulliyot tarkibidan joy olgan. Kulliyotga kirishi lozim bo‘lgan asarlar ko‘chirilib bo‘lgach, ularning hammasiga umumiy bir so‘z boshi – “Munojot” asari yaratiladi va kulliyotning boshlanishiga qo‘yiladi. “Munojotnoma”ning 1500-yilda yozilganligini hisobga olsak, demak kulliyot 1500-yilning yarmida uzil-kesil tugallangan bo‘lib chiqadi. Bu fikrni quvvatlaydigan yana bir dalil 1500-yilning oxirlarida yozib tugatilgan “Mahbubu-l-qulub”ning ushbu kulliyot tarkibiga kirmay qolishidir. Shunday qilib, Navoiyning tiriklik vaqtida yozgan deyarli hamma (jami 26ta) asarining (faqat “Mahbubu-l-qulub”dan tashqari) yagona va ulkan kulliyoti vujudga keldi. Uni yuqorida aytganimizdek, xattot Darvesh Muhammad Toqiy Hirot shahrida besh yil (1495-1500-yillar) davomida tinimsiz mashaqqat bilan bilan ishlab ko‘chirib tugalladi. Bu kulliyot hozirgi kunda Turkiyaning Istanbul shahridagi To‘ppopi kutubxonasida №808 inv. raqami bilan saqlanadi. Qo‘lyozmaga xuroson ipak qog‘ozidan foydalanilgan. Tekst maydaroq, chiroyli nasta’liq xatida qora siyoh bilan yozilgan va har sahifada to‘rt ustun qilib (27 yo‘ldan) joylashtirilgan. Har bir asar boshlanishiga zarhal lavhalar ishlangan. Kulliyot 802 vraqdan iborat. Uning formati 23,5x32sm. Bu kulliyotning foto nusxasi O‘zbekiston SSR FA Qo‘lyozmalar instituti fondiga olingan. Navoiyshunos olimlar ko‘p yillardan beri mazkur fotonusxadan foydalanib kelmoqdalar.

Navoiy kulliyotining boshqa nusxalari shoir vafotidan keyin tuzilgan va ko‘chirilgan. Bunday nusxalarning sovet ittifoqi va chet eldagi eng mukammallari quyidagilardan iborat. Parij Milliy kutubxonasi, inv. №316-317. Bu qo‘lyozma shoir vafotidan keyin tuzilgan birinchi kulliyot hisoblanadi. Kitob 1527-yilda Hirotda xattot Ali Hixriy tomonidan kitobot qilib tugallangan. Tarkibida Navoiyning 26 asari bor Xati, badiiy bezaklari yuksak darajada. Kitob Parijga borib tushgach, foydalanishi oson bo‘lishi va qattiq urinmasligini e‘tiborga olib fransuzlar tomonidan ikki jildga ajratilib charm muqovaga joylashtirilgan. Har ikki jild 876 varoqdan iborat. Qo‘lyozma formati 27,2x38,6 sm.

Lelingraddagi Saltikov –Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi, inv. №Dorn–558. Sovet Ittifoqidagi Navoiy kulliyotlarining eng qadimiysi va mukammali hisoblangan. 1595-1599-yillarda Eron-Ozarbayjonining Qizilog‘och shahrida xattot Ali Fayziy ko‘chirgan. Mazkur nusxa Navoiyning 21 asarini o‘z ichiga oladi. Kitob badiiy nuqtai nazaridan oliy darajada bezatilgan. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Hajmi 722 varaqdan ibora, formati 24x34 sm. [2]

Londondagi Osiyo jamiyati kutubxonasi, inv. №OOR47. Kulliyotning kitobot tarixi, joyi va kotibi noma‘lum. Ammo qo‘lyozmaning barcha paleografik belgilari uni 16 asr birinchi yarmiga oid deb hisoblashga asos bo‘la oladi. Qo‘lyozma ko‘p uringan, oralarida ancha varaqlari yo‘qolgan. Tarkibida Navoiyning 16 ta asari saqlanib qolgan,xolos. Hajmi 632 varaq, formati 27,5x34 sm.

Istanbul, Sulaymoniya kutubxonasi, inv. №4056. Bu kulliyot ham qachon, qayerda va kim tomonidan ko‘chirilgani ma‘lum emas. Turk olimi Ogoh Sirri Lavendning ko‘rsatishicha, 16 asr birinchi yarmida kitobat etilgan. Qo‘lyozma to‘liq nusxalardan iborat Format 24x36 sm.

Yuqori tanishib o‘tilgan Navoiy kulliyoti qo‘lyozmalari asosan XV-XVI asrlarga taalluqli. Keyingi asrlarda ham Navoiy asarlaridan

kulliyot tuzishga intilish bo‘lgan. Lekin ular juda oz nusxada saqlanib qolgan. O‘zbekiston SSR FA Qo‘lyozmalar instituti fondida (inv. №316) Navoiy kulliyotining XIX asrga mansub noyob bir nusxasi mavjud. Uni 1824-1830-yillarda Qoshg‘arda Abdurahim ibn Muhammad Fozil Qoshg‘ariy tuzgan va ko‘chirgan. Qo‘lyozmaga Navoiyning 18 asari kirgan. Qo‘lyozma 678 varaqdan iborat. Uning formati 30x44 sm.

Navoiy kulliyotlarida xarakterli holat shuki, unga deyarli o‘zbek tilidagi asarlari jamlangan (fors tilida yozgan “Devoni Foniyy” va “Risolai mufradot” asarlari ongli ravishda kiritilmagan). Bu prinsib Navoiyning o‘zbek adabiyoti va o‘zbek tili ravnaqi uchun qilgan xizmatlarini yaxlit, bir butun holda ko‘rsatishga intilishdan dalolat berib turadi.

XV asrda Hirot da Navoiy asarlaridan tashqari ulug‘ fors-tojik shoiri Abdurohon Jomiy 1414-1420-yillarda yozgan asarlari bo‘yicha ham kulliyot tuzilgan. Abdurahmon Jomiyning hayotlik vaqtida uning kulliyoti tuzilganligi to‘g‘risida Navoiy o‘zining “Xamsatu-l-mutaxayyirin” asarida va Vosifiyning “Badoye’u-l-vaqoye” asarida xabar beradi. Biroq, Jomiyning hayotligida tuzilgan kulliyoti hozirgacha noma’lum bo‘lib kelmoqda. Fanda hozircha Abdurahmon Jomiyning vafotidan keyin XVI asrning I choragida tuzilgan ikki mo‘tabar kulliyoti yetib kelgan. Ulardan biri 1503-yilda Hirot shahrida Muhammad ibn Hasanshoh al-Kotib al-Hiraviy tomonidan ko‘chirilgan nusxadir. Jomiyning 38 asarini jamlovchi bu qo‘lyozma kulliyoti O‘zbekiston SSR FA Sharqshunoslik instituti fondida №1331 inv. raqami ostida mavjud, 631 varaqdan iborat. Jomiyning ikkinchi kulliyoti 1530-yilda ko‘chirib to‘gallangan va bu nusxa hozir Lelingirad shahrida Saltikov–Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasida, №Dorn 422 inv. raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa yo‘qoridagi qo‘lyozmaga qaraganda bir oz noto‘liq bo‘lib, Jomiyning 29 asaridan tarkib topgan, 809 varaqdan iborat. [2]

Kulliyotlar tuzish an'anasi keyingi asrlar shoirlari merosi bo'yicha ham davom etgan. Faqat bu o'rinda fors-tojik adabiyotining yirik vakili, Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoda katta shuhrat qozongan Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) kulliyotini mustasno qilish mumkin.[3] Bedilning jamiki asarlari kiritilgan kulliyotlari bir necha nusxalarda yetib kelgan. Shulardan uchta nodir va to'liq nusxasi Toshkentda Sharqshunoslik institutida ham mavjud (inv. №4414, №1880, №148). Ulardan birini (inv. №1880) Toshkent shahrida 1850-yilda atoqli o'zbek xattoti Hoji Ibodilla ibn Odilxoji ko'chirib to'gatgan.

Xulosa. Shunday qilib, kulliyot Sharq kitobat ishining eng mashaqqatli va mas'uliyatli shakli bo'lgan. Agar biz Sharq kitobat tarixida tuzilgan kulliyotlarning salmog'i va soniga nazar tashlasak, kulliyot favqulodda buyuk shoirlarning ijod mahsuli hisoblanib, ko'pchilik shoirlar bunga musharraf bo'la olmagan. Shu jihatdan qaraganda u shoirlar ijodiy qudratini ko'rsatuvchi mezonga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. М. - Л., 1964.
2. Рейсер С.А. Основы текстологии. Ленинград, Просвещение, 1978.
3. Ҳабибуллаев А. Матншунослик. Ўқув қўлланма. -Т., 2000.
4. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. –Т., 1997.
5. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. -Т.:Академнашр, 2015.
6. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971.
7. Шамсиев П. Матншуносликка оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.

TARJIMA SO‘ZI SEMANTIKASI

*Nurullayev Muxiddin Raxmatullayevich,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola “tarjima” so‘zi semantikasi, tarjima turlari va uning nozik jihatlari, tarjimon mahoratiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada og‘zaki va yozma tarjima to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Hozirgi kunda tarjimashunoslikdagi asosiy muammolar, sharh va izoh tushunchalari, asliyat haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimon, tarjimashunoslik, so‘z, sharh, asliyat, semantika.

O‘zbek tarjima maktabi o‘zining o‘zoq o‘tmishiga ega. Yurtimiz tarjimonlari bu sohaga san‘at darajasida e‘tibor qaratib, daqiq jihatlari qadar puxta o‘rganganlar. Bu kasbni o‘ta nozik va mas‘uliyatli hisoblashgan. Hozirgi kunda esa milliy tarjimashunosligimiz yangi boqichga ko‘tarilmoqda. “Tarjima” so‘zining etimologiyasi, bu so‘zning ma‘nolar ko‘lami haqida ham atroflicha ma‘lumotga ega bo‘lish har bir tarjimonning muhim vazifalaridan biridir.

XIX asr boshida G‘iyosiddin Muhammad tomonidan tuzilgan mo‘tabar lug‘atlardan biri “G‘iyosul-lug‘at” o‘zidan oldin yaratilgan bir qancha manbalarga suyanib bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, tarjima “tarjimon” so‘zidan hosil bo‘lgan, tarjimon esa, o‘z navbatida forscha “tarzabon” so‘zidan kelib chiqqan.”[1,55-56]

“Tarjima” so‘zi hozirgi kunda asosan, bir ma‘noda, ya‘ni muayyan bir tilda og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalashni anglatadi. Qadim zamonlarda esa uning bundan boshqa yana bir qancha ma‘nolari bo‘lgan.”[1,55]

“Tarjima” so‘ziga arab tili nuqtai nazaridan ham yondashib ko‘rsak. Alloh taoloning muqaddas kalomini boshqa bir tilga tarjima qilishda arab tilini yaxshi biladigan olimlarning fikrlari bilan hamda avvalgi o‘tgan buyuk diniy olimlarning ham bu to‘g‘rida yozib qoldirgan ma’lumotlaridan ham yaxshigina xabardor bo‘lish lozimdir. Bunday ma’lumotlardan biroz bo‘lsa-da xabardor bo‘lish uchun biz Al-Azhar Ash-Sharif ulamolaridan biri shayx Hasan Muhammad Ayyubning “Al-Hadis fiy ulumil Qur’an val-Hadis” (Qur’on va hadis ilmlari to‘g‘risida so‘z) kitobiga murojaat qilib, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz:

“Tarjima” so‘zi lug‘aviy jihatdan to‘rtta ma’nodan biriga dalolat qiladi.

Birinchisi, biror-bir gapni hali eshitmagan, ma’lumot yetib bormagan kishiga yetkazish”. Misol sifatida:

إِن الثمانين - وَبُلِّغْتَهَا قَدْ أَحْوَجْتَ سَمْعِي إِلَى تَرْجَمَانِ

“Xudo seni sakson yoshga yetkazdi. Menga xabar berishingni istayman”

misralarini keltiradi va bu baytda kelgan ترجمان so‘zi “xabar yetkazish” ma’nosida kelgandir.

Ikkinchisi, gap qaysi tilda bo‘lsa, uni o‘sha til bilan yanada aniqroq, ravshanroq qilib bayon qilish. Bunda Ibn Abbas roziyallohu anhu to‘g‘risida aytilgan “إِنَّهُ تَرْجُمَانُ الْقُرْآنِ” “Albatta u Qur’on tarjimonidir” jumlasini misol qilib keltiradi.

Uchinchisi, gapni boshqa til bilan bayon qilish. “Lisonul-arab” va “Al-Qomus” lug‘atlarida: “Tarjimon – bu gapni bayon qiluvchi, izohlovchidir deyilgan. “Al-Qomus”ga sharh yozgan kishi esa: “Agar kishi o‘z so‘zini boshqa tilda bayon qilsa uni tarjima qildi va izohlab bayon qildi deyiladi,—deydi al-Javhariy.”

Ibn Kasir va al-Bag‘viy tafsirida: “tarjima” so‘zi arab tilida xoh bir til bo‘lsin, xoh har xil til bo‘lsin mutlaq “izohlash”, “bayon qilish” ma’nosida qo‘llaniladi deyiladi.

To‘rtinchisi, so‘zni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish. “Lisonul-arab”da “Tarjimon – bu so‘zni tarjima qiladigan, ya’ni bir tildan o‘giradigan kishidir” deyiladi.

“Tarjima” so‘zi keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkin. Masalan:

تَرْجِمُ لِهُذَا الْبَابِ بِكَذَا – bu bobga shunday deb nom ber, تَرْجِمُ لِأَنَّ – Falonchini tarixini yoritib ber, تَرْجِمُ حَيَاتَهُ – Hayotida nima bo‘lib o‘tganini bayon qilib ber, تَرْجِمَةُ هَذَا الْبَابِ كَذَا – Bu bobning tarjimasini mana shunday, ya’ni bu bobdan ko‘zlangan maqsadning bayoni mana shunday va hokazo.

Insonlarning umumiy tushunchasiga ko‘ra “tarjima” so‘zi “so‘zni bir tildan ikkinchi bir boshqa tilga o‘girish. Buning ma‘nosi so‘zning ma‘nosini boshqa tilda boshqa bir so‘z bilan uning barcha maqsadlari-yu ma‘nolariga xiyonat qilmagan holda ifodalab berishdir.”[11,89]

Umumiy ma‘noda tarjima qilishning o‘zi ikki qismga bo‘linadi:

1) So‘zma-so‘z tarjima. 2) Izohli tarjima (yoki badiiy yoki tafsiriy tarjima).

So‘zma-so‘z tarjimada tuzilishida ham tartibida ham aynan asliyatdagining o‘ziday bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Ba’zilar bunday tarjimani lafziy tarjima, ba’zilar esa teng tarjima ham deyishdia.

Izohli tarjimada esa tuzilishi va tartiblariga e’tibor berilmaydi. Bunda muhimi ma‘nolarni go‘zal tarzda tasvirlash, ko‘zlangan maqsadlarni to‘liq yetkazib berish. Shuning uchun ham bunday tarjima ma‘naviy tarjima deb ham nomlanadi. Chunki, ma‘naviy va ulardan ko‘zlangan maqsadlarni go‘zal tarzda tasvirlashning o‘zi tarjimani izohga o‘xshatib qo‘yadi. Lekin bu tarjima izoh emas.

So‘zma-so‘z tarjima qiluvchi tarjimon asliyatdagining har bir so‘ziga e’tibor qaratadi, so‘ng keyingi tilda unga mos keladigan so‘zni topib uni aynan o‘sha so‘z turgan joyga qo‘yadi. Garchi bu narsa asliyatdagidan ko‘zlangan maqsadning ochilmay qolib ketishiga sabab

bo'lsa ham. Chunki, ikki tilda so'zning qo'llanish o'rinlari turlicha bo'lishi mumkin.

Izohli tarjima qilayotgan tarjimon esa asliyatdan kelib chiqayotgan ma'noga e'tibor qaratadi, uni tushunib, so'ng uni asliyatdagida ko'zlangan maqsadga muvofiq tarzda bir qolibga soladi. Bunday holatda u har bir so'zga to'xtalib, birini o'rniga boshqasini almashtirib o'zini qiynamaydi.”[11,90]

Tarjima uchun zarur bo'lgan jihatlar shuki u xoh so'zma-so'z bo'lsin, xoh izohli bo'lsin, tarjimaning ma'nosini mutlaq yuzaga chiqarish uchun to'rt narsaning albatta bo'lishi lozim.

- Tarjimon ikkala tilning ham, asliyatdagini ham, tarjima qilinayotgan tilning ham holatlarini bilishi.

- Tarjimon ikkala tilning ham uslublarini va xususiyatlarini bilishi.

- Tarjimon asliyatdaging barcha ma'nolariga va maqsadlariga vafo qilgan holda xiyonat qilmay tarjima qilishi.

Tarjima asliyatdagidan batamom mustaqil bo'lishi. Shu darajadagi, tarjimani o'qiganda asliyatga ehtiyoj sezilmasin, uni o'rnini bosa olsin.”.”[11,90]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “tarjima” so'zi semantik jihatdan keng ko'lamlidir. So'zma-so'z tarjimada tuzilish va tartib birlamchi bo'lsa, badiiy tarjimada mano va maqsad yetakchidir. Tarjima jarayonida har bir tarjimonda shu sohaning o'ziga xos madaniyati shakllangan bo'lishi, asar mohiyatini o'quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima san'atining xalqaro muloqot maydonidagi oltin ko'prik sifatidagi roli, ushbu sohaning madaniyatlararo muloqotni vujudga keltirishdagi ahamiyati, uning o'ziga xos mashaqqatlari va murakkabliklari kabi jihatlarga katta ahamiyat berish naqadar muhimligini uqtirishda yurtimizda ancha yillardan buyon mahoratli

tarjimonlar va malakali tarjimashunoslar tinim bilmay xizmat qilib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov. N. Tarjima san'ati. 3-kitob. – Toshkent,1976.
2. Nosirov O, Yusupov M va boshqalar. “An-na’im” arabcha-o‘zbekcha lug‘at. -Toshkent, 2003.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3- jild. –Toshkent, 2017.
4. Ibrohim G‘afurov. Qur'on tarjimalari: tajribalar. O‘zbekiston adabiyoti va san'ati haftalik gazetasi. 2009-yil. 17-aprel. № 16.
5. Ja'far Xolmo‘minov. Madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-falsafiy faktorlari. / “Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi”. 3. (Ilmiy maqolalar to‘plami). – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015
6. Muhammad Domodiy. Dar bore-ye tarjo‘me. /”Majmu’e-ye maqolot-e do‘vvo‘min konfarons-e barrasi-ye masoyil-e tarjo‘me. – Tabriz: Doneshgoh-e Tabriz, 1373.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
8. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1983
9. Ne‘matulloh I. AL-QOMUS arabcha-o‘zbekcha qomusiy lig‘at. –Toshkent, 2017.
10. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish.–Toshkent, 1978.
11. الشيخ حسن ايوب "الحديث في علوم القران و الحديث" القاهرة دار السلام 2004 م

МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ КОММУНИКАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА

*Аннакулова Умида Абдуллаевна,
Преподаватель кафедры русского языка и литературы
ТерГПИ*

Аннотация. В этой статье речь идёт о культуре перевода и проблеме переводческого процесса. Когда выполняется перевод с одного языка на другой язык, возможно, особое внимание будет уделено не только переводу но и другим аспектам переводоведения.

Ключевые слова: перевод, культура, язык, эквивалент, общение, переводчик, общение понятие, коммуникатор, абстрактный.

С наступлением XXI века обозначаются новые этапы развития человечества. Это развитие определяет наиболее важные направления, ставшие устойчивым процессом глобализации человеческого общества. Исходя из этого процесса, жизнедеятельность людей влияет практически на всё происходящее на земле и в современном мире: на социально-экономические, на политические и на социокультурные изменения. Разнообразие, вызванное глобализацией расширение контактов, рост туризма, возможность обучения за рубежом, разнообразие обмена мнениями студентов, зарубежная практика и многие другие события и факты актуализировали проблемы межкультурного общения и взаимодействия. Этот процесс не обошел стороной и нашу страну. Узбеки становятся все более успешнее в политических и экономических позициях, участвуют в международных

мероприятиях, развивается многонациональная деятельность компаний Узбекистана, многие студенты обучаются за рубежом, а также туристы из Узбекистана путешествуют по всему миру. Представители разных стран, путешествуя по различным странам, должны не только хорошо владеть иностранным языком, но и правилами культуры: поведения, психологии и истории страны, где они находятся и, самое главное, избежать искажения понимания культуры представителей других наций для необходимости понятия механизма общения.

Актуальность темы нашей работы сосредоточена на понятии коммуникации, которое сегодня становится все более актуальным в мире.

Межкультурная коммуникация – среди представителей разных культур является средством межкультурного общения.

Успех и эффективность межкультурной коммуникации – это не только знание разных культур и языков, но и коммуникаторы, которые по «разному» и каждый попеременно осознают своих «незнакомых» собеседников.

Знакомство с культурой других народов - одна из социальных задач в сфере перевода и самое важное звено в профессиональном общении переводчика.

Язык – социальное явление, без которого невозможна общественная деятельность. В процессе перевода мы сталкиваемся с чужой культурой и по этой причине, наш успех в переводе зависит от того, насколько хорошо мы понимаем иностранную культуру, потому что перевод – это межкультурное явление

Литературный анализ и методология. Культурный перевод – это, конечно, правильное понимание термина, которое относится к определению слова «культура».

Культура имеет два смысла: первое - это цивилизованная культура в развитой стране, если оно определяется как общество, а второе определение слова «культура» ,как сборник поведений и стилей в жизни людей того или другого народа.

Как упоминалось выше, культура при переводе имеет важную роль и значение. [1,2,3]

По мнению Катана, культура – это общая иерархическая модель мира. убеждений, ценностей и стратегий, которая может направлять действия в отношениях людей.

Овладеть культурой можно по-разному , например - получить посредством образования или глубокого изучения.

Термин «цивилизация» описывается как развитое человеческое общество, сумевшее повлиять на культуру людей.

Согласно этой концепции, переводчик может перевести текст, решая проблему культурного развития.

В данном случае ,нужно добавить, что Ньюмарк является ценным переводом, то есть переводом - способствующим развитию мировой культуры.

Цивилизация — подобна алфавитам и словарям создающими методы ,хотя это и привело к огромному развитию языков и литератур, этот процесс поднимает всё новые и новые вопросы в области культурного перевода. Идеологическая культура имеет большое влияние на общество и политику страны. По мнению некоторых ученых-переводчиков, таких как Сьюзан Басснетт и Триведи, Эвен-Зоар. культура тоже зависит от жажды власти, на которую претендуют люди.

В этом смысле перевод занимается адаптацией читателя в идеологической системе. Таким образом, перевод связан с культурой морали самого персонажа, объясняя новый образ

мышления. Такой перевод передает контекст и личный образ мышления через переведенные тексты. [4,5]

Обсуждение и результаты. Каждая информация или оригинальное сообщение имеет практическую ценность.

Переводчик должен знать, является ли это сообщение доказательством, предложением, приказом или шуткой.

Например: «“I don’t know”» («Я не знаю») переводится не только как утверждение, но и может быть, также может означать колебание («Кўрамиз») (посмотрим). «What gives» «Как дела» на американском диалекте передает смысл вопроса.

Это сообщение перевод лингвистический процесс переноса через языковые и культурные барьеры.

Культура – это обычный образ жизни и его внешний вид представляет собой массу, которая использует свой собственный язык для самовыражения своих мыслей. Мы должны отличать термин «культурный» от общеязыкового и частного языка. Распространены такие понятия, с переводом которых нет проблем, такие как “o‘lmoq”, “yashamoq”, “yulduz”, “stol”, “oyna” («умереть», «жить», «звезда», «стол», «зеркало»).

Но такие концепции как “steppe”, “dacha”, “challar” («степь», «дача», «чаллар»), при переводе культурно специфичны и проблематичны. Мы должны фокусироваться на сходстве между целью и источником языка.

Из различных культурных результатов в грамматике языка (род неодушевленных предметов), состоит из форм обращения (сэр, господин, мадам, дон, дона). Сколько бы язык не становился – особым явлением флоры и фауны и если он приобретёт культурные особенности, то для перевода будет проблемой. Многие культурные обычаи изложены простым языком. Эдвард Сепир называет язык проводником в социальную реальность.

Человеческий опыт во многом определяется языковыми моделями общества и каждая система описывает отдельную реальность

Он отражает реалии общества о двух языках не похожих друг на друга. Слова, используемые в разной общественной среде тоже разные. Таким образом, язык является сердцем культуры. Культура находит в языке всё образное. Например, японцы обычно не используют слово «нет». Вместо «нет» они используют другие слова или предложения, во избежание этого слова. Если японцы на ваше предложение ответят: «Я вынужден обсудить этот вопрос с женой» это и будет отказом. Если вы позвоните японцу и скажете, что вам нужно встретиться с ним в 6 часов, а он ответит «А в 6 часов?», то это говорит о том, что он не согласен с вашим предложением. Сами по себе национальные обычаи, вещи, предметы уникальны и их невозможно перевести. например, сари, кимоно, макси, ковш. Они как культурные термины будут разъяснены студентам. Если основное слово непонятно, то его можно заменить другим подходящим по смыслу словом. [6,7,8]

Когда дело доходит до социальной культуры, необходимо учитывать проблемы целостного значения перевода. В нём отражается политическая и общественная жизнь страны. Например, глава государства (президент, премьер-министр) или парламентские названия (национальное собрание, сенат) они очень просты, то есть. Они считаются международными или состоят из легко переводимых слов. Названия национальных парламентов не переводятся. Например: Bundestag (Germaniya), Storting (Norvegiya), Riksdag (Shvetsiya), Eduskunta (Finlandiya), Knesset (Isroil), Duma (Rossiya), Oliy Majlis (O'zbekiston). Для административных документов эти названия записаны как оригинал.

Названия министерств переводятся на правильный литературный язык. По этой причине “Treasury” «Казначейство» —

Министерство финансов; “Home office”- «Главный офис» — МВД (министерство внутренних дел); Хранитель справедливости или Министерство обороны, Министерство национальной безопасности и так далее [9,10]

Вывод. Одной из самых сложных проблем, стоящих перед переводом, нахождение лексических эквивалентов событиям описанных в текстах. Переводчик сравнивает не только двуязычие, но и две культуры..

Перевод из-за культурных различий может и не быть эквивалентом лексически изучаемого языка. Это география, традиции, верования и возможно всё это связано с разносторонним мировоззрением.

Для представления концепций переводчика необходимо найти новые пути и методы в языке перевода.

Список литературы:

- 1.Алексеева И.С. Введение в переводоведение. – СПб. : СПбГУ; М.: Академия, 2004. – 352 с.
- 2.Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – М. : Изд-во ин-та общего и среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
- 3.Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М. : Высшая школа, 1986. – 416 с.
- 4.Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М. : МГУ, 2004. – 224 с.
- 5.Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М. : Высшая школа, 1990. – 253 с.
- 6.Якобсон Р. О лингвистических аспектах перевода // Якобсон Р. Избранные работы. – М., 1985. – С. 361–368.
7. Bremeck, Winston. The Development and Teaching of a College Course in International Communication. Readings in

"International Communication", v.2. University of Pittsburgh, March 1977. - 326 p.

8. Samovar, Larry A., & Porter, Richard E. (Eds.). Intercultural communication: (4th Ed.). Belmont, 1985, CA: Wadsworth. NA. - 480 p

9. Тер-Минасова С.Г, Язык и межкультурная коммуникация. (Учеб. пособие) М.: Слово/Slovo, 2000. - 624 с.

10. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых. Учебное пособие. М., 2000. - 108с.

ADABIYOT DARSLARINI EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Maxmuda Yuldasheva,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi adabiyot darslarida o‘quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayonlari, o‘qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo‘llari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, evristik ta’lim, ijodiy topshiriq.

Dunyo ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayonida ijodiy faolligini oshirish, ular bilimni mustaqil-izlanishli usullar orqali rivojlantirish, ulardagi kompetensiyalarni ko‘rgazmali-obrazli kabi yordamchi vositalar orqali tarkib toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlarda adabiy ta’limda o‘quvchilar

dunyoqarashi, ijodkorligining rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga alohida e’tibor berilib, maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda o‘quv faolligini tarkib toptirish muammolariga to‘xtalib o‘tilgan.

Respublikamizdagi ko‘plab metodist olimlar tomonidan o‘quv jarayonini ilmiy, samarador hamda natijali o‘yinlar bilan boyitish, evristik savollar, topshiriqlar va o‘yinlar asosida tashkil etish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Dars jarayonida interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajribalar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar.

O‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyalarning aksariyati nazariy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, uning amaliyotga ta’siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning yangidan yangi usullarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga tatbiq etish choralari ko‘rish zarur.

Evristik yondashuv bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, evristik o‘qitish usulining ashaddiy tarafdori, Londondagi Imperial kolleji professori Genri Edvard Armstrong quyidagi mulohazalarni ilgari suradi: “Ilm-fanni o‘rganishning ruhi izlanishdadir. O‘quvchilar fakt va tamoyillarni o‘zlari izlashlari, topishlari va o‘rganishlari kerak”. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar birinchi navbatda izlanish

orqali o'rganadilar. O'qituvchilarning vazifasi esa – xatolarni o'z vaqtida to'g'rilash hamda o'quvchini haqiqatni topishiga, kashf etishiga to'g'ri yo'nalishni berishdan iborat. Ta'lim oluvchilar tajribalar ustida ishlash jarayonida yangi bilimlarni o'rganadilar. Ta'kidlash joizki, o'quvchilar bu usulda tadqiqotchi sifatida ishlaydilar. Natijada ularda tadqiqotchilik ko'nikmasi shakllanadi. Avvaliga ular tajriba natijalaridan bexabar bo'ladilar. Kerakli ma'lumot va tamoyillarni olish uchun uhu mavzu bo'yicha bir nechta tajribalarni o'tkazishi, tadqiq etishi kerak bo'ladi. Evristik xarakterdagi o'quv faoliyatining amalga oshishi natijasida o'quvchilarning yangi faoliyat mahsulini yarata olishlari kuzatiladi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan ta'limiy mahsulotlarning rang-barangligi tabiiy hodisa hisoblanadi. Chunki har bir o'quvchi o'ziga xos bo'lgani kabi ular tomonidan yaratilgan evristik faoliyat natijalari ham o'ziga xos turlicha namoyon bo'ladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning evristik faoliyatlari natijalarini qiyosiy o'rganish ularning o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi. Chunki evristik faoliyat natijasida o'quvchilarda o'zini-o'zi rivojlantirish hamda umummadaniy kompetensiyalarning jadal shakllanishi kuzatiladi. Jamoaviy faoliyat natijalarining tahlili esa har bir o'quvchida shakllangan bilish faoliyatining o'ziga xos jihatlari va o'quvchilar jamoasi umumiy ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, evristik yondashuv asosida bilim berish – butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Har qanday interfaol metod va usullar to'g'ri hamda maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

DOZENS HAJVIY JANRI NAMUNALARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDALINGVOKULTUROLGIK YONDASHUV

*Qulmamatov Oybek Amonovich,
O‘zDJTU tayanch doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi afro-amerikalik xalqlarning folklor namunasi hisoblanadigan dozens so‘z o‘yini matnini o‘zbek tiliga tarjima qilish va tarjima jarayonida milliy koloritni saqlagan holda tarjima metodlaridan unumli foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: dozens, hajv, tarjima, kulgi, nutqiy etiket, konnotativ ifoda.

Insonlarni xalqlar do‘stligi, dunyoga keng qarash, boshqa millatlarning tarixiy o‘tmishi, madaniy merosini hurmat qilish, e‘zozlash ruhida tarbiyalash maqsadlariga badiiy tarjima kamarbastalik qiladi. Boshqa tildagi manbada aks etgan voqealar, tushunchalar, tasavvurlar, taomil, urf-odat, udum, marosim, irim-sirim va hokazolarni o‘zbek tiliga tarjima qilish murakkab jarayondir.

Hajviy matnlar og‘zaki va yozma nutqda keng qo‘llaniladigan hamda inson ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan adabiy janr hisoblanadi. Ana shunday hajviy matnlar turiga afro-amerikalik xalqlarning folklor namunasi hisoblanadigan dozens so‘z o‘yini kiritish mumkin.

Dozensni o‘zbek xalq og‘zaki ijodi turi bo‘lmish askiyaga qiyoslashimiz. Bu janrlar o‘rtasida o‘xshashliklar va tafovutlar mavjud. Ularning har ikkalasida ikki va undan ziyod kishi yoki guruh ma‘lum mavzu bo‘yicha og‘zaki tortishuvnamoyish etishadi. Askiyada taraflar

tez javob berishga, o‘z javoblarini lo‘nda, serma‘no, latif, ta‘sirli, jozibali va kulgili chiqarishga harakat qiladilar. Xuddi shu holat dozensda ham kuzatiladi, ammo afro-amerikaliklarning “so‘z jangi”da haqoratli hazillardan ko‘proq foydalaniladi. Bu holat amerika madaniyatiga ko‘ra normal holat hisoblansa, askiyada haqoratomuz va pornografik kontentdagi hazillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dozensning mazmunli, serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, mavzuga aloqador keng va chuqur ma‘noli so‘zlarni topa bilish, yuz, ko‘z, qo‘l, tana harakatlaridan, tovush va imo-ishoralardan o‘rinli foydalana bilish talab etiladi. Taraflar tortishuvida zakiylik, hozirjavoblik asosiy mezon hisoblanadi.

Shuni qayd etish kerakki, hajviy matnlar tarjimasida xalqlarning madaniyati aks etadi. Amerika milliy-madaniy xususiyatga ega so‘zlar orqali kulgi kelib chiqish holatlarini o‘zbek tilida aks ettirish masalasi eng ahamiyatli masalalardan hisoblanadi. Bu borada madaniy birliklarni tarjima qilish usullari, milliy ruh va mentalitetni tarjimada aks ettirish vositalari tadqiqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘TILda hajvga quyidagicha ta‘rif berilgan: “ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masharalab aytilgan (yozilgan) gap, jumla, bayt, asar” [1, 477].

Ingliz tilidagi dozens so‘z o‘yinlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, hajviy matnlarda kulgini yuzaga keltirishda inson omili birinchi o‘ringa chiqishi lozim. Dozensni tarjima qilishda afro-amerikalik xalqlarning madaniyatini tashkil etuvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar, xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlari, tarixi va geografik joylashuvini ifoda etuvchi til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tarjima tilida berish masalalari dolzarblik kasb etadi. Hajviy matnlarni tarjima qilishning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilishda ushbu sohaning maqsadi, obykti va predmetini aniqlashtirish kerak [2, 117]. Shu o‘rinda Z.K.Sabitovanning bu boradagi

fikrlariga e'tibor qaratmoqchimiz. Olimaning fikricha, madaniyat, xalq tafakkuri, olamni idrok etishdagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Ushbu sohaning obyektini tal va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunda til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari mavjud bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bulgan milliy ijtimoiy- madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi [3, 10]. Dozens matnida ham lingvokulturologiyaning predmeti hisoblangan madaniy axborot tashuvchi til birliklari kulgi keltirib chiqarishda uziga xos ahamiyatga ega.

Tarjimaning eng qiyin muammolaridan biri madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarda uchraydi. Har qanday madaniyat vakillari matn mazmuniga uzlarining dunyoqarashi nuqtai nazaridan munosabat bildiradi. Ekvivalentiga ega bo'lganko'pgina so'zlar tarjimada doimo bir biriga mos tushavermaydi. Chunki, ular maxsus konnotativ ma'nolarga ega. Masalan, "qo'y" so'zi rus tilida salbiy konnotativ ma'noga ega (Ты – баран – sen judayam ahmoq odamsan), ammo o'zbek tilida ushbu so'zning ijobiy konnotativ ma'nosi ham mavjud (U qo'yday yuvvosh) [4, 17-21]. Shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz: amerika va o'zbek xalqlari madaniyatida farqli jihatlari mavjud – ikki xalqning turli geografik mintaqada istiqomat qilishi va shuning natijasida ularning

tafakkuri va olamni idrok etishi turlicha bo'lishi. Shu sababli ularning kulgi yaratish xususiyatlari ham turlicha bo'ladi. Bu o'z navbatida ikki millat hajvini tushunishda madaniy tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Milliy-madaniy o'ziga xoslik leksikaning turli qatlamlarida ifodalanadi. Tadqiqotchi B.Ismoilovning fikriga ko'ra, geografik tushunchalar, madaniy-tarixiy terminlar, realiyalar nomlari, millat turmush tarzi va madaniyatining o'ziga xosligini, qardoshlik aloqalari, inson kiyimlari va tana a'zolari nomlari, o'simlik va rang ma'nosini anglatuvchi so'zlar, ko'p ma'nolilik xususiyati, konnotativ va tasviriy ifoda ma'nolariga ega so'zlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni anglatuvchi so'zlar hisoblanadi [5, 70].

Dozens matnidagi madaniy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan leksik birliklar yordamida kulgining yaratilishi o'ziga xos ahamiyatga ega va ularni tarjima qilishda tarjimon qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy.

Olimlarning tarjimaga bergan tavsif va ta'riflarga yondashgan holda tarjimani quyidagicha izohlash mumkin: tarjima asliyat matnidagi og'zaki yoki yozma shakldagi har qanday so'z, gap, matn va hokazolarni, asliyat va tarjima tillarining lingvistik: sintaktik, semantik, stilistik xususiyatlari hamda ekstralingvistik: lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima tiliga olib o'tish jarayonidir.

Demak, tarjima ikki tilning o'zaro lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijodiy jarayon hisoblansa-da, insonlar tomonidan yaratiladigan og'zaki nutqdagi yoki yozma shakldagi matnlar, jumladan, hajviy matnlarda biror tilning o'ziga xos lingvistik xususiyatlaridan tashqari ekstralingvistik xususiyatlar ham aks etadi.

Tarjimon hajviy matnlar tarjimasida ikki tilning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari jihatidan qator muammolariga duch kelishi tabiiy.

Tarjima matniga nisbatan esa quyidagi metodlar qo'llanadi:

1. Moslashtirish (adaptation) metodi tarjimaning eng erkin turi bo‘lib, asosan komediya janridagi asarlarda va she‘riyatda foydalaniladi. Tarjimon asliyatni imkon qadar tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirishni maqsad qilib, asliyatga o‘ta erkin munosabatda bo‘ladi. Odatda, asar mavzusi, qahramonlari, syujeti saqlab qolinadi, asliyat tili madaniyati tarjima tili madaniyati bilan almashtiriladi va matn qayta yaratiladi [6, 26].

2. Erkin tarjima (free translation)da tarjima tili matni asliyat matnining uslubi, shakli va mazmunisiz qayta yaratiladi. Tarjimon asliyatning mazmunini o‘z so‘zlari bilan sodda va qisqa hikoya qilib beradi.

3. Idiomatik tarjima (idiomatic translation) metodida asliyatning axboroti qayta yaratiladi ammo asliyatda mavjud bo‘lmagan ibora va so‘zlarni tanlash orqali ma‘noning kichik farqini yo‘qqa chiqarishga yo‘naltiriladi. Muallifning individual tasvirini yuzaga keltirgan lisoniy vositalar obrazli iboralar, his-tuyg‘uni ifoda etadigan so‘zlar, balandparvoz birikmalar bilan almashtirib o‘giriladi.

4. Ijodiy tarjima (creative translation)da asliyatning lisoniy vositalari matniy ma‘nolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda yaratiladi.

5. Mualliflashtirilgan tarjima (authorized translation)da qisqartirilib tarjima tilida hikoya qilib beriladi [6, 27].

7. Vosita tildan tarjima (Indirect language translation) bu – tarjima matni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki boshqa tilga qilingan tarjima orqali o‘girishdir.

8. Maishiy xizmat tarjimasi (Service translation) metodida har doim iste‘moldagi tushuncha bir tildan boshqa tilga tarjima qilinadi. Odatda, tarjimada talab qilingan termin unchalik ko‘p qo‘llanmaydi, lekin boshqa mamlakatlarda amaliyot sifatida kerak bo‘ladi.

9. Mantiqsiz tarjima (Blank verse translation). Bunda tarjimaning aniqligi va badiiylikka erishish muhim jihat, hisoblanmaydi, balki matn strukturasi tanlash bo‘yicha tarjimon oldida cheklovlar mavjud bo‘ladi.

10. Axborot tarjimasi (information translation) metodida biror noadabiy matndagi butun ma‘lumot tarjima tiliga o‘tkaziladi, ba’zida

ular ko‘proq mantiqiy shaklda bo‘ladi, ba’zida tarjimada asarning qisqacha mazmuni izohlab beriladi. 11. Kognitiv tarjima (cognitive translation)da asliyat tilidagi ma’lumot tilning grammatikasida aks etib, tarjima tilidagi odatdagi transformatsiyalar orqali tasviriylikni soddalashtirib o‘sha tilga ma’lumot o‘tkaziladi. Pragmatik komponent semantik yoki kommunikativ tarjimini yaratishga yordam beradi. 12. Sharhlash (interpretation)da esa mavzu sharhlanadi va qabul qiluvchiga osonroq bo‘lishi uchun matn qayta yoziladi. Ushbu tarjima metodlari tarjimon tomonidan tanlanganda tarjima matnining uslubi, mohiyati, o‘ziga xos jihatlari kabilar e’tiborga olinadi.

Bizning fikrimizcha, dozens matnlari tarjimasida so‘zma-so‘z, moslashtirish, erkin tarjima metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quyida ushbu metodlardan foydalanib, ingliz tilidagi dozens matnlarini o‘zbek tiliga tarjima qilamiz:

1. So‘zma-so‘z tarjima metodi qo‘llangan matn: *“Your mama’s so fat, after she got off the carousel, the horse limped for a week” – Sening onang shunchalik semizki, u karuseldan tushgacha u mingan ot bir hafta oqsoqlanib yuradi [7]. “You must be a parking ticket because you’ve got ‘FINE’ written all over you” – “Siz parkovkadagi jarima qog‘oziga o‘xshaysiz, sizning hamma yeringizga ‘JARIMA’ so‘zi yozilgan”.* Ushbu misolda ingliz tilidagi *“fine”* so‘zi orqali chiroyli so‘z o‘yini qilingan: a) *“jarima”* ma’nosida b) *“ajoyib, zo‘r”* ma’nosida. *“Do you believe in love at first sight, or should I walk by again?” – “Bir qarashdagi muhabbatga ishonasizmi, yoki men yana yoningizdan yurib o‘taymi?” “Is your name Sunshine? Because you light up my day” – Sening isming quyosh bo‘lsa kerak, chunki sen mening kunimni charog‘on qilasan.*

2. Moslashtirish metodi qo‘llangan matn: *“Is your name Google? Because you have everything I’ve been searching for” – “Sizning ismingiz Ensiklopediya emasmi? Chunki menga kerakli ma’lumotlarning*

barchasi sizda bor”. Ushbu misolda Google platformasining barcha ma’lumotlarni qidirib topish mumkin bo‘lgan funksiyasi ensiklopediya bilan moslashtirilmoqda. *“Are you a camera? Every time I look at you, I smile”* – *“Siz ‘mushtum’ jurnaliga o‘xshaysiz, chunki har safar sizni ko‘rganimda menda tabassum paydo bo‘ladi”*. Bu misolda kishining yoqimtoy ekanligi fotoapparat oldida kulib rasmga tushishga o‘xshatilgan. Xuddi shu mazmun o‘zbek tilida moslashtirish metodi orqali hajviy “mushtum” jurnali orqali ifodalangan, chunki uni qo‘liga olgan har bir o‘quvchining kulishi tabiiy.

3. Erkin tarjima metodi qo‘llangan matn: *“Are you a magician? Whenever I look at you, everyone else disappears”* – *“Siz juda ham istarali insonsiz, bir qarashda hammani o‘zingizga mahliyo qilib qo‘yasiz”*. *“I’m not a photographer, but I can definitely picture us together”* – *Men folbin emasman, lekin ikkalamizning baxtli kelajagimizni ko‘rib turibman*. Erkin tarjima metodi orqali tarjimani yanada go‘zalroq usulda ifoda etilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, dozens matnini o‘zbek tiliga tarjima qilishda milliy koloritga e’tibor qaratgan holda, afro-amerikalik xalqlarning urf-odatlarini, an’analarini va taomillarini hisobga olish lozim. Tarjimon trjima metodlaridan samarali foydalanib, kulgini keltirib chiqaradigan elementlarni ko‘rsatib bera olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.– b. 477.

2. Yo‘ldoshev U.R. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida) // F.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yoz. dis-ya. –Toshkent: 2017. –b. 117

3. Сабитова З.К. Лингвокультуроология: учебник. – М.: Флинта:

Наука, 2013. – С. 10.

4. Muminov A. A Guide to Consecutive translation. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – pp. 17-21.

5. Исмаилова Б. Категория образности и средства ее выражения в словообразовательной системе английского и киргизского языков: Дисс. канд. филол. наук. – Т., 1989. – С. 70.

6. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – b. 26-27.

7. URL: <https://chat.openai.com/c/2e3017e2-423e-4418-8b92-49184428c551>

TURLI TILLARDAGI O‘XSHATISHLAR QIYOSI

*Dilbarxon Mamasoliyeva,
Oriental universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘xshatish va uning tildagi vazifalari, hosil qilinishi, erkin va turg‘un shakllari, uning millat qarashlari bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, etalon, vosita, milliy qadriyatlar, til va madaniyat.

O‘xshatishlar eng qadimiy badiiy-tasviriy, obrazlashgan vositalardan sanalib, nutqimizni bezab, emotsional-ekspressiv ta’sirini ta’minlab beruvchi bebaho manbadir. O‘xshatishlar qadim zamonlardan beri faylasuflar, mashhur olimlar, yozuvchi va shoirlarimizning diqqat markazida bo‘lib, u fikrni aniq, lo‘nda va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladigan vosita sifatida qarab kelinadi.

O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va

tasavvurlarini tamsil etadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo'ladi. Prof. N. Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi.

Har xil lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlarni qiyoslash insonning xarakteri va xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarning etaloni sifatida hayvon va jonivorlarni bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalanilganini ko'rsatadi. Masalan, tillarning aksariyatida tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: tulkiday ayyor, tilki gibi (turkcha) xitry kak lisa (ruscha), as false as fox (inglizcha), you kathi (koreyscha).

O'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavnali, juda ham kuchli, bahodir" kabi sinonim so'zlar ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishdek" o'xshatish etaloni, ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik hosil qiladi.

Lingvomadaniyatlarning aksariyatida ayni o'xshatish etalonlari turli belgilarning o'lchovi sifatida qo'llanilishi mumkin: o'zbek tilida qo'ydek "yuvoshlik", turk tilida koyun gibi "ahmoq, dovdir", "qaror berishda yoki xatti-harakatlarida boshqalarga tobe bo'lgan", rus tilida ovsa yetaloni "qo'rqqoqlik"; o'zbek tilida bo'riday "dovyurak, mard", "g'ajimoq, tish qayramoq", turk tilida kurt gibi "ishning ko'zini biladigan", rus tilida kak volk "och"; o'zbek tilida ilonday "chaqmoq, zahar sochmoq", "sovuq", turk tilida yılan gibi "xoin, yoqimsiz", rus tilida kak zmeya "badjahl"; o'zbek tilida itday "qopmoq", "sadoqatli", "akillamoq", "yugurmoq", "izg'imoq", "yergashmoq", "ishlamoq", "ichmoq" turk tilida köpek gibi "laganbardor", rus tilida kak sobaka "aqlli"; o'zbek tilida ho'kizday "qaysar", "katta, qo'pol", "kuchli", "ishlamoq", turk tilida öküz gibi "ahmoq, tushunchasiz"; o'zbek tilida

maymunday “sakramoq, irg‘ishlamoq”, “o‘ynatmoq”, turk tilida maymun gibi “g‘alati, kulgili harakatlar qilmoq”, “taqlidchi” va h.k.

Ba’zi lingvomadaniyatlar uchun me’yoriy hisoblangan o‘xshatish etalonlari boshqa xalqlarning lisoniy mental an’analari uchun begona bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga sarvday, turklarda gavdali ayollarga at gibi o‘xshatishi qo‘llaniladi. Hindlarda sahibjamol qizning yurishi filning ulug‘vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo‘ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go‘zallik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi.

O‘zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba’zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/), xitoy va koreyslarda o‘rikka, majnuntol novdasiga qiyoslash me’yoriy hol hisoblanadi. Xitoy va Koreyada ayollar ilonga o‘xshatilsa, ular xursand bo‘lishadi. Chunki mazkur lingvomadaniyatlarda ilon donolik, go‘zallik va epchillik ramzi hisoblanadi. O‘xshatishlar har bir xalqning iqlimi, fauna va florasini, joylashgan hududining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham yaratiladi. Masalan, So‘fining tani shu topda Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday qizib yonardi (Cho‘lpon. Kecha va kunduz). Cho‘lpon tomonidan yaratilgan mazkur o‘xshatishda Arabiston iqlimining juda issiqligidan kelib chiqqan holda, Razzoq so‘fining ruhiy holati ifodalangan.

Iqlim sharoitiga ko‘ra qor bilan tez-tez to‘qnashmaydigan Arabiston, Afrika, Misr Arab Respublikasining lingvomadaniyatlarida “qordek oppoq sochlar” o‘xshatishi uchramaydi. Chunonchi, qorning nimaligini ko‘z oldiga keltira olmagan mazkur madaniyatlarda ijobiy baholanayotgan biror narsaning “qor”ga qiyoslanishi zaruriy obrazli ifodani yarata olmaydi. Shuning uchun bunday o‘xshatishni qayd etilgan

mamlakatlarning tillariga tarjima qilganda, “sutdek oppoq sochlar” deb berish maqsadga muvofiqdir. Yoki “ko‘pgina oq rangli narsalarning rus tilidagi singari o‘zbek tilida ham obrazli tarzda “qor”ga muqoyasa etilishi nutqiy an’anaga aylangan bo‘lishiga qaramasdan, ijobiy ta’riflanayotgan oppoq tishlar “qor”ga yemas, balki qimmatbaho “sadaf”ga qiyos yetiladi: *sadafday tishlar*.

Ma’lumki, o‘xshatishlar erkin va turg‘un o‘xshatishlarga bo‘linadi. Dastlab o‘xshatishlar insonning qaddi-qomati, fe‘l-atvorini shunga o‘xshash narsa, predmet, hayvonlarga o‘xshatib, fikrni aniq va ta’sirli ifodalab, yetkazib berish maqsadida foydalanilgan.

Xalqimizning uzoq yillik tarixiy tajribalari, tafakkur tarzi natijasida yuzaga kelgan alif(alifday) tik, adl; sarvdek tik, adl, kelishgan; terakday tik, adl singari turg‘un o‘xshatishlari insonning qaddi-qomatini obrazli tasvirlash uchun xizmat qiladi. Arab grafikasiga asoslangan alfavitning birinchi harfi. Asosan gavdasi, qaddi-qomati kelishgan sarvqomat insonlarga nisbatan ishlatiladi. *Alifday qomating, xipcha belingdan. Menga bayon ayla o‘sgan elingdan*. (“Rustamxon” dostoni)

Tilshunos D. Xudoyberganova insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq quyidagi o‘xshatishlarni ko‘rsatib o‘tgan: “*Azroilday xunuk, bo‘rdoqiday/ meshday semiz, devday bahaybat, zanjidek qop-qora, niholday nozik, oyday go‘zal, suqsurday chiroyli, terakday novcha, chigirtkaday/ arvohday/ kosovday/ cho‘pday ozg‘in*”[2].

Ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyotida an’anaviy o‘xshatishlar sirasiga kirib qolgan *ohu ko‘z, qarchig‘ay burun, bulbul ovoz, qaldirg‘och qosh* kabi o‘xshatish etalonlari bugungi kun o‘zbek prozasida ham faol qo‘llanishga ega. *Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo‘ldi*. (Ravshan, 4.)

Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlar har bir tilning tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an’analarining

betakror ko‘z gusi, bejirim va ta’sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi obrazlar vorisiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan g‘oyat muhim vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –T.: Fan, 2015, 81-bet.
2. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. 95-bet.
3. Mahmudov N. Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –T.: Ma’naviyat. 2013.
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. -M.:Akademiya, 2001.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
6. Mahmudov N. Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. – T.: Akademiya nashr. 103 bet.
1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent – 2014.

BILVOSITA TARJIMADA MUTARJIM MAHORATINING NAMOYON BO‘LISHI (E. Xeminguey “Alvido, qurol!” romani misolida)

*Axmadov Dostonbek Xasanboy o‘g‘li,
ToshDO‘TAU talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘tgan asrning 70-yillari O‘zbekiston Qahramoni, ustoz mutarjim Ibrohim G‘afurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan amerikalik mashhur yozuvchi Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” romani o‘zbekcha va ruscha tarjima variantlari asliyat bilan qiyosan tadqiq etiladi. Asarda uchrovchi, muallif

uslubi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ayrim so‘zlar tarjimasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Tarjima qilinayotgan til xususiyatlaridan kelib chiqib realiya va o‘xshatishlarni tarjima qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima, asliyat, muqobil, uslub, individual til, idioma, mutarjim, original ijod, muallif maqsadi.

Amerikalik adib Ernest Xeminguey XX asr dunyo adabiyotining eng mashhur vakillaridan biri sanaladi. Bu ulkan yozuvchining hikoya, qissa va romanlarida inson xarakterining mukammal gavdalantirilganini, ayni paytda nabotot va hayvonot dunyosining hayoti badiiy kashf etilganini, ular odamzod hayoti bilan uzviylikda tasvirlanganini, tiriklik kushandasi bo‘lgan urush daxshatlari la‘natlanganini ko‘ramiz. Xeminguey ijodining asosiy xususiyatlaridan biri uning samimiyligi va soddaligiga yashiringan.

Ijodkorga Nobel mukofotini olib kelgan mashhur “Chol va dengiz” hamda “Alvido, qurol!” asarlari O‘zbekiston Qahramoni, ustoz tarjimon Ibrohim G‘afurov tomonidan o‘tgan asrning 60–70-yillari mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Biz ushbu maqolamizda “Alvido, qurol!” romanining 1974-yilda amalga oshirilgan ilk tarjimasidagi (asarning keyingi nashrlari ilk nashrdan aytarli farq qilmaydi) ayrim o‘rinlarni mutarjim uchun asliyat vazifasini o‘tagan ruscha hamda asarning asl tili – inglizcha variantlari bilan qiyoslashga harakat qildik.

Tanqidiy realizmning yuksak namunasi bo‘lgan “Alvido, qurol!”ni yozganda muallif atigi 29 yoshda edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Genri va Ketrinning hayotga munosabatlarida, ularning baxtli taqdir yaratish uchun bo‘lgan kurashlarida yoshlik harorati barq etib turadi. Hayotda: Birinchi jahon urushida qatnashgan 19 yoshli leytenant Ernest muhoraba sababli o‘z sevgilisidan ajraladi. Asarda: qahramonlar – Genri va Ketrin talay qiyinchiliklarni yengishga erishsalar-da, beshafqat o‘lim

ularning endigina ochila boshlagan guldek baxtini tag-tomiri bilan yulib tashlaydi. Roman go‘yo urushga qarshi urush e‘lon qiladi.

Asarning tarjimasida shunday parchalar borki, kitobxon mutolaa davomida, beixtiyor, romanning tarjima ekanligini unutib qo‘yadi. Xeminguey asarini o‘zbek tilida yozmaganmikan degan xayolga borib qoladi, ehtimol mutarjim qalamining kuchi shunday vaziyatlarda namoyon bo‘lar.

Romanning inglizcha aslini o‘qiganimizda dastlab shunday fikr tug‘iladi: nima uchun endi qahramonlar muhabbat deb shuncha kurashishsa-yu, qancha azob-uqubatlar evaziga unga yetishganlarida... shafqatsiz o‘lim ularni ajratib tashlaydi! Ko‘rgan azoblarining o‘zi yetmasmidi? Ketrinning o‘limi kimga kerak bo‘lib qoldi ekan? Asarni sinchiklab o‘qib chiqqan kitobxon Ketrin o‘lishi kerakligini, bunday hayot sof, vijdonli, pok odamlarni hech qachon e‘zozlamasligini, balki tahqirlanish, toptalishi mumkinligini tushunib yetadi. Romanning kinotalqinida Ketrin o‘lmaydi. Bu esa Ernest Xemingueyning g‘azabini keltiradi – kinochilarni ko‘rishga ko‘zi bo‘lmay qoladi. Gumanist yozuvchi hayot haqiqatidan ko‘z yumishni benihoya yomon ko‘rardi.

Ketrinning o‘limi tasviri har ikki tarjimada – ruscha va o‘zbekcha variantlarda ham asliyatdagi singari kuchli, ishonarli qilib berilganki, o‘quvchi Xemingueyning maqsadini to‘la anglab yetadi.

“Alvido, qurol!”ni rus tiliga o‘girgan mutarjim Yevgeniy Kalashnikov yozuvchining mudhish urushga qarshi urush e‘lon qilishdan iborat bosh konsepsiyasini juda yaxshi anglagan holda asarni asl inglizchasiga hamohang bo‘lgulik yuksaklikka ko‘tara olgan. Ibrohim G‘afurov romanni ayni shu variantga tayangan holda o‘zbek adabiyotiga olib o‘tdi. Ma‘lumki, ayni bir tilda bunyod etilgan san‘at asarini ikkinchi til orqali uchinchi tilga o‘tkazish – naqadar og‘ir, xatarli, mushkul ish; bu jarayon tarjimondan katta mas‘uliyat, jur‘atni ham talab etadi. Ammo tarjimon – Ibrohim G‘afurovning amerikalik adib ijodini chuqur

bilganligi, uning uslub sirlarini mukammal egallaganligi unga qo‘l kelgan.

Xemingueyning qisqa, sodda gaplardan iborat “maxsus” tili maqsadini shunday aniq ifodalaydiki, bunday “gapira olish” faqat unga nasib etgan. Yozuvchi o‘ziga xos uslubda Valentini tilidan Ketringa aniq ta’rif beradi. Valentini Genriga deydi:

*“– Yes, yes. That’s it. You look healthy as a **goat**. Who’s the pretty girl? Is she your girl? I thought so. Isn’t this a bloody war? How does that feel? You are fine boy I’ll make you better than new. Does that hurt? You bet it husts. How they low to hurt you, these doctors. What have they done for you so far? Can’t that girl talk Italian? She would learn. What a lovely girl I could teach her. I will do all your maternity work free. Does she understand that? She will make you a fine boy. A fine blonde like she is. That’s fine. That’s all right. Wal a lovely girl”* [1, 1997: 103].

Yevgeniy Kalashnikov tarjimasi:

*«– Так, так. Вот она что. Да, вы я вижу, здоровы, как **бык**. А кто эта хорошенькая девушка? Ваша возлюбленная? Так я и думал. Уж эта мне чертова война! Здесь боли? Вы молодец. Починим, будете как новенький. Тут больно? Ещё бы не больно. Как они любят делать больно, эти доктора. А чем вас до сих пор лечили? Эта девушка говорит по-итальянски? Надо его выучить. Очаровательная девушка. Я бы взялся давать ей урок. Я сам лягу в этот госпиталь. Нет, лучше бесплатно принимать у неё все роды. Она понимает, что я говорю. Она вам принесет хорошего мальчишку. Блондина, как она сама. Так, хорошо. Так, отлично. Очаровательная девушка»* [2, 2008: 112].

Ibrohim G‘afurov tarjimasi:

“– Хо‘sh. Хо‘sh. Buni qarang-a. Otday baquvvat ekansiz. Anov yoqimtoygina qiz kim edi? Sevgilingizmi? Shundaydir, deb o‘ylovdim.

Shu urush yomon bo'ldi-da! Bu yer og'riyaptimi? Azamat ekansiz. Tuzatamiz, ko'rmaganday bo'lib ketasiz. Bu yer og'riyaptimi? Og'rimasinmiyam. Bu doktorlar og'ritishga ko'p usta bo'lishadi-da. Shu paytgacha sizni nima bilan davolashdi? Bu qiz italyanacha so'zlasha oladimi? O'rganish kerak. Dilbar qiz ekan. Men unga dars berishga rozi bo'lardim. O'zim shu gospitalda yotaman. Yo'q, yaxshisi, men ko'zi yorigan paytlarda tekinga doyalik qilaman. Nima deyayotganimni tushunadimi? U sizga ajoyib o'g'ilcha tug'ib beradi. O'ziga o'xshash oqpar bo'ladi. Shunday, yaxshi. Shunday, a'lo. Dilbar qiz” [3, 2019: 97].

Har ikki tarjimon personajning o'ziga xos “tili”ni, kasb-koriga xos uslubi, ruhiyati, fikrlash tarzini ham saqlashga harakat qilishgan.

Xeminguey qo'llagan **“goat”** hijjalab o'girilsa, “taka” so'ziga to'g'ri keladi. Basharti, Y. Kalashnikov tarjima jarayonida buni “козёл” deb ifodalaganida edi, tarjima sifatiga putur yetgan bo'lar edi. O'z navbatida, I. G'afurov ham **“goat”**ga ruscha tarjimada muqobil qilib olingan **“бык”** so'zini “buqa” yoki “ho'kiz” deb o'g'irganida juda qo'pol xatolik sodir bo'lar edi. Shuning uchun ingliz tilidagi **“takaday sog'lom”** o'xshatishi rus tiliga **“ho'kizday sog'lom”** bo'lib o'tib, o'zbekcha tarjimaga kelib **“otday baquvvat”** bo'lgan!

“I'll make you better than new” gapini Kalashnikov **«Починим, будет как новенький»** deb o'giradi. Tarjimada so'zlar va ularning tartibi qariyb bir-biriga mos keladi. O'zbek tarjimon esa bu yerda aynan: **“Tuzatamiz, xuddi yangiday bo'lib ketasiz”** deb bersa, notabiiy chiqqan bo'lardi, usluban g'alizlik yuzaga kelardi. Ibrohim G'afurov tarjimasida bu shunday jaranglaydi: **“Tuzatamiz, ko'rmaganday bo'lib ketasiz”**.

Yozuvchi qahramonlar hayotini keskin muhit ichida tasvirlaydi, bu esa kitobxonda ularga nisbatan faqat ishonch emas, balki xayrixohlik tuyg'usini ham paydo qiladi. Urush va uning fojiasi tufayli Genriga dunyo faqat Genri va Ketrindan iborat bo'lib qoladi. U jamiyatdan,

siyosiy dunyodan ajralib, yakka o‘zini va Ketrinnigina o‘ylaydi, xolos [4, 2018: 321].

Voqea fojiali yakunlanadi. Ketrin halok bo‘ladi.

Xeminguey kitobning xotimasida Ketrinning o‘limi muqarrar ekanligini ishonarli qilib tasvirlash uchun uning birinchi jurnal nashridagi sahifalari grankasini o‘qish vaqtida 39 marta qaytadan yozib chiqqan [4, 2018: 324]. Genri bilan Ketrin noilojlikdan vidolashadilar. Hatto buni muallifning o‘zi ham istamaydi. Biroq hayot o‘z yo‘lida davom etadi, u istaklar bilan hisoblashib o‘tirmaydi.

“I am going to die”, she said, than waited and said I hate it” [1, 1997: 135].

« – Скоро я умру, – сказала она. Потом помолчала немного и сказала: – Я не хочу» [2, 2008: 132].

“ – Men tezda o‘laman, – dedi u. Keyin bir zum sukut qilib turdida, dedi: – men esa xohlamayman” [3, 2019: 127].

Juda ta’sirli gaplar. Bu yerda hech qanday sun’iylik yo‘q. Go‘yo yozuvchi yozmagandek, bu yozmishlar unga aloqador ham emasdek. Ketrinning o‘sha holatdagi qiyofasi kitobxonning ko‘z o‘ngidan ketmaydi va xuddi sizga shikasta, mayin, lekin hamon nimadandir umidvordek gapirayotganga o‘xshaydi.

Aslida-ku, *“I hate it”* so‘zma-so‘z olganda *“Men uni yomon ko‘raman”* yoki *“Men undan nafratlanaman”* bo‘lishi kerak. Lekin asar ruhidan ko‘rinib turibdiki, Ketrin o‘limdan cho‘chimaydi. U qo‘rqqani uchun ajaldan nafratlanib, uni yomon ko‘rayotgani yo‘q, faqat u o‘lishni istamayapti, xolos. Rus tarjimoni shuning uchun ham bu jumlaning *“Я не хочу”* tarzida bergan. O‘zbekchada *“Men esa xohlamayman”*, deydi Ketrin. Ruscha variantida *“esa”* ma’nosini beruvchi hech qanday so‘z yo‘q. Inglizcha asliyatda ham. Lekin o‘zbek tarjimoni til, mantiq hamda tasvirlanayotgan vaziyat taqozosi bilan qahramonni ana shunday gapirtiradi [5, 2022: 37].

Umuman, har ikki tarjima ham asarning asl ruhidan kelib chiqib, muallifning mehnati, istagi, maqsadi, ijodiy uslubini chuqur his qilgan holda amalga oshirilgan. Ayniqsa, Xemingueyning sodda va aniq, sehrigar tilini tarjima jarayonida oʻziday akslantirish mutarjimlarning katta yutugʻi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hemingway E. A Farewell to Arms. Simon and Schuster. – N.Y.: 1997. – P. 305.
2. Хемингуэй Э. Прощай, оружие. АСТ. – М.: 2008. – С. 368.
3. Heminguey E. Alvido, qurol. Ilm-ziyo-zakovat. – T.: 2019. – B. 320.
4. Дирборн М. Эрнест Хемингуэй. Обратная сторона жизни. Эксмо. – М.: 2018. – С. 728.
5. Salomov Gʻ. Til va tarjima. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. – T.: 2022. – B. 324.

5-SHO‘BA. XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

CHET TILINI O‘QITISHDA LUG‘AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH VA SO‘Z TANLASH TAMOYILLARI

Lola Mukhamedova,

*O‘zbekiston Respublikasi QK Akademiyasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilni chet tili sifatida o‘qitishda lug‘at boyligini shakllantirish va darajalash masalasining dunyo tilshunosligida o‘rganilishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va ularning xulosalariga tayanib ishlab chiqilgan chet tili o‘rganuvchilarining lug‘at boyligi uchun so‘z tanlash tamoyillari, xususan, so‘zning formal hamda semantik jihatlariga asoslangan tamoyillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili sifatida o‘qitish, lug‘at boyligini belgilash, so‘z tanlash, retseptiv bilim, produktiv bilim, so‘zning chastotasi.

Lug‘at boyligi til o‘zlashtirishdagi eng muhim element hisoblanadi va umumiy til malakasini baholashda ham asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [Schmitt, Norbert, 2000]. Chet tilini o‘rganuvchilarda lug‘at boyligi nutqning har qanday turini tushunish jarayonidagi ma‘no yaratish markazi sifatida qaraladi [Halliday, Hasan, 1976]. Yillar davomida til o‘qitishda yetarli lug‘at boyligini shakllantirish uchun qancha so‘z va qanday so‘zlarni berish kerak, degan savolga turli tadqiqotlar orqali javob qidirib kelinmoqda. So‘zni tushuna olish retseptiv (passiv) bilim deb nomlanadi va bu odatda tinglash va o‘qish ko‘nikmasi bilan bog‘liq. Agar gaplashayotganda yoki yozayotganda

nutqiy maqsadimiz uchun zarur boʻlgan soʻzni ishlab chiqara olsak, u holda bunday samarali bilim koʻrinishi produktiv (faol) bilim hisoblanadi [Schmitt, Norbert, 2000].

Har qanday soʻz avvalo passiv holda oʻzlashtiriladi, keyinchalik soʻzning nutqda qoʻllanilish jarayonida uning aktiv holga keladi. Chet tilidagi lugʻat boyligini belgilash masalasiga ilk bor gʻarb tilshunos olimlari Edvard Torndayk va Ernest Horn tomonidan oʻtgan asrning 30-yillarida eʼtibor qaratilgan boʻlib, ular soʻzlarni tanlashda 2 ta tamoyilga – soʻzlarning chastotasi hamda milliy korpusdagi foiz miqdoriga asoslanganlar [Mariusz Piotr, 2021]. Xususan, Torndayk 1921-yilda “Oʻqituvchi lugʻat kitobi” ni nashr ettiradi. Unga ingliz tilining boshlangʻich darajadagi oʻrganuvchilari uchun 10.000 ta yuqori chastotali soʻzlar alifbo tartibida kiritilgan boʻlib, bu kitob oʻqituvchilarga soʻzlarning ahamiyatini baholashda va soʻzlarning darajasidan kelib chiqqan holda boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun mos matn tanlashda yordam berishga moʻljallangan edi. 10 yillik amaliy jarayonlardan soʻng 1931-yilga kelib u soʻzlar miqdorini 2 baravarga oshiradi va 20.000ga yetkazadi. 1944-yilga kelib esa bu kitob 30.000 ta faol soʻzlarni oʻz ichiga olgan mukammal lugʻat holiga kelgan hamda 1970-yillargacha boshlangʻich sinf oʻquvchilarining chet tili lugʻat boyligini shakllantirishda asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qilgan. Ernest Horn ham Torndayk foydalangan tamoyillarga asoslanib, maktab oʻquvchilari bilishi kerak boʻlgan gazeta va jurnallar matnlarida eng koʻp uchraydigan 10.000 ta soʻzlar bazasini shakllantirgan. Torndayk bazasidan farqli ravishda. Hornda 3 ta harfgacha boʻlgan va milliy korpusning eng faol 100 ta soʻzi (the, a, is, it kabi) maqsadli ravishda kiritilmagan. Uning fikricha, bu soʻzlarni bilish bolaning umumiy lugʻat boyligini belgilashda ahamiyatga ega boʻlmaydi [Mariusz Piotr, 2021]. Laurens Favket va Etsu Makilar esa yuqoridagi olimlar tuzgan roʻyxatni birlashtirib, undagi soʻzlarni nutq uchun I darajali zaruriylik, muhimlik

va foydalilik tamoyillariga asosan qayta guruhlarga bo‘lib chiqishadi. Ularning ro‘yxatidagi so‘zlar boshlang‘ich o‘rganuvchilar uchun chet tilidagi minimal lug‘at boyligini belgilashd asos bo‘lishi nazarda tutilgan. Jek Richards esa 1972–1974-yillarda olib borgan tadqiqotlarida yuqoridagi nazariyalardan farqli ravishda, bolaning lug‘at boyligini belgilashda eng muhim tamoyil sifatida so‘zning chastotasini emas, balki uning bolaning til materiallarini qabul qilishi va ishlab chiqarishdagi foydalilik darajasini ko‘rsatadi [Jack, 2001]. Chunki berilgan materiallarning 80% ini tashkil qiluvchi yuqori chastotali so‘zlarni bilish, matnning umumiy mazmunini to‘g‘ri tushunishni anglatmasligi Richardning tadqiqotlarida o‘z isbotini topadi. Shuningdek, u quyidagi 2 ta gap orasidagi farq orqali o‘z fikrini izohlaydi: *He came in and put a thing on the bed. (U ichkariga kirib kravatga bir narsa qo‘ydi). Mr. Smith shuffled into the bedroom and placed a jacket on the bunk. (Janob Smit yotoqxonaga sekin kirdi va pidjagini yotoq ustiga tashladi)* 1-gap ko‘p uchraydigan umumiy so‘zlar orqali ifodalangan bo‘lsa, 2-gap kamroq qo‘llaniladigan, ya’ni past chastotali deb baho berilgan so‘zlar orqali ifodalangan. Ammo 2-gapdan ko‘proq va aniqroq ma’lumot olish mumkin [Jack, 2001]. Demak, har qanday matni to‘liq tushunish uchun va turli vaziyatlarda aniq dalillarga asoslangan nutq materialini hosil qilish uchun yuqori chastotali so‘zlar 1000 taligi yoki 10.000 taligi asosiy o‘rinni tutmaydi. Richardning fikricha, bunday so‘zlar bazasining tarkibi o‘quvchilarning amaliy nutq jarayonidagi ehtiyojlaridan kelib chiqib muntazam ravishda o‘zgarib borishi mumkin. Richardning izlanishlari, lug‘at boyligini belgilashdagi yangi yondashuv – subyektiv yondashuvning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Obyektiv yondashuvga ko‘ra so‘zlar darslik va lug‘at tuzuvchilari tomonidan korpusga tayangan holda tanlangan [Ibrahim Mohamed Alfaki, 2015]. Subyektiv yondashuvga ko‘ra esa amaliy tadqiqot va

tajribalar jarayonida o'quvchilar tomonidan eng ko'p murojaat qilinadigan so'zlar tanlanadi. Bu yondashuv eng ko'zga ko'ringan tarafdorlari ingliz olimlari bo'lgan Gerold Palmer hamda Maykl Vest bo'lib, Palmer ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda so'zlarni leksikografik taqdim etish, ya'ni qaysi so'zlarni berish va qanday tartibda berish masalasini birinchilardan bo'lib ko'targan tilshunos hisoblanadi [Cameron, 2002]. U so'zlarning emas, so'z birikmalarining ham chastotasini aniqlab chiqadi va tilda eng ko'p foydalaniladigan (most frequently used word families) so'z birikmalari bazasini yaratadi. Uning Hornbe bilan hamkorlikda yaratgan ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun "Dastlabki bosqichda o'rganish lozim bo'lgan so'zlar" ning 1000 taligi EFL hamda ESL da uzoq yillar davomida eng ishonchli ro'yxat sifatida samarali foydalanib kelingan [Annisa, 2001]. Uning ishonchliligi shundaki, Palmer va Hornbe so'zlar ro'yxatini tuzishda qo'shimcha ravishda qayta ifodalashga asoslangan yondashuvdan foydalanishgan, ya'ni avval korpusdan tanlab olingan ma'lum bir matnlarni mualliflari tomonidan qaytadan yozdirishgan. Bunda mualliflar matnning umumiy mazmunga ta'sir qilmagan holda avvalgi so'zlar o'rniga boshqa muqobilidan foydalanib uni qayta shakllantirishgan [Jack, 2001]. Natijada aynan bir xil mazmundagi matnning ikki xil ifodasi hosil bo'lgan. Ro'yxat esa mana shu ikkala matndagi o'zaro muqobil so'zlar va so'z birikmalari orqali shakllantirilgan. Shu sababli ham, ular tuzgan ro'yxatdagi so'zlar tarkibi nisbatan kengroq foydalanish darajasiga ega bo'lgan va shu paytgacha yaratilgan eng ko'p qo'llaniladigan so'zlar ro'yxatidan farq qilgan. Chet tilini o'qitishda lug'at boyligini belgilashga muhim masala sifatida qaragan yana bir amerikalik tilshunos Paul Neyshin bo'lib, u uzoq yillar davomida tilning lug'at sathi va uni chet tili sifatida o'qitish (ingliz tili misolida) metodikasiga oid 50 dan ziyod ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Neyshin 1993-yilgi tadqiqotida til o'qitishda ma'lum darajalar uchun

zarur boʻladigan lugʻat boyligini belgilash, bunda soʻzlarning miqdori va sifatiga eʼtibor qaratish muhimligini taʼkidlab oʻtgan. Shuningdek, ushbu tadqiqot davomida Britaniya milliy korpusi asosida eng koʻp foydalaniladigan 2000 ta soʻz va soʻz biriklamalaridan iborat yuqori chastotali soʻzlar bazasini ham yaratgan. Lugʻat boyligini darajalash masalasini chuqur oʻrgangan yana bir tilshunos olim Jek Richardsning tadqiqoti esa bu sohadagi soʻnggi 20 yil davomida qilingan eng yaxshi ilmiy ishlardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Muallif 2001-yilda eʼlon qilgan “Til oʻqitishda oʻquv dasturini ishlab chiqish” nomli doktorlik ishining 1-bobida aynan lugʻat boyligini belgilash va oʻquv dasturlari uchun soʻz tanlash masalasiga alohida toʻxtalib oʻtadi. Uning 2006-yilgi tadqiqotida esa 2-tilda oʻqib tushunish va eshitib tushunish uchun qancha lugʻat boyligi zarur boʻlishi kerakligi tajribalar asosida yoritilgan [Nation, 2006].

Keyinchalik 2012-yilda Laufer hamda Neyshinlar chet tili soʻz boyligi uchun eng muhim boʻlgan 3 tamoyilni – soʻzning chastotasiga, foydaliligiga hamda oʻrganuvchanlik darajasiga asoslangan tamoyillarni taklif qilishdi [Laufer, Nation, 1995]. Shunga oʻxshash boshqa tadqiqotlarda esa lugʻat boyligini belgilash masalasi 4 lisoniy malaka bilan bogʻliq holda oʻrganilgan. Xususan, lugʻat boyligining oʻqib tushunishdagi tadqiqi 2017-yilda Laufer va Aviad Levidskiy, eshitib tushunishdagi tadqiqi 2018-yilda Noreilla, Kestemont, Geylen, Desmet va Peters, yozma nutqdagi tadqiqi 2011-yilda Skunen, Van Geldere, Stoel, Hulsteyshn va De Glopper, ogʻzaki nutqdagi tadqiqi esa 2013-yilda Koizumi va Innami kabi gʻarb tilshunoslari tomonidan oʻrganilgan. Bu kabi oʻtkazilgan tadqiqotlarga qaramasdan, chet tili oʻrganuvchilari uchun lugʻat boyligini darajalash masalasi toʻliq tadqiq etilmagan boʻib, bahsli oʻrinlari hanuz mavjud [Webb, Chang, 2012]. Demak, tilni chet tili sifatida oʻqitishda lugʻat boyligini belgilash masalasi nafaqat oʻzbek tilshunosligida, balki dunyo amaliy tilshunosligida ham dolzarb mavzu

bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish masalasi so‘nggi 10 yilda nisbatan kengroq o‘rganila boshlandi. Xususan, o‘zbek tilshunoslari orasidan bu sohada qilingan sanoqli ilmiy ishlardan biri Rustam Yo‘ldoshevning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” (ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda) hamda “O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtish orqali o‘stirish” nomli monografiyalaridir. Ushbu tadqiqotlarda muallif g‘arb amaliy tilshunosligida N.N.Jilko tomonidan ishlab chiqilgan o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish uchun so‘z taqdim qilish mezonlarini tahlil qiladi hamda o‘zbek tili uchun amal qilinishi muvofiq bo‘lgan lug‘at minimumini tuzish haqida o‘z mezonlarini ham taklif qiladi [Йўлдошев, 2012].

So‘zlarning formal jihatlariga asoslangan tamoyillar. Chet tilini o‘rganuvchilar uchun lug‘at boyligini darajalash va so‘z tanlashning ilmiy tamoyillari rus tilshunosi I.V. Rakhmanov tomonidan o‘tgan asrning 70-yillarida ishlab chiqilgan. Natijada o‘sha davr o‘rta maktablarida ingliz, nemis va fransuz tillarini chet tili sifatida o‘rganuvchilar uchun ilk lug‘at kitobi namunalari nashr etildi [Рахманов, 1980]. Bu lug‘at kitobida so‘zlar 2 ga ajratilgan holda berilgan edi: 1) Reproduktiv foydalanish uchun so‘zlar (Active vocabulary) 2) Retseptiv foydalanish uchun so‘zlar (Passive vocabulary) [Cameron, 2022] Keyinchalik “Eng ko‘p qo‘llaniladigan ingliz, nemis va fransuz tillaridagi so‘zlar” nomi bilan nashr etilgan yangi lug‘at kitobida esa o‘rganuvchilar talabidan kelib chiqqan holda leksik ma’lumotlar soni qisqartirilib, frazeologizmlarga ham o‘rin ajratildi. Bunda so‘z tanlashning yangi ishlab chiqilgan tamoyillaridan foydalanildi. Rakhmanov tomonidan yaratilgan tamoyillar ham aktiv hamda passiv lug‘at boyligini belgilash uchun 2ga ajratilgan holda berilgan: Aktiv lug‘at boyligi uchun:

1) Tematik(mavzuviy) tamoyili – soʻzlarning kundalik hayotimizda uchratishimiz mumkin boʻlgan aniq nutqiy vaziyatlardagi zaruratiga koʻra tanlash. Masalan, maʼlum yoshdagi oʻquvchilar uchun biznes mavzusiga oid boʻlgan soʻzlarni berish mantiqqa zid, chunki ular bu leksikondan oʻz nutqiy vaziyatlarida foydalanish ehtimoli deyarli yoʻq. Yaʼni oʻquvchilar berilgan soʻzlarni oʻzlashtirgani bilan ularni nutqda faollashtira olmaydilar.

2) Sinonimlardan xolilik tamoyili – bu tamoyil sinonimik qatorga ega boʻlgan soʻzlarning dominantini tanlashni nazarda tutadi. Masalan, oʻzbek tilini chet tili sifatida oʻrganuvchilarga dastlabki bosqichda *koʻk-fazo-samo-osmon-falak-koinot* soʻzlaridan osmon soʻzini berish maqsadga muvofiq.

3) Maxsus terminlardan xolilik tamoyili – bu tanlanadigan soʻzlarning sof ilmiy atamalardan, faqat maʼlum bir ilm-fanning cheklangan doirasida foydalaniladigan soʻzlardan holi boʻlishini nazarda tutadi

4) Tavsiflovchilik (izohlovchilik) tamoyili – bu gʻarb tilshunos olimi M.Vest ishlab chiqqan tamoyillarning biri boʻlib, bunda tanlanadigan soʻzning boshqa soʻzlarni tavsiflashda, izohlashda qanchalik koʻp qoʻllanilishi muhim. Passiv lugʻat boyligi uchun esa quyidagi tamoyillar taklif qilinadi:

1) Semantik kombinatsiya tamoyili – boshqa soʻzlar bilan maʼnoviy valentlikka ega boʻlishni nazarda tutadi.

2) Uslubiy xoslanmaganlik (neytrallik) tamoyili – barcha nutq uslublarda birdek qoʻllana oladigan soʻzlarni tanlashni nazarda tutadi.

3) Maʼnoviy va shakliy jihatdan aniqlilik tamoyili – bu soʻzning maʼnosini izohlashdagi osonlikni va yasama soʻzlardagi shakl kombinatsiyasini tushunish koʻnikmasini nazarda tutadi.

4) *Ko‘p ma‘nolilik (polisemiya) tamoyili* – ko‘p ma‘noli so‘zlarni berishni nazarda tutadi va bu orqali lug‘at boyligini avtomatik ravishda boyitishga erishish mumkin.

5) *So‘zning chastotasiga (qanchalik ko‘p qo‘llanilishiga) asoslangan tamoyil* – so‘z tanlashdagi eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib, bundakundalik hayotdagi nutqiy vaziyatlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar ro‘yxati tuziladi va o‘qitish davomida avval shu so‘zlardan berib boriladi. Keyingi tadqiqotlarda esa ushbu tamoyillar asosiy hamda qo‘shimcha turlarga ajratilgan holda tavsiflangan. Bunda asosiy tamoyillarga so‘zning semantic xususiyatlariga oid bo‘lganlari, qo‘shimcha tamoyillarga esa so‘zning formal jihatlariga oid bo‘lganlari olingan [Stuart, 2008]. AQShlik tilshunos olim Endry Shkera chet tilini o‘zlashtirishda quyidagicha shakllangan so‘zlar qiyin o‘zlashtirilishini aniqlagan: – *so‘z yasalishi va ko‘plik ma‘nosining hosil qilinishidagi noodatiy tartib*. Bu asosan flektiv tillarga xos jihatdir. Chunki, ularda ba‘zi otlarning ko‘pligi alohida ko‘plik shakli orqali emas, so‘z asosining qisman yoki butunlay o‘zgarishi orqali hosil qilinadi. – *yasovchi qo‘shimchalarsiz, ya‘ni tub bo‘lgan so‘zlar*. Odatda bunday so‘zlar aniq ma‘noga ega bo‘ladi va bunday so‘zlarni o‘zlashtirish ularning ma‘nolarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilish orqali amalga oshirishni talab qiladi. Yasama so‘zlarda esa har bir ma‘no qo‘shimchalar vositasida yuzaga chiqadi, ya‘ni har bir yasovchi shakl alohida yangi ma‘no hosil qilishda yordam beradi. Shuningdek, notanish bo‘lgan yasama so‘zlarning ma‘nosini uning shakliga asoslanib tahmin qilish orqali ham bilish mumkin. Tub so‘zlarda esa bu imkoniyat mavjud emas. – *so‘z shakllarini nutqqa olib kirganda ularning shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi kategoriyalarda tuslanishi*. Aslida ko‘p tillar grammatikasiga xos bu jihat til o‘zlashtirishda, xususan so‘zlarning tushunilishidagi asosiy qiyinchilik hisoblanadi [Stuart, 2005]. So‘z o‘zlashtirishdagi bunday qiyinchiliklar lug‘at boyligini belgilashda

soʻzlarning yuqorida sanab oʻtilgan formal jihatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish kerakligini anglatadi. Xulosa sifatida aytganda, lugʻat boyligini belgilashda soʻz yasalişidagi aniqlik va soʻzning yasaliş jarayonlaridagi faol ishtirok etishi soʻzlarning formal jihatlariga asoslangan tamoyil sifatida yuzaga chiqadi.

Soʻzlarning semantik xususiyatlariga asoslangan tamoyillar. Har bir tilning oʻz egalari tomonidan foydalaniladigan katta miqdordagi lugʻat boyligi mavjud. Ammo bu soʻzlar orasidan mazkur tilni chet tili sifatida oʻrganuvchilar uchun qanchasini va qaysi birini berish esa amaliy tilshunoslikdagi eʼtiborga molik boʻlgan alohida masaladir. 90-yillarga kelib avstraliyalik olim Paul Neyshin chet tilidagi lugʻat boyligini belgilash tamoyillarni takomillashgan variantini yaratadi.

Unga koʻra chet tili oʻrganuvchilari uchun dastlabki bosqichda taqdim etilayotgan soʻzlar quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- 1) soʻz chastotasining yuqoriligi;
- 2) boshqa soʻzlar bilan oson birika olish – *katta uy, katta maqsad, katta kishi*
- 3) uslub jihatdan xoslanmaganlik – barcha uslublarda birdek qoʻllana olish – *kerak, gʻolib boʻlmoq, chiroyli* (masalan, *zarur, zafar quchmoq, sohibjamol* soʻzlari faqat badiiy uslubga xos);
- 4) oʻquv dasturlariga kiritilgan mavzularga aloqadorlik;
- 5) soʻz yasaliş jihatidan keng imkoniyatga egalik – masalan, *gulli, gulchi, guldon, gulkor* soʻzlari gul soʻzidan hosil boʻlgan yangi soʻzlardir.

Neyshin yuqoridagi tamoyillarning dastlabki 4 tasini soʻzning semantic jihatlariga asoslangan tamoyil, 5-sini esa formal jihatlariga asoslangan tamoyil sifatida beradi.

2012-yilda Neyshin Laufer bilan hamkorlikda soʻz tanlashning tamoyillarini boshlangʻich oʻrganuvchilarga moʻljallangan variantda ham yaratishdi:

- 1) *yuqori chastotalilik;*
- 2) *nutq jarayonlarida foydalilik;*
- 3) *o'zlashtirish uchun osonlik.*

Bundan ko'rinadiki, boshlang'ich o'rganuvchilar uchun beriladigan so'zlar avvalo nutqda faollashtirilishi kerak. Paul Neyshinning ta'kidlashicha, chet tiliga o'qitishda lug'at boyligini shakllantirish uchun, dastavval, yuqori chastotali, keyingi bosqichlarda esa ehtiyojga ko'ra pastroq chastotali so'zlarni berib borish lozim [Nation, 1990]. O'tkazilgan tadqiqotlar davomida so'z boyligini darajalashda eng muhim tamoyil so'zning chastotasi ekanligi aniqlandi va endigi masala har bir so'zning chastotasini aniqlash edi. Bunda so'z ishtirok etgan kontekst qanday material turiga xos ekanligi nihoyatda muhimdir. Chunki bolalar kitoblaridagi va ilmiy-tadqiqot jurnallaridagi matnlarning kontenti bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli ham bunday materiallardagi so'zlarni tahlil qilish befoйда bo'ladi.

So'zlarning dastlabki chastotalarini aniqlash maqsadida Li hamda Richards optimal yechim sifatida ommabop matnlardan foydalanishgan. Ularning so'z chastotasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlari yana bir qiziq natijani kelib chiqargan. Tajriba yakunida tuzilgan 3000 ta eng yuqori chastotali so'zlar ro'yxati kundalik matnlarda ishlatiladigan faol so'zlarning 85% qismini tashkil qilgan va bu ko'rsatkichni atigi 1% ga oshirish uchun esa yana qo'shimcha 6000 ta so'z lozim bo'ladi. Bundan tashqari, matnlardagi so'zlarning deyarli yarmi faqat bir marta uchrashi ham aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, matnda uchragan chastotasi yuqori so'zlarga mansub bo'lmagan har bir so'z matnning tushunilish foizini sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, matndagi 85% so'zlarni bilish matnni 85% tushuna olishni anglatmaydi. Chunki ko'p hollarda matnning asosiy mazmunini qolgan 15% miqdoridagi chastotasi pastroq bo'lgan so'zlar yangi ma'lumotlarni berish orqali ifoda etadi [Jack, 2001]. Demak, so'z o'zlashtirilishida so'z ma'nosini aniq va to'g'ri

anglash undan nutq jarayonida samarali foydalanish darajasini oshiradi. Shu sababli ham tilshunoslar soʻz tanlashda asosiy tamoyil sifatida soʻzlarning semantik jihatlariga asoslangan tamoyillarga tayanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Annisa. A., Techniques in presenting vocabulary to young EFL learners. Journal of English and Education, 1(1). 2013

2. Мухамедова Л. Д. Заимствованный термин как единица термин системы (Теоретические исследования в области терминологии). Хорijiy tillarni oʻqitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar, 110.

3. Мухамедова Л. Д. Галлицизмы в военной терминологии английского языка: заимствования с французского и проблема перевода. In Образование и культура (pp. 193-196). 2020.

4. Мухамедова Л. Д. (2019). Управление самостоятельной учебной деятельностью курсантов в процессе обучения иностранному языку в военном вузе. Integration of information technologies and foreign languages in globalization, 407.

5. Laufer B. & P. Nation. A vocabulary size test of controlled productive ability. Language Testing. 1999.

6. Неъматов Х.Г., Фуломов А.Қ., Зиёдова Т.У. Сўз бойлигини ошириш. – Тошкент, 1997.

ЗНАЧЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ АУДИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

*Мусаджанова Гулчехра Абдуманоповна,
старший преподаватель университета Oriental*

Аннотация. Аудирование - важный языковой навык, который необходимо развивать при изучении второго языка. Несмотря на

его важность, изучающие язык считают, что аудирование является самым сложным языковым навыком для овладения. Поскольку роль понимания на слух в преподавании языка неоднократно подчеркивалась, но многие учителя не уделяют достаточного внимания его важности на своих занятиях. В этой статье исследователи рассматривают некоторые важные вопросы, касающиеся понимания на слух, чтобы обеспечить основу для развития навыков аудирования при преподавании русского языка. Оно начинается с определения аудирования и понимания на слух, краткого обсуждения причин, стратегий, техник и целей прослушивания.

Ключевые слова: Аудирование, обучение, языковые навыки, навыки преподавания и овладение языком.

Аудирование занимает важное место в обучении, поскольку это один из четырех основных навыков в овладении языком. Несмотря на то, что другие навыки, такие как чтение, разговорная речь и письмо, необходимы для развития владения языком, аудирование в первую очередь способствует приобретению языковых знаний. Слушание пробуждает осознание языка, поскольку это навык восприятия, который впервые развивается у человека. Умение слушать на изучаемом языке улучшает языковые способности. Звук, ритм, интонация и ударение в языке может быть идеально адаптирован только с помощью аудирования. Чтобы понять нюансы того или иного языка, нужно уметь слушать. По мере того как мы начинаем понимать разговорную речь на слух, нам становится легче совершенствовать другие навыки и обретать уверенность в себе. Помимо того, что аудирование является основной формой общения, оно помогает учащимся понять истину языка. Особенно с точки зрения обучения коммуникативного

языка, считается, что основной компетентности является аудирование, поскольку оно обеспечивает слуховой вклад и позволяет учащимся взаимодействовать в устной коммуникации.

Таким образом, аудирование формирует конкретную основу для полного владения языком. Аудирование - наиболее важная часть общения, поскольку оно играет ключевую роль в обеспечении содержательного ответа. [1]. Кроме того, каждое исследование, проведенное по приобретению языковых навыков, доказало, что когда мы общаемся, мы приобретаем 45% языковой компетенции за счет аудирования, 30% - за счет говорения, 15% - за счет чтения и 10% - за счет письма. При самом высоком проценте вовлеченности в обмен информацией при эффективном общении - аудирование следует считать предшественником языка.

Согласно Ягангу, проблемы при прослушивании сопровождались четырьмя следующими факторами: сообщением, говорящим, слушателем и физической обстановкой. [2] Считалось, что проблемы вызваны скоростью речи, словарным запасом и произношением [3]. Как предположили Flowerdew & Miller, проблемы студентов были связаны со скоростью изложения, новой терминологией и концепцией, трудностями в сосредоточении внимания и физическим окружением. [4]

Основными причинами, по которым учащимся трудно слушать, являются:

- отсутствие усилий для понимания каждого слова во время прослушивания

- неспособность или лень постепенно наращивать свой словарный запас, и это в значительной степени отражается на аудировании и сдерживает их в приобретении языковых навыков.

- у слушателей возникают проблемы с разным произношением, ударениями, поскольку они придерживаются одной конкретной артикуляции.

- способность слушателя к концентрации или выносливость к слушанию сильно влияют на его восприятие

Аудирование обычно вызывает тревогу и стресс у учащихся, поскольку оно включает в себя межличностные и интерпретирующие способы общения, в которых студент должен активно участвовать. Главным образом, в отличие от других языковых навыков, это не зависит от обучающегося и может выполняться с переменной скоростью, поскольку слушатель не полностью контролирует все настройки.

Стратегии аудирования - это методы или действия, которые непосредственно способствуют запоминанию информации, полученной при прослушивании, их можно в широком смысле классифицировать как стратегии "сверху вниз" и стратегии "снизу вверх".

Нисходящие стратегии основаны на слушателе; учащийся полагается на фоновые знания темы, контекст, тип текста и язык, и они помогают слушателю интерпретировать услышанные идеи.

Нисходящие стратегии предназначены для того, чтобы

- прислушиваться к основной идее
- прогнозировать
- сделать выводы
- подвести итоги

Стратегии "снизу вверх" заключаются в том, чтобы

• концентрироваться на конкретных деталях во время прослушивания

- распознавать закономерности в порядке слов.

Но понимание на слух не ограничивается обработкой "сверху вниз" или "снизу вверх", это должен быть интерактивный процесс интерпретации, в котором студенты могли применять как свои предварительные знания, так и лингвистические познания для понимания сообщений.

Когнитивные стратегии - это умственная деятельность по использованию языка для выполнения задачи, которая включает в себя использование определенных методов для решения учебной задачи, таких как объяснение и дедукция.

Социально-эффективные стратегии включают сотрудничество с другими учащимися или учителем для получения объяснений и использование определенных методов для уменьшения опасений. Они включают в себя такие действия, как расспросы с целью получения разъяснений, сотрудничества, уменьшение беспокойства и самоподавления.

Учителя несут большую ответственность на своих занятиях, и они могут оказать большое влияние на своих учеников, создав дружескую атмосферу. Хармер (1991) и Мачачкова (2009) сказали, что существует восемь основных ролей для учителей:

- Учитель как организатор, в этой роли они должны объяснять, что хотят делать их ученики, давать четкие инструкции и полезную обратную связь студентам. Учителя также готовят уроки аудирования и дают наглядные рекомендации своим ученикам.

- Учитель в качестве контролера. Обязанностью учителя является организация того, что должны делать учащиеся и определять на должны обращать внимание на этапах прослушивания. [5]

- Учитель как оценщик. Преподаватели оценивают своих учеников и дают им отзыв об их успеваемости и рекомендации по совершенствованию навыков и помогают им справиться с

трудностями, особенно с незнакомой лексикой или грамматическими шаблонами.

- Учитель как тьютор. Они выступают в роли тренера и ресурса, и помогают своим ученикам развивать идеи на каждом этапе и прогнозировать недостающую информацию. [6]

Согласно Полстону и Брудеру, уроки аудирования преследуют определенные цели, и все учителя и учащиеся должны быть осведомлены о них. Они заключаются в следующем:

1. Уроки аудирования должны быть тщательно и постепенно спланированы так как упражнения прогрессируют от простого к более сложному по мере того, как учащиеся овладевают языком.

2. Занятия аудирования должны требовать активного участия учащихся. Участие студента - это его / ее письменный ответ на материал для понимания на слух и немедленная обратная связь по успеваемости, которая может поддерживать интерес и мотивацию студентов.

3. Также такие занятия должны обеспечивать коммуникативную необходимость запоминания для развития концентрации и должны быть сосредоточены на задаче сознательного запоминания. [7]

Одной из целей аудирования является укрепление памяти учащихся, чтобы увеличить объем их памяти. "Слушать - значит получать, для получения нужно думать, а для мышления нужна память. Невозможно разделить слушание, мышление и запоминание. [8]

В заключение можно сказать, что без навыков аудирования изучение языка невозможно. Это происходит потому, что там, где нет человеческого взаимодействия, нет коммуникации. Кроме того, аудирование имеет решающее значение не только при изучении языка, но и при изучении других предметов.

Но даже сегодня, при всех технологических достижениях в области образования, учащиеся испытывают проблемы со слушанием. Основными причинами являются: они тратят слишком мало времени на совершенствование своих навыков аудирования; неподходящие стратегии, опробованные на них в условия обучения могут быть важной причиной их плохого понимания на слух. [9]

Позитивное и эффективное использование стратегий влияет на самооценку учащихся, их убеждения и отношение к пониманию на слух. В этом документе указывалась важная роль учителей, стратегии аудирования и методы улучшения понимания учащимися на слух. В этой статье исследователи пришли к выводу, что, если учащиеся хотят улучшить свои навыки аудирования, они должны много практиковаться на изучаемом языке. Учителя должны играть важную роль в обучении стратегии учащихся и способы их применения в задании на аудирование. Они могут помочь учащимся разработать обоснованные стратегии понимания с помощью процессного подхода к обучению аудирования. [10]

Учителя должны предоставлять учащимся возможность слушать речь носителей языка, выбирать тексты для прослушивания, которые произносятся не носителями языка, чтобы они могли развить свои навыки аудирования и не разочароваться. Когда учащиеся развивают свои навыки аудирования до определенного уровня, учителя могут выбирать тексты, произносимые носителями языка, в качестве учебных материалов и занятий. Подходящее обучение пониманию на слух может снизить восприятие на слух и обеспечить хорошую основу для того, чтобы стать самостоятельными учащимися, которые могут эффективно использовать процесс аудирования для обучения. Наконец, можно сделать вывод, что руководство учащимися в процессе аудирования дает им знания, с помощью которых они могут успешно выполнять

упражнение по аудированию, и позволяет им контролировать свое обучение.

Литература:

1. Крум Хелм Кросс, Д., Преподавание английского языка, Оксфорд: Издательство Оксфордского университета. 1998

2. Яганг Ф., Аудирование: проблемы и решения. В книге Т. Краля (ред.) Учитель Развитие: Совершение правильных шагов. Вашингтон, Округ Колумбия: Английский язык, Отделы программ, USIA 1994

3. Хиггинс, Дж.М.Д., “Облегчение аудирования в классах второго языка посредством манипулирования временными переменными”, Неопубликованная докторская диссертация, Кентский университет в Кентербери. 1995

4. Флауэрдью, Дж. и Миллер, Л., “Восприятие учащимися, проблемы и стратегии понимания лекций на втором языке”, RELC Journal 23 (2), стр.60–80. 1996,

5. Хармер, Дж. Практика преподавания английского языка. Новое изд. Нью-Йорк: Лонгман. (1991).

6. Мачачкова, Е. Обучение аудированию. Диплом бакалавра, кафедра английского языка и литературы педагогического факультета Брненского университета имени Масарика. (2009)

7 Ридли, Д.С., Шутц, П.А., Гланц, Р.С. и Вайнштейн, К.Э., 1992, “Саморегулируемое обучение: интерактивное влияние метакогнитивной осведомленности и постановки целей”, Журнал экспериментального образования 60 (4), стр.293-306.

8. Андерсон, Н.Дж., “Роль метапознания в преподавании второго языка”, ЭРИК Дайджест, 04 / 2002, стр. 3-4.

9. Мендельсон Д., 1998, “Обучение аудированию”, Ежегодный обзор прикладных, Лингвистика, 18, с.81-101.

10. Венден, А., 1986, “Что изучающие второй язык знают о своем изучении языка? Второй взгляд на ретроспективный отчет”, применяемый Лингвистика 7 (2), с.186–205.

TEACHING STRATEGIES FOR LEARNERS WITH SOCIAL AND EMOTIONAL NEEDS

*Abdullayeva Zakhro Shadmankulovna,
Senior teacher of the Department of
Western language, Salogues, Oriental university*

Annotation. Teachers are the driving force behind social and emotional learning (SEL) initiatives in classrooms, and they have a significant impact on students’ social-emotional welfare and competence. Classrooms with positive teacher-student interactions encourage students’ deep study and fruitful social and emotional growth.

Keywords: social and emotional learning (SEL), teacher-student interactions, emotional language, self-confidence, activities, empathy, problem-solving skills

Every learner’s wellbeing benefits from developing social and emotional competence. They are better able to concentrate on their educational tasks when they feel socially and emotionally supported. Parents and carers can benefit from using essential oils, meditation, and breathing exercises as some of the finest solutions for enhancing mental wellness. [1]

In the meanwhile, teachers use a few instructional techniques to support students’ social and emotional needs. The method a teacher uses to teach social-emotional skills is crucial to a learner’s comprehensive and balanced education.

In the present homeroom, educators are not just showing thorough scholarly guidelines planning for vital far reaching evaluations, and meeting cosmic authoritative necessities, yet we are currently getting over one more mountain that has as of late been tended to understudies' feelings, explicitly in the space of adapting abilities. Whether this is on the grounds that the establishment at home isn't there, the invasion of innovation and absence of human communication, or various different reasons, numerous understudies today don't have the foggiest idea how to adapt to testing circumstances.

Be Attentive to Every Student's Needs

Pay close attention to the social and emotional needs and abilities of each student. Construct your lessons and interventions to support the growth of these abilities. A student going through a challenging time in life may find confidence in your presence and your attention as a teacher. Giving them encouraging attention is crucial for their development and self-perception. As you gain their trust, lead them and assure them of your assistance. For some students to feel confident and secure, further support can be necessary. Make sure their social and emotional needs are met in the classroom environment.

Enhance emotional literacy

The ability to recognize, comprehend, and express emotions in a healthy way is referred to as emotional literacy. Students that are emotionally literate perform better in school, according to studies (1).

It may be challenging for students to describe their emotions if they are not taught how to express themselves emotionally. They might also have trouble empathizing with other people's emotions.

To improve students' self-worth, build their confidence, and promote emotional self-management over impulsive behavior, emotional literacy education is crucial.

Here are a few things you can do to improve emotional literacy in every child:

- Identify and model positive and negative emotions. Demonstrate how important it is for students to learn these emotions and how to express them appropriately.

- Help students learn how to identify their own and others' emotions. Give them a situation and ask them how they would react if they were there.

- Encourage students to talk about their emotions. Allow them to express their feelings in a positive way.

- Listen to your student and give them your full attention.

- Help them find ways to calm down. For example, they can squeeze a stress ball to calm down or write a letter to someone they are upset with. This helps them find a healthy way to express their negative emotions.

Students learn how to interact with others, relate to them, and work with them through friendships. They also learn how to share, work together, take turns, and handle conflict. To help students develop these skills, you can model them through their interactions with you and other adults. You can also plan activities to teach them how to help others, share, wait for someone else's turn, and work together. You can also make comments about students who help each other and encourage others to do the same, and you can use a buddy system to encourage support and collaboration. Finally, you can have students work together in a group setting to help them learn how to negotiate, lead, and use their strengths to help the group.

Teaching empathy is all about helping students learn how to recognize and understand the emotions of others. As a teacher, it's important to help students become aware of their own emotions and use that to understand others. To do this, model and reinforce different empathy behaviors, do "alike" and "different" activities to show how interconnected and unique people are, encourage students to be aware of how their peers feel, and give them opportunities to check on each other. Role-playing and role-reversals are also great ways to teach students how to think of themselves in other people's situations. [2]

Foster Critical thinking Abilities

Critical thinking and compromise are fundamental abilities in fostering understudies' social-close to home skill.

At the point when an issue emerges, show understudies how to deal with the circumstance suitably and track down an answer. It will assist with diminishing any imprudent way of behaving or animosity.

Here are a few methodologies to foster understudies' critical thinking abilities:

- Recognize the issue. Expressing the issue out loud can some of the time significantly impact an understudy who is feeling stuck or overpowered.
- Assist understudies with leveling up their critical thinking abilities by permitting them to think and create numerous answers for normal study hall challenges.
- Energize conceptualizing. Indeed, even a senseless thought or implausible response is a potential arrangement.
- Perceive and give criticism to students who have been "great issue solvers."

- Instruct understudies that each arrangement has its result. Pretending exercises might assist understudies with understanding this illustration better.

Research has demonstrated the way that instructors can encourage positive understudy educator connections and make strong and caring study hall conditions, and that when they really incorporate SEL programs into their training, their understudies have better outcomes. We know less about the instructor's job when it comes to dysfunctional behavior and social, close to home, what's more, conduct issues among understudies.

Educators are interestingly arranged to perceive critical change issues or recognize normal problematic ways of behaving. However, most instructors feel ineffectively ready to handle such issues since they need information and abilities in the space of psychological well-being and/ or on the other hand homeroom the board.

Social and close to home learning (SEL) mediations look to further develop students' thinking abilities, association with others and their self-administration of feelings, instead of zeroing in straightforwardly on the scholar or mental components of learning.

References:

1.Chew, B. H., Zain, A. M., & Hassan, F. (2013). Emotional intelligence and academic performance in first and final year medical students: a cross-sectional study. BMC medical education, 13(1), 44.

2.Berkeley.edu. Greater Good Magazine. (Accessed 2020). [What is Empathy?](#)

O‘ZBEK VA INGLIZ LEKSIKOGRAFIK MANBALARIDA “OTA” VA “FATHER” KONSEPTLARINING TALQINI

*Nizamova Salomat Usmanovna,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatining ba’zi asosiy tushunchalarini solishtirishga harakat qilindi. Maqolada ko‘rib chiqilayotgan lisoniy madaniyatlaridagi “ota” va “father” tushunchalarining mazmuni va tuzilishi qiyoslandi. Tahlil izohli, sinonimik va etimologik lug‘atlar asosida amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: oilaviy qadriyatlar, mentalitet, milliy xarakter, izohli, etimologik lug‘atlar, ota, father.

Oila – jamiyatning muhim ijtimoiy institutidir. U insonga butun umri davomida hamroh bo‘ladi, shaxsiy qadriyatlar va hayotiy munosabatlarni shakllantiradi. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarni o‘rganish juda dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniyatning umumiy xususiyatlarini va xususan, oilaviy qadriyatlarni bilish sizga yuqori sifatli madaniyatlararo aloqalarni o‘rnatishga, o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, “ota” va “father” insonning oilaviy qadriyatlar tizimini tashkil etuvchi asosiy konseptlardan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarida so‘zlashuvchi lingvistik madaniyatlarda ushbu konseptlarning mazmunini ochib berishdir. Ishda konseptual va lingvistik tahlil usullari, lingvistik birliklarni komponentli tahlil qilish usuli qo‘llanilgan.

Har bir milliy madaniyatning muhim jihati bu mentalitet tushunchasidir. “Mentalitet – har bir xalqning, har bir milliy hamjamiyatning qadriyatlar tizimi, qarashlari, dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, xulq-atvor normalari, o‘ziga xos munosabatlari uchun

xarakterlidir” [10. B. 91]. Har qanday xalqning tilini o‘rganish orqali uning mentalitetining mohiyatini ochib berish mumkin. Buning uchun xalqlarning ommaviy ongiga xos bo‘lgan va o‘zining lingvistik aksini topgan ideallar, urf-odatlar, his-tuyg‘ular va hokazolarni o‘rganish lozimdir. Rus lingvisti V.N.Teliyaning fikricha, mentalitetga qarab lisoniy belgilarning talqini ham o‘zgaradi [9. S. 217].

O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq holda bunday tushunchani milliy xarakter sifatida ko‘rib chiqish muhimdir. Sotsiolog K. O. Kasyanovning ta’rifiga ko‘ra, milliy xarakter “ichimizdagi jamiyat”, bir xil madaniyatli odamlar uchun bir xil bo‘lgan his-tuyg‘ular va holatlar ko‘rinishidagi tanish vaziyatlarga reaksiyalar shaklida mavjuddir” [1. S. 26]. Demak, milliy xarakter ma’lum bir jamiyatga xos bo‘lgan barqaror, takrorlanuvchi shaxs fazilatlari majmuini nazarda tutadi. Etnik milliy xarakterning xususiyatlarini tushunish milliy tilni o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday fikr-mulohazalar ko‘pgina tilshunos olimlarning asarlari uchraydi. Milliy qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini turli leksikologik manbalar – lug‘atlar va tezauriyalarni tahlil qilish orqali aniqlash mumkin.

O‘zbek va ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatdagi “ota”/“father” tushunchalarining mazmuni sinonimik, izohli va etimologik lug‘atlarida o‘z aksini topgan. O‘zbek va ingliz tillaridagi “ota” leksemasining mavjud ta’riflarini aniqlash uchun maqolada o‘zbek va ingliz tillarining leksikografik manbalariga murojaat qilinib, tahlilga tortildi, o‘zbek va ingliz tillarida “ota” va “father” tushunchalarining mazmuni va sinonimlarini ko‘rib chiqaylik.

1981 yilda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ota” so‘zining ta’rifi quyidagicha bayon etilgan: 1. Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan). O‘z (*tuqqan*) ota. O‘gay ota. Qayin ota. // Ota kasb. Ota meros. “Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas” (Maqol). **Otasi** – xotinning o‘z eriga murojaat etish formasi; 2. Yoshi katta kishilarni

hurmatlash uchun ishlatiladi. “*Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi*” (Maqol). O‘g‘il bolalarni erkalatish uchun ishlatiladi; 3. Ko‘chma. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi. “*Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining otasidir*”; 4. Mehribon boshliq, rahnamo. El-yurtga boshchilik qiluvchi yoki mansabi ulug‘ zot. **Bir otangga, bir onangga** sansolarlikni ifodalash uchun ishlatiladi. **Otangga raxmat** kimsadan mamnuniyatni ifodalovchi olqish iborasi. “**Otang yaxshi, onang yaxshi**” **qilib** yalinib-yolvorib; olqab-maqtab [11. I. B. 547] ma’nolarida berilgan.

2006-2008 yillarda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ota” so‘ziga – 1. Farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan). “*Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas*” (Maqol). **Ota kasb** – Ota shug‘ullangan kasb (farzandga nisbatan). **Ota yurt** (yoki **makon**) – Ota tug‘ilgan, o‘tib ulg‘ayib yashagan joy. **Otasi** – xotinning o‘z eriga murojaat etish shakli. **Qayin ota (qaynota)** – er-xotinning otalari (erga nisbatan xotinning otasi yoki xotonga nisbatan erning otasi); 2. Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi; 3. O‘g‘il bolalarni erkalatish uchun ishlatiladi; 4. Ko‘chma. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi; 5. Ko‘chma. Mehribon boshliq, rahnamo; 6. El-yurtga boshchilik qiluvchi yoshi yoki mansabi ulug‘ zot. **Bir otangga, bir onangga** sansolarlikni ifodalash uchun ishlatiladi. **Otangga raxmat** kimsadan mamnuniyatni ifodalovchi olqish iborasi. “**Otang yaxshi, onang yaxshi**” **qilib** yalinib-yolvorib; olqab-maqtab [12. III. B. 151-152] ma’nolari keltirilgan.

O‘zbek tilida “ota” so‘zining bir qancha sinonimlari mavjud bo‘lib, ular: dada, padar, ada kabilardir. So‘zlashuv tilida biz otajon, dadajon, adajon, padari buzrukvor, otaxon kabi hurmatlash so‘zlarini ham uchratamiz.

Endi ingliz tilidagi “father” birligining sinonimik qatorini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Oksford sinonimlari lug‘ati so‘zning ma‘nosiga qarab “father” uchun juda ko‘p ekvivalentlarni taklif qiladi.

Father — sire (ota), paterfamilias (oila boshi/oila otasi), so‘zlashuv varianti: dad (otajon), daddy (dadajon), ra (ota), papa (ota), ror (ota), oíd man (qariya, qari kishi), oíd boy (qariya, qari yigit), forebear (ajdod), ancestor (ajdod), forefather (ajdod), progenitor (ajdod), primogenitor (ajdod), creator (yaratuvchi), founder (asoschi), originator (yaratuvchi), inventor (kashfiyotchi), author (muallif), architect (tuqqan), framer (muallif), initiator (tashabbuskor), priest (ruhoni), confessor (tan oluvchi), minister (ruhoni), pastor (rohib), shepherd (rohib), parson (diniy shaxs) [13. R. 549].

Demak, o‘zbek va ingliz tillaridagi “ota” va “father” birliklarining sinonimlari qatorida ijobiy ma‘noli so‘zlar ustunlik qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ingliz tilida old man (qariya, qari kishi), old boy (qariya, qari yigit), priest (ruhoni), minister (ruhoni), pastor (rohib), shepherd (rohib), parson (diniy shaxs) so‘zlari bilan aniqlangan leksik birliklarning qo‘llanilishi ham qiziq. O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar madaniyatning sinonimik qatorlarda otaning yoshiga urg‘u berilmaydi, diniy shaxslar maslagiga e’tibor qilinmaydi. Chunki ota qaysi yoshda bo‘lmasin, qaysi mansabda ishlamasin u o‘sha farzandning otasi, dadasi hisoblanadi. To‘g‘ri, ba’zilar “mo‘ysafid otam”, “qariya otam” kabi so‘zlarni biror kimsalar bilan suxbatlashganda qo‘llaydilar, lekin ular o‘z otalarini “mo‘ysafid” yoki “qariya” deb chaqirmaydilar.

Endi “ota” va “father” konseptlarining etimologik tuzilishiga e’tibor qarataylik. O‘zbek tilshunos olimi Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan etimologik lug‘atda “ota” so‘zining ta’rifi quyidagicha talqin etilgan: “Ota ‘erkak kishi o‘z farzandiga nisbatan’. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma‘noni anglatgan bu so‘z **ata** tarzida talaffuz qilingan [8. I. S. 200; 3. S. 361; 4. I. B. 114; 2. S. 65] , o‘zbek tilida bu so‘z

boshlanishdagi **a** unlisi **â** unlisiga, oxiridagi **a** unlisi **ä** unlisiga almashtirilgan: **ata** > **âtä**” [6. I. B. 259].

“Dada” so‘zi turkiy so‘z bo‘lib, etimologik lug‘atda unga quyidagicha izoh berilgan: Dada ‘ota’ (norasmiy muomilada). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli **dädä** tarzida talaffuz qilingan [3. I. B. 239], so‘zlashuv nutqida bu so‘z hozir ham shunday talaffuz qilinadi. Qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma‘noli bu so‘zning ushbu shakli o‘zbek tilida “ota” ma‘nosini anglatadi [6. I. B. 89]. “Ada” leksemasi esa asosan Toshkent shevasida ishlatilib, so‘zlashuv tilida qo‘llaniladi. “Padar” so‘zi o‘zbek tiliga fors tilidan kirgan bo‘lib, etimologik lug‘atda bu so‘zga shunday izoh berilgan: Padar – bu ot PRSda [5. S. 275] پدر – *pedar* shaklida, STjYada [7. I. S. 5] *padar* shaklida keltirilgan; o‘zbek tiliga tojikcha shakli olinib, “ota” ma‘nosini anglatadi. Bu otga buzrukvor sifatini qo‘shib *padari buzrukvor* birikmasi tuzilgan bo‘lib, “ulug‘ hurmatga loyiq ota” ma‘nosini anglatadi [6. III. B. 179].

Ingliz tilidagi “father” leksemasi qadimgi ingliz tilidagi feeder (bir bolani tug‘ilishiga sababchi bo‘lgan, eng yaqin erkak ajdod) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u o‘z navbatida proto-hind-evropa tillaridagi *pater- (ota) so‘ziga borib taqaladi.

Ehtimol, *pater – chaqaloq nutqidan olingan “ra” bo‘g‘ini va -ter qo‘shimchasining birikmasidir. Qadimgi ingliz davrining oxirlarida bu leksemaga “boshqa odamga g‘amxo‘rlik qilayotgan odam” ma‘nosi qo‘shilgan. Taxminan XVI – asrda, bolalarning “pa” so‘zining takrorlanishi orqali 1680-yillarda fransuz tilining “rara” so‘zidan hosil bo‘lgan “dad” so‘zi paydo bo‘ldi. “Papa” (ota) yuqori jamiyat a‘zolari orasida ishlatilgan va faqat XVIII – asrning oxiriga kelib keng omma orasida tarqalgan. Stepfather (o‘gay ota) so‘zi qadimgi ingliz tilining step- (yo‘qotish) o‘zagi va father (ota) so‘zini qo‘shish orqali kelib chiqqan. Dastlab o‘gay ota leksemasi yetim (ota-onasidan ayrilgan

bola)ni tarbiyalagan otaga nisbatan qo‘llangan. Faqat XX – asrda yetim bilan bog‘liqlik amalda yo‘qoldi. Taxminan XIV –asrda father-in-law so‘zi paydo bo‘ldi. Bu so‘zning semantik kompozitsiyasining ikkinchi qismi “qonun himoyasida” degan ma’noni anglatadi. XIX – asrda -in-law qismi “qondosh bo‘lmagan qarindosh” ma’nosini oldi. Lug‘atlarda stepfather va father-in-law so‘zlari dastlab sinonim sifatida ishlatilganligi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q [14. elek.res.].

Shunday qilib, tahlil natijasida, o‘zbek va ingliz tillaridagi “ota” va “father” birliklarining sinonimlari qatorida ijobiy ma’noli so‘zlar ustunlik qilishi aniqlandi. Shuni ta’kidlash kerakki, ingliz tilida old man (qariya, qari kishi), old boy (qariya, qari yigit) so‘zlari bilan aniqlangan leksik birliklarning qo‘llanilishi o‘zbek tilidan farq qilib, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar madaniyatning sinonimik qatorlarda otaning yoshiga urg‘u berilmaydi, O‘zbek tilidagi asosiy “ota” va “dada” so‘zlari asli turkiy so‘zlar hisoblanadi. Ingliz tilida “father” leksemasining kelib chiqishi umumiy bo‘lishiga qaramay, bu tushunchalar vaqt o‘tishi bilan boshqa tillardan farq qiladigan yangi ma’nolarga ega bo‘lganini ko‘ramiz. Bundan tashqari, “father” ni bildiruvchi so‘zlar va ularning sinonimlari chaqaloq nutqi o‘zagidan olinganligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Касьянова, К. О. О русском национальном характере / К. О. Касьянова. — М., 1994.
2. Древнетюркский словарь. Ленинград. 1969.
3. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Москва-Ленинград. 1951.
4. Махмуд Қашғарий. Девону луғатут турк. III-жилд. Тошкент. 1960.
5. Персидский-русский словарь. Под редак. Ю.А.Рубинчика. 1-том. Москва. 1970.

6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I ва III-жилдлар. Тошкент: Университет. 2000-2009.
7. Словарь таджикского языка. Сост. М.Ш. Шукурова и др. 2-том. Москва. 1969.
8. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. I-том. Москва. 1974.
9. Телия, В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В. Н. Телия. — М. : Шк. «Языки рус. культуры», 1996.
10. Халикова М.К. Изучение особенностей национального менталитета в его взаимосвязи с языковой картиной мира// “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал № 4 (23)/ 2018.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 ва 2 жилд. З.М.Маъруфов таҳрири остида. Москва. “Рус тили” нашриёти. 1981.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 ва 5 жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 3-жилд. 2006-2008.
13. The Oxford Thesaurus. An A-Z Dictionary of Synonyms. Oxford, 2004.
14. Инглиз тилининг этимологик луғати [Электрон ресурс]. — URL: <https://www.etymonline.com/> (мурожаат санаси 10.10.2023).

O‘ZBEK VA INGLIZ DRAMATIK DISKURSIDAGI METAFORALARDA GENDER SEMALARNING XOSLANISHI

Munajat Rasulova,

Oriental universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada diskurs tushunchasi, uning kelib chiqishi, turli sohalarda uni o‘rganishga bo‘lgan turlicha yondashuvlar,

g'arb va sharq olimlarining gender tushunchasini tahlil etish borasidagi xulosalar hamda hozirgi zamon dramatik diskursdagi metaforaning ahamiyati va turlarining bayonotini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: diskurs, feminin, metafora, lingvistik, kontekst, matn, muloqot, she'riy, gender.

Zamonaviy kognitiv lingvistikada metafora va baholash o'rtasidagi yaqin aloqani o'rganishga katta e'tibor beriladi. Metafora voqelikni talqin qilishning kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi va baholash, o'z navbatida, inson kognitiv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilanadi. Tilshunoslarning ko'plab asarlari metafora taxminiy ifodalashning universal mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi. Shaxsning baholash faoliyati butun olamni qamrab oladi: inson dunyoni tanib, tilda har qanday hodisa va predmetlarning mavjudligini aks ettiribgina qolmay, balki ularga munosabatini ifodlaydi. Shunday qilib, dunyoning til modeli tavsiflovchi va baholovchi komponentlarni o'z ichiga oladi. Dunyoni o'z-o'zidan "o'tib" inson baholash faoliyatining markazida bo'ladi.

Baholash obyekt, vaziyat, hodisa, jarayon va hokazolarning ijobiy yoki salbiy ahamiyatini bildiruvchi qiymat tushunchasiga asoslanadi. Bunda muayyan shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat uchunligi inobatga olinadi. Qadriyatlar tizimi me'yor (qadriyatlar) va undan og'ishlar (anti-qadriyatlar) haqidagi g'oyalarni qamrab oladi. Baholash, o'z navbatida, har doim obyektning normaga munosabatini o'rnatish yoki normadan ijobiy yoki salbiy tomonga og'ishdir. Odatda, me'yorlar tilning funksiyalari sifatida baholashdan mustaqil deb hisoblanadi, ammo A.A. Ivin, normalar hisob-kitoblarning alohida ko'rinishidir deb baholaydi[1]. Gendersunoslik sohalaridan birida, feministik tilshunoslikda tilning androsentrikligi muammosi ko'tarildi. Patriarxal stereotiplar tilda

dominant hodisa sifatida isbotlangan, matriarxal stereotiplar esa ikkinchi darajali vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Ideallashtirilgan kognitiv modellar til vositalari tizimida, shu jumladan, konseptual metaforalar tizimida - gender metaforalarida ko'p o'lchovli va bir chiziqli bo'lmagan ifodani topadi, bu gender tilshunosligida nafaqat jismoniy, balki ma'naviy fazilatlarning butun majmuyini uzatishni anglatadi. Ushbu atamani tushunish bilan taqqoslash asosi (metaforik nominatsiyaning sferasi-manbasi), lug'at mualliflari ta'kidlaganidek, haqiqiy erkaklar va ayollarga taalluqlidir, metafora majoziyliigi uni o'ziga nisbatan ishlatishga imkon beradi. Jinsga bevosita bog'liq bo'lmagan har xil turdagi obyektlar (metaforik nominatsiyaning maqsadi), ayollik va erkaklik xususiyatlari taqqoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, metaforaning talqin qilish salohiyati metaforik ma'no strukturasi har bir elementining nisbiy mustaqilligi sharoitida metafora nominatsiyasining uchta asosiy elementining dinamik o'zaro ta'siridan shakllanadi, deb hisoblaymiz. To'g'ridan to'g'ri nominativ va natijaviy, metaforik, ma'nolar ma'no elementlarini bir-biriga nisbatan aktuallashtiradi. Metaforik o'xshatish asoslari (manba sohasi, metafora asosi, dastlabki turtki beruvchi ma'nolar) maqsadli sohaning ma'lum xususiyatlarini yoritib beruvchi o'ziga xos prizma vazifasini bajaradi, ularning ahamiyatini maxsus lingvistik shaklda belgilaydi. Biroq, metaforaning talqin qilish salohiyati metaforik ma'no strukturasi har bir elementining nisbiy mustaqilligi sharoitida metafora nominatsiyasining uchta asosiy elementining dinamik o'zaro ta'siridan shakllanadi, deb hisoblaymiz. To'g'ridan to'g'ri nominativ va natijaviy, metaforik, ma'nolar ma'no elementlarini bir-biriga nisbatan aktuallashtiradi. Metaforik o'xshatish asoslari (manba sohasi, metafora asosi, dastlabki turtki beruvchi ma'nolar) maqsadli sohaning ma'lum xususiyatlarini yoritib beruvchi o'ziga xos prizma vazifasini bajaradi, ularning ahamiyatini maxsus lingvistik shaklda

belgilaydi. Metafora azaldan tilshunos olimlar uchun tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan. Metaforalarni gender jihatdan tadqiq qilish masalasi ham zamonaviy tilshunoslik oldida turgan mavzular sirasiga kiradi. Gender metaforalarini quyidagi mezonlarga javob beradigan metafora sifatida aniqlash mumkin:

1) **diskursiv mezon**- ular nutqda og‘zaki, noverbal yoki multimodal realizatsiyaga ega;

2) **kognitiv mezon** - manbadan maqsadli sohaga prognoz qilingan konseptual xarita(lar) erkaklar yoki ayollarga nisbatan qandaydir kamsitishlarni yaratishi yoki aks ettirishi mumkin;

3) **pragmatik mezon** - ular ko‘pincha yashirincha aytiladigan implikatsion talqinlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillarining gender metaforalarini tahlil qilishda ikki madaniyat olamining qadriyat tasvirining metaforik ma’nolari va farqlanishlari qiyoslanadi. L.G. Yefanova dunyoning me’yoriy manzarasini qiymat manzarasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ajratib ko‘rsatadi. L.G.Yefanovanning ta’kidlashicha, dunyoning me’yoriy manzarasi “turli darajadagi til birliklarining semantikasida aks ettirilgan, ijtimoiy shartlangan va ma’lum bir til vositasida muntazam ravishda ifodalanadigan inson, jamiyat va butun dunyo haqidagi fikrlar tizimidir. Ijtimoiy subyekt tomoni ijobiy baho olishi va unga norozi munosabatni keltirib chiqarmasligi uchun uning atrofida bo‘lishi kerak”[2]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning barcha majoziy metaforik nomlari jinsga bog‘liq va jinsga bog‘liq bo‘lmagan metaforalar guruhiga ajratiladi:

1. Gender xoslanmagan metaforalar. Ushbu tipdagi metaforalar umumiy turga taalluqli bo‘lib, nutqda turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi.

2. Gender xoslangan metaforalar. Metaforizatsiya inson tafakkurining tilsimotlaridan biridir. Metaforizatsiyaning shakllanish va

amal qilish mexanizmida universalialar ham, milliy xususiyliklar ham mavjuddir. Zero, “bir xil narsalarni har xil millat va xalq, odatda, har xil ko‘radi, bir xil tovushni turlicha eshitadi, bir holatni turlicha his qiladi, tuyadi. Xususan, ingliz dramatik diskursida ayrim o‘ziga xos hayvon, o‘simlik nomlari bilan bog‘liq metaforalarni uchratish mumkin.

Ingliz dramatik diskursida hayvonlar, gullar va oziq-ovqatlarning konnotativ ma'nosi:

Asos	Hayvon	Konnotativ ma'no
Animal's appearance	Bunny	Beautiful and lovely girl
	Bat	Ugly woman
	Bird	Beautiful girl
Plant / food appearance	Lilies	A girl who has beautiful appearance
	Rose	Beautiful and lovely girl
	Cherry	A girl who is pure

Metaforik tafakkur boshqa fikrlash usullaridan ustun turadi, chunki u bilish obyektining o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi, shunda yaxlit tushunish mumkin. Biz metaforik obyektlarning xususiyatlariga ko‘proq e'tibor qaratishimiz kerak, chunki metafora obyektlari tafakkur bilan bevosita bog‘liq.

Gender metaforalarda xususi baholashlar quyidagi toifalarga bo‘linadi: 1) hissiy-ta'm yoki gedonistik (yoqimli - yoqimsiz); 2) psixologik, ular a) intellektual (qisqa fikrli, savodsiz) b) hissiy (quvonchli, jo‘shqin, yoqimli); 3) estetik (chiroyli - xunuk,); 4) axloqiy (axloqiy - axloqsiz, yaxshi - yovuz, shafqatsiz); 5) manfaatli(foydali - zararli); 6) me'yoriy (sog‘lom - kasal); 7) teleologik (tegishli - nomaqbul) baholar[3]. Ikki til madaniyatida insonni baholash

stereotiplarini tahlil qilish orqali ijobiy va salbiy baholarni aniqlaydigan metaforik nominatsiyalardan boshlab, biz to‘g‘ridan to‘g‘ri qadriyatlarini aniqlashimiz mumkin.

Xulosa. Metafora ham umumiy, ham alohida baholarni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, umumiy bahoni (yaxshi yoki yomon) ifodalovchi metaforalar guruhi, agar baholash motivi muhim bo‘lmasa, oz sonli birliklar bilan ifodalanadi, masalan, sajda qilish obyekt sifatida baholanib ayolga nisbatan ma'buda, farishta singari suyuqli ayol haqida metaforizatsiya yuzaga kelishi mumkin. Muayyan baholovchi ma'noga ega bo‘lgan metaforalar ularning soni bilan ham, baholash asoslarining xilma-xilligi (ya'ni, me'yorlar, stereotiplar, ideallar) bilan ajralib turadi. Demak, metaforalar guruhida gender tafovutlarga ega xoslangan metaforalar mavjud. Ularni umumiy termin ostida feminin va maskulin metaforalar guruhiga ajratish va tahlil tamoyillarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ивин А.А. Оценки в процессах коммуникации. URL: <http://iphras.ru/uplfile/root/biblio/ps/ps17/14.pdf> (дата обращения: 18.08.2016).

2.Ефанова Л.Г. Субъект нормативной оценки, выражаемой семантикой языковых единиц, как носитель национальной языковой картины мира // Сибирский филологический журнал. 2013. № 1. С. 101–106.

3.Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М. : Языки русской культуры, 1999. 896 с.

4.Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия.– М., 1990.–С. 136-137.

5.Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л.: ЛГУ, 1990. – С.89.

6.Кибрик А.А.Когнитивные исследования по дискурсу // Вопросы языкознания. – 1994. –№5. –С.126-139.

7.Макаров М.Л.Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. –С. 280.

8. Сибирский филологический журнал. 2013. № 1. С. 101–106.
Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М. : Языки русской культуры, 1999. 896 с.

9. Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: филол.фан.д-ри...дисс.автореф. Т.: 2012.;

O‘QUVCHILARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jasur Eshkuvatov,

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining kreativligini oshirish orqali o‘quvchilarda nutqiy savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi haqida atroflicha so‘z boradi. XXI asr ko‘nikmasi bo‘lgan kreativlik tushunchasi bugungi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki kreativlik – bu qolipdan tashqarida fikrlash hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quvchilarda nutqiy savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchining kreativlik potentsiali alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, tahlil, fikrlar va xuloslar orqali ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy savodxonlik, kreativlik, ona tili va dabiyot fani o‘qituvchilarining kreativlik ko‘nikmalari, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari.

Mamlakatimizning kelajagi, istiqboli va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta‘lim sohasida olib borilayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning kreativligi, saviyasi, fidoyiligi, tayyorgarligi hamda yosh avlodga ta‘lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoqlarni samarali natijalarga olib keluvchi ilmiy-nazariy bilimlar bilan birgalikda kreativ faoliyatga undovchi amaliy ko‘nikmalar bilan ham doimiy qurollantirib borish zamon talabidir. Pedagogik ta‘limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning imkoniyatlaridan foydalanishga ustuvorlik berish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta‘limni, jumladan, umumiy o‘rta ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish ta‘lim va tarbiyaning an‘anaviy usullarini ijodkorlikka yo‘naltirilgan usullarga almashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Zamonaviy pedagog kreativ kompetentlikka ega bo‘lishi uchun o‘quv faoliyatiga doir vazifalarni chuqur bilishi, o‘quv manbalari, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, tavsiyanoma, yo‘riqnomalarni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishi, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganishi, ta‘lim jarayoni va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar loyihalarini tayyorlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

O‘quv-uslubiy manbalarda kreativlik inglizcha “create” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaratish” ma‘nosini anglatib, insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi [1]. Uning tag-zamirida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli xil jihatdan yondashuvni anglatadi.

Kreativ pedagogika ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali sinfda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Ijodkorlikni

o‘rganish jarayonida umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quvchilarining intellektual va psixologik rivojlanish tizimlarini shakllantirish muammolari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular shaxsiy-ijodiy fikrlash uslubining tarkibiy qismlarini o‘rganishga qaratilgan.

Kreativlikda ijodning to‘rtta asosiy jihatlari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratiladi: ijodiy mahsulot, ijodiy jarayonni boshqarish, ijodiy shaxs va ijodiy vaziyat. Kreativlik faoliyatini yuqori darajada takomillashtira olgan o‘qituvchi o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi: bajariladigan vazifa mohiyati va faoliyatini belgilay bilishi; masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish; masalani hal qilish rejasini tuzish; masalani hal qilishda samarali metodlar (tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqa) larni qo‘llash; masalani hal qilish usullarini tanlay olish; qabul qilingan qarorlarning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish; masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish) ni olib borish; masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala qanday yechilishi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rejalashtirish [1].

Pedagog kreativlik sifatlariga va yondashuvga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq ularni ifodalashda e‘tiborsizlikka yo‘l qo‘yadilar. Buning sababi ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar o‘quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Hozirda kreativ fikrlash qobiliyati nafaqat o‘quvchilar uchun balki, o‘zini Vataniga daxldor deb hisoblaydigan har bir inson uchun zarurdir.

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini oshirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik”, “kreativ yondashuv” tushunchalarining ma‘nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuyi” [6, 74-b.] sanaladi.

Gardner esa o‘z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim” [7, 110-b.].

Emebaylning yondashuvi nuqtayi nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish”, demakdir [4]. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi” [2, 86-b.].

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Shuningdek, o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Binobarin, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi kreativlik kompetentligiga ega bo‘lsa kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish, nutqiy savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek,

hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Tahlillardan shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Shaxs o‘zida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday samaradorlik va yondashuv asosida namoyon eta olishi mumkin bo‘ladi? Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarda o‘zingizni kreativ emasman, deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir” [2, 4-b.]. Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yoki ijodiy topshiriq yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o‘qituvchilardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, muammo yoki masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish hamda o'zining fikrini og'zaki, yozma shaklda aniq, sermazmun, tushunarli, savodli tarzda ifodalashni o'rgatish eng asosiy vazifalardan biridir. Shu bois ona tili va adabiyot o'quvchilari kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda doimiy ravishda dars mashg'ulotlari yuzasidan zamonaviy o'quv-metodik ijodiy topshiriqlar tayyorlay olishi, mashq va matn tahlillari o'tkaza olishi, didaktik hamda so'z o'yinlari, turli hil interfaol usullarni dars jarayoniga moslashtira olishi va ulardan samarali foydalanishga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Bugungi kunda o'quvchilarda nutqiy savodxonlik ko'nikmlarini shakllantirish muhim hisoblanib, uni rivojlantirishda bir qator omillarning o'рни ahamiyatlidir. Nutqiy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va boyitib borishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nutq turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Og'zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etsa, yozma nutqda esa muayyan masofaning bo'lishi nazarga olinadi. Shunga ko'ra ularning izchilligi, to'liq yoki noto'liqligi ham har xil bo'lishi tabiiy"[8]. Har bir o'quvchida, avvalo, og'zaki nutq rivojlanib borishi mumkin, biroq og'zaki nutqidagi fikrini, qarashini ifodalayotganida o'qituvchi yozma nutq me'yorlariga ham amal qilishi hamda ikkala nutq shaklida, fikrlar bayonining ketma-ketligini, izchilligini nazardan chetda qoldirmasdan tizimli ishlash va bu bo'yicha yondashuvlarni kreativ ravishda tanlashni hisobga olish talab etiladi.

Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda nutqiy savodxonlik ko'nikmlarining rivojlantirilishi, avvalambor, pedagogning kreativlik potensialga egaligiga va yondashuviga bog'liq ekan. Ayniqsa, o'quvchi ijodiy faoliyatining dastlabki sharti va natijasi ham

o'qituvchining kreativ kompetentligi ekanligi o'ta muhim sanaladi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagoglarning ham kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun ularning malakasini uzluksiz oshirib borish talabi qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kreativ o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga yo'naltirish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi kerak. Ayrim paytlarda zamonaviy o'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan bo'shliq - kreativlik sanaladi. Bugungi kunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bu esa har bir o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyish eta olishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matov B.S. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish. ped.fan. PhD. diss.avtoreferti. – Termiz, 2023. – 52 b.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

3. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007. – С. 598–599.
4. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. – 2009. – №12. – С. 29-34.
5. Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи. – Алма-Ата, 1972.
6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с.
7. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. – 300 с.
8. Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи. – Алма-Ата, 1972.

XORIJY TILLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALAR

*Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o‘g‘li,
Oriental universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda chet tillarini o‘rgatuvchi o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va psixologik kompetensiyalardan foydalanish xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik mahorat, pedagogik tashkilotchilik faoliyati, xorijiy til, innovatsion texnologiya, kompetensiya.

Barchamizga yaxshi ma'lumki bugungi davr talabi har bir o'qituvchidan o'quvchilarni o'qitishda o'ziga xos yondashuvdagi ijodkorlikni va zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lmoqlikni taqozo etmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida xalqning boy intellektual merosi va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir, deb alohida ta'kidlanadi.

Bu o'z navbatida xorijiy tillarni o'rgatuvchi fan o'qituvchilari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-1875-sonli qarorini tizimli amalga oshirish maqsadida boshlang'ich sinflarda xorijiy tilni o'quvchilarga o'rgatishdan maqsad ularning shu tilda so'zlash, yozish, tinglab va o'qib tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati, bilim olishga qiziqishi, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlikni uyg'otishga qaratiladi.

Bugungi kunda o'qituvchilarga qo'yiladigan talablardan eng asosiylari bu til o'rgatishda o'quvchining individual qiziqishlaridan kelib chiqqan holda psixologik yondashish, o'quvchilarning unga til o'rganish bo'yicha ko'nikma berishi kerak. O'qituvchi dars maboynida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalar hosil qilish;
- yangi mavzuga oid atamalarni ochiqlab izohlab berish;
- yangi mavzu bilan o'tilgan mavzuni izchillikda yetkazish;
- o'quvchilarning fikr darajasini rivojlantirish;
- ta'limiy o'yinlarning izchilligi, xilma-xilligi va qiziqarli bo'lishiga erishish;

➤ shu mashgʻulot asosida olingan bilimlarni tekshirish, mustahkamlash;

➤ oʻquvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

➤ dars jarayonida oʻquvchilarning ishtirokini kuchaytirish.

Demak shuni taʼkidlash kerakki, kelajagimiz boʻlgan yoshlarning erkin fikrlovchi barkamol yoshlar boʻlishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirishimiz zarur. Jumladan xorijiy tillarni oʻrganish darajalari mazkur maqsadni amalga oshirishda oʻquvchilarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarni oʻrganib, oʻzlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashni toʻsqinlik qiladigan salbiy psixologik jarayonlarni aniqlash va bartaraf etish zarur.

Maʼlumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday taʼlim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishga bogʻliq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan xalqning tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga koʻra, yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan asosiy eʼtibor inson muammosiga qaratilganligi diqqatga sazovor. Bugungi dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada katta eʼtibor berishni talab etmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek, “Tabiiyki, “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zoʻravonlik, individualizm, egosentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak boʻlsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anʼana va qadriyatlari, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi. Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taʼminlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, koʻmakka muhtoj yurtdoshlarimizni qoʻllab- quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini

ro'yobga chiqarish – Prezidentdan boshlab, barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo'lmog'i darkor".

XXI asr psixologiyasi o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z vaqtida o'zini o'zi anglashni vujudga keltiradi. Shu sababli bolada o'zini o'zi anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini o'zi his etish, o'zining intellektual va jismoniy imkoniyatlarni baholashi shunchalik tez namoyon bo'ladi. Xuddi shu asnoda boladagi injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi. Shuning uchun ayrim shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, ziddiyat hamda inqirozni rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatida vujudga keladi. Shu bilan birga inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi – nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsuli natijasida o'z aksini topadi. O'spirinlarda e'tiqod, dunyoqarash, ideal, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni samarali shakllantirish yuqorida ta'kidlab o'tilgan psixologik faktorlarga bog'liq bo'ladi. Ulardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilish, iroda sifatlarini aniqlash va ularga yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish hayotiy strotegiyalar shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya vositasida universitet o'quv jarayoniga o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini loyihalashtirish va joriy etish edi. Malakalarni shakllantirish yondashuvi sohasidagi tadqiqotlar va bu boradagi ko'plab tadqiqotlarimiz va kuzatuvlarimizga asoslanib biz ushbu sohada vakolatlarni shakllantirish uchun beshta o'z-o'zini rivojlantirish modellarining jismoniy tayyorgarligining yaxlit yo'nalishini ajratib ko'rsatamiz.

Sog'liqni saqlashni takomillashtirish va shaxsiyat bilan bog'liq o'z-o'zini rivojlantirish modeli.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning sog‘lomlashtiruvchi va axloqiy modeli.

O‘zini rivojlantirishning sog‘lomlashtiruvchi va ijtimoiy modeli.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning kasbiy va shaxs bilan bog‘liq modeli.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning interaktiv sport modeli.

Barcha modellar o‘zaro bog‘liqdir. Sog‘lomlashtirish va shaxsiyat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘zini rivojlantirish modeli uchun muhim tamoyillar jismoniy tarbiyani uyg‘unlashtirish prinsiplari, psixofizik individual qobiliyatlar tamoyili, moslashish tamoyili, optimizm tamoyili, o‘ziga ishongan holda jismoniy tarbiya tizimiga bo‘lgan ishonch tamoyilidir. Axloqiy o‘z-o‘zini rivojlantirish modelining o‘ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat: o‘z xatti-harakatlari va ushbu shaxs oldida sodir bo‘layotgan har bir narsa uchun shaxsiy javobgarlik, ijtimoiy va axloqiy e‘tiqodlarning barqarorligi, erkin tanlov, axloqiy barqarorlik printsiipi, doimiy o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy qadriyatlarga e‘tibor bering. Ijtimoiy o‘z-o‘zini rivojlantirish modeli uchun muhim tamoyillar quyidagilardir: jamiyatning huquqiy normalariga rioya qilgan holda ijtimoiy faoliyat, tinchlik tamoyili, ijtimoiy me‘yorlar bilan cheklangan erkinlik tamoyillari. Kasbiy va shaxsga bog‘liq o‘z-o‘zini rivojlantirish modeli quyidagi tamoyillar bilan tavsiflanadi: tanlangan kasbda o‘zini namoyon qilish va o‘zini o‘zi tasdiqlashga tayyorlik va ushbu sohada doimiy takomillashtirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish tamoyillari.

Demak, “pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta‘lim maqsadiga erishishini ta‘minlashdan iborat”, deydi o‘zbekistonlik pedagog O‘.K.Tolipov va xorijiy tillarni o‘qitishda muayyan interfaol usullarni tavsiya qiladi. Xorijiy tillarni samarali o‘qitishda turli interfaol usullarni tavsiya etish mumkin. Murakkab mavzularni o‘quvchilar ongiga osongina singdirish uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil metodlaridan foydalanish

maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”, “BBB” (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), “Venn diagrammasi” metodlari shular jumlasidandir. Darslarni mukammal tashkil etish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangidan-yangi usullarni topish, davlat ta’lim standartlari talabalarini bajarishga zamin yaratadi. Bunda o‘qituvchiga dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali vositalar ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida optimal foydalanish, zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbekistonlik olim, professor N.Saidahmedovning ta’kidlashicha, “hozirgi kunda o‘qituvchilar o‘qitish metodikasini ko‘p hollarda texnologiyalardan ajrata olmayaptilar” deb takidlaydi. Metodika o‘tish jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasidan iboratdir, metodikadan ko‘zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko‘chirishdir. Pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonining o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, ularni joriy etish, shartlarni aniqlash, mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni taminlaydi. Pedagogik texnologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” (O‘RQ-683-son 23.09.2020)

2. Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006 y. 200b.

3. Abdurahidov, A. va Yo'ldashev, O' –T.: Pedagogika o'qitish metodikasi 2015 y. 76b.

4. Baxtiyarovna, S. D., & Ilhamovich, A. S. (2022). Uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida shaxsga qo'yiladigan o'quv talablari. Shaxs faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar. *Scientific Impulse*.

5. Годфура Ж. Что такое психология: В 2 т.: Пер. с франц. –М.: 1990 г.

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЮ В ВУЗЕ

*Алимарданова Шахло Ашурмаматовна,
преподаватель УзГУМЯ*

Аннотация. Данная статья посвящена одной из актуальных и востребованных проблем современного образования – применению инновационных технологий в процессе обучения языкознанию в высшем образовательном учреждении. Также рассматриваются некоторые виды электронных образовательных ресурсов.

Ключевые слова: инновационное общество, инновация, информатизация общества, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), электронные образовательные ресурсы (ЭОР).

В национальной экономике Республики Узбекистан на протяжении многих лет успешно осуществляется реализация высокоперспективных проектов по внедрению современных информационно-коммуникационных технологий в различные сферы жизни общества.

На совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса РУз Ш.М. Мирзиёев отметил: «В современных

условиях приоритетное значение приобретают вопросы широкого внедрения передовых информационно-коммуникационных технологий. В соответствии с утвержденной Национальной программой необходимо обеспечить дальнейшее развитие телекоммуникационных технологий, сетей инфраструктуры связи, создать надежные комплексы информационных систем и базы данных «электронного правительства» [1].

Позднее (9 октября 2020 года) Президент Шавкат Мирзиёев подписал постановление «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с IT-индустрией» [2].

В настоящее время становление современного инновационного общества приводит к коренным изменениям во всех сферах жизни и деятельности человека. Инновации подразумевают внедрение чего-то нового, в частности внедрение новых технологий в образовательный процесс. Одним из видов инноваций является информатизация общества в целом и процесса обучения в частности. В сознании людей все больше утверждается мысль, что будущий потенциал общества будут составлять информация и научные знания. В недалеком будущем реально защищенным в социальном плане может быть только широкообразованный человек, способный гибко перестраивать направление и содержание своей деятельности в связи со сменой технологий или требований рынка.

В наши дни владение информационными технологиями ставится в один ряд с такими качествами, как умение читать и писать. Сегодня специалист с высшим образованием должен свободно ориентироваться в мировом информационном

пространстве, иметь необходимые знания и навыки поиска, обработки и хранения информации.

Конец XX и начало XXI века войдут в историю как время вхождения человечества в эпоху информационного общества. Информационное общество – общество, уровень которого в решающей степени определяется количеством и качеством накопленной и используемой информации, ее свободой и доступностью [3].

Характерной чертой периода информатизации общества является тот факт, что доминирующим видом деятельности во всех областях общественного производства, становится сбор, продуцирование, обработка, хранение, передача и использование информации, осуществляемые на базе современных информационных технологий.

Информация все больше наполняет жизнь современного человека, постепенно вступающего в информационную цивилизацию, где производится и потребляется интеллект, знания, что обязательно приводит к увеличению доли умственного труда. От человека требуется способность к творчеству, возрастает спрос на знания. Уменьшается доля физического труда и сокращается объем рутинного умственного труда. Отличительной особенностью информационного общества XXI века, по мнению специалистов, будет ориентация на использование знаний и сетевых технологий.

В информационном обществе складываются новые формы массовой коммуникации, социального общения, стиль мышления и образа жизни, новые парадигмы экономики, политики, управления, к чему необходимо готовиться. На это и должна быть направлена сфера образования и воспитания.

Основной задачей профессионального образования является реализация такой модели подготовки квалифицированного

специалиста, которая в будущем позволит ему успешно конкурировать на рынке труда, эффективно реализовывать свои профессиональные навыки по полученной специальности с высокой творческой способностью [4;7-13].

Использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) открывает новые возможности в преподавании своего предмета, развивает познавательный интерес к предмету, позволяет повысить эффективность обучения, интеллектуальный уровень обучаемых, привить навыки самообразования, самоорганизации и облегчить решение практических задач.

Как отмечает Г.Д. Бухарова, «внедрение ИКТ в образование обеспечивает усвоение большого объема знаний, ускоряет их передачу, а также накопленного технологического и социального опыта человечества не только от поколения к поколению, но и от одного человека другому» [5].

Сегодня на занятиях по языкознанию возможно применение новейших SMART-технологий (вебинаров, блогов, твиттеров, видео- и аудиоподкастов, в асинхронном и онлайн режимах), которые позволяют сделать занятия интересными, моделируя учебные ситуации, дополняя традиционное обучение.

Когда преподаватель во время занятий применяет информационные технологии, его роль несколько меняется, он становится координатором и организатором учебного процесса, плавно направляя процесс обучения в нужном русле.

На занятиях по языкознанию можно использовать такие современные модели обучения, как **flipped classroom** («перевернутый класс»), **blended learning** («смешанное обучение»), которые также немыслимы без использования информационных технологий. Например, при изучении темы «*История направлений и школ языкознания*» студенты готовятся дома самостоятельно,

читают материал, отправленный преподавателем, находят дополнительную информацию, готовят презентации, проекты, затем на семинаре выступают, обсуждают непонятные вопросы или делятся своими мнениями.

В связи с использованием Интернета в процессе обучения сегодня широко применяется широкий спектр электронных образовательных ресурсов (ЭОР).

Платформа LearningApps (<https://learningapps.org>) нашла свое место в педагогическом арсенале инструментов для создания интерактивных упражнений. Сервис мультязычный, с поддержкой русского языка.

Kahoot (<https://kahoot.com/>) – весьма популярный сервис для создания онлайн-викторин, тестов и опросов, который может эффективно использоваться в дидактических целях. Учащиеся могут отвечать на предложенные тесты с планшетов, ноутбуков, смартфонов, то есть с любого устройства, имеющего доступ к интернету.

Online Test Pad – многофункциональный сервис для проведения тестирования и обучения (<https://onlinetestpad.com/>). Это совершенно бесплатный универсальный конструктор, который доступен на английском, русском, украинском, белорусском и азербайджанском языках. Чтобы начать пользоваться им, достаточно зарегистрироваться и можно приступать к созданию учебной задачи для обучающихся.

Отметим, что электронные образовательные ресурсы можно использовать «для проверки домашнего задания, объяснения нового материала, закрепления темы, контроля за усвоением изученного, обобщения и систематизации учебного материала» [6; 160].

